

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO'QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O'ZBEK TILI KAFEDRASI**

FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

*(Professor Odiljon Bozorov tavalludining
75 yilligiga bag'ishlanadi)*

QO'QON, 2023-yil

Tahrir hay'ati:

Xodjayeve D. Sh. (f.f.n.,dotsent), Bozorov O.O. (f.f.n.,dotsent), Jo'rayev N.S. (dotsent), Mo'minov S.M. (professor), Mengliyev B.R. (professor), Sobirov A.Sh. (professor), Shahobiddinova Sh.Yu. (professor), Nabiyeve D.A. (professor), Iskandarova Sh.M. (professor), Uluqov N. (professor), O'rayeva D.S. (professor), Qobilova Z.B. (professor), Jamoliddinova D.M. (professor), Mirzayeve S.R. (professor), Kamayeve R.B. (professor, Rossiya), Namatov M.A. (professor, Qirg'iziston), Asaluddin Bawer (professor, Afg'oniston), Kadir Atlansoy (professor, Turkiya), Xasanov A. (dotsent), Yigitaliyev U. (dotsent), Rahmatullayeve D.Sh. (dotsent), Toshxo'jayeve Sh. (dotsent).

Mas'ul muharrirlar:

I.S.Madrahimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Sh.T.Akramov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Taqrizchilar:

A.Mamajonov, filologiya fanlari doktori, professor;
M.K.Hakimov, filologiya fanlari doktori;
U.E.Rahimov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

FILOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI: (*Professor Odiljon Bozorov tavalludining 75 yilligiga bag'ishlanadi*): maqolalar to'plami; Qo'qon, 2023. – 560 bet.

Ushbu to'plamda filologiya masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, magistrantlar hamda iqtidorli talabalarning o'zbek, ingliz, rus, turk filologiyasi hamda metodikasi masalalariga bag'ishlangan ilmiy-uslubiy maqolalari jamlangan.

"Filologiyaning dolzarb masalalari" ilmiy maqolalar to'plami filologiya fanlari doktori, professor, zukko tilshunos olim Odiljon Bozorovning yorqin xotirasiga bag'ishlangan bo'lib, tilshunos, adabiyotshunoslar, filologiya ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, shuningdek, magistrantlar va shu sohaga qiziquvchilarga mo'ljallangan.



SO'ZBOSHI O'RNIDA

*D.Sh.Xodjayeva,
Qo'qon DPI rektori,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

ODIL OLIM DOIM BARHAYOT

O'zbek tilshunosligining emas, o'zbek filologiyasining eng yaxshi bilimdoni, o'zining ilmiy va insoniy fazilatlarini bilan nafaqat institutimizda, balki Respublikamizning tilshunos, adabiyotshunos olimi tadqiqotchilariga ham yaxshi tanish bo'lgan filologiya fanlari doktori, professor Odiljon aka Bozorov bugun hayot bo'lganlarida 75 yoshga to'lgan bo'lar edilar. U kishi 1948-yilning 20-mayida Farg'ona viloyati Uchko'priq tumanida dunyoga keldilar. Ota-onadan erta ayrilgach, oila boshchisi sifatida yaqinlarining turmush sharoitining yaxshi bo'lishi uchun tinmay mehnat qilganlar. Olib borilgan mehnatlari samarasi va o'zidagi ilmiy ishga bo'lgan qiziqishi hamda ilm yo'lidagi chin fidoiyligi u kishini Qo'qon davlat pedagogika institutiga boshladi. 1966-70-yillarda Qo'qon davlat pedagogika institutida tahsil oldi. Shu institutda ishga olib qolindi va dastlab o'zbek tilshunosligi kafedrasining katta laboranti (1970) sifatida faoliyatini boshlab, undan keyin o'qituvchi (1978), aspirant, katta o'qituvchi (1980), dotsent (1985), kafedra mudiri, doktorant, fan doktori, professor vazifasini bajaruvchi (1998) sifatida ijod yo'lini bosib o'tdi. Ilmiy ishga bo'lgan kuchli intilish u kishini sobiq SSSR FA Tilshunoslik institutining turkiy va mo'g'ul tillari sektori aspiranturasida tahsil olishga boshladi. 1983-yilda "O'zbek tilida yuklamalar" ("Частицы в узбекском языке", Москва) mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Unda jahon tilshunosligida urf bo'lib ketgan yuklamalarni an'anaviy morfologiyaning qo'shimcha ma'no tamoyili asosida baholashdan voz kechish lozimligi, bu yordamchi birliklarni til-nutq dixotomiyasi va nutqiy funksional qiymat mezoni asosida tavsiflashga o'tish g'oyasini ilgari surdi.

Odiljon Bozorov 1992-1994-yillarda o'zbek tilshunosligi kafedrasining katta ilmiy xodimi lavozimida faoliyat ko'rsatdi. 1997-yilda Buxoro tilshunoslik maktabi asoschilaridan bo'lgan H.G'Ne'matov ilmiy maslahatchiligida "O'zbek tilida darajalanish" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini ham himoya qildi. U o'zining ushbu dissertatsiyasi va "Til qonunlarini o'rganish metodologiyasi va o'zbek tilida darajalanish qonuni" asari (2012) orqali tilshunoslikda kam e'tibor berilgan lisoniy qonunlar muammosi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, tilda miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishini aks ettiruvchi darajalanish (graduonimiya) qonuni borligini isbotlashga harakat qildi. Mazkur masala tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, morfologiya va sintaksis bo'limlariga tatbiq etilgan holda aniq hayotiy misollar asosida atroflicha izohlab berildi.

1992-yilda Odiljon Bozorov va Hamid G'ulomovich Ne'matov hamkorligida "Til va nutq" asari e'lon qilindi. Unda hozirgi tilshunoslikda empirik tadqiqotlardan ratsional tadqiqotlarga o'tish, ilmiy ishlarni mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik kabi kategoriyalar metodologiyasi asosida olib borish g'oyalari ilgari surildi.



Odiljon Bozorov o'z ilmiy faoliyatida nazariy tilshunoslikni rivojlantirish, an'anaviy tilshunoslikning kamchilik va yetishmovchiliklarini bartaraf etishga harakat qiladi. Uning "Yordamchi so'zlar tasnifida ko'makchilarga o'rin bormi?" maqolasida (2013) jahon tilshunosligida urf bo'lib qolgan yordamchi so'zlarni ko'makchi, bog'lovchi, yuklamalarga ajratish nazariyasiga e'tiroz bildirib, har qanday tilda yordamchilarning faqat bog'lovchi va yuklamalarigina mavjudligi, ajratilayotgan ko'makchi, predloglarning aslida so'z birikmasi bog'lovchilari ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Olimning "Gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmaydigan birliklari aslida qanday sintaktik birliklar" asarida (2017) jahon tilshunosligida aksioma bo'lib qolgan undalma, kirish so'z, kiritma, ajratilgan bo'laklarning aslida sodda gapdagi grammatik aloqaga kirishmaydigan birliklar emas, balki ixcham gaplar ekanligi, bu birliklar ishtirok etgan konstruksiyalar an'anaviy sintaksisda ko'rsatilganidek murakkablashgan sodda gap emas, balki qo'shma gaplarning maxsus, ixcham turi ekanligini isbotlashga uringanligida ko'rish mumkin.

Yuzlab maqolalar muallifi bo'lgan Odiljon Bozorovning "Dialektika hozirgi o'zbek tilshunosligining metodologiyasi sifatida" (2002), "Til tadqiqotlari uchun mantiq metodologiyasi" (2006), "Til o'rganishda falsafiy qonunlar metodologiyasi" (2008), "Hozirgi fonologiyada aynanlik talqinining ahamiyati" (2006), "An'anaviy va sistemaviy tilshunoslikning o'zaro munosabati" (2014), "Tilni tadqiq etish: antroposentrizm va lingvosentrizm" (2018) kabi asarlarida hozirgi o'zbek tilshunosligi uchun xizmat qiluvchi metodologiyalar haqida fikr yuritiladi.

2021-yilda nashr etilgan "Tilshunoslikning falsafiy metodologiyasi" monografiyasi tilshunoslar, izlanuvchi-tadqiqotchilar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan yana bir muhim manba sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Odiljon Bozorov oliy ta'lim va maktab darsliklarini formal mantiq metodologiyasi tamoyillari yetakchiligidan ozod qilish, ular endi falsafa, dialektik mantiq ta'limotlari asosida yaratilishi haqidagi qarashlarni ilgari surdi va u o'zining oliy ta'limdagi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari davomida talabalar ongiga yetkazish borasida samarali ishlarni amalga oshirdi.

O.Bozorov institutda ishlar ekan, butun ilmiy salohiyatini o'zbek tili grammatik qurilishi, tilshunoslikning falsafiy metodologik xususiyatlarini ochishga, ularni talabalar ongiga yetkazishga harakt qildi. Institut ilmiy salohiyatini yuksaltirish, tilshunoslik bo'yicha professor I.Rasulov boshlab bergan tilshunoslik maktabini qaytadan yo'lga qo'yish, yangi zamonaviy tilshunoslikning zabardast mutaxassislarini tayyorlash va ular orqali Qo'qon tilshunoslik maktabini yaratish borasida ham samarali ishlar olib bordi. U kishining sa'y-harakatlari bilan salkam 90 yillik o'z tarixiga ega bo'lgan institutda birinchi bor 10.00.01- O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha aspirantura tashkil qilindi va aspirantura ish faoliyati natijasida aspiranturaning ilk qaldirg'ochlaridan M.Hakimova o'zining "O'zbek tilida payt ma'noli so'zlar va ularning matn hosil qilish imkoniyatlari" nomzodlik dissertasiyasi Odiljon Bozorovning ilmiy rahbarligida himoya qilindi. Bir qancha magistrlik va bitiruv malakaviy ishlari bajarildi. O'sha davr aspiranturasi vakillaridan Sofiyaxon Usmonova esa 2022-yilda "Qo'qon shahri toponimiyasining nomlanish asoslari va lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga tasdiqlangan dissertasiyasini olimning bevosita ilmiy



rahbarligida himoya qildi va hozirgi kunda o'zbek tili kafedrasi institutning eng yuqori salohiyatga ega kafedralaridan biri sanaladi.

Odiljon Bozorov O'zR XTV o'quv-metodik kengashi, O'zR FA Tilshunoslik instituti, Farg'ona davlat universiteti va Qo'qon davlat pedagogika institutlari qoshida tashkil etilgan Oliy Attestasiya Komissiyasining dissertasiyalar himoyasi bo'yicha tasdiqlangan ilmiy kengashlari a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatgan. U kishi ko'plab doktorlik va nomzodlik dissertasiyalariga rasmiy opponetlik qilgan.

O.Bozorov shogirdparvar olimlardan edi. U kishiga aspiranturadagi faoliyati davomida kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatli shogirdlar bilan kafedra, institut salohiyatini yuksaltirishda o'zining sobiq SSSR FA Tilshunoslik instituti (Moskva) aspiranturasida, shuningdek, Buxoro tilshunoslik maktabi asoschilaridan bo'lgan filologiya fanlari doktori, professor H.G.Ne'matovlardan olgan saboqlari, ulardan o'rgangan tajriba va malakalari ayniqsa qo'l keldi. Olimning sohadagi mavqelarini belgilashda u kishining shaxsiy fazilatlari juda katta va muhim rol o'ynadi. Olimlik iqtidori, kashf etuvchilik xususiyatlari ustiga qurilgan chin insoniy fazilatlari, oilaparvarligi, kim bo'lishidan qati nazar, kattami-kichikmi, ishchimi-xizmatchimi, boymi-kambag'almi hammaga nisbatan xuddi o'ziga yaqin Inson sifatidagi samimiy munosabati, qo'lidan kelganicha yordam berishi, o'zgalarning fikrini hurmat bilan eshitishi, o'ziga xos bag'rikenglik bilan fikr berishi, diltortar suhbatlar tashkil eta olishdek qobiliyat egasi ekanligi barcha olimlarga-da nasib etavermaydi. Bu borada ba'zan yaxshi ulfat, yaxshi suhbatdosh, yaxshi maslahatgo'y va ayni paytda talabchan rahbar ekanliklarini ko'p kasbdoshlari ham ta'kidlaydilar.

Darhaqiqat, Ustozning farzandlari bo'lgan Oybek Odilovich filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Maftunaxon Raximova filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Otabek Bozorov tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent. Bugungi kunda ular ota-onalari yo'lidan borib, oliy dargohda talabalarga ilm sirlarini o'rgatish, zamon talablari darajasidagi yangi avlod kadrlarini tayyorlashdek mas'uliyatli ishlarini davom ettirmoqdalar.

Inson umrini oqar daryoga qiyoslashadi. Qo'qon davlat pedagogika institutida qanchadan qancha pir-u ustozlar ishlab, ijod qilib o'tdilar. Ularning har birlari o'ziga xos olam. Ular qatorida bizning Ustoz Odiljon Bozorov ham o'zgacha olam edilar. U kishining o'z qarashlari, o'z nuqtai nazarlari va o'ziga xos ish uslublari, kelgusi rejalari bor edi. Olloh umrni hammaga ham birdek bermas ekan. Kimgadir uzoq, kimgadir qisqa. U kishining yaxshi ishlari, ezgulikka undash-u intilishlari, farzandlariga berilgan yaxshi tarbiya va ilmiy-ijodiy meroslari ularning umri uzoq bo'lishiga xizmat qilarkan. Ustoz Odiljon Bozorov ham jisman hozir oramizda bo'lmasalar-da, ular qalblarimizda mangu barhayot.

Filologiya fanlari doktori O.Bozorov xotirasiga bag'ishlangan Xalqaro miqyosdagi anjuman ishiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman.



I. TILSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK NAZARIYASI MUAMMOLARI

*Sobirov Abdulhay Shukurovich,
filologiya fanlari doktori, professor,
Andijon davlat universiteti*

“QORA QUTI” SIRLARIDAN BOXABAR BO’LGAN FAYLASUF TILSHUNOS

Annotatsiya. Maqolada taniqli O.Bozorovning o’zbek tilshunosligiga qo’shgan hissasi, uning lisoniy darajalanish bo’yicha olib borgan tadqiqotlari tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: til, tilshunoslik, darajalanish, fonetik darajalanish, leksik darajalanish, sintaktik darajalanish, “qora quti”.

Abstract. The article analyzes the contribution of the famous O. Bozorov to Uzbek linguistics, his research on linguistic classification.

Key words: language, linguistics, gradation, phonetic gradation, lexical gradation, syntactic gradation, “black box”.

Amerikalik olim U.Uitni: “Til bir turdagi qismlarning oddiy bir agregati emas. U bir-biri bilan chambarchas holda bog’lanib ketgan, biri ikkinchisini to’ldirib keluvchi elementlarning kompleks sistemasidir. Bu sistema yaxlit bo’lib, simmetrik strukturaga ega. Tilning bu xususiyati olamdagi ma’lumotlarni tashqarida va o’z ichida qamray biladigan, so’ngra muloqot jarayonida ularning har biridan o’z o’rnida unumli foydalana oladigan ongning amaliy faoliyatiga borib taqaladi”, – deb aytgan edi [1].

Uning ushbu fikrlari mazmunini kimlarki chuqur anglab yetgan bo’lsa, ular o’tgan asrning 80-90 yillaridan boshlab o’zbek tilshunosligida tub burilishlarning sodir bo’lishiga o’zlarining munosib hissalarini qo’shdilar va o’zbek tilshunosligini yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqdilar. Bu borada A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Ne’matov, SH.Rahmatullaev, R.Rasulov kabi olimlarning faoliyati tahsinga sazovar. Ular ichida filologiya fanlari doktori, professor Odiljon Bozorovning alohida o’rni bor.

Xalqimiz orasida: “Olim bo’lish oson, lekin odam bo’lish qiyin”, – degan ajoyib naql yuradi. Ayrim kimsalar olimlik rutbasidan boylik, mansab orttirish maqsadida foydalanadilar, o’z ilmlarini bu yo’lda vosita qiladilar, lekin O.Bozorov uchun bu holat tamomila zid edi. Faqat qadim Qo’qon xalqigagina xos bo’lgan teran tafakkur, katta bilim, yuksak muomala madaniyati bilan u ko’pchilikning ishonchini qozongan edi. O.Bozorov chin ma’nodagi inson edi. U ilm sohasida yuqori darajalarga erishsa ham, kamtarligini, samimiyatini, xalqparvarligini va millatparvarligini biror soniya bo’lsa-da, unutmadi, bir umr odamiylik, muallimlik maqomida sobit turdi. Aynan mana shu xislat Odiljon Bozorovni elga tanitdi.



O.Bozorovdagi eng katta fazilatlaridan birini uning o'zbek tilshunosligidagi uchta katta maktab asoschilari: professor N.Mahmudov (Toshkent maktabi), professor A.Nurmonov (Andijon maktabi), professor H.Ne'matov(Buxoro maktabi) bilan samimiylik asosidagi do'stona munosabatlari tashkil etadi, desak adashmaymiz. U umr bo'yi yagona o'zbek tilshunosligi degan qutlug' nom uchun kurashib o'tdi va biron marta ham boshqa tilshunoslar sha'niga g'ayri gap qilgani yo'q.

Olib borgan tadqiqotlari tahsinga sazovar. Biz bu o'rinda uning "O'zbek tilida darajalanish" nomli doktorlik ishi haqida gapirmoqchimiz. Mazkur tadqiqot o'zining ko'lami, ilmiy saviyasi bilan tilshunosligimizda yangi sahifalarni ochib berdi. Ishda o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib, darajalanish muammosining falsafiy asoslari haqida so'z yuritildi, muammo dialektika qonuniyatlari, mantiq ilmi asosida chuqur yoritib berildi.

Muhimi, Odiljon Bozorovga o'xshagan mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan o'zbek tilshunosligiga G'arb va rus tilshunosligining ilg'or g'oyalari kirib keldi. O'zbek tilshunosligi o'zining an'anaviy o'zanidan yangi sistem-struktur taraqqiyot bosqichiga ko'tarildi. Bu bizga til hodisasini butun ko'lami, ichki qonuniyatlari, qismlari va ular o'rtasidagi munosabatlari bilan birgalikda tushunish imkonini berdi. Yangi davr olimlarning tadqiqotlari tufayli tildagi elementlarning biri ikkinchisiga, ikkalasi o'zaro birikib turib uchinchisiga va shu tariqa barcha elementlar bir-biriga uzviy bog'lanib turib sistemasining yaxlitligini, bust-butunligini ta'minlashi qonuniyatlari yuzaga chiqdi. Buning natijasida O.Bozorov yuqoridagi dissertatsiyada tayanch nuqta sifatida belgilagan uchinchi oraliq hodisalar – tilshunoslik bilan boshqa fanlar kesishgan nuqtalarda paydo bo'lgan psixolingvistika, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi, areal lingvistika, menta lingvistika, ekolingvistika kabi son-sanoqsiz yo'nalishlar paydo bo'ldi.

"Materiyaning uzluksiz harakati, miqdor o'zgarishlarining bir turidan ikkinchisiga oraliq holatlar orqali tadrijiy o'zgarib borishining o'zi borliqning darajalanish zaminida shakllanganini ko'rsatadi", – deb yozadi O.Bozorov [2].

O.Bozorov o'z qarashlarida formal logika, oddiy mantiqning ayniyat, uchinchisi istisno, ziddiyat va ziddiyatsizlik, binar oppozitsiya, dialektik mantiqning uchinchisi shart, oraliq uchinchi kabi tushunchalarga ta'rif berdi, ularning til ilmidagi o'rnini asoslashga harakat qildi. Bular o'sha davrda o'zbek tilshunosligi uchun o'ziga xos yangiliklar edi.

Yuqoridagi dissertatsiyada bunday o'rinlar istagshancha topiladi.

O.Bozorov yozadi: ***"Dialektikadagi narsalarning tadrijiylik oqimida shakllanishi haqidagi ta'limot bilvosita til birliklari uchun ham alaoqadordir. So'zlarning mazmun tomoniga ham, moddiy tomoni hisoblanuvchi tovush qobig'iga ham tadrijiy o'zgarish, rivojlanish, o'zgarishlar xos, shu asosda yangi shakllanmalarining, ya'ni leksema turlarining vujudga kelishi tabiiy bir holdir"***.

Bu kabi fikrlar teran tafakkur egasi bo'lgan, narsa-hodisalarning tub mazmunida nima yotganini anglab yetgan faylasuf tilshunosning fikr-mulohazalaridir.

Darhaqiqat, tilning barqarorligi, yashovchanligi undagi elementlarning oz yoki ko'pligiga, sifatiga emas, balki elementlar o'rtasidagi munosabatlarning qay darajada tashkil topishiga, shakllanishiga har jihatdan bog'liq. Bu munosabatlar qanchalik rang-barang, mukammal va barqaror bo'lsa, til ham shunchalik boy, ifoda imkoniyatlari keng, ko'lami katta bo'ladi, buni hamma ham tushunavermaydi...



Ma'lumki, hayotda "qora quti" degan tushuncha bor. Uni ko'rib turganimiz bilan to ochilmaguncha, uning ichida nima borligini bilmaymiz, lekin yuksak darajadagi aql-idrok, teran tafakkur, ilohiy his-tuyg'u bilan "qora quti" sirlaridan boxabar bo'lish mumkin. O.Bozorov mana shu maqomga yetgan yetuk tilshunoslardan biri edi. U til ilmining boshqalarga ma'lum bo'lmagan sir-sinoatlarini bizga ochib berishga urindi va ma'lum ma'noda buning uddasidan chiqdi ham. Olimning lisoniy darajalanish haqidagi fikr-mulohazalari buning yorqin dalilidir.

O.Bozorovning o'zbek tilshunosligi oldidagi beminnat xizmati shundaki, u darajalanishning barcha til sathlarida namoyon bo'lish qonuniyatlarini ochib berdi.

Bunda munosabat masalasiga alohida ahamiyat qaratdi. Munosabat deganda bir butunlikning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar va bog'lanishlarni tushundi. Bunday aloqalar turli-tuman bo'lishini, til birliklarining shakli, ma'nosi yoki bajarayotgan vazifasiga qarab turib ular o'rtasidagi munosabatlar va aloqalarning bir qancha turlarga bo'linishini, o'zaro o'xshashlik va farqlilik bunday munosabatlarning asosiy ko'rinishlari ekanligini asoslab bera oldi.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda so'zlararo munosabatlar ko'lami omonim, sinonim, antonim va paronimlar bilan chegaralar edi. Sistem-struktur tilshunoslik leksik birliklar o'rtasidagi ko'plab yangi ma'no munosabatlarini kashf etdi. Graduonimik (darajalanish), ierarxonimik (pog'onalik), funksional (vazifadoshlik) munosabatlari ham ular qatoridan munosib o'rin oladi. O.Bozorov bular ichidan darajalanish (graduonimiya) hodisasini ajratib oldi va uning ustida keng ko'lamda tadqiqot o'tkazdi, pirovard natijada salmoqla natijalarga erishdi. Lekin, bu ish osonlikcha bo'lgani yo'q.

Olim dunyo va rus tilshunosligida graduonimiya (darajalanish) hodisasi bo'yicha ish olib borgan J.Lokk, E.Sepir, D.Bolinjer, Yu.D.Apresyan, Yu.S.Stepanov, L.N.Tolstoy, I.V.Chervenkova, T.N.Grigorenko, turkologiyada, jumladan o'zbek tilshunosligida, bu masala bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan S.G'iyosov, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, M.Narzieva, M.Fayzullaev, Sh.Orifjonova [3] va boshqalarning ishlarini puxta o'rganib chiqdi, ular tomonidan aytilgan fikr-mulohazalarga munosabatlar bildirdi va o'zining "O'zbek tilida darajalanish" mavzusidagi doktorlik ishi bilan graduonimiya (darajalanish)ni yangi sifat bosqichiga ko'tardi.

O.Bozorov tomonidan ilgari surilgan g'oyaning "qaymoq"laridan birini uning fonologik sistemadagi darajalanish bo'yicha bildirgan fikr-mulohazalari tashkil etadi. Takidlanishicha, fonologiyada farqlilik tadqiqotlaridan ayniyat talqinlariga o'tila boshlandi. Bu esa unli va undoshlardagi darajalanish, fonemalar tizmidagi uzluksizlik, fonemalar ijtimoiy qiymatidagi darajalanish, prosodikadagi darajalanish qonuniyatlari ochib berishga yo'l ochdi. Fonemalarning fonologik sistemadagi o'rni, mavqei faqat dialektik darajalanish natijasida namoyon bo'lishi ko'rsatib berildi. Nutq tovushlari bilan til tovushlari o'rtasidagi farqlilik aslandi.

Unda leksema va frazemalarning denotativ va konnotativ ma'nolaridagi darajalanish, lug'aviy darajalanishning umumiy belgilari, uning boshqa semantik hodisalarga munosabati keng ochib berilgan.

Lug'aviy graduonimiya semantikasi asosida materiyaning bir turdan ikkinchi turga, shuningdek, muayyan tur ichidagi bir nisbiy holatdan ikkinchisiga uzluksiz ravishda o'tib turishi hodisasi O.Bozorov tomonidan ishonarli tarzda bayon etilgan.

E'tiborli jihatlaridan biri denotativ ma'nolardagi darajalanishning



1. Predmet yoki predmetlikni ifodalovchi leksemalar (otlar) o'rtasidagi darajalanish: *sahar – tong – choshgoh – tush – kun og'ish – kun botish – shom – tun* kabi. uning o'z 10 ga yaqin turlarga bo'lingan.

2. Belgi-holat anglatuvchi leksemalar (sifatlar) o'rtasidagi darajalanish: *iliq – issiq – qaynoq*. Bu qatorning ham bir qancha turlari qayd etilgan.

3. Sanaluvchi miqdorni anglatuvchi leksemalar (sonalar) o'rtasidagi darajalanish: *bir – ikki – uch*.

4. Harakat-holat anglatuvchi leksemalar (fe'llar) o'rtasidagi darajalanish: *yurmoq – chopmoq – yugurmoq – yelmoq – uchmoq*. 5 xil ko'rinishga egaligi ko'rsatilgan.

5. Ishora qiluvchi-ko'rsatuvchi leksemalar (olmoshlar) o'rtasidagi darajalanish: *men – sen – u*.

6. Harakat belgilarini ifodalovchi leksemalar (ravishlar)dagi darajalanish: *kecha – bugun – ertaga*.

Shu tarzda taqlidiy leksemalar, undovlar, modal leksemalar, sintaktik birliklar o'rtasidagi darajalanish qonuniyalari ochib berilgan.

Ular asosida aytish mumkinki, borliqdagi narsa va hodisalar uzluksiz xatti-harakatda bo'ladi. Ular tashqi va ichki kuchlar ta'sirida muttasil ravishda o'z shakl-shamoyilini o'zgartirib turadi. Natijada olam qonuniyatlari asosida bitta maydonda bir narsaning turli-tuman shakllari paydo bo'ladi. Aynan mana shu narsa avval real borliqda so'ngra tilda narsalarning bir-biriga nisbatan gradual(darajalanish) holatida turishini ta'minlaydi.

Shunga asosan aytish mumkinki, lug'aviy darajalanish ostida olam dialektikasining oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga qarab rivojlanib borish qonuniyatlari yotadi. Buni birnchilardan bo'lib sezgan, his qilgan va targ'ib etgan zotlardan biri O.Bozorov edi.

Umuman olganda, lug'aviy darajalanish hodisasi tilimiz uchun yangilik sanaladi. Uni semantik maydon nuqtai nazaridan tadqiq etish bizga juda ko'p qiziqarli ma'lumotlar berishi mumkin.

Ustozning oxirati obod bo'lsin. U yoqqan ilm chirog'i uzoq yillar mobaynida farzandlariga, shogirdlariga, tilsevarlarga, mutaxassislarga mayoq vazifasini o'tab tursin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бу ҳақда қаранг: Слюсарева Н.А. Соссюр и соссюриантво // Философские основы зарубежных направлений в языкознании. – М.: Наука, 1977. – Б. 85.

2. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: Филол. фанлари докт. ... дис. автореф. –Тошкент, 1997.

3. Гиясов С.Т. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983; Бегматов Э., Неъматов Х., Расулов Р. Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари) // Ўзбек тили ва адабиёти журнали. – 1989. – № 6. – Б. 35-40; Сафарова Р. Гипонимия в узбекском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент. 1987; Нарзиева М. Семантическая структура имен существительных возрастной характеристики лица в узбекском



языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент. 1992; Файзуллаев М. Сравнительно-типологические особенности лексико-семантических групп глаголов психического состояния в русском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент. 1994; Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол.фанлари номз...дис.автореф. – Тошкент, 1996.

*Yormatov Isomiddin Turg'unovich, filologiya fanlari
doktori, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti O'zbek adabiyotshunosligi
kafedrasining professori.*

HOZIRGI O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA POETIK OLAM KATEGORIYASINING NAZARIY TAVSIFI

Annotations: In this article, in a scientific-critical aspect, the emergence and the essence of the literary concept poetic world in the global and national context. The essence of literary traditions, its revealed secrets of its vitality and types are revealed, transformations to the literature of later times.

Keywords: poetic world, literary mode, topos, literary mutual influence, literary discourse, artistic development, motive, plot, image, novel thinking.

Аннотация: В данной статье в научно-критическом аспекте преследуется суть литературоведческого понятия “поэтический мир” в национальном и общемировом контексте. В ней систематизируются и обобщаются различные подходы к понятию “поэтический мир”; определяются инвариантный смысл его границ, объема и содержания; в результате теоретического анализа обозначается структурная модель поэтического мира.

Ключевые слова: поэтический (художественный) мир, литературный тоpos, литературный модус, художественный дискурс, мотив, сюжет, образ.

Zamonasining buyuk ijodkorlari yaratgan badiiy asar syujeti va kompozitsiyasida, shuningdek, modusi va diskursida real voqelikka u qadar mos kelmaydigan ideal badiiy olam shakllantirilishi haqidagi nazariy qarashlarning paydo bo'lish tarixi antik va Uyg'onish davri mutafakkirlarining asarlariga borib taqaladi. Chunonchi, Arastu asar muallifining xayolidagi badiiy olam mavjud voqelikdan nima uchun farqlanishi masalasiga izoh berar ekan, “chunki u tasvir vositasida harakatni gavdalantira olgani uchun ham shoirdir. Hatto unga haqiqatan bo'lib o'tgan voqeani tasvirlashga to'g'ri kelganda ham u ozmi-ko'pmi shoir bo'lib qoladi. Chunki haqiqatan bo'lib o'tgan voqealardan ayrimlarining ehtimollik va imkoniyat tufayli qanday sodir bo'la oladigan bo'lsa, o'shanday sodir bo'lishiga hech narsa xalaqit etmaydi. Bu jihatdan shoir ularning ijodkoridir»¹,-deb yozadi. Uning shogirdi Al Farobiyning fikriga ko'ra esa, “...Inson bir narsani boshqa biror narsada bor, deb tasavvur qiladi. Buning natijasida u narsalarning borligini his va isbot tasdiqlagandagina uning o'sha narsada borligiga ishonib, o'shanday qilish mumkin. Hatto bu ishda uning borligi yolg'on bo'lib, faqat xayol qilingan taqdirda ham, bu harakat — fe'lni amalga oshiradi. Chunonchi, odamlar aytishadi-ku, agar kishi



biror narsaga nazar solsa, u narsa uning xush ko'rmaydigan narsasiga o'xshagan bo'lsa, u holda uning tasavvurida o'sha zahotiyoyq bu narsaga nisbatan xush ko'rmaslik hissi paydo bo'ladi. Bunda u bir narsada biror boshqa narsa timsolini ko'z oldiga keltiradi. Bu esa, o'z navbatida, u narsani o'sha kishi ilgari o'z ko'zi bilan ko'rgan bo'lishi va shuning uchun ham u narsaning timsoli uning ko'z oldiga kelgan bo'lishi mumkin."².

Ma'lumki, poetik olam badiiy ijodning muhim qirrasini belgilab beruvchi kategoriya sanaladi. Biroq uning nazariy ta'rifi sho'ro davrida yaratilgan adabiyotshunoslikka doir lug'at va tadqiqotlar³ hamda andijonlik va xorazmlik olimlar mustaqillik yillarida e'lon qilishgan lug'atlarda⁴ ham aks etmagan. Professor H.U.Boltaboyev tuzgan "Adabiyot ensiklopediyasi"ning birinchi jildida badiiy asarda zuhr etiluvchi poetik olam masalasiga taalluqli quyidagicha nazariy fikrlar bayon etilgan: "Badiiy adabiyot ilmiy tushuncha va g'oyalarni obrazli ifodalash bilangina cheklanmaydi, u yangitdan haet yaratadi, dunè modelining obrazli shakllarini tavsiya qiladi va bu bilan dunè, uning asrorini o'rganishda fanga yordam beradi. Eynshteyn suhbatlaridan birida shogirdlariga: "sen tabiat qonuniyatlarini yaxshi bilasan, lekin daholik mohiyatini anglamaysan" degan. Adabiyot badiiy va ilmiy tafakkur sohiblaridagi ana shu daholik mohiyatini anglashga erdam beradi. Chunki adabiy daholikning kishilik tarixidagi o'rni ilmiy daholikdan kam emas. Aksincha, ilmiy daho qudrati bilan yaratilgan kashfiètlar mohiyatini tushunishda badiiy adabiyot ustuvorlik qiladi"⁵.

Anglashiladiki, o'zbek adabiyotshunosligida poetik olam tushunchasiga doir fikrlarni nazariy jihatdan umumlashtirish va tizimlashtirish, uning mazmun-mohiyatidagi invariant ma'no talqinlariga aniqlik kiritish va istilohiy chegarasini belgilash, shu asnodan badiiy olamning nazariy- struktural modelini shakllantirish masalasi hali ochiq qolgan turibdi. Bunday kechikishning sababi, bizningcha, badiiy adabiyotga san'atning emas, ijtimoiy ongning bir turi sifatidagi, shuningdek, muallifning ijtimoiy mansubiyati bilan aloqador vulgar-sosiologik yondashuv oqavalarining ta'siri bilan izohlanadi. Ya'ni sho'ro mafkurasi san'atning voqelikka estetik munosabati hamda badiiy asar voqealarini ularning hayotiy analogi bilan qiyosan tahlil qilishdek muhim masalaga poetikaning noaktual jabhasi deb qarab keldi.

G'arb adabiyotshunosligida poetik olam kategoriyasi belgilarini nazariy jihatdan oydinlashtirish say'i harakati V. fon Gumboldt faoliyati bilan bog'liq. U jumladan, poetik olamning konstant sajiyasini resipiyentning badiiy-estetik tafakkur darajasiga bog'laydi⁶. G.V.F. Hegel ham shunday qarashni ma'qullaydi⁷.

70- yillarning so'ngida D. Lixachev e'lon qilgan "Badiiy asarning ichki dunyosi" ("Vnutrenniy mir xudojestvennogo proizvedeniya") maqolasi diskurs nazariyasi va poetik olam kategoriyasini anglash yo'lidagi dadil qadam bo'ldi⁸. Shundan so'ng badiiy asarga, unda bilvosita aks etgan ichki poetik dunyoga san'at mevasi sifatidagi yondashuv S. Bocharov, M. Girshman, V. Fedorov, O. Fedotov, F. Fedorov, A. Jolkovskiy, Yu. Ilyeglov, O. Kling, M. Gasparov, Yu. Apresyan, S. Pavlov, M. Baxtin, M. Girshman, Yu. Lotman, S. Shatalov, M. Gasparov, F. Fedorov, R.D. Tamarchenko, V. Xalizev tadqiqotlaridan o'rin oldi (ular tadqiqotlarining ro'yxatini keltirish ushbu kichik maqola hajmini kengaytirib yuborgan bo'lur edi - I. Yo. Ammo o'rganilayotgan muammoga bevosita aloqador bo'lgan N. Chertkova maqolasi nomini tilga olmaslik noxolislik sanalishi mumkin⁹).

Ularning poetik olam nazariy qirralarini belgilashga qaratilgan tadqiqotlari mohiyatan sof adabiyotshunoslik va lingvopoetik o'ramdagi ikki xil izlanishlarga ajraladi. Biroq



har ikkisida poetik olamning struktural qismlari ustuvor (dominant) o'rin tutadi. Shundan kelib chiqib, yakdillik bilan ta'kidlanadiki, poetik olam – dunyoning ijodkor ongida shakllangan kartinasi. U “tashqi qobiq”, ya'ni nutq tizimi bilan o'ralgan estetik ahamiyatli matndagi universal munosabatlar tizimidan iborat “ichki ko'rinish”. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asar poetik olamning qobig'i, uning mazmunida aks etadigan yoki determinial implisit yo'sinida anglanadigan obektiv borliq hodisalari va ruhiy kechinmalar esa ichki mohiyatni belgilaydi. Bu o'rinda poetik olam tushunchasi bilan adabiy-badiiy tizim tushunchalaridagi definisiyaga urg'u bermoq lozim. Chunki ulardan birinchisi mazmunning bo'liqligi, badiiy mantiqqa asoslanishi va uzviyligini ifodalasa, ikkinchisi murakkab va ko'pqatlamli badiiy ifoda tizimi, inchunun, badiiy o'zlashtirilgan va qayta o'zgartirilgan reallik orqali bo'y ko'rsatadi. M.Baxtin poetik olamning ichki kechimidagi xronotopning o'rniga katta e'tiborni qaratgan edi.

Sho'ro adabiyotshunosligi terminologiyasida bir adabiy hodisani bir necha nom bilan yuritish deyarli odat tusiga kirgan edi. Xususan, “poetik olam” istilohi ilmiy manbalar va darsliklard “tekst, badiiy matn, estetik tekst, kontekst, intertekst, badiiy olam, badiiy butunlik, intension predmet, virtual reallik, olam kartinasi, dunyo modeli, badiiy reallik” va boshqa xil sinonimik qator bilan yuritilgan. Endi bu xilma xillikka chek qo'yish vaqti keldi.

Xulosa qilib aytganda, dunyo va o'zbek adabiyotshunosligida eskirgan stereotiplar va primitiv qoidalardan voz kechilib, badiiy so'zni san'at o'lchamlari bilan baholanayotgan bugungi kunda qaysi adabiy tur yoki janr nounasi bo'lmasin, undagi poetik olam mohiyatiga kirib borish va uni ob'yektiv talqin qilish ehtiyoji yangi fundamental tadqiqotlar uchun yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Арасту. Поэтика (Нафис санъатлар ҳақида). Ахлоқи кабир (Катта ахлоқ ҳақида). Риторика (Хитоба). Тошкент. «Янги аср авлоди». 2011. – Б.33.
2. Фаробий Абу Наср. Шеър санъати. Арабчадан таржима, изоҳ ва мукаддималар муаллифи А. Ирисов.—Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. —Б.18-19.
3. Ҳомидий Ҳ., Абдуллаева Ш., Иброҳимова С. Адабиётшунослик терминлари луғати. Т.: Ўқитувчи, 1967; Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Т.: Ўқитувчи, 1979, 1983. ; Адабиёт назарияси. Икки томлик. Биринчи том. Адабий асар. –Т.: Фан, 1978; Адабиёт назарияси. Икки томлик. Иккинчи том. Адабий асар. –Т.: Фан, 1979. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Qayta ishlangan va to'ldirilgan uchinchi nashri. –Т.: O'qituvchi, 2005; Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2004; Саримсоқов Б.И. Бадийлик асослари ва мезонлари. –Т.: 2004;
4. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Т.: Академнашр, 2010; Салаев Ф., Қурбонниёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. Т.: Янги аср авлоди, 2010.
5. Болтабоев Ҳ. Адабиёт энциклопедияси. (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Т.: MUMTOZ SO'Z, 2014. – Б.207.
6. Гумбольдт В. Эстетические опыты. Первая часть. «О Германе и Доротее»



- Гете/Гумбольдт В. Язык и философия культуры. // М.: Прогресс, 1985. – С.160.
7. Гегель Г.В.Ф. Поэтическое и прозаическое произведение искусства / Гегель Г.В.Ф.// Эстетика: В 4 т. – М. «Искусство», 1971. – Т.3. – С.362.
8. Лихачев Д.С. Внутренний мир художественного произведения / Лихачев Д.С.// Вопросы литературы. – 1968. – №8. – С.74-87.
9. Черткова Н. “В уме своем я создал мир иной”: Поэтический мир как литературоведческая проблема. //»Південний архів» (Збірник наукових праць. Філологічні науки). «Pivdenniy Arkhiv» (Collected papers on Philology). УДК 26.161.1/82-1.

*Mirzayeva Salima Raimjonovna.
Andijon state university, Doctor of Phylology and Professor
Abdullayeva Xurshida Ne'matjonovna
Andijon state university, first year doctorant.*

THE SPECIAL FEATURES OF MAGIC FAIRY TALES

Annotatsiya . Ushbu maqolada epik janrga mansub bo'lgan sehrli ertaklarning o'ziga xos hususiyatlari, belgi va ifodalash vositalari keng yoritib beriladi. Maqolada keltirilgan nazariy hamda amaliy asoslar yordamida epik asarlarni asosan ertaklarning syujet hamda motivlari tahlil qilinganda uning qaysi turga mansub ekanligini aniqlashda oziga hos uslub va ko'makchi vositasida qo'llaniladi.

Kalit sozlar: zoomorfik, mitologik, o'zgarish, antropomorfik, mifologik tushunchalar, sehrgarning sehrli kuchi, sirli tabiat, sirli ko'rinish.

Аннотация. В данной статье дается подробное описание характеристик, символов и средств изображения магических сказок, относящихся к эпическому жанру. Теоретические и практические основы статьи используются для анализа эпических произведений в основном при анализе сюжета и мотивов сказок.

Ключевые слова. Зооморфные, мифологические, трансформационные, антропоморфные, мифологические концепции, магические силы волшебников, мистическая природа, таинственное появление.

Annotation. This article gives a detailed description of the characteristics, symbols and means of representation of magical tales belonging to the epic genre. Theoretical and practical foundations of the article are used to analyze the epic works mainly when analyzing the plot and motives of the fairy tales.

Key words. Zoomorphic, mythological ,transformation, anthropomorphic, mythological conceptions, wizard magical powers, mystical nature, mysterious appearance.

One of the most important characteristics of Uzbek folk magic tales is that they are composed of mythological characters, magic objects, and transformation. Mythological characters, magic objects, mythological figures, magical transformation



directly related to language form the main part of literature as one of the poetic means of shaping the plot structure of fairy tales. A series of epic motifs involving mythological characters, magic objects, evolutionary events, creates a story, sets actions related to the adventures of the characters in the magic tales, and, with an emphasis on mystery of the event they could assist the plot's connection and development. It also plays a role in revealing the characters, especially the epic image of the hero or character who stands at the center of the story.

It is known that the supernatural features of the Uzbek magic tales is observed in the following examples:

1. By the help of magic objects. In Uzbek folktales, the open tablecloth, the boiling pot, the whip cudgel, the flying carpet, the magic mirror, the magic lamp, the magic comb, the stone etc. are some of the most amazing objects that evoke language.

2. By the help of mythological characters like a giant, a witch, a dragon. The origin of the characters in Uzbek folk tales is directly linked to ancient mythological conceptions. These types of characters come in a fairy tale literary structure with roles such as the hero's supporting hero, his antagonist hero.

3. By the help of consuming goods. One of the most commonly used herbal remedies in fairy tales is the life-giving magic water, the water of life, the magic apple that keeps the childless queen alive after eating it, or the magic apple that gives life to the dead, gold watermelon seeds and so on.

4. The supernatures are depicted as living organisms. This type of magic fairy tale is epic in several forms:

1. *As an anthropomorphic form* (an interpretation of what is not human or personal in terms of human or personal characteristics: humanization..) human form.

Examples of such characters are wizard old men or old woman, Hizr (the wizard), (the witch, bad old woman) the boy with the golden hair, The girl that flowers drop if she laughs, the girl that pears drop if she cries and many others can be examples as well. They attract readers' attention by their magical powers, their mystical nature, their mysterious appearance, their extraordinary birth, growth, mysterious sides.

Each of these extraordinary characters is interpreted in a unique artistic form and function. In particular, the maston is one of the most common traditional characters in old-fashioned fairy tales, and is characterized by its ability to evolve and transform fairy characters into any shape and form, additionally she is also the wizard who can perform thousands of magic. Furthermore, in the fairy tales "The head without body, the body without head" The Maston swallows the dragon and take from her mouth alive one.

The image of Hizr is usually introduced and characterized in fairy tales as a white-bearded man with a white-bearded cloak. In Uzbek folklore, F. Nurmonov conducted a special scientific study on the characteristics and genesis of this field. M. Afzalov, K. Imomov, M. Jorayev, Sh. Shomusarov give forward their valuable ideas too.

In the fairy tales "Fast runner" (Shunqor) "the white beard filled his chest, and the bright glow of light turned him into a red giant.

In some tales, the Poorman (Darvish-qalandar), an elderly man who can transform a person into a different person with a prayer, is appeared in a similar dress and function as Hizr is, guiding the hero and disappearing at the sight.



2. *In the form of zoomorphic*, the supernatural creatures that are depicted as animals and birds. The symbolism of supernatural animals and birds in zoomorphic form is divided into two types, imaginative and real. For example, flying horse, nightingale (bulbuligo'yo), Semurg, golden fish, deer with golden hoof are also imaginative symbols. There's a lot of imaginary symbols, like the zebra, the eel, the goldfish. That's why they're only found in legends, myths, fairy tales, fantasy, romantic tales, etc.

In the epic works the swallow, crow, the nightingale, the storks are mostly described and other birds, which are often depicted in epic works, are characterized by having a real life. Because even though these birds exist in the imagination, they are sometimes depicted as magical birds in fairy tales. For instance, swallow in the fairy tale "Faerie" (Oypari) and pigeons in the fairy tale "Xotam" could talk with people as people do and old bad woman transfer into crow¹. In the fairy tales "Whip cudgel" (Ur To'qmoq) and "Golden Watermelon" (Oltin taruz) the stork, In the fairy tale "The covetous rich" ("Ochko'z boy") duck gives the magic tools to the heroes of the fairies.

In magic-fantasy tales, water horses, blue sheep, red giant's son², wolves which can transfer and white horses that live in the water, a white horse with wings that can fly in the sky, swim in the water, and run, and other wild animals are written. According to Uzbek folktales, the hero often achieves the great goal with the help of these zoomorphic helpers.

(v) in the form of a herbs. The mystery flower, the flower of life, the healer herb, the healer tree leaves, the evergreen flower are some of the most amazing plants.

5. ***By the help of magic places and destinations.*** According to the epic tradition formed in Uzbek folklore, the "Magical Land" is interpreted as a magical-fantasy place where the hero is directed. For example, in the fairy tales dedicated to the adventures of the three brothers, the three paths that the heroes went ahead are called the "May return if it is gone", "May not return if it is not gone", ("Bors kelar ,borsa kelmas") is a magical place. Uzbek folktales include landscapes such as the Garden of Eram, the castle of the dead, Qo'hi Qof and so on.

6. By the help of magic words. In Uzbek folktales, epic motifs are also common, based on the belief in the magical power of words. For example, motives such as cracking a stone by saying a magic word, or repeating a line of code to open a horse's mouth can be suitable example for this mind.

References:

1. M. Afzalov. O'zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent: Fan, 1964-520b.
2. Aliyeva A.I. Поэтика и стиль волшебных сказок адыгский народов. - М. Наука 1986.
3. Samo Tulpori. O'zbek xalq fantastikasi 5. Toshkent; Yosh gvardiya, 1987. - B.41.
4. Guliqahqah. O'zbek xalq fantastikasi 5. Toshkent; Yosh gvardiya, 1988. - B.73-76.
5. G'Jalolov. O'zbek xalq ertaklari poetikasi. 1975.

1 Guliqahqah. O'zbek xalq fantastikasi 5. Toshkent; Yosh gvardiya, 1988. - B.73-76.

2 Guliqahqah. O'zbek xalq fantastikasi 5. Toshkent; Yosh gvardiya, 1988. - B.73-76.



Zebo Qobilova,
Qo'qon DPI, filologiya fanlari doktori, professor

AMIRIY VASFIDA

Qo'qon adabiy muhitining asoschisi va yetakchisi Amiriy Mavlono Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Muhammad Fuzuliy, Soib Tabriziy, Mirzo Bedil kabi Sharq mumtoz so'z san'atining zabardast namoyandalari maktabida tahsil olib, mahoratini kamolga yetkazgan va o'zidan keyingi shoirlar uchun chin ma'nodagi ijodiy rahnamoga aylangan o'ziga xos va betakror iste'dod sohibidir. Ayniqsa, turkiy va forsiy she'riyatning Navoiy va Bedil kabi muazzam siymolari darajasida qalam tebratgani – ularning mashhur g'azallariga badiiy barkamol taxmislar bog'lagani uning ikki tilda ham mahorat bilan ijod qilish salohiyatiga ega zullisonayn san'atkor ekanligidan shahodat beradi.

Sharq mumtoz she'riyatining ulkan so'z ustalari ta'sirida balog'at ilmi va fasohat sirlarini egallagan Amiriyning o'zi ham san'atkorona hassos g'azallari bilan nafaqat Qo'qon adabiy muhiti, balki Xiva adabiy muhitida yashab ijod qilgan shoirlarga, umuman o'zidan keyingi o'zbek qalam ahliga kuchli ta'sir ko'rsatgani ma'lum. Bu ta'sir izlarini biz Nodira, Uvaysiy, Fazliy, Ado, Maxmur, Gulxaniy, Hoziq, Ravnaq kabi o'z davri shoirlaridan tortib to Ogahiy, Komil, Tabibiy, Bayoniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Avaz, Niyoziy, Hamza kabi hassos shoirlar ijodida ko'rishimiz mumkin.

Amiriyning ma'naviy homiyligi, she'riyati saviyasining balandligi, xalqchilligi va ommaviyligi, shuningdek, o'z davri adabiy muhiti vakillarini milliy va estetik ruhga ilhomlantira olganligi qalam ahlini o'z homiylari va ustozlari asarlarini har tomonlama keng va chuqur mutolaa qilib, undan mahorat sirlarini o'rganib, g'azallariga tatabbular qilishga, taxmislar bog'lashga sabab bo'lgan. Amiriy ta'sirida baytu g'azallar ijod etganlar. Xususan, davr shoirlari orasida Amiriy g'azallariga tatabbular qilish ijodiy musobaqa darajasiga ko'tarilgan. Bu tatabbularda shoirlar Amiriy g'azalidagi fikrlarni davom ettirib, yangi qirralarini ochishga, timsolu tashbehlar silsilasini yangidan-yangi badiiy kashfiyotlari bilan boyitishga intilganlar. Fazliy Namangoniy o'zi tuzgan "Majmuai shoiron" tazkirasini Qo'qon adabiy muhiti shoirlarining ana shunday tatabbulari asosida tuzgani ma'lum.

Tazkira muqaddimasida Fazliy Ado, Oshiq, Vazir, Nola, Ma'yus, Mujrim, Ramziy, Afsus, Miriy, Ravnaq, Akmal, G'oziy, Fazliy, Maknun, Dabir, Mushrif, Xotif, Xijlat, Nusrat, Gulshaniy, Nodir, Foyiz, Koshifiy, Rosuxiy, Piskat, Taslim, Qalandar, Mahviy, Ziyoxoja, Qunduziy, Maxfiy, Muhtasib, Mir, Muzmar, Bahjat, Jadid, Hijrat, Kasrat, Umid, Qodirqul, Abdul Javod, Hoziq, Sayfullah, Mirzoyi Xotam, Foni, Nuzhat, Munshiy, Uzlatiy, Jur'at, Ma'dan, Rif'at, Mujmal, Rais, Fayziy, Maxmur, Mug'anniy, Manzur, Shahrisabziy, Mirzo Latif, Ziynat, Mahzun, Dabir, Xislat, Foni, Muznib, Turobiy, Koshif, Mir Vays, Mahzuna. Gulxaniy, Do'iy, Kiromiy kabi bir necha o'nlab Qo'qon adabiy muhiti peshqadam shoirlari haqida muxtasar ma'lumot berib o'tadi³. Bir necha bayt atrofidagi bu ma'lumotlarda shoirning kimligi, taxallusi, qayerdanligi, she'riyatdagi maqomi va saroyga qanchalik yaqinligi xususida to'xtaladi.

3 Majmuai shoiron. Nashrga tayyorlovchi M.Xasaniy. – T.: Fan, 2018. –B. 20-53. (Keyingi yrinlarda majmuadan misol olinganida sahifasi kavs ichida beriladi)



Ma'lumki, "Majmuai shoiron" ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi zamon shoirlarining Umarxonga bag'ishlangan qasidalarini o'z ichiga oladi. Ikkinchi qismida esa Amiriy g'azallariga zamondoshlarining tatabbu va muxammaslari keltiriladi. Chunonchi, "ko'ring" radifli g'azaliga 15 ta, "ey to'ti" radifli g'azaliga esa 22 ta tatabbu qilingan⁴. Bunda avval shohning muayyan bir g'azali keltirilib, keyin unga tatabbu yozgan shoir haqida bir necha bayt hajmidagi ma'lumot va ta'rif, so'ng uning tatabbusi berib ketilaveradi. Jumladan, dastlab Amiriyning "Ey niholi sarvi qad, v-ey gulbuni bog'i vafo" misrasi bilan boshlanadigan g'azali, keyin "Masnaviy" nomi ostida Ado haqida ma'lumot, shundan so'ng esa uning tatabbusi keltiriladi.

MASNAVIY

*Shubu bir g'azal ham Adodindur,
O'shal bulbuli xush navodindur.
Qilib ushbu bahri alifg'a shino,
Dedi bu g'azal payravi podsho.
Mazomanin elga namoyon etib,
Iborotining sof uryon etib (64).*

G'azali Ado

*Kelding, ey qosid, bo'lub sen hudhudi shahri Sabo,
Marhabo, ey payki farruxfol oshiq, marhabo! (64)*

Bu yerda talmeh san'ati vositasida Sabo shahri hukmdori go'zal malika Bilqisdan Sulaymon alayhissalomga Hudhud – popishakning xabar olib kelishi voqeasiga ishora qilinmoqda.

Adoning ko'p tanqidiy fikrlar va bahsu munozaralarga sabab bo'lgan mashhur bayti ana shu tatabbuning maqtasi bo'lib keladi:

*Gar Navoiyidin Ado so'zini o'tkarsa ne tong,
Shah Umar afzalmu yo Sulton Husayni Boyqaro? (65)*

Bunday baytlarni aslida faxriya san'atining mubolag'ali namunasi sifatida baholash kerak.

Boshqa bir tatabbusida esa u mana bunday ko'tarinki misralar tuzadi:

*Gar Umar sultonni nasru nazmin eshitsa Ado,
Nasri Somoniy deyoymas Bu Ali Sinosidin. (232)*

Bu yerda talmeh san'ati vositasida Buxorodagi somoniylar sulolasi hukmdori Ismoil Somoniy va tabobat ilmining bobokaloni Abu Ali ibn Sinoga ishora qilinmoqda. Ayni hol Adoning Buxoro tarixi va bu yurtning mashhur farzandlarini yaxshi bilishidan dalolat beradi. Chunki Ibn Sino nomi o'zbek she'riyatida juda oz tilga olingan.

Shundan so'ng ana shunday o'ziga xos kirishlar bilan Vazir, Hotif, Xijlat, Mushrif, Fazliy, Behjat, G'oziy, Muzmar kabi shoirlarning tatabbulari keltiriladi. Bu tatabbularning maqta'lari, asosan, Umarxon ta'rifiga bag'ishlangan. Jumladan, Fazliy Umar sulton ilmining oldida Aflotunning aqli hayron, shunday bo'lgach, Fazliy unga izdoshlik qila oladimi deb mubolag'a qiladi:

4 Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги (Тўлдирилган ва тузатилган иккинчи наشري). – Т.: Ўзбекистон, 2014, – Б. 226.



*Qila olg'oymu Fazliy bu g'azalda shahg'a payravlig',
Falotun aqli hayrondur Umar sulton uluminda (254).*

Xijlat esa shoh she'riga ehtiyot bo'lib payravlik qilki, uning so'z bobida ta'bi nozikdir deydi:

*Taammul birla Xijlat payrav o'lg'il shoh baytig'a,
Xabarsiz o'lmaq'ilkim, shahriyori xurdadondur bu (238).*

Ado Umarxonning so'z ilmida alloma ekanligiga urg'u beradi:
*Ado, sen har g'azal etmakda manzuri nazar ayla,
Amir ul-muslimin allomadur bu fan uluminda (245)*

Hotif nazmda Amiriy yo'lini tutganligi, chunki shoirlardan birortasi unga teng kelolmasligini aytadi:

*Nazm atvorinda dutdum shah Umar tab'iytin,
Kim, emas hamto anga nozik adolardin biri (289).*

Ba'zi baytlarda esa Umarxonning jahongirliqi, odilligi, ma'rifatparvarligi va boshqalar vasf etiladi. Chunonchi, Fazliy Qaysaru Iskandaru Fag'furu Xoqonlardan birortasi adolatda Umarxonga teng kelolmaganini ta'rif etadi:

*Adl oyin etmadi Fazliy Umar sulton kabi,
Qaysaru Iskandaru Fag'furu Xoqondin biri (287).*

Ma'yus hatto Chin xoqoni ham Umarxon eshigidagi gadolardan biri deb bu ta'rifni yanada avj pardaga ko'taradi:

*Hazrati Sulton Umar dargohida xoqoni Chin,
O'zni song'oy zor yastong'on gadolardin biri (284).*

Такого рода организацию антропологи называют в более широком смысле сегментарной системой родословных. Вождь племени в этой системе является не более чем посредником между племенем и внешним миром или во внутренних спорах. У него нет реальной политической власти. Для историков степей, а также для турецких племен в Анатолии сегментарная система родословных кажется явно неприменимой в качестве модели.⁴⁷ Внутренняя азиатская модель племенной организации была гораздо более иерархичной, чем у эгалитарных организаций. Это различие отражалось как в его социальной структуре, так и в политической организации.⁴⁸

Они были организованы в соответствии с канонической системой, в которой существовал высший сегмент, вождь которого превосходил всех соплеменников. Следовательно, существовала центральная иерархическая организация, которая обеспечивала значительную политическую и военную мощь племени наряду с влиятельным положением вождя.

Барфилд отмечает: В отличие от Ближнего Востока, где племенные сообщества, которые были распределены мозаично по региону, имели тесные экономические и культурные связи с соседними оседлыми государствами, во Внутренней Азии племенные сообщества были более изолированными, населяя свои собственные отдельные территории, на которых они жили полностью

44 Suavi Aydın and Oktay Özel, "Power Relations between State and Tribe in Ottoman Eastern Anatolia", *Bulgarian Historical Review*, vol. 3-4, 2006, 51-67

45 Charles Lindholm, "Kinship Structure and Political Authority: The Middle East and Central Asia", *Journal of Comparative History and Society*, 28, 1986, 334-355.

46 Barfield, "Tribe and State Relations: The Inner Asian Perspective", p. 161.

47 Lindner, "What was a Nomadic Tribe?", p. 694.

48 Sayrafi, *Inbā'*, p. 362.



доминировали и были отделены линейными границами от соседей, чьи общества и культуры были чужды.

Эти оседлые соседи были намного больше по населению и более централизованы, чем их племенные соседи, часто отказываясь торговать с ними, кроме как под угрозой применения силы. Чтобы иметь дело с этими могущественными оседлыми государствами, племенные общества должны были организовать свои собственные государственные структуры, обладающие достаточной властью, чтобы заставить своих соседей относиться к ним как равным.⁴⁹

Лapid использует термин «военное вождь» для такого рода племен. По его словам, «среди турецких народов Внутренней Азии, которые приняли иерархическое правление и признали династическое правление, наиболее распространенной формой лидерства было военное вождь, поддерживаемое родом, кланом или комитатисом - группой воинов, которые, в свою очередь, завоевали преданность других. такие воинские отряды и тем самым доминировали над подчиненным населением».⁵⁰

Как ясно заявили Барфилд и Лapidус, тюрко-монгольская племенная традиция Внутренней Азии имела внутреннюю способность строить государство всякий раз, когда появлялись подходящие условия. Это можно было бы назвать квазигосударственной организацией. В этом исследовании я буду использовать тюрко-монгольскую племенную модель, или, по словам Лapidа, «военное вождь».

Литература

Labib, *Handelsgeschichte*, pp. 70–121, 327–36, 390–401. 3

Maqrīzī, *Sulūk*, I, p. 282. 5

Ibn Shaddād, *Tārīkh al-Malik al-Zāhir*; Ṣayrafī, *Inbāʾ*, p. 363.

Maqrīzī, *Sulūk*, I, p. 586. 7

Maqrīzī, *Sulūk*, II, p. 533. 8

Labib, *Handelsgeschichte*, pp. 105–7.

Lane-Poole, pp. 269–72.

Coulon, 'Western Trade'. 11

Meloy, 'Imperial Strategy'. 12

Labib, *Handelsgeschichte*, p. 399–401.

Ibid., p. 90; Khazrajī, I, pp. 185, 235. 14

Labib, *Handelsgeschichte*, pp. 93–4, 397–9. 15

Ṣayrafī, *Inbāʾ*, p. 362.

Xavier de Planhol, "Geography, Politics and Nomadism in Anatolia", *International Social Sciences Journal*, XI, 4, 525–31.

Bates, Daniel and Plog, Fred, *Cultural Anthropology*, New York: McGraw-Hill, 1990, p. 156.

Thomas J. Barfield, "Tribe and State Relations: The Inner Asian Perspective", in Philip S. Khoury and Joseph Kostiner, eds., *Tribes and State Formation in the Middle East*, Berkeley, Los Angeles, Oxford: University of California Press, 1990, p. 156.

49 Barfield, p. 166.

50 Lapidus, "Tribes and State Formation in Islamic History", p. 29.



Suavi Aydın and Oktay Özel, "Power Relations between State and Tribe in Ottoman Eastern Anatolia", *Bulgarian Historical Review*, vol. 3-4, 2006, 51-67.

Charles Lindholm, "Kinship Structure and Political Authority: The Middle East and Central Asia", *Journal of Comparative History and Society*, 28, 1986, 334-355.

Barfield, "Tribe and State Relations: The Inner Asian Perspective", p. 161.

Lindner, "What was a Nomadic Tribe?", p. 694.

Lapidus, "Tribes and State Formation in Islamic History", p. 29.

*Saidov Yoqub Siddiqovich,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori*

JAHON TILSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIDA NAVOIYNING O'RNI

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-adabiy faoliyatida til masalasining mavqei belgilangan, til ilmiga doir «Muhokamatul-lug'atayn» asarining dunyo va o'zbek tilshunosligi taraqqiyotidagi o'rni aniqlangan hamda ilmiy-tarixiy ahamiyati faktik materallar bilan ochib berilgan.

Tayanch so'zlar. til, nutq, tafakkur, turkiy til, forsiy til, leksik uslubiyat, komprativistika, tovush, fonema, harf, rasmiy til, adabiy til.

Аннотация. В статье определяется место языкового вопроса в общественно-политической и научно-литературной деятельности Алишера Навои, определяется роль лингвистического труда «Мухокаматул-лугатайн» в развитии мирового и узбекского языкознания, его научно- историческое значение раскрывается на фактическом материале.

Ключевые слова. язык, речь, мысль, тюркский язык, персидский язык, лексическая методология, компративистика, звук, фонема, письмо, официальный язык, литературный язык.

Annotation. In the article, the position of the language issue in Alisher Navoi's socio-political and scientific-literary activity is determined, the role of the linguistic work "Muhokamatul-lughatayn" in the development of world and Uzbek linguistics is determined, and its scientific-historical significance is revealed with factual materials.

Key words. language, speech, thought, Turkish language, Persian language, lexical methodology, comprativistics, sound, phoneme, letter, official language, literary language.

Alisher Navoiy o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy mavqeini ko'tarish xususidagi g'oyalari hamda fikr-mulohazalarini bir umr muntazam targ'ib etdi. Hayotining oxirlarida esa o'zining bu sohadagi butun faoliyatini umumlashtirdi va ilmiy-tarixiy jihatdan katta qiymatga ega «Muhokamatul-lug'atayn» («Ikki til muhokamasi») asarini yozdi. Asar 1499-yilning dekabrda yozib tugatilgan. Uning maydonga kelishi dunyo tilshunosligida juda muhim hodisadir. Asarning ilmiy-tarixiy ahamiyati quyidagilardan iborat:



1. Alisher Navoiy asarida falsafadagi imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik dialektikasidan kelib chiqib, tilshunoslikda til va nutq birliklarini ma'lum darajada farqlashga, ularning o'zaro munosabatini belgilashga harakat qilgan. U so'z, ya'ni til birligi so'zlovchi tomonidan turli xil jilvalantirilishi, ya'ni nutq birligi sifatida reallashtirilishi mumkinligini alohida qayd etadi. Alloma mazkur masalani g'avvos va gavhar misolida tushuntirishga harakat qiladi. U ko'ngilni daryoga, so'zni esa gavharga o'xshatadi. Ayonki, daryo (ko'ngil) tubida son-sanoqsiz, katta-kichik gavharlar (so'zlar) sochilib yotadi. Gavhar (so'z) daryo (ko'ngil) tubidan g'avvos (nutq sohibi, so'zlovchi) vositasi bilan olib chiqiladi. Olib chiqilgan gavharning qiymati toshiga qarab, katta-kichikligiga ko'ra

belgilanadi. Shunga o'xshash so'zning qiymati, ta'sir kuchi, qanday ma'no ifodalashi ham nutq sohibiga bevosita bog'liqdir. So'zlovchi aqlli, zukko tafakkur sohibi bo'lsa, so'zning ta'sir kuchi ham yuqori darajada bo'ladi yoki aksincha. Alloma so'zga alohida baho berib, so'z shunday gavhardirki, martabasini aniqlashda inson o'jizdir, martabasi — yomon so'zning halok qiluvchanligidan tortib, yaxshi so'z bilan Isoning mo'jiza ko'rsatishiga qadar boradi, ya'ni o'lgan odamni tiriltiradi, deydi. Daryo ostidagi durlar g'avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko'ngil tubidagi so'zlar esa so'zlovchi tomonidan nutqiy jarayonda o'z jilvasini topadi. Shu kunga qadar til va nutqni bir-biridan farqlash dastlab mashhur nemis olimi Vilgelm Gumboltdan boshlangan va u shveysariyalik olim Ferdinand De Sossyur lingvistik ta'limotining asosini tashkil qiladi, deb hisoblab kelindi. Lekin Alisher Navoiy asarlariga e'tibor berilsa, bu olim Vilgelm Gumboldt va F.De Sossyurlardan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganining guvohi bo'lamiz [2,79-80].

2. Alisher Navoiy mazkur asarida falsafadagi shakl va mazmun o'zaro uzviy bog'liqligini, ayni paytda mazmun shaklga nisbatan birlamchi ekanligini qayd etadi. U shu falsafiy fikrdan kelib chiqib, til va tafakkurning o'zaro chambarchas bog'liqligini, til fikrni (ma'noni) ifodalovchi qudratli vosita ekanligini G'arb olimlaridan ancha oldin aniqlaydi. Ayonki, tilning voqelanishi tafakkur orqali bo'ladi.

Alisher Navoiy ushbu asarida turkiy va eroniy xalqlarni nafaqat til, balki tafakkur nuqtai nazardan ham qiyoslaydi. U eroniy xalqlar (Navoiy ularni «sortlar» deb ataydi) ga quydagicha ta'rif beradi: «*Sort turkdin taaqqul va ilmida daqiqroq va kamol va fazl fikratida amiyqroq zuhur qilibdur va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur*» [1,176]. Turkiy xalqlarga esa quyidagicha baho beradi: «*Turk sortdin tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokroq maxluq bo'lubtur*» [1,177]. Anglashiladiki, adib turkiylarni tez fahmli, zukko, idroki baland, tafakkuri yuqori darajada taraqqiy etgan xalq sifatida baholaydi. Demak, tafakkuri rivojlangan xalqning tili ham boy, go'zal, taraqqiy etgan bo'ladi. Shunga ko'ra turkiy (o'zbek) til so'zga boy, nafis va rivojlangan tildir.

3. Alisher Navoiy tilshunoslikning leksik uslubiyat (leksik stilistika) sohasi rivojiga ham munosib hissa qo'shdi, ilmiy-amaliy stilistikani asoslab berdi. Bunga dalil sifatida Alisher Navoiy asarida *yig'lamoq* fe'lining *yig'lamsinmoq*, *ingramak*, *singramak*, *sigtamoq*, *o'kurmak*, *hoy-hoy yig'lamoq*, *inchkirmak* kabi yettita sinonimi borligini qayd qilishini va bu sinonimlarning har birining ma'nolarini va mazkur ma'nolar orasidagi uslubiy farqlar va nozikliklarni ko'rsatib o'tganligini aytish mumkin. Alloma ma'lum ma'noni turli shakllarda ifodalash mumkinligini, nutqda bu shakllardan foydalanishda



so'zlovchining turli imkoniyatlari borligini, nutqning qay darajada amalga oshishi esa so'zlovchining maqsadi, mahorati va dunyoqarashiga bog'liq ekanligini alohida qayd etadi.

4. Alisher Navoiy dunyo tilshunosligida yangi ilmiy yo'nalish – komprativistika (qiyosiy tilshunoslik)ga asos soldi. Uning tadqiq yo'llari, tahlil usullari, metodologik asosini ishlab chiqdi. U turli oilaga kiruvchi ikki til – turkiy va forsiy tillarning leksik, fonetik va morfologik xususiyatlarini o'zaro qiyoslab, tipologiyaning leksik-semantik, fonologik, morfologik aspektlarini ishlab chiqdi. Asar boshdan-oxir tipologiyaga, tillarni chog'ishtirish yo'rig'iga, metod va usullariga tayanadi [3,39]. Afsuski, tilshunoslik tarixida chog'ishtirma tilshunoslikning paydo bo'lishi G'arb tilshunoslarining nomi bilan bog'lanadi va bu tilshunoslik yo'nalishining boshlanishi XIX asrdan deb belgilanadi. Bu fikrlar G'arb olimlarining Alisher Navoiy asarlaridan bexabarligidan paydo bo'lgan [2,86].

5. Alisher Navoiy tovush (fonema) va harfning o'zaro munosabati xususidagi ilmiy qarashlarni o'zining yangi fikrlari bilan takomillashtirdi. U tovush (fonema) va harf bir-biriga doimo ham mos kelavermasligi, bir harf bir necha tovush (fonema)ni ifodalashi mumkinligini, masalan, *yoy* harfi to'rt tovush (fonema)ni, *vov* harfi ham to'rt tovush (fonema)ni ifodalashini aytib o'tadi. Anglashiladiki, Alisher Navoiy asarida garchi fonema terminini qo'llamagan bo'lsa-da, tovush tipi (fonema)ni aniq ko'rsatib o'tgan va fonema tushunchasini misollar bilan keng izohlagan. U so'z tarkibida bir xil fonetik vaziyatda kelgan tovushni boshqasiga almashtirib, ma'no farqlash belgisiga qarab fonologik vazifa bajarishi yoki bajarmasligini aniqlaydi. Bunday usul asrimiz boshlarida Praga lingvistik maktabida va Amerika deskriptiv tilshunosligida qo'llanildi hamda distributsiya nomi bilan yuritildi [2,87].

6. Alisher Navoiy asarida so'z yasovchi vosita va yasalmalar xususida ayrim ma'lumotlar keltirilganki, ular tarixiy morfologiya uchun ahamiyatlidir. Masalan, u *-chi* yasovchi vositasining imkoniyati kengligi, asos qismga qo'shilib, bu qismning ma'nosi bilan bog'liq turli shaxs otlarini hosil qilishini aytib o'tadi va quyidagi misollar bilan fikrini dalillaydi: *qo'ruqchi, tamg'achi, jibachi, yo'rg'achi, kemachi, qo'ychi, turnachi, kiyikchi, tovushqonchi* va boshqalar.

7. Alisher Navoiyning bu asari o'zbek va fors-tojik tillarini, ularning lug'at tarkibini taqqoslashga bag'ishlangan ilk filologik asar ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Asarda keltirilishicha, fors-tojik tillari turkiy (o'zbek) tilga, xususan, uning lug'at tarkibiga eng ta'sir ko'rsatgan tillardan biridir. Ayni paytda bu tillarga turkiy (o'zbek) tillardan juda ko'plab (*qatlama, qurut, bulamog'* kabi) so'zlar ham o'zlashgan. Alloma fikricha, dunyodagi tillar bir-biriga ta'sir ko'rsatishi sabab rivojlanib boradi.

8. «Muhokamatul-lug'atayn» asarining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o'zbek tili tarixida o'zbek tilining rasmiy va adabiy til maqomiga erishishini o'ylab yozilgan bu kabi asar XX asr boshlariga qadar yaratilgan emas. Ushbu risola, mubolag'asiz aytish mumkinki, davlat hujjatlarini turkiy (o'zbek) tilda yuritishga da'vat etgan va uni badiiy ijod olamiga keng joriy etishni targ'ib qilgan ilk asarlardan biridir.

Ulug' alloma Alisher Navoiy ushbu ilmiy asari bilan tilshunoslikning yangi bir yo'nalishi – noqardosh tillarni qiyosiy o'rganish (chog'ishtirma tilshunoslik)ga asos soldi. Turkiy (o'zbek) tilning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va adabiy hayotdagi obro' hamda



mavqeini ko'tarishga bag'ishlangan mazkur tadqiqot nafaqat o'zbek, balki butun jahon fani tarixida muhim ahamiyatga ega. Alisher Navoiyning bu va boshqa asarlarida o'zbek adabiy tilining umumxalq me'yorlari ishlab chiqildi va qat'iylashtirildi. Bu me'yorlar uning zamondosh va keyingi davr ijodkorlari tomonidan to'la ma'qullanib, davom ettirildi va rivojlantirildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Навоий. Муҳокаматул-луғатайн. Танланган асарлар. III томлик (нашрга Порсо Шамсиев тайёрлаган). -Т.: Фан, 1948. -III том. -Б. 171-212.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи / Ўқув қўлланма. -Т.: Ўзбекистон, 2002. -232 б.
3. Содиқов Қ. Тарихий лексикография / Ўқув қўлланма. -Т.: Тошкент давлат Шарқшунослик институти, 2012. -93 б.
4. Фарҳанги тафсирии забони тожики. II жилд. -Душанбе: Пажӯнишгони забон ва адабиёти Рӯдаки, 2008. I. -950 б.; II. -945 б.

DAVRONOVA SHOHSANAM G'AYBULLOEVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Buxoro davlat universiteti, o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy tanqidiy qarashlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Adabiy tanqid, matbuot, taqriz, maqola, teatr, jadid tanqidchiligi, Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy tanqidiy asarlari.

O'zbek jadid adabiyotining taniqli vakillaridan biri bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiylar ilm-fan, san'at, matbuot, maorif sohalarida qatorida o'zbek tanqidchiligi rivojiga ham munosib ulush qo'shgan. Ijodkorning ilmiy-ijodiy faoliyatida adabiy tanqid sohasining jonlanishi va taraqqiyot sari qadam qo'yishi uchun turtki beruvchi sa'y-harakatlarning amalga oshirilganligini kuzatamiz. Chindan, "Behbudiylar adabiy tanqidga katta e'tibor berdi. Navoiydan keyingi bir necha asrlik sukunatdan so'ng bu sohaning xos xususiyatlarini tayin etib, adabiyotda uning tenghuquqligi masalasini o'rta qo'ydi. "Tanqid saralamoqdur" (1914-y., 27-son) deb nomlangan edi uning ushbu mavzuga bag'ishlangan jiddiy maqolalaridan biri" [4.261].

Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy-tanqidiy maqolalari yuzaga chiqishida ayniqsa "Oyina", shuningdek, "Sho'ro", "Turkiston viloyatining gazetasi" kabi matbuot nashrlarining o'rni katta bo'lgan. "Eski fikrlardan", "Munozara" haqida, "Muhtaram Muso afandi sharafiga", "Tiyotr nadur", "Tanqid – saralamoqdur", "Tiyotru, musiqiy, she'r", "Tiyotr" singari adabiy-tanqidiy xarakterdagi maqolalari 1911-15-yillarda ijodkorning turli ijtimoiy, madaniy, siyosiy masalalar qatorida adabiy muammolarni yoritish borasida ham faollik ko'rsatganligidan dalolat beradi.



Mahmudxo'ja Behbudiyning adabiy-tanqidiy maqolalariga xos bo'lgan bir qancha jihatlarni alohida ta'kidlash mumkin.

Eng avvalo, ijodkor tanqid tushunchasining mohiyatini ochib berish, keng xalq ommasi va adabiy jamoatchilikka ushbu muammoning muhim jihatlari oydinlashtirish maqsadini ko'zda tutganligini ta'kidlash joiz. "Tanqid saralamoqdur" maqolasida tanqid tushunchasining nazariy mohiyati va ijtimoiy ahamiyatiga daxldor muhim jihatlari ochib berilgan. Maqola "Majalla va jaridalarining katta bir xosiyati tanqid, ya'ni saralamoqdur. Sarroflar aqchani, tujjorlar matoni saralaganidek, muharrirlar ham umumiy hol va maishatg'a taalluq nimarsalarni saralaydurki, boshqa so'z ila "tanqid" atalur" [2.17] degan jumlar bilan boshlangan. Ko'rinib turibdiki, tanqidning mohiyatini ijodkor dastavval jurnal va gazetalarga daxldor sifatida ta'riflagan. Maqolaning davomida esa tanqidga aloqador boshqa sohalarni ham tilga olganligini kuzatamiz. "Masalan, yangi maktab va muallimlari va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nan taftish etib, andagi nuqslarni bayon etmoq tanqidur" [2.17] degan izohlar adibning tanqidga maorif sohasiga ham aloqador tushuncha sifatida qaraganligini dalillaydi. Bundan tashqari "Tanqid yangi yozilgan kitob, jarida va majallalarg'a-da joriy va nofe'dur" [2.17] degan qarashlari orqali ijodkor tanqidning yangi kitobning mohiyatini ochishga qaratilgan vazifasini ham angatishga harakat qilganligini ko'rish mumkin. Demak, ushbu maqolasida muallif tanqidning mohiyatini keng doirada yoritishni maqsad qilganligi ko'rinadi, ya'ni ijodkorning asoslashiga ko'ra badiiy adabiyotga daxldor tanqid ushbu keng doirada qo'llaniladigan masalaning muayyan bir qirrasini tashkil etadi.

Ijodkor tanqidning shaxsiyatga daxldor bo'lmasligi kerakligi, dushmanlik uchun xizmat qilmasligini ta'kidlaydi. Ayni paytda "Ammo bir muallim yo mudarris va muharrir ishidan, shaxsiyatidan xaloyiqg'a zarar kelsa, andan ham bahs va tanqid yozmoq shaxsiy bo'lmaydur" [2.17], deb yozadi. Qolaversa, tanqidning shaxsiyatga aloqador jihatlari teran anglagan adib bu borada "Xotir qolmasun" kasali biz, musulmonlarni barbod etdi" [2.19], deb ochiq aytadi.

Adib o'z davrining vakili sifatida tanqidning ijtimoiy ahamiyatini teran anglagani va boshqalarga ham tushuntirishga uringanligi ko'rinadi. "Masalan, bir muharrir va yo muallimni sahvini va o'z xizmatig'a beparvoligini va lozim qoida va tartiblarg'a amal qilmay ommag'a zarar kelturgonini tanqid etmoq boisi isloh bo'lur" [2.17], deb yozar ekan, ijodkor tanqiddan asosiy maqsad jamiyatdagi kamchiliklarni tuzatish isloh qilishga qaratilishini tushuntiradi. Adib tanqid borasidagi salbiy qarashlarning oldini olish, ushbu masalaning tub mohiyatida g'arazli niyatlar emas, balki isloh maqsadi ko'zda tutilganligini tushuntirish istagida ekanligini anglash mumkin.

Maqolada ijodkor tanqid bilan bog'liq ta'rif-tavsiflarini misollar asosida ham mustahkamlashga harakat qiladi. Muhammad Sayyid afandining Turkiston maktablari to'g'risida yozgan tanqidi doirasidagi masalalarga munosabatini ifoda etadi.

Umuman olganda, adibning tanqid borasidagi fikrlari ushbu sohaga oid zamonaviy adabiyotshunoslikdagi dastlabki qarashlardan bo'lganligi boisidan ham kengroq doirada izohlanganligi kuzatiladi. Ya'ni maqolada aks etgan jihatlar faqat adabiy doirada emas, balki publitsistika va maorif sohasiga, ya'ni kengroq ma'noda ijtimoiy tanqidga daxldor ham bo'ladi. Umuman olganda, adibning mazkur maqolasi adabiy tanqid tushunchasini nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan zamonaviy adabiyotshunoslikdagi dastlabki qarashlardan ekanligi bilan katta ahamiyatga ega.



Jadid tanqidchiligining rivoji matbuot bilan bir qatorda teatr san'atining taraqqiyotiga ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatdi. Jadid ma'rafatparvarlarining ilmiy ijodida teatr asarlari uchun yozilgan taqriz va maqolalar muhim o'rin tutadi. "Dramaturgiyaning tug'ilishi va rivoji masalasiga adabiy tanqid jiddiy e'tibor berdi. XX asr boshlarida o'zbek tanqidchiligi, eng avvalo, shu tur va janrdagi asarlarni tahlil etish asnosida shakllanib bordi" [3.56]. Behbudiy ijodida ham dramaturgiya va teatr rivoji uchun xizmat qiluvchi asarlar yaratilgan. "Tiyotru nadur", "Tiyotru, musiqiy, she'r", "Tiyotr" asarlarining mohiyatida teatr san'ati va badiiy adabiyotning o'zaro aloqador bo'lgan jihatlariga e'tibor qaratilgan. Bu davr tanqidchiligida "Ammo e'lon qilingan maqola va taqrizlarning ko'pi dramatik asardan ko'ra teatr san'ati masalalari va aktyor mahorati tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida spektaklning maqsad-mazmuniga asosiy e'tibor qaratilib, dramatik asarning badiiy qimmatini, chuqur ochib beradiganlari hali yetarli emas edi" [3.56]. Shunga qaramay teatr asarlariga yozilgan taqrizlar badiiy adabiyotga yaqin bo'lgan ushbu soha qatorida dramatik asarlarning ham badiiy qimmatini belgilashda, bunday asarlarning keng jamoatchilikka yoyilishi hamda mazkur tur janrlarining milliy adabiyotimizdagi takomiliga ta'siri katta bo'ldi, deyish mumkin. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tiyotr" maqolasida aynan shunday xususiyatlar seziladi. Ya'ni maqola dramatik tur namunasi emas, balki asarning sahnadagi ijrosi tanqidiga bag'ishlangan. Maqolada "To'y" asarining sahnadagi namoyishi jarayonida yuzaga kelgan holatlar, ijobiy va salbiy jihatlar haqida so'z boradi. Sahnaning jihozlanishi, rol ijro etgan aktyorlar, tomoshabinning sahna asariga munosabati va shuningdek, teatrdan tushgan foydaning yo'naltirilgan manbasiga qadar bir qator masalalar xususida so'z yuritiladi.

"Tiyotru nadur" maqolasining asosiy mazmuni ushbu sohaning mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan. Adib teatr san'atining ahamiyatini ochib berishga harakat qilar ekan, ushbu soha bilan mustahkam aloqada bo'lgan badiiy adabiyotga daxldor jihatlariga ham to'xtaladi. "Tiyotrxona sahnalarida qo'yilaturgon asarlar – fojia, ya'ni qayg'ulik, mazhaka, ya'ni kulgu, drama, ya'ni hangomalik bir voqea va hodisani tasvir etib, xaloyiqg'a ko'rsatilur" [2.15]. Ushbu o'rindagi qarashlarida ijodkor dramatik tur janrlariga xos xususiyatlarni ajratib ko'rsatgan holda tushuntirishga harakat qilganligi ko'rinadiki, bunda mazkur adabiy turning nazariy mohiyati ochilgan. Qolaversa, adib dramatik tur namunalarining boshqa adabiy tur janrlariga nisbatan farqli jihatlar va ta'sir kuchini alohida ta'kidlaydi. "Hikoyat va yoinki nasihat kitoblarida ba'zi bir hodisani bayon qilingandurki, o'qub, asarlanib, lazzat olinadur. Ammo tiyotrga maxsus bir hodisa va yo voqea va hikoyatni fe'lan qilib ko'rsatiladurki, muning ta'siri eshitgandan ziyodadur" [2.15]. Ko'rinib turibdiki, bunda ijodkor teatr tanqidchisigina emas, balki badiiy asarlarning nazariy mohiyatini chuqur anglagan adabiyotshunos sifatida namoyon bo'ladi.

Ijodkor soha vakillarining adabiy va teatr asarlariga o'z vaqtida baho berishlarini, tanqidchilik yangi yuzaga chiqqan asarlarning mohiyatiga to'g'ri baho berishi kerakligini istaydi. Jumladan, o'z asari "Padarkush"ning e'lon qilinganligi va teatr sahnalarida namoyish etilganligini ta'kidlar ekan, "Inchunin asarni tanqid etib, buzuq yerini matbuot ila bayon etsalar. Toki boisi isloh bo'linsa" [2.16], deya umid qiladi. Demakki, ijodkor o'z ijod namunalariga nisbatan ham tanqidchilikning munosabat bildirishini istaydi.

Fikr va qarashlarning hayotiy misollar, ilmiy, badiiy manbalar bilan asoslanganligi Mahmudxo'ja Behbudiy publisistikasiga xos muhim jihatlardan biridir. Masalan, fikrla-



rini maqol va hikmatli ifodalar bilan asoslashga harakat qilganligi ko'rinadi. Dramatik turning ahamiyati haqida yozar ekan, adib "Shunidan kay bud monandi diydan" – eshitmoq qachon ko'rmoq kabidur" [2.15] degan fikrni keltiradi. Yoki tanqidning ahamiyatini ta'kidlar ekan, "Mutakallimro to ayb nagirand – suxanash isloh napazirad" – (So'z so'zlaguvchini ayb etmaguncha so'zi tuzalmaydur") [2.17], deya asos keltiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiyning "Tiyotru, musiqiy, she'r" nomli asari ma'lum bir munosabat bilan yozilgan ishlaridan hisoblanadi. Muallifning qayd etishiga ko'ra, "Sadoyi Farg'ona"ning 83-sonida "She'riyati islomiya" nomi bilan e'lon qilingan Vasliyning maqolasida bayon etilgan fikrlar natijasida yuzaga kelgan mulohazalar ushbu maqolaning yozilishiga sabab bo'lgan. Dastavval adib Vasliy maqolasidan iqtibos keltiradi va so'ngra unga javoban o'z qarashlarini bayon etadi. Bu bilan ijodkor davr yangiligi bo'lgan teatr asarlarining yuzaga kelishi va sahnalashtirilishi masalasiga doir bayon qilinayotgan salbiy qarashlarga e'tirozini ifoda etadi. Maqola muallifi tomonidan tanqid qilingan teatr asarlarida jamiyatdagi salbiy illatlarning yoritilishi bilan bog'liq masalalarga javoban qarashlarini birma-bir asoslashga harakat qiladi. Ushbu maqolasida ham adib fikrlarini asosli manbalarga tayanib dalillashga harakat qilganligi ko'rinadi, ya'ni "Sahih Buxoriy"dan misol keltirib, qarashlarini isbotlashga urinadi. Shuning bilan bir qatorda ijodkor maqolada e'tirozga sabab sifatida ko'rsatilgan mavzularda maqola muallifining o'z ijodida ham bir qator namunalarni uchratish mumkinligini qayd etadi. Maqola muallifi oldiga "Maqolalarining oxirindagi o'z so'zlarig'a ko'ra ul janobdan umid qilinurki, o'zlarining "Devoni Vasliy"larig'a yozilgan shu zerdagi baytlarini va shularg'a o'xshash "qabih" yuzlar ila "muvashshah" nomindagi nimarsalarni yozib nashr qilmoq shar'an va axloqan nima ekanligini lutfan bayon etsalar edi" [2.25] degan savolni qo'ygan holda fikrini asoslash va e'tiroznig oldini olish uchun uning ijodidan misollar ham keltiradi.

"Tiyotru, musiqiy, she'r" maqolasi garchi matbuotda yuzaga kelgan e'tirozga munosabat nuqtai nazaridan yozilgan bo'lsa-da, davr adabiyotidagi muhim yangilik bo'lgan dramatik tur namunalari va teatr asarlarida yoritilgan mavzularning hayotiyliigi va kishilarning ma'naviy tarbiyasidagi ahamiyatini ochib berishga qaratilganligi jihatidan muhim ahamiyatga ega.

Ma'rifatparvar adibning yana ayrim tanqidiy ishlari mumtoz va zamonaviy adabiyotning g'oyaviy-badiiy ahamiyatini oydinlashtirishga qaratilgan. Jumladan, "Eski fikrlardan" hamda "Muhtaram Muso afandi sharafina" maqolalarida adabiyot tarixi namoyandalari ijodiga nazar tashlangan.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, jadid tanqidchiligi zamonaviy tanqidchilikning taraqqiyot yo'liga qo'yilgan dastlabki qadamlardan edi. Ushbu davrda yaratilgan tanqidiy asarlarda ijodkor mahorati va asarning badiiy qimmatidan ko'ra ko'proq uning g'oyaviy mohiyatiga ahamiyat qaratilganligiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni boshqacha aytganda, adabiy-badiiy manbalarga olimlar aksariyat hollarda o'z g'oyaviy qarashlarini targ'ib etish, mustahkamlashda qay darajada zarurligi nuqtai nazaridan yondashganliklari ko'rinadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning tanqidiy asarlarida ham shunday jihatlarni kuzatamiz. "Eski fikrlardan" maqolasida jahon adabiyotining taniqli namoyandasi bo'lgan Jomiy ijodi e'tirof etiladi. Maqolada shoir ijodidan namunalar tahlilga tortiladi. Ammo o'z o'rnida muallifning tahlil uchun ko'proq o'z g'oyaviy masalagiga muvofiq keladigan namunalarni tanlab olganligiga ham e'tibor qaratish mumkin. Ya'ni sharhlangan baytlar mazmunidan hatto adabiy asarlarni o'rganish jarayonida ham ma'rifatparvar ijodkorn-



ing diqqat markazida muqaddas maslagi turganligini tasavvur qilish qiyin emas.

“Muhtaram Muso afandi sharafina” maqolasida Jaloliddin Rumiylarning ijodi haqida soʻz boradi. Ammo ushbu maqolasida ham muallif oʻz gʻoyaviy qarashlarini mumtoz asarlar vositasi bilan mustahkamlashda davom etganligi koʻrinadi. Jadid adabiyoti namunalari haqidagi qarashlar yetakchilik qilganligiga guvoh boʻlamiz. Maqolada tadqiq etilgan masalada buyuk ijodkor Jaloliddin Rumiylarning donishmandligi, borliq ajoyibotlarining kashf etilishida uning qarashlari asos boʻlgan boʻlishi mumkinligi haqidagi fikrlarni dalillashga harakat qilinganligi seziladi.

Adibning “Munozara” haqida” deb nomlangan maqolasi Abdurauf Fitrat asari yuzasidan yozilgan boʻlib, taqriz xarakteridadir. Bunda “Munozara” asarining gʻoyaviy-badiiy jihatlari asarning tarjima qilinishi munosabati bilan yuzaga kelgan mulohazalar bilan bogʻliq holda yoritilgan. Asar tadqiqi doirasida muallif oʻz davri ijtimoiy hayotiga nazar tashlaydi. Ijodkor oʻzining maʼrifiy qarashlarida asar qahramoni Farangi bilan hamfikir ekanligini bayon etadi. Adib jamiyatni isloh qilishda uning qarashlaridagi zaruriy jihatlarni taʼkidlaydi.

Umuman olganda, Mahmudxoʻja Behbudiy milliy adabiyotimizning zukko vakili sifatida oʻzbek tanqidchiligi taraqqiyotiga muhim hissa qoʻshdi. Adabiy tanqid sohasining nazariy masalalarini yoritish, adabiyot tarixi hamda zamonaviy adabiyotning mazmun-mohiyati va muammolarini tadqiq etishga qaratilgan maqola va taqrizlari ijodkorning sinchkov tanqidchi ekanligini namoyon etib turadi.

Adabiyotlar:

1. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 280 б.
2. Бехбудий М. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 312 б.
3. Назаров Б., Расулов А., Ахмедова Ш., Қахрамонов Қ. Ўзбек адабий танқиди тарихи. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012. – 396 б.
4. Қосимов Б. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 464 б.





POKLIKKA CHORLOVCHI NIGOH

Annotatsiya. Maqolada yozuvchi Salima Umarovaning “Oftobli kunlar” kitobining kompozitsion tuzulishi, ishtirok etuvchi qahramonlar dunyosi, muallifning badiiy voqelikni aks ettirishdagi yondashuvi, kitobdagi qissaning mazmun-mohiyati, badiiyati haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit soʻzlar: janr, qissa, badiiyat, usul, qahramon, monolog, mazmun.

Аннотация. В статье рассматривается композиционный строй книги Салимы Умаровой «Солнечные дни», мир действующих лиц, подход автора к художественной действительности, содержание и искусство рассказа в книге.

Ключевые слова: жанр, рассказ, искусство, прием, герой, монолог, содержание.

Abstract. The article discusses the compositional structure of Salima Umarova's book “Sunny Days”, the world of participating characters, the author's approach to artistic reality, the content and art of the story in the book.

Key words: genre, story, art, method, hero, monologue, content.

Adabiyot tarixida badiiy soʻz qudratini namoyon etib, kitobxonlar qalbidan chuqur joy olgan ijodkor ayollar koʻp oʻtgan. Nodirabegim, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar otin singari oʻtmishda yashab oʻtgan shoira ayollarimiz mumtoz adabiyotimizning ulkan vakilalari boʻlishganidan hamisha faxrlanamiz. XX asrda ijod etgan Oydin Sobirova, Saida Zunnunovadek shoira va adibalarimiz, ovozi dunyo boʻylab baland jaranglagan vafo va sadoqat timsoli boʻlgan shoira Zulfiya ijodi milliy adabiyotimiz tarixining yorqin sahifalariga aylandi. Bugungi kunda ham, ayniqsa, istiqlol davri adabiyotida shoira va adibalarimiz yaratgan asarlarda falsafiy ruh hamda tilimiz boyligi namoyon boʻlmoqda. Oydin Hojiyeva, Halima Xudoyberdiyeva ortidan ergashgan Zulfiya Moʻminova, Halima Ahmedova va boshqa oʻnlab shoiralarimiz ijodi har bir adabiyot muxlisi qalbidan joy olib, milliy adabiyotimiz koʻrki, jamolini oʻzida ifodalab turibdi. Ular qatorida sheʼriy, nasriy, publitsistik asarlarni jam etgan oʻndan ortiq kitoblar yaratgan yurtdoshimiz Salima Umarova ham bor.

Salima Umarova oʻttiz yildan ortiq ijodiy faoliyati davomida shoira, adiba, publitsist sifatida shakllandi, kitobxonlar eʼtiborini, mehru muhabbatini qozona oladigan badiiy yetuk asarlar yaratdi va yaratmoqda. Ijodkor sifatida hassos shoira Halima Xudoyberdiyevaning nigohiga tushdi, eʼtirofiga sazovor boʻldi. Nasriy asarlari, qissa va hikoyalari, novellalari va publitsistik maqolalari haqida esa yana bir yurtdoshimiz, isteʼdodli shoir va tarjimon Vafo Fayzulloh nihoyatda xolis va adolatli baho bergan: “Salima Umarova ijodi chiroyli xulq targʻibidan iborat, u shu pok yoʻlga qalamini chogʻlab qoʻygan desak, mubolagʻa emas. Uning “Mening kelinchak qizim” kitobi va “Nabiramga oʻgitlar” risolalaridagi hayotiy tajribaga asoslanib, tugʻilgan nasihatimiz badiialari shuning uchun ham koʻpchilik orasida tez tarqalib, qayta-qayta nashr etildi, sevib oʻrnak oladigan kitob sifatida eʼtibor topdi”.



Adibaning o'tgan yili Toshkentdagi "Turon zamin ziyo" nashriyotida chop etilgan "Oftobli kunlar" kitobi adabiyot muxlislari, didi yuksak talabchan kitobxonlar uchun navbatdagi tuhfa bo'ldi. Kitobdan o'rin olgan qissa va hikoyalar, novellalar, publitsistik maqolalar va badiialarda yozuvchining hayot haqidagi qarashlari, o'lmas milliy qadriyatlarimiz-axloqiy poklik, vafo va sadoqat, diniy e'tiqod va imon pokligiga da'vat o'ziga xos badiiy kuch bilan ifodalangan. Ularni mutolaa qilgan kitobxon she'r o'qiganday huzurlanadi, hayotning badiiy manzaralaridan qalamga olingan voqealarni o'z boshidan kechirganday hayajonlanadi, larzaga tushadi, yaxshilik va yomonlik, sadoqat va xiyonat, go'zal xulqlik va axloqsizlik, ma'naviy yuksaklik va tubanlik o'rtasidagi farqlarni, insonni qanday fazilatlar barkamol qilishini anglab yetadi, hayot haqiqatlarining badiiy manzaralaridan o'ziga zarur xulosalar chiqarishga harakat qiladi. Aslida badiiy asarning vazifasi shu, ijodkor zimmasidagi ulkan mas'uliyat shuni taqozo etadi. Kitobxon asarni o'qib, qalbida hayajon tuyar ekan, saboq olar ekan, uning yaratuvchisi-ijodkor mehnati e'tirofqa loyiq sanaladi.

Adabiyotshunos olim U. Normatov ta'kidlagan: "Bugungi qissachiligimizga nazar tashlaganda birinchi galda undagi mavzu muammo, shakily, uslubiy jihatdan rang-baranglik e'tiborini tortadi"⁵¹, degan fikrlari muallifning "Oftobli kunlar" qissasiga to'la mos keladi. Ushbu qissada chigal bir taqdir, ishonuvchan qalbnig fojeasi, ezgulikning o'lmasligi, hayotga bo'lgan ulug' muhabbatning oxir-oqibat har qanday razolat, xiyonatlarni yengib, porloq istiqbolga erishishini badiiy aks ettirgan. Qissa kompozitsiyasi hikoya ichida hikoya asosiga qurilgan. Bosh qahramonning xatlari syujet chizig'ining asosini tashkil etib, voqealar rivoji muallifning hikoyasi va unga munosabati tarzida davom etadi. Asarning bosh qahramoni Manzura oilalik erkakka ko'ngil qo'yib aldanadi, nihoyasiz hijron azobida qovriladi. U ko'ngil qo'ygani yigit-Bahrom onasiz o'sgan, nosog'lom muhitda tarbiyalangan, ichkilikka ruju qo'yib, boshi berk ko'chaga kirib qolgan. Manzura esa uni ishonchsizlik, umidsizlik botqog'idan qutqarishga, uni hayotga qaytarishga harakat qiladi. Undagi muhabbatga sadoqat, pok axloqiy tuyg'ularning bezavolligi, hayotsevarlik ezgu orzularining ro'yobga chiqishiga yordam beradi. Hamshiralikdan tashqari tijorat ishi bilan shug'ullanib yurgan Manzura tasodifan Bahromga duch kelib qoladi⁵². Bunga uning o'g'li Firdavs sababchi bo'ladi. Chet eldan mol keltirib, tijoratchilarga ulgurji narxda keltirib berish bilan shug'ullanib yurgan Firdavs Manzura o'z xizmatini taklif etadi. U rozi bo'ladi. Aytgan molni keltirganda u otasi bilan birga keladi. Otasi Bahrom edi! Bahrom hayotda qoqilaverib, uning sinovlarida rosa pishgan, yomon odatlarni tashlab, haqiqiy inson bo'lib yashashga kirishgan edi. Manzura buni sezadi, ammo uzoq vaqt sir bermaydi, tijorat bo'yicha oldi-berdi ishlarni amalga oshirib yuraveradi. Bu orada Manzuraning qizi Hilola bilan Bahromning o'g'li Firdavs o'rtasida ham pinhoni tuyg'ular alanga olib, ishq-muhabbat otashi ikki yosh qalbni yondira boshlaydi. Asar so'ngida Manzura Bahrom bilan, Hilola Firdavs bilan qovushib, baxtli hayot kechira boshlashadi.

Qissa boshdan-oxir ravon o'qiladi, kitobxon hech yerda to'qinmaydi, zerikmaydi, voqealar rivoji tug'dirgan hayajon o'quvchini oxirigacha tark etmaydi. Bu Salima Umarovanning shoira ekanligi, she'rxonlar qalbini zabt eta oladigan she'rlar ijodkori bo'lganligining sharofatidan. "Mening nazarimda, deydi Asqad Muxtor, she'riyatsiz

51 Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. Toshkent: "Ma'naviyat", 2000. 47-bet.

52 Umarova S. Oftobli kunlar.Qissa. Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2021. 16-bet.



nasr yo'q. Olamni poetik qabul qilish, insonga, tabiatga shoir ko'zi bilan qaray bilish nosir uchun juda muhim. Aks holda, nasr oddiy belletristika, bayon, hissiz ta'kidlashdan iborat bo'lib qolishi mumkin"⁵³.

Kitobdan o'rin olgan hikoyalar, novellalar ham axloqiy-ma'naviy hayotning dolzarb muammolari haqida ekanligi, ularda yuksak insoniy fazilatlar ulug'langani, hayotiy haqiqatlar mohirona badiiylik bilan jilolanib, bor bo'y-basti bilan namoyon bo'lishi jihatidan katta tarbiyaviy ahamiyatga molik asarlardir. "Soliqchi" hikoyasida insofdiyonatni unutib qo'ygan, o'z nafs uchun yetimning haqini yeyishdan hazar qilmaydigan amaldorning jirkanch qiyofasi gavdalan tirilgan. Hikoyada urush yillarining mashaqqati, fojeasi Muhsina aya taqdiri orqali chuqur ochib berilgan. Bu fojeaning qanchalik ulkanligi bir necha jumlada ifoda etilgan: "Bu zahmatli kunlar ortda qoldi, harqalay. Urush tugadi. Muhsina ayaning ham jufti haloli Barot traktorchi jon bozori avj olgan izdihom ichidan tirik chiqib keldi. Biroq uning bir qo'li ishlamas, sog'ligi ham o'rtamiyonadan pastroqda edi". "Soliqchi" hikoyasidan keltirilgan bu parchada yozuvchining fikrlashi siqirligi, har bir so'zga ulkan ma'no yuki yuklash mahorati sezilib turibdi. "Qotil", "E'tiqod", "Nadomat" hikoyalari, "Xosiyatsiz tush", "Surat", "Xiyonat", "Ajal sirtmog'i" novellalari, "Istiqlolim, mangu-boqiy bo'li", "Muqaddasim o'zing, sen uchun yashay" publitsistik maqolalari va boshqa shunday asarlari adiba ijodiga kitobxonning mehru muhabbatini oshiradi⁵⁴.

O'tgan yili belorus adibasi Svetlana Aliksiyevich "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" publitsistik kitobi uchun Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bu ayol adibalarning, ayol ijodkorlarning jahon badiiy xazinasiga qo'shayotgan ulkan hissalar e'tirof etilishining bir ko'rinishidir. Ayol sha'nini ulug'lash, uning pok va beg'uborligini kuylash, ayol siymosida cheksiz baxt va shodlik, porloq kelajak, sog'lom avlod kamolotini ko'rish va buni yuksak badiiy mahorat bilan aks ettirish ijodkorlik burchiga aylangan Salima Umarova yaratgan asarlar ham hamisha kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lib kelayotganligi ijodkor uchun katta baxtdir. Adiba bundan ilhomlanib, yana yangi-yangi asarlar ijod qilishiga ishonamiz.



53 <https://ziyouz.uz/hikmatlar/aforizmlar/asqad-muhtor-yosh-yozuvchi-bo'lish-qiyin/>

54 Umarova S. Oftobli kunlar/ Qissa va hikoyalar, publitsistika va badialar. Toshkent: "Turon zamin ziyo", 2021.



TÜRKÇENİN ÖNEMLİ DÖNÜM NOKTASINDA BİR İSİM: AHMET YESEVÎ

Kenan SEMİZ

**Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi,
Türk Filolojisi Bölümü, Dr., Türkistan/Kazakistan,**

Abdulkadir ÖZTÜRK

**Hoca Ahmet Yesevi Uluslararası Türk-Kazak Üniversitesi,
Türk Filolojisi Bölümü, Doç. Dr., Türkistan/Kazakistan;
Ordu Üniversitesi Türk Dili ve Edebiyatı Bölümü, Doç. Dr.,
Ordu/Türkiye**

ÖZET

İlk yazılı metinlerine 7-8. asırlarda rastlanan Türk dili, bu tarihten günümüze kadar geçen süre zarfında önemli pek çok dil yadigârını meydana getirmiştir. Elbette bu dil yadigârlarıyla birlikte bunları da telif eden müellifler, nüshalarını ortaya çıkaran müstensihler veya farklı dillerden tercüme eden mütercimler, Türk dili tarihinde özel yer edinmişlerdir.

8-13. asırlar arasında Tarihî Doğu Türk yazı dili temelinde tek bir istikamette ilerleyen Türkçenin, değişken siyasî ve coğrafi yapı, içinde bulunulan dinî muhit ve çeşitlilik sergileyen sosyo-kültürel iklim gibi temel nedenler, gelişim ve ilerleyişini hızlandırmıştır. Bunlardan birisi olarak Türklerin İslâmiyet'i kabul etmesi pek çok açıdan dönüm noktasını teşkil etmiştir. 10. asırla birlikte İslâmiyet, Türklerin yalnızca dinî yaşamlarına değil aynı zamanda dil, edebiyat, folklor, sanat vs. gibi alanlara da yön vermiştir. Dil alanı bağlamında Arap alfabesinin kullanılması, Arapça kökenli kelimelerin söz varlığında yer edinmesi, Arap asıllı müellif ve müstensihlerin Türkçe merkezli eserler kaleme alması gibi gelişmeleri örneklemek mümkündür. Bu gelişmeler karşısında Türk dili, Yusuf Has Hacib, Kâşgarlı Mahmud, Ahmet Yesevî, Yunus Emre, Ali Şîr Nevâî gibi ediplerin, mütefekkirlerin öncülüğünde anlam bularak ilerlemiş ve geleceğe kendini zenginleştirerek taşımıştır.

Türkçenin önemli dönüm noktasında karşımıza çıkan Ahmet Yesevî, Türklük bilincini ve dinî öğretileri birlikte işlerken bunu Türkçe ile yapmıştır. Yesevî'nin Türkçeye verdiği önem yetiştirdiği öğrencileriyle Türkistan'dan Anadolu'ya kadar ulaşmıştır. Bu çalışmada, Ahmet Yesevî'nin Türkçenin geleceğindeki rolü ortaya konulacak ve dönemsel-tarihsel bağlamda değerlendirmelerde bulunulacaktır.

Anahtar Kelimeler: Türkçe, Ahmet Yesevi, Türkçenin Gücü

Ахмет Яссауи как личность, появившаяся в переломный момент развития тюркского языка

Аннотация

Большое количество ценных письменных текстов, первые экземпляры которых относятся к VII-VIII вв. на протяжении веков и до сегодняшнего дня были написаны на тюркском языке. Безусловно, вместе с этими языковыми реликвиями особое место в истории тюркского языка занимают переписавшие их авторы, переписчики рукописей, или же переводчики с разных языков.



Исторический письменный восточный тюркский язык, который в период с VIII по XIII вв. развивался в едином направлении, по причине изменчивости политического и географического устройства, религиозной среды и социально-культурной атмосферы ускорил свое развитие и продвинулся вперед. Как один из этих факторов, принятие тюрками религии ислам стало поворотным моментом во многих отношениях. С X века ислам структурировал не только религиозную жизнь тюрков, но и язык, литературу, фольклор, искусство и другие направления. В качестве примера можно привести такие события, как использование арабского алфавита, заимствование слов арабского происхождения, создание произведений на тюркском языке авторами и переписчиками рукописей арабского происхождения. В свете этих прогрессивных событий тюркский язык развивался, обретая смысл благодаря деятельности таких литературных мыслителей как Юсуф Хас Хаджиб, Махмуд аль-Кашгари, Ахмед Яссауи, Юнус Эмре, Алишер Навои, и, обогащая себя устремился в будущее.

Ахмет Яссауи, который появился в важный поворотный момент развития тюркского языка в своих произведениях совместил тюркское самосознание и религиозные учения, и сделал это на тюркском языке. То значение, которое Яссауи придавал тюркскому языку распространилось от территории Туркестана до Анатолии вместе с его учениками. В этом исследовании раскрывается роль Ахмета Яссауи в перспективе тюркского языка, а также произведена оценка его деятельности в периодически-историческом контексте.

Ключевые слова: тюркский, Ахмет Яссауи, потенциал тюркского языка

Akhmet Yassawi as a person who appeared at a turning point in the development of the Turkic Language

Abstract

A large number of valuable written texts, the first copies of which date back to the 7th-8th centuries were written in the Turkic language throughout the centuries and up to the present day. Of course, along with these linguistic relics, a special place in the history of the Turkic language is occupied by the authors who rewrote them, copied the manuscripts, or translated them into the different languages.

The historical written Eastern Turkic language, which developed in a single direction in the period from the VIII to the XIII centuries accelerated its development due to the variability of the political and geographical structure, the religious environment and the socio-cultural atmosphere and progressively moved forward. As one of these factors, the adoption of Islam by the Turks was a turning point in many respects. Since the 10th century Islam has structured not only the religious life of the Turks, but also such areas as the language, literature, folklore, art and others. As an example we can cite such events as the use of the Arabic alphabet, the borrowing of words of Arabic origin, the creation of works in the Turkic language by authors and by rewriters of manuscripts of Arabic origin. In the light of these progressive events the Turkic language progressively developed due to the meaningful and important activities of such literary thinkers as Yusuf Khas Khadzhib, Mahmud al-Kashgari, Akhmet Yassawi, Yunus Emre, Alisher Navoi, and therefore enriched itself and moved right to the productive future.



Akhmet Yassawi who appeared at an important turning point in the development of the Turkic language, combined Turkic self-consciousness and religious teachings in his works using only the Turkic language. The importance that Yassawi gave to the Turkic language spread from the territory of Turkestan to Anatolia along with his students. This study reveals the role of Akhmet Yassawi in the perspective of the Turkic language, as well as an assessment of his activities in a periodical and historical context.

Key words: Turkic Language, Akhmet Yassawi, the power of Turkic Language

GİRİŞ

Kökleri milat öncesine dayanan Türk dilinin yazı dili olarak tanınması 7-8. asırlara ait Köktürk bengu taşlarında görülür. Özellikle 8. asırda dikilmiş olan Tonyukuk, Köl Tigin ve Bilge Kağan yazıtları Türk dilinin ulaştığı edebî ve lengüistik seviyeyi ortaya koymaktadır. Köktürkçe dönemi bu yazılı metinler ışığında Türk dilinin yazılı döneminin ilk evresi olarak Türk dili tarihinde yerini almıştır.

Türk Runik alfabeye meydana getirilen bu yazıtlar, Türk yazı dilinin ilk örnekleri olurken Türk Runik alfabe de tarih boyunca Türklerin kullandığı alfabelerin ilk sırasında yerini alır. Türklerin kültür dünyaları, sosyal ve dinî yaşam biçimleri, yaşadıkları coğrafyaları, farklı milletlerle kurdukları ilişkileri Türk dilinin tarihten günümüze ulaşan seyrinde önemli etkenler olarak karşımıza çıkmaktadır.

Orta Asya'nın steplerinde Bozkır kültürünün en önemli temsilcilerinden olan Türkler, boylara ayrılarak dünyanın çok farklı bölgelerinde kendi boy temelinde yaşam alanları kurmuşlardır. Bir yandan Uygurlarla birlikte yerleşik bir düzeni tesis ederken diğer yandan geniş kitlelere sahip Oğuz ve Kıpçak boylarıyla coğrafyaları aşmışlardır. Gelenek ve göreneklerini yaşatırken benimsedikleri veya değiştirdikleri dinler de onların siyaset, ticaret, kültür, dil, edebiyat, sanat gibi pek çok alandaki geleceğine yön vermiştir.

Gök Tanrı inancının yavaş yavaş terk edildiği yerine Budizm ve Manihaizm'in öncelendiği Uygur Kağanlığı döneminde Türk dili, alfabeden leksik birimlere değin etkileşimin yoğunlaştığı örneklerle tespit edilmektedir. Bu dönemde Mani, Brahmi, Soğd gibi farklı alfabelerle Türkçe metinler meydana getirilmiştir. Bununla birlikte ajun "dünya", kaitsi "parlaklık", kua "çiçek türü", kuştr "öğretmen", namo "hürmet, saygı", nom "kanun, yasa", pret "şeytan", psak "çelenk", sart "kervan, tüccar", tamu "cehennem" vb. gibi Çince, Soğdca veya Sanskritçe kökenli alıntıların söz varlığında yer edinmesi de kaçınılmaz olmuştur (Caferoğlu, 2017).

Tarih boyunca Türk dili, farklı coğrafyalarda tesis edilen siyasî teşekküller ve bu siyasî teşekkülleri kuran boyların temelinde varlığını sürdürügelmiştir. Ancak yaşadığı bölgede demografik yapıda azınlık temsiliyetine sahip ya da siyasî ve idarî yönetimde etkin olan topluluklar da Türk yazı diline önemli eserler kazandırmış ve Türkçenin yayılma alanına katkı sağlamıştır. Memlûk Türkçesi sahası eserleri, Karayca metinler, Ermeni harfli Kıpçak Türkçesi metinleri, bu duruma örnek teşkil etmektedir.

Dünyanın çeşitli bölgelerine dağılan Türk boy ve toplulukları ilahi dinlerle; Musevîlik, Hristiyanlık ve İslâm ile de tanışmış, bu dinleri benimseyerek yaşam alanlarının merkezine almışlardır. Hazar Hakanlığının Musevîliği devlet dini olarak belirlenmesi; Avarların, Tuna Bulgarlarının, Peçeneklerin, Kumanların Hristiyanlığı kabul etmesi; Karahanlıların ve Volga Bulgarlarının topyekün İslâmiyet'i benimsemesi



ve sonrasında da Türk ve dünya tarihine iz bırakan Türk devletlerinin İslâmiyet'e bayraktarlık yapması dinî, sosyo-kültürel gibi başlıca alanlarda yaşanan gelişmelerin yanı sıra Türk dilinin ilerleyişine de yön vermiştir.

İslâmî Dönem Türk Edebiyatında Ahmet Yesevî'nin Yeri

10. asırdan başlayarak günümüze uzanan İslâmî muhitin öncüleri Türkler, 11. asırda İslâmî Dönem Türk Edebiyatının ilk ürünlerini ortaya çıkarmışlardır. Kutsal Kitabın dili olan Arapçanın yazımında kullanılan Arap alfabesi de Türkçenin yazımında yerini alarak Karahanlı, Harezmi, Memlük, Çağatay, Selçuklu, Osmanlı, Kırım Hanlıkları, Özbek Hanlıkları vs. dönemleri ile 19-20. yüzyıllarda filizlenen çağdaş Türk yazı dillerinin büyük bir bölümünde kısa da olsa bir süreliğine kullanılmıştır.

11. asırda kaleme alınan Kutadgu Bilig ve Dîvânü Lugâtî't-Türk; 12. asırda yazıldığı düşünülen Atebetü'l-Hakâyık ve yine bu asırda temeli atılan ancak sonraki asırlarda yazıya geçirilen Dîvân-ı Hikmet eserleri İslâmî dönem Türk edebiyatının yapı taşları olarak karşımıza çıkmaktadır.

Bu eserler arasında Kutadgu Bilig, daha çok siyaset ve felsefe muhteviyatıyla, Dîvânü Lugâtî't-Türk sözlük ve folklorik derleme malzemeleriyle öne çıkarken; dinî ve toplumsal ahlâk kurallarını öğretmeye yönelik bir tür nasihat kitabı olarak kaleme alınan Atebetü'l-Hakâyık ile ilk büyük Türk mutasavvıfı unvanını taşıyan Ahmet Yesevî'nin hikmetli sözleriyle İslâmiyet'in esaslarını öğretmek, tasavvuf ilminin inceliklerini ortaya koymak amacıyla meydana gelen Dîvân-ı Hikmet'i ise dinî muhteviyatıyla İslâmî dönem Türk edebiyatında yerini almıştır.

А.Кадыйриның (1894-1939) “Үткән көннәр” романын үзбәк галимнәре тарихи роман дип билгелиләр [1]. Чынлап та романда Атабик һәм Көмеш мәхәббәтенә бәйле рәвештә тарихи вакыйгаларга да билгеле бер урын бирелә, үзбәк халкының составына кергән ике кабиләнең – кыпчаклар белән карачапаннарның канлы бәрелеше сурәтләнә. Әмма тарихи вакыйгаларны сурәтләү романда өстенлек алып тормый. Алар романның биштән бер өлешен генә тәшкил итә. Романның калган өлеше Атабик, Көмеш, Зәйнәпләрнең тарихын, аларның рухи дөньясын сурәтләүгә багышланган. Безнең фикеребезчә, әсәрдә сурәтлängән тарихи вакыйгалар Атабик белән Көмешнең мәхәббәт тарихына бер



фон вазыйфасын гына үтилэр. Шуңа күрә дә “Үткән көннәр” романының жанрын психологик роман дип атау дөрөсрәк булыр.

Тарихи вакыйгалар сурәтләнгәнгә күрә, үзбәк әдәбиятчылары әсәрнең иҗат методы да реализм дип атыйлар. Алар романда 19 гасырның беренче яртысында үзбәк тормышындагы каршылыклар сурәтләнә дип раслыйлар.

Сүз дә юк, тарихи вакыйгалар белән бергә әсәрнең тукумасына реалистик тенденцияләр дә үтеп керә. Әмма бу тенденцияләр “Үткән көннәр” романын реалистик әсәритми. Романда үзбәк тормышын романтикларча сурәтләү өстенлек алып тора. Реализм сыйфатлары романда мәгърифәтчел карашлар белән бәйлә, язучы үзенә мәгърифәтчеләргә хас булган уңай идеалын бирә. Карачапаннар белән кыпчаклар арасындагы канлы бәрелешләрне, тупас ызгышларны ул начар биләр урынына яхшы эхлаклы бикләр куеп, уңай якка хәл итәргә җыена.

Әдипнең мәгърифәтчелек карашлары әсәрнең сәнгатьчә сурәтләү чараларына да тәэсир иткән. Мәсәлән геройларның тышкы кыяфәтләрен, эш хәрәкәтләрен, тормыш күренешләрен сурәтләгәндә А. Кадыйри мәгърифәтче язучыларча уңай геройларның тышкы кыяфәтләре ягыннан да күркәм, ихтирамга лаек кешеләр итеп бирә. Тискәре геройлар һәрьяктан начар итеп гәүдәләнә. Уңай герой Атабикнең портретына игътибар итик: “Бүтән бүлмәләрдә торучылар җиңел табигатьле, күп сөйләүчән кешеләр булса, бу бүлмәнең хужасы авыр сабырлы, күркәм ак йөзле, кара кашлы, әле яңа гына мык чыгып килә торган бер яшь егет иде” [3]. Романның беренче битләреннән үк Атабик идеаль герой буларак күз алдына килеп баса. Аның холкы да, тышкы кыяфәте дә ихтирамга лаек. Аның әтисе – Йосыф хәҗи да шундый күркәм кеше. Аның портреты әсәрдә түбәндәгечә сурәтләнә: “Өстенә Бохара алачасыннан теккән чапан кигән, башына зур чалма ураган, тулы күркәм йөзле, түгәрәк сакаллы галим-голәмгә охшаш бер кеше” [3], өстәвенә автор аның мәгърифәт иясе, галим кеше икәнлегенә дә басым ясый. Тискәре образлардан булган Садыйк та мәгърифәтчеләрчә бирелгән: “... бу егет – сары йөзле, кызарган акай күзле, ялпак борынлы, маңгае никадәр тышка бәреп чыккан булса, йөзе шулкадәр эчкә батып кергән. Кыскасы, ул вакытыннан элек дөньяга килгән бер хәшәрәт бәндә иде” [3]. Мисаллардан күренгәнчә, геройның портреты җан биздергеч. Өстәвенә әле аның эчке доньясы да шәптән түгел – доньядагы иң соңгы “хәшәрәт”. Геройларның портретын бу рәвешле сурәтләү А.Кадыйриның “Үткән көннәр” романында доньяга карашлар һәм сәнгатьчә фикерләүне дә үзенчәлекле итеп, романтик фикерләүне мәгърифәтчелек карашлары белән үрүгә этәрде.

Г.Ибраһимовның (1887-1938) “Яшь йөрәкләр”(1912) романында А.Кадыйридагы кебек мәгърифәтчелек карашлары ярылып ятмый, ул мәгърифәтле морзалар ярдәмендә доньяны үзгәртеп корырга да җыенмый. Бу аңлашыла да, чөнки бу чор татар әдәбиятында инде мәгърифәтчелек идеяләре XX йөз башындагы кебек актуаль түгел иде. Беренче рус инкыйлабы чорында Г.Ибраһимовның доньяга карашында революцион-демократик фикерләр өстенлек итә. Г.Халит фикеренчә, “Яшь йөрәкләр” романы – язучының романтик ашкыну һәм эзләнүләренең иң югары ноктасын күрсәткән әсәр” [5]. Романда сурәтләнгән һәр образ тирән романтик психологизм белән сугарылган. Жәләш мулла портретына мөрәҗғәгать итик, автор аның тышкы кыяфәтен генә сурәтләп



калмый, портрет детальләре аша горур характерына басым ясый: “Зыяның атасы Жәләш хәзрәт кыяфәте белән бабаларына охшый: ул озынрак буйлы, киң күкрәкле, зур вә тигез жилкәле, киңрәк һәм озынчарак йөзле. Аның күксу соры күзләре һәрвакыт һәрнәрсәгә югарыдан һәм мәртәбә белән карарга яраталар. Ул үзе күп, кызыклы һәм югарыдан торып сөйли” [2]. Күрәбез автор, Жәләш мулланың портретына гына түгел, психологиясенә игътибар итә.

Зыя портретын биргәндә дә автор аның характерындагы үзенчәлекләргә игътибар итә. Мәсәлән, аның күк төсле күзләре “бөтен дөньяга көлеп, яратып карыйлар” [2]. Ул, анасына тартымрак булып, “озынрак буйлы, нечкәрәк гәүдәле; бөтен эгъзаларында хатыннарга хас назиклек сизелә” [2]. Г.Ибраһимов Зыяның тышкы кыяфәтендә генә түгел, һәрбер сүзендә, мөгаләмәсендә йомшаклык, нәфислек, ягымлылык сизелә. Югарыда искәртелгәнчә, А.Кадыри геройларының портретын биргәндә Г.Ибраһимовтан нык аерыла. Уңай һәм тискәре геройларны биргәндә А.Кадыри мәгърифәтчел принциплардан чыгып эш итә, ә Г.Ибраһимов портретлары өчен динамика хас. Ул үз геройларының портретларын би­рү белән беррәттән аларның психологиясендәге төп һәм ярдәмче сыйфатларга да игътибар итә, аларны күпкырлы итеп сурәтли.

Нәтижә ясап шуны әйтергә мөмкин ” “Яшь йөрәкләр”, “Үткән көннәр” романнарында Г.Ибраһимов белән А.Кадыри романтиклар буларак чыгыш ясыйлар. Әмма аларның дөньяга карашлары икесендә ике төрле булу сәбәпле, бу романтизмдагыча сәнгатьчә фикерләү, портрет би­рү осталыгы үзенчәлекле, бер-берсеннән аерылып тора. А.Кадыри мәгърифәтчеләргә хас булган ак һәм кара буяулар белән эш итсә, Г.Ибраһимов геройлар портретын биргәндә алар характерындагы теге яки бу сәләткә дә басым ясый.

Г.Ибраһимов һәм А.Кадыри – татар һәм үзбәк әдәбиятларының күренекле прозаиклары. Алар икесе дә үз ижатларында XX йөз башындагы бөек ижтимагый хәрәкәтләр, инкыйлаблар һәм социализмга тарихи күчеш чорын гәүдәләндергән күренекле шәхесләр. Татар һәм үзбәк халыклары ижтимагый тормышының кайбер үзенчәлекле яклары Г.Ибраһимов белән А.Кадыриниң гадел жәмгыять ту­рындагы идеалларын төрлечә гәүдәләндерүгә этәрә.

Әдәбият:

1. Абдумавлянов А. История узбекской литературы. - Ташкент, изд-во “Учитель”, 1966. - 248 с.
2. Г. Яшь йөрәкләр, Казакъ кызы / Сайланма әсәрләр. Казан: Татар. кит. нәшр., - 2-т. - 1975.- 477 б.
3. Кадыри А. Үткән көннәр. - Казан: Татар. кит. нәшр., 1959. – 379б.
4. Хаджихметов А. Узбекские литературные связи во второй половине XIX и в начале XX веков. Автореферат докт. дисс., Ташкент, 1974. - 67с.
5. Халит Г. Кешегә һәм чынбарлыкка мөхәббәт белән. - Казан: Татар. кит. нәшр., 1975. - 179б.
6. Хәсәнов М. Галимжан Ибраһимов. - Казан: Татар. кит. нәшр., 1964. – 288 б.
7. SAIDAKBAROVA, M. «Historical facts and poetic fictions in the work of Alisher Navoi.» *Scientific Journal of Fergana State University* 1 (2018): 106-108.



8.SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy's creative work." *Scientific journal of the Fergana State University* 1.4 (2018): 106-108.

9.Саидакбарова, Мукаддас. «» TARIXI MULUKI AJAM»(« ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ») КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК.» *Theoretical & Applied Science* 12 (2018): 122-126.

10.Saidakbarova, Muqaddas Muhammadrahimovna, and Ramziya Abdurahimovna Jo'Rayeva. "SHOH BAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADIY OBRAZ." *Academic research in educational sciences*4.Conference Proceedings 1 (2023): 168-173.

11.Muqaddas, Saidakbarova. "INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.

12.Muhammadrahimovna, Saidakbarova Muqaddas, and Kurbanova Feruza Azamovna. "FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE RELATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).

Сахабетдинова Альфина Булатовна

Елабужский институт (филиал)

Казанского (Приволжского) федерального университета.

Елабуга, Россия

Научный руководитель: Габидуллина Ф. И., канд. фил. наук, доцент,

Елабужский институт (филиал)

Казанского (Приволжского) федерального университета.

Елабуга, Россия

Саидакбарова Мукаддас Мухаммадрахимова, (PhD)

Кокандский Педагогический Институт, Узбекистан, г. Коканд

ГАДЕЛ КУТУЙНЫҢ "ТАПШЫРЫЛМАГАН ХАТЛАР" ПОВЕСТЕНДӘ КӨЧЛЕ ХАТЫН КЫЗ ОБРАЗЫ

Аннотация. Адель Кутуй - один из самых гениальных писателей татарской литературы. Автора волнуют вопросы морали, духовный мир человека. В своем знаменитом произведении «Неотосланные письма» Кутуй показывает конфликт, возникший между молодыми супругами, который отражает столкновение устаревших патриархальных и новых взглядов на женщину в семье, а главная героиня повести является примером сильной и волевой женщины.

Ключевые слова. писатель, образ сильной женщины, "Неотосланные письма", Скарлетт О'Хара.

Annotation. Adel Kutui is one of the most brilliant writers of Tatar literature. The author is concerned about moral issues, the spiritual world of person. In his famous work "Unsent Letters" Kutui shows the conflict that has arisen between young spouses, which reflects the clash of outdated patriarchal and new views on a woman in the family, and the main character of the story is an example of a strong and strong-willed woman.

Keywords. writer, image of a strong woman, "Unsent letters", Scarlett O'Hara.



Гадел Кутуй - татар прозаигы, шагыйрь, драматург, публицист һәм әдәби тәнкыйтьче. Язучы бик яшь килеш вафат була.

Ижат юлын Г.Кутуй шагыйрь футурист буларак башлый. Иске әдәбиятны яңартып, үзенә генә хас булган яңа әдәби дөнья булдырырга сәләтле язучыларның берсе. Авторның иң танылган әсәре “Тапшырылмаган хатлар”, XX гасыр башында халык өлешенә төшкән сынаулардан соң, мәхәббәт турындагы повесть саф һава йотымы кебек була[1].

Татар совет язучысы Гадел Кутуй (Гаделша Нурмөхәммәт улы Кутуев) 1903 елда Татар Кынадысы авылында туа. Авыл мәктәбендә укый, аннары, гаилә белән Самарага күчкәч, Самара хезмәт мәктәбендә укый. Анда ул күренекле рус язучысы А. Неверов житәкләгән әдәби түгәрәккә йөри, шигырьләр яза башлый. Маяковскийдан нәрсәләргә өйрәнә.

Искиткеч журналист Гадел Кутуй Бөек Ватан сугышының беренче көннәрендә үк үз теләге белән фронтка китә, кайбер сугышларда катнаша, Сталинград оборонасының актив катнашучысы була, берничә тапкыр хөкүмәт тарафыннан бүләкләнә. Гадел Кутуй 1945 елның 16 маенда хәрби госпитальдә каты авырудан үлдә[3].

Гадел Кутуйның ижат биографиясендә «Тапшырылмаган хатлар» повесте иң әһәмиятле әсәр булып санала. Ул укучылар арасында зур уңышка ирешә, берничә тапкыр яңадан бастырыла һәм элеккеге союзның барлык телләренә тәржемә ителә.

«Тапшырылмаган хатлар» повестенң асылын татар хатын-кызы язмышы билгели. Авторны эхлак мәсьәләләре, кешенең рухи дөньясы борчый. Яшь ир белән хатын арасында туган конфликт гаиләдә хатын-кызга карата булган искергән патриархаль һәм яңа карашлар бәрелешен чагылдыра[2].

Безнең эшебезнең максаты – “Тапшырылмаган хатлар” әсәренең төп герое Галия образына анализлау, Маргарет Митчеллның “Унесенные ветром” романы төп герое Скарлетт О’Хара образы белән чагыштыру. Галиянең көчле һәм ихтыялы хатын – кыз булуын дәлилләү.

“Тапшырылмаган хатлар” повесте герое Галия – йомшак, мөлаем, бер үк вакытта көчле һәм ихтыярлы хатын. Ире ташлаганнан соң да ул төшенкелеккә бирелми, врач булу максатына ныклы адымнар белән бара, балаларын үстерә, кешеләрнең хөрмәтен яулый, чын мәхәббәттен таба[2].

Галиянең көчле хатын – кыз үрнәге булуын дәлилләр өчен аны Скарлетт О’Хара белән чагыштырып китәбез.

“Унесенных ветром” романыннан Скарлетт О’Хара - дөнья әдәбиятында иң танылган героиняларның берсе. Маргарет Митчелл үзенең төп героен уңай белән бер рәттән тискәре сыйфатлар ия кеше итеп тасвирлый. Ләкин Скарлетт укучыларга ошый, ул бәйсезлек, житезлек һәм рух көч символына әйләнә.

1936 елда язылган Роман АКШтагы гражданның сугышы чорына багышланган. Скарлетт О’Хара - плантатор кызы, көньяк чибәре, ир-ат игътибарыннан бүленмәгән. Сугыш башлангач, ул кечкенә бала белән тол кала, ә тиздән ата-ана утары кимү белән очраша. Ныклы характерга һәм эшлекле тоткычка ия булган Скарлетт йорт башлыгы була, үз бизнесын башлый һәм теләгәнчә ирешә[4].

Галияне Гадел Кутуй йомшак, мөлаем хатын итеп тасвирлый. Скарлетт белән



Галиянең максатлары, тормышка планнары аерылса да, аларның охшаш яклары шактый. Галия дә Скарлетт кебек тормышны, яшәешне үз җилкәсендә алып бара, балаларны тәрбияли, аларны тәэмин итә, табиб булу теләгенә ирешә.

Галия ире ташлап китүгә карамастан, тормыш авырлыкларына бирешми, балаларын ташлап китми. Кызы Кадрияне дә, улы Рафаэльне дә бертигез яратып, кадерләм үстерә. Аның табиб һөнәрен сайлавы да аның көчле, ихтыялы кеше булуына дәлил булып килә.

Әдрәскә күчеп килгәчтә, Галияне авырлыктар каршы ала: башка табибларның эшләргә теләмәве, Галиуллинның бәйләнүләре, кешеләргә үз тормышы турында алдап йөрүе. Ләкин Галия барлык авырлыктарны да җиңә, күп кенә кешеләрнең гомерен коткара, балаларына яхшы тәрбия бирә. Балалары язмышы өчен кайгырып Вәлигә ялганын ача, аннан ярдәм сорый.

Галия — татар әдәбиятында язылган көчле геройларның берсе. Ире ташлап киткәннән соң ул язмыш сынауларына бирешми, табиб булу максатына ирешә, балаларына яхшы тәрбия бирә. Үзенең тырышлыгы, максатчанлыгы ярдәмендә үзенә якты, матур тормыш төзерергә тырыша.

Әдәбият

1. <https://www.syl.ru/article/429092/adel-kutuy-biografiya-i-tvorchestvo>
2. <https://tatarica.org/tat/razdely/kultura/literatura/shheslr/kutuj-gadel>
3. <https://obrazovanie-gid.ru/>
4. <https://mybook.ru/sets/10828-silnye-zhenshiny-v-mirovoj-literature/>
5. Митчелл, Маргарет. Унесенные ветром. [Роман. В 2 т.]. Т. 1/ Маргарет Митчелл; [перевод с английского Т. Озерской]. — Москва: Издательство АСТ, 2022. — 704с. (Эксклюзивная классика).—
6. Митчелл, Маргарет. Унесенные ветром. [Роман. В 2 т.]. Т. 1/ Маргарет Митчелл; [перевод с английского Т. Кудрявцевой]. — Москва: Издательство АСТ, 2022. — 704с. (Эксклюзивная классика).
7. <https://belgech.ru/proizvedeniya/tapshyrylmagan-khatlar> — Гадел Кутуй “Тапшырылмаган хатлар”
8. SAIDAKBAROVA, M. «Historical facts and poetic fictions in the work of Alisher Navoi.» *Scientific Journal of Fergana State University* 1 (2018): 106-108.
9. SAIDAKBAROVA, M. “Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy’s creative work.” *Scientific journal of the Fergana State University* 1.4 (2018): 106-108.
10. Саидакбарова, Мукаддас. «» TARIXI MULUKI AJAM» (« ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ») КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК.» *Theoretical & Applied Science* 12 (2018): 122-126.
11. Saidakbarova, Muqaddas Muhammadrahimovna, and Ramziya Abdurahimovna Jo’Rayeva. “SHOH BAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADIY OBRAZ.” *Academic research in educational sciences* 4. Conference Proceedings 1 (2023): 168-173.
12. Muqaddas, Saidakbarova. “INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY.” *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.
13. Muhammadrahimovna, Saidakbarova Muqaddas, and Kurbanova Feruza Azamovna. “FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE RELATIONS.” *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).

BURSALI İSMAIL BELİĞ VE GÜLDESTE-I RİYÂZ-I İRFÂN

Özet

Bu yazıda, Bursalı İsmail Belîğ'in (ö. 1142/1729) *Güldeste-i Riyâz-ı İrfân* isimli vefeyatnamesinin Bursa kültür tarihi kaynağı olarak taşıdığı değer vurgulanacaktır.

Түйіндеме:

Бұл мақалада Бурса мәдени тарихының қайнар көзі ретінде *Гүлдесте-и Рияз-ы Ирфан* деп аталатын Бурсалы Исмаил Белигтің (б.з.б.1142/1729) құндылығына тоқталатын болады.

Аннотация:

В этой статье подчеркнута ценность Бурсали Исмаила Белига (1142/1729 д.н.э) его работы по имени Гюльдесте-и Рияз-и Ирфан как источника культурной истории Бурсы.

Annotation:

In this article, the value of Bursalı İsmail Belîğ (d. 1142/1729) named *Güldeste-i Riyâz-ı İrfân* as a source of Bursa cultural history will be emphasized.

Bursalı İsmail Belîğ (d. 1079/1668 - ö. 1142/1729)

Divan şairi ve tezkire yazarı olup asıl adı İsmail'dir. 1079/1668 tarihinde Bursa'da doğdu. Babasının adı Seyyid İbrâhim, dedesininki Seyyid Mehmed; lâkabı ise Şâhin Emirzâde'dir. İyi bir öğrenim gördüğü bildirilen Belîğ; dedesinin, babasının ve kendisinden sonra da oğlunun ailece uzun yıllar imamlık yaptıkları Manticı Camii'nde elli yıl imamlığın yanı sıra Tokat mahkemesi nâibliği, Evkaf-ı Haremeyn-i Şerîfeyn Mahkemesi'nde müfettiş kâtipliği, Emîr Buharî ile Yeşil İmaretlerinde şeyhlik, kâtiplik, galle nâibliği, mûsikişinaslık ve zâkirbaşılık görevlerinde bulundu.

Süleyman Hâlis "Tayr ola Cennete Şâhin-zâdem" mısraı ile Belîğ'in 1142/1729 yılındaki ölümüne tarih düşürmüştür. Bugün Bursa Osmangazi Belediyesi sınırları içindeki Çatalfırın yakınlarında günümüzde ortadan kaldırılmış olan Yeni Yer Mezarlığı'na defnedilen Belîğ'in kabri bilinmemekte ve mezar taşı bulunmamaktadır.

Belîğ, bu mahlası ilk defa kullanmasının yanı sıra tarih ve biyografi türündeki eserleriyle devrinden günümüze kadar seçkin bir şahsiyet olarak tanınmıştır. Bursa kültür tarihi için vazgeçilmez kaynakların başında gelen ve *Güldeste* adıyla tanınan eseriyle bilinen Belîğ ile Yenişehirli Mehmed Emin Belîğ'in şiirleri birbirine karıştırılmıştır. Belîğ'in manzum, mensur ve manzum/mensur karışık eserleri şunlardır:

1. *Güldeste-i Riyâz-ı İrfân ve Vefeyât-ı Dânişverân-ı Nâdiredân* (1139/1727): Belîğ'in, Baldırzâde Mehmed'in *Ravza-i Evliyâ'sını* esas alarak yazdığı vefeyâtname türündeki bu eseri beş bölümden meydana gelmektedir. Belîğ'in, Osmanlı sultan, vezir, şeyh, âlim ve şair biyografilerine, kendisinde önceki kaynakların bilgilerini düzelterek, yer verdiği bu eseri dönemin Bursa Ticaret Mahkemesi Reisi Mehmed Eşref tarafından *Tarih-i Bursa* alt başlığıyla 1302/1886-87'de Hüdavendigâr Vilayeti Matbaasında bastırılmıştır.



2. *Nuhbetü'l-Âsâr li-Zeyli Zübdeti'l-Eş'âr* (1139/1726): Kafzâde Fâizî'nin *Zübdetü'l-eş'âr*'ına zeyil olarak yazılmış antoloji türünde bir eser olup 1030/1620 yılından 1139/1726'ya kadar yetişen şairler Belîğ tarafından eklenmiştir.

3. *Gül-i Sad-berg* (1136/1723). Manzum 100 hadistir.

4. *Sergüzeşt-nâme-i Fakîr be-Azîmet-i Tokat* (1114/1702): Belîğ'in Tokat'a giderken çektiği zahmetleri, memuriyet çilesini ve azledilişini anlattığı mesnevisidir.

5. *Şehrengîz-i Bursa* (1119/1707): Âyîne-i Hûbân ismiyle de bilinen bu manzum eserde Bursa ünlüleri tasvir edilmiştir.

Divan, Seb'a-i Seyyâre ve Genc-i Şâygân isimli eserleri ise ele geçmemiştir.

Güldeste-i Riyâz-ı İrfân

Güldeste, 1135/1723 yılında Bursa'da tamamlanarak Lâle Devri sadrazamı Damad İbrahim Paşa'ya (ö. 1143/1730) sunulmuştur.

Güldeste, Bursa'nın fethinden tamamlandığı tarihe kadar geçen yaklaşık 400 yıllık süre zarfında Bursa'da yetişen, yerleşen, vefat eden Osmanlı sultan, şehzade, vezir, mutasavvıf, âlim, şair, musikişinas, hattat, nakkaş, meddah ve tabiplerinin biyografilerinin yanı sıra; şair olanların da şiirlerinden örnekler verir. Bu yönüyle söz konusu eserin aynı zamanda bir 'Bursa Şuara Tezkiresi' niteliği taşıdığı da söylenebilir.

Bursa'da vefat etmiş kişilerle ilgili birinci derecede önemli bir kaynak niteliğinde olan *Güldeste*, vefeyat türünün iyi örneklerinden biridir. Belîğ, eserin *sebeb-i telif*'inde kendisinden önce kaleme alınmış olan Baldırzade'nin *Ravza-i Evliya* adlı eserine zeyl yazmayıp yeniden ele almayı uygun bulduğunu belirtmektedir.

Bunun yanı sıra, Belîğ'in '*gülbün-i hâmis*'i sanatkârlara ayırmak suretiyle tabakat ve hâl tercümelerine dair kitaplarla mesleklere ilişkin yazılanları birleştirerek vefeyat türüne yeni bir yaklaşım getirdiği görülmektedir. Bu bölümde, özellikle meddahlarla ilgili açıklamaları, diğer kaynaklarda bu konuda az bilgi bulunduğundan esere değer kazandırmaktadır.

Güldeste'nin 13 yazma, bir müsvedde ve bir telhisinin yanında zamanın Bursa Ticaret Mahkemesi reisi olan Kasapzade Mehmed Eşref Bey tarafından 1302/1884 yılında Hüdavendigâr Vilâyeti Matbaası'nda basılmış bir nüshası vardır. *Tarih-i Bursa* ön başlığını taşıyan bu matbu nüsha, basımı gerçekleştiren Eşref Bey'in Bursa nüshasının yanı sıra diğer yazma nüshalara başvurması ve çoğunlukla ilk elden derkenarları ile daha da zenginleştirilmiştir.

***Güldeste-i Riyâz-ı İrfân'ın Bölümleri* (Bursa 1302)**

Güldeste'de, bir 'Dibace'den sonra 'Gülbün' başlığıyla beş bölüm hâlinde belirli zümrelerdeki kişilerin biyografileri bir araya getirilmiştir. Bu 'Gülbün'ler ayrıca 'Gülnihâl'lere ayrılmıştır:

Dibaces. 3-10
Gülbün-i Evvel: Padişahlar, şehzadeler ve vezirler. 10-69
Gülbün-i Sâni: Şeyhler s. 69-188
Gülnihâl: Vaizlers. 93-211
Gülnihâl: Meczuplar ve abdallars. 212-238
Gülbün-i Sâlis: Âlimler ve müderrislers. 239-435



Gülnihâl: Seyyitler ve salihlers. 437-446
Gülbün-i Râbi': Şairlers. 446-523
Gülbün- Hâmis: Hüner sahipleri s. 523-537
(musikîşinas, hattat, nakkaş, meddah ve tabipler)
Hatimes. 538-545

Sonuç

Bursa kültürü ile ilgili konularda başvurulmuş ilk eserlerden olan *Güldeste* bir kaynaktaki bulunması gereken özellikleri bünyesinde barındırmaktadır. Eserde, zaman zaman ele alınan konularla ilgili bilgilerin bulunduğu yerler de belirtilmiştir. Belîğ, bilgi aktardığı kaynakları belirtmesinin yanı sıra bu kaynakları yer yer intikada tabi tutarak tashih etmektedir [*Güldeste*'de Pâre Pârezâde Ahmed Çelebi ile ilgili olarak "Âşık Çelebi'nün *Meşâ'irü's-Şu'arâ* isimli tezkiresinde Silivri kadısı iken *Tevârîh-i Âl-i Osmân* nazm itdi didigine Atâyî *Hadâiku'l-Hakaik*'ında dahl itmişdür" denilmektedir. krş. Kadir Atlansoy, *Bursa Şairleri Bursa Vefeyatnamelerindeki Şairlerin Biyografileri*, Bursa 1998, s. 294].

Söz konusu eser, ele aldığı kişilerin konumlarına uygun kelime, kavram, terim, unvan ve üslûp seçimiyle de ayrıca ele alınması gereken bir eser kimliğine sahiptir ["Umdetü'l-ulemâ'i'l-muhakkikîn ve zübdetü'l-fuzalâ'i'l-müdekkikîn fâzıl-ı devrân hâce-i âlemiyân İshak Hâcesi dinmekle ma'rûf Mevlânâ Ahmed Efendi. Ser-bülend-i fuzalâ-yı meşâhîr-i devrân ve ercümend-i gatârife-i müşârûn ileyhi bi'l-benân-ı cihân efâzıl-ı zamânenün yegânesi". krş. Atlansoy, *a.g.e.*, s. 187-188].

Güldeste, ilk elden ve mütedavil olmayan bilgilere yer vermesi açısından *vaz geçilmez* bir kaynaktır. Karşılaştırmalı çalışmalar çoğaldıkça bu eserin kaynak olma değeri daha iyi anlaşılacağı kanaatindeyiz [İsmail Belîğ, *Güldeste-i Riyâz-ı İrfân ve Vefeyât-ı Dânişverân-ı Nâdiredân*, haz. Abdulkerim Abdulkadiroğlu, Ankara 1998; Abdulkerim Abdulkadiroğlu, *Bursalı İsmail Belîğ*, Ankara 1985. Klasik Türk edebiyatında şair biyografilerini konu alan eserler için bk. Mustafa İsen ve ötekiler, *Şair Tezkireleri*, Ankara 2002, s. 7-15. Ayrıca bk. İsen, Mustafa, "Edebiyat Tarihi Açısından Kühnü'l-Ahbar'ın Önemi", *TDEA, II, Prof. Dr. Harun Tolasa Özel Sayısı*, İzmir 1983, s. 49-57. İsen, Mustafa, "Kühnü'l-Ahbar'ın Şairlerle İlgili Kısımlarının Kaynakları", *TDEAD III*, İzmir 1984].

Kaynaklar

- Abdulkadiroğlu, Abdulkerim (1985). *Bursalı İsmail Belîğ*, Ankara: Gazi Üniversitesi Yayınları
- Abdulkadiroğlu, Abdulkerim (hızl) (1985). *İsmail Belîğ Nuhbetü'l-Âsâr li-Zeyl-i Zübdetü'l-Eş'âr*. Ankara: Gazi Üniversitesi Yay.
- Abdulkadiroğlu, Abdulkerim (hızl) (1998). *İsmail Belîğ Güldeste-i Riyâz-ı İrfân ve Vefeyât-ı Dânişverân-ı Nâdiredân*. (Tıpkıbasım). Ankara: Anıl Matbaa ve Ciltevi
- Atlansoy, Kadir, *Bursa Şairleri Bursa Vefeyatnamelerindeki Şairlerin Biyografileri*, Bursa 1998.
- Babinger, F. (1992) *Osmanlı Tarih Yazarları ve Eserleri*, çev. Coşkun Üçok, Ankara: KTB Yay. 288-290.



- Bursalı Mehmed Tâhir (1333). *Osmanlı Müellifleri*. C.2. İstanbul: Matbaa-i Âmire, s. 102.
- Çıpan, Mustafa, "Beliğ, İsmail" *İslâm Ansiklopedisi*. İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı Yay. C. 5: 415-416. <http://www.islamansiklopedisi.info/madde.php?klme=Beli%C4%9F&secim=mdd&-find=+ARA+> [22.02.2014].
- Ergun, S. Nüzhet (1945). *Türk Şairleri*, II, 809-817.
- İpekten, Haluk vd. (1988). *Tezkirelere Göre Divan Edebiyatı İsimler Sözlüğü*. Ankara: KTB Yay.
- İsen, Mustafa ve ötekiler, *Şair Tezkireleri*, Ankara 2002.
- İsen, Mustafa, "Edebiyat Tarihi Açısından Kühü'l-Ahbar'ın Önemi", *Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi*, II, Prof. Dr. Harun Tolasa Özel Sayısı, İzmir 1983.
- İsen, Mustafa, "Kühü'l-Ahbar'ın Şairlerle İlgili Kısımlarının Kaynakları", *Türk Dili ve Edebiyatı Araştırmaları Dergisi* III, İzmir 1984.
- İsmail Belig (1302). *Güldeste-i Riyâz-ı İrfân ve Vefeyât-ı Dânişverân-ı Nâdiredân*. Bursa: Bursa Hüdavendigâr Vilayeti Matbaası.
- İz, Fahir, "Beligh", *Encyclopedia of Islam*², Leiden: I, 1165.
- Levend, A. S. (1973) *Türk Edebiyatı Tarihi*, Ankara: TTK Yay I: 408.
- Levend, A. S. *Türk Edebiyatında Şehr-engizler ve Şehr-engizlerde İstanbul*, İstanbul: 56-58.
- Tansel, F. Abdullah, "Beliğ", *İslam Ansiklopedisi*, II, 489-491.

**Karimova S. f.f.n., dotsent,
Tursunova N. talaba, Qo'qon DPI**

YIGIRMANCHI ASR ADABIYOTIDA ESSELAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada esselarning jahon adabiyotida shakllanishi va uni o'zbek adabiyotida ko'rinishi haqida malumot beriladi.

Kalit so'zlar. Esse, janr, obraz, mavzu, g'oya, xulosa.

"Esse (frans. – urinish, sinash, ocherk) – erkin kompozitsiyali, uncha katta bo'lmagan nasriy asar⁵⁵".

Yuqoridagi tarifda esselar nasriy asar deb berilsada, ba'zida she'riyatga xos ohanglarda ham beriladi. Strukturasi o'ta erkin malum bir adabiy qoidalarga tushmaydi. His-tuyg'ularga asoslanadi. Bosh qahramoni insongina bo'lib qolmasdan boshqa janrdagi asarlar kabi turli predmetlar xattoki mavhum predmetlar ham bo'lishi mumkin. Ular orqali insonlarga xos bo'lgan xusiyatlar beriladi.

O'zbek adabiyotida mazkur janr XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esselar yozila boshladi. Mazkur esselar falsafaviy, tarixiybiografik, publitsistik, adabiy-tanqidiy ilmiyommabop yoki sof balletistik xarakterga ega bo'ldi.

Ijodkor Ibrohim G'ofurov esse janrining deyarli asoschilaridan biri bo'lib qoldi. O'zbek adabiyotida janrning keng tarqalishiga hissa qo'shdi.

Xozirgi zamon esselarida ko'proq muhabbat, vafo, sadoqat mavzulari yoritilib insonning shaxsiy tuyg'ularini ifodalashga e'tibor qaratiladi. Mavzular doirasi juda keng.

⁵⁵ Qomus.info. Esse



Biron muammo yoki masala haqida fikr yuritilar ekan ichki tuyg'ularga diqqat qaratiladi. Tuyg'ularni o'zbek tili so'z boyliklaridan foydalangan xolda sinonimik iboralardan va fikrlardan foydalanishga harakat qilinadi.

Esselar insoniyat tarixining uzoq zamonlariga borib taqaladi. Inson qalbidagi ro'y berayotgan o'zgarishlarni tasvirlash ehtiyojini tuygan zaxoti esse tarzida berilgan mushohadalarga duch kelamiz. Jahon adabiyotida esselar asosan g'arb adabiyoti bilan bog'liqdir.

Yigirmanchi asr romantizm g'oyalariga asoslangan rasmiy va norasmiy esse yozishmalarining qayta tiklash davri bo'ldi. Norasmiy esselar davr romantizmining har bir davr talab qilgan barcha savollarga javob berdi. Shaxsiy insho na'munalari bozor munosabatlarini aks ettirgan Lemb, Xezzlit, Xunt, De Kvinsi va boshqalarning ijodida ko'rinadi. Lembning "Eliya esselari" (1820-yil yozila brshlangan) o'zgacha original uslub, yengil kulgi, avtobiografik qarash va qiziqishlar shuningdek shahar adabiyotining ichki imkoniyatlarini namoyish etdi. Hatto mashhur romanchilar Charles Dikens ("Boz p'esalari" 1836), Tekeri ("Aylanayotgan qog'oz parchalari" 1860-1863) ham kichik hajmdagi esselar yozishdi. Essening Tetler turidagi mavzuning keng qamrovli, konfliktning yorqinligi va original tasvir vositalari o'rniga yozuvchilar ayrim o'zgartirishlar kiritdi. Yigirmanchi asrgacha mavjud bo'lgan esselardan oziqlangan, intim mavzuga keng o'rin berilgan, yirik hajmli Addisoniy esselarida ijod qila boshladilar.

Asr so'nggiga kelib, Lembga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Robert L'yuz Stevenson maydonga chiqdi va u g'alati yumor, hayoliy tasavvur mukammal usul va xushchaqchaq xarakterli shaxsiy esselarni yaratdi. Ular qatotriga "Virjiniya manzaralari" (1881), "Portret va esdaliklar" (1887) ni kiritish mumkin. A.S. Benson, G. K. Chesterson va E.V.Lukaslar Angliyada norasmiy esse yozuvchi adiblar sifatida yuqori mavqega erishdilar.

O'n to'qqizinchi asrning rasmiy esselarining ko'p qismi "Edinburg aksi" (1802), "Vestminster xotiralari" (1824) kabi yumoristik jurnallar ta'sirida paydo bo'ldi. Fransis Jefrey, T.B.Makaulay, Toms De Kvinsi, Volter Skot, Tomas Karlayl va keyinchalik Jorj Eliot, Matyu Arnold va boshqalarning kitoblarga tanqidiy yo'nalishlarda yozilgan esselarida ham hayotiylik na'munasi ko'rinadi. O'n to'qqizinchi asrda ijod qilgan ko'plab prozaik yozuvchilar ijodida ham rasmiy esselarni uchratish mumkin. Mavzusiga ko'ra biroz farq qiladigan Toms Karlayl, Jon Raskin, Volter Piter, Charlez Kingsley, Met'yu Arnold va Kardinal N'yumen kabi adiblarning esselari tarixiy, biografik, ilmiy, ta'limiy, diniy va etikaga oid yo'nalishlarda yozilgan.

Amerikada asr boshida amerika yozuvchilari Kotn Mater, Jonatan Edvards, Benjamin Franklin, Tomas Jefferson, Aleksandr Gamilton asarlarida esselar ko'zga tashlanadi. Amerika adabiyotida birinchi haqiqiy adabiy insholarni Tom Pein, Jon De Kreveker addison usulida bitdilar. Ralf Valdo Emerson o'zining aforistik usulida Bakon asarlariga xos ortiqcha idealizmdan qochib, realistik tahlillar bilan amerikaning eng mashhur essechilaridan biriga aylandi. H.D.Toreu asarlarining ayrimlari norasmiy esse xarakteriga ega. Shunga o'xshash yana bir asar Oliver Vendel Xolmsning "Nonushtadagilar xissiyotlari" essesi bo'lib, bu asar g'ayrioddiy qahramonlardan iborat yumoristik asardir. Yana mashhur essechilarga Jeyms Ressel Novil ("Kitoblarim orasida" (1870-1876) noodatiy tasvir vositalari qo'llangan), dolzarb mavzulardagi kritik esselar muallifi Edgar Alan Poelar bu janrning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.



Keyinchalik, Kurtis, S.D.Varner, V.D.Hovels, Mark Tven, Jon Borou, Dallas Lora Sharp, Genri Van Deyk, Uilyam Bibi, Kristofer Marloe, Jeyms Truber kabilar yangi janrning salmog'ini oshirib, uni o'z asarlari bilan boyitdi.

Rasmiy esselar hayoliy romantizmdan farqli ravishda muallifning mavzuga doir uzoq o'ylangan va aniq jiddiy maqsadni ko'zlovchi xarakterga ega hajviy pafosda yaratilgan qisqa xajmli asardir. Bunga eng yorqin misol sifatida biror jiddiy mavzuda gazeta yoki jurnalda chop etilgan maqola yoxud ilmiy va falsafiy materiallarni olish mumkin. Rasmiy esse yozish jarayonida adabiy tasvir, obrazlilik ikkinchi o'rindagi vositadir. Bunday asarlarning asosiy qismini daliliy mulohazalar tashkil qiladi. Bu an'ana ingliz adabiyoti prozasiga xos tuzilish va umumiylikni aks etadi.

Norasmiy esselar, boshqacha xarakterga ega bo'lib, ibratli va aforistik ta'sir bilan boshlanadi. Insonning xatti-xarakati va odatlari bilan keng yoritilib, ichki hissiyotlarga alohida e'tibor beriladi. Qat'iy qurilish mezoniga qisman amal qilinib, vaqt o'tishi bu asarning qadrsizlanib, eskirishiga ta'sir etmaydi, chunki undagi insoniy harakat va odob qoidalari yo'qolib ketmaydi. Bunday insholarning bosh g'oyasi ruhiyatga ta'sir etish, yengillik va kulgidan iborat. Yigirmanchi asrda essening haqqoniy va jiddiy g'oyalarni aks ettiruvchi shakli rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qomus.info. Esse
2. Adabiy turlar va janrlar (Tarixi va nazaryasiga doir) T. Fan. 1991.
3. O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. T.Fan.1983.

***Zokirov Muxtorali Turdaliyevich,
Farg'ona davlat universiteti professori,
filologiya fanlari nomzodi***

O'ZBEK VA TOJIK TILLARINING LEKSIK SATHDAGI O'ZARO TA'SIRI XUSUSIDA

Annotasiya. Maqolada Farg'ona viloyati Rishton tumanida yashovchi tojik millatiga mansub aholi shevasi misolida o'zbek tilining shimoliy tojik shevalarining leksik sathidagi ta'siri masalalari yoritilgan.

Tayanch so'z va iboralar: til kontaktlari, leksik o'zlashmalar, so'z turkumlari, leksik-semantik guruh, dominant til, model.

Аннотация. В статье на примере диалекта таджикского языка жителей риштанского района ферганской области освещаются вопросы влияния узбекского языка на лексический ярус северных диалектов таджикского языка.

Ключевые слова и выражения: языковые контакты, лексические заимствования, части речи, лексико-семантические группы, доминантный язык, модель.



Abstract. In article on an example of a dialect of the Tadjik language of inhabitants Rishtan district of the Fergana region questions of influence of the Uzbek language on a lexical circle of northern dialects of the Tadjik language are taken up.

Keywords and expressions: language contacts, lexical loans, parts of speech, lexico-semantic groups, prepotent language, model.

O'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirganliklari tufayli dunyoqarash, urf-odat, san'atlarida o'zaro mushtarak holatlar yuzaga kelgan. Mazkur umumiy ta'sirlar, birinchi navbatda, tilning lug'at xazinasida chuqur iz qoldirgan [1,31]. Bir tildan boshqa tilga so'z o'tishi, lug'at sostavining ochiq sistema ekanligi haqida ilmiy adabiyotlarda ko'p fikrlar bayon qilingan. Faktlar ko'rsatishicha, bir tildan boshqa tilga so'z o'zlashtirilishi so'z turkumlarida miqdor jihatdan bir xil bo'lmaydi. Masalan, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi turkumlarga oid so'zlar deyarli o'zlashmaydi. Bu ma'noda ot so'z turkumiga oid so'zlar ancha faol, chunki bir tildan ikkinchi tilga harakatlar yoki harakat usullari emas, narsalarni nomlovchi so'zlar tez va oson o'tib o'zlashadi.

Farg'ona viloyati Rishton tumanida yashovchi tojik millatiga mansub aholi shevasida o'zlashma so'zlarning ishlatilish xususiyatlari o'rganilganda tubandagi xulosalar qilindi.

Shimoliy tojik dialektlarida, jumladan, Rishton shevasida sof eroniy so'zlardan tashqari ma'lum miqdorda o'zlashma so'zlar ham uchraydi. Shimoliy tojik shevalarida arab, rus tillaridan olingan so'zlar, asosan, umumtojik lug'at sostaviga kiruvchi so'zlarga to'g'ri kelsa, o'zbek tilidan o'tgan so'zlarning miqdori va mavqeyi tojik adabiy tilidagiga nisbatan ancha salmoqlidir. Bunday so'zlarning aksariyati ot, sifat, ravish turkumiga xos. Uzoq davr mobaynidagi aloqalar natijasida hatto ayrim fe'l va olmoshlar ham o'zlashgan. O'zbekcha so'zlar shimoliy tojik shevalarida faol qo'llanilib, sheva leksikasi tarkibida har jihatdan tojik tili xususiyatlariga moslashgan. Shu sababli mazkur sheva vakillari ongida yotlik xususiyatini yo'qotib, o'z qatlam so'zlari darajasida uqiladigan bo'lib qolgan.

Ushbu o'zlashmalar leksik-semantik jihatdan turlichadir. Masalan, ushbu shevada eng ko'p uchraydigan ot turkumiga mansub so'zlarni quyidagicha paradigmalariga ajratish mumkin: qarindoshlikni bildiruvchi so'zlar: *ako, apa, aya, jiyan, iko, kelin, ugay*; odam tana a'zolari nomlari: *bilak, biqin, yelka, jog, ilik, iyak, miyig, oshqazon, saqol, qavoq, qavurg'a, qosh*; hayvon nomlari: *ayiq, buqa, yulbars, chuchqa, eshshak, quyan*; qush nomlari: *burgut, chumchuq, urdak, qaldirg'och*; hasharot nomlari: *burga, kuya, chimilik*; o'simlik nomlari: *ajirig, archa, yer yong'oq, jigda, qamish, qarag'ay* va hokazo.

O'zbekcha hamda tojikcha so'zlarning parallel ishlatilish masalasiga kelsak, quyidagilarni ta'kidlash mumkin: tojik tilining shimoliy shevalarida qo'llanadigan o'zbekcha so'zlar odatda ekvivalent tojikcha so'zlarni siqib chiqarmay, parallel ravishda qo'llaniladi. Masalan: o'zb. *dul*/toj. *jola, sangcha*; *qushni*/hamsoya; *yulduz*/sitara.

Ayrim holatlarda paydo bo'lgan sinonimik juftliklarda so'zlarning ma'nosiga ko'ra differensiallashgani kuzatiladi. Masalan: tojik tilidagi *xirs* (*ayiq*) so'zi Rishton shevasida asl ma'nosida ishlatilmaydi. Hayvon nomini ifodalash uchun o'zbekcha *ayiq* so'zi qo'llaniladi. *Xirs* so'zi o'zbek tilining ta'sirida katta ma'nosida ishlatiladi:



Xirs boyin bachcha hamtin mekunimi?//Kap-katta (ayiqday) bola shunday qilasanmi?

Demak, bu o'rinda so'z-shaklning ma'no mundarijasida o'zgarish yuz bergan.

Tojik tilidan o'zbek tiliga, asosan, aniq, hayotiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar o'tib o'zlashganki, ular lug'at sostavining asosiy qismini tashkil etadi [1,66].

O'zbek tiliga tojikcha so'zlar ikki yo'l – og'zaki va yozma nutq orqali kirib kelgan. Tojikcha so'zlar o'zbek tiliga, asosan, tilning og'zaki shakli orqali o'tganligi sababli kundalik hayot bilan bog'liq leksik birliklar qatlamida ularning miqdori asl turkiy so'zlardan so'ng ikkinchi o'rinda turib, 27,9%ni tashkil qiladi [2,96]. Masalan:

– *uy-ro'zg'or buyumlari nomlari: namakdon, savat, lagan, likop, kapgir, barkash, oshtaxta, rapida, dekcha, namat, po'stak, gilam, palos, sholcha, poyandoz, yakandoz, choyshab, bolish, chorpoya, so'ri, xontaxta, deraza, oyna, darcha, chorchup, darvoza, ostona, zina, xona, ombor, chorxari, dahliz, joynamoz, dasta, xaskash, xokandoz, ombur, narvon, randa.*

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'zbekcha so'zlar shimoliy tojik shevalarida, jumladan, Rishton shevasida aktiv qo'llanilib, mazkur sheva vakillari ongida yotlik xususiyatini yo'qotgan.

Shimoliy tojik shevalariga hamda ular orqali tojik adabiy tiliga o'zbekcha leksika, asosan, o'zbek-tojik ikkitilliligi natijasida bevosita muloqot, ya'ni og'zaki nutq orqali o'tgan bo'lsa, tojik tilidan o'zbek tiliga so'zlar ikki yo'l, ham og'zaki muloqot, ham yozma manbalarni o'zbek tiliga tarjima qilish orqali kirib kelgan.

Shuningdek, tojik tili o'z navbatida o'zbek tilining so'z yasaliş sistemasiga katta ta'sir o'tkazib, uning lug'at xazinasini boyitgan.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, yaqin munosabatda hayot kechiruvchi xalqlar tillari o'zaro bir-birini o'zlashmalar bilan boyitadi. Tillardan tillarga o'zlashmalar asosan leksik qatlam birliklarida kuzatiladi. Leksik qatlamga oid birliklar tarkibini ikkinchi tilga o'zlashish holatining ko'p yoki kam uchrashiga ko'ra tasniflash mumkin bo'ladi. Bunda ot va sifat turkumiga xos so'zlarda nisbatan faollik kuzatiladi.

Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'zlashishi ikki xalq yashash tarzi, olamning lisoniy manzarasini anglashda mushtarak jihatlar mavjudligidan dalolat beradi.

Adabiyotlar:

1. Abdullayev F. Til qanday rivojlanadi? – T.: Fan, 1972.
2. Гафурова Л.Х. Бытовая лексика современного узбекского языка. – Т.: Фан, 1991.
3. Yusupov K. O'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri.– T.: Fan, 1974.





**Nazarova Saida Axmedjanovna,
BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi**

SO'Z BIRIKMASI LISONIY QURILISH QOLIPLARIDAGI UMUMIYLIK

Annotatsiya: Maqolada so'z birikmasining substansial tadqiqi bilan bog'liq so'z birikmasi umumiy lisoniy sintaktik qoliplarini aniqlash masalasi $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi va u birlashtiradigan xususiy qoliplar misolida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: so'z birikmasi, substansial tahlil, sintaktik qolip, umumiylik, xususiylik.

Аннотация: В статье проанализирован вопрос определения общих синтаксических моделей словосочетания, связанный с субстанциальным исследованием словосочетаний, на примере $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ и частных видов, которые она объединяет.

Ключевые слова: словосочетание, субстанциальный анализ, синтаксическая модель, общность, частность.

Annotation: The article analyzes the issue of defining general syntactic models of a word combination related to the substantive study of phrases, using the example of $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ and the particular types that it combines.

Key words: phrase, substantial analysis, syntactic model, generality, particularity.

O'zbek tilshunosligida so'z birikmasi sintaksisining substansial tahlili natijasi o'laroq nutqda voqelashgan muayyan so'z birikmalari lisoniy sintaktik qolip(LSQ)lar hosilalari sifatida baholanishi hozirgi kunda ilmiy yangilik emas. Ayni paytda, til egalari nutqidagina muvaqqat "yashash" va har bir voqelanishida turli ma'nolardan tanlangan qirralarini namoyon qilish so'z birikmalarini lisoniy sintaktik birlik maqomidagi LSQlarga qarama-qarshi qo'yadi. Ularni voqelashtiruvchi LSQlar o'zbek tilida so'z birikmasi hosil qilishga xoslangan lisoniy imkoniyatlar sifatida tilning sintaktik sathida tayyor turadi. [2;3] So'z birikmasi hosil qiluvchi LSQlar nafaqat tayyorlik, balki umumiylik, o'zgarmaslik, zaruriylik, takrorlanuvchanlik xususiyatlariga egaki, bu xususiyatlar LSQ va so'z birikmasi orasidagi ziddiyatlar zanjirini hosil qiladi. LSQga xos umumiylik va so'z birikmasining alohidalik xususiyatlari yuzaga keltiradigan ziddiyat bu zanjirda muhim halqani tashkil qiladi. Maqsadimiz LSQ va so'z birikmalarining ziddiyatli tabiati xususida bahs yuritish emas, zotan, bu muammo tilshunoslikda allaqachon yechilgan. Shunday ekan, LSQlar so'z birikmasi lisoniy sintaktik qurilishini qay darajada umumlashtiradi? Bizni qiziqtirgan savolning javobini $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi aks ettirgan umumiylikni aniqlash orqali topish mumkin.

$[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qaratqich kelishigi shaklini olgan tobe vaziyatdagi ismlarning egalik shaklida hokim vaziyatni egallagan ismlar bilan birikishi asosida yuzaga keladigan [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli so'z birikmalarining LSQidir. Bu LSQ til sathida lisoniy sintaktik birlik maqomiga ega.[2] Negaki, o'zbek tilidagi [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli so'z birikmalarining umumiy lisoniy sintaktik qurilishi uning sintaktik mohiyatini belgilaydi.



Odatda, *talabaning daftari, yuzning yarmi, yaxshilikning oqibati, kichikning izzati, ko'ylakning yangisi, yemoqning qusmog'i, momoqaldiroqning gumbur-gumburi* kabi so'z birikmalari mazkur qolipning hosilalari sifatida qaraladi. Biroq nutqda turli kommunikativ ehtiyoj tufayli voqelanuvchi *terimchilardan ilg'ori, tinglayotganlardan ikkitasi, mingdan biri, donolardan ulug'i; fizika fani, gul do'koni, bahor fasli, Buxoro shahri* kabi so'z birikmalari borki, ularni ham ushbu qolip hosilalari deb baholash mumkin.

Bizningcha, *terimchilardan ilg'ori, tinglayotganlardan ikkitasi, mingdan biri, donolardan ulug'i* tipidagi so'z birikmalarida [butun-qism] ma'nosi ifodalanib, $[I^{ch.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi asosida hosil bo'lsa ham, bunday birikmalardagi tarkibiy qismlarning birikish usuli va birikuv natijasi $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi mohiyatida umumlashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bu birikmalarda ham tobe va hokim a'zolarining lug'aviy asoslari ismlardan, tobelanishni ta'minlovchi morfologik omil kelishik $[I^{ch.k.}]$ va egalik $[I^{e.k.}]$ kategoriyalari ko'rsatkichlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, $[I^{ch.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi hosilalarigagina xos [butun-qism] ma'nosi $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi mazmunida mujassamlasha oladi. Zero, qolip mazmuniga tegishli [qaratuvchi-qaralmish] ma'no munosabati serqirra bo'lib, *qarashlilik, ajratish-saralash, subyekt-harakat, shaxsga tegishli predmet* ma'nolari sirasida [butun-qism] ma'nosini ham qamrab oladi.

Qiyoslang: *mingdan biri – mingning biri* [butun-qism]; *tinglayotganlardan ikkitasi – tinglayotganlarning ikkitasi* [to'da-qism]. Demak, qiyoslangan so'z birikmalarini lisoniy sintaktik va ma'noviy xususiyatlariga ko'ra bir umumiy qolip, ya'ni $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ ning hosilalari deb baholash mumkin.

Oldin e'lon qilingan ishlardan [1;2] *gul do'koni, bahor fasli, o'zbek tili, fizika fani, shaxmat o'yini, tarix muzeyi, adabiyot muallimi, sport maktabi, Buxoro shahri, Orol dengizi, "Sarob" romani* singari so'z birikmalari $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipining [tur-jins] ma'noli hosilalari ekanligi ma'lum. Muhim tomoni shundaki, bu qolip mahsuliga xos ma'noviy va lisoniy sintaktik xususiyatlar ham $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipida umumlasha oladi. Zero, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi aks ettiruvchi tobe vaziyatdagi bosh kelishikli ot leksemalarning hokim vaziyatdagi egalikli ot leksemalarga birikish usuli o'ziga xos bo'lsa-da, $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipida mujassamlashgan birikish usulining xususiy ko'rinishi sanaladi. Negaki, $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi ham shaklan, ham mazmunan $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qolipi va uning

mahsulini qamrab oladi. Buni quyidagi hosilalarni qiyoslash orqali aniqlash mumkin: *odamning olasi* – [tur-jins] – $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$;

odam olasi (Odam olasi ichida.(M.)) – [tur-jins] – $[I^{b.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$.

Yuqorida ta'kidlangan *qarashlilik, ajratish-saralash, subyekt-harakat, shaxsga tegishli predmet* (v.h.) ma'nolari sirasida [butun-qism] ma'nosi kabi [tur-jins] ma'nosi ham mavjud. Aytish joizki, $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi mazmuniga xos umumiylik ham [tur-jins] ma'noli so'z birikmalari uning xususiy ko'rinishi ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, o'zbek tili lisoniy sintaktik sathida $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi lisoniy sintaktik birlik maqomida turadi. Mazkur qolip mohiyatida [qaratuvchi-qaralmish] ma'noli so'z birikmalarini hosil qiluvchi $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$, [butun-qism] ma'noli so'z birikmalarini voqelantiruvchi $[I^{ch.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ va [tur-jins] ma'noli so'z birikmalarini yuzaga chiqaruvchi $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qoliplari aks ettirgan lisoniy sintaktik qurilish umumiylik-xususiylik aloqadorligi negizida umumlashtiriladi. Shuning uchun lisoniy tizimni tashkil etuvchi sintaktik sath birliklari sirasida $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ qolipi [qaratuvchi-qaralmish], [butun-



qism], [tur-jins] (shu kabi boshqa) ma'noli so'z birikmalarini yuzaga chiqaruvchi va mazkur nutqiy sintaktik birliklarga xos lisoniy qurilish xususiyatlarni yuksak darajada umumlashtiruvchi LSQ sifatida alohida o'ringa ega. Binobarin, $[I^{q.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$, $[I^{ch.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$, $[O^{b.k.} \sim O^{e.k.}] = SB$ qoliplarining lisoniy sintaktik sathdagi maqomi $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQiga nisbatan belgilanadi va ular $[I^{k.k.} \sim I^{e.k.}] = SB$ LSQining xususiyligi sanaladi.

ADABIYOTLAR:

1. Назарова С. [Жинс-тур] муносабатини билдирган сўз бирикмалари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2004. – №3. – Б.69-71.
2. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. – Тошкент: Фан, 2015. – 112 б.
3. Nazarova S.A. Occurens of Paradigmatic Relationship in Objective Associations. International Scientific Journal. Theoretical & Applied Science. – USA, Philadelphia. Issue: 11, Volume:79. – e-ISSN: 2409-0085, November 2019. – P.474-477. <http://T-Science.org>

*Madrahimov Ilhomjon Sobirovich,
Qo'qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,
Sobirova Muzayyana Ilhomjon qizi,
Qo'qon DPI talabasi*

TASNIF BILISHNING BIR USULI SIFATIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasniflashga tadqiq etiladigan obyektlarning yig'indisiga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirishning umummilliy usuli sifatida qaralgan va tasnifni bilishning usullaridan biri ekanligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: tasniflash, formal tasnif, sun'iy tasnif, umumiylik, farqlash, iyerarxik munosabatlar, mumtoz mantiq, mantiqiy kategoriya.

Аннотация: В данной статье классификация рассматривается как общенациональный метод систематизации знаний, ориентированный на совокупность исследуемых объектов, и признается одним из способов познания классификации.

Ключевые слова: классификация, формальная классификация, искусственная классификация, общность, дифференциация, иерархические отношения, классическая логика, логическая категория.

Abstract: in this article, classification is considered as a nationwide method of systematization of knowledge, focused on a set of objects to be studied, and is recognized as one of the ways of knowing classification.

Keywords: classification, formal classification, artificial classification, generality, differentiation, hierarchical relations, classical logic, logical category.

Har bir fanda tasnifning alohida o'rni bor. Obyektni tasniflash usuli bilan o'rganish bu bilim olishning an'anaviy usulidir. Tasnif fanda rivojlanishning ma'lum bosqichida – tadqiq predmetini baholash yoki qayta baholashga, ilmiy terminning pog'onali munosabatini aniqlash va tadqiq obyekti orasidagi munosabatlarni yuzaga



chiqarishga ehtiyoj tug'ilganda yuzaga keladi[2:156-159]. Bu fikrni tilshunoslikka nisbatan ham qo'llash mumkin.

Tasniflash – tadqiq etiladigan obyektlarning yig'indisiga qaratilgan bilimlarni tizimlashtirishning umumilmiy usuli, bu ma'lum bir asosda o'xshashlik va farqqa ega obyektlar inson faoliyati, bilim(ilm)ning turli sinflari sifatida sohalangan/guruhlangan turli sohalariga tegishli. Tasnifning asosiy maqsadi istalgan obyektning tizimdagi o'rnini aniqlash va ular orasida mavjud munosabatlarni aniqlashdan iborat. Bu keyinchalik o'xshash hodisalarni geteronom belgilar bilan farqlash, shu asosda gemogen belgilar asosida birlashtirish – tizimlashtirishga asos bo'ladi [10].

Tasnif analizning bir shakli bo'lib, ko'p obyektlarning guruh, to'da va tiplarga bo'linishi va to'planishidan iborat bo'ladi. Obyektlar orasidagi tabiiy munosabat va aloqalarni tashkil etuvchi tabiiy, shakliy belgilar qismlari orasidagi tasnifni ko'rsatuvchi formal tasnif farqlanadi. Tasnifning birinchi ko'rinishini tavsifiy va tabiiy tasnif, ikkinchi turini formal va sun'iy deb atashadi [11:85-86].

Formal tasnif tobe munosabatdagi tushunchalar tizimi. Unda tushunchalar tabiiy va tabiiy bo'lmagan o'xshash va farqli belgilari asosida amal qiladi. Bu asosan o'rganilayotgan obyekt haqida ma'lumotning kamligi bilan izohlanadi. Tasnifning bu turida tartib tashqi yoki sun'iy xarakter kasb etadi. Sun'iy tasnifning asosiy vazifasi tadqiq etilayotgan bilim yoki voqelikning tizimlashtirishdir. Tadqiqotning dastlabki bosqichlarida sun'iy tasnif tabiiy tasnifning o'rnini egallaydi, chunki hali obyektning haqiqiy xarakteri ochilmagan, birlamchi va ikkilamchi belgilari ko'rsatilmagan bo'ladi [11:85-86].

Umumiylik tadqiq objekti elementlarini o'xshashlik belgilari asosida guruhlash demakdir.

Farqlash prinsipi "noo'xshashlik" belgilari asosida boshqa guruhga kiritishdir. Formal mantiqda bo'lish qoidalari shunga asoslanadi. O'xshashlik va noo'xshashlik tamoyillari alternativ yoki oppozitsion o'zgaruvchilarni aniqlab beradi.

Tavsifiy tasnif obyektlar orasida turli guruhlarini tashkil etuvchi nafaqat alternativ belgilar, balki turli guruhga mansub obyektlar orasidagi istalgan *munosabatlarni* ham hisobga oladi. Shunday qilib, formal tasnif asosida o'xshashlikning bir tomonlama munosabati yotadi. Bu noo'xshashlikka qarama-qarshidir. Tavsifiy tasnifda o'xshashlik va noo'xshashlik – ikki omil ham hisobga olinadi. Bu bizga tabiiy tasnifni sun'iy tasnifdan farqlash imkonini beradi. Tabiiy tasnifda guruhlar orasidagi chegarani aniqlash emas, balki ular orasidagi munosabatlarni aniqlash muhim. Shunday qilib, tavsifiy (tabiiy) tasnifning majburiy (doimiy) belgisi sifatida 3 narsa yuzaga chiqadi: obyektlar orasidagi munosabatlar tizimi (1), tasnif objekti orasidagi umumlashtiruvchi belgilar tizimi (2), farqlovchi belgilar tizimi (3). Mazkur belgilardan birining mavjud bo'lmasligi bu tasnifni tabiiy tasnif deb baholamaslikka asos bo'ladi [11:85-86].

Odatda, tasniflashdan maqsad mavjud haos, ya'ni tartibsizlikni tartiblash deb tushuniladi. Ammo tizimlilik nuqtai nazaridan qaraganda "eng tabiiy obyektlarda tizimlilikning aks etishi"dir [1-168]. Sistema mavjud bo'lsa, demak, uni tashkil etuvlarini turli belgilar asosida tasniflashga imkon bo'ladi. K.YA.Averbuh tasnifni shunday ta'riflaydi: "Klassifikatsiya – u yoki bu turdagi predmetlarni o'zaro munosabatidan paydo bo'lgan, o'ziga tegishli bo'lib, boshqalaridan farq qiluvchi tabiiy belgilar asosida guruhlashdir. Bunda har bir guruh/sinf o'zining doimiy o'rniga ega va o'z ichida yana



turli guruhlarga bo'linadi" [1-167].

Yana bir narsani ta'kidlash muhim. Tasnif asosida guruhlar va to'dalarning iyerarxik munosabatlari yotadi.

Ilmiy tasniflashga A.V.Superanskaya quyidagicha izoh beradi: "Ilmiy klassifikatsiya – bu assotsiatsiya va dissotsiatsiyani tartiblash usuli; inson ongida tushuncha sifatida mavjud bo'lgan g'oyalarning tafakkurda shakllantirish yo'lidir. Ma'lum xususiyatga ega guruhlarga birlashuvchi barcha individual obyektlarning yig'indisi sinf deyiladi. Alohida tipik obyektlar xarakteristikasi sinfning umumiy mohiyatini anglashga, tushunchalarni tasniflashga, ularni bir tizimga to'plashga yordam beradi [9:138].

Mumtoz mantiq nuqtai nazaridan qaraganda, tasnif ichki sinflarga bo'linuvchi, predmetning turini ifodalovchi tushunchalarni farqlovchi/ajratuvchi amallardan biri sanaladi. Guruhlarga ajratishga asos bo'luvchi belgi farqlash belgisi deyiladi. Tasnif tushunchani guruhlarga ajratishning turlarini ifodalagani sababli uni amalga oshirish farqlash va bo'lishning quyidagi umumiy qoidalariga bo'ysunadi:

Ajratish ma'lum bir belgiga asoslanishi;

ajratiluvchi tushuncha hajmi ajraluvchi a'zolari bo'linishiga teng bo'lishi;

guruhlarga ajratilgan elementlar bir-birdan ma'lum belgi bilan farqlanishi, ushningdek, umumiy xususiyatga ega bo'lishi;

ajratish uzluksiz amalga oshishi, yaqin sinf tanlanishi va uzoq bo'lmagan guruh tanlanishi [2:156-159].

Masalan, terminlarni tasniflashda ularning turli belgilari: formal, funksional, ichki lisoniy va tashqi lisoniy belgilariga asoslaniladi. Bu tasniflarning barchasi fan yoki bilimning tegishli sohasiga qarab o'zgarishi tabiiy hol. Falsafiy nuqtai nazardan atamalarning ilk tasnifi kuzatishlar asosida terminlar va nazariy terminlar sifatida talqin qilinadi. Emperik terminlarga real obyektlar guruhi tursa, nazariy terminlarga mavhum tushunchalar, biror bir konsepsiyaga oid bilimlar turadi. Falsafadagi atamalarni tasniflashda shu yondashuv yetarli. Ammo falsafaga oid atamashunoslik muammolarini yechishda yanada chuqurroq tasnifga ehtiyoj tug'iladi.

Atamalarning ikkinchi xil tasnifi mazmuniga asoslanadi: obyekt nomiga qarab tasniflanadi, bu fan yoki sohaning turli tarmoqlariga tegishli. Bunday tasnif, odatda, fan, texnika, ishlab chiqarish, iqtisodiy bazisga oid bo'ladi. Mazkur ijtimoiy sxemaga asoslanib, fanga oid terminlarni tasniflash uchun rubrikalar ro'yxatini shakllantirish mumkin.

Atamalarni tasniflashning uchinchi turi atama ifodalagan tushunchaning mantiqiy kategoriyasi (predmet, jarayon, belgi, xususiyat, hajm-o'lchov kabi)ga tayanadi[2:156-159].

Mantiqiy operatorlar

1. Ta'rif – bu tushuncha mazmunini ochish, izohlash, ta'riflash yoki aniqlashtirishga qaratilgan usul. Ta'rifning asosiy vazifasi ma'lum obyektни yondosh obyektlardan farqlash va chegaralashdir. Ta'rifning turli ko'rinishlari mavjud. Tasniflash uchun turga ko'ra ta'riflash mos keladi. Buni shartli ravishda $A = V + S$ formulasi bilan belgilash mumkin. Bunda: "A" – ta'riflanayotgan tushuncha; "V" – "A"ga nisbatan umumiy tushuncha; "S" – "V"ni boshqalaridan ajratib turuvchi belgi, farq.

Ta'rifga tipik misol sifatida lug'atlarda berilgan ta'riflarni keltirish mumkin.



2. Variant (shakl)larni shakllantiruvchi operator mantiqiy operatorning bir turi bo'lib, ularning vazifasi biror bir obyekt (harakat, belgi va h.)ning mavjud variantlarni aniqlash va ko'rsatishdan iborat. Operatorning bu guruhiga mantiqiy bo'linish, umumlashtirish va tasniflash kiradi.

2.1. Bo'linish – bu asosiy va bo'linuvchi tushunchaga mansub bo'lgan barcha obyektlarni guruhlariga ajratish. Bu guruhlar *bo'linish a'zolari* deb yuritiladi. Demak, har bir bo'linishda *bo'linuvchi tushuncha*, *bo'linish asosi* va *bo'linish a'zolari* mavjud bo'ladi. *Bo'linuvchi tushuncha* **tur** sanalsa, *bo'linish a'zolari* esa uning ko'rinishlari bo'ladi. *Bo'linish a'zolari* soni chegaralangan. Mantiqiy bo'linishni unga o'xshash bir tushuncha – obyektning a'zolariga bo'lishdan farqlash lozim. Bu ikki tushunchani farqlash uchun quyidagi savollarni beramiz. Solishtiring:

1. Bu obyektlarning qanday turlari mavjud?
2. Bu obyekt qanday qismlardan iborat?

Bularni farqlash uchun ularning natijalariga nazar solish ham yetarli. Mantiqiy bo'linishning asosiy qoidalari quyidagicha:

- 1) bo'linish faqat bitta asosda amalga oshirilishi;
- 2) bo'linish miqdorning umumlashmasiga teng kelishi;
- 3) bo'linish a'zolari alternativ bo'lishi yoki bir-biridan farq qilishi;
- 4) bo'linish a'zolari uzluksiz va tartibli bo'lishi.

2.2. Tasnif (klassifikatsiya) mantiqiy operatori ko'p bosqichli mantiqiy bo'linish bo'lib, bo'linish a'zolaridan har biri yana bo'linishga asos bo'lgan tushunchaga aylanadi. Tasnifning chuqurlashishi, ya'ni iyerarxiya zinachalariga chegara qo'yilmagan. Shunday bo'lsa-da, har bir klassifikatsiyada real chegara bo'ladi. Odatda, tasnif shajara yoki iyerarxiya ko'rinishida bovladi. Bunday holat bo'linishi a'zolarining faqat bir asosda bo'linishi amal qilganda sodir bo'ladi. Bu piramida yoki daraxtning boshida shu tasnifni atab keluvchi asosiy tushuncha turadi, bu tushuncha barcha obyektlarni umumlashtira olishi bilan farqlanadi. Ikkinchi qatlam biror bir belgi asosida mantiqiy bo'linish natijasida hosil bo'ladi, undan keyin boshqa qatlam kelaveradi. Agar obyekt birdan ortiq belgi asosida tasniflansa, u holda faset yoki kombinativ strukturaga aylanadi: chiziqli tasnif matritsali tasnifga almashadi. Matritsa birdan ortiq qatlamgacha tasniflash imkonini beradi.

Umumlashma. Tasnifni shakllantirishda ba'zan faqat pastga emas, yuqoriga qarab ham harakat qilinadi. Umumlashma operatori bo'linish va ajratish operatorisiz amal qilmaydi. Ulardan biri barcha umumiyliklarni yuzaga chiqarsa, ikkinchisi obyektlar taqqoslanayotgan yagona atribut yoki prinsipni aniqlaydi. Shunday qilib qiyoslash operatori umumlashma obyektning shakllantirishga xizmat qilsa, farqlash operatori esa umumlashma asosini ko'rsatadi. Ta'kidlash lozimki, tasniflash tizimida umumlashma asosiy rol o'ynaydi.

2.3. Tizimlashtiruvchi operator.

Tizim – bu tartiblangan, o'zaro bog'langan va ya'ni birlikni tashkil etuvchi elementlar to'plami. Tizim elementlarning tarkibi, tuzilishi bilan tavsiflanadi va muayyan funktsiyani bajaradi.

Unsur (element) – tizimning ma'lum sifatini saqlab qolish doirasida bo'linmas birlik. Masalan, kompyuterning "elektr ta'minoti" bo'linmas butunlik sifatida qaralishi



mumkin bo'lgan elementdir, chunki "elektr ta'minoti" (blok pitaniye) murakkab tuzilishga ega va o'zi ko'p qismlardan iborat. Bu element kompyuterni tizim deb qarasaq, kam ahamiyatga ega.

Struktura – tizim elementlari o'rtasidagi barqaror munosabatlarni tashkil etuvchi, unsurlarning vaqtincha joylashishi, o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi voqelik. Struktura unsurlar to'plamini tizimga aylantiradigan, ular orasidagi bog'lanishning tuzilishi, turi, konfiguratsiyasidan iborat.

Funksiya – obyekt xususiyatlarining yuzaga chiqishi, obyektning atrof-muhit bilan munosabatga kirishish usuli. Ko'pincha, funksiya harakat bilan ifodalanadi, ya'ni harakat sifatida yuzaga chiqadi hamda tizim imkoniyatlarini aks ettiradi. Funksiyalar orasida tizimni shakllantiruvchi asosiy funksiya ajratiladi.

Tizim unsurlarini ularni tashkil etuvchi "tizimosti" qismidan farqlash lozim. Tizimosti va unsurlarning asosiy farqi ularning funksiyasida. Ba'zan bir tizimosti bir unsurdan tashkil topadi, ayni paytda, o'sha bitta unsur bir necha tizimostilariga mansub bo'ladi. Demak, tizimosti (ichki tizim) – tizim unsurlariga nisbatan umumiy va ma'lumot tashuvchi birlik. Bu ularning nomlanishida ham aks etadi. Ichki tizim nomi, odatda, *blok, sistema, uskuna* kabi umumiy nomlar va ularni aniqlab keluvchi so'zlar bilan ataladi. Masalan, elektr ta'minoti bloki, boshqaruv tizimi, yuvish moslamasi kabi.

Tizim unsurlari esa, konkret nom (termin) bilan ataladi. Agar tasodifan umumiy nom bilan atalsa, demak, bu ham ichki tizim, ham unsur bo'lib xizmat qiladi.

Tizimning umumiyliigi tizim sifatida qaraladigan obyektlar kompleksi umumiy / mushtarak xususiyat, funksiya, fe'l-atvorga egaligini bildiradi. Tizim xususiyati unga kiruvchi unsurlarning yig'indisiga teng emas.

Tizimning bo'linishi istalgan obyektning unsurlardan iboratligini isbotlovchi hodisadir. Barcha obyektlarni 3 narsa yig'indisi: butunlik (sistema), tizimdan kattaroq butunlik (sistema usti birlik) hamda ichki tizimlar yig'indisidan iborat deb qarashni taqozo etadi.

Ajratish amali ham tasniflashda asosiy ahamiyatga ega. Bu amal orqali tasniflashning tushunarli va tabiiy amaliyotini bajarish mumkin. U har bir ichki tizimning asosiy ekanligi bilan izohlanadi. Nisbatan ahamiyatli atribut sifatida o'zining tarkibidagi funksiyalar munosabatini tashkil qilishi ko'rinadi. Shu sababli tizimda ajratish amalini bajarishdan oldin uning unsurlari funksiyalarini aniqlash talab etiladi.

Birlashtirish mantiqiy operatori. Tizim usti sintezi amalga oshirishi bilan ajralib turadi.

Insoniyat faoliyatining qariyb hamma sohalarida klassifikatordan foydalaniladi. Kutubxona tizimi klassifikatsiyasi (Sistema bibliotechniye klassifikatsii), bilim sohaları klassifikatsiyasi, intellektual mulk obyektlari klassifikatsiyasi, ishlab chiqarish predmetlari klassifikatsiyasi, lavozim va vazifalar, normativ aktlar, kimyoviy bog'lanishlar, hayvonlar klassifikatsiyasi kabi ko'plab tasniflar bor. Mazkur tasniflarning umumiyliigi nimada? Ularning qariyb barchasi stixiyali holatda sodir bo'lgan jarayonlar tavsifidan paydo bo'lgan. Klassifikator – doimiy rivojlanishda bo'lgan tizim, ko'pincha ular mantiqiy bo'linish operatoriga amal qilmaydigan oddiy insonlar tomonidan ishlab chiqiladi. Natijada, ayrim hollarda, xato yacheykalardan tuzilgan klassifikatorlar yuzaga kelib qoladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Авербух К.Я. Общая теория термина / К.Я.Авербух. Иваново, 2004. – С. 168
- 2.Литовченко В.И. Классификация и систематизация терминов // Вестник Сибирского государственного аэрокосмического университета им. Академика М.Ф.Решетнева. С. 156-159. <https://cyberleninka.ru/article/n/klassifikatsiya-i-sistematizatsiya-terminov>
- 3.Madrakhimov, I. S., and Abdullayev Sanjarbek. «YUKLAMA.» Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1754-1760.
- 4.Madrakhimov, I. S. «A WORD FROM THE POINT OF VIEW OF LEXICOLOGY AND SYNTAX.» Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1003-1006.
- 5.Sobirovich, Madrahimov Ilhomjon. «THE SOURCE OF THE STUDY IS VARIETY.» Open Access Repository 9.3 (2023): 225-228.
- 6.Sobirovich, Madrahimov Ilhomjon. «Current Topic of Linguistics.» Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences 1.6 (2022): 7-9.
- 7.Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории / А.В. Суперанская, Н.В.Подольская, Н.В.Васильева. – М.: Наука, 1989. – С. 138.
8. AS Tokhtasinovich.HIERARCHICAL INTERPRETATION OF SECOND-ORDER FRAGMENTS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN ... 6 2022. Interpretation Of Secondary Parts In The Valentian Aspect. HIERARCHICAL INTERPRETATION OF SECOND-ORDER FRAGMENTS
- 9.Субботин А.Л., Абушенко В.Л., Бочаров. В.А. Классификация как метод познания // <https://prepod.nspu.ru/mod/page/view.php?id=129471&forceview=1>
10. Цветков В.Я. Формальная и содержательная классификация. // Современные наукоемкие технологии. № 6, 2008. Материалы конференции. – С. 85-86.

*O. Y. To'xtasinova,
Qo'qon DPI dotsenti*

OKKAZIONAL SO'ZLAR VA NEOLOGIZMLARNING O'ZARO MUNOSABATI

Аннотatsiya. Ушбу мақолада неологизм ва окказионализмнинг ўзаро муносабати ҳамда фарқи тўрт мезон асосида таҳлил қилинган. Окказионал сўзларни янги сўзлар қаторига қўшиш тўғри ҳам, мақсадга мувофиқ ҳам эмаслиги, улар нутқнинг ўзига хос хусусиятга эга бўлган индивидуал бирлиги эканлиги ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: неологизм, окказионализм, тил, нутқ, тил бирлиги, нутқ бирлиги, тил луғат таркиби, лисоний алоқа жараёни, ғайритабиий.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимодействие и различие между неологизмом и окказионализмом на основе четырех критериев. Считается, что вносить в список новых слов окказиональные слова не правильно и нежелательно, что они представляют собой отдельную единицу речи, имеющую свои особенности.



Ключевые слова: неологизм, окказионализм, язык, речь, языковая единица, речевая единица, языковая лексика, процесс языкового общения, ненормальность.

Abstract. In this article, the interaction and difference between neologism and occasionalism is analyzed based on four criteria. It is thought that it is neither correct nor desirable to add occasional words to the list of new words, that they are an individual unit of speech that has its own characteristics.

Key words: neologism, occasionalism, language, speech, language unit, speech unit, language vocabulary, process of linguistic communication, abnormal.

Til doimiy ravishda yangi lug'aviy birliklar hisobiga boyib boradi. Hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz tug'ilmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeiga ko'ra farqlanadi. Har qanday yangi paydo bo'lgan lisoniy birliklar til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, tasodifiy, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha lisoniy aloqa jarayonida atigi bir martagina qo'llanadigan so'zlar borki, ular hamisha yangiligi, g'ayritabiiy tuyulishi, betakrorligi, adabiy normadan tashqarida bo'lishi bilan ajralib turadi. Bunday so'zlarni xalq va til ijodkorlari yaratadi. Xalq yaratgan so'zlar tilshunoslikda og'zaki nutq okkazonalizmi, ma'lum ijodkorlar tomonidan yaratilgan so'zlar esa individual - yakka nutqqa xos, ya'ni badiiy okkazonalizmlar deb yuritiladi.

Okkazonal so'zlar so'zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o'zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, ob'ekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan o'z munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Okkazonalizmlar tasvir ob'ektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganida yaratiladi.

Bu masalaga bag'ishlangan ishlarda okkazonal so'zlarga e'tibor berib kelinadi. Rus tilshunosligida okkazonal so'zlarni neologizmlardan ajratib o'rganishga XX asrning 50 - yillarida kirishildi. Bu masalaga bag'ishlangan ishlar bilan tanishishdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, rus tilshunoslaridan N.I.Feldman birinchilardan bo'lib "okkazonal so'z" terminini qo'llagan. U okkazonal so'zlarni so'z yasalishining mahsuldor tiplari asosida vujudga keladigan va ma'lum matnga xos ma'no ifodasiga ega bo'lgan lisoniy birliklar sifatida izohlaydi [1.66].

Mavjud ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, okkazonalizm paydo bo'lish xususiyati, neologizm ifodalaydigan tushunchasiga ko'ra ma'lum ma'noda aloqadorlikka egadek tuyuladi. Lekin bu lisoniy hodisalar bir-biridan farq qiladi. Quyida ushbu masala haqida o'z fikri- mizni bildiramiz.

Yangi so'z (neologizm) va okkazonalizmning o'zaro munosabati hamda farqini quyidagi to'rt mezon asosida tahlil qilish mumkin:

1. Muallifning (yaratuvchining) bor yoki yo'qligi. Bu mezon yangi so'zni ta'riflash uchun muhim emas. Yangi so'z – til fakti. Okkazonal so'zlar esa nutq fakti hisoblanadi. Okkazonal so'zlarning muhim belgilaridan biri uning biror muallifga taalluqliligidir. Ular biror shaxs tomonidan birinchi bor yaratiladi. Bir so'z bilan aytganda, okkazonal so'zlar prinsipial ravishda aniq shaxsga – ana shu okkazonal so'zning yaratuvchisiga



taalluqlidir. Tilda esa uning har bir fakti, shu jumladan, yangi soʻzlar ham faqat ijtimoiy jihatdangina, yaʼni mazkur til egalari boʻlgan barcha kishilar jamoasiga qarashli mutlaq egasiz birlik sifatida ahamiyatlidir.

2. Soʻzning yangilik oʻlchovi muhim, lekin barcha yangi soʻzlar uchun absolyut va majburiy emas. Mazkur oʻlchov hozirgi zamon yangi soʻzlari, soʻzning yangiligi sezilib turadigan dolzarb (faol) yangi soʻzlar uchungina majburiydir. Masalan, tijoratchi, jamoa xoʻjaligi, vazirlik va shu kabilar 90 - yillarda qoʻllana boshladi, hozirgi kunda ularning yangilik boʻyogʻi yoʻqoldi.

Yangi soʻzlar bevosita tildagi tarixiy oʻzgarishlar umumiy zanjiriga kiradi va shuning uchun oʻzi ham ana shu oʻzgarishlarga uchraydi. Neologizm tushunchasining prinsipial shartlari va belgilaridan biri boʻlgan bunday hol tarixiy vaqt mezoni tufayli lingvistik jihatdan kiritilgan, alohida nutq fakti sifatidagi okkazional soʻzlarga yotdir.

3. Yangi va okkazional soʻzlar til lugʻat tarkibiga kirish yoki kirmaslik mezoni jihatidan ham juda turlichadir. Yangi soʻzlarning til lugʻat tarkibiga kirishi (aniqrogʻi, tilning bir qismi ekanligi) hech qanday shubha tugʻdirmaydi. Adabiy tilning tarixi shundan dalolat beradi. Okkazional soʻzlar sof nutq mahsulidir. Faqat til fakti boʻlib, okkazionallik maqomidan ajralgan (yoki bunday maqomga umuman ega boʻlmagan) taqdidrigina yuzaga kelgan soʻz yangi soʻz deb atalishi mumkin.

4. Maʼlumki, soʻzning paydo boʻlishidagi tarixiy vaqt omili neologizm tushunchasini taʼriflashda asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Vaqt va hayot jarayonida eskirib qolishi mumkin boʻlgan, oʻz yangilik sifatini kamaytirib bora oladigan soʻzlarga yangi soʻz boʻlishi mumkin. Tilda yangi soʻzning vujudga kelishi uning tarixiy shakllanishi davomida amalga oshib kelgan. Shuning uchun neologizmni aniqlash chogʻida qaysi tarixiy davrga taalluqli soʻz nazarda tutilayotganligiga qarab, neologizmning nisbiy oʻzgaruvchanlik xarakteri hisobga olinadi.

Okkazional soʻzlar xotirlanmaydigan xossagagina emas, balki qoʻllanish jihatidan bir martalik va sinxron-diaxron qorishqlik xossasiga ham egadir [2.12-14, 18,19]. Demak, ular tarixiy vaqtga nisbatan taalluqsizdirlar. Shuning uchun bunday soʻzlar neologizm deb atala olmaydi.

Shunday qilib, yangi soʻzni taʼriflashda vaqt mezoni zarur, lekin yuqorida koʻrsatilganidek, u absolyut emas, unga nisbiylik jihatidan qaraladi.

Yuqorida keltirilgan dalillarga asoslanib, yangi soʻzga shunday taʼrif berish mumkin: Yangi soʻz tilda oʻz tarixiy hayotining dastlabki bosqichini oʻtayotgan, yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzdur.

Shunday qilib, yangi soʻz terminini okkazional soʻzlarga nisbatan ularning alohida xossalari tufayli qoʻllab boʻlmaydi. Yangi soʻz u yoki bu dalilni (mazkur holda yangi soʻzning ifodalanish dalilini) muayyan faktga bogʻlaydigan tamomila diaxron tushunchadir. Okkazional soʻzlar oʻz “ichki” tarixidan mahrum boʻlganligidan prinsipial jihatdan “notarixiydir”, chunki bir marta qoʻllanishi, aksariyatining xotirada qayta tiklanmasligi va sinxron - diaxron qorishqligi tufayli ular tilda uzoq vaqt yashashdan mahrumdir. Okkazional soʻzlarning paydo boʻlishi har holda unga nisbatan tashqi belgi boʻlgan tarixiy faktlar bilan bogʻliq. Masalan, okkazional soʻz oʻzi yuzaga kelgan aniq tarixiy sanaga ega boʻlishi, oʻz aniq tarixiy shaxsi, oʻz muallifi bilan, shuningdek, uning paydo boʻlishiga olib kelgan sabablar va vaziyatlar bilan aloqador boʻlishi mumkin. Bunday soʻzlarga, barqaror (uzual) soʻzlardan farqli ravishda, chinakam tarix yotdir. U vaqti-vaqti bilan oʻzgarib



turadigan xususiyatlardan mahrumdir, ya'ni leksik ahamiyat, stilistik bo'yoq, ekspresivlik, so'z yasovchi struktura va hokazolar sohasidagi ichki rivojlanishdan mahrumdir.

Okkazional so'zning tarixiy hayoti nuqtali xarakterga ega, chunki uning ishlatilishi prinsipga ko'ra diaxron jihatdan uzoqqa cho'zilmaydi.

Okkazional so'zlarning ana shu biz ko'rsatgan xususiyatlari, ya'ni ularning prinsipial jihatdan "eskirmasligi" ular to'g'risida "doimiy yangi so'zlar" yoki "abadiy yangi so'zlar" degan ancha keng tarqalgan fikrlarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, okkazional so'zlarni yangi so'zlar qatoriga qo'shish to'g'ri ham, maqsadga muvofiq ham emasdir. Ular nutqning o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan individual birligidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Фельдман Н.И. Окказиональные слова и лексикография // Вопросы языкознания. — 1957. — №4. — С.66.
2. Г.Лыков. Современная русская лексикология (русское окказиональное слово). М.: Наука, — 1976. — С 12-14, 18-19.
3. Лопатин В. В. Рождение слова // Неологизмы и окказиональное словообразование. — М.: Наука, 1973. — С.150-152.
4. Yoriyev B. Shayxzoda poeziyasida okkazionalizmlar // O'zbek tili stilistikasidan kuzatishlar. — Samanqand, 1981. — B. 77-80.

Rahimova Maftuna Odilovna,
Qo'qon DPI, O'zbek tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori, Qo'qonDPI
Asaludin Bawer,
Balx davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
dotsent, filologiya fanlari doktori, Afg'oniston

SO'ZNING LINGVOSEMIOTIK MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslikning semiotika aspektiga oid bo'lib, unda so'zning belgilik maqomi tahlil etilgan. Shuningdek, milliy tillar va lisoniy belgi nazariyasini yanada rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: semiotika, belgi, belgi turlari, shartli belgi, tabiiy belgi, nomema, semema, psixik obraz, til, nutq, fonosemantika.

Аннотация. Эта статья посвящена семиотическому аспекту языкознания, в котором анализируется символический статус слова. Также особое внимание было уделено вопросам дальнейшего развития теории национальных языков и языковых знаков.

Ключевые слова: семиотика, знак, знаковые типы, условный знак, натуральный знак, номема, семема, мысленный образ, язык, речь, фоносемантика.

Abstract. This article is devoted to the semiotic aspect of linguistics, which analyzes the symbolic status of the word. Also, special attention was paid to the issues of further development of the theory of national languages and linguistic signs.



Key words: semiotics, sign, sign types, conventional sign, natural sign, nomeme, sememe, mental image, language, speech, phonosemantics.

Ligvistikada tilning belgi vazifasini bajarishi, belgilik tilning immanent, fundamental xususiyati ekanligi boshqa nazariyotchi olimlar tomonidan ham e'tirof etilgan. Hozirgi davrda ham F. de Sossyurning til shartli belgilar sistemasidir degan ta'rifi hech qanday e'tirozsiz qabul qilinadi. Shunga qaramay, hozirgacha va shu kunlarda ham mohiyatan bir, o'zaro butun – qism munosabatda bo'lgan semiotika, lingvistika fanlarining o'ziga xos va umumiy (o'hshash) tomonlari, maqomlari, semiotikaning lingvistikaligi, lingvistikaning semiotikaligi, har bir milliy, xususan, o'zbek tili sathlari birliklarining semiotiklik yoki belgiligining qay holatda ekanligi atroflicha va chuqur tadqiq etilmay qolayotir. Ochig'ini aytganda, tilning fundamental, asos xususiyati bo'lgan belgilik muammosi til nazariyasi fanidagina umumiy (tezis) holatda tavsif etilmoqda. Holbuki xususiy tillarning semiotik tabiatini atroflicha va chuqur o'rganmasdan, ularni umumlashtirmasdan turib, tilning belgili tabiati haqida to'liq umumiy nazariya yaratib bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'tgan asrning 30-yilarida Ferdinand de Sossyur, Ch.S.Pirs kabi olimlar tomonidan bashorat qilingan til va boshqa fanlar hodisalari asosida qisman o'rganilgan belgi turlari haqidagi qarashlari Ch.Morris tomonidan sistemaga solingan holda semiotika fani shakllantirildi va u umumiy, fanlararo fan sifatida e'tirof etildi.

Belgi deyilganda bir narsa (hodisa)ning boshqa bir narsa (hodisa) haqida bilvosita xabar berishi tushuniladi. Belgi ong, tafakkur vositasi bo'lib, odamlar va barcha turdagi jonivorlar u bilan ish ko'radi. Belgilarni ularning qo'llanish doirasiga ko'ra sotsial (sun'iy) va tabiiy belgilarga ajratish mumkin. Sotsial belgilarga kishilik jamiyatida qo'llanuvchi belgilar (odam tili birliklari, paralingvistik vositalar, xalq rasm-rusumlar: non-tuz bilan kutish – hurmat bildirish tili, fanlarning shartli belgilari kabilar) kiradi. Tabiat (keng ma'noda) belgilariga esa ijtimoiy hayotga ega bo'lmagan, ya'ni hayvon, qush kabilar tomonidan qo'llanadigan, muayyan ma'nolarga ega bo'lgan signal-belgilar kiradi.

Kishilarning hissiy va aqliy bilish bosqichlari jarayonlari bilan bog'liq belgilar mavjud. Xususan, so'zlar kishilarning aqliy (ratsional) bilish natijalarini anglatuvchi belgilardir. Umuman, so'zlar odam tafakkuri mahsullari bo'lgan tushuncha, hukm, xulosalarining belgilari hisoblanadi. So'z tilning markaziy birligi bo'lganligi uchun unda belgilik (semiotik) xususiyat bevosita va yorqin namoyon bo'ladi.

O'z predmetlarining asosiy (yadro) qismlari mohiyati bo'yicha semiotika va lingvistika boshqa-boshqa fanlar emas. Shuning uchun ham F. de Sossyur semiotika va lingvistikani bir mohiyatli (butun – qism munosabatdagi) fanlar deydi. Ko'p olimlar esa semiotikani lingvistikaning kengaygan ko'rinishi hisoblaydilar. Bu fikr muayyan nuqtai nazardan tug'ri. Zero, til birliklaridan morfema, leksema, so'z birikmasi, gap, supersintaktik birlik va makromatn ifodalovchi va ifodalanmish qismlarga ega bo'lib, bunda ifodalovchilar ifodalanmishlarning belgilari hisoblanadi. Tilshunoslikning fonologiya / fonetika sohasi barcha turdagi ifodalovchi-ifodalanmishga ega bo'lgan til birliklarining belgilari bo'lgan nutq tovushlarining belgi hosil qilish xususiyatlari, imkoniyatlarini maxsus soha (predmet) sifatida o'rganadi. Ko'rinib turibdiki, tilshunoslikning barcha sohalari bevosita yoki bilvosita belgi, belgilik hodisasi bilan bog'liq. Shu sababdan ham tilning belgili tabiati uning fundamental, asosiy xususiyati hisoblanadi. Qanday til



birligi bo'lmasin va undan qanday hosila (nutq) shakllanmasin, ular belgi (ifodalovchi) – belgilanmish (ifodalanmish) xususiyatiga egadir. Semiotikaning lingvistikadan farqi shundaki, agar lingvistika odam tili birliklari bilan bevosita bog'liq belgilik hodisasini o'rgansa, semiotika ham sotsial, ham organik (jonli, biologik) olamga xos bo'lgan barcha belgi turlarini (shu jumladan odam tiliga xos bo'lgan belgilikni ham) o'rganadi, shuning uchun u (semiotika) belgilar haqidagi umumiy nazariya (ta'limot, fan) hisoblanadi. Shunday qilib, semiotika va lingvistika munosabatiga butun-qism, umumiylik-xususiylik, asosdoshlik, kesishuvchanlik nuqtai nazarlardan qarash maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida eslatilganidek, so'zning belgili tabiati haqida adabiyotlarda har xil, ba'zan zid fikrlar uchraydi. Bunga so'zning murakkab qurilishi, uning lisoniy (til) va nutqiy maqomlari sabab bo'ladi. So'zga ifodalovchi va ifodalanmish nuqtai nazaridan qaralganda uning ifodalanmishi o'z tarkibiga ma'no, signifikat, idrokiy obraz, tushuncha, predmet (denotat//referent), konnotatsiya (qo'shimcha ma'nolar), pragmatik ma'no (qulay sharoitda yuzaga chiqadigan potentsional ma'no)larni qamrab oladi. Ana shunday tashkil etuvchilarga asoslangan so'zda belgilik qanday namoyon bo'ladi? So'z bir butunligicha belgi bo'ladimi yoki ayrim komponentlari, tashkil etuvchilari orqalimi? So'z til maqomida (xotirada abstrakt birlik sifatida, leksema shaklida) turganida va nutq holatida (konkret so'z / so'z – shakl) maqomiga ega bo'lganda belgilik qanday namoyon bo'ladi? kabi savollar so'zning belgi aspekti masalalaridir.

Belgi ongli mavjudot tomonidan qo'llanadi. Hayvonot olami shartli refleksga asoslangan belgilarni (qo'ng'iroq itga ovqat kelayotganligining belgisi kabi), til belgilari (so'z, so'z birikmasi, gap) tafakur birliklarining (tushuncha, hukm, xulosa) belgilaridir.

Til belgilari, xususan, so'zlar, tafakkur bilan bog'liq bo'lganligi uchun ikkilamchi maqomdagi belgilarni hosil qilish imkoniyatiga ega. Masalan, svetaforning yashil chirog'i yurish mumkinligi belgisidir. Bunda birlamchi "yashil", "chiroq", "yuring" so'zlari (tushunchalari) asosida yurish qoidasi – belgisi hosil qilingan.

Ushbu o'rinda shuni alohida ta'kidlashimiz lozimki, belgilik, (belgilik xususiyati) tilning, (til birligining) muayyan jihati, tomoni aspektidir, xuddi tilning stilistik, estetik, kommunikativ jihatlari kabi. Til birligining belgilik, semiotik jihati tilning eng muhim, birlamchi, tilni til qiladigan aloqa vositaligini ta'minlaydigan tomonidir. Shu bois ham R. Yakobson ma'no va tovushning bog'lanishi tilshunoslikning fundamental muammosidir deydi. Afsuski, ana shunday muammo xususiy, milliy tillar bo'yicha atroflicha va chuqur o'rganilmagan va bu, o'z navbatida lingvistik belgi nazariyasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bizningcha, milliy tillar va lisoniy belgi nazariyasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi masalalarga e'tibor berish lozim:

- hozirga qadar bo'lgan semiotik va lingvosemiotik adabiyotlardagi belgini tor, keng ma'nolarda tushunish va shu asosda so'zga bir tomonli (monoletaristik) va ikki tomonli (bilateralistik) belgi sifatida qarashlarga tanqidiy munosabatda bo'lib, so'zning belgili tabiatini haqiqatga mos ravishda aniqlab olish kerak;

- hozirga qadar lingvistik belgi sifatida leksik birlik e'tirof etiladi. Til sathining boshqa (morfema, so'z birikmasi, gap, supersintaktik birliklar, makromatn) birliklarining hamda paralingvistik vositalarning semiotik tabiati haqidagi masalalarni tadqiqot predmetlariga kiritish lozim;



-so'z ma'nosining ifodalovchisi (ko'rsatuvchisi, belgisi) uning tovush tomoni, nomemasidir. Biz endi fonetik / fonologik tizimga belgishunoslik (semiotika) nuqtai nazaridan qarashimiz, har bir fonema / nutq tovushining nomema (belgi) yasash imkoniyatlari, nomema-belgilarning struktur modellari va ularning nutqda qo'llanish xususiyatlari bilan qiziqishimiz zarur. Xususan, fonetikadagi tejamkorlik qonunini asosi aslida so'zning tovush tomoni – belgini qo'llashdagi nutqiy o'ng'aylik, ixchamlilik ehtiyojlari bilan bog'liqdir. Albatta, so'zning tovush tomoni belgi nazariyasi asosida o'rganilar ekan, har bir so'z turkumi nomemalarning o'ziga xos semiotik xususiyatlarini aniqlashga to'g'ri keladi.

So'zga belgi sifatida qarashning yana bir masalasi tovush tomon bilan ma'no (leksik ma'no) orasidagi bog'lanishdir. Taqlid, undov so'zlar nomemalari bilan boshqa so'z nomemalari tuzilishi (qurilmalari) orasida jiddiy farqlar borki, ularni aniqlash hozirgi dolzarb lingvosemiotik masalalardir. Bunda, bir tomondan, shartli (sun'iy, konventsional, motivatsiyasiz), ikkinchi tomondan, shartsiz (tabiiy, motivatsiyali, sababnatijali) bog'lanishlar xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, so'z tovush tomoni bilan ma'no bog'lanishdagi simmetriya-asimmetriya, so'z tovush tomonining monosemiya, polisemiya munosabati masalalari ham bor. Yuqoridagi barcha masalalar so'zning tovush tomoniga belgi sifatida qarash (monoletarizm) bilan bog'liq.

So'zning ifodalanmish tomoniga ham belgi sifatida qarash mavjudki, buni ham til (abstrakt nomema + abstrakt semema) va nutq (tushuncha – obraz – denotat) munosabatlari asosida tadqiq etish lozim.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, tilning belgili tabiatini o'rganuvchi lingvosemiotika nomemaning belgiligi, sememaning belgiligi va nomema, sememaning bog'lanishi masalalaridan tashkil topgan uch tarkibiy qismdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Bazarov, Oybek. "MIND AND LINGUISTIC MODEL." *Journal of new century innovations* 12.3 (2022): 182-184.
2. Odilovna, Rakhimova Maftuna, and Bazarov Oybek Odilovich. "LINGUOSEMIOTIC STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS." *Open Access Repository* 9.1 (2023): 236-237.
3. Rahimova, Maftuna. Assotsiatsiya hodisasining psixologik va lingvistik talqini. 2022.
4. Rahimova, Maftuna. Leksik antonimiyada belgilik. 2022.
5. M. Rakhimova. APPROACHING THE WORD AS A SIGN. *JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal* (9), 68-70
6. M. Rakhimova, O. Bazarov, R. Jo'rayeva, N. Makhmudova. Problems Of Significance Of A Word. *Journal of Positive School Psychology* 2023, Vol. 7, No. 5, 104-110
7. Başar, U. (2018). *Afganistan'da Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretimi Üzerine Güncel Bir Değerlendirme*. *Aydın TÖMER Dil Dergisi*, 3(1), 1-20
8. Nadim, Muhammad Humayun. "ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN." *Theoretical & Applied Science* 6 (2021): 490-492.
9. Shohida, Isakova, and Khotamkulova Shahista. "CONCEPTUAL INFORMATION IN LANGUAGES ACTIVATING STRUCTURES." *INTERNATIONAL JOURNAL OF*



SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.03 (2023): 56-60.

10. Shokhida Isakova. (2022). COMPARATIVE ANALYSIS OF LEXICAL UNITS IN CHARACTERS' SPEECH (based on translations of the novel "Navoi"). *Open Access Repository*, 8(11), 240–244. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/XD842>

11. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudova
Journal of Positive School Psychology 7 (5), 104-110, 2023

12. Rahimova, Maftuna. LEKSIK ANTONIMIYADA BELGILIK. 2022.

13. Bozorov, Oybek. *Lingvistik Model*. 2008.

14. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 167-170.

Nadim Muhammad Humayun,
Afg'onistonlik tilshunos
Termiz davlat universiteti DSc erkin tadqiqotchisi

ETNOREALIYA TARJIMASIDA MADANIYATNING ROLI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada etnorealiyava madaniyatlararo'lchov va uning tilining realligi ko'rib chiqildi. Madaniyat ob'ektlari yoki hodisalarini, milliy xususiyatlarni, urf-odatlarini, marosimlarni, shuningdek, tarixiy faktlar yoki hodisalarini ifodalovchi so'zlarni etnorealiya deb atash mumkin.

Kalit so'zlar: Etnorealiya, Madaniyatlararo'lchov, Xulq-atvor, Marosimlar.

ABSTRACT This article observes the ethnorealia and intercultural dimension and the realia of its language. Words representing cultural objects or events, national characteristics, customs, traditions, rituals, as well as historical facts or events can be called ethnorealia.

Keywords: Ethnorealia, Intercultural dimension, Behavior, Ceremonies.

Kirish

Har bir til va madaniyat bir-biridan o'z turiga ko'ra farq qiluvchi etnorealiya deb ataladigan juda ko'p noyob til birliklariga ega. Etnorealiyani boshqa tillarga moslashtirishdagi qiyinchiliklar uzoq vaqtdan beri davom etib kelmoqda. Etnorealiya mavzusi tarjimashunoslikning eng xilma-xil, murakkab va ayni paytda qiziqarli sohalaridan biridir. Realiza (ruscha реалии) atamasi rus tarjimashunosligiga Andrey Fedorov (8, 1941) tomonidan kiritilgan va dastlab madaniyatga xos obyektlar va hodisalar sifatida tushunilgan. Ushbu obyektlarni bildiruvchi so'zlar uchun Fedorov realiza-so'zlar atamasini taklif qildi. Biroq, keyinchalik tarjimaga chidamli leksik elementlarga nisbatan realiza ko'proq qo'llanila boshlandi (9, Sobolev 1952, Vlasov va Florin 1970, 1980, 1986).

Til madaniyat mahsulidir. Madaniyatni to'liq tushunish uchun biz tilni tekshirishimiz kerak. Til millat a'zolari tomonidan o'zlarining barcha madaniy amaliyotlarini amalga oshirish, ularning barcha madaniy mahsulotlarini aniqlash va



tartibga solish va ularning madaniyatini tashkil etuvchi barcha turli jamoalardagi asosiy madaniy istiqbollarni nomlash uchun yaratilgan. (Moran, 2001, p. 124)

Madaniy ong til va madaniyat o'rtasidagi munosabatni tushunishga asoslangan kommunikativ kompetensiyani boyitishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu sababli, chet tilini o'rgatishning muhim jihati o'quvchining maqsadli madaniyat haqida xabardorligini rivojlantirishdir.

Amerika inglizlari bilan Angliya inglizlari realiyalarida ham sezilarli farqlar borligini ham ta'kidlash lozim. Chunki ular bir tilda gaplashsalar, turli sharoit va mentalitetga mansub xalqlar hisoblanadilar. Xorijiy til realiyalarida shunday so'zlar borki, ular tarjima vositasida boshqa tillarga kirib, o'zlashib ketganlar. Ruslardagi rubl realiyasi o'zbeklarda rubl bo'lib o'zlashib ketgan. Shuningdek, Evropadagi Euro (oyro) o'zbek tilida Evro deb o'zlashtirilgan. Bu ham aslida talaffuz qoidalari bilan bog'liq hodisa. Ular bugungi kunda ham faol ishlatilib kelinmoqda. O'zbek realiyalarini ingliz tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi. Bunday usullarni qo'llashda tarjimonlar kontekstning o'rniga, asar muallifining mazkur realiyani ishlatishdan ko'zlagan maqsadiga e'tibor berishi talab qilinadi.

Ba'zi tilshunoslar bitta leksik birlik doirasida bir nechta tarjima usullarining kombinatsiyasidan foydalanish imkoniyatini beradi, masalan, transliteratsiya elementlari bilan transkripsiya. A. V. Fedorov, shuningdek, tarjima usullaridan faqat bittasini qo'llashning kamchiliklarini ko'rsatdi, bu «tarjima matnini chet tilidagi og'zaki material bilan ortiqcha yuklash», matn hajmini kengaytirish yoki milliy o'ziga xoslikni yo'qotishda ifodalanishi mumkin. [10, b. 156–157].

Madaniyatlararo o'lchov

Ushbu ishning maqsadlari uchun madaniyatlararo atama nimani anglatishini aniqlash kerak. Milliy farqlardan xabardor bo'lish muhimligi sababli bu atamaga zamonaviy urg'u bor. Tilni o'rganuvchilar madaniyatni bilishlari va tushunishlari kerak, chunki bu muvaffaqiyatli muloqot uchun zaruriy shartdir. Bu shuni anglatadiki, o'quvchilar nafaqat boshqa madaniyat haqidagi bilimlarini rivojlantiradilar, balki o'zlarini boshqa madaniyat bilan bog'liq holda tushunishadi.

Byram (1997, 73-bet [onlayn]) madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya atamasidan foydalanadi va shunday tushuntiradi: "[madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya] o'quvchilardan madaniyatlararo muloqot qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, munosabat va tanqidiy madaniy ongni egallashni talab qiladi".

Madaniyatlararo bo'lishni o'rganish boshqa madaniyat haqida bilishdan ko'ra ko'proq ishtirok etishi kerak. Bu o'z madaniyati o'zini, dunyoni va boshqalar bilan bo'lgan munosabatlarimizni qanday shakllantirishini tushunishni o'z ichiga olishi kerak. Talabalar lingvistik va madaniy xilma-xillikka shaxsan qanday munosabatda bo'lishlari bilan tanishishlari kerak. (Til, madaniyat va ta'lim, 2014, 21-bet [onlayn])

Byram, Gribkova, Starkey (2002, 10-bet [onlayn]) madaniyatlararo kompetensiya haqida gapiradi va buni "o'zlarining [o'quvchilarning] turli xil ijtimoiy o'ziga xoslikdagi odamlarning umumiy tushunishini ta'minlash qobiliyati va odamlar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati sifatida tushuntiradi. Madaniyatlararo masala, shuningdek, umumiy Evropa ma'lumotnoma doirasida talab qilinadi. (2014, 160-bet [onlayn]) Madaniyatlararo xabardorlik ona madaniyati va maqsadli madaniyatni bilish



va tushunish o'rtasidagi bog'liqlik orqali hosil bo'ladi. Bundan tashqari, madaniyatlararo xabardorlik har ikki dunyodagi mintaqaviy va ijtimoiy xilma-xillikni anglashni o'z ichiga oladi.

Bu shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar o'zlarining kundalik dunyosida o'zlari, munosabatlari, e'tiqodlari, qadriyatlari va amaliyotlari haqida fikr yuritishlari va ular va boshqalar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni taqqoslashlari va baholashlari kerak. Shu sababli, o'quvchilarga o'z madaniyatining madaniy kelib chiqishi bilan ta'minlash juda muhimdir. Shuning uchun bu ish o'quvchining ona madaniyatining madaniy konteksti bilan ham shug'ullanadi.

Bizning mahalliy sharoitimizda o'rta maktab o'quvchilari faqat chet tilidan foydalanadigan chet elliklarni deyarli uchratishmaydi. Shuning uchun, ular asosan nazariy jihatdan bilgan holda, o'z madaniyatiga hamdard bo'lishlari qiyin. Bunday holda, biz mahalliy madaniyatni mahalliy ozchiliklar madaniyati bilan solishtirishni tavsiya qilamiz. Bu ular uchun aniqroq va amalda foydalanish mumkin bo'lishi mumkin. Keyinchalik, bu talabalarga mutlaqo boshqa muhit va madaniyatdagi shaxslar bilan muvaffaqiyatli muloqot qilishda yordam berishi mumkin. Howard Lee Nostrand (Maqsadli madaniyatni o'qitish maqsadlariga oid ba'zi izohlarda, 2014 yil, 1-bet [onlayn]) madaniy ta'lim uchun to'qqizta maqsadni taqdim etdi. Muayyan o'quvchi quyidagilarni bilishi kerak:

- 1) ijtimoiy vaziyatda to'g'ri munosabatda bo'lish;
- 2) aholining tegishli qismiga ijtimoiy xulq-atvor madaniyati namunasini tavsiflash yoki unga xoslashtirish;
- 3) naqshni tasvirlanganda tan olish;
- 4) qolipni "tushuntirish" uchun;
- 5) ma'lum bir vaziyatda qanday qo'llanilishi mumkinligini taxmin qilish;
- 6) xorijiy jamiyatda maqbul bo'lish uchun muhim bo'lgan munosabatni tasvirlash yoki namoyon qilish;
- 7) madaniy namunaga oid bayonot shaklini baholash;
- 8) ijtimoiy-madaniy yaxlitlikni tahlil qilishning himoyalangan usullarini tavsiflash yoki ko'rsatish;
- 9) o'rgatilayotgan tushunchani muhim qiladigan asosiy insoniy maqsadlarni aniqlash.

Seelye (Ventura, 2008 yil, 14-bet [onlayn]) keyingi bosqichda yuqoridagi qobiliyatlarni yettita maqsadga aylantirdi:

- 1) madaniy jihatdan shartlangan xatti-harakatlarning ma'nosi yoki funksionalligi;
- 2) til va ijtimoiy o'zgaruvchilarning o'zaro ta'siri;
- 3) umumiy vaziyatlarda odatiy xatti-harakatlar;
- 4) so'z va iboralarning madaniy konnotatsiyalari;
- 5) jamiyat haqidagi bayonotlarni baholash;
- 6) boshqa madaniyatni tadqiq qilish; va
- 7) boshqa madaniyatlarga munosabat.

Yuqoridagi xulosa asosiy maqsadlarga erishish haqida munosib fikr beradi, ammo til o'qituvchilari muammosini hal qilmaydi, bu maqsadga muvofiqdir. Sinfda jamiyat haqidagi bayonotlarni baholash qobiliyatini yoki ijtimoiy-madaniy yaxlitlikni tahlil qilishning himoyalangan usullarini tavsiflash qobiliyatini rivojlantirish haqiqatga



to'g' ri kelmaydi, shuning uchun o'qituvchilar ushbu maqsadlarning barchasini ishlab chiqishga etarlicha qodir emasligini ko'rsatadi.

Shu sababli, Lafayette va Schulz(Ventura, 2008 yil, 27-bet [onlayn]) til o'qitishda ko'proq real maqsadlarga erishish uchun uchta madaniy yo'naltirilgan maqsadni kiritdilar:

- 1) bilim;
- 2) tushunish;
- 3) xulq-atvor.

Ushbu kognitiv maqsadlar talabalarga maqsadli madaniyat haqida ko'proq xabardorlik va kengroq bilimlarni rivojlantirishga va ularni tildan ko'proq malakali foydalanuvchilarga aylantirishga imkon beradi. Madaniyatlararo muloqotni osonlashtirish maqsadiga erishish uchun ushbu munosabat va ko'nikmalar til o'quv dasturida qamrab olinishi kerak.

Muloqotning madaniy kontekstiga qaratilgan ushbu o'quv maqsadlari kiritilishi kerak, aks holda talabalar boshqa madaniyatni tushunish va tushunish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish uchun juda kam yoki umuman imkoniyatga ega emaslar.

Bundan tashqari, chet tillarini o'rganishning kengroq maqsadi mavjud, ya'ni xalqaro tushunish va hamkorlikni qo'llab-quvvatlashdir. Bunga talabalarga boshqa tilda so'zlashuvchi xalqning hayoti va fikriga kirish imkoniyatini berish orqali erishiladi. Shuning uchun madaniyatni o'qitishning maqsadlaridan biri bag' rikenglik va xalqaro tushunishni rivojlantirish bo'lishi kerak. (Maqsadli madaniyatni o'qitish maqsadlariga oid ba'zi izohlar, 2014, 1-bet [onlayn])

Zamonaviy Chexiya ta'limi tajribasi shundan iboratki, chet tilini o'qitishning ushbu maqsadlariga ona tilini o'rgatishda ham erishish kerak. Birinchidan, talabalar bu maqsadlarga o'z tillarida o'z ona madaniyatida erishishlari kerak va faqat o'sha paytda ular xorijiy madaniyatga e'tibor qaratishlari kerak. Boshqa tomondan, chet tilini o'rganish yuqorida aytib o'tilgan maqsadlarga erishishga yordam berishini ham ta'kidlash kerak.

Xulosa qilib aytganda o'zbek realiyalarini ingliz tiliga tarjima qilishda transkripsiya, transliteratsiya, izohlash, tushuntirish, sharhlash, muqobil variantlardan foydalanish kabi tarjima usullari samarali usullardan hisoblanadi. Bunday usullarni qo'llashda tarjimonlar kontekstning o'rniga, asar muallifining mazkur realiyani ishlatishdan ko'zlagan maqsadiga e'tibor berish talab qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. MORAN, Patrick R. *Teaching culture: Perspectives in Practice*. Boston: Heinle, 2001. TeacherSource. ISBN 0838466761.

2. BYRAM, Michael, Bella GRIBKOVA and Hugh STARKEY. *Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching. Council of Europe: A practical introduction for teachers* [online]. 2002 [cit. 2014-10-20]: http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/source/guide_dimintercult_en.pdf

3. BYRAM, Michael. *Teaching and assessing intercultural communicative competence*. Philadelphia: Multilingual Matters, 1997, 124 p. Multilingual matters (Series). ISBN 978-1853593772.



4. BYRAM, Michael, Bella GRIBKOVA and Hugh STARKEY. Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching. *Council of Europe: A practical introduction for teachers* [online]. 2002 [cit. 2014-10-20]: http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/source/guide_dimintercult_en.pdf

5. VENTURA, Jan. *Integrating Cultural Context of the Target Language into the Language Classroom*. Pardubice, 2008. Univerzita Pardubice.

6. http://www.coe.int/t/dg4/linguistic/source/guide_dimintercult_en.pdf

7. Fedorov, Andrei V. (1941) *O khudozhestvennom perevode*, Leningrad, Goslitizdat.

8. Sobolev, Lev N. (1952) *Posobiie po perevodu s russkogo iazyka na frantsuzskii*, Moscow: Izdatel'stvo literatury na inostrannykh iazykakh.

9. **Fedorov A. V. Fundamentals of the general theory of translation, 1983. — p. 303.**

10. Nadim, Muhammad Humayun. "ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN." *Theoretical & Applied Science* 6 (2021): 490-492.

11. Rahimova, maftuna. *Assotsiatsiya hodisasining psixologik va lingvistik talqini*. 2022.

Durdonaxon Zohidova,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti,
Shoiraxon Xo'jayeva,
Qo'qon Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

ALISHER NAVOIYNING "NAZM UL-JAVOHIR" ASARIDA MUALLIF BADIY KONSEPSIYASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asarida muallif badiiy konsepsiyasining ifodalanishi tadqiqiga bag'ishlangan. Unda mazkur asardan o'rin olgan ruboiylar asosini tashkil etuvchi musulmon axloqiga xos bo'lgan iymon, insof, diyonat, halollik, adolat, yaxshilik, odo, hayo, vafo, saxovat, himmat, qanoat, sabr, shukr, rizo kabi konseptual tushunchalar mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy konsepsiya, g'oya, poetik talqin, oyat, hadis, ruboiy, hikmat, tushuncha.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению выражения авторского художественного замысла в произведении Алишера Навои «Назм ул-джавахир». В нем раскрыты такие концептуальные понятия характерные для мусульманской этики, как вера, честность, совесть, правдивость, справедливость, доброта, манеры, скромность, верность, великодушие, трудолюбие, удовлетворение, терпение, признательность, благодарность, лежащие в основе рубаи из этого произведения.



Ключевые слова. художественный замысел, идея, поэтическая интерпретация, аят, хадис, рубай, мудрость, понимание.

Annotation. This article is devoted to the study of the expression of the author's artistic concept in Alisher Navoi's work "Nazm ul-javahir". It is revealed the essence of conceptual issues, which are characteristic of muslim ethics, faith, honesty, piety, fair-dealing, justice, goodness, manners, modesty, loyalty, generosity, diligence, contentment, patience, gratitude, satisfaction, which are the basis of the rubai's from this work.

Key words. artistic concept, idea, poetic interpretation, verse, hadith, rubai, wisdom, issue.

Muayyan asar poetikasini tadqiq etish ijodkorning badiiy konsepsiyasi bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Zero, har bir asar o'z muallifining dunyoqarashi, g'oyaviy-estetik qarashlari, hayotiy ideali va ijodiy pozitsiyasining mahsulidir. Shu bois ham buyuklarimiz "So'zimni o'qub anglag'aysen o'zumni" deya ta'kidlaganlar. Xususan, "Nazm ul-javohir" asarida ham Alisher Navoiyning olam va odam haqidagi fikr-mulohazalari Hazrat Ali tafakkuri bilan uyg'unlikda o'zining poetik ifodasini topgan. Unda so'z dahosining teran tafakkuri va ma'naviy olami aks etgan. Bu borada A.Rustamov: "Hazrat-i Navoiyning diyonati hamma zamon, hamma makonning hamma xalqlari, ayniqsa, musulmonlar uchun yaxshi o'rnamdir. U islom ibodatiyu muomalasi, axloqu odobiga a'lo darajada amal qildi, o'zini butunlay mamlakat taraqqiysi va el xizmatiga bag'ishladi", deya e'tirof etgan [4:127]. Binobarin, yuksak diyonat sohibining o'lmas asarlarida ham islomiy ma'rifat g'oyalari san'atkorona uslubda badiiy talqin etilgan.

*Kim olam aro diyonati yo'qtur aning,
Din nuqtasida fatonati yo'qtur aning,
Dindor ulkim, ziyonati yo'qtur aning,
Yo'q din angakim amonati yo'qtur aning. [1:149]*

"Nazm ul-javohir"da 249-raqam bilan tartiblanib kelgan bu ruboiy "Lo dina liman lo amonata lahu sadaqa" ("Amonati yo'qning dini yo'q") hikmati asosida yozilgan bo'lib, unda juda oddiy va ayni damda o'ta muhim masala "**Dindor** kishi qanday bo'ladi?" degan savolga javob beriladi. Ruboiyning ilk misrasi "*Kim olam aro...*" deb boshlanishi unda aytilajak fikrning olamshumul ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Baytda qo'llangan "diyonat" so'zi ko'pma'noli so'z bo'lib, uning birinchi ma'nosi "dindorlik"dir [3:189]. Ushbu ma'noda baytdan "diniy ilmi yo'q kishining din haqida so'zlashga qobiliyati (fatonati) yo'q" ma'nosi anglashiladi. Darhaqiqat, hamma zamonlarda ham maxsus diniy bilimi bo'lmay turib, aqidaviy masalalarda so'z yuritishdan hayiqmaydigan kishilar bo'lgan. Ularning bilib-bilmay bergan "fatvo"lari diniy ahkomlarning buzilishiga, odamlar o'rtasida turli fitnalarning avj olishiga olib kelgan. Natijada esa xalq bundan ham ma'naviy, ham moddiy zarar ko'rgan. Butun ijodiyoti bilan insoniyat tinchligi va baxtu kamoli uchun kurashgan buyuk shoirning yuqoridagi fikrlari esa odamlarni kutilajak xavfdan ogoh etish va tafakkur yuritishga chorlaydi. "Diyonat" so'zining ikkinchi ma'nosi esa "insof" bo'lib [3:189], baytdan "insof-diyonati yo'q kishining din haqida so'zlashga qobiliyati yo'q" ma'nosini ham uqish mumkin. Darhaqiqat, diyonatsiz kishining dindorman deyishga haqqi yo'q. Chunki islom ezgulik dini bo'lib, u odamlarni o'zaro yaxshilik qilishga buyuradi. Jumladan, Alloh taolo Qur'oni karimning "Baqara"



surasi 195-oyatida “Yaxshilik qiling! Albatta, Alloh yaxshilik qilguvchilarni sevadi”, deya buyurgan [5:23].

Uchinchi misrada esa Hazrat Navoiy dindorning eng muhim xususiyatini bayon qiladi: “Dindor ulkim, ziyonati yo’qtur aning”. Ya’ni, muqaddas manbalarda e’tirof etilganiday, chinakam dindor, mo’min kishining na qo’lidan, na tilidan hech bir mavjudotu maxluqot ziyon ko’rmaydi. Omonati yo’qning esa dini ham yo’qdir. Bunda “amonat” so’zini “omonat” ma’nosida tushunib, mazkur jumlaning “Omonatga xiyonat qiladigan kishining dini yo’q” tarzida ham, “omonlik” ma’nosida tushunib, “Din-diyonati yo’q kishiga omonlik ham yo’qdir” tarzida ham talqin etish mumkin.

Ko’rinib turganiday, Hazrat Ali hikmati ruboiyning 4-misrasida ifodalangan bo’lsa-da, she’rdagi bosh g’oya 3-misrada aks etgani tufayli aynan shu misrada muallif axram tarmog’idan foydalanib, undagi uqtirish mazmunini zalvarli ohang bilan boyitadi.

Dindorlik mohiyatini ko’rsatuvchi “diyonat”, uning mazmunini ochib berishga xizmat qiluvchi “fatonat”, bu so’zlar bilan mantiqan bog’lanuvchi “ziyonat” va “amonat” so’zlarining qofiya sifatida qo’llanishi, “yo’qtur aning” radifidagi olmosh orqali she’rdagi bosh obraz – dindorga ishora qilinishi she’rning poetik barkamolligini ta’minlagan.

Shuningdek, masalaning asl mohiyatini ochib berish niyatida ruboiyning deyarli barcha misralarida “din” so’zining takrorlanib kelishi, o’zaro zid tushunchalarni yonmayon qo’yib, ular mazmuniga nazar tashlanishi kitobxon diqqatini bosh g’oya ustida ushlab turishga va asar mohiyatini yaxshiroq anglashiga sharoit yaratadi.

E’tibor bersak, she’rdagi barcha unsurlar: poetik til, obraz, vazn, qofiya, radif, badiiy tasviriy vositalar yagona maqsadga – dindorlik mohiyatini aks ettirish va bu orqali odamlarni tom ma’noda dindor bo’lib, barchaga yaxshilik qilishga undash uchun xizmat qilmoqda. Bu esa Navoiyning nechog’lik yuksak poetik san’atkorligini ko’rsatadi.

Dindorlik – bu taqvodorlikdir. Taqvo so’ziga lug’at ilmida “saqlanish”, “Allohdan qo’rqish” deb ta’rif berilgan. Islom dini kishilarni ma’rifatga chorlaydi. Tasavvufda ma’rifatli kishi har bir zarrada Allohni ko’ra olishi xususida so’z yuritiladi. Binobarin, taqvodor inson Xoliq hurmatidan maxluqqa (yaratilarga) ziyon yetkazmaydi. Ayni damda, ma’rifat sohibi har qanday holat Alloh hukmiga ko’ra amalga oshishini chuqur anglagani sababli hech bir maxluqotdan yetishi mumkin bo’lgan zarardan xavfsiramaydi. Hazrat Alining “**Xavf**Allohu ta’mana g’ayruhu” (“Allohdan qo’rqsang bas, boshqadan omon bo’lasan”) hikmati ham ushbu mazmunni ifoda etib, u “Nazm ul-javohir”da ruboiy shaklida shunday jarang sochadi:

*Haqdin emin bo’lubki jon topqaysen,
G’ayridin xavfi begaron topqaysen,
Andinki rajoyi jovidon topqaysen,
Xavf aylaki, g’ayridin amon topqaysen.*[1:116]

Alisher Navoiy o’z uslubiga muvofiq tarzda ruboiyni kompozitsion jihatdan ikki qismga ajratadi. Birinchi qismda hikmatda amr etilgan masalaning ziddi o’zi olib keluvchi yomon oqibati bilan, ikkinchi qismda esa ayni masala o’zining ijobiy natijasi bilan ko’rsatib berilgan. Shunga ko’ra, ruboiyning nasriy tabdili quyidagicha: “Agar Allohdan qo’rqmasang, barcha mavjudotdan bemisl xavfga duchor bo’lasan. Undan (Allohdan) abadiy umid topishni istasang, xavf aylagin. Shundagina dunyodagi hamma narsadan omonlik topasan”.



E'tibor berilsa, hikmat matnida faqat "xavf" haqida fikr yuritilgan. Alisher Navoiy ruboiysida esa mazkur tushuncha o'ziga aloqador bo'lgan boshqa bir tushuncha, ya'ni "**rajo**" bilan bog'liq ravishda talqin qilingan. Mazkur tushunchalar dinimiz asosida muhim o'rin tutib, mo'tabar manbalarda ular alohida izohlanadi. Xususan, Qur'oni karimning "Ar-Rohman" surasining 46-oyatida "Parvardigori (huzurida) turishidan (ya'ni o'zining Parvardigor oldida turib hayoti dunyoda qilib o'tgan barcha amallariga javob berishdan) qo'rqqan kishi uchun ikki jannat bordir" [5:412] deyilsa, "Zumar" surasining 53-oyatida "Allohning rahmat-marhamatidan noumid bo'lmangiz!" deyiladi [5:343].

"Xavf" so'zi lug'atda "qo'rqmoq"ni, "rajo" esa "umid qilmoq"ni anglatadi. Ulamolarimiz bu xususda so'z yuritib, "Banda xavf va rajo o'rtasida turishi kerak", deydilar. Mo'minlikning mohiyati ana shu muvozanatni tuta bilmoqdir. Zero, xavf rajodan ortib ketsa, insonda noumidlik holati yuzaga keladi. Allohning rahmatidan umid uzgan kishi har qanday gunohdan qaytmaydi. Shuningdek, rajoning me'yordan ortib ketishi ham Allohdan qo'rquvni susaytirib, gunoh ishlar sari yo'l ochadi.

Xavf va rajo **tavakkul** sari yo'l ochadi. "Tavakkul" lug'atda "vakil qilish" degan ma'noni anglatib, bir ishda boshqa birovga ishonish va suyanishni ifoda etadi. Ushbu tushuncha tasavvufiy atama sifatida Allohning o'zigagina suyanish va shar'iy sabablarni qilgandan keyin ishlarning hammasini Allohning o'ziga topshirishni anglatadi. Alloh taolo Qur'oni karimning "Oli Imron" surasida shunday marhamat qiladi: "(Biror ishni) qasd qilsangiz, Allohga suyaning – tavakkal qiling! Albatta, Alloh o'ziga suyanib (ish qiluvchilarni) sevadi" [5:49-50]. "Nazm ul-javohir"dan o'rin olgan quyidagi ruboiyda ham ayni mavzu yoritilgan:

*Har ishdaki haqqa multamas bo'lg'usidur,
Ish sa'b esa tengri choraras bo'lg'usidur,
Har yo'lgaki ko'nglungga havas bo'lg'usidur,
Tengriga tavakkul sanga bas bo'lg'usidur.*[1:109]

Ushbu ruboiy "Tavakkal alallohi yakfika" ("Allohga tavakkal qil – shuning o'zi kifoya") hikmatiga asosan bitilgan. Unda mo'minga xos ikki jihat: har qancha qiyin ishga duch kelgan chog'da ham Allohdan yordam so'ralsa, haq taolo albatta uni yechish usulini ko'rsatishi va muayyan yo'lni tanlashdan avval Allohga tavakkal qilishning o'zi kifoya ekanligi yoritilgan.

"Ishni Allohga topshirish, unga tavakkul qilish, Uning va'dasiga ishonish, qilgan ishlariga rozi bo'lish, u haqda chiroyli gumon qilish, yengillikni undagina kutish iymonning eng ulug' samaralari va mo'minlikning eng buyuk sifatlaridandir" [2:82]. Tavakkul zohiran oson ish bo'lib ko'rinsa-da, botinan kishidan kuchli imon-e'tiqod, metin iroda talab etuvchi yuksak maqomdir. U qalbga sakinat va huzur bag'ishlaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Nazm ul-javohir"da Hazrat Alining muhim islomiy masalalar haqidagi qarashlari Alisher Navoiyning irfoniy fikrlari bilan to'ldirilib, yangi mazmunlar bilan boyitilgan. Bunda musulmon axloqiga xos bo'lgan iymon, insof, diyonat, halollik, adolat, yaxshilik, odob, hayo, vafo, saxovat, himmat, qanoat, tafakkur, ilm-u irfon, sabr, shukr, xavf, rajo, tavakkul, rizo, fano kabi muhim masalalar o'zining ziddi bo'lgan iymonga putur yetkazuvchi illatlar bilan yonma-yon tarzda teran idrok va tuganmas zavq bilan yoritilgan.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999.
2. Доктор Оиз Қарний. Ҳақиқий саодат. – Т.: Матбаачи. 2022.
3. Навоий асарлари луғати. Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова.– Т.: Ғафур Ғулом, 1972.
4. Рустамий А. Ҳазрат-и Навоийнинг маънавий олами. – Т.: NAVRO'Z. 2014.
5. Қуръони карим (Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур).– Т.: Чўлпон. 1991.

*Ma'sudjon Sulaymonov,
FarDU, filologiya fanlari nomzodi*

MATN TILNING ALOHIDA YIRIK BIRLIGI SIFATIDA

Matnning asosiy funktsiyasi kommunikativlikdir. Kommunikativlik matnda matn birliklarining ierarxik sistemasi (kichik birliklarning yirik birliklarga ergashishi, tobeligi) asosida yuzaga chiqadi. Bu xususiyatni tilshunos olimlar matnning asosiy xarakteristikasi sifatida ko'rsatadilar. Bunday qarash matnga nutq birligi sifatida, umuman baho berishdir⁵⁶.

Kommunikatsiya jarayonida kommunikantlar o'rtasidagi axborot tashuvchi asosiy vosita matn hisoblanadi. Matnning informativ imkoniyatlari undan foydalanuvchilarning dunyoqarashi, bilimi, tildan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Ilmiy adabiyotlarda matn tushunchasi turlicha talqin etiladi. Matn nazariyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining barchasida matnning yirik butunlik ekanligi haqida fikrlar mavjud. "Bu xil fikrning tilshunoslikda o'rnashib qolishiga sabab matnning gapga nisbatan kommunikativ qimmatli deb hisoblanishidadir"⁵⁷.

M. Yo'ldoshev «Badiiy matn lingvopoetikasi» nomli kitobida «...matnni gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki yoki yozma shaklda yuzaga keladigan struktur, mazmuniy va kommunikativ yaxlitligi tarzidagi butunlik sifatida, til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi sifatida talqin etish maqsadga muvofiq»⁵⁸ deb hisoblaydi.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning ob'ekti sifatida talqin qilinadi⁵⁹. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi borligi aytiladi. Tilshunos M. Hakimov ilmiy matn tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik ishida bu haqda shunday yozadi: «Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi. Matn birliklarining o'zaro bog'lanishini ifoda etuvchi

56 Мамажонов А., Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. – Фарғона, 2002, 4-бет.

57 Шахобиддинова Ш., Исоқов З. Матн ва уни боғловчи воситалардан бири //Ўзбек тили ва адабиёти.-Т, 2004, №6. –Б.75-76.

58М. Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Т.: Фан, 2008, 61-бет.

59 Турниёзов Н., Йўлдошев Б. Матн тилшунослиги. Самарканд, СамДУ нашри, 2006; Йўлдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Т.: Фан, 2007. - Б. 9-10.



takror va uning bir necha ko'rinishi, olmosh turkumiga oid so'zlar, gaplarning so'roq shakliga xos bo'lgan ko'rinishining matn hosil qilishdagi vazifalari matn tilshunosligida alohida o'rin tutadi»⁶⁰. Tilshunos olimlar T. Matveevaning fikricha, «nutq sub'ektdan adresatga yo'naltiruvchi nutqiy faoliyat hisoblanadi. Matn esa faqat ob'ektiv informatsiya (axborot)dan iborat bo'lmay, balki pragmatik mazmunni ham qamrab olgan nutqning material ko'rinishidir»⁶¹.

O'zbek tilshunosligida matn va uni o'rganish bo'yicha keyingi yillarda qator ishlar amalga oshirildi. Bunda tilshunos olimlar G'Abdurahmonov, A. G'ulomov, A. Mamajonov, M. Abdupattoev, N. Turniyozov, M. To'xsonov, M. Hakimov, M. Yo'ldoshevlarning hissalari katta⁶².

Ayniqsa, o'zbek tili matnini pragmatik yo'nalishda o'rganish lisoniy birliklarning an'anaviy tilshunoslikda e'tibordan chetda qolgan jihatlarini yoritish katta imkoniyat yaratadi.

Matnni sistema sifatida tadqiq etishda til sathi birliklarining muayyan pragmatika asosida lingvistik pragmatikaning nazariy va amaliy, umumiy va xususiy yo'nalishlarini ajratish hamda pragmatikaning til sathidagi tadqiqot ob'ektini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn uslubiy mohiyatiga ko'ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma'ruza, annotatsiya, taqriz kabilar), badiiy matn (nasriy, nazmiy va dramatik asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanoma kabilar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari kabilar) singari bir qator tarmoqlarga bo'linadi. Bunday matn turlarining o'ziga xos grammatik va uslubiy xususiyatlarini tadqiq etish o'zbek matn tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Matnlar bir-biridan so'z va atamalardan foydalanish usullari, tarkibiy jihatidan, badiiy to'qima, har xil gap qurilmalarining ishlatilishi bilan farq qiladi. Masalan, gazeta matnida ikki xil muhim xususiyat-axborot berish va ta'sir qilish bir-biri bilan chambarchas holda amal qiladi.

Gazeta matnida tilning ta'sirchan bo'lishini ta'minlash maqsadida tilning leksik vositalaridan, ayniqsa, sinonim so'zlar, xalq maqol va iboralaridan unumli foydalaniladi. Gazeta matnidagi ortiq, ziyot, ko'fp, oshiq kabi sinonim so'zlarni ko'p uchratish mumkin. Bu so'zlar badiiy matnda boshqa ma'no kasb etishi mumkin. Publitsistik matn uchun ijtimoiy-publitsistik leksik xarakterli bo'lib, u poetik boshqacha, proza asarda boshqacha jaranglaydi.

Nutqning ifoda va mazmuniga ko'ra matnlar turli xil bo'ladi. Matnlarning turli xil bo'lishi ta'sir qiluvchi leksik vositalarga bog'liqdir.

Insonlar doimo bir-birlari bilan muloqotda bo'ladilar. Ular alohida olingan so'zlar bilan emas, gaplar va matnlar yordamida fikr almashadilar. SHuning uchun ham

60 Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. НДА – Т., 1994, Б 7.

61 Матвеева Т.В. Функциональные стили в аспекте текстовых категорий. – Свердловск, 1990.-с 5.

62 III Всесоюзная тюркологическая конференция // Совесткая тюркология.- Баку, 1981, №1.С93. Фуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. - Т.: Ўқитувчи, 1987, 6-7 бетлар. Мамажонов А. Текст лингвистикаси.-Т.: 1989. Мамажонов А. Абдупаттоев М. Матн синтаксиси. - Фарғона, 2002. Турниёзов Н. Матн лингвистикаси (маърузалар матни). – Самарқанд, 2004. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. - Тошкент, 1993. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлари д-ри...дис. автореф. – Тошкент, 2001. Тўхсонов м. Микроматн ва унинг коммуникатив яхлитлиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, №5, 66-69-бетлар. М. Йўлдошев. Бадий матн лингвопоэтикаси.-Т.: Фан, 2008, 61-бет.



kommunikativ funktsiya bajarish darajasi jihatdan matn birinchi o'ringda turadi. Matn til birliklari yig'indisining harakatdagi ko'rinishidir.

Matnni shaklan yirik butunlikdan iborat deb qarash unchalik to'g'ri emas⁶³¹. Biz o'rganayotgan dastxatlar ham matnning xususiyatlarini o'zida namoyon qiladi.

Turli xil janr asarlari tilining matnga xos stilistik tahlili matn stilistikasi umumiy nazariyasining paydo bo'lishiga hamda nutq stilistikasida jadal rivojlanuvchi nazariyaning chuqurlashishiga olib keladi. So'nggi yillardagi lingvistik tadqiqotlar asosida tadqiqotning boshlang'ich ob'ekti sifatidagi matn kompozitsiyasini o'rganish g'oyasi yotadi. Xususan, bunga o'xshash ishlarda tematik-ma'naviy mazmun, stil va strukturaviy kompozitsiya birligi o'z aksini topgan.

Stil aniq mavzuiy birliklar, ayniqsa, aniq kompozitsion birliklar, ya'ni ular qurilishining va tugallanishining aniq turlari hamda gapiruvchining nutqdagi boshqa ishtiroki (tinglovchi yoki o'quvchi singari)larga bo'lgan munosabat turlari bilan chambarchas bog'liq. Yuqorida aytilganlardan shu narsa ma'lumki, har qanday asar nominatsiyasi, birinchidan, asarning janr va stilga xos xususiyatlarida sezilarli iz qoldiradi, ikkinchidan, til vositalarining aniq yig'indisi asosida yetarlicha farq qiladi. Matnni kompozitsion-stilistik talqin qilish metodidan foydalanish uning sistem yasalishi amalga oshishidagi xususiyatlarning paydo bo'lish imkonini tug'diradi.

Dastxat - bu matn. Davlat arboblari, yozuvchi va shoirlar hamda boshqalarning yozgan dastxatlari matni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu esa ularning matn tahlilida yaqqol namoyon bo'ladi. Adresantlarning til birliklarini o'zlashtirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, asosan, ularning derivatsion imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Analogiya bo'yicha sintaktik qurilmalarning asosiy turlari - "chuqur struktura" ma'lum "yuqori struktura" asosida amalga oshadi. Har qanday lingvo -stilistik tahlil bunday ma'lumotlarsiz noto'liq bo'lishi mumkin. Bu yerda quyidagilarni ta'kidlash ancha muhimdir: til birliklari strukturasi (masalan, gap) va uning semantik obrazli mazmuni u yoki bu transformatsion o'zgarishlarda namoyon bo'ladi. Bu holat aniq, mualliflarga xos badiiy-tasviriy vazifalarni hal etishga imkon beradi. Bu esa janrga mos keladigan matn yasallashining qonuniyatlari vujudga kelishida muhim hisoblanadi. Bunda "matn" tushunchasi quyidagicha ta'rifga ega: "Matn yozma shakldagi ma'lumot bo'lib, u insonlar tomonidan nutq jarayonida til yordamida yaratiladi. Nutq - bu matn yaratilish jarayoni. Til - bu matnni yaratish va tushunish uchun qurilma. Nutq faoliyati til sohiblari tomonidan tilning ikki tomonlama ketma-ket qo'llanishi orqali amalga oshadi. Bu xuddi muloqot ishtirokchilar orqali uzatilinishi va qabul qilinishi uchun o'rnatilgan kodlashgan va kodlashmagan matnlarga o'xshaydi".

Bu yo'nalishdagi ishlar hali muammoli tadqiqot mavzulari bo'lib turibdi. Xususan, yozuvchi va shoirlar asarlarining, jumladan, dastxatlari matniga tizimli yondashuv masalalari o'zining yetarli yechimini topgani yo'q.

O'zbek tilida yozilgan dastxatlar matnining tahlili ularning funktsional uslublar orasidagi o'rnini belgilash hamda lingvistik xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHu bilan birga matnga tayanib ish ko'rish tilshunoslik taraqqiyotidagi tendentsiyalar talabi asosida olib boriladi. Bu xuddi insonga xos faktorlarning nutq faoliyatidagi muammolarni chuqur talqin qilishning qat'iy zaruriyati singari e'tirof

⁶³¹ Чинникулов Н. Пешлавхаларнинг лисоний хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. -Т., 2007, Б.7.



etiladi. SHuning uchun ham tilshunoslikdagi zamonaviy ilmiy holat tadqiqotchilar qiziqishining ko'proq tilni real o'rganishga qaratilganligi, tilga antronotsentrik nuqtai nazardan yondashuv hamda nutq faoliyati va tilning kognitiv aspektlariga bo'lgan qiziqish orqali tavsiflanadi. Haqiqatan ham, tilning asosiy vazifasi – kommunikativ funksiyalarni amalga oshirish. Til yaratilishi jarayonida kommunikativ funksiyalarning roli katta. SHuni qo'shimcha qilish mumkinki, tilning fonemadan tortib, to murakkab sintaktik qurilmalargacha bo'lgan material birliklar sistemasi uning muloqot vositasi sifatida qo'llanishi jarayonida paydo bo'lgan. Tilning ko'plab o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, ular deyktik va ekspressiv vositalarning mavjudligi, gaplar o'rtasidagi aloqalarning turli xil vositalari va hokazolar bilan izohlanadi. Tilni yana muloqot funksiyasiga bo'lgan talabdan kelib chiqqan holda izohlash ham mumkin. Bularning bari o'zbek tilidagi dastxatlarning funksiyasi matn nazariyasini boyitishga xizmat qilishligini ko'rsatadi.

O'zbek tilida yozilgan dastxatlar matni tahlilini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, birgina so'z, gapdan ham iborat o'ziga xos kichik matnni ko'rish mumkin. Bu xususiyat ko'proq davlat arboblari, san'atkorlar hamda sportchilar tomonidan yozilgan dastxatlarda uchraydi.

"Sizga baxt tilayman. Imzo." Bu ham dastxatning bir ko'rinishi. Dastxatlar matnining asosiy xususiyati faqat axborot tashishdan iborat emas. Balki u hissiy ta'sir etishi, aloqa hosil qilishi bilan ajralib turadi hamda ular mikromatn va makromatnli dastxatlarga ajratish mumkin.

Mikromatnli dastxatlar bir qator xususiyatlari bilan farqlanadi. Ya'ni ularda faqat niyat bildirish, belgi funksiyasi bo'ladi. Misol: *"Omad hamisha yor bo'lsin. Imzo."*

Makromatnli dastxatlar muzeylardagi mulohaza va esdaliklar kitoblarida ko'proq uchraydi. Ularda leksik, morfologik o'ziga xosliklar kuzatiladi.

"Bugungi muzey ko'rinishlari, qiziqarli suhbatlar uchun siz muzey xodimlariga katta rahmat aytamiz, kelgusi ishlaringizda omadlar yor bo'lsin. Ko'pchilik uchun ko'rsatgan xizmatlaringiz evaziga xudoyim sizlarni qo'llasin deb 9-maktab xodimlari To'ychiboeva, Mo'minova, Visotskaya.

11 aprel, 1996 yil. Imzolar."

SHuningdek, mazkur dastxatlar matnida fikrlar turli ijtimoiy guruhlar orqali bayon etiladi. Ularda turli nutq uslublariga oid xususiyatlar bo'lishi mumkin.

"SHoir, adiblar shahri, vodiymizning o'tmishdagi va hozirgi madaniy markazlaridan biri-Qo'qondan yana katta taassurot oldik. Ayniqsa, adabiyot muzeyi, uning eksponatlari, bezatilishi bizni quvontirdi.

Muzey yana boyiydi, unga e'tibor tag'in ham kuchaytiriladi deb umid qilamiz.

A. Xalilbekov,

R.Jo'raev,

A. Ahmedov va boshqalar

Namangan shahri o'qituvchilari".

SHuningdek, dastxatlar matnida abzats ham muhim o'rin egallaydi. Matnning abzatslarga bo'linishi aniq mantiqiy talab asosida amalga oshirilib, ularning har biri umumiy (ichki) yagona maqsadi-mavzuni yaxlit holda ifodalashga yordam beradi. Ana shunday ta'kidlangan tarzda ichki logik yaxlitlik yozma nutqda satr boshidan bir oz ochiq joy qoldirish uchuli bilan ifoda etiladi. Bu, ayniqsa, dastxatlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi:



"Muhtaram Abduljalil akaga!

Yurtimizga tinchlik, to'kin-sochinlik, sizga va oilangizga uzoq –umr, sihat-salomatlik, qut, baraka tilayman.

Hamisha sog', omon bo'ling, umringizning har bir kuni shodu hurramlikka to'lsin, deb shogirdlik hurmati ila Muhammadjon.

Imzo. 15 may. 1999 yil".

O'zbek tilshunosligida dastxatlar matni muhim ahamiyatga ega. Adresant-adresat munosabatidan iborat bo'lgan dastxatlar o'ziga xos bir qator belgi - xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Xususan, uning sintaktik qurilishi nisbatan sodda bo'lib, har bir shaxsning gapi, odatda qisqa bo'ladi. Kommunikantlarning fikr almashinuvi, ko'pincha to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar orqali amalga oshiriladi. Bu qisqalik adresant-adresatning borliq haqidagi tushunchalarining mushtarakligi bilan izohlanadi:

"Nargiza! Sizga hamisha baxt va omad yor bo'lsin. Imzo. Iqbol".

Ba'zi matnlarda esa fikrlar ko'lami keng ifodalanadi:

"Hurmatli muzey xodimlari, biz Oltiariq tumanidagi 38-o'rta maktabning o'quvchilari bilan muzeyni tomosha qildik. Muzey bizda katta taassurot qoldirdi. Sizlarni bu ezgu niyatda amalga oshirayotgan ishlaringda zafarlar tilaymiz. Doimo sog'-salomat bo'linglar. 6 05.97.

Sodiqov A.

Azimov T."

Aloqa-aralashuvning shakllanishida dastxat matnlarining o'rni beqiyos. Kommunikativ aktning ro'yobga chiqishi aynan matnlar hisobiga amalga oshirilib, unda adresant va adresatlarning o'zaro axborot almashishlari e'tiborga olinadi. Dastxatlardagi nutq kommunikantlarning fikr almashinuv jarayonidagi aqliy mehnat faoliyatlarining asosini tashkil etuvchi nutqiy vositadir.

Dastxatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri axborotni adresatga tez, sodda va tushunarli qilib yetkazishdan iborat bo'lgani uchun unda ellipsisni kuzatish mumkin. Dastxatlardagi matn bir-biri bilan semantik va struktur jihatdan bog'langan bo'ladi.

***Boyboboyev Hayotjon Abdujabborovich,
mustaqil tadqiqotchi, FarDU.***

TAHRIR SAN'ATIDA INDIVIDUALLIK

Annotatsiya. Odatda, asar yoki maqola nashr etilish va e'lon qilinishdan avval tahrirga ehtiyoj seziladi. Muallif nuqtai nazari va maqsadidan kelib chiqib amalga oshirilgan tahrir asarning muvaffaqiyatli chiqishiga xizmat qiladi.

Ushbu maqolada tahrir jarayoni va uning bosqichlari, muharrir individualligi, matn tahririning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Mavzu bo'yicha tadqiqotchilar va olimlarning fikrlariga munosabat berilgan.

Kalit so'zlar: tahrir, nashrga tayyorlash, tahrir san'ati, individuallik, mahorat.

Tahrir – arabcha so'zdan olingan bo'lib, ozod qilish, tuzatish, muharrirlik qilish, yozish, ijod qilish ma'nolarini ifodalaydi [1, 42]. Tahrir deganda ifodani, qoidani, qarorni,



majburiyatlarni aniqlashtirish, umuman turli hujjatlarni tayyorlash tushuniladi [2, 3]. Nashr sohasidagi “tahrir” tushunchasining turlicha talqini mavjud.

Asarlar tahriri bir necha jarayonni o‘z ichiga oladi: so‘zlarni qo‘llash me‘yorlarining buzilishi va leksik xatolarni to‘g‘rilash, matnni stilistik jihatdan tuzatish, asar kompozitsiyasi mukammalligiga putur yetkazuvchi mantiqiy noaniqliklarni bartaraf etish, umumiy mazmunni buzmaganda qayta ishlash, qisqartirish va tartibga keltirish, faktik materiallarni (mas., manbalar, sitatalar, atamalar, sanalar, nomlar, raqamlar va hok.) tekshirish kabi.

Kitoblar va gazeta-jurnallarni nashrga tayyorlash, kino va multfilmni suratga olish yoki spektakl uchun ssenariy tayyorlash, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlarni efirga uzatish singari ilmiy-ijodiy jarayonlarda tahrir san‘atining ko‘p qirraliligi namoyon bo‘ladi. Ilmiy-texnik (ixtisoslashgan), adabiy-badiiy, tarjima yoki huquqiy asarlar tahriri aniq maqsad, vazifa va xususiyatlarga ega bo‘ladi. Bunda, ayniqsa, matn yoki ilmiy-ijodiy mahsulotning iste‘molchilar (o‘quvchi, tomoshabin) yoshi, guruhi, tajribasi, dunyoqarashi, kasb-kori va hokazolarga mos kelishi, tushunarli va qiziqarli bo‘lishi talab etiladi.

Shu jihatdan, tahrir san‘atida individuallik – muharrir faoliyatining asosini tashkil qiladi. Muharrir mehnati har bir materialga tanqidiy yondoshish, asar mavzusi va yo‘nalishiga ko‘ra tahlil qilish, shaxsiy qarorlar qabul qilishda ko‘rinadi. Biroq matn nomukammalligini bartaraf etishda uslub va g‘oyani, kompozitsiya tugalligi va til jozibasini saqlab qolish muhim. Misol uchun, ilmiy jurnal materiallarini tahrir qilish bilan badiiy asar tahririda o‘ziga xosliklar vujudga keladi: istilohlar, aniqlik, his-tuyg‘u va tasvir kabi. Bolalar uchun yaratilayotgan asarlarda esa ularga tushunarli bo‘lmagan atama va fikrlar olib tashlanadi yoki o‘zgartiladi, soddalashtiriladi.

Har qanday muharrir asarni to‘laqonli tahrir qilishi uchun bir necha bosqichlarda mehnat qilishi talab etiladi.

Jumladan:

1. Matn bilan tanishuv (dastlabki, boshlang‘ich tahrir). Bunda butun matn mazmuni, mundarija va tartibi, asar g‘oyasi va maqsadi umumiy baholanadi.

2. Chuqurlashtirilgan tahrir. Mikromatnlar o‘rtasidagi uzviy aloqalar, alohida matnlardagi izchillik ko‘rib chiqiladi, xatolar va muayyan detallar tuzatiladi.

3. Nazorat o‘qishi. Butun asardagi yaxlitlik, mazmuniy bog‘lanish va murakkab elementlar, sana va raqamlardagi aniqlik ko‘rib chiqiladi.

Ba‘zi tadqiqotchilar esa bu jarayonni tanishuv o‘qishi, sidirg‘a o‘qish, chuqur o‘qish, sayqallov o‘qish kabi bosqichlarga bo‘lishadi⁶⁴.

Har qanday matn nashr etilish yoxud e‘lon qilinishdan oldin tahrirdan o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Asar (matn) qimmat, ilgari surilayotgan g‘oya va mavzuning ta‘sirchanligi ko‘p jihatdan tahrir qanday bo‘lishiga bog‘liq. Bu murakkab ijodiy va individual mehnat faoliyati muharrirdan keng dunyoqarash, sohaviy bilim va lingvistik salohiyat talab qiladi. Shu jihatdan muharrir faoliyatiga tahririy tahlil va shaxsiy xulosalarning amaliyotga tatbiq qilinishidan iborat ijodiy jarayon deb baho berish

64 З.Т.Тоҳиров. Таҳрир мантики. –Т., “Ўзбекистон” НМИУ, 2016, 90-91-бетлар; Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». -- 2-е изд., испр. и доп.-- М.: Высш. Школа, 1980; Редакторский анализ – профессиональный метод редактора. https://zinref.ru/000_uchebniki/02800_logika/011_lekcii_raznie_44/323.htm



mumkin⁶⁵.

Muharrir tahlili qo'lyozmani muayyan yo'nalishda ko'zdan kechirishdan boshlanib, muallifning maqsad-muddaosini anglagan va bundan yiroqlashmagan holda, bo'lajak asarning qimmati, ilmiy yoki badiiy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qilishgacha izchil davom etadi [3, 179].

Boshqacha aytganda, muharrir tahlili yoxud tahrir san'ati tahririyat-nashriyot ishining sifatli natijasini ta'minlab beruvchi, o'zida maxsus uslublarni mujassamlashtirgan faoliyat sanaladi⁶⁶.

Ta'kidlash kerakki, tahrir san'ati to'lig'icha individual, yakka shaxsning ilmiy-ijodiy mehnat faoliyatiga asoslanadi. Garchi ba'zi ishlarda jamoaviy tahrir e'tiborga olinsa-da, mavzu, soha yoki yo'nalish nuqtai nazaridan individual fikrlar, shaxsiy mulohazalarga tayaniladi.

Matn tahririda xoh alohida muharrir, xoh muallifning o'zi bo'lsin, asosiy maqsad – asarning pishiq-puxtaligi, sayqallanishi, ilmiy-amaliy faktlarga mosligi, ta'sirchanligi va o'quvchi uchun tushunarli bo'lishidir. Shu nuqtai nazardan asar tahriri yo'nalishlarini uch turga bo'lish mumkin: adabiy-badiiy, ilmiy va texnik.

Har qanday matn adabiy-badiiy tahrirga muhtoj sanaladi. Adabiy tahrirni qisqacha g'oyalar, tushunchalar, muallif fikrini asoslovchi dalillarni yanada aniqroq so'zlar, ifodalar orqali yetkazish uchun olib boriladigan izlanishlar jarayoni deb ham atash mumkin. Tahrirning bu turi material bilan tanishish, til qonun-qoidalariga rioya etilishi, asar nomi yoki maqola sarlavhasidagi g'oyaning matnda yoritilish darajasi, leksik, grammatik, stilistik qurilish, noadabiy leksikaning qo'llanishi kabi jihatlarni qamrab oladi. Misol uchun, yuridik mazmundagi matnda badiiy to'qimalar, ekspressiv-emotsional bo'yoqli jumlar bo'lmasligi shart, bolalar uchun atalgan asar esa tushinarsiz so'zlar, murakkab terminlardan xoli, yosh nuqtai nazaridan mos bo'lishi talab etiladi. Adabiy tahrir nashrga tayyorlanayotgan matnning mazmuni va adabiy tuzilishiga javob beradi.

Ilmiy tahrirda matndagi fakt va raqamlar aniqligi, chizma, formula, hujjat va sitatalardagi izchillik muhim sanaladi. Bunda dastlab materialda ilgari surilgan g'oya va fikrning dolzarbligi yoki aniqligi tekshiriladi, so'ng leksik, stilistik, punktuatsion talablar ko'rib chiqiladi.

Texnik tahrirda esa maket va nazorat nusxadagi kamchilik-nuqsonlar, sahifalar, bo'limlar va sarlavhalar tartibi, surat, chizma, jadval va illustrasiyalar tiniqligi singari talablarga e'tibor qaratiladi.

Bir so'z bilan aytganda, tahrir san'ati va uning individualligi asarlar muvaffaqiyatiga xizmat qilish bilan birga, muharrir salohiyati, uning bilim doirasi va professional mahoratidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. – T., "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020.
2. З.Т.Тоҳиров. Таҳрир мантиқи. –Т., "Ўзбекистон" НМИУ, 2016.

65 Мильчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная часть теории редактирования. 1977, С-Пб.

66 Свешникова И.К. Технология редакционно-издательского дела: Учебное пособие. -М.: Изд-во МГАп «Мир книги», 1995.



3. Сикорский Н.М. Теория и практика редактирования: Учебник для вузов по спец. «Журналистика». – 2-е изд., испр. и доп.-- М.: Высш. Школа, 1980.
4. Д.Тешабаева, Г.Бакиева ва бошқ. Медиалингвистика ва тахрир. III жилд. Т., "O'zbekiston", 2019.
5. Свешникова И.К. Технология редакционно-издательского дела: Учебное пособие. -М.: Изд-во МГАп «Мир книги», 1995.
6. Мильчин А.Э. Редакторский анализ литературного произведения как составная часть теории редактирования. -С-Пб. 1977.

*N.A.Xoshimova,
FarDU dotsenti*

TURLI SOHALARDA GENDERSHUNOSLIK MASALASI

Annotasiya. Mazkur maqolada gender tili tilshunoslikning turli yo'nalishlarida tadqiq etilishi masalalariga qaratilgan. Gendershunoslilik sohasining boshqa sohalar bilan qamrovda o'rganilishi ta'riflangan.

Kalit so'zlar: gender, lisoniy genderologiya, soha, ayol va erkak tili.

Аннотасия. Данная статья посвящается вопросам изучения гендерного языка в разных направлениях лингвистики. Описывается сочетание исследования гендерной лингвистики в рамках других направлений лингвистики.

Ключевые слова. гендер, лингвистическая гендерология, направление, мужской и женский язык. Annotation

Annotation. The given article is devoted to the issues of the study of gender language in the different branches of linguistics. The study of gender linguistics within the other branches of linguistics is described.

Key words: gender, linguistic genderology, branch, women and men's language.

Bugungi kunda gendershunoslilik masalasi turli tillarda dolzarb masalalar qatorida tadqiq qilinmoqda. Gender masalasi turli tillarda tadqiq qilinishi bilan birga, turli sohalarida ham atroflicha o'rganilib kelinmoqda. Jumladan, rus tilshunosligida gender bo'yicha tadqiqotlar turli yo'nalishlarda olib borilib, bu sohaga taalluqli ishlarning soni tobora ko'payib bormoqda.

Lisoniy genderologiya, ya'ni gendershunoslilik sohasi shakllanib, so'nggi davrda bu sohaga oid tadqiqotlar sosiolingvistika, psixolingvistika, lingvokulturologiya va muloqot diskursida keng olib borilmoqda.

Lisoniy genderologiya mustaqil soha sifatida madaniyatlararo muloqot masalasini ham diqqat markaziga qo'ydi.

Sosiolingvistika va psixolingvistika sohalarida yozma va og'zaki testlar orqali til sohibining tafakkuri har tomonlama tekshirilmoqda. Ayniqsa, bu amaliy aspektda yuzaga kelmoqda. Shuningdek, psixolingvistika sohasida til va jins o'zaro aloqalari haqida bahs munozaralar hanuzgacha davom etmoqda.

Lingvokulturologiya sohasida femininlik va maskulinlik tamoyillari, ularning til va nutqda ifodalanishi, erkaklik va ayollik konseptining tilda aks etilishi hamda tilda gender metaforaning o'rniga e'tibor qaratiladi.



Rus, AQSH va Yevropa genderologiyasida gender stereotip va ijtimoiy munosabatlarning androsentrik holatiga e'tibor qaratilgan. Ma'lumki, Yevropa tillarida Osiyo tillaridan ko'ra androsentrik holati ko'p uchraydi. Hozirgi davrda xorijiy olimlar tilning androsentrik holati bilan birga maskulin va femininlik aspektlariga e'tibor berib, ularning farqini yuzaga chiqarishga harakat qilmoqdalar.

Lingvokulturologiya sohasida rus lisoniy genderologiyada olib borilgan tadqiqotlarning o'ziga xos jihatlari ta'riflash mumkin. Tadqiqotchilar rus halqi ongida erkak kishi jamiyatda harakat qiluvchi sifatida, ayol kishi esa erkak kishiga qo'shimcha ob'yekt sifatida ta'riflanadi. Lekin V.N.Teliya hozirgi zamonaviy diskursdan kelib chiqib, ayol kishini zaif jins sifatida emas, balki erkak kishi bilan teng faoliyat olib boradigan shaxs sifatida ta'riflaydi. Bu esa frazeologik sathda ham ko'zga tashlanadi.

Zamonaviy matnlar diskursi, asosan siyosiy diskurs, televideniye diskursi, ertaklar, frazeologiya va paremiya birliklarida gender ongi va tafakkurining turli millatlarda o'ziga xosligi, farqi ta'riflangan.

Hozirgi kunda maskulinlik femininlik kabi o'rganilar ekan, maskulinlik aspekti erkaklar uchun jurnallarda, halq anekdotlarida qanday tarzda ifodalanganligi atroflicha tahlil etilmoqda.

Gender farqi madaniyatlararo muloqot aspektida ham o'rganilib, bir qator tajribalarni misol qilib keltirish mumkin. Turli tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tajribalar amerikalik va rus gender ongi, rus va xitoy gender ongi, fransuz va rus gender ongi, nemis va rus halqining gender aspekti atroflicha tahlil qilinib, har bir millatga oid chastotali leksika, erkak va ayollarga tavsiya etilgan so'z-stimullariga berilgan javoblar aynan millat mentalitetiga xos jihatlarni vujudga keltirgan. Shu bilan birga millat gender ongi va tafakkuri vujudga kelib, millat tilning o'ziga xosligini ta'rifladi. Demak, ushbu tajribalar millat va elat gender tasavvuri mavjudligi haqida dalolat berib, buni maxsus o'rganishga zamin yaratadi.

So'nggi yillarning lingvokulturologiya sohasida gender aspektning etnomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish keng ma'noda olib borilmoqda.

Diskurs, ya'ni matn tahlili o'zbek tilshunosligida deyarli yangi, endi rivojlanayotgan sohadir. Shuning uchun diskurs yo'nalishiga alohida e'tibor qaratib, gender aspektini diskursning turi, ya'ni muloqot diskursida ifodalash ham bugungi kun talablaridan biri, deb hisoblaymiz.

Muloqot diskursi yo'nalishiga oid tadqiqotlar soni ko'payib bormoqda. Xususan, erkak va ayollar nutqi e'lonlar, televideniya, jamoaviy muloqot, siyosiy muloqotda ifodalanishi ko'plab tadqiqotlarda ko'rinmoqda. Bu tadqiqotlar yanada genderga xos maxsus nutq shakllanish ehtimolligi, gender stereotip tilda aks etilishining dalili bo'lib kelmoqda.

Siyosiy diskursda ham gender tili aspekti talqin etilib, nutqning gender stereotipi orqali halq ongiga ta'sir etishi mumkinligi, gender omilining saylovda saylanayotgan kishilarga nisbatan ijobiy yoki salbiy ta'sir etishi o'rganilgan.

Noverbal muloqotning gender tili aspektlari turli olim va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ma'lumki, genderning noverbal semiotik belgilariga ma'lum jamiyat va madaniyatning o'ziga xos jihatlari ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun, har bir jamiyat yoki millatga xos genderga taalluqli noverbal harakatlar o'zgacha ta'riflanadi.



Umumiylashtirib, aytish mumkinki, bugungi kunda gender tilining turli sohalarda o'rganilishi uning serqirraligini ko'rsatib bermoqda. Bu esa, gendershunolik yo'nalishida yangi tadqiqotlar olib borilishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Колоколова Н. М. Теоретические исследования гендерного направления в лингвистике. Методология гендерных исследований. – Тамбов, 2008. № 2 (9). – С. 89-92. www.gramota.net/materials/1/2008/2-2
2. Полевая И.В. Речевые гендерные стереотипы и их реализация в Российском аналитическом телевизионном дискурсе. Дисс-я на соискание учёной степ.канд. фил.наук. -2008. <https://www.dissercat.com/content/>
3. Семиколенкова Е.И., Шилина А.Г. Гендерные исследования как новый современной лингвистики. 2003. space.nbuv.gov.ua/bitstream/handle/123456789/76209/32

Muhammadrizo Djurayev,
filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YORIY SHE'RIYATI TILIDA ARABIZMLAR

Annotasiya. Ushbu maqolada ho'qandlik shoir Yormuhammad Yoriy she'riyatining tilida arabizmlarning qo'llanishi masalasi yuzasidan so'z yuritilgan. Uning she'riyatida arabizmlar uch yo'nalishda istifoda etilganligiga e'tibor qaratilib, iqtibos, aqd, tanosub, nido san'tlari doirasida kelgan arabcha so'z va jummalarning ma'nolari yoritilgan. Shuningdek, arabizmlarning qofiya hamda radif bo'lib kelganligigaham diqqat qilingan.

Kalit so'zlar. *She'riyat, mumtoz she'riyat, til, adabiy til, badiiy til, o'zlashma, arabiy so'zlar, sabab, oqibat, qofiya, radif, iqtibo, aqd, tanosub, nido, musajja'.*

Mumtoz she'riyatning so'z olamida arab tiliga xos o'zlashmalar va faol nutqimizda istifoda etilmay, arab tilidagina ishlatiladigan so'zlarning uchrashini mutaxassislaru muxlislar tabiiy qabul qilishgan. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab Muqimiy, Furqat, Muhayyir kabi shoirlar bilan hamnafas bo'lgan, XX asrning birinchi yarmida ham barakali ijod qilgan Yormuhammad Yoriy she'riyati tilida ham arabizmlarning ko'p uchrashini ana shu bilan izohlash lozim. Qolaversa, Yoriyning din peshvolaridan bo'lganligi, qirq yil mobaynida masjidlarda imomlik qilganligi ham uning g'azallari, muxammaslari, doston va tarjimalari tilida arab tiliga tegishli so'zlarning ko'p ishlatilishiga sabab bo'lgan, deb o'ylaymiz. Uning she'riyatida istifoda etilgan arabiy so'zlar turli maqsadlarni bajargan. Ayniqsa, devonidagi hamd va na't she'rlaridagi iqtiboslar va aqdlarda arabizmlar qur'oniy hamda hadisiy kalimalar tarkibida berilganki, ularni izohlar bilangina tushunib yetish mumkin bo'ladi. Boshqa o'rinlardagi arabizmlar esa zarur o'rinlarda mumtoz she'riyatda istifoda qilingan yoki o'zbek tili badiiy nutqida faol qo'llangan arabcha so'zlar yoki arabiy kalimalardan yasalgan o'zbekcha so'zlardir.

Yoriy qalamiga mansub she'rlarda arab tiliga oid so'zlarning istifoda etilishini uch yo'nalish – maqsadda yuzaga kelgan, deb hisoblash mumkin. Daslabkisiayni islomiyatga tegishli fikrlarni bayon qilish uchun hamd va na't she'rlar leksikasida qur'oniy kalimalar, hadislardagi arabiy so'zlarni keltirish orqali bo'lsa, keyingisi irfoni



mazmundagi she'rlarining leksikasida o'zbek tiliga o'zlashgan arabizmlarni aralash ishlatilgani, uchinchi, she'rlarining qofiyasida arab tiliga oid o'zlashmalarni keltirish orqali qo'llagan. Yana shuni ta'kidlash lozimki, Yoriy arabcha asosdan affiksasiya va kompozisiya usuli bilan yasalgan o'zbekcha so'zlarni ham ko'p ishlatgan.

Mumtoz shoirlarimiz ijodining mazmuniy ko'lami kuzatilsa, dunyoviy masalalar bilan bir qatorda, irfoniylar ham keng o'rin tutganligini, dunyoviy masalalar mag'zida irfoniylar mazmunga ishoralar mavjudligini sezish mumkin. Bunday usullar adabiyotimizning ibtidosidanoq odat tusini olgan. Zero, she'riyat ayni ko'ngil mavjlarini tinglaguvchi yoxud o'quvchiga oshkor etuvchi bir mo'jiza sanaladi va ko'ngilda zuhur etuvchi tuyg'ular goh dunyoviy mazmunda, goh irfoniylar ma'nida kitobxonga yetkaziladi. O'tmish adabiyotimizga nazar tashlasak, Hazrat Alisher Navoiygacha va uning davrida, undan keyin ham deyarli barcha qalam ahlari irfoniylar masalalarini o'zida zuhur etgan she'rlar bitgani hamma manbalardan ma'lum. Bunday holatdan Yormuhammad Yoriy ham benasib emas.

Yoriyning qo'limizdagi noyob dastxat devonidagi dastlabki she'rlar devonchilik talabi bilan hamd va na't she'rlardan tarkib topgan. Ularning barchasida Allohning birligi va borligi, karamivaqudrati, rahimvarahmonlik sifatlarini adabiyotimizda koinotsarvari Muhammad Mustafo (s.a.v.) gacheksizdurudlar, sahobaikiromlar, chahoryorlarga maqtovlar bildirilgan, munajatlar qilingan. Shundanmi, bu misralarda irfoniylar mazmun bildiruvchi arabizmlarning nido san'ati maqomida alohida guruhi paydo bo'ladi:

*Eyvohib alqiyashyo,
Eyqodir kullitavono.
Lutfaylabonolilkim,
Qoldimayog'ochug'abro.
Bo'ylamanixoretmish,
Nafsiba'dishumirasvo.[2-b]*

Agar e'tibor qilinsa, parchadagi 23 ta so'zdan 60 foizdan ziyodi arabizmlar bo'lib, bular Allohga munajatni ifodalashga xizmat etgan. Boshqa g'azalida Alloh va ta'alo, Rasululloh, chahoryorlar madh etilganida hamshe'rning irfoniyligini ta'minlash maqsadida arabizmlarni istifoda etadi:

*HamdifarovonqodirXudoga,
DurudibehadHaqmustafoga.
Bu Bakr, Umar, Usmon, Haydar,
Uloli Ahmad badrud-dujjoga.[2-b]*

Qur'oni karimdan iqtibos qilish barcha irfoniylar mavzuda ijod qilgan shoirlarga xos. Biroq bu usul ham qalamkashdan alohida mahoratni talab etishi tabiiy holdir. Iqtibos etilgan har bir ilohiy so'z yoki ifodani she'rning mazmuni va shakli bilan uyg'unlikda berish uchun shoirda irfoniylar bilimdan tashqari, mahoratli nazmi ta'b bo'lishi va arabizmlarni o'z maqsadiga to'la bo'ysundirilishi talab etilgan. Shoirning quyidagi satrlari fikrimizni dalillashga arziydi:



*Zirvai ulyo ishq "urvat ul-vusqo" manga,
 "Jannat ul-ma'vo" vaslimaqsadialo manga.
 Bas "mazog' al-basar" bo'ldiqarinihimmatim,
 Harkechame'roj "subhanallaziasro" manga.
 Majmaibahraynorasidayo'qimkonqadam,*

"Qobaqavsayn" dino'tibman "avadno" manga. [3-b]

Keltirilgan uch baytning qo'shtirnoq ichidagilari azim ush-sha'n Qur'oni karim oyatlariga tegishli bo'lib, bularning barchasini faqat tafsir va tarjimalar orqaligina anglash mumkin. Baytdagi *"zirvayi ulyoyi"* birikmasining asl ma'nosi "tog'ning baland cho'qqisi" demakdir. Bu birikmaning o'z ma'nosi. Lekin bu o'rinda Alloh taologa bo'lgan otashin muhabbatning eng yuksak ko'tarilishi ma'nosiga ishora qilmoqda va mazkur birikma ko'chma ma'noda istifoda qilingan. "Baqara" surasining 256-oyati karimasidan olingan *"urvat ul-vusqo"* iqtibosi "mustahkam tutqich" ma'nosini beradi. "Sajda" surasining 19-oyati karimasidan iqtibos qilingan *"jannat ul-ma'vo"* – jannatdan ajratilgan joy kalimasi ana shu oyati karimalarning davomi sifatida keltiriladi. Modomiki, Allohning ishq lirik qahramonga gunohlardan forig' bo'lishi uchun mustahkam tutqich (himoyachi) bo'lar ekan, unda (lirik qahramonda) jannatdan umidvorlik paydo bo'ladi va "jannat ul-ma'vo" – jannatdan ajratilgan joy kalimasi ayni shu ma'noda iqtibos qilingan. Demak, baytdagi dastlabki misraning ma'nosi tubandagicha bo'ladi: Alloh taologa bo'lgan mendagi otashin, yuksak martabali ishq hayotim uchun mustahkam tutqich bo'ladi va men shu ishq vositasida Allohdan gunohlarimni mag'firat aylab, "jannat ul-ma'vo" – jannatdan ajratilgan joydan umidvor bo'laman, degan xulosa kelib chiqadi. Keyingi bayt ham xuddi oldingisidek, iqtibos san'ati bilan ziynatlangan:

*Bas "mazog' al-basar" bo'ldi qarini himmatim,
 Harkechame'roj "subhanallaziasro" manga.*

Baytdagi qur'oniyl kalima *"mazog' al-basar"* – nigohi burilmadi ham ma'nosida, haddidan oshmadi ham tarzida tarjima etilsa, keyingi misrada kelgan "subhanallazi asro" – sayr qildirgan pok zotdir, demak bo'ladi. Baytning birinchi misrasida kelgan kalima "Najm" surasining 17-oyati karimasidan bo'lsa, ikkinchi iqtibos "Isro" surasining 1-oyati karimasidan olingan. Mazkur baytning lisoniy mazmuni Rasululloh (s.a.v.) ning me'rojlar bilan bog'liqdir. Qolaversa, baytdagi *"me'roj"* so'zi ham buni tasdiqlab turibdi. "Van-najm" surasining 9-oyati karimasidan iqtibos qilingan ikki kalima "qobaqavsayn" – ikki qosh oralig'i hamda "avadno" – undan ham yaqin keldi birikmalari ham oldingi iqtiboslarning mantiqiy davomi sifatida ko'zga tashlanadi. Yuqorida eslatilganidek, *"qobaqavsayn"* so'zi Qur'oni karimning 53-surasidagi 9-oyatdan olingan bo'lib, uning "Ikki kamon oralig'ida yaqinlashdi" degan lug'aviy ma'nosi bor, ya'ni ikki kamoning birlashuvi – ittihodi qoshlarining yosida mujassam:

*Majmai bahrayn orasida yo'q imkon qadam,
 "Qobaqavsayn" din o'tibman "avadno" manga.*

Keyingi baytda tolibi diydor Muhammad alayhissalomning Me'roj tunidagi holatlariga ishora bor. Baytdagi *"Robbiarini"* kalimasi ham Qur'oni karimga aloqador:

*Tolibi diydor Musovor yuz ming ko'ksima,
 "Robbiarini" yuzlatur nisbai siyno manga.*

Van-najm surasi 9-10 oyatlari tarjimasi bunday: "Bas, (farishta Jabroyil



(Muhammad alayhissalomga) ikki kamon oralig'ida yo (undan-da) yaqinroq bo'lib, Alloh o'z bandasi (Muhammad alayhissalom)ga tushirgan vahiyini keltirdi". Galdagi baytlarda azim ush-sha'n Qur'ondan iqtibos qilinmagan bo'lsa-da, oyati karimalarga ishoralar aniq sezilib turadi. Quyidagi bayt mazmunan Musoyi kalimning Alloh taoloning yuzini ko'rmoq uchun umid qilganida, Alloh taolo uni Tur tog'iga qarashga buyurgani, yerdagi barcha ashyolarda Allohning tajalliy qilishi borasida so'z boradi:

Vah, nedurulTuri Sino arshufarsh, bahru bar,

Rang-barangtushgaytajallidiliko'ngilg'a to manga.

Qur'oni karimdan iqtibos qilingan "*rabbano zallamno*" kalimasi Yoriy she'rining bir o'rnida "*zallamno rabbano*" tarzda kelgan. "*Zallamno rabbano*" so'zlari "A'rof" surasining 23-oyatida keladi. U: "*Qolo rabbano anfusano*" deb boshlanadi. Ushbu oyati karima Odam Ato va Momo Havvomiz jannatdan haydalgandan keyin Tangriga qilgan tavbasining mazmunidir. Shoir she'r vazni talabidan kelib chiqib, "*zallamno*" va "*rabbano*" so'zlarining o'rnini almashtiradi. Ammo bu usul oyati karimaning ma'nosini o'zgartirib, o'quvchining fikrini chalg'itmaydi. Bularning nido san'ati doirasida berilishi esa, arabcha kalimalarning ham xuddi o'zbekcha so'zlar singari qabul qilinishiga sabab bo'lgan. Oqibatda, she'rning ta'sirchanligiga va tushunilishiga mutlaqo monelik qilmagan.

Ey "alam nashroh", yurak "mazog", ko'zlik "ma tog'o",

Ey "qobiqavsayn", ittihodingqurbatingbo'ldidano, *Kim bo'lubdur san kabiisr*
oso'zig'aoshno,

Eymazharisubhiiazal, eyoftobi "vaz-zuho",

Eymash'alishomiabad, husningfurug'idinziyo. [13-b]

Yoriy bir g'azalida Payg'ambarimiz Rasululloh (s.a.v.)ning tasavvufning birlamchi shioriga aylangan "*Al-faqri fahri*" hadisi shariflarining aqd (iqtibos) qilinishi va suluk maydonida markab o'ynatib, javlonistagan, ya'ni solikning Alloh ma'rifatidan bahramand bo'lib, riyozat sirlarini o'rganishiga ishoraning musajja' baytga qamrab olinishi ham shoir mahoratini belgilovchi unsurlar sirasiga kiradi:

"Al-faqrifaxri" so'zqotib, g'am tarab haryon otib,

Maydonda markab o'ynatib, men endi javlon istaram. [111-a]

Shu o'rinda "*Al-faqri faxri*" iborasiga izohiga qaytishga to'g'ri keladi. Bilamizki, faqr tasavvuf maqomlari ichidagi bir bosqich hisoblanadi. Faqrlik – bu moddiy yetishmovchilik yoki tilanchilik qilish emas, balki Allohu taborak oldida o'zini o'jiz, g'arib va notavon his qilishdir. Faqr – mosivodan xalos bo'lish, tavakkul tuyg'usi bilan yashash demakdir. Faqr – sharaf xirqasi, payg'ambarlar va solihlarning libosidir. Faqr tojini kiygan ikki jahonda sultondir. Shu bois faqr tasavvufning asosi va manbasidir. Payg'ambaral ayyihissalom "*Faqrlik faxrimdur*" deganlari uchun ham orif insonlar faqrlik bilan faxrlanganlar. Bu faxrlanish xalqqa kambag'alligini, tilanchilarga xos hayotni ko'rsatish emas, Alloh oldida o'jiz va faqrligini his etib yolborishdir. *Faqr, darvesh, so'fiy, murid, qalandar, tolib* kabi arabizmlar o'zini har jihatdan Allohga muhtojligini biladigan, *al faqrilalloh* – Allohga muhtoj bo'lish, *al-faqrulalloh* – o'zini Allohga muhtoj deb bilgan kishini anglatgan.

Yuqorida aytilganidek, arabiy kalimalar Yoriy she'riyatida ham ba'zan o'zlashma sifatida baytning ichida kelsa, ayrimlarida qofiyaga yoki radifga chiqarilganini kuzatish mumkinki, bular ham shoirning irfoniy mazmunni to'laqonli berishiga sabab bo'lgan. Masalan, ushbu baytda shu holatni kuzatamiz:



Bandalik qilay senga, ne yaxshi odatdur manga,

Qullaringga qo'shilib yurmoq saodatdur manga.

Baytdagi "saodat", "odat" singari so'zlar o'zbek tilida faol ishlatiladigan arabcha so'zlar bo'lsa, "bandalik qilmoq" arabcha-forscha va o'zbekcha so'zlarning qo'shilib, kompozisiya usulida yasalgan o'zbekcha so'zdir.

Yoriyningushbu

Eykarimikorsoz, buldardimabergilnajot,

Eyxoliqibanda, buldardimabergilnajot, matlali g'azali xarakterlidir. Shoir g'azalning matlasidayoq Yaratganga iltijo qilib (nido usuli), o'z dardiga najot so'raydi va shu so'rovni arabiy kalima orqali radifga chiqaradi. Alloh hamdini yoritishga bo'ysundirilgan arabiy so'z – najot umidining radifga chiqarilishi g'azalga alohida fayz bergan. Zero, Alloh taolo o'z bandasiga dard berish barobarida uni sinaydi. Bu sinovlarga bandayi ojiz qanday munosabat bildiradi? Yoriy mazkur g'azalda ana shuholatni ham fikrdan soqit qilmaydi. G'azalning ikkinchi baytida:

Nur keturdim dargohingga lutf aylarchog',

Qo'ymag'il davri daroz, bul dardima bergil najot, – der ekan, keltirilgan *nur* (arabcha so'z) solih amallar ekanidan umidvor (*najot - arabiy*) bo'lib (*lutf aylar - arabcha asosdan yasalgan qo'shma so'z*), shunga ishora qiladi. Bugina emas, Yoriy bir bayt yoki misra doirasida arabizmlarni tanosub qilib ishlatgani ham uning she'riyatida arabiy so'zlarning alohida vazifa berganligidan darak beradi.

Dod etarman kulfat, ranj, alamni ilgidin,

Qilmadim ro'za, namoz, bul dardima bergil najot. [25-a]

Bu baytda, aytganimizdek (*kulfat, ranj, alam* hamda *ro'za, namoz* so'zlari arabcha so'zlardir).

Xullas, Yormuhammad Yoriy she'riyati tilining ayrim jihatlariga e'tibor qaratganimizda shu holat ayon bo'ladiki, shoirning hayotiy maslagi uning she'riyati tiliga ham ta'sir o'tkazgan va arabizmlarning o'rni bilan ko'p qo'llanishi uning dunyoqarashining ayon etishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yoriy. Devon (qo'lyozma). Kp 93/58. Abu Rayxon Beruniy nomidagi SHI.
2. Qur'oni karim (tabdil, tarjima va tafsir muallifi Shayx Abdulaziz Mansur). – T.: Toshkent Islom universiteti, 2017.
3. Siddiqov M. Zakovat adabiyoti. – T.: Bayoz, 2013.



Qahramon Eshboyev
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

GRADUONIMIYANING O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDAGI TADQIQI

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik-semantik munosabatlarning turlaridan biri bo'lgan graduonimiyaning o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi masalasiga bag'ishlanadi.

Kalitso'zlar. Tilshunoslik, graduonimiya, daraja, pog'ona, bosqich, dissertatsiya.

Аннотация. Данная статья посвящена изучению градуонимии, которая является одним из видов лексико-семантических отношений, в узбекском языкознании.

Ключевые слова. языкознание, градуонимия, степень, этап, стадия, диссертация.

Annotation. This article is devoted to the study of graduonymy, which is one of the types of lexical-semantic relations, in Uzbek linguistics.

Keywords. linguistics, graduonimia, degree, stage, stage, dissertation.

Tilshunoslikda til hodisalarini tizimli o'rganish usuli maydonga kelgunga qadar so'zlararo ma'noviy munosabatlar tushunchasi ostida, asosan, sinonimiya va antonimiya munosabatlari o'rganib kelingan. Tilshunoslikning keyingi davrlaridagi tadqiqotlari natijasida so'zlararo boshqa leksik-semantik munosabatlarni ham ajratish, tadqiq qilish imkoniyati yuzaga keldi. Xususan, so'zlar ma'noviy jihatdan o'zaro darajalanish munosabatiga ham ega bo'lishi tilshunoslikka oid qator tadqiqotlarda qayd qilinganligini kuzatish mumkin. Jahon tilshunosligida olimlar tomonidan shu paytgacha graduonimiya paradigmasiga o'xshash turli lingvistik hodisa va tushunchalar o'rganilgan hamda ularning mazkur darajalanish hodisasi bilan farqli jihatlari ham mavjudligi bois ushbu masala turli bahs-munozaraga sabab bo'lib kelmoqda.

Graduonimiya hodisasi o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning oxirgi o'n yilligida tadqiqot obyekti sifatida olinib, lug'aviy-ma'noviy munosabatning alohida bir turi maqomida tadqiq qilindi. Graduonimiya "...lisoniy ma'noviy munosabatlarni aks ettiruvchi sinonimiya, omonimiya, antonimiya kabilarning umumiy tarkibiy qismi bo'lgan – onimiya qismini lotincha *gradu* (*daraja*, *bosqich*) so'zi bilan biriktirish asosida sun'iy ravishda yasaldi. Bu hodisa 1990-yilda tilshunos R.Safarovning nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy faraz sifatida berilgan bo'lsa, lug'aviy darajalanish olima Sh.Orifjonovanning nomzodlik dissertatsiyasida atroflicha tadqiq etildi" [Джумабаева Ж., 2017:5].

Tilshunos O.Bozorov [Базаров О., 1997:270] tomonidan graduonimiya (darajalanish)ning fonetik, fonologik, morfologik, sintaktik, stilistik sath birliklari orasida ham mavjudligi xususidagi ilmiy qarashlar kun tartibiga qo'yildi. "U fanda ilk marta lisoniy darajalanishning lingvistik qonuniyat ekanligini isbotlab, darajalanish mexanizmi va hodisasining tabiiy-ontologik mohiyatini ochib berdi" [Джумабаева Ж., 2017:6].

Yuqorida ta'kidlanganidek, "O'zbek substansional (formal-funksional) tilshunosligida *graduonimiya* tushunchasi nafaqat leksik, balki morfologik, sintaktik va stilistik sath birliklari orasidagi munosabatlarning keng tarqalgan turlaridan biri ekanligi e'tirof etildi hamda bu masala doirasida ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Bunday izlanishlar



o'tgan asrning 80-yillarida boshlangan bo'lsa, keyinchalik bu yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar, yuzaga keldi [Джумабаева Ж., 2017:6]. O'tgan asrning 90-yillaridan keyin bu ilmiy tushuncha tadqiqotlar, maktab va oliy o'quv yurtlari qo'llanma hamda darsliklariga, o'zbek tilida nashr etilgan tilshunoslik terminlarining izohli lug'atiga kirib bordi. Shu tariqa o'zbek tilshunosligida graduonimiya va graduonimik munosabatlar tushunchasi leksikadan morfologiya va, hatto sintaksisga ham tatbiq etildi hamda umumlisoniy munosabat turi maqomiga ega bo'ldi. N.Vohidova nemis tilida lug'aviy darajalanish qatorlarini ajratish zarurligi g'oyasini Yevropa tilshunoslari diqqatiga havola qildi. Bu yangi qarash germanistikaning 1996-yildan buyon tuzib kelinayotgan kompyuter lug'atchiligi va so'z zaxiralari (NET, NETZ, SHATZ tizimlari)ga jiddiy tuzatish kiritishni talab qildi [Джумабаева Ж., 2017:6]. Bu holat bugungi kunda graduonimiyaga doir tadqiqotlarning ommalashayotganidan dalolat beradi.

Sh.Orifjonova nomzodlik dissertatsiyasida darajalanish qatorlari, umuman, darajalanish haqida atroflicha ma'lumot bergan. U birinchi bo'limda so'z turkumlarining har birini graduonimik qatorlarga qo'yib, o'z mulohazalarini aniq misollar asosida bayon qilgan. Shuningdek, bir so'z turkumining graduonimik qatorini tuzishda u graduonimik qatorlarda sinonim, antonim qatorlarini ham ko'rsatib, misollar bilan asoslab bergan.

Tilshunos olim J.Djumabayeva tomonidan graduonimiya hodisasi o'zbek va ingliz tillari materiallari qiyosi asosida tadqiq etilgan. U "graduonimiyani umumlingvistik hodisa sifatida tavsifladi; o'zbek va ingliz tillaridagi leksik graduonimik qatorlarning hosil qilish yo'llarini aniqladi; o'zbek va ingliz tillaridagi leksik graduonimiyaning semantik kontekstual xususiyatlarini ochib berdi; o'zbek va ingliz tillaridagi stilistik graduonimiyani tadqiq etdi va farqli xususiyatlarini aniqladi; qiyoslanayotgan tillarda graduonimiyaning gradatsiya, graduallik, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, partonimiya/meronimiya, xolonimiya, plesionimiya kabilar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirdi va natijada bularning mohiyat hamda mazmunining o'ziga xos ontologik tabiatini ochib berdi; *mikrograduonim* va *makrograduonim* terminlarini ilmiy muomalaga kiritdi va asosladi; qiyoslanayotgan tillarda *unikal graduonimik qatorlarni* aniqladi; til korpuslariga graduonimiya hodisasini olib kirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqdi; bir va ikki tilli graduonimik qatorlar lug'atlarining leksikografiyadagi ahamiyatini dalilladi" [Джумабаева Ж., 2017:210].

Ensiklopedik lug'atda **daraja** tushunchasi quyidagicha tarzda tavsiflanadi: "1) matematikada – bir-biriga teng bir necha son (yoki ifoda) ning ko'paytmasi. Analitik funksiyalar nazariyasida asosi va ko'rsatkichi kompleks sonlardan iborat bo'lgan D. qaraladi (yana q. Muavr formulasi). 2) termometr, barometr va b. asboblarshkalasidagibo 'linmalar; t-ra, burchako'lchovlari (yana q. Gradus)" [ЎЗМЭ, 2001:82]. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esa daraja tushunchasi va u bilan bog'liq hodisalarni ifodalovchi bir qator lug'aviy birliklarning tavsifini ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan: "**DARAJA** [*a.* – bosqich; martaba, unvon; zina] **1** Ish-harakat, xususiyat yoki holatning me'yori, chegarasini anglatadi; ko'pincha aniqlovchilar bilan ishlatiladi. **2** Tadrijiy yoki nisbiy taraqqiyot, rivojlanish pog'onasi; saviya, yuksaklik o'lchami. **3** esk. Mansab pog'onasi, rutba, martaba. **4** Ilm-fan sohasidagi ishlari uchun ma'lum qoidalar va talablar asosida beriladigan ilmiy unvon. **5** O'z ixtisosi bo'yicha erishilgan malaka pog'onasi. **6** Jamiyatda, hayotda, kishilar o'rtasida tutgan o'rin, martaba, e'tibor. **7** Sira, karra, bor, marta. **8** Bir oz, ozgina, andak. **9** *mat.* Burchak va aylana yoyining o'lchov birligi; to'g'ri burchakning 90 dan bir



yoki doiraning 360 dan bir bo'lagi; gradus. **10 fiz.** Termometr, barometr va sh. k. o'lchov asboblari shkalasidagi chiziqlar va raqamlar bilan belgilangan bo'limlar hamda shu bo'limlar ifodalaydigan harorat miqdori. **11 mat.** Teng ko'paytuvchilarning ko'paytmasi, bir sonning o'zini o'ziga ko'paytirishdan olingan natija. **12 tlsh.** Belgi-xususiyatning ortiq-kamligini ifodalovchi grammatik kategoriya, shakl" [ЎТИЛ, 2006:663]. Yuqoridagi ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, "O'zbek tilining izohli lug'ati" (O'TIL)da *daraja* leksemasi bir necha ma'noda qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin. Lug'atda bu so'zning ayrimlari umumiste'mol, ayrimlari terminologik (matematika, fizika, tilshunoslik) ma'no tarzida o'z ifodasini topgan.

Akademik A.Hojiyevning tilshunoslikka oid terminlar izohiga bag'ishlangan lug'atida darajalanish hodisasi bilan aloqador termin sifatida *daraja kategoriyasi*, *darajali oppozitsiya* terminlarining izohini kuzatish mumkin. Xususan, daraja tushunchasi doirasidagi darajali oppozitsiya termini quyidagicha tavsiflanadi: "Darajali oppozitsiya – qarama-qarshi qo'yiluvchilarning har birida bir belgining turli darajada bo'lishi asosidagi zidlanish. Mas., *chiroyli – suluv – barno – go'zal*"[Хожиев А., 2002:33]. Shuningdek, boshqa shu kabi soha lug'atida ham darajalanish hodisasi bilan bog'liq tushunchalar o'z tavsifini topgan.

Shu tariqa o'tgan asrning so'nggi choragida o'zbek tilshunosligida yangi termin – *graduonimiya* paydo bo'ldi va uni boshqa lisoniy hodisalardan ajratib turuvchi xususiyatlari o'rganildi. Graduonimiyaning til hodisasi sifatida tilshunoslikning turli sohalarida hamda turli tizimdagi tillarda tadqiq qilish, ulardan amaliy foydalanish uchun o'quv lug'atlar yaratish mexanizmini ishlab chiqish zamonaviy tilshunoslikning keyingi rivojidagi zarur va muhim vazifalardan biridir.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'zbek tilshunosligi uchun Odiljon Bozorovning xizmatlari katta bo'ldi. Xususan, graduonimiya hodisasini o'zbek tilshunosligiga birinchilardan bo'lib olib kirdi.

Adabiyotlar:

1. Бозоров О. Ўзбек тилида даражаланиш: филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 270 б.
2. Джумабаева Ж. Турли тизимли тилларида лексик ва стилистик градуонимия. Монография. – Тошкент, 2017. – 210б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Д ҳарфи. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001. – 82 б.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2006. – 808 б.
5. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. – 166 б.



O'ZBEK TILIDAGI OLMOSHLARNING USLUBIY XOSLANISHI

Annotatsiya. Bu maqolada olmosh ma'no turlarining stilistik xususiyatlari misollar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Olmosh nutq, kishilik olmoshi, o'zlik olmoshi, ko'rsatish olmoshi, so'roq olmoshi, ta'sirchanlik

Аннотация. В данной статье стилистические характеристики типов местоимений выражены на примерах.

Ключевые слова. Местоимение, речь, личные местоимения, возвратное местоимение, демонстративное местоимение, вопросительное местоимение, чувствительность.

Annotation. In this article, stylistic characteristics of types of pronouns are expressed with examples.

Key words. Pronoun, speech, personal pronouns, reflexive pronoun, demonstrative pronoun, interrogative pronoun, sensitivity.

Til o'zida insonning jamiyki his-tuyg'ularini, aql-idrokini, iymon-e'tiqodini va borlig'ini namoyon qiladi, mujassam qiladi va tafakkurini shakllantiradi [1,5]. Olmoshlarning bir qismi predmet, belgi yoki miqdor tushunchasini bildirsa, ko'pchiligi o'sha predmetga nisbatan ishora qiladi. Belgi yoki miqdorda ishora tushunchasi nisbatan kam ishlatiladi. Masalan: Shuncha daftarni nima qilasan, gapidagi «shuncha» olmoshi miqdor /son/ o'rnida emas, balki miqdorga ishoradir.

Til eng buyuk milliy qadriyatdir [2,3]. So'zlovchi yoki yozuvchi biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so'zni takrorlay berishdan qochadi. Ularni ma'nodosh boshqa so'zlar bilan almashtiradi. Shunday hollarda ko'pincha ot, sifat, sonlarning ekvivalenti sifatida olmoshlar qo'llaniladi. [3,15]

Predmet, belgi yoki miqdor o'rnida almashinib, qo'llanuvchi olmoshlar yozma va og'zaki nutqda ortiqcha takrorlarga, nutqiy noqulaylikka, g'alizlikka chek qo'yadi. Demak, nutqiy ifodalilik va ravonlik, ixchamlikka xizmat qiladi.

So'zlovchi nutq jarayonida fikr subyektiv yoki obyektiv bo'lishi shaxsni aniq ko'rsatish, tinglovchida teran tushuncha hosil qilish maqsadida kishilik olmoshlaridan foydalanadi. U so'zlovchi sifatida «men», «biz»; nutq qaratilgan shaxsga nisbatan sen, siz; nutq yo'naltirilgan, nutq adresati nazarda tutilgan shaxsga nisbatan «u», «ular» olmoshlarini qo'llaydi.

Nutq paytida nomi tilga olingan shaxs III shaxs sifatida o'qilishi tufayli, so'zlovchi o'zi uchun men /biz/, tinglovchi uchun «sen», «siz» olmoshlarini qo'llaydi.

Kishilik olmoshlarining qo'llanishida uslubiy mohiyatga ega bo'lgan holatlar birlik o'rniga ko'plik shaklining qo'llanishidir.

So'zlovchi kamtarlik, iymonish, mag'rurlanish yoki kesatq ma'nolari uchun «men» o'rniga, «biz»ni, «sen» o'rniga «siz»ni ishlatishi mumkin: Biz endi nimani ham kiyardik. /H.H./ «Siz ichkariga kirib turing!» /YA./ Birinchi gapda «biz» tortinish, iymonishni ifodalasa, ikkinchi gapda «siz» kesatq po'pisa ma'nosi uchun ishlatilgan.



Ma'noni kuchaytirish uchun «biz» va «siz» olmoshlariga -lar qo'shib ishlatilishi mumkin: ...dog'i bular yaxshi-yu, bizlar yomon /M./ Navbat sizlarga! (Og'z.so'zl.).

So'zlovchi tinglovchidan biron jihatdan ustun bo'lganda, shuningdek, hurmatsizlik, do'q-po'pisa, jahllanish kabi ma'nolar ifodasi uchun «sen»ga -larni qo'shib ishlatadi: Senlarning ishing deb jon kuydiryapman. (Og'z.so'zl.)

Bu tarkibli gaplarda kesim I-II shaxs formasidagi fe'llardan bo'lganda, egani qo'llash uchun zarurat qolmaydi: ...bu ishni allaqachon bajarganman. ...bu kitobni o'qib chiqdingmi? (Og'z.so'zl.) kabi.

Lekin nutq jarayonida so'zlovchi maqtanish, gerdayish, ajratib ko'rsatish ta'kidlash kabi ottenkalarni qo'shib ifodalamoqchi bo'lganda, yuqoridagi tip gaplarga «men», /«biz»/, «sen» / «siz»/ olmoshlarini qo'shib ishlatadi: Men bu ishni allaqachon bajarganman. /g'urur, alohida ta'kid/. Sen bu kitobni o'qib chiqdingmi? /alohida ajratib murojaat etish/.

Bunday tuzilmalarda olmoshga alohida urg'u berilsa, yuqorida aytilgan ma'no yanada kuchaytirilishdan tashqari, keskinlik, gerdayish, po'pisa, dag'allik kabi ottenkalar ham ifodalanishi mumkin. Nutq paytida «Men»dan boshqa hamma ishtirokchilar tinglovchi – II shaxsdir. Nutq ularning barchasiga teng bo'ladi. Nutq mana shu guruh / tinglovchilar/ dan ayrim shaxs yoki shaxslarga qaratilish zarurati tug'ilganda, so'zlovchi «sen» va «siz» /«sizlar»/ olmoshini qo'llab nutq qaratilgan shaxslarni alohida ajratib oladi. Bunday chog'da /«sen», «siz» qo'llanganda/ tinglovchilarning bir qismi o'zga –III shaxs sifatida tasavvur etiladi va ko'pincha tinglovchilardan biror shaxs nomi undalma sifatida qo'llanib, nutqning ana shu shaxsga, shu shaxs aloqador bo'lgan to'da-guruhga aloqadorligi maxsus uqtiriladi: Odiljon, siz(lar) to'garak ishini uyushtirasizlar. Salima, sizga aytadigan gapim bor (Og'z.so'zl.) kabi.

Ko'rsatish olmoshlarining nimaga?qayerga? kimga? qachonga ishora qilayotgani matnga, mazkur olmosh ishtirok etgan gapda anglashilgan mazmunga bog'liq: Esimda o'sha damlar /H.O./ Bu gap ayrim olinganda «o'sha» olmoshi ko'rsatgan «damlar» / zamon/ mavhumligicha qoladi. Ko'p ertak eshitgandim, so'ylab berardi buvim. Esimda o'sha damlar deyilganda esa qaysi davr haqida gap borayotganligi aniq tasavvur etiladi.

«Bu», «shu», olmoshlarining ma'nosi so'zlovchiga yaqin masofa, vaqt ni ko'rsatishdangina iborat emas. Husayn nabirasi Mo'minni o'ldiradi, bu voqea Navoiyda qahr-g'azab uyg'otadi gapida masofa-vaqt yaqinligi emas, balki olmosh aniqlagan predmetning ahamiyati bo'rttiriladi. «Bu» va «shu» olmoshlari garchi so'zlovchiga yaqin bo'lgan narsa-hodisani ko'rsatsa-da, o'zaro nozik farqqa ega. «Bu» olmoshi ikki yoki undan ortiq narsa-predmetni ajratib ko'rsatsa, «shu» olmoshi ayrim turgan, ayrim olingan narsa-predmetni ko'rsatishga xizmat qiladi: Bu kitob meniki, shu kitob meniki. Ana shu farq mavjudligi uchun ham har doim ularning biri o'rnida ikkinchisini almashtirib bo'lmaydi. Ayni bir voqea-hodisa haqida gapirib, so'ng maqsad shu deyiladi, ammo maqsad bu deb bo'lmaydi. Mazmunan «bu» olmoshi «umumiylik», «shu» olmoshi nisbatan aniqlik ma'nosini ifoda etadi: Bu diyorda hamma narsa bor-shu diyorda hamma narsa bor. Bu bizning Safarning zafar sasidir - Shu bizning Safarning zafar sasidir. «Bu» va «shu» olmoshlari kesim bo'lib kelganda, bu ma'no yanada aniqroq seziladi. Vaqt bildiruvchi so'zlar bilan ko'proq «shu» olmoshi qo'llaniladi. Shu payt, shu dam, shu choq, shu on, shu lahza. Ergash gapli qo'shma gaplarda odatda bosh gap tarkibida nisbiy so'z sifatida shu olmoshi qo'llaniladi. Istak shulki, tole yor bo'lib, baxtin topgan elni ko'rolsam.



/H.O./ Shuni bilki, seni Vatan kutadi. /G.G'./ O'sha olmoshi so'zlovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan yoki nutq jarayonida esga olingan narsa-hodisaga ishora qiladi. Shu xusuiyati bilan «u» olmoshidan farq qiladi. «u» olmoshi narsa predmet-hodisaning o'zini, «o'sha» esa, uni aynan emas, o'xshatish, tusmol-ishonch yo'li bilan ko'rsatadi. Shuning uchun ham ko'pincha «o'sha» olmoshining bu ma'nosini kuchaytirish maqsadida undan oldin «xuddi», «naqd», «aynan» so'zlari qo'llanadi. Xuddi o'sha gapni takrorlang. Naqd o'sha odamning o'zi. Aynan o'sha gap. Yana, ko'rsatish olmoshlari «mana», «ana» so'zlari bilan ham qo'llanadi. Bunday chog'da olmoshning ma'nosi aniqlashadi, kuchayadi: Mana o'sha qirlar, past-balandliklar. Ana shu gap uchun javob berasan! Mana bunisi menga, mana bunisi senga. (Ertak).

So'roq olmoshlari, asosan, so'zlovchiga noma'lum bo'lgan voqea-hodisa, belgi, harakat va boshqalar haqida tinglovchidan ma'lumot olish maqsadida ishlatiladi. Ular ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida esa gap tarkibidagi ko'rsatish olmoshining ma'nosiga aniqlik kiritish, uni izohlashga xizmat qiladi.

1. «Kim» olmoshi insonga, «nima» olmoshi predmetga nisbatan qo'llaniladi. Biroq so'zlashuv uslubida kim o'rniga nima ishlatilish hollari uchraydi: Hakim sening nimang-shuncha jon kuydirasan. (Jonli nutq) «Nima» olmoshi «ne» va «na» formasida ham bo'ladi: Ne bo'lg'ay bir nafas men ham, Yanog'ing uzra xol bo'lsam. Nedur ahvoling ey, zori g'aribim. Na bo'ldi yorim galmadi. /Qo'shiq/ «Ne» va «na» formasi kelishik affikslarini, -chun /uchun/ni qabul qiladi: Nega avval aytmadim, neki so'raysan mendan. Ko'rdim-ko'rdim nani ko'rdim-tog'larda sanoni ko'rdim. Eski va hozirgi o'zbek adabiy tilimizda «nechuk» olmoshi ishlatiladi. Bu olmosh poetik nutqqa xos bo'lib, gapga obrazlilik, tantanavorlik tusini beradi. Nechuk olmoshi nima bo'lib, qanday, qanday qilib, nega, nima sabab bo'lib kabi so'z va iboralarga sinonim bo'lib qo'llanadi. Nechun esingizdan chiqdi, enajon. /O.Yo./ Bu nechuk qabohat, bu nechuk taqdir, Mo'min Mirzo, ukam, seni o'ldirdilar. (A.O.)

2. «Qanday», «qanaqa» olmoshlari o'zaro sinonim bo'lib qo'llana oladi. Bunday almashinish ma'noga kuchli ta'sir etmaydi. Aniqlanmish «hol-ahvol» tarzidagi so'zlar bo'lganda, «qalay», «qay» olmoshlari ham ularga sinonim bo'la oladi. «Qalay» olmoshi ko'pincha kesim vazifasida keladi va ega vazifasidagi so'zdan anglashilgan shaxs-predmetning ahvol-vaziyati to'g'risida so'roqni bildiradi va so'zlovchining ijobiy munosabatini aks ettiradi. Aniq so'roq emas, inkorni tasdiq yoki tasdiqni inkor ma'nosi uchun qo'llanganda, «qay» olmoshi «qanday», «qanaqa», «qaysi» olmoshlari bilan sinonim bo'lib kela oladi. Ommaning ko'ziga qay yuz bilan qaray olasan. /M. Sh./ //qanday, qaysi yuz bilan/...

Songa nisbatan qo'llanadigan so'roq olmoshlari miqdor haqida ma'lumot olishni ko'zda tutadi. So'roq olmoshlarining aksariyati ergash gaplar yoki yoyiq sodda gaplar tarkibida shart fe'li qo'llanganda, asosiy kesimdan anglashilgan mazmunga aniqlik kiritishga xizmat qiladi: Qachon kelsam, shu yerdasan, qachon kelsam, seni topaman. Birinchi gapda bosh gap /shu yerdasan/da ifodalangan mavjudlikka, ikkinchi gapda asosiy kesim, /topaman/dan anglashilgan mazmunga aniqlik kiritgan.

O'zlik olmoshi yakka holda va o'zi ko'rsatgan shaxs - so'z bilan birga qo'llanadi:

a/ yakka holda ishlatilganda «o'z» dagi egalik affiksi ko'rsatgan shaxs ta'kidlanadi, qat'iylik, alohida eslatilganlik kabi ottenkalar ifoda etiladi: O'zing to'qib ketgan katta



savatda, shaftoli to'ldirib uzib chiqaman. /G'G'/ O'zi ekan arpani, o'zi o'rsin (Jonli nutq);

b/ kishilik olmoshlari bilan qo'llanganda, ana shu kishilik olmoshi ko'rsatgan shaxslarning ajratilganligi, tanholigi ifodalanadi. Vafodorim sen o'zing /Qo'shiq/. Men o'zim bajaraman bu ishni (Jonli nutq) kabi.

Belgilash olmoshlarining bir gruppasi /har, har kim, har qanday, har qaysi kabilar/, predmetlarni yakka ajratib, so'ng umumlashtirishga, umum ichida yakkaning roli alohida ekanligini kuchaytirib ta'kidlashga xizmat qiladi. Har kimsa vafo qilsa, vafo topqusidir /B/ Har bahorda shu bo'lar takror, har bahor ham shunday o'tadi /H.O./ Har qanday obi havo sharoitida ham rejani bajarganmiz. /Gaz./.

Ikkinchi gruppaga belgilash olmoshlari /bari, barchaga, hamma, butun, jami kabilar/ orqali nutq paytida predmetlarning ayrim-ayrim holati emas, umuman-jami haqida fikr yuritilayotgani ifodalanadi. Bunda ta'kid, kuchaytirish ottenkasi bo'lmaydi, neytrallik ustun turadi. Qiyoslang: To'garakning har bir a'zosi ma'ruza qildi – To'garakning hamma a'zosi...

«Bari», «barcha», «hamma», «jami» olmoshlari ham o'zaro farq qiladi. «Bari», «barcha» olmoshlarida ma'no bir oz kuchli, «hamma», «jami» da esa nisbatan kuchsiz. So'zlovchi nutq jarayonida ularning bu xususiyatini hisobga oladi, qay biri o'rinli bo'lsa o'shani ishlatadi.

Adabiy til ijtimoiy-siyosiy va ilmiy-madaniy hayotning barcha sohalarida aloqa quroli darajasiga ko'tarildi. [4,41]

Olmoshlardan nutqda o'rinli foydalanish so'zlovchi yoki yozuvchi nutqini ta'sirchan va ifodali qiladi, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Babakhanova, d. (2023). The use of verb forms in speech styles. International bulletin of applied science and technology, 3(5), 707-713. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:zYLM7Y9cAGgC
2. Babaxanova, d. A. (2021). Propositional nomination and denotation structure in uzbek. Theoretical & applied science, (6), 380-383. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
3. Babaxanova, d. A. (2020). Methodological features of the types of sentences in the uzbek language according to the purpose of expression. Theoretical & applied science, (11), 367-370. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:qjMakFHDy7sC
4. Babakhanova, d. A. (2019). The functional styles of speech. Scientific and technical journal of namangan institute of engineering and technology, 1(9), 142-149. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
5. Babaxanova, d. A. (2019). Formation of styles of the uzbek language. Scientific and technical journal of namangan institute of engineering and technology, 1(12), 163-169. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citati



on&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

6. Babaxanova, d. A., & Sobirova, M. Y. (2019). About the history of speech culture and art of oratory. *Isj theoretical & applied science*, 12 (80), 275-277. Retrieved from: https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=dXYpKnsAAAAJ&authuser=2&citation_for_view=dXYpKnsAAAAJ:u5HHmVD_u08C
7. Mamatov A. E. *Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi*. – Toshkent: bayoz, 2014, 5-bet.
8. Xolmonova Z. *Tilshunoshlik nazariyasi*. – Toshkent, 2019. 3-bet
9. Shomaqsudova A. va boshqalar. *O'zbek tili stilistikasi*. – Toshkent: o'qituvchi, 1983, 115-bet.
10. Enazarov T. *Nutq madaniyati*. – Toshkent, 2017. 41-bet.

*Babaxanova Dilarom Axmatxanovna
NamDU dotsenti
Mirzayeva Tursunoy Shuhrat qizi
NamDU 4-kurs talabasi*

ERKIN VOHIDOVNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

Annotatsiya. Maqolada ErkinVohidov she'rlarining leksik xususiyatlari, omonimlar, sinonimlar, frazeologizmlarning uslubiy va lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'z. leksika, omonimlar, sinonimlar, frazeologizmlar, tajnis, ma'no ko'chishi, leksik-frazeologik usul.

Аннотация. В статье анализируются лексические особенности стихотворений ЭркинаВахидова, стилистические и лингвопоэтические особенности омонимов, синонимов, фразеологизмов.

Ключевые слова. лексика, омонимы, синонимы, фразеология, тайнис, передача значения, лексико-фразеологический прием.

Annotation. The article analyzes the lexical features of ErkinVahidov's poems, stylistic and linguopoetic features of homonyms, synonyms, phraseologisms.

Key words. lexicon, homonyms, synonyms, phraseology, tajnis, transfer of meaning, lexical-phraseological method.

So'zning obyektiv borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilar haqidagi ma'lumoti leksik ma'no deyiladi.

Leksik ma'noli so'zlar narsa, belgi yoki harakatning aynan o'zini emas, balki ular haqidagi tushunchani ifodalaydi.

So'zning semantik strukturasidagi qo'shimcha ottenkalar emotsional-ekspressiv bo'yoq va stilistik belgidir.

Hamma tillarda bo'lganidek, o'zbek tilining ham emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi usul va vositalari qo'llanish priyomlari bor. Shu prinsipda qaralganda, o'zbek tilida ekspressiv-emotsionallik ifodalanishining fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va sintaktik usullari belgilanadi.



Leksik-frazeologik usul deganda, ekspressiv-emotsionallikning lug'aviy birliklar vositasida ya'ni so'z va frazeologizmlar bilan ifodalanishi tushuniladi.

Tilning ahvoli va uning leksik sohasidagi rivojlanish darajasi so'zlarning faqat umumiy miqdori-soni bilangina belgilanmaydi. So'zlarning son jihatidan ko'p bo'lishi bilan birga ularning har tomonlama va xilma-xil ma'noga ega bo'lishi so'z sistemasining tobora kengroq tarmoq yoyilish va eng nozik ma'no qo'shimchalarni ifoda etish tilning boyligini bildiradi.

Haqiqat, tilning boyligi so'zlar miqdorining ko'pligidan tashqari, sinonimlarning va turli uslubiy figuralarning miqdori bilan ham belgilanadi.

Har bir tilning lug'at tarkibida tovush tarkibi va yozilishi jihatdan bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan muayyan so'zlar miqdori topiladi. Bunday so'zlar omonimlar guruhini tashkil qiladi.

Omonimlar, avvalo, bir xil doirasida belgilanadi: boshqa tilga mansub, hali o'zbek tiliga o'zlashmagan leksema bilan o'zbek tilidagi leksemani o'zaro omonim deb bo'lmaydi.

Ikkinchidan, omonimiya bir til taraqqiyotining muayyan bosqichi doirasida belgilanadi. Masalan, hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydigan leksema bilan hozirgi o'zbek tilidagi leksemani o'zaro omonim deyish o'rinli emas. Lekin hozirgi o'zbek tiliga mansub leksemalar anchagina uchraydi, shuni hisobga olib, hozirgi o'zbek tilidagi leksemaning omonimi bo'lgan istorizm leksemalar lug'atga kiritildi.

Uchinchidan, omonimiya adabiy nutqqa va so'zlashuv nutqiga nisbatan alohida-alohida belgilanishi kerak. Shunga ko'ra lug'atda asosan, hozirgi o'zbek adabiy tiliga mansub leksemalar tasvirlanadi, so'zlashuv nutqiga xos leksemalar cheklangan miqdorda kiritilgan.

Fonetik tomondan bir xil shakli o'zaro teng kelib qolgan ikki va undan ortiq so'zlar omonimlardir. Omonimlar ma'no jihatidan o'zaro munosabatda bo'lmaydi, boshqa-boshqa tushunchalarni anglatadi. Ko'p ma'noli so'zlarni shakli asli bitta bo'lib, ma'nolari o'zaro bir-biriga juda yaqin va aloqador, biri-ikkinchisiga bog'liq bo'ladi. Masalan, "bosh" so'zi turli xil ma'nolarni bildiradi: ko'chaning boshi, gapning boshi, tomning boshi, erning boshi.

O'zbek tilida omonimlar turlicha ko'rinishlarga ega. Chang (to'zon) – chang, (musiqa asbobi), yoqmoq (chiroqni yoqmoq) – yoqmoq ("uning nutqi menga juda yoqdi:" xush kelmoq, ma'lum bo'lmoq") kabi barcha grammatik formalari teng, bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlar omonimlar deyiladi.

Tildagi har bir so'zning leksik ma'nosi boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishganda uyg'unlashadi.

Har xil ma'noda keluvchi shakldosh so'zlar arab tilida tajnis deb kiritiladi. "Tajnis-nazmga mujibi zeb va ziynat va boisi takalluf va san'atdur", - deb ta'riflagan edi Alisher Navoiy. Bu san'atdan shoir va yozuvchilar turli maqsadlarda foydalanadilar. Omonimlar she'riyatga alohida badiiylilik bag'ishlaydi.

Qirq boshlarimiz,

qirq deya, **qirq** og'a-ini gul,

Tig'inga ular bari,

sarafkashda bo'libdur.

("Kuy avjida uzilmasin tor", 101-bet)



Omonimlar kishini chuqur fikr yuritishga undaydi. Bir shakldagi so'zlarning m'nosini o'ylab topishga majbur qiladi.

Badiiy adabiyotda so'zlarning shakliy tengligi hodisasidan ustalik bilan foydalanish asarni qiziqarli, ta'sirchan bo'lishni ta'minlaydi.

Ey falak, bas yig'lama, yo'q foyda ul **oy** kemada,
O'rtada daryoyu man bu joyida, ul **oy** kemada,
Kelmas endi **oyda** ne, ming **oyda**, ul **oy** kemada,
Sabr ko'rgilda, ko'ngil ul **oyda**, ul **oy** kemada,
Vahki, borib termulib ko'z, mungrayib jami.

(“Sadoqatnoma”, 60-bet).

Ma'no ko'chirishning quyidagi turlari mavjud:

metafora;
metanimiya;
sinekdoxa.

Narsa va hodisalar orasidagi nisbiy o'xshashlik asosida ma'no ko'chirish metaforadir. Metafora – grekcha so'z bo'lib, **“ko'chim, istiora”** degan ma'noni anglatadi.

Metaforada so'zning o'z ma'nosi bilan ko'chma yangi ma'nosi orasida qandaydir o'xshashlik bor. Metafora asosida to'liq va qisqa o'xshatish vujudga keladi:

- 1) o'xshagan narsa;
- 2) o'xshatilgan narsa;
- 3) o'xshash sifat, belgi;
- 4) o'xshatish qo'shimchasi bo'ladi;

O'shanday sarbaland, o'shanday ulug',
Azamat yurtimning bitta bo'lagi,
Barcha shafaq kabi boshi uzra tug',
Mana – u shoirning ulkan yuragi.

(“Kuy avjida uzilmasin tor”, 180-bet).

Erkin Vohidov so'zni o'z o'rnida qo'llay olgan buyuk ijodkordir

Adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Абдуллаев. “Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши”. – Тошкент: “Фан” нашриёти, 1983.
2. “Ўзбекистон адабиёт ва санъат тарихи” – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1980.
3. “Ўзбек тили стилистикаси”. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1983.
4. Э.Қиличев. “Ўзбек тилининг практик стилистикаси”. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1985.





*Babaxanova Dilarom Axmatxanovna
NamDU dotsenti
Hamidullayeva Mohidil Anvarjon qizi
NamDU 4-kurs talabasi*

FRAZEOLOGIZMLARDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNING IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqolada frazeologizmlardagi iemotsional –ekspressiv bo'yoqdorlik misollar asosida yoritilgan.

Kalitso'zlar. frazeologizm, til hodisasi, emotsional-ekspressivlik, jamiyat, leksik-birlik, ijobiy munosabat, salbiy munosabat

Аннотация. В статье анализируется выражение эмоциональной выразительности во фразеологии.

Ключевые слова. Фразеологизм, языковой феномен, эмоционально-выразительность, социум, лексическая единица, позитивное отношение, негативное отношение

Annotation. The article analyzes the expression of emotional expressiveness in phraseology

Key words. Phraseologism, language phenomenon, emotional-expressiveness, society, lexical unit, positive attitude, negative attitude.

Frazeologizmlar ma'lum bir so'zning nominative ma'nosini uslubiy-ekspressiv bo'yoq, salbiy yoki ijobiy munosabat, ko'tarinki ruh, mag'rurlik yoki achinish otenkalari bilan ifodalaydi. Ular uslubiy-ekspressivlik jihatdan sinonimlar bilan bir qatorda, tasviriy-obrazlilik jihatdan ulardan ustun turadi.

Frazeologizmlar barcha nutq uslublarida uchraydi. Masalan, o'qqa tutmoq kabilar harbiy sohaga, haqing ketmaydi, qo'ling dard ko'rmasin, misi chiqdi, tuyog'ini shiqillatdi, loy bo'ldi, paytava sichiqdi, o'mbaloq oshdi kabilar so'zlashuv uslubiga; qo'l ko'tarmoq, ovozga qo'ymoq, qo'l qo'ymoq, imzo chekmoq kabilar rasmiy nutqqa xosdir.

Frazeologizmlarda ham sinonimiya, antonimiya hodisalari mavjud: tepa sochi tikka bo'ldi-osmonga sakradi, og'zi qulog'ida-boshi osmonga yetgan, hafsalasi pir bo'ldi-tarvuzi qo'ltig'idan tushdi, boshi g'ovladi-miyasi vang' bo'ldi (sinonimiya), to'g'ri yo'lga soldi-yo'ldan ozdirdi, tepa sochi tikka bo'ldi – boshi osmonga yetdi, dili ochildi-ta'bi xira bo'ldi, oralaridan qil o'tmaydi – oralaridan mushuk o'tgan (antonimiya).

Ko'p ma'nolilik frazeologizmlarda ham uchraydi: ovozi o'chdi: 1) jim bo'ldi (gapirmadi), 2) kelmay qo'ydi, 3) harakatdan to'xtadi kabi.

Frazeologizmlar nutqni ifodali qiladi, fikrni obrazli va bo'rttirib ifoda etadi, obrazlar xarakterini chizishda, tinglovchiga salbiy yoki ijobiy ta'siret ishda, nutq ta'sirchanligini oshirishda, nutq obyektini muayyan paytdagi ahamiyatini ta'kidlashda so'zlovchiga keng imkoniyatlar yaratadi. Shuning uchun ham badiiy nutqda, xalq og'zaki ijodida, jonli so'zlashuvda ulardan keng foydalaniladi.

Obrazlilik darajasi jihatdan ham sinonimik frazeologizmlar farq qiladi: boshiga yetmoq-boshini yemoq, og'zi qulog'ida-boshi osmonga yetdi kabilarning keyingisida ma'no kuchliroq, obrazliroqdir.



Frazeologizmlar ixchamlik va lo'ndali kuchun ham xizmat qiladi. Bir frazeologik butunlik ifodalagan mazmunni boshqa hech biri bora, gap bilan berish mumkin emas. Biroq rasmiy ish uslubida qo'llanuvchi ayrim frazeologik butunliklar nominative vazifa bajarishi monosemantik xarakterga ega bo'lgani sababli, ularning sinonimini qo'llash-«tarjima» qilish mumkin: imzo chekmoq - imzolamoq, qo'l ko'tarmoq - tasdiqlamoq // rozi bo'lmoq kabi. Bunday frazeologik birikmalarda uslubiy bo'yoq bo'lmaydi, yoki bo'lsa ham juda kuchsiz.

Odatda, frazeologizmlarning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolaredi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajjublanmoq» bo'lsa, [hayron bo'lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma'nosida «o'ta darajada» va «so'zlashuv uslubiga xos», «bo'yoqdor» semalariga egaligi bilan «hayron bo'lmoq» leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmlarda, ko'pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma'no torroq va muayyanroq, leksema ma'nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo'ladi. Masalan, [hayron bo'lmoq] leksemasi umumuslubiy va bo'yoqsizdir. Shuning o'ziyoq uning barcha uslublarda qo'llanish imkoniga egaligini va uni osongina turli «bo'yoqlar» bilan ishlatish mumkinligini ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, frazeologizm va leksemalar bir narsa yoki hodisani atashsa-da, ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi. Frazeologizmlar emotsional-ekspressivlikni ifodalashda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

5. Mamatov A. E. Tilningengmuhim 100 ta funksiyasi. – Toshkent: Bayoz, 2014.
6. Xolmonova Z. Tilshunoshliknazariyasi. – Toshkent, 2019.
7. Shomaqsudov A. vaboshqalar. O'zbektilistilistikasi. – Toshkent: o'qituvchi, 1983.
8. Rahmatullayev Sh. O'zbektiliningqisqaschafrazeologiklug'ati. –Toshkent: Fan, 1964
9. Enazarov T. Nutqmadaniyati. – Toshkent, 2017.





Usmonova S.A.
Qo'qon DPI katta o'qituvchi (PhD)
Murodova G.Z.
23-maktab o'qituvchisi

QO'QON SHAHRI KO'CHALARI TASNIFI VA TAVSIFIGA DOIR

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qo'qon shahri ko'chalarining tasnifi hamda ayrim ko'cha nomlarining nomlanish asoslari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar. ko'cha-uram-o'ram, godonimlar, etnonimlar, proftoponimlar, gidronimlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается классификация улиц города Коканда и основания номинации некоторых названий улиц.

Ключевые слова. улица - урам-орам, годонимы, этнонимы, протопонимы, гидронимы.

Annotation. This article discusses the classification of the streets of the city of Kokand and the basis for the nomination of some street names.

Key words. street - uram-oram, godonyms, ethnonyms, toponyms, hydronyms.

Ma'lumki, Chor Rossiyasi mahalliy xalqlarning ichki ishlariga imkon qadar aralashmaslikka harakat qilgan bo'lsa, sovet hukumati o'tmish bilan aloqani uzib tashlab, tamomila yangi jamiyat yaratishga urindi, shu bois tarixiy xotiraning muhim qismi bo'lmish joy nomlarida ham yangicha mafkurani aks ettirishga intildi. Mavjud toponimlar o'rniga o'sha davr qahramonlari, olimlari, yuz bergan muhim voqea-hodisalar nomlari shahar, tuman, qishloq, mahalla, ko'cha, ovul, maktab-internat va boshqa obyektlarga berildi.

Qo'qon shahrida qadimdan kasb-hunar rivojlangan, ma'lum kasb-hunar bilan shug'ullangan kishilar yashagan ko'chalar (XX asr birinchi choragigacha) shu nomlar bilan atalib kelingan. Professor To'ra Nafasovning "Qarshi shahri mahalla va ko'chalari nomlari" qo'llanmasida ta'kidlanishicha: "Qadimda shahar maqomiga ega bo'lish uchun, eng avvalo, 32 kasb-hunar turi bo'lishi talab etilgan ekan, bularning barchasi Qarshi shahri aholisida mavjud bo'lgan. Buni isbotlovchi dalillarning ma'lum bir qismi sho'rolar hukmronligi davrida yo'qotib yuborildi. Istiqloq tufayli ularni tiklash imkoniyati tug'ildi."⁶⁷ Ushbu berilgan mulohazalarni bugun biz Qo'qon shahri uchun ham bemalol ayta olamiz.

1997-yilda shahar hokimligi tomonidan "Qo'qon shahar ko'chalarining yangi nomlari" kichik risola holida chop etildi⁶⁸.

Risolada 500 dan ortiq ko'chalar nomlari berilgan. Dastlabki ko'cha nomlarining qayta tiklanishi va mustaqillik g'oyalariga muvofiq yangi nom bilan o'zgartirilgunga qadar ularning 40 foiz (200 ortiq)dan ortig'i sovet mafkurasi bilan bog'liq nomlarni tashkil etgan. Hududiy jihatdan katta bo'lmagan Qo'qon shahridagi ko'chalar nomlarining o'ziyoq boshqa tashkilot, inshoot, zavod, fabrikalarni hisobga olmaganda ham achinarli ahvolda bo'lganligini isbotlaydi. Bu, albatta, millat va kelajak tanazzuli yo'lida olib borilgan siyosat ekanligini ko'rsatadi.

67 Nafasov T. Qarshi shahri mahalla va ko'cha nomlari. Qarshi, 2008, –B. 3.

68 Qo'qon shahar ko'chalarining yangi nomlari. Qo'qon. 1997. –B.20.



Toponimlar tasnifida joy nomlarining qaysi tipdagi obyektlarning nomini anglatib kelishini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'qon shahri toponimik tizimi ham ijtimoiy voqealar girdobida, tillarning aralashishi natijasida shakllangan. Shu bilan birga, Qo'qon vodiyning g'arbiy qismida joylashganligi sabab savdo karvonlarining yo'li qadim zamonda vo'ha orqali o'tganligi ham uning joy nomlari tarkibiga katta ta'sir etganligi, nom qo'yish masalasi esa ma'lum darajada ijtimoiy va siyosiy hayot jarayonida muhim o'rin tutganligini bu boradagi qadimiy ma'lumotlar ham tasdiqlaydi.

Y.Avlakulov⁶⁹ shahar ichida yurish, harakatlanish uchun mo'ljallangan liniyalik obyektlar, ya'ni ko'cha, yo'l, shohko'cha, torko'cha, bulvar, xiyobon, suv qirg'oqlari yo'llari, sohillar va ushbu tipdagi obyektlar atoqli oti sifatida godonimlar (yunoncha godos – ko'cha, yo'l + onoma – atoqli ot) atamasini qo'llaydi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ko'cha atamasiga quyidagicha izohlar berilgan: Ko'cha I [f. كچه - shahar yoki qishloq ichidagi yo'l] 1 Aholi yashaydigan joylarda yo'lovchilar o'tib turadigan, transport qatnaydigan yo'l. *Navoiy ko'chasi. Sobir Rahimov ko'chasi.*

2. Umuman, yo'l. *Hali majlis, hali hammom qurilishi, hali ko'chaga shag'al yotqizish deydi. "Guldasta".*

3. Yashash, turish joyidan tashqari bo'lgan joy, ochiq maydon (uy, hovliga nisbatan). *Uyida rohati yo'qning ko'chada farog'ati yo'q. Maqol.*

Ko'cha II dial: ko'cha oshi, ayn.go'ja⁷⁰.

Turkolog olim E.V.Sevortyanning "Turkiy tillarning etimologik lug'ati"ida ko'chaning shevaga xos varianti "o'ram, uram" alohida izohlanadi: "Ochiq va yopiq unlilar bilan qo'llangan o'ram-uram, ehtimol, qadimda ham almashinib qo'llangan.

1. Ko'cha (shv), 2. Shahar, qishloq (shv), 3. Koloniya.

Turkiy lahjalarida uram so'zining ma'nolari aniq emas: irin "boshi berk ko'cha", "xiyobon", "ko'cha", "chorrahalar", "uch tomonga ketgan yo'lning birikish joyi" va boshqalar.

Shaumyan uram~o'ram, aftidan, "maydon", "o'rin" bilan bir xil ma'nolarga ega bo'lishini taxmin etgan...

G.Ramsterdam uram-o'ram so'zlariga umumiy turk-mo'g'il merosi sifatida qaragan⁷¹. Uram – ko'cha ma'nosida hozir ham ayrim o'g'uz lahjasi vakillari yashayotgan hududlarda uchraydi.

Qo'qon shahridagi ko'cha nomlarini atash ma'nosiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

I. Diniy tushunchalar bilan bog'liq nomlar: Yalang'och ota, Ko'kto'nli ota, Vaqf Chorsu.

O'zbekiston topopomiyasida ko'p qo'llanuvchi arabcha so'zlardan biri vaqf terminidir. Vaqf istilohi O'TILda ikki xil ma'noda berilgan. Vaqf I [a. وقف - xayriya maqsadlarida vasiyat qilingan mulk, vaqfiy mulk] tar. I Mulkdor shaxslar yoki davlat tomonidan diniy muassasa ixtiyoriga daromadidan foydalanib turish, ammo o'zini sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mulk (yer-suv, maktab, shifoxona, uy-joy, do'kon va sh.k.). Vaqf II [a. وقف - tik turish, to'xtalish] 1. So'zlash

69 Avlakulov Y.I. O'zbek tili onomastik birliklarining lingvistik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi diss. ... avtoref. – Toshkent, 2012. – B.14.

70 O'TIL. "Moskva" 1980. 1-tom, 423-bet.

71 Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Москва: «Наука», 1974. С-600.



paytida, Qur'on suralarini o'qiyotganda (har bir oyat oxirida to'xtash). 2. Musiqa asarlarini ijro etish paytidagi tinim, kichik pauza⁷².

Toponimiyaga bu atamaning birinchi varianti aloqadordir. Islom an'anasida davlat va ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid, madrasalar va boshqalarga ajratilgan mol-mulk vaqf termini bilan yuritilgan. Islom mamlakatlarida vaqfdan kelgan daromadlar o'sha vaqf atalgan diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga sarflangan, islom va ruhoniylarning iqtisodiy qudratini mustahkamlashga yordam bergan⁷³. Hozirgi vaqtda toponimiyada vaqf atamasi vaxm, vaxim shaklida qo'llaniladi. Respublikamizning ayrim hudularida Vaxim, Voxim qishloqlari, xususan, Qo'qon atrof tumanlaridagi ayrim ekin maydonlari xalq tilida "Voxim", "Voximdi yeri" shaklida hozir ham uchraydi.

Qo'qon shahrida "Vaqf chorsu" nomli ko'cha va shu nomda MFY mavjud. Qo'qon xoni Norbo'tabiy taxtga o'tirgan dastlabki yillarida "Oq to'ni azizlar" mozori atrofidagi yerlarni vaqf mulkiga aylantiradi. Keyinchalik davlat arboblari va boylar ham shu atrofdan yer sotib olib, mozor vaqfiga beradilar. Mazkur mozor va xonaqohning to'rt tomoni vaqf mulkiga aylangach, odamlar bu joyni "Vaqf chorsu", ya'ni to'rt tomoni vaqfga aylangan yer (chorsu – to'rt tomon) deb atay boshlaydilar⁷⁴. Hozirda tarixiy nom saqlanib qolgan, bu joylar aholi yashash maskanlariga aylanib ketgan.

II. Xalq nomlari asosida: Naymancha, Yuzlar, Qirqlar, G'oziyog'liq, Elaton, Mazanglik.

Mazanglik. 34-"Marg'ilon darvozasi" MFYda joylashgan ko'cha. O'troqlashib qolgan lo'lilar shunday nomlangan. Mazanglar hunarmandchilik, attorlik, baqqollik, dehqonchilik bilan shug'ullanganlar⁷⁵. Shu nomda 2 ta tor ko'cha ham mavjud.

III. Mansab - amal bilan bog'liq nomlar: Qushbegi, Beklarbegi, Rais, Darxon, Mahram.

Rais (sobiq Furmanov). 15-"Misgarlik" MFYda joylashgan ko'cha. Bu nom XIX asr boshlarida qozi rais Domullo Xolmuhammad Oxund Yormuhammad Mahzum o'g'illari sharafiga qo'yilgan. Rais – poytaxt va katta shaharlarda ma'muriyat va aholining shariatga munosabatlarini nazorat etuvchi yuqori martabali mansabdordir.

V. Suv bilan bog'liq nomlar asosida: Achchiqko'l, Ulkansoy (Qo'qonsoy), Qiyalisoy, Oqtepasoy, To'g'onboshi, Quduqliq.

Quduq buloqdan tabiiy emas, sun'iyli, ya'ni inson qo'li bilan yaratilishiga ko'ra farqlanadi. "Quduq – vertikal shaxta yoki o'ra ko'rinishidagi gidrotexnika inshooti"⁷⁶. Quduq suvsiz yoki suv tanqis hududlarda qaziladigan inshoot.

Shaharda "Quduqli" nomi bilan bog'liq mahalla fuqarolar yig'ini mavjud. Uning to'liq nomi "Quduqli qo'rg'oncha" bo'lib, bu hudud soylardan birmuncha uzoqlikda joylashganligi sababli, iste'mol uchun quduq suvidan foydalanilgan. Y.Dadaboyevning ma'lumotiga ko'ra qo'rg'oncha bino bo'lmasdan oldin "Quduqli rabot" deb atalgan. Joy shahardan Kandir dovoni orqali Toshkentga eltadigan savdo yo'li ustida joylashgan.

VI. Erning relyef xususiyati asosida: Arziqtepa, Konigil, Toshloq, Sangzor.

Ko'cha nomlarining nomlanish asosi anglashilib turadigan va tushunarsiz

72 O'TIL.III jild. 450-bet.

73 Oxunov N. Til va joy nomlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1988. – B. 21-22.

74 Dadaboyev M.Y. Qo'qon shahri mahalla va ko'chalari tarixi. Farg'ona, 2007. –B.103-104.

75 Dadaboyev M.Y. Ko'rsatilgan asar. –B.105-106.

76 O'zME, 2-jild. –B.205-, 131.



asosli nomlarga egaligi kuzatiladi. Ikkinchi turdagi ko'cha nomlari maxsus tarixiy va etimologik yondashishni talab qiladi. Chunonchi: Kandakor, Poyakilik, Aspijallob, Rayhon chorsu, Ko'kto'nli ota, Qo'rxona, Oq uylik, Arziqtepa, Yorqo'rg'on va boshqalar. Ularning ayrimlari haqida ma'lumot berib o'tamiz.

Poyakilik (sobiq Partizanlar). 18-“Novvoylik guzar” MFYda joylashagan ko'cha. Poyakilik qadimiy kasb-hunar bo'lib, bu ko'chada yashaganlar chilim ishlab chiqarish bilan shug'ullangan.⁷⁷ Keyingi yillarda tarixiy nom tiklangan.

Oq uylik. 6-To'g'onboshi MFYda joylashagan ko'cha (sobiq Zazvonova) – xalqaro munosabatlarga oid qadimiy udum, ya'ni o'tmishda bir davlat ikkinchi bir davlatni zabt etsa, uni itoatda saqlash uchun shu yerning hukmdori, zodagonlari, olim va shoirlaridan bir qismini garov sifatida olib ketgan. Garovga olinganlar oq uy – oq kigiz qoplangan o'tovda saqlangan. Mazkur ko'cha o'rnida 1814 yilda O'ratepadan garovga olingan kishilar oq uylarda yashaganlar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Qo'qon shahri toponimlari tarkibiga kiruvchi ko'chalar nomlari tarixini o'rganish, kelajak avlod oldidagi muhim vazifalardan sanaladi.

Xolmatova Nigora Yakubovna
Qo'qon DPI (PhD)

ERKIN A'ZAM IJODIDA MA'NAVIY-AXLOQIY MUAMMOLARNING IFODALANISHI

Annotasiya. *Ushbu maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi E.A'zamning “Farrosh kampirning tushi” hangomasi va bu dramaga xos muhim, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy muammolarning yangicha badiiy talqini tahlil etgan.*

Ключевые слова: *Drama, hangoma, Erkin A'zam, tush motivi, ma'naviy-axloqiy muammo, ijtimoiy muammo*

Аннотация. *Вданной статье анализируются драма народного писателя Узбекистана Э. Азама «Сон девы» и новое художественное осмысление важных, духовно-нравственных и социальных проблем, присущих этой драме.*

Основные слова и фразы: *Драма, суматоха, свобода, мотив сновидения, духовно-нравственная проблема, социальная проблема.*

Annotation. *In this article, the folk writer of Uzbekistan E. Azam's drama «The Maid's Dream» and the new artistic interpretation of the important, spiritual, moral and social problems inherent in this drama are analyzed.*

Keywords: *Drama, tumult, Freedom, dream motif, spiritual and moral problem, social problem*

Adibning “Farrosh kampirning tushi Boshiga “kulfat” tushgan bir Bekorchixona hangomasi” asari hech bir to'plamiga kirmagan. Mazkur dramada “Yoshlik” jurnalining 2011-yil sonida chop etilgan. Sarlavhaning o'zidayoq E.A'zamning o'ziga xos kinoyasi aks etgan ya'ni dramada ishining tayini bo'lmagan tashkilot xodimlarining hayotidan bir hangomani hikoya qiladi. Asarda bekorchixona axllari Rahbar Rahbarovich, Muovin buva, Gulibarno, Hisobchixon, Iqtisodchi xonim, Bo'lim boshlig'i, Bosh mutaxassis, Mutaxassis xonim, Haydovchi yigit, Farrosh kampir va boshqalar ishtirok etadi. Drama

⁷⁷Dadaboev M.Ya. Ko'rsatilgan asar. –B. 53.



ikki qismdan iborat. Birinchi qism “Oshgacha”, ikkinchi qism “Oshdan keyin” deb ataladi. Drama kompozitsion nuqtai nazardan qaralganda, “diydiyo”lardan iborat. Bu ayni paytda E.A’zamning o’zbek dramaturgiyasi shakliga yangilik kiritganligini ko’rsatadi. Birinchi qism to’rt diydiyodan iborat, ikkinchi qism ham to’rt diydiyodan iborat. E.A’zam mazkur dramani kompozitsiyasiga yangilik qilgan holda “Diydiyoning boshlanishi” bilan boshlab oxirini “Diydiyolarning oxiri” deb tugatadi. Hangoma bir tashkilotda ishlaydigan farrosh kampir Qumri opaning tushida sodir bo’ladi. Shuning uchun ham hangoma “Farrosh kampirning tushi” deb nomlandi. Hangomada farrosh kampirning tushida u ishlaydigan tashkilot Qo’yliqqa ko’chishi haqida xabar tarqaladi. Shu ishonchsiz ma’lumot asosida tashkilot xodimlari yangi ko’chiladigan binodagi xonalar ustida talashish-tortishish, eski binodagi eski jihozlarga egalik qilish haqida munozaralar boshlanib ketadi. Kuzatib turganimizdek, bu dramada ajib hangomalar hangoma qilinadi. Mohir dramaturg jamiyatda davlat beradigan moyanaga yashab, tekinox’r va boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan zamondoshlarimiz ustidan zaharxanda kulgi bilan kuladi. Hangomada tasvirlangan Bekorchixona tashkiloti a’zolarining qiladigan ishining tayini yo’q, ertalabdan kechgacha nahor osh va kechki oshni kutib yashaydi. Adib hangomani bejiz ikki qismga bo’lib tasvirlamagan ya’ni birinchi qism “oshgacha”, ikkinchi qism “oshdan so’ng”. E.A’zam hangomada o’zbek milliy turmushidagi nahorgi oshlar, oshdan so’ng lanj bo’lib, ishlashni xohlamaydigan yalqov zamondoshlarimizni satirik qalam tig’i bilan tanqid ostiga oladi. Hangomada Bekorchixona tashkilotining boshlig’i Rahbar Rahbarovich Akaxonidan doimiy ravishda maslahatlar olib turadi. Hangomada biror marta yuzini ko’rsatmagan Akaxon rahbar Rahbar Rahbarovichga o’zining rahbarlik faoliyatidan tavsiyalar beradi. Ularning birinchisi: “Hech qachon qo’l ostidagi xodimlarga yo’l-yo’lakay, ko’cha-ko’yda topshiriq yoki tanbeh berilmaydi. Bir og’iz gap bo’lsa ham albatta kabinetga chaqirib aytiladi. Mansab kursisining sehrsalo’bati bo’lakcha!”. Ikkinchisi: “Ertalab ishga kelganda dastavval bir varaq qog’oz olib, bugun bajariladigan yumushlar ro’yxat qilinadi. Ro’yxatning boshida albatta shaxsiy masalalar tursin. Davlat ishlari o’z-o’zidan bo’laveradi”. Yozuvchi jamiyatni kuzatadi va davlat ishiga panja ortidan qarab, faqat o’zining shaxsiy manfaatlari yo’lida va shaxsiy muammolarini yechish bilan andarmon bo’layotgan munofiq va manqurt shaxslarni satirik tasvir va zaharxanda kulgi uslubi bilan fosh etadi. Hangomada yaratilgan har bir obraz jamiyatimizdagi salbiy illatlarni o’zida tashuvchi odamlar ekanligini ko’rsatadi. Jumladan, Rahbar Rahbarovichning shofyori haydovchi yigit Bekorchixonadagi bir siniq divanda ertalabdan kechgacha uxlaydi. Muovin buva 62-65 yoshlarda aslida shu tashkilotning rahbari u bo’lgan. Keyin rahbarlikni Rahbar Rahbarovichga topshirgan. Muovin buva nafaqaga chiqqan bo’lishiga qaramasdan, qo’lidan birorta ish kelmasa ham, ishga kelishni kanda qilmaydi. Necha marta ishdan bo’shash haqida ariza yozib, shuncha marta qaytarib olgan. Bekorchixona tashkilotining xodimlaridan yana ikkitasi bo’lim boshlig’i va bosh mutaxassis shaxmat o’ynab o’tiradi. Gulibarno Rahbar Rahbarovichning kotibasi 25-28 yoshlardagi juvon, bu tashkilotga kimki kelsa Gulibarnoni ko’z ostiga oladi. Hatto Rahbar Rahbarovichning Akaxoni ham telefonda tinmay Gulibarnoni so’raydi va salom aytadi. Hangomani tashkil qilgan diydiyolar sahnasida Mutaxassis xonimning turmushidan yolchimaganligi, Gulibarnoning atrofida girdikapalak bo’layotgan erkaklarga g’ijinib qarashi namoyon bo’ladi. Iqtisodchi xonim pardo’z-andozga o’ch, zamonaviy juvon. Muallif hangomada tasvirlangan har bir



kinoyaviy obraz va ularning nopok ichki dunyosini va munofiqona xarakterini ochib berishda badiiy detallardan, xalqona soʻz va iboralardan, zamonning yangi inglizcha-ruscha soʻzlaridan unumli foydalanadi.

Tadqiqotchi M.Joʻrayev axloqiy-maishiy, ijtmimoiy-siyosiy komediyalarni oʻrganib, shunday yozadi: “Axloqiy mavzudagi komediyalarda haqiqiy insonga xos fazilatlar: halollik, kamtarlik hamda oliyjanoblikni sharaflash va insonga ishonchsizlik, yolgʻonchilik, ichiqoralik, molparastlik, oʻz huzur-halovati ustidagina qaygʻurish kabi illatlarni qoralash asarning voqeaviy asosini tashkil etadi. Axloq hamda axloqiy masalalar har doim jamiyat maʼnaviy hayotining asosiy negizini tashkil qiladi. Shu jihatdan ham hamma davrlarda axloq va axloqiy muammolar qalam ahlining diqqat markazida turishi tabiiy holdir. Ayniqsa, bu jihatdan adabiyotning, xususan, satira va hajviyotning alohida oʻrni borligi ijodkorlar va adabiyotshunoslar tomonidan yakdillik bilan eʼtirof etilgan”[2.81]

Dramaturg bu drama orqali har bir fuqaro oʻz ishini astoydil bajarishi lozimligini uqtiradi. Bu dramadan chiqariladigan muhim gʻoyaviy bir xulosa sifatida koʻzga tashlanadi. Muallif drama qahramonlarining salbiy jihatlarini haqqoniy koʻrsatar ekan, natijada, tomoshabinda yoki oʻquvchida bu tekinxoʻr, boqimanda, uxlash va yeyishdan boshqa narsani oʻylamaydigan qalloblarga nisbatan nafrat hissini tuydiradi.

“Farrosh kampirning tushi” dramasida qalamga olingan nomussiz, maʼnaviy tuban kimsalar ham yozuvchining, ham tomoshabinning zaharxanda kulgisiga loyiq kimsalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

- 1.Aʼzam.E. Farrosh kampirning tushi. // Yoshlik. 2011. №10. – B.
- 2.Joʻrayev. M Oʻzbek adabiyotida komediya janr xususiyatlari va ularning tarixiyiligi: filol. fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss... Jizzax, 2021. – B. 81-82.
- 3.Vohidov E. Qarzdorlik / Abdulla Qahhor zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. – B. 115.
- 4.Shofiyev O. Erkin Azam nasri badiiyati. – Toshkent: Qaqnus media, 2019.
5. Aʼzam. E. Ertalabki xayollar. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2015.
- 6.Erkin Aʼzam badiiy olami. – Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2014.
- 7.Qoʻchqorova M. Hozirgi oʻzbek nasrida badiiy shartlilik. – Toshkent: “Fan”, 2020.
8. Саидакбарова Мукаддас. Интерпретация просветления и духовности международный журнал социальных наук и междисциплинарных исследований ISSN: 2277-3630 Импакт-фактор: 7.429





Tojixon Toshboltayeva
Qo'qon DPI O'zbek adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)
Nigora Xolmatova
Qo'qon DPI O'zbek adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi (PhD)

SOQIYO, SUNGIL QADAHNI...

Azaldan, Farg'ona vodiysi, xususan, Qo'qon shahri shoirlar va olimlar yurti bo'lib kelgan. Tariximizning qaysi bir davrini olmaylik, O'rta Osiyo ilmi va madaniyatida bu o'lkaning ma'rifat namoyandlari alohida bir buyuk mavqeni egallaydi. Nodira, Uvaysiy, Uzlat, Amiriy, Mahzuna, Fazliy, Muqimiy, Furqat... Insoniyat ilmiy tafakkurini bir bo'ston desak o'lkadosh allomalarimiz shu bo'stonning o'z tarovati va sehrli nafosatiga ega bo'lgan go'zal gullaridir. Hali biz bilmagan, biz o'rganmagan qancha iste'dod sohiblarining xazina asarlari o'z izlanuvchilarini kutib turiibdi.

Biz so'z yuritmoqchi bo'lgan shoir hali u qadar ma'lum va mashhur bo'lmagan, Qo'qonda yashab ijod etgan va o'z ijodi bilan to'laqonli shoir unvoniga sazovor bo'lgan Dovstmuhammad Chustiy Alimuhammadzoda Firoqiydir. Firoqiy chin ma'noda talantli shoir, dilrabo g'azallar, o'tkir satira va hajviy asarlar sohibi ekanligini qo'limizdagi shoirning o'z qo'li bilan yozilgan va to'plam qilingan qo'lyozma nusxasi orqali ko'rishimiz mumkin.

Qo'lyozma to'plamda 40 dan ortiq g'azal, muxammas, musaddas, ruboiy, muammo va qit'alar o'rin olgan. Aftidan shoir qo'lyozmani qayta ko'chirish va kengaytirish rejasini qilgan bo'lsa kerakki, ba'zi bitiklar oxiriga etkazilmagan. Shunday bo'lsa-da toplam shoirning hayoti va ijodi haqida yetarli ma'lumot bera oladi.

Do'stmuhammad Alimuhammadzoda Firoqiy 1891-yili Namangan viloyati Chust shahri Seroba mahallasida tug'ildi. Olti yoshida diniy maktabga borib 8 yoshida arabiy, forsiy tilda to'la savodxon bo'ldi. Xattotlik bilan shug'ullanib, 10 yoshida Ahmad Yassaviyning "Hikmat" devonini chiroyli nasta'liq xatida ko'chiradi. 10 yoshidan she'rlar mashq qila boshlagan Do'stmuhammadning she'riy iqtidorini sezgan So'fizoda unga ustozlik qiladi. Bu haqda shoirning o'zi shunday yozadi". Mahallamizdagi mashhur shoir Sovfizodaning she'rlarini ko'rib qoida va qofiyalarini o'rgandim. Ba'zi she'rlarimni ko'rub "Sen durust shoir bo'lasan",-deb baho berur erdilar".

Firoqiy Navoiy, Fuzuliy, Ahmad Yassaviy, Mashrab kabi shoirlar ijodini o'rgangan, ulardan ijodiy ilhom olgan. Firoqiyning she'rlarini o'qir ekanmiz, uni Mashrab g'azallaridan ma'naviy ozuqa olganligini, mashrabona mahoratni egallashga harakat qilganligini, Mashrab ijodidan ilhomlanganligini ko'ramiz. To'plamdagi g'azllardan bir nechtasida ana shu masrabona ruh seziladi. Shu g'azallardan biri "Kelur" radifli g'azalidir. Boborahim Mashrab ham ustoz Mullo Bozor Oxund sharaflariga xuddi shunga o'xshash "keldilar" radifli g'azal yozgan.

*Soqiyo sungil qadahni joni-jononim kelur,
Jur'ai nush etmoqqa ul chashmi mastonim kelur.
Mutribo, sozing sadosini tarannumga ketur,
Savti Dovudi chekib to'ti suxandonim kelur.
Bazmi jamshidni ko'rkim, ey falotun peshalar,
Jon fidodur maqdamiga chunki mehmonim kelur.*



*Kam erur oni yo'liga jon poyandoz aylasam
Kulbami ravshan etarga mohi tobonim kelur.
Yusufi soniy malohatda ajoyib benazir,
Ul pariroylarni shohi sho'hi davronim kelur.
Zohido, zuhdingni qo'y, marzi riyodir qilmishing
Ihtisob etmoq uchun oshiqni sultonim kelur.
Jon nisor etgil Firoqiy holi zoring so'rgoli
Suhbatingga bul kuni yori suhandoning kelur.*

Shoirning lirik qahramoni pokiza, beq'ubor ishq, mustahkam e'tiqod sohibi, saodat yo'liga yetaklovch piri komilning chinakam ixlosmand muridi. U bor vujudi bilan komillikka – ollohning roziligiga intiladi va ikki dunyo saodatini ana “shu rohi muqaddas”dan topishiga ishonadi.

Bundan tashqari, shoirning zamon ruhini aks ettiruvchi talay g'azallari borki, ularda xalq ma'naviy dunyosidagi buzulishlar, hukumat, amaldorlaridagi insof – adolatning yo'qligi, buning oqibatida oddiy xalq hayotining xonavayron bo'layotgnligi kuyunchaklik bilan tasvirlanadi.

Shoirning “Xudovando yiroq et jumla ahli sharoratni...” deb boshlanuvchi g'azalida xuddi shu ruhni ko'ramiz. She'r 1917 yil 15 ynvarda yozilgan. Bu tarixiy sanani hisobga oladigan bo'lsak, hali Qo'qonda Chor hukumati hali tugatilmagan davr muhiti tasvirlangan deb hisoblashimiz mumkin.

*Na bo'ldiki, bu olam turfa sho'ri-sho'r o'ldi,
Biz bechoraga eski hukumat zulmi zo'r o'ldi
Adolat ketti ishdin bemuruvvatlik shior o'ldi
Boshdin ketti davlat baxt ketib behuzur o'ldi*

Millatning, xalqning ilmi, savodli bo'lishini orzu qilgan shoir zamonasidagi aks holatni korib achinib yozadi. Insonlardan ketgan insof va ma'rifatni “Ko'zi zohirda sog'u el hama botinda nobino”deb ta'riflaydi va yaratuvchidan shafaot tilaydi.

Firoqiy she'riyatida she'riy tahqid, satira, yumor bir-biri bilan uyg'unlashib ketgan. Uning “Do'stinga”, “Sozanda va bozandalarga” she'rida inson tabiatidagi nafs balosining kasofati tilga olinsa, “Palov ta'rifi” she'ri yengil hazil bilan sug'orilgan. Bu ruhni Charxiy va Firoqiy mushoira, hazil-mutoibalarida ham ko'ramiz. “Do'stinga” she'rida nafs balosiga yo'liqqan gumroh bandaning oxir-oqibat beobro' bo'lishi, zulmning, manmanlikning oxiri xorlik ekanligi ta'kidlanadi.

“Sozanda va bozandalarga” she'rida san'atkor nomiga dog' tushuryotgan iste'dodsiz “otarchilar” tanqid ostiga olinadi. Otarchilarni o'z tillarida so'zlatib, to'ylarda pul uchun suv o'rniga “aroq va konyak” ichadigan, namozxonlar ichida “so'fi- eshon” bo'lgan otarchilarni xulq-atvori yoritiladi.

*Borarmiz qay tomonni xohlasak bizga ochuq yo'llar,
Toparmiz bormoqqa albatta, bir imkon qalandarmiz.
Bizni hech kim surishtirmas, sovetning erka o'g'limiz
Yugansiz, no'xtasiz, bo'yni bearqon qalandarmiz.*

Biz uchun yana bir qimmatli, diqqatimizni tortadigan manba Firoqiy va Charxiy hazil-mutoiba mushoirasidir. Bu mutoyibalar ikki shoirning beg'ubor, samimiy do'stligining ifodasi sifatida namoyon bo'ladi.



1934-yil avgust oyida Firoqiy Mirzoyi Xuqandiy va Charxiy ikkovlarini Chek Chuvaldoqqa qovun sayliga taklif qilib yozgan g'azali ham qo'lyozmadan o'rin olgan, lekin g'azalning oxirgi qismi saqlanib qolmagan. Bundan tashqari andijonlik shoir Ulfatning xati, yana maktub janrida yozilgan bir g'azal mavjud.

Xullas, qo'lyozmada shoirning 1915-yildan 60-yillargacha yozgan asarlari o'rin olgan. Qo'lyozmadan ko'rinib turibdiki, Firoqiy ijodi hali o'rganilishga muhtoj, ko'plab ilmiy izlanishlarni taqozo etadi. Agar uning to'liq devoni topilsa, shoirning ijodi va faoliyati haqida yanada mukammal ma'lumot olishning imkoni tug'ilgan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Halilbekov A. Namangan adabiy gulshani: Ilmiy tadqiqot / Mas'ul muharrir. Habib Sa'dulla.- Namangan: Namangan nashriyoti, 2007 yil. B-467.
2. Qayumov P.D."Tazkirayi Qayumiy": Kitob 2 / Nashrga tayyorlovchi: F.Qayumov. – Toshkent: O'zFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyotlar bo'limi, 1998. B-472.
3. Qayumov P.D."Tazkirayi Qayumiy": Kitob 3 / Nashrga tayyorlovchi: F.Qayumov. – Toshkent: O'zFA Qo'lyozmalar instituti tahririy nashriyotlar bo'limi, 1998. B-716.
4. Qayumov P.D."Qo'qon adabiy muhiti". – Tosh.kent: "Fan" nashriyoti.1963 yil. B-18.
5. Firoqiy. Qo'lyozma. Shaxsiy kutubxona.

*Shoiraxon Toshxujayeva,
Maxbubaxon Tojiboyeva
Qo'qon DPI dotsentlari*

ERKIN A'ZAM ASARLARIDA QO'LLANGAN INDIVIDUAL NEOLOGIZMLAR LINGVOPOETIKASI

Annotasiya. Mazkur maqolada yozuvchi Erkin A'zam asarlarida qo'llangan individual neologizmlar haqida so'z boradi. Individual neologizmlarning lingvopoetik xususiyatlari tahlilga tortiladi.

Аннотация. В данной статье речь идет об отдельных неологизмах, используемых в произведениях писателя Эркина Азема. Анализируются лингвопоэтические особенности отдельных неологизмов.

Abstract. This article talks about individual neologisms used in the works of writer Erkin A'zam. The linguopoetic features of individual neologisms are analyzed

Kalit so'zlar: lingvopoetika, individual neologizm, kommunikasiya, ekspressiya, kumulyasiya.

Key words: linguopoetics, individual neologism, communication, expression, cumulation.

Lingvopoetikaning yuzaga kelish masalalari ko'plab tadqiqotchilarning e'tiborini tortib, bahs va munozaralarga sabab bo'lgani qadimdan ma'lum. "Lingvistika va poetikaning o'zaro munosabatlari hanuzgacha muammo bo'layotganligi Vinogradov asarlarida ham qayd etiladi".[1;18]Ma'lumki, boshqa san'at turlaridan farqli o'laroq adabiyot so'z san'atiga asoslanadi. Badiiy asarlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari



aynan soʻz vositasi orqali ochib beriladi. Shu sababli ham soʻzning asar mazmunini aks ettirishdagi roli beqiyos. Soʻz sanʼatining mohiyati faqat lingvopoetika yordamida talqin qilinadi. Lingvopoetika kontekstda til birliklari orqali namoyon boʻladigan estetik xususiyatlarni oʻrganuvchi filologiyaning alohida boʻlimi sifatida oʻrganiladi.

Til – ijtimoiy hodisa sifatida kommunikativ, ekspressiv va kumulyativ funksiyalarni bajaradi. Badiiy nutq ham ayni vazifalarni oʻz zimmasiga olganligi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda ekspressiv xususiyatning ustuvorligi kuzatilsada, kumulyativ vazifasi ham yozuvchilar ijodiy mahoratida yaqqol aks etadi. Yaʼni yozuvchilarning ijod laboratoriyasida xalq tili elementlari qayta ishlanib, jilolanib, yana xalqqa taqdim etiladi. Bu bilan til imkoniyatlari, til resurslari boyib, avloddan-avlodga oʻtib borishi taʼminlanadi. Bu borada yozuvchilar tomonidan yaratilgan individual neologizmlar ham muhim oʻrin tutadi.

Ijodkorning til boyliklarini qayta ishlash mahorati haqida soʻz borganda, adib tomonidan yaratilgan **individual neologizmlarga** ham eʼtibor qaratish lozim. Erkin Aʼzam badiiyat olamiga bir necha yangi soʻzlarni olib kirdi. Jumladan, **juftgarchi** («Yozuvchi»), **shoʻx-shalayim** («Bizning togʻa»), **erkashotirlar** («Piyoda»), **Olashovur** («Yozuvchi»), **gʻaribohang** («Pakana oshiq koʻngli»), **tovuqtovon** («Yeti tulki»), **chantrimore**, **kalamakatore**(«Anoyining jaydari olmasi»)kabi qator soʻzlar xarakterlar tasvirida, voqeliklar tizimida alohida ahamiyatga molik. Mazkur soʻzlar ularning muqobil variantlari, sinonimlari bilan qiyosan semantik jihatdan quyidagi jadval koʻrinishida tahlil etildi:

Individual neologizm	Matndagi maʼnosi	Izohli lugʻatdagi maʼnosi
Juftgarchi	Olib-sotar, chayqovchi	-
shoʻx-shalayim	Oʻta shoʻx, tantiq	Shalayim - kuch madori ketgan, majolsiz, shalviragan
Erkashotirlar	Erkatoy oʻgʻillar	Shotir - I. Epchil, mohir. II. xizmatkor, jilovdor.
Gʻaribohang	Shikasta, past ovozda	Gʻarib ar.- yot, begona, II. Bechora, nochor.III.Ajib, gʻaroyib[2;528]
Olashovur	Olloshukur	Ism
Chantrimore	Joʻshqin salom	-
Kalamakatore	Salom, salom	-

Yuqoridagi jadvaldan koʻrinib turibdiki, Erkin Aʼzam asosan kompozisiya usulida, yaʼni soʻzlarni bir-biriga qoʻshib yangi soʻzlar yasaydi. Shuningdek, soʻzlarni juftlash, qoʻshimchalar qoʻshib yangi soʻz yasalishi ham uchraydi. Yana bir xarakterli tomoni noanʼanaviy tarzda yaratilgan soʻzlar ham badiiy asarlardagi mashhur soʻz va iboralar darajasiga chiqq olgan. Buni birgina **chantrimore**, **kalamakatore** soʻzlari misolida koʻrishimiz mumkin: *Ahyon-ahyonda oʻtkinchilardan birortasiga qarab:«Chantrimore!» deya hayqirar, «Chantrimore!» desangiz «Kalamakatore!» deb javob qaytarar edi.*



(«Anoyining jaydari olmasi») Mazkur soʻzlar insonning bir-biriga samimiy va joʻshqin salomi, tilagi kabi maʼnoni anglatga-da, ayni soʻzlarning semantik maʼnolari toʻlaqlonli aniq emas. Yozuvchi mazkur soʻzlarga mushkul hissiyotning taftini joylaganki, u na yozuvchining oʻziga, na asardagi personaj – shu soʻzlar ijodkori Shodi garangga, na kitobxonga ayon. U faqat qalb bilan anglanadi, uni tavsiflab boʻlmaydi.

Tilda mavjud soʻzlarning sinonimini yaratish sinonimik qatorni va til resurslarini boyitishga xizmat qiladi. Quyidagi misolda ayni namunani kuzatish mumkin: *Mevachevangizni bozorga olib chiqishga iymansangiz, oʻzi soʻrab kelib, arzon garov boʻlsa-da, koʻtarasiga ortib ketadigan biror chaqqon **juftgarchi** har doim topiladi* («Yozuvchi»). Ushbu parchada asosiy qahramonning ehtiyotkor tabiati, dunyoqarashi, omadi chopmagan ijodkor ekanligidan kelib chiqqan holda oʻzbek tili lugʻatida mavjud olib-sotar, chayqovchi soʻzining oʻrniga **juftgarchi** soʻzini yaratib qoʻllaydiki, bu qahramon nutqiga individuallik sifatini bergan. Juftgarchi soʻzida olib-sotar soʻziga nisbatan ijobiy maʼno ottenkasi bor. Yaʼni birni ikki qiladigan, toparmon-tutarmon, tadbirkor.

*Kim chopadi? Kim ekadi? **Erkashotirlari** har yoqqa toʻzib ketgan, koʻcha changitib yuribdi* («Piyoda»). Hikoya qahramoni Berdiboy jamiyatga ayricha nigoh bilan qaraydi. Har bir oʻzgarishni xushlamay qarshi oladi. U yangilanishlar, yangilanishlar yoʻlidan borayotgan odamlarga “ola koʻz bilan qaraydi”. Bu hol uning nutqida yaqqol aks etadi. Oʻz hovlisiga kelganda ham oilasidan, yaqinlaridan begona qahramon oʻz jigarlariga nisbatan **erkashotirlar** soʻzini qoʻllaydi. “**Shotir**” soʻzining maʼnosi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati” da - I. Epchil, mohir.II. Xizmatkor, jilovdor[2;596], deb tavsiflanadi. Mazkur soʻz oʻzini oʻz oilasiga begonadek tutuvchi Berdiboyning begonalik tuygʻusini ifodalashga xizmat qilgan. Unga III shaxs egalik qoʻshimchasining qoʻshilishi esa ushbu maʼnoni yana-da kuchaytirgan.

*Oʻsha kunlari rais yigʻim-terim bilan band, dahmazani uning **Olashovur** degan **shoʻx-shalayim** shofyori keltirib berdi. (Rais buvamiz yozishdan koʻra laqab taqishga usta ekan: Olloshukurni u hazil aralash shunday atardi. Keyinchalik qahramonimiz bu chindan ham olashovurroq yigit bilan rosa sirdosh boʻlib ketdi* («Yozuvchi»).

Yozuvchi ijodiga xos xususiyatlaridan biri taqlid soʻzlardan ham individual neologizmlarni yarata olishida koʻrinadi. Yuqoridagi parchada “**shovur**” taqlid soʻzi shov va shunga yaqin aralash tovushni bildiradi. “**Shovur-shuvur**” ham taqlid soʻz. Mazmuni noaniq boʻlgan gap-soʻz tovushlarni bildiradi[2;588]. Hayotda oʻzining aniq yoʻli, fikri yoʻq, goh u, goh bu tomon ogʻib, rais tomonidan aytilgan mayda vazifalarni bajaribgina kun koʻradigan, hayot yoʻli tushunarsiz shofyor Olloshukurning laqabida ana shu sifatlar maʼnosi mujassamlashgan. Uning xatti-harakatlari, hayot yoʻli noaniq. Mazkur individual neologizmlar taqlid soʻzlar anglatgan tovushga monand sifatni ifodalashga xizmat qilgan. Bu esa qahramoni xarakteridagi nozik jihatlarini yorqin ifodalashda ijodkorga qoʻl keladi.

Baʼzan yozuvchining soʻz yasash borasidagi tajribalarida nomuvofiqliklar ham uchraydi: **shoʻx-shalayim** shunday soʻzlardan biridir. **Shalayim** soʻzi nihoyatda kuchmadori ketgan holatli, majolsiz; shalviragan, deya tavsiflanadi. [2;538] Ayni maʼno ifodalagan soʻzga shoʻx soʻzining birikishida yozuvchining qaysi maʼnoni nazarda tutganligi bir oz mavhum. Kontekstdan kelib chiqqan holda biz uni “madordan ketkizar darajada oʻta shoʻx, tantiq” maʼnosini ifodalagan deb talqin etdik.

Individual neologizmlar yaratish yozuvchining uslubiy mahoratiga xos alohida



jihatdir. Erkin A'zam o'z asarlarida o'ndan ortiq yangi so'zlarni qo'llaydi va ular muallifning g'oyaviy-badiiy niyatini ifodalashda asosiy vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, T. S. (2022). Ellipsis And Anti-Ellipsis In The Erkin A'zam's Works. Journal of Positive School Psychology, 935-940.
2. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, T. S., & Odinakhan, R. (2022). LANGUAGE AND ETHICS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1026-1029.
3. Shoiraxon Toshxòjayeva, Toshkhojaeva, S. (2016). The Linguopoetic Nature of the Artistic Repetition in the Works of Erkin Azam. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(5), 114-118.
4. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ташхужаева, Ш. Г. (2015). Phonetic dialecticism in erkin azam's works and it's linguapoetical properties. Ученый XXI века, (12 (13)), 66-69.
5. Shoiraxon Toshxòjayeva, Тошхужаева, Ш. Г. (2016). Лингвопоэтическое исследование художественной литературы-описательные средства. Молодой вчений, 1, 382-386.
6. Shoiraxon Toshxòjayeva, Ganievna, S. T. (2022). LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF PARENTHESES IN THE WORKS OF ERKIN AZAM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1007-1010.
7. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "LINGVOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES." Open Access Repository 9.3 (2023): 176-181.
8. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM." Open Access Repository 9.3 (2023): 167-170.

Kabulova Umida Sayidmaxamadovna, f.f.n., dotsent.

Kabilova Zebiniso Muratovna, f.f.n., dotsent.

Andijon davlat chet tillari instituti

"FILOLOGIYA" TERMINI HAQIDA

Annotatsiya: ushbu maqola "filologiya" terminining lingvistik lug'atlarda turlicha izohlanishi masalasiga bag'ishangan.

Kalit so'zlar: so'z, termin, matn, adabiyot, fanlar majmui, bilimlar majmui, izohli lug'at, ensiklopediya, o'zbek filologiyasi.

Аннотация: данная статья посвящена вопросу о различном толковании термина "филология" в лингвистических словарях.

Ключевые слова: слово, термин, текст, литература, совокупность наук, совокупность знаний, толковый словарь, энциклопедия, узбекская филология.

Abstract: this article is devoted to the question of the different interpretation of the term "philology" in linguistic dictionaries.

Keywords: word, term, text, literature, set of sciences, set of knowledge, explanatory dictionary, encyclopedia, Uzbek philology.



Terminologik lug'atlarda filologiya turlicha izohlanadi. Jumladan, A.Hojiyev uni quyidagicha sharhlaydi: Filologiya (*yunoncha* filo. philéō – sevaman+yunoncha logos – so'z. bilim). Biror xalqning til va adabiy ijodda o'z ifodasini topgan madaniyatini o'rganuvchi fanlar majmui: *Antik filologiya. O'zbek filologiyas.*

O'zbek tilining izohli lug'atida esa filologiyaga shunday ta'rif berganlar: Filologiya (*yunoncha* filo. philéō – sevaman+yunoncha logos – so'z). U yoki bu xalqning u yoki bu davrda til va adabiyotda ifodalangan madaniyati haqidagi fanlarning umumiy nomi; til va adabiyot haqidagi bilimlar majmui. *O'zbek filologiyasi. Roman-german filologiyasi. Universitetning filologiya fakulteti. – Atigi uch yil ilgari filologiya fakultetini bitirgan edi.* (O.Mo'minov, Xiyobondagi uch uchrashuv).

Rus tili ensiklopediyasida filologiya atamasi quyidagicha izohlanadi: Filologiya atamasi qadimgi yunonchada φιλολογία, lotincha *philologia*, inglizlarda *philology*, nemislarda *philologie*, italyanlarda *filologia* nomi bilan ataladi, fransuzlarda *philology*, polyakcha *filologia*, chexlarda *filologie*, ruslarda *филология*. A.A.Chuvakinning «Основы филологии» nomli asarida qadimgi yunonchada φιλολογία birinchi so'z deb va u ikki tomonlama ma'noga ega deb e'tirof etiladi. Bu so'zning ikkinchi qismining ma'nolari «logotiplar» deb izohlanadi. Oddiy so'z sifatida qadimgi yunonchada «filologiya» so'zga bo'lgan muhabbatni anglatadi.

G.O.Vinokur, S.I.Radzig, K.Zelenetskiylar filologiyani rivojlantirdilar. Rus filologi K.Zelenetskiy «Logos» so'zini uchta ma'noda: «aql, aql asarlari, ya'ni fan va bilim va so'z yoki nutq» sifatida e'tirof etdi.

Demak, terminologik lug'atlarda filologiya turlicha talqin etilgan bo'lsa ham, mohiyat jihatidan bir nuqtaga borib taqaladi.

Filologiya fan sifatida 2.500 yildan ziyod vaqt davomida mavjud. Uning o'rganish markazini so'z tashkil qiladi. «Filologiya» keng qamrovli fan sifatida miloddan avvalgi III asr oxiri – II asrning boshlarida shakllana boshladi. Qadimgi Rimda ritorikadan dars bergan Atteus o'zini birinchilardan bo'lib «filolog» deb ataydi. Qadimgi Hind va qadimgi Xitoy filologlari eramizdan avvalgi V–IV asrlarda matnning grammatik va stilistik qonuniyatlarini dunyoga tanitdilar.

Filologiya aytilgan va mavjud matnlarni tushunish san'atidir. Rus yozuvchisi M.Prishvin «Men so'z bilan hamma narsani qila olaman», – deydi.

Filologiya mashaqqatli fan, u bilimga amaliy yondashadi. Filologiya inson so'zining mazmun-mohiyatini, inson tafakkurini falsafa singari yalang'och ma'noning o'zi bilan emas, balki – so'z ichida yashaydigan va so'zni jonlantiradigan ifodalar bilan bezaydi.

Filologiyaning o'ziga xos tomoni, u insonni tanlaydi, «notiq, ma'ruzachilarni» yaratadi, inson muammosiga yaqinlashadi.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasida filologiya haqida shunday ma'lumotlar berilgan: Hozirgi filologiya til va adabiyotni o'rganishning yangi-yangi muammolarini o'rta tashlab, yangi-yangi metodlarni ishlab chiqmoqda; ijtimoiy hayotning barcha davrlariga xos yozma manbalar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanmoqda; filologik tadqiqotlar mavjud manbalarga chuqur ilmiy va tanqidiy nuqtayi nazardan yondashgan holda olib borilmoqda.

O'zbek filologiyasining ilk davri M.Koshg'ariy, M.Zamaxshariy davriga va asarlariga borib taqaladi. Asrlar mobaynida o'ziga xos tarzda rivojlanib keldi. Hozirgi ma'nodagi o'zbek filologiyasi esa XX asr boshlaridan shakllana boshladi: o'zbek tilshunosligi,



adabiyotshunosligi, manbashunosligi va matnshunosligi filologiya fanining tarmoqlari sifatida taraqqiy etdi.

Hozirgi o'zbek filologiyasi jahon filologiya fanining tarkibiy qismi sifatida har tomonlama rivojlanmoqda. O'zbek filologiyasi taraqqiyotiga M.Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy, Elbek, G'ozi Olim Yunusov, A.Zohiriy, Otajon Hoshim, Hodi Zaripov, S.Ibrohimov, P.Shamsiyev, Sh.Xurshid, O.Sharafiddinov, S.Mutallibov, Izzat Sulton, O.Usmonov, S.Usmonov, U.Tursunov, F.Kamol, V.Abdullayev, V.Zohidov, G'.Karimov, F.Abdullayev, A.G'ulomov, H.Sulaymonovlar, rus olimlaridan Ye.Polivanov, K.Yudaxin, A.Borovkov, V.Reshetov, A.Kononov, A.Shcherbak va boshqalarning munosib hissalarini bor. Shuningdek, Sh.Shoabdurahmonov, G'.Abdurahmonov, A.Hayitmetov, A.Qayumov, A.Rustamov, Q.Mahmudov, M.Asqarova, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, A.Abdug'afurov, B.Valixo'jayev, N.Karimov, T.Mirzayev, B.Nazarov, E.Fozilov, E.Begmatov, H.Ne'matov, A.Nurmonov, N.Mahmudov va boshqalar hozirgi kundagi o'zbek filologiyasini rivojlantirishda o'z hissalarini qo'shdilar.

Adabiyotlar:

1. Русский язык энциклопедия. Изд.2. – М.,1997.
2. Винокур Г.О. Введение в изучение филологических наук. – М., 2000.
3. Махмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. Ўзбек тили энантиосемик сўзларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Академнашр, 2014.
4. Нурмонов А. Танланган асарлар. –Тошкент, 2012.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. –Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
6. Nosirov P. O'zbek nutqi madaniyati. –Toshkent, 2004.
7. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2002.
8. Чувакин А.А. Основы филологии. Учебное пособие. – М., 2011.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2007.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
11. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983.
12. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент, 2008
13. Iminov M., No'monov T., Bobohonova D. O'zbek tili uslubiyati masalalari. – Namangan: 2007.
14. Қўнғуров Р., Бегматов Э., Тожиёв Ё. Нутқ маданияти ва услубият асослари. –Тошкент, 1992.
15. Усмонов С. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
16. Қўчқортёев И., Исабеков Б. Туркий филологияга кириш, – Тошкент, 1984.



*Kabilova Zebiniso Muratovna, f.f.n., dotsent.
Kabulova Umida Sayidmaxamadovna, f.f.n., dotsent.
Andijon davlat chettillari instituti*

“FONOSTEMA” TERMINI HAQIDA MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqola “fonostema” terminining mazmun-mohiyati va uning kelib chiqishi masalalariga bagʻishlangan.

Kalitsoʻzlar. Fonosemantika, soʻz, maʼno, taqlid soʻzlar, emotivlar, ensiklopedik lugʻat.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросу о значении термина “фоностема” и его происхождении.

Ключевые слова. Фоносемантика, слово, значение, звукоподражательные слова, эмотивы, энциклопедический словарь.

Annotation. This article is devoted to the question of the meaning of the term “phonosteme” and its origin.

Keywords. Phonosemantics, word, meaning, onomatopoeic words, emotives, encyclopedic dictionary.

Fonosemantika tarixiga nazar tashlasak, shu soha tadqiqotchilari oʻz nazariyalari-rini butun til tizimiga tatbiq qilmoqchi boʻlsalar-da, konkret misollarda asosan taqlid soʻzlar va emotivlar bilan chegaralanib qolganliklarini koʻramiz. Ammo ushbu tadqiqotlar natijasida tilshunoslikka yangi atama –fonostema kirib keldiki, bu tushuncha taʼrifi aynan onomatoplar va emotivlar misolida yaqqol va aniq boʻladi.

Fonostema atamasini birinchi boʻlib J.Fyors qoʻllaydi va u fonostema deganda, fonemalarning muayyan mazmun bilan bogʻlanuvchi tizimini tushunadi. Bu jihatdan u goʻyo morfemaga yaqindek koʻrinadi, biroq soʻzning qolgan qismi morfologizatsiyadan mahrumligi uni morfemadan uzoqlashtiradi.⁷⁸

Bu taʼrif fonostemaga berilgan deyarli yagona taʼrif boʻlib qoldi va tilshunoslik lugʻatlariga ham kirdi⁷⁹.

Masalan, O.S.Axmanova inglizcha **sp**-fonostemasini misol qilib koʻrsatadi: splash, spray, spout, sputter kabilarda **-ash, -ray, -out, -utter** qismlarning toʻliq mazmunsizligiga qaramay, **sp**-oʻxshash mazmuniy yaqinlik ifodalaydi.⁸⁰

Fonostema oʻz vaqtida (asosan, XX asrning 30–60-yillarida) juda koʻp tilshunoslarning eʼtiborini tortgan (L.Blumfeld, B.Uorf, F.Xausxolder, D.Bolindjer, Z.Xarris, Yu.Nayda) boʻlsa-da, keying davrda astasekin unutila boshladi. Hatto tilshunoslikka oid ensiklopedik lugʻatlarda ham uning alohida tahlili uchramaydi⁸¹. Bunga sabab fonostemaga berilgan taʼrifning yetarlicha nazariy asoslanmagani va amaliy materiallar bilan taʼminlanmaganligidir.

Biz, xususan, fonostemani yuqoridagicha tushinishda quyidagi kamchiliklar bor deb hisoblaymiz:

78 Воронин С.В. О звукоизображениях кавитации // Вопросы структуры английского языка в син-хронии и диахронии. -Л., 1969. -Вып. 2. -С. 170-175.

79 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. -М.: Сов. Энциклопедия, 1960. – С. 496.

80 Oʻsha yerda

81 Qarang: Лингвистический энциклопедический словарь. -М., 1990.



1. Fonostemani muayyan tovushlar tizimiga (masalan, inglizcha **sp**) bog'lab qo'yish. Chunki bu tovushlar tizimi doim ham shu xil mazmuniy tus bermaydi.

2. So'zning qolgan qismining fonostemadan ajratilishi. Chunki mazmun ham, ma'no tusi ham butunicha so'zga tegishli bo'ladi, so'zning bir qismiga emas.

3. Ana shu chegaralanishlar tufayli, yetarlicha amaliy material to'planmagani, borlari ham onomatop va emotivlar doirasida chegaralanganligi.

4. Shuningdek, fonostemalarning maqomi ham belgilanmagan, u emik birliklarning birortasining ko'rinishimi? Yoki alohida til birlikimi?

5. Bunday kamchiliklar borligini fonostema nazariyachilarining o'zlari ham his qilgan ko'rinadilar. Xususan, amaliy material yig'ish va izohlashda ancha oldinga ketgan L.Blumfild ham «...bizda yetarli aniq mezon yo'q» deb ko'rsatib o'tgan edi.⁸² Uning misollariga e'tibor bersak:

fl –harakatdagi yog'du: **flash, flame**, shuningdek, yana

fl – havodagi harakat: **fly, flap, flit** yoki

gl – harakatsiz yog'du: **glow, glare, gloat gleam**

sl – tekis va qo'l: **slush, slip, slide** **kr** – shovqinli zarba, to'qnashuv: **crash, crack,**

crunch

sn – nafas ovozi: **sniff, snore** shuningdek, yana

sn –tez ajralishi, harakat: **snap, snatch** kabilar.⁸³

Ko'rinadiki, u ham fonostemalar reallashuvining aniq shartlarini ko'rsatib bera olmagan. Bu bir xil fonostemalarni turli ma'no bildiruvchilar sifatida tavsiflashda ham namoyon bo'ladi.

O'tgan asrning 60–70yillaridan boshlab, sovet tilshunosligida ham fonosemantik tadqiqotlar astasekin, lavha ko'rinishida paydo bo'la boshladi. Bu tadqiqotlar asosan rus tilshunoslari tomonidan olib borildi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, ular ko'p sonly emas, biroq favqulodda yirik natijalarni qo'lga kiritdilar hamda haqli ravishda g'arblik salafalaridan o'zib ketdilar. Bu yutuqli jihatlar, bizningcha, quyidagilardan iborat.

1. Fonosemantikaning ekstralingvistik va intralingvistik asoslarini aniq-tiniq ko'rsatib berdilar. Bunda qandaydir mavhum taassurotlarga emas, aniq faktlarga asoslanadilar.

2. XX asr tilshunosligining, shubhasiz, yutug'i bo'lgan sistemaviy yo'nalish va fonosemantika mutlaqo alternativemas, balki tarkibiy bog'liq sohalar ekanligini aniqladilar.

3. Fonostemalar tavsifi va tahlilida (bu atamani ishlatishishlatmaslikdan qat'iy nazar) qamrovni ancha keng oldilar.

4. Fonosemantik tadqiqotlarga matematik metodlarni hamda injenerlik lingvistikasi yutuqlarini jalb etdilar.

Bu borada S.V.Voronin xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

O'zbek tilshunosligida fonosemantik qarashlar kam bo'lib, keng tarqalmagan va asosan fonostilistik tadqiqotlarda tarqoq uchraydi.

82 Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 2005. –261 с.

83 Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 2005. –261 с.



Adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. –М.: Сов. Энциклопедия, 1960. – С. 496.
2. Блумфилд Л. Язык. – М.: Прогресс, 2005. –261 с.
3. Воронин С.В. О звукоизображениях кавитации // Вопросы структуры английского языка в синхронии и диахронии. –Л., 1969.–Вып. 2. –С. 170–175.
4. Кунгуров Р.Изобразительные слова в современномузбекскомлитературном языке: Автореф. дис.... канд. филол. наук. –Т., 1962. –25 с.
5. Кунгуров Р.К., Тихонов А.Н. Изобразительные слова как самостоятельная часть речи // Вопросы теории и частей речи. – М., 1968. –С. 254.
6. Лингвистический энциклопедический словарь. –М., 1990.

*M.Ergashev, PhD, associate professor,
Kokand State Pedagogical Institute, Kokand
A.Baxromova, Student,
Kokand State Pedagogical Institute, Kokand*

METHODOLOGY FOR ELIMINATING PROBLEMS WITH STUDENTS WITH UNDEVELOPED SPEECH BY SUGGESTOPEDIA

Annotation. Modern methods of teaching foreign languages offer us a wide range of teaching concepts, methods and technologies – such as both traditional and innovative. Curriculum developers and teachers give preference to one or another method depending on the objectives of training, the contingent of trainees, the duration and intensity of the training course and other conditions. At the same time, each of the teaching methods has its advantages and disadvantages, and the success of their application depends on the specific goals and conditions of training.

Key words. suggestopedic direction, suggestology, suggestive structure, system of G. Lozanov.

Annotatsiya. Chet tillarini o'qitishning zamonaviy usullari bizga an'anaviy va innovatsion kabi keng ko'lamli o'qitish tushunchalari, usullari va texnologiyalarini taklif etadi. O'quv dasturini ishlab chiquvchilar va o'qituvchilar o'qitish maqsadlariga, tinglovchilar kontingentiga, o'quv kursining davomiyligi va intensivligiga va boshqa shartlarga qarab u yoki bu usulga ustunlik berishadi. Shu bilan birga, o'qitish usullarining har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega va ularni qo'llashning muvaffaqiyati o'qitishning aniq maqsadlari va shartlariga bog'liq.

Kalit so'zlar. G. Lozanovning suggestopedik yo'nalishi, suggestologiya, suggestopedik tuzilish, suggestopedik yo'nalish.

Аннотация. Современные методы преподавания иностранных языков предлагают нам широкий спектр концепций, методов и технологий обучения – как традиционных, так и инновационных. Разработчики учебных программ и преподаватели отдают предпочтение тому или иному методу в зависимости от целей обучения, контингента слушателей, продолжительности и интенсивности



учебного курса и других условий. В то же время каждый из методов обучения имеет свои преимущества и недостатки, и успех их применения зависит от конкретных целей и условий обучения.

Ключевые слова. суггестопедическое направление, суггестология, суггестивная структура, система Г. Лозанова.

In recent decades, the point of view has become widespread, according to which the issue of qualitative improvement of the education system is directly related to the development of scientifically based methods of cognitive activity management that mobilize creative and intellectual abilities of a person. Pedagogy, psychology, psycholinguistics, sociolinguistics, methods of teaching foreign (including Russian) languages combine their efforts in search of ways to identify potential reserves of personality.

The relevance of the chosen topic In these conditions is due to the needs of the practice of teaching Russian as a foreign language. A fairly low level of formed skills and abilities in various types of speech activity, which foreign students demonstrate at the end of the pre-university preparation stage, indicates the need to activate the educational and cognitive activity of students during this period by introducing new technologies into the educational process.

In recent years, the role of a foreign language as a means of communication that should be taken into account when teaching a language. The special feature of a foreign language is that we teach not the basics of sciences, but skills and abilities, and for this we need sufficient speech practice. The purpose of language teaching is not only to introduce students to the system of a foreign language, but, above all, to teach them how to use language as a means of communication. Consequently, the whole structure of classes and the methods used should correspond to the real situation of communication, and training should take place in the conditions of interaction of students. Educational technologies are the means of achieving subject and meta-subject results, as well as personal results of students. The system of the teacher's work to ensure the results of teaching a foreign language must necessarily include the implementation of the following technologies: the technology of communicative learning, the technology of understanding the communicative meaning of the text, game technologies, technologies of learning in cooperation, project technologies, etc.

Currently, it is proposed to use combinations of various modern methods for this purpose. Methodologists (T.M. Balykhina, I.K. Gapochka, I.S. Guseva, G.A. Kitaygorodskaya and many others) justify the possibility of including elements of intensive methods in the traditional training system. I.K. Gapochka, for example, believes that "significantly greater productivity and efficiency can be achieved if the traditional system of classes of various levels and the purpose is to include elements of intensive methods, rationally, compactly and systematically use educational material, build training based on a combination of intensive methods within a cycle of classes and within a single lesson" [Gapochka, 2002, pp. 43-44].

In this regard, it seems relevant to use the possibilities of the suggestopedic technique, called intensive and appealing, first of all, to the use of the reserves of the human psyche.



The 60s – 80s of the last century are distinguished by the special attention of many sciences to the personality of the student, his individual characteristics, and it is not accidental that a psychotherapist, Doctor of medical Sciences, Bulgarian scientist G. Lozanov made a new suggestopedic direction in training.

G. Lozanov is the founder of suggestology as “the science of the liberation of hidden human capabilities” [Lozanov, 1970] and suggestopedia as a new pedagogical direction. The main concept of the theory and the system of education created on its basis by G. Lozanov is the reliance on unconscious mental activity in its inextricable connection with conscious mental activity. The unconscious is considered as the main source of the reserve capabilities of the psyche. The word “suggestion” comes from Lat. *Suggestum*, which means “substitute”, “whisper”, “suggest”. Suggestology is the science of suggestion, suggestopedia is its application in pedagogy. Information from the outside can penetrate into the inner world of a person, says Lozanov, through two channels — conscious and unconscious. The unconscious can be considered as the main source of the “reserve capabilities of the psyche”. The suggestopedic direction in psychology is designed to use these reserves of personality. First in Bulgaria, and then in other countries, including Russia, attempts were made to use the possibilities of suggestopedia for accelerated learning of foreign languages. This is how intensive language courses based on the ideas of suggestopedia appeared.

The suggestion therapy system of G. Lozanov, which arose as a desire to improve learning based on deep psychological data about the enormous capabilities of a person, about the reserves of his brain and, consequently, the psychological activity of the student, has strong psychological roots. The psychological roots of the suggestopedic system are: a) the achievements of L.S. Vygotsky's school in identifying the connection between imagination and memory, thinking and speech, as well as L.S. Vygotsky's statements about the activity of the individual in the learning process based on collective forms, and the need to use the native language when teaching a foreign language; b) the phenomenon of synesthesia described by A.R. Luria; c) the theory of the psychological attitude of the school of D.N. Uznadze.

The suggestopedic system, as defined by G. Lozanov [Lozanov, 1973], originates from “desuggestive-suggestive” communicative psychotherapy associated with summarily influencing liberating and stimulating factors in art and with modern experimental psychological studies of the attitude, motivation, needs and orientation of the individual.

This whole set of ideas was adapted by G. Lozanov to the conditions of the educational process and identified the following

The suggestopedic method (Lozanov's method) got its name from the terms “suggestology” — the science of suggestion — and “suggestopedia” — a section of suggestology devoted to the theory and practice of the use of suggestion in pedagogy. This method was developed and tested in the 1960s in Bulgaria under the guidance of psychiatrist and teacher G. Lozanov.

A distinctive feature of the suggestive teaching method is the disclosure of memory reserves, increasing the intellectual activity of students, the use of suggestion, elements of yoga, meditation and relaxation. Lozanov's method is based on the activation of a person's reserve capabilities, which are not used enough in pedagogy, but



can significantly increase the amount of memory and contribute to memorizing more material per unit of time. Based on this, the suggestopedic method is referred to as intensive methods.

REFERENCES:

1. Гурвич П. Б., Кудряшов Ю. А. Лексические умения, Обуславливающие говорение на иностранном языке // Общая методика Обучения иностранным языкам. Хрестоматия. – М., 1991.
2. Жинкин Н. И. Язык. Речь. Творчество // Избр. Тр. – М., 1998.
3. Леонтьев А. Н. Деятельность, сознание, личность. – М., 1975
4. Рогова Г. В., Верещагина И. Н. Методика обучения английскому Языку на начальном этапе в общеобразовательных учреждениях. М., 1998.
5. Скалкин В. Л. Основы обучения устной иноязычной речи. – М., 1981.
6. Щерба Л. В. Преподавание иностранных языков в средней школе : Общ. Вопросы методики / под ред. И. В. Рахманова. — Изд. 2-е. — М.: Высш. Шк., 1974.
7. Шукин А. Н. Методика обучения иностранным языкам: Курс Лекций. М., 2002.
8. Erben T., Ban R., Castaneda M. Teaching English Language Learnersthrough Technology. Routledge, New York. 2009.
9. Richards J. C. Key Issues in Language Teaching / J. C. Richards. – Cambridge: Cambridge University Press, 2015.
10. Richards J. C. Approaches and Methods in Language Teaching / J. C. Richards, T. S. Rodgers. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.





Tajibayeva Dilfuza Erkinovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
dotsent Namangan davlat universiteti

OBRAZ YARATISHDA BADIY TAKRORLARNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada XX asr o'zbek she'riyatining iqtidorli vakillaridan biri Habib Sa'dulla she'riyatida qo'llanilgan badiiy takrorlar tahlilga tortilgan.

Kalitso'zlar: She'r, qissa, poetik sintaksis, adabiyotshunoslik, badiiy takrorlar, ritm, vazn, anafora, epifora, halqa.

Аннотация: В статье анализируются художественные повторы, использованные в поэзии одного из талантливых представителей узбекской поэзии XX века Хабиба Садуллы.

Ключевые слова: Поэма, рассказ, поэтический синтаксис, литературоведение, художественные повторы, ритм, вес, анафора, эпифора, петля.

Annotation: The article analyzes the artistic repetitions used in the poetry of one of the talented representatives of the Uzbek poetry of the 20th century, Habib Sadulla.

Key words: Poem, story, poetic syntax, literary criticism, artistic repetitions, rhythm, weight, anaphora, epiphora, loop.

XX asrning 60-70- yillarida ustozlar an'alarini davom ettirgan iqtidorli ijodkorlar qatorida namanganlik Habib Sa'dulla ham bor edi.

Habib Sa'dullaning dastlabki she'rlari viloyat, tuman gazetalarda chop etildi. 1969-yilga kelib, uning "Okeandan shabada" nomli birinchi kitobi nashr etildi. Shundan so'ng uning "Bahor bilan suhbat", "Muloqot", "Yana ostonangda", "Ehtirom", "Usmon atlas", "Nur qadri", "Bog'lar yurtin bolasimiz", "Tazarru", "Ko'chamdan jonon o'tganda" kabi she'riy to'plamlari nashr bo'ldi.

Habib Sa'dulla ijodida poetik sintaksisning o'ziga xos ko'rinishini kuzatish mumkin.

Ma'lumki, adabiyotshunoslikda badiiy takrorlarning o'rni beqiyos. Badiiy takrorlar matnda ifodalangan mazmun-mohiyatni yanada kuchaytirish uchun xizmat qiladi. "Badiiy takrorlar poetik nutqning ifodaviyligini oshiradi. Badiiy takrorlarsiz she'r musiqiyligini, ritmini, vaznini, bandini va qofiya san'atini tasavvur qilib bo'lmaydi. Badiiy takrorlar o'quvchi qalbiga kuchli hissiy ta'sir etadi. Takrorlar, shubhasiz, poetik tilning obrazli tasvir vositalari va she'r tuzilishi unsurlari bilan uzviy birlikdagina o'z vazifasini o'tay oladi".[1:431]

Takrorning anafora, epifora, halqa kabi turlari farqlanadi. Habib Sa'dulla she'rlarida anaforaning ko'plab namunalarini kuzatamiz. Jumladan, quyidagi to'rtlikda "Birov" so'zi takror qo'llanib, qarama-qarshilik ma'nosini ta'kidlashga xizmat qilmoqda. Birinchi qatordagi "birov" insonlarga ziyo, nur taratib tursa, ikkinchi "birov" bo'lsa ajal uchun qurol tayyorlaydi:

Birov odamlarga baxsh etar ziyo,
Birov ajal uchun qurol tayyorlar.
Birovlar pokiza go'yo yosh kuyov,



Bir burchakda esa g'ing shirayyorlar. [2:65]

Quyidagi misrada esa "shirin" so'zining takrori orqali shoir shirin so'zlik deb ataluvchi go'zal insoniy fazilatni ulug'laydi:

Bir og'iz shirin so'zga dosiman men,
Shirin so'z umrimni aylagay uzoq.
Shirin so'zlilarning shaydosiman men,
Shirinroq so'zlagil etsang-dafiroq. [2:67]

Misralardagi fikr tadrijini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:

Birinchi satrda shoir o'zining bir og'iz shirin so'z shaydosi ekanligini ifodalaydi. Takrorga asos bo'luvchi so'z tasvir obyektni ifodalaydi. Ikkinchi satrda shirin so'z inson umrini uzaytiruvchi vosita sifatida gavdalanadi. Takrorlanuvchi so'z ijobiy ma'noni ta'kidlashga xizmat qiladi. Uchinchi satrda shirin so'zli, shirin tilli, shirin kalomli insonlar haqida fikrketadi. Bunda esa shoir mana shunday insonlarning "shaydosi", tarafdori ekanligi ifodalanadi. Ijobiy fikr kuchaytiriladi. To'rtinchi satrda qanday holatda bo'lmasin shirin tilli bo'lish ta'kidlanadi va bu ta'kid takroriy so'z orqali xulosaga aylantiriladi.

Habib Sa'dullaning "Do'stlarimga" nomli she'rida ham badiiy takrorlar qo'llanilgan. Har bir insonning ham o'zg'ami, o'z tashvishlari borligi ma'lum. Shuning bilan birga har bir insonning "har qadamda" o'z tanishlari, o'ziga qarashli yaqinlari o'z odamlari bor. Ushbu misralarda "har qadamda" so'zi takrori orqali fikrni ta'kidlagan va yorqin ifodalashga erishgan:

Odamman-da, o'z tashvishlarim,
O'z quvonchim, dard-u g'amim bor,
Har qadamda ko'z tanishlarim,
Har qadamda o'z odamim bor. [2:72]

Shoirning "Sentyabr subhidamida" nomli she'rida ham birinchi va ikkinchi qatorda "balki" so'zining takrorini ko'ramiz.

Balki nomim aytib chaqirmas birov,
Balki tanimassan bu o'g'loningni.
Yillar sochlarimga qo'ndirmish qirov,
Hayot mendan olur imtihonini. [2:85]

Shoirning "Nega kelding" deb nomlanuvchi she'rida halqaning go'zal namunasini uchratamiz. Ma'lumki halqada she'r boshida kelgan fikr she'r yakunida ham aynan takrorlanib keladi. "*Yana nechun kelding qoshimga dildor*" misrasi she'r boshida ham so'nggida ham takrorlanib kelmoqda:

Yana nechun kelding qoshimga, dildor?
Ko'z-ko'z qilganimi to'kin baxtingni?
Yo to'kib solgani dil hasratingni?
Birga kechgan damlar yod et dixumor?
Yana nechun kelding qoshimga, dildor
Qaytding huzurimga, bilmam, kim bo'lib,
O'tmishingni esa olganingdanmi?
Yo ikki o't ichra qolganingdanmi,
Sevgilim bo'libmi, yo singlim bo'lib...



Qaytding huzurimga, bilmam, kim bo'lib.
Yana nechun kelding qoshimga, dildor?[2:79]

Takrorning bu turi asosiy fikrga ta'kidni yana ham kuchaytirish, asosiy obrazga e'tiborni qaratish vazifasini bajaradi. Misralarda so'roqning qo'llanishi ruhiy tug'yonlar kuchining, oshiq iztiroblarining hali-hamon saqlanib qolayotganini ta'sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shoirning "Xush kelding" she'rida uchma-uch ulash va xalqaning go'zal namunasini uchratamiz. She'rning boshida ham oxirida ham shu ikki qator takrori keladi. "Muborak" so'zining birinchi qator so'nggida va ikkinchi qator boshida kelishi uchma uch ulashni tashkil etsa, "Tashrifing muborak, Muborak Navro'z" misralarining takrori esa halqani tashkil etib kelmoqda.

Tashrifing muborak,
Muborak Navro'z! [2:363]

Shoirning ushbu to'rtligida ham birinchi qator oxiridagi "mumkin" so'zi ikkinchi qator boshida ham "mumkindir" shaklida takrorlanib kelmoqda. Bu she'riyatda uchma-uch ulashni hosil qilmoqda.

Sevaman, deb har kun takrorlash mumkin,
Mumkindir mehrni aylamoq izhor.
Menga mehr qo'y, deb, sevgil, deb lekin
Tiz cho'kib yurmaydi biror esi bor. [2:392]

Shoir asarlarining ohangdorligi, ifodaning ta'sirchanligini oshirishda badiiy takrorning o'rni katta. Badiiy takror muayyan obraz yoki fikrga asosiy e'tiborni yo'naltirish, ta'kidni kuchaytirish, qarama-qarshi fikrlarni bo'rttirib ifodalash kabi qator va zifalarni bajarish uchun shoir she'rlarida maqsadli qo'llangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T.: - O'zbekiston, 2002.
2. Sa'dullayev H. Tanlangan asarlar. 1- jild. T.: - Sharq, 2002.



TO'SIQSIZLIK MUNOSABATINING FE'L MAYLLARI ORQALI IFODALANISHI

Annotatsiya. Maqolada to'siqsizlik munosabatining mayl kategoriyasi, xususan, shart mayli orqali ifodalanishi haqida fikr yuritiladi, misollar bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: to'siqsizlik, fe'l so'z turkumi, mayl, shart mayli, yondosh ma'nolar: orzu-istak, iltimos, maslahat, hayratlanish, gumon, noaniqlik ma'nolari.

Аннотация. В статье рассматривается выражение отношения уступительности через категорию склонения, в частности условного склонения, объясняется на примерах.

Ключевые слова: уступительность, глагольная категория слова, склонение, подход значения: желание, просьба, совет, удивление, подозрение, неопределенность.

Annotation. The article reflects on the representation of the barrier-free relation through the category of miles, in particular the condition mile, explained by examples.

Keywords: unobstructed, verb word category, mile, condition mile, side meanings: desire, please, advice, admiration, suspicion, ambiguity meanings.

To'siqsizlik ma'nosining o'ziga xosligi shundaki, u turli vaziyatlar orasida ifodalanayotgan shartga to'siq bo'lmagan holda kutilayotgan natijani emas, balki umuman boshqa harakat yoki holatni keltirib chiqaradi.

To'siqsizlik maydoni ifodalanishi turlicha bo'lgan til vositalarining to'siqsizlik ma'nosini ifodalashi asosida hosil bo'ladi va bu til birliklari qaysi sathga mansubligiga qarab to'siqsizlik ifodalovchi vositalar ham shaklan turlicha bo'ladi, xususan, morfologik sathda so'z turkumlari va ularni hosil qiluvchi vositalar hisobga olinadi.

Harakatning nomini bildirib, fe'l so'z turkumi paradigmasiga kiruvchi mayl kategoriyasi ko'rsatkichlari, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi, fe'lning funksional va analitik ko'rsatkichlari to'siqsizlik ma'nosi ostida bir maydonga birlashadi.

Modal ma'no bildiruvchi mayl kategoriyasi «zamon va shaxs-son kategoriyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hammasi birgalikda fe'lning tuslanish sistemasini tashkil qiladi, predikativlik ifodalanish formasi hisoblanadi». To'siqsizlik ma'nosini ifodalashiga ko'ra shart mayli qo'shimchalari mazkur maydonga kiradi.

To'siqsizlik ma'nosini ifodalashda shart maylining ahamiyati katta. Ma'lumki, «fe'lning shart mayli boshqa biror harakat, voqea-hodisaning bajarilishi uchun shart, vosita bo'ladigan istalgan, faraz, mo'ljal qilingan harakatni bildiradi». Fe'lga *-sa* shart mayli yasovchi affiks va shaxs-son qo'shimchalaridan birini qo'shish bilan shart maylidagi fe'l hosil qilinadi.

Shart maylidagi fe'l bir necha vositalar bilan qo'llanish orqali to'siqsizlik ma'nosini anglatadi. Jumladan, *ham* yuklamasi bilan; *ham* yuklamasi va *-ki* bog'lovchisi bilan; *-da* yuklamasi bilan.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida shart maylidagi fe'l shart, orzu-istak, iltimos, maslahat, hayratlanish, gumon, noaniqlik va boshqa shu kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shu



bilan birga, *ham* yordamchisi bilan qo'llanib, voqeaning yuzaga chiqishi uchun to'siq bo'la olmagan harakat-holatni bildiradi. Bunda to'siqsizlik ma'nosi asosiy (yadro) ma'no hisoblanib, shart ma'nosi qo'shimcha (periferik) ma'noni bildiradi. Shart mayli affiksi va *ham* yuklamasi bilan qo'llanuvchi fe'l ko'p hollarda to'siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida keladi:

«*Yarimtaxurmo sadaqa qilib bo'lsa ham, o'zlaringizni do'zax otashidan saqlangiz...*»,
– *deganlar Nabi* (s.a.v.) (B.Madiyurov, M.Mirzayev. «Bir oila qissasi»)

Berilgan gap mazmunidan to'siqsizlik ma'nosi anglashilib turibdi. Ya'ni o'zni do'zax otashidan saqlashga sadaqaning oz yoki ko'pligi to'siq bo'lolmaydi. Bu to'siqsizlik miqdor yordamida ko'rsatilgan. *Yarimta xurmo* birikmasi orqali ifodalanayotgan miqdor ma'nosi gapning chegara semasini tashkil etadi. Yana bir chegara sema gapdagi «maslahat» ma'nosidir. Bu gapning umumiy mazmunidan sezilib turadi. Gapda yuqorida ta'kidlangan ma'nolardan tashqari, shart mazmuni ham bor. Chunki gap mazmunidan «Do'zaxga tushmay desang, sadaqa ber» degan ma'no anglashilib turibdi. Demak, mazkur gap to'siqsizlik, miqdor, maslahat, shart kabi mazmuniy munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan.

Shart maylidagi fe'l yordamida shart ma'nosidan tashqari, harakat bajarilishining istakka zidligi ma'nosi ham ifodalanadi. Bu zidlik zamirida ba'zi hollarda to'siqsizlik munosabati ochiladi:

Doktor chaqiraylik, desam, ko'nmaydi (S.Ahmad. «Yo'qotganlarim va topganlarim»)

Berilgan gapda *-sa* shart mayli affiksi orqali to'siqsizlik munosabatini ko'rish mumkin. Ya'ni birinchi shaxsning doktor chaqirish istagiga uchinchi shaxs qarshi. Bu qarshilik to'siqsizlik munosabati yordamida amalga oshirilmoqda. Shart maylining nol formasi *-sa ham* ko'rsatkichi bilan transformatsiya qilinsa, gap mazmunidagi to'siqsizlik yaqqolroq ko'rinadi: *Doktor chaqiraylik desam ham, ko'nmaydi*.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, fe'lning shart mayli to'siqsizlikni ifodalovchi asosiy vosita hisoblanadi. Mazkur vosita yordamida hosil qilingan to'siqsizlik munosabatili birliklar yondosh ma'nolarni ham bildiradi.

A.Turg'inov,
O'TA fakulteti dekani

TILSHUNOSLIKNING MATEMATIK MODELLASHTIRILISHI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqola tilshunoslik va matematik lingvistika hamkorligi masalasiga bag'ishlangan. Unda matematik aniqliklar asosida tilning modellashirilishi, xususan, kompyuter lingvistikasining yanada rivojlantirish borasidagi fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar. Sintaktik modellashirish, so'z turkumlari va ularning simvollar, gap bo'laklarining simvollar, avtomatik tarjima, dastur algoritmi, tarjimon dasturlar.



Ma'lumki, ko'p o'rinlarda qisqalikka intilish, gapning "lo'nda"sini gapirish, aylanma yo'l o'rniga qisqa kesib o'tuvchi yo'laklar orqali manzilga yetish kabilar inson shaxsining bosh maqsadi sifatida yuzaga chiqadi. Shu ma'noda tilshunoslikning ham aniq fanlar bilan integratsion munosabati tobora mustahkamlanib bormoqda. Ayniqsa kompyuter lingvistikasining takomillashuvi bunga yanada keng imkoniyatlar yaratdi, desak xato qilmagan bo'lamiz, albatta.

Bugungi kunda kompyuterdagi avtomatik tarjima kompyuter lingvistikasining eng zamonaviy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda dunyoda keng tarqalgan jahon tillari uchun avtomatik tarjima dasturlari ishlab chiqilgan. Jumladan, ruschadan inglizchaga, inglizchadan ruschaga, ruschdan fransuzchaga yoki aksi tarzida dasturlar yaratilgan. Bunday dasturlar sirasiga SOCRAT, PROMPT, MAGIC GOODDY kabilar kiradi. Ular 2 xil ta'minotga asoslanib ishlaydi: 1) lingvistik ta'minot – bunda mavjud tillarning umumiy leksikoni kiritiladi, uning grammatikasi joylashtiriladi, bir so'z bilan aytganda, ma'lumotlar bazasi yaratiladi; 2) programmaviy ta'minot – bunda bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish algoritmi va kompyuter analizi ishlab chiqiladi (maxsus programmashtirilgan tillar yordamida).

Avtomatik tarjimada samaradorlikning yuqori bo'lishiga tabiiy tillarning ayrim jihatlari – polisemiya (ko'p ma'nolilik), omonimlik, frazeologizmlar, idiomalar, paremlar to'sqinlik qiladi. Shularni istisno qilganda hozirda avtomatik tarjima yo'nalishida yuqori samaradorlikka erishilgan. Hatto hozirda faqat avtomatik tarjima yo'nalishiga bag'ishlangan saytlar ham yaratilgan. Ular Internet tizimida ham <http://www.translate.ru> sayti ishlab turibdi. Bu avtomatik tarjimaning keng qamrovda taraqqiy etayotgan sohalaridan ekanligini ko'rsatib turibdi.

Bilamizki, fan – tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonunlarini ochib beruvchi hamda atrofdagi muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar sistemasi. Bilim olishning ikki yo'li bor.

1. Hissiy bilim. 2. Idrokiy bilim (nazariy bilim)

Sharq mutafakkirlari ham bilim olishning bu ikki turini yaxshi farqlaganlar. Fan amaliy ehtiyoj tufayli yuzaga keladi. Abu Nasr Farobiy javhar (substansiya)ning turli o'zgarishlari fandagi turli yo'nalishlar – tarmoqlar alohida fanlarga asos bolganligini ko'rsatadi. Fanning tabiati - sistemaviydir. Sistema nima? $S = R + E$. So'nggi yillarda o'zbek tilining ham sistemaviy tasniflash nuqtai nazaridan talqin iborasidagi fikrlar ancha kengayib borayotganini sezyapmiz.

Fanlar tasnifi bilan shug'ullangan olimlarning barchasi tilshunoslikka alohida e'tibor bilan qaragan. Tilning sistemaviylik xususiyati matematik modelashtirish uchun samarali xizmat qiladi. Shu sababli hozirda matematik lingvistika uchun ham ehtiyoj tobora ortmoqda. Chunki matematik lingvistika fanining asosiy maqsadi tabiiy tillarning matematik modelini ishlab chiqishdir. Matematik lingvistika hal qilishi lozim bo'lgan vazifalar umumiy lingvistikaning formal va aksiomatik nazariyalarini va tabiiy tillarning matematik modellarini yaratishdan iborat. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi esa lingvistik masalalarni yechishning kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga qaratiladi. Kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalari esa tillarga o'qitish, bilimlarni baholash, matnlarni tahrirlash va kompyuter tarjimasi uchun mo'ljallangan dasturlarni yaratishdan iboratdir. Bu bilan matematik lingvistikada tilning "sof munosabatlar sistemasi" yuzaga keladi deb sharhlash mumkin bo'ladi.



Klassik lingvistikada til inson bilan mutanosiblikda, juftlikda talqin qilinadi, ya'ni klassik lingvistika insonga yo'naltirilgan va unda shaxsning ishtiroki zaruriy bo'lsa, matematik lingvistika esa tavsiflash jarayonida shaxsning ishtirokiga o'rin qoldirmaydi, u ko'proq kompyuterga moslashtiriladi.

Til grammatikasining matematik modeli matematik mantiqning aksiomatik nazariyasiga asoslanadi. Shuning uchun matematik lingvistika matematik mantiq asoslarini bayon qilishdan boshlanadi. Ingliz tili grammatikasining asosiy tushunchalarini aniqlashtirishda til grammatikasining batafsil bayonini uning asosiy bo'limlari, ya'ni morfologiya va sintaksisi asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Morfologiya grammatikaning so'z tuzilishi va uning grammatik ma'nolari ifodalanishini o'rgatuvchi bo'limdir. Sintaksis grammatikaning gap tuzilishi va gapda so'zlarning birikuvini o'rganuvchi bo'limidir.

So'zturkumlari. Bilamizki, gap bo'laklari so'z turkumlaridan tashkil topadi. So'z turkumlariga ot, sifat, son, fe'l, ravish, olmosh va yordamchi so'zlar (artikl, old ko'makchi, bog'lovchilar) kiradi.

I. Ot predmetning (u keng ma'noda tushuniladi, ya'ni u jonli va jonsiz narsalarni bildiradi) nomini bildiradi. U kim, nima so'roqlariga javob bo'ladi. Ot uchun **N** simvolidan foydalaniladi.

II. Sifat qanday so'rog'iga javob bo'lib, predmetning belgisini bildiradi. Sifat uchun **Adj** simvolidan foydalaniladi.

III. Son qancha, nechanchi so'roqlariga javob bo'lib, predmetning miqdori va tartibini bildiradi. Son uchun **Num** simvolidan foydalaniladi.

IV. Fe'l predmetning harakati yoki holatini bildirib nima qilgan, nima qilyapti, nima qilmoqchi so'roqlariga javob beruvchi so'zturkumidir. Fe'l uchun **V** simvolidan foydalaniladi.

V. Ravish ifodalayotgan harakat yoki holatning belgisi yoki turlicha vaziyatlarni bildiradi. Ravish asosan fe'lga, yana sifat yoki ravishga ham bog'lanib qay tarzda, qayerda, qachon va h.k. so'roqlarga javob beradi. Ravish uchun **Adv** simvolidan foydalaniladi.

VI. Olmosh gapda ot, sifat yoki ravish o'rnida qo'llanuvchi so'z turkumidir. Olmosh uchun **Pron** simvolidan foydalaniladi.

VII. Artikl yordamchi so'z bo'lib, otning maxsus belgilovchisi hisoblanadi. Artikl dunyoning barchatilarida uchramaydi, u **Art** simvolidan foydalaniladi.

VIII. Predlog (old ko'makchi) yordamchi so'z bo'lib, otning gapdagi boshqa so'zlarga nisbatan bo'lgan munosabatini (ya'ni makon, vaqt va sabab kabi munosabatlarni) ifodalaydi. Predlog uchun **Prep** simvolidan foydalaniladi.

IX. Bog'lovchi yordamchi so'z bo'lib, gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. Bog'lovchi uchun **Conj** simvolidan foydalaniladi.

Gap bo'laklari. Ixtiyoriy tildagi yozma matn yoki shaxsning nutqi gap deb ataluvchi alohida bloklardan iborat bo'ladi. Ular sodda va qo'shma (ya'ni sodda gaplardan tashkil topgan) gaplarga bo'linadi. Har qanday tilning grammatikasini o'rganish sodda gaplar bilan tadqiq etishdan boshlanadi. Ingliz tilidagi sodda gaplar tarkibida ega, kesim kabi gapning bosh bo'laklari, to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabi gapning ikkinchi darajali bo'laklari mavjud bo'lishi mumkin.

I. Ega - gapning bosh bo'lagi bo'lib, boshqa bo'laklarga Grammatik tobe bo'lmaydi, u predmet yoki shaxsni bildiradi. Egakim, nima so'roqlariga javob beradi. Ega uchun **S** simvolidan foydalaniladi.



II. Kesim - gapning bosh bo'lagi bo'lib, u egaga tobe holda ega ifodalagan predmetning belgisini (harakat, holati, xususiyati, sifati kabilarni) anglatadi. Kesim nima qilyapti, nima qilinmoqchi, nimadan tashkil topgan kabi so'roqlarga javob beradi. Kesim uchun **P** (ba'zan **V**) simvolidan foydalaniladi.

III. To'ldiruvchi deb predmetni bildiruvchi va ma'no jihatidan kesimni to'ldiruvchi gap bo'lagiga aytiladi. To'g'ri vositasiz (ob'ektsiz) to'ldiruvchi kimni, nimani so'roqlariga, vositali to'ldiruvchi esa kimga, kim haqida va boshqa so'roqlarga javob beradi. To'ldiruvchi uchun **O** simvolidan foydalaniladi.

IV. Aniqllovchi otning belgilarini tushuntiruvchi, izohlovchi gap bo'lagidir. Aniqllovchi predmetning belgisini bildirgan holda qanday, kimning, nechanchi, qancha kabi so'roqlarga javob beradi. Aniqllovchi matematik lingvistikada gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi, chunki u gapda boshqa bo'laklarga tobelanib keladi, u gap uchun nozaruriy (fakultativ, obligator emas) bo'lak hisoblanadi.

V. Hol kesimda ifodalanayotgan harakat yoki holatning o'rni, payti, maqsadi, sababi va bajarilish sharti kabilarni bildiruvchi gap bo'lagidir. U qanday, qay tarzda, qaerda, qachon, nima sababdan, nima uchun kabi so'roqlarning biriga javob beradi. Hol uchun **M** simvolidan foydalaniladi.

Albatta bu kabi lingvistik xususiyatlarni matematik ixchamlashtirish bir tomondan tildagi iqtisod qonunini amalga oshirishda va ikkinchi tomondan bu orqali o'zaro bir tilda so'zlashish imkoniga ega bo'lmaganlar uchun ham bir-birini tushuna olish, fikr almashishda nutqiy aloqa sharoitini yaratadi. Buning uchun aniq fanlar, xususan matematikadagi matematik mantiq lingvistik xususiyatlarni yanada yorqinroq ochib berilishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

Maxmudova Nilufar, Qo'qon DPI o'qituvchisi (PhD)
Niyozxo'jayeva Mayramxon, talaba

O'ZBEK TILIDAGI CHIQISH KELISHIGINING INGLIZ TILIDAGI MUQOBILLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi kelishik qo'shimchalari va predloglar qisosiy tahlil qilingan va misollar yordamida lisoniy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: kelishik qo'shimchalari, predloglar, grammatik shakl, so'z turkumlari, tub so'zlar.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ спряжений и предлогов в узбекском и английском языках и с помощью примеров выделяются их языковые особенности.

Ключевые слова: наречия, предлоги, грамматическая форма, словосочетания, корневые слова.

Annotation: In this article, the conjugations and prepositions in the Uzbek and English languages are comparatively analyzed and their linguistic features are highlighted with the help of examples.

Key words: adverbs, prepositions, grammatical form, word groups, words.

Hozirgi kunda yurtimizda yoshlar ta'lim tizimiga juda katta e'tibor berilmoqda. Xususan, chet tillaridan ingliz tilini o'rganish o'tgan yillarga nisbatan sezilarli darajada



oshganligini guvohi bo'lamiz. Ingliz tillini o'rganish yoshlarga keng imkoniyatlarni ochmoqda.

Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida ko'plab islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu maqolada ana shu ikki tildagi kelishiklar qiyosiy tahlilga tortilgan. O'zbek tilida 6 ta kelishik mavjuddir, avvalo, kelishik so'ziga ta'rif bersak, kelishik — ot yoki otlashgan so'zning boshqa so'zlar bilan aloqasini ko'rsatuvchi grammatik shakl. U ot shakli ekanligi holda, birikma yoki gap tarkibida uning boshqa so'zga tobelanishini ko'rsatadi. Bu sintaktik munosabat kelishik shaklining o'zi bilan, ko'makchi yoki ko'makchi vazifasidagi so'z bilan birga ifoda topishi ham mumkin. Kelishiklar:

- 1) bosh kelishik - bu kelishikni qo'shimchasi yo'q.
- 2) qaratqich kelishigi bu kelishikning qo'shimchasi -ning.
- 3) tushum kelishigi bu kelishikning qo'shimchasi -ni.
- 4) o'rin-payt kelishigidir uning qo'shimchasi - da.
- 5) jo'nalish kelishigi uning qo'shimchasi -ga (-ka;-qa).
- 6) chiqish kelishigi bo'lib uning qo'shimchasi -dan hisoblanadi.

Kelishiklar haqida yana ma'lumot keltiradigan bo'lsak, hozirgi o'zbek adabiy tilining grammatik qurilishida otning jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklaridagi shakllari Toshkent-Farg'ona shevalariga asoslanadi: "-ga" (jo'nalish kelishigi.), "-da" (o'rin-payt kelishigi) va «-dan» (chiqish kelishigi) kabi. Boshqa shevalarda otning bu kelishiklaridagi shakllari quyidagicha bo'ladi: Samarqand shevasida "-ga" formanti jo'nalish va o'rin-payt kelishiklari ma'nosini ifodalaydi: Buxoroga ketopti ("Buxoroga" — otning jo'nalish kelishigidagi shakli), Buxoroga o'qopti ("Buxoroga" — otning o'rin-payt kelishigidagi shakli) kabi. O'g'uz lahjasi shevalarida "-ga" o'rnida "-g'a" (qurvaqag'a), "-ye" (tangaye), "-ne" (erkine), "-na" (yapina), "-e" (uyime) formantlari ishlatiladi. Bunday har xillik tushum va qaratqich kelishiklarida ham mavjud: "-ni", "-nbi", "-ning", "-nbing" (qipchoq lahjasi shevalarida), "-ning", "-ing", "-nbing", "-bing" (Iqon, Qorabuloq, Hazorasp shevalarida), "-ni", "-ti", "-pi", "-yi", "-mi" Toshkent shevasida) kabi. Bunday ko'p variantlilik adabiy tilga ko'chirilmagan. Shuni ham aytish kerakki, ko'pchilik shevalarda tushum va qaratqich kelishiklari deyarli farqlanmaydi. Shuning uchun ham kelishiklar soni Toshkent, Farg'ona, Xiva-Urganch shevalarida - 5 ta, Qarshi shevasida 4 tadir. Qipchoq lahjasining j-lovchi shevalarida, qarluq—chigil—uyg'ur lahjasining Iqon—Qorabuloq dialektida esa ularning soni 6 taga yetadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining 6 kelishikli tizimga asoslanishida ana shu lahjalarning morfologik xususiyati hisobga olingan. Biz to'xtalmoqchi bo'lgan kelishik bu chiqish kelishigidir. O'zbek tilida so'zlarga -dan qo'shimchasi qo'shilsa chiqish kelishida bo'ladi, albatta, tarkibida -dan qo'shimchasiga o'xshash qismi mavjud bo'lgan tub so'zlar bundan mustasno masalan: to'satdan, qasddan so'ziga o'xshash so'zlar -dan qismi ajratilmaydi, tub so'z



sifatida olinadi. Endi ingliz tilidagi chiqish kelishigining qo'shimchasi - dan qanday ifodalanishiga e'tibor qaratsak, ingliz tilida -dan qo'shimchasi bir qancha usulda namoyon bo'ladi.

Bulardan birinchisi **off** predlogi bo'lib (...dan) biror jism yoki narsani biror bir predmet ustidan, yuza qismidan olinishlikni ifodalaydi. Ex: 1. He has taken the key from the table. 2. Took the key off the table. Masalan: 1 U stoldan, stol ustidan kitobni oldi. 2. Stolda kalitni oldi. Ikkala misollarda ham yuqoridagi so'zlarimizni dalilini ko'rishimiz mumkin. Off ning ikkinchi ma'nosi (...dan) biror predmet yoki narsani biror bir bo'lagini, tarkibidagi qismini ajratib olish. Ex: 1. I cut a sheet of paper off his notebook. 2. I memorized a stanza off the Navoi's ghazal. Masalan: 1. Uning daftaridan bir varaq qog'oz qirqib oldim. 2. Navoiy g'azalidan bir bayt yod oldim. (Teacher: Parmonov Alisher Abdupattayevich, Kokand State Pedagogical Institute). Bundan tashqari off uzilish munosabati ifodalaydi yanayam aniqroq aytganda biron narsaning uzilishi ajralishini munosabatini ifodalaydi. Masalan: I fell off the ladder. 2. I fell off the tree. Tarjimasi: 1. Men zinapoyadan yiqildim. 2. Men daraxtdan yiqildim. Bu misolda ham uzilish munosabatini ko'ramiz, sodda qilib aytganda zinapoyadan yuqoriga ko'tarilgandami yo pastga harakatlangandami oyoq ma'lum bir zinadan uziladi bu vaqtda muvozanatni yo'qotish orqali yiqilish hodisasi paydo bo'ladi. Ikkinchi misolimizda ham xuddi shunday holat kuzatiladi. Uchchala holatda ham off predlogi -dan qo'shimchasini ifoda etayotganini ko'rmoqdamiz.

Ikkinchi usul **from** predlogi orqali ifodalanadi. From - bir joydan ikkinchi joyga bo'lgan yo'nalish orqali yuzaga keladi. Ex: I am from Uzbekistan. Tarjimasi men O'zbekistondanman. Men" shu yerdan bo'laman", "shu yerdan", "shu tomondan" degan ma'no mazmunda yo'nalishni ifodalamoqda.

Uchinchi usul **made from** orqali ifoda etiladi. Made from - (...dan qilinmoq) biror bir mahsulot yoki narsa butunlay boshqa narsaga aylansa. Ex: 1. Cheese is made from milk. 2. Alcohol is made from wheat. Masalan : 1. Pishloq sutdan tayyorlanadi. 2. Spirt bug'doydan tayyorlanadi. Bu misollarga e'tibor qaratamiz: Bunda bilamizki sutdan ko'p narsalar olinadi shular qatorida pishloq ham bor, sutga ishlov berilishi orqali u boshqa bir mahsulotga aylanadi. Sut pishloq tarkibida qolmaydi yo'qolib ketadi. Keyingi misolda ham shunday bug'doyga ishlov berilishi orqali u ham boshqa bir mahsulotga aylanadi. Aynan shu narsa nazarda tutilgan bu misollarda.

To'rtinchi usul **out of** - ichkaridan tashqariga bo'lgan yo'nalishni ifodalaydi Ex: out of left the room. 2. Took out of pocket. Masalan : 1. Xonadan chiqib ketdi. 2. Cho'ntagidan oldi. Misollar out of orqali hosil qilinadi. Bu usul ko'proq chiqish kelishigiga mos keladi desak adashmaymiz. Chunki misollardan birinchisi olsak xonadan chiqishni umumiy mazmun chiqishga alohida e'tibor berilyapti.

Beshinchi usul **made of** orqali ifodalanadi. Made of - (... dan qilinmoq) tarkibida material yoki narsa saqlanib qoladi. Ex: This table was made of wood. 2. This fabric is made of pure silk. Masalan : 1. Bu stol yog'ochdan qilingan. 2. Bu mato toza ipakdan qilingan. Birinchi misolda yog'ochligicha qolyapti. Ikkinchi misolda ham ipakligicha qolmoqda. Yuqoridagi made from singari o'zgarmayapti agar yog'ochdan qog'oz bo'lganda edi made ofni o'rniga made from qo'llagan bo'lardik.



Oltinchi usul **via** predlogi orqali ifodalanadi. Via (...dan, orqali) yoʻnalishga nisbatan ishlatiladi. Ex: 1. He flew to America via Russia. 2. I sent a letter via post office : Masalan: 1. U Amerikaga Rossiyadan uchdi. Yaʼni Rossiya orqali uchdi. 2. Men pochtdan xat yubordim. Yaʼni pochta orqali xat yubordim degan mazmunda.

Yettinch usul **pick up** orqali ifodalanadi. Pick up - (...dan, yerdan olmoq) pastdan yuqoriga olinishlikni ifodalaydi. Ex: He picked up a stone. 2. We picked up the fallen fruits the garden. Masalan: 1. U qoʻliga tosh oldi. 2. Bogʻdan toʻkilgan mevalarni yigʻib oldik. Birinchi misolda bu yerda chiqish kelishigi koʻrmaymizku deyishingiz mumkin, lekin pick up ni tarjimasi -dan yerdan olmoq deyilgan toshni qayerdan oladi albatta yerdan bu tarjimada koʻrsatilmasada undan anglashilib turadi. Ikkinchi misolda esa bu aniq koʻrinadi. Toʻkilgan mevalar deyilyapti demak, bogʻdan yerga toʻkilgan mevalarni yigʻib oldik. Qayerdan yigʻib oldik? yerdan, mevali daraxtlarning mevasi toʻkilgan joydan.

Sakkizinchi usul **down** predlogi orqali anglashiladi. Down - (...dan, pastga) yuqoridan pastga yoʻnalishni ifodalaydi. Ex: She went down the stairs. 2. he descended down the basement through the ventilation. Masalan : 1. U pastga zinadan tushdi. 2. Ventilyatsiya shaxtasi orqali yertoʻladan pastga tushdi. Yuqoridagilarning barchasi chiqish kelishigini ifoda etadi, lekin qanday munosabatda ekanligiga, qay vaziyatni ifodalashiga koʻra farqlanadi. Bu vaziyat menga qiziq tuyuldi kuzatgan boʻlsangiz chiqish kelishigini 8 xil usulda hosil qilinganini koʻrib chiqdik. Bu narsalar chet tilini yanada chuqurroq oʻrganishimga boʻlgan qiziqishni orttirdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov. H. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2005-yil.
2. Oʻzbekistonmilliy ensiklopediyasi. 1-jild. Toshkent. 2000-yil.
3. Sayfullayeva. R. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Toshkent. 2009-yil.
4. Simon. C. Macmilian english grammar. Thailand. 2008-year.
5. A study in Early Mohammedan. Architecture – Oxford. Clarendon Press. 1972-year.
6. An anthology of English and American verse. Progress publishers. Moscow 1972-year.





*Nilufar Mahmudova (PhD),
Qo'qon davlat pedagogika instituti
Malikaxon Meliqo'ziyeva talaba,
Qo'qon davlat pedagogika instituti*

O'ZBEK TILIDAGI RADIOALOQA TERMINLARI XUSUSIDA

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi telekommunikatsiya terminlari yasash xususiyatlari radioaloqa terminlari misolida ochib berilgan. Termin yasash modellari va ularning derivatsion xususiyatlari yoritilgan.

Аннотация: В данной статье на примере терминов радиосвязи раскрываются особенности образования терминов телекоммуникаций в узбекском языке. Освещены модели терминообразования и их словообразовательные особенности.

Abstract: In this article, the features of the formation of telecommunication terms in the Uzbek language are revealed on the example of radio communication terms. Models of term formation and their derivational features are covered.

Kalit so'zlar: termin, terminologiya, derivatsiya, model, qo'shimchalar, radioaloqa terminlari.

Ключевые слова: термин, терминология, словообразование, модель, дополнения, термины радиосвязи.

Keywords: term, terminology, derivation, model, additions, radio communication terms.

O'zbek tilshunosligida so'z yasash masalasi chuqur tadqiq qilingan. Bu borada tilshunos olimlarimizning tadqiqotlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu kabi hozirgi tilshunosligimizda ma'lum sohaga doir terminlarning derivatsion xususiyati ham ko'plab tilshunos olimlar tomonidan o'rganilib kelinmoqda.

O'zbek tiida so'z yasashining vositalari har xil bo'lib, uning turlari shunday ko'rinishga ega: 1) fonetik usul; 2) semantik usul; 3) affiksatsiya (morfologik) usuli; 4) kompozitsiya (sintaktik) usuli. [6,29]

So'z yasashining vositalariniki kabi terminlar yasashida ham eng faol usullar: morfologik, semantik, sintaktik usulladir. Ushbu usullar orqali soha terminlarning miqdori tobora kengayib bormoqda. Bundan tashqari terminlarning yasashida kalkalash usuli ham o'z orniga egadir. Yuqoridagi usullarning eng faoli affiksatsiya usulidir.

Affiksali termin yasashi umumadabiy so'zlarning hosil qilinishi singari juda qadimdan yetakchi va sarmahsul usul hisoblanadi. O'z vaqtida Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Ibn Muhanna lug'atlarida, XIII-XIV asrlarda turkiy til grammatikasiga doir arab tilida yaratilgan risolalarda, Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'zbek (turkiy) tili so'z yasashi vositalari va yo'llari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan edi [1, 62].

Darhaqiqat, terminlar yasashining eng faol usuli affiksatsiya usuli nafaqat bugungi kunda, balki o'tgan asrlarda ham e'tirof etilgan ekan. Ushbu usul orqali turli so'z turkumlariga doir terminlar yaratilmoqda. O'zlashma terminlarni ham affiksalar orqali sof o'zbek terminlar sistemasiga qo'shilishiga sabab bo'lmoqda.



O'zbek tili terminologiyasidagi terminlarning aksari sifat, ravish, ot hamda fe'l turkumlariga oid so'zlar hisoblanadi. Ushbu turkumlarga oid terminlarni har sohada bo'lgani kabi radioaloqa sohasida ham ko'plab uchratish mumkin. Ushbu soha terminlar sistemasining shakllanishida yuqoridagi so'z turkumlariga oid atamalar asosiy o'rinda turadi. Ushbu turkumlarga xos terminlarning har biri miqdor jihatidan terminlogiya sohasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Ot turkumiga oid terminlar har qanday sohaning ham asosiy leksik zahirasini tashkil etadi. Radioaloqa sohasida ham ushbu so'z turkumiga oid terminlar boshqa turkumdagi terminlarga nisbatan keng ko'lamni egallaydi. Ot so'z turkumining yasalishiga asos bo'ladigan affiksalar sohaga doir yangidan yangi terminlarni yasalishiga asos bo'lib kelmoqda. Sifat so'z turkumi ham xuddi shunday. Radioaloqa sohasidagi terminlarning ko'pgina qismi aynan shu turkumga oiddir, fe'l so'z turkumi ham shular jumlasidandir.

Biz ushbu maqolada radioaloqa sohasidagi terminlarning morfologik usulda yasalishiga xizmat qiladigan ot, sifat hamda fe'l so'z turkumlarini yasovchi eng faol affiksalar haqida ma'lumot beramiz va fikrimizni ushbu sohaga doir terminlar orqali asoslaymiz.

Ot so'z turkumiga oid radioaloqa terminlarini yasashda semahsul hisoblangan affiksalar quyidagicha:

-lik so'z yasovchi model:

O'zbek tilida ot so'z turkumiga doir leksemalarni yasashda juda faol ushbu affiks radioaloqa sohasining terminlar sistemasining boyib borishiga ham o'z hissasini qo'shib bormoqda.

Uning ishtirokida quyidaagi soha terminlari yaratiladi:

Belgi-xususiyat, sifat yoxud holatni ifodalaydigan terminlar: jadallik, intensivlik, aniqlik, aktivlik, stasionarlik, asllik, yorug'lik va shu kabi terminlar;

-lik affiksi yasama so'zlar bilan ham birikib, radioaloqa sohasiga oid o'zbekcha terminlarni voqelantradi:

-chan+lik modeli asosida: o'tkazuvchanlik, ta'sirchanlik, yutiluvchanlik, egiluvchanlik, o'zgaruvchanlik kabi.

Ushbu affiks fe'l so'z turkumining sifatdash shakli **-gan** dan keyin qo'shilgan holda ham termin yasash holatlari ko'p uchraydi:

yo'nalganlik, kuchlanganlik, ko'tarilganlik va shu kabi terminlar.

-gir+lik. Ushbu model kammahsul hisoblanadi bunga misol tariqasida: sezgirlik terminini misol qilish mumkin.

Radioaloqa sohasi terminlar tizimida **-gich/-kich/-qich** affiksisi sermahsul hisoblanib, uning ishtirokida juda ko'p terminlar hosil qilinmoqda. Ushbu affiks yordamida quyidagi ma'nodagi soha terminlari yasalmoqda:

1. **Ish-harakatni bajaruvchi qurol-aslaha:** tarmoqlagich, o'lchagich, qisqich, optik bo'lgich, radiomasofao'lchagich va shunga o'xshash qator terminlar.
2. **Ish-harakat subyekti:** nuro'tkazgich, nurlagich, to'lqino'tkazgich kabi.

Sifat turkumining derivatsiyasida **-li** affiksisi faol ishtirok etishi hammamizga ma'lum. Aynan shu affisk orqali radioaloqa sohasining terminlar tizimida yangi terminlar yasalmoqda va soha terminlari boyib bormoqda. Ushbu model sof o'zbekcha so'z



yasaydigan model hisoblanib, o'zi qo'shilgan leksema bilan birga quyidagi ma'nolarni aks ettiruvchi terminlarni yuzaga keltiradi:

Boshlang'ich asosda ifodalangan egalik, mavjudlik, borlikni ifodalaydi: manzilli, sotali, dispersiyali, razyadli, ionosferali, qutbli kabi.

Dastlabki asosning predmetlik nomini bildiradi: zararli, nurli, xalaqitli, sig'imli, to'lqinli kabi.

-sizaffiksli model so'z yasashida ancha faol, lekin radioaloqa soha derivatsiyasida biroz kamunum hisoblanadi. Ushbu affiks yasash asosi bilan bog'liq bo'lgan holda belgi-xususiyat hamda holat kabi turli ma'nolarni akslantiruvchi terminlar yasashiga xizmat qiladi: dispersiyasiz (optik tola), uzluksiz (antenna), tartibsiz (signal), tortqichsiz (machta), tartibsiz, ishonchsiz (qabul) va shu kabi.

-i, -viy affiksli termin yasovchi model ko'pincha mavhum otlarga qo'shilib, soha terminlarining yasashiga asos bo'ladi. Ushbu affiks so'zlarga qo'shilib, shu narsaga aloqadorlik, xoslanganlik ma'nolarini bildiruvchi so'z (termin)larni yasaydi. Radioaloqa sohasida esa ushbu affiks ko'pincha o'zlashma terminlarga qo'shilib, yangi termin yasashga xizmat qiladi: tasodifiy, kvazitasodifiy, strukturaviy, amplitudaviy, chastotaviy, fazaviy, davriy va shu kabi terminlar.

-simon affiksli termin yasovchi model turli leksemalarga qo'shilib, yasash asosidagi anglashilgan narsa yoki predmetga o'xshashlik semasidagi terminlar yasashga xizmat qiladi. Radioaloqa terminlarining yasashida ham faol qo'llaniladi: tasodifiysimon, shovqinsimon, tamakisimon, kapalaksimon, naysimon, halqasimon, silindirsimon, pichoqsimon, piramidasimon, kvazipiramidasimon, yaproqsimon kabi.

-aro affiksli termin yasovchi model terminlar yasashida faol ishtirok etadi. Radioaloqa terminlarining derivatsiyasida nafaoldir. Shunday bo'lsa-da, soha terminlarining yana-da boyishida hissador affiks sanaladi. Bunga misollar quyidagicha: nurlararo, modalararo, simvollararo.

-lan termin yasovchi model fe'l terminlarining yasashida sermahsuldir. U dastlabki asosdan anglashilgan narsa buyumga egalik qilish, natija jarayon kabi ma'nolarni ifodalaydigan terminlar yasaydi: sintezlan, soyalan, nurlan, kuchlan, qutblan, magnitlan, elektrlan, tarmoqlan, diafragmalan, yuklan kabi terminlar shular jumlasidandir.

-lash termin yasovchi model fe'l terminlarining yasashidagi faol ishtirok etadi. Radioaloqa sohasining terminlar sistemasida ham ushbu affiks orqali yasalgan terminlar miqdori keng ko'lamda. Boshlang'ich asosdan anglashilgan xususiyat, xossa, fazilat, shakl, holat, vaziyatga egalik qiluvchi jarayon, yoxud pirovard natija yoki dastlabki asosdan anglashilgan narsaga aylanish, o'tish jarayonini ifodalaydi. [7, 84]

Bu affiks ham aksari hollarda chet tilidan o'zlashgan terminlarga birikib, yangi o'zbekcha soha terminlarini yasaydi: ekranlash, zichlash, masshtablash, modellash, rezonanslash, to'g'rilash va shu kabi terminlar.

Terminlarning derivatsion xususiyatlari juda keng ko'lamdagi izlanishlarni talab qiladi. Har bir yasovchi affikslarning o'zi alohida mavzuga muqoyasa qilinishga arziydi.

Tilshunoslikning bugungi kundagi talablaridan biri zamonaviy aloqa tizimlarini keng ko'lamda isloh qilinishidir. Ushbu aloqa tizimlarining ko'zga ko'ringan sohalaridan biri radioaloqa tizimidir. Chunki bu soha orqali kishilar yaqinlarga ishonchli ma'lumotlar uzatish va ulardan qabul qilish, qulay axborot almashinuvi imkoniyatiga



egadirlar. Qolaversa, ushbu soha aloqa masalasida barcha uchun tez va samarali yechim bo'lib xizmat qilmoqda. Insonlar qadami bosib o'tishi mushkul bo'lgan, tarqoq aholi yashaydigan hududlarni ham jamiyatga aloqa yo'sinida bog'laydigan asosiy vositalardan biridir. Shu sababdan ushbu soha rivojlanishdan to'xtab qolmaydi. Har qancha rivojlanib borsa, ushbu sohaning terminlar sistemasi, hamda o'zbek tilimizning boyligi ham kengayib boraveradi. Ushbu sohaning lisoniy qirralarini o'rganish esa til sohasida faoliyat olib boradigan barcha tilshunoslar uchun muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Madvaliyev A. O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. –Toshkent, 2017.
- 2.Aripov A.N., I.M. Aripov. Raqamli radiorele uzatish tizimlari. – Toshkent, 2015.
- 3.Radioto'lqinlarning tarqalishi va antenna-fider qurilmalariga oid atamalarning ruscha -o'zbekcha izohli lug'ati. —Toshkent, 2016.
- 4.Radioreleli tizimlarga oid atamalarning ruscha-o 'zbekcha izohli lug'ati. — Toshkent -2013.
- 5.Kadirkbekova D.X. Ingliz va o 'zbek tillarida axborot texnologiyalari terminologiyasining lingvistik xususiyatlari. —Toshkent-2016.
- 6.Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. —Toshkent, 2019.
- 7.Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. —Toshkent, 2010.

*Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti*

LINGVOPOETIKA TUSHUNCHASI VA UNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqola filologiyaning yangi sohasi sifatida lingvopoetikaning shakllanishi va rivojlanishiga hamda uning metodologiyasiga bag'ishlangan. Tadqiqotning maqsadi lingvopoetika mustaqil filologik fanmi yoki u lingvostilistika va adabiy tanqidning oddiy birikmasi ekanligini aniqlashga urinishlarni kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar. Lingvopoetika, filologiya, tilshunoslik, sistem-struktur, fonetik, leksek.

Аннотация. Данная статья посвящена становлению и развитию лингвопоэтики как новой области филологии и ее методологии. Цель исследования - проследить попытки определить, является ли лингвопоэтика самостоятельной филологической наукой или представляет собой простое сочетание лингвистики и литературоведения.

Ключевые слова. лингвопоэтика, филология, языкознание, системоведение, фонетика, лексика.

Annotation. This article is devoted to the formation and development of linguopoetics as a new field of philology and its methodology. The aim of the study is to trace the attempts to determine whether linguopoetics is an independent philological science or whether it is a simple combination of linguostylistics and literary criticism.



Keywords. Lingvopoetics, philology, linguistics, system-structure, phonetics, lexicon.

Linvopoetika terminining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "lingvistika" va "poetika" so'zlari birlashmasidan xosil bo'lgan bo'lib, tilshunoslikning rivojlanayotgan sohalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Linvopoetika tarixi Arastu davrlariga borib tarqaladi, u o'zining mashhur "Poetika" asarida poetik san'atlar xususan she'riy janrlar haqida batafsil ma'lumot berib o'tadi. Bu asarda shuningdek turli she'r janrlari haqida ma'lumot berishdan tashqari unda poeziya san'ati haqida fikr yuritiladi. Bu sohani yana ham chuqur anglash uchun Arastuning "Til va fikr" bobida esa nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligi ta'kidlanib, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog'liqligi va she'riyatga ajoyib bir ruh olib kira olishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Garchi, ritorika qadimda she'riyatning eng muhim sohaları sifatida o'rganilishiga qaramasdan, u hozirda ham o'z ahamiyatini aslo yo'qotgan emas, shunday bo'lishiga qaramasdan ritorikani aynan poetikasiz taassavur qilish juda ham mushkul hisoblanadi.

Chunki ular ikkalasi juda ham bir biriga jipslashgan va ajratib bo'lmas tushunchalardir. Bundan tashqari, har bir til hodisasi nutqiy vaziyatga o'tar ekan, insonning tasavvuri, ruhiyati, hissiyotlari bu nutqiy bog'lanishga o'zaro aloqador holda ko'chadi. XX asr tilshunosligida badiiy asar tili tadqiqiga alohida e'tibor berilgani sababli, ritorika va poetika tushunchalarini bir biri bilan o'zaro bog'langan holda badiiy asardagi voqelik tasvirini har tomonlama, chuqur va yaxlit holda tadqiq etishni o'zida aks ettiruvchi «lingvopoetika» atamasi paydo bo'ldi.

Hozirgi kundagi tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri o'zbek lingvopoetikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, eng asosiysi esa ularni yaxlit bir ramkaga solib chiqishdan iboratdir. Shular asosida lingvopoetikani tahlil qilar ekanmiz, undagi har bir bosqichni birma bir tahlil qilishga harakat qilamiz.

Poetik fonetika. Bunda badiiylikni ta'minlovchi unsurlar sifatida tovushlar tadqiq etiladi. Ya'ni she'riyatda biror janr yoki uslub haqida fikr bildirganimizda aynan shu uslublarni yaratishda ma'lum tovushlarni badiiy ohangga mos ravishda takrorlanishi biror she'riy janrning yaratilishiga sabab bo'ladi, uning ohangdor ravishda qaytarilishi insonga alohida bir xissiyot beradi.

Poetik leksikologiya. Bu yo'nalishning tadqiqot ko'lami nihoyatda keng bo'lib, o'zbek tilshunosligida ham ko'pgina ilmiy ishlar qilingan. Masalan, biror asar tilida sinonim, omonim iboralar va paronim va chegaralangan leksika (dialektizmlar, istorizmlar, arxaizmlar...), o'z va o'zlashgan so'zlar qatlamining ishtiroki shuningdek matnda ko'chim turlarining tasnifi va so'zdan unumli ravishda foydalanish kabi xususiyatlar va shu kabi masalalar bir qancha asarlar tili yuzasidan tahlil etilgan.

Poetik morfemika. Bu nafaqat morfemika, balki morfologiya va so'z yasalishi bo'yicha tahlillarni ham o'z ichiga olgan nihoyatda keng yo'nalish bo'lib, qiziqarli tadqiqotlarga sabab bo'ladi. Masalan, asar matnida o'ziga xos tarzda qo'llangan har bir affiksning tahlili ham tarixiy, ham tavsifiy, ham qiyosiy jihatdan olib boriladi.

Poetik semantika. Bu soha tilshunoslikning eng izchil sohalaridan biri bo'lib, so'zda ifoda etilgan ma'nolarning va ularning turlarini ifoda etadigan sohalardan biridir, ayniqsa, so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishi tadqiqida ham til boyligi, ham uslubning o'ziga xosligini ko'rsatib beruvchi vositalarga diqqat qaratiladi. Poetik sintaksis. Bu



yo'nalishda matnning gap qurilishi tadqiq etiladi. Unda lingvopoetik tahlil formal sintaksis, mazmuniy sintaksis, kommunikativ sintaksis va matn sintaksisi bilan bog'liq holda olib boriladi. Poetik nutqni tahlil etish usuli 2 xil: she'riy va nasriy matn asosida amalga oshiriladi. Chunki bunda she'riy nutqni shakllantiruvchi unsurlarga boyligi, she'riyatda turli nozik san'atlarning ishlatilishi insonga turlicha zavq va shavq beradi, matnda gap bo'laklari tartibiga alohida e'tibor beradi, lafziy va ma'naviy san'atlarning qo'llanishiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Nasriy nutqda ham gaplar va gap bo'laklari tartibi, shakli va mazmuniy mutanosiblik kabilarga e'tibor berish kerak. Bunda tahlil gapning formal-grammatik bo'linishi, aktual bo'linishi, mantiqiy urg'u, presuppozitsiya kabi hodisalar bilan bog'liq bo'ladi. Umuman, bu yo'nalish struktural poetika tushunchalari bilan aloqador. O'zbek tilshunosligida lingvopoetikaga asos solinishida va o'zbek tilshunosligida gullab yashnashida va rivojlanishida, o'zbek tilshunos olimlarining X.Doniyorov, S.Mirzaev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, B.Umurqulov, I.Mirzayev, M.Yo'ldoshev kabilarning xizmatlari katta bo'ldi. Ular badiiy asar tilining stilistik xususiyatlari, badiiy -estetik jihatlarini yozuvchining so'z tanlashi va so'zning qay tarzda ishlatilishi hamda uslublarining o'ziga xos tili, umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, yangi so'z va iboralar yaratishi kabi omillar nuqtai nazaridan tekshirdilar. Darhaqiqat, biror badiiy asarni lingvopoetik tahlil qilishning bir qator tamoyillari mavjud. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida to'liq tadqiq etgan M.Yo'ldoshev lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy xususiyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Shakl va mazmun birligi asosidagi yondashuv: Bu kabi yondashuvda shakl va mazmun izchil bir birini to'ldirib turishi lozim.

2. Makon va zamon birligidan kelib chiqish: ya'ni matnda berilgan makon va zamon doimo bir xil vaqt va muddatda bo'lishi lozim.

3. Umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash: standart til doiralaridan chiqmagan holatda tilga umumiy baho berish.

4. Badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv; matnda ishlatilgan unsurlardan badiiy-estetik birlik hosil qila olish.

5. Badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash.

6. Badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash.

7. Badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash.

Izlanuvchi - lingvopoetik tahlilda badiiy matnda poetik aktuallashgan til vositalarini aniqlash muhim tamoyillardan ekanligini alohida ta'kidlaydi, chunki bunday vositalarning lingvistik va badiiy mohiyatini ochib berish orqali badiiy mazmunning shakllanishi va ifodalanish mexanizmlarini aniq tasavvur qilish mumkin. Chindan ham, badiiy matnning estetik qimmatini bevosita belgilash va baholashda ayni shu tamoyil qulay va boshqa tamoyillar asosida ish ko'rishda ham zamin vazifasini bajarishi mumkin. Buning ustiga, mazkur tamoyil asosida lisoniy badiiyatni tasavvur qila olish boshlovchi tahlilchiga ham og'irlik tug'dirmaydi, chunki tahlilga tortiladigan obyekt matndagi konkret til birliklaridir.

Albatta, badiiy mazmunning ifodalanishida tilning fonetik-fonologik, morfemik, leksik, morfologik, sintaktik va hatto supersintaktik kabi barcha sathi birliklari ishtirok etadi. Ammo ta'kidlash joizki, bu birliklarning, hech bir istisnosiz, misol uchun biror badiiy



asar haqida gap ketganda kitobxon doimo asosiy obrazlar ham poetik xissiyotlar bera oladi. Kitob o'qiyotgan shaxsning bevosita kitobga bo'lgan munosabati unda qanday poetika va qanday jazibadorlik ishlatilishiga bevosita bo'g'langani va shu asardagi obrazlarning qanchalik mahorat bilan tasvirlanganiga bog'liq. Ilmiy adabiyotlarda obrazga turlicha ta'riflar beriladi.

Xulosa shuki, lingvopoetik tadqiq asoslarini, ularning nomlanishini bir ko'rinishga keltirish kerak. Bu masala yuzasidan yaratilgan tadqiqotlar tilimizning boyligini ko'rsatish, filologiyani yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar/ O'zbek tili va adabiyot.2003.N-2. 84-86 b
3. Ma'rufjon Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.- T, "O'zbekiston fanlar akademiyasi", 2007.
4. Abdurahmonov X., So'z estetikasi.- T, "Fan", 1981.
5. A. Qayumov, O. Ro'zimatova. Tilshunoslikda Lingvopoetik Xususiyatlarning Tahlili. 391 Miasto Przyszłości .Kielce 2022
6. Isaqov.Z.S. Lingvopoetikaning o'rganilish tarixi \ International Conference on Advance Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from New York, USA <https://conferencea.org> Jan. 28th 2023

G'oziyev Alisher Ne'matovich
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti katta o'qituvchisi
Tojiboyeva Mahbubaxon Rahimovna
Qo'qon DPI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

NAZIR ALI SAYYIDNING «NAVOIY ASARLAR LUG'ATI»

Annotasiya. Bu maqolada lug'atlarning turlari, jumladan Alisher Navoiy asarlari uchun yaratilgan lug'atlar, Nazir Ali Sayyidning «Navoiy asarlari lug'ati» asari, asardagi monim va sinonim so'zlar, ot, sifat, son, olmosh, fe'l kabi so'z turkumlariga oid turkiy so'zlarning forsiy izohlari berilgan.

Kalit so'zlar. Lingvistika, izohli lug'at, omonim, sinonim, turkiy til, kofi arabiy, kofi ajamiy, imola, ko'p ma'noli so'zlar

Annotation. This article considers the types of dictionaries, in particular, dictionaries intended for the works of Alisher Navoi, the work "Dictionary for the works of Navoi", questions of homonymy, synonymy, and also covers comments on Turkic words in Persian, expressed by various parts of speech - nouns, adjectives, numerals, pronouns and verbs.

Key words. linguistics, explanatory dictionary, homonym, synonym, Turkic language, Arabic Kufi language, Kufi language ajam, imola, polysemous words.



Аннотация. Данная статья рассматривает виды словарей, в частности словари, предназначенные для произведений Алишера Навои, произведение «Словар для произведений Алишера Навои», его копии в нашей стране и за рубежом, вопросы омонимии, синонимии, а также охватывает комментарии к тюркским словам на персидском языке, выраженные различными частями речи – существительными, прилагательными, числительными, местоимением и глаголом.

Ключевые слова. лингвистика, толковый словарь, омоним, синоним, тюркский язык, арабский язык куфи, язык куфи ажам, имола, многозначные слова.

Turkiy tillar lugʻatshunosligi boy tajribaga ega. Ayniqsa, oʻtmish lugʻatshunoslari oʻziga xos lugʻat tuzish usullari, tamoyillari, soʻzlarni sharhlash uslublari jihatidan ajralib turadi. Ushbu lugʻatlarda soʻz tanlash mezonlari, soʻzning semantik tarkibiga munosabat bildirish, soʻzning maʼno qirralarini ochish kabi masalalar boʻyicha hozirgi zamon lugʻatshunoslari uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

Turli davrlarda yaratilgan qoʻlyozma lugʻatlarni qiyosan oʻrganish, ularni turli maqsadlarda tuzilganligini aniqlash, nazariy va amaliy jihatdan tadbiq qilish, lisoniy xususiyatlarini maxsus oʻrganish tilshunoslik fani uchun naqadar ahamiyatli va zarur ekanligi oʻz-oʻzidan sezilmoqda.

Oʻtmish lugʻatshunoslari oʻziga xos lugʻat tuzish usullari, tamoyillari, soʻzlarni sharhlash usullari jihatidan ajralib turadi. Mazkur lugʻatlar qiyosan kuzatilsa, ularning aksariyatiga soʻzning tag maʼnosini ochish, soʻzning semantik tarkibiga munosabat bildirish kabi masalalarda hozirgi zamon lugʻatshunosligi uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

Lugʻatshunoslik tarixiga qiyosan nazar tashlansa, ularni tuzishda muayyan maqsadlardan kelib chiqib ish koʻringanligi ayon boʻladi. Shuning uchun koʻplab biri ikkinchisiga hech oʻxshamaydigan lugʻatlar yaratilgan.

Tadqiqotchilar tomonidan kuzatilishicha, uzoq va yaqin oʻtmishimizda yaratilgan lugʻatlarning xil va turlari koʻp boʻlib, ularning muayyan turlari guruhlashtirilgan.

Lugʻatlar, eng avvalo, mohiyati jihatidan ikki xil boʻladi:

a) ensiklopedik lugʻat;

b) lingvistik lugʻat.

Soʻz yoki atama maʼnolarining yoritilishiga koʻra lugʻatlar **izohli** va **izohsiz** turlarga boʻlinadi: soʻz yoki terminlarning imlosini, tushunchalarning, masalan, forsha-arabcha yoki arabcha-forsha nomlarini berish bilan cheklangan lugʻatlar **izohsiz lugʻatlar** deb, shunday soʻz yoki terminlarning maʼnolariga izoh beradigan lugʻatlar **izohli lugʻatlar** deb ataladi.

Obyekti va predmetiga koʻra ham lugʻatlar xilma-xil boʻladi.

Terminologik lugʻatlar, *frazeologik* lugʻatlar, *orfografik* lugʻatlar, *orfoepik* lugʻatlar, *antroponimik* lugʻatlar, *toponimik* lugʻatlar, *sinonimlar* lugʻati, *chastota* lugʻati, *dialektologik* lugʻatlar, *tarixiy* lugʻatlar, *internatsional soʻzlar* lugʻati, *teskari* lugʻat, *etimologik* lugʻatlar, *maqol va matallar* lugʻati kabilardir.

Biz uchun taalluqli va muhim ahamiyatga ega boʻlgani lingvistik lugʻatshunoslikdir.

Ilmiy adabiyotlarda lugʻatchilik tilshunoslikning alohida sohasi hisoblansada, aslida leksikologiya tarkibi bilan bevosita aloqadordir. Chunki leksikaga tilning lugʻat



tarkibi, soʻz maʼnosi, uning isteʼmoli, yaʼni qoʻllanish darajasi, nutqqa, uslubga hamda shakl va mazmunga boʻlgan munosabati kabilar oʻrganiladi.

Hozirgi kun talablari asosida oʻzbek tilshunosligining lugʻatshunoslik sohasida badiiy asar, xususan, mumtoz adabiy manbalarining lisoniy xususiyatlarini oʻrganish borasida ahamiyatga molik bir qator tadqiqotlar yuzaga kelgan va kelmoqda. Bu tadqiqotlar oʻzbek lugʻatshunosligining bugungi va kelajakdagi taraqqiyotining tanlab beradigan eng asosiy meʼzonlaridir.

Biz hukmingizga havola etayotgan mazkur maqolamiz ham aynan lugʻatshunoslik tarqqiyoti rivojiga hissa qoʻshish maqsadida amalga oshirilayotgan kichik bir tadqiqot ishlardan biridir.

Bilamizki, hozirgi zamonda ham Alisher Navoiy asarlarini lugʻat siz tushunish mushkul.

Bundan tashqari Alisher Navoiy asarlarining mazmunini anglab yetish uchun birgina lugʻat kamlik qiladi, chunki lugʻatlarda soʻzlarning faqatgina leksik maʼnosi beriladi. Asarning haqiqiy maʼnosini anglash uchun esa soʻzning semantik tomonini, yaʼni koʻchma maʼnolarini, konnotativ tomonini hamda boshqa maʼnolarini bilish maqsadga muvofiqdir va yana tasavvuf ilmidan bir muncha xabardor boʻlish lozim.

Bu oʻrinda bizga Alisher Navoiy davrining adabiy tili, tasavvuf, semantika fanlari yordamga keladi. Bu esa fanlararo aloqani keltirib chiqaradi.

Alisher Navoiy asarlarini mutolaa qilishda, albatta, lugʻatlarga murojaat qilinadi. Bu anaʼna qadimdan davom etib kelmoqda. Mufakkir asarlariga sharh berish, maxsus lugʻatlar tuzish Navoiyning oʻz zamonidan boshlangan. Hisraviyning «Badoyeul-lugʻat», «Abushqa» (XV asr), Muhammad Yaqub Chingining «Kelurnoma», Mirzo Mahdixonning «Sangloh», «Maboniul-lugʻot» (XVIII asr), Fath Alixon Kojariyning «Lugʻati atrokiya» (XIX asr), Shayx Sulaymon Buxoriyning «Lugʻati chigʻatoyi va turkey usmoniy» (XIX asr) lugʻati va yana bir qancha soʻzlik-lugʻatlar lugʻatchilik tarixida va Navoiy asarlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega.⁸⁴

Alisher Navoiy oʻzining koʻp qirrali ijodi bilan xalqimiz madaniyati tarixida salmoqli iz qoldirgan shoirlardan biridir. Uning serjilo asarlari oʻz davrida ham, undan keying davrlarda ham, xattotlar tomonidan qayta-qayta koʻchirilib, qoʻldan-qoʻlga, dildan-dilga oʻtdi, xalqimiz tomonidan sevib oʻqildi, boy adabiy merosiga muxlislarning hurmati tobora oshib bordi. Natijada Alisher Navoiy asarlari boʻyicha turli davrlarda bir qancha lugʻatlar tuzildi.⁸⁵

Eron mamlakatida ham Alisher Navoiyning ijodiga boʻlgan qiziqish juda katta. Buni Navoiy va uning ijodiga bagʻishlangan yuzlab maqola va ilmiy tadqiqot ishlarida kuzatishimiz mumkin, shu kabi ishlardan biri Nazir Ali Sayyidning “Navoiy asarlari lugʻati”dir.

Muallifning mazkur asari Alisher Navoiy nomidagi Oʻzbekiston milliy kutubxonasining «Nodir nashr va qoʻlyozmalar boʻlimi»da PV78 raqami ostida Nazir Ali Sayyidning «Navoiy asarlari lugʻati» ning qoʻlyozma nusxasi saqlanadi.


84 ХамидовЗ. Луғатшунослик тарихи ва қўл ёзма луғатлар. Т., 2004., 9-бет

85 Б.Хасанов «АлишерНавоийнингсабъатабхур» луғати. Т., 1981; М.Хасанов «Луғатшунослар Ўзбекили ва адабиёти», 1978, 5-сон, 25-бет.; Э.Умаров «ЯнгитопилганНавоийасарларилуғати», Ўзбекили ва адабиёти, 1991, 4-сон, 76-бет.; шумуаллиф «Ескиўзбеклуғатлари». Т., 1994; «Ўзбекили лексикологияси», Т., 1981 й.



Qo'lyozma 22x12 sm hajmda bo'lib, 79 sahifadan iborat. Xati nasta'liq yozuvida, poygirlari to'liq, qog'ozi novvotrang. Asar to'liq saqlangan. Qo'lyozma taxminan XVI-XVII asrlarda Nusratulla Buxoriy tomonidan ko'chirilgan. Ushbu lug'atning asliyi va qachon tuzilganligi noma'lum. Lug'atit ul varog'iga 1973 yil deb yozilgan. Bu uning kutubxonaga kelib tushgan vaqtini anglatadi.

Mazkur lug'at Eron mamlakatining "Ketobxone-yemajles-esho'ro-yemelli" nomli kutubxonasida "Lo'g'ate chig'atoyi beforsi" nomi bilan 85417 inventar raqami ostida saqlanib kelinmoqda. Asar to'liq saqlangan. Hijriy 1382 yil kutubxonaga qabul qilingan.



Asar muqaddimasida negadir hamd va na'dlar yozilmagan. To'g'ridan to'g'ri lug'at haqidagi umumiy ma'lumotlar berilgan. Lug'at oxirida esa muallif va xattot ismlari keltirilgan xolos.

Lug'at eski o'zbek alifbosi tartibiga ko'ra tuzilgan. Asarning kirish qismida turkiy so'zlar va ularning yasalishi haqida ma'lumotlar berilgan (**masalan:** *g'on+chi, yomon+liqkabi*).

Lug'atda a,b,t,s,sh,k,y harflariga ko'plab misollar berilgan. Lekin ch,z,g'm,l harflariga misollar kam berilgan.

Se, hoyi hutti, zol, sod, zod, to, zo, hoyi havvaz harflariga esa umuman misollar berilmagan. Bizning fikrimizcha bu tovushlar tukiyl tilga xos bo'lmagan tovushlar sanaladi. Masalan, ص (sod) «s.» fonemasi – tanglay oldida talaffuz qilinuvchi tish orti emfatik sirg'aluvchi, shovqinli jarangli undosh. Biroq shuni esdan chiqarmaslik kerakki, emfatik talaffuzda oddiy undosh talaffuzdagiga nisbatan havo o'tish yo'li anchagina tor bo'ladi; til va boshqa barcha a'zolar, nihoyatda, taranglashadi; til orqasi yumshoq tanglayga qarab to'liq tortiladi; havo sirg'alib kuch bilan tashqariga otiladi. Bunday tovush o'zbek tilida mavjud emas.

Muallif asarda kof va gof harflarini bir biridan ajratish maqsadida avvalgi lug'atshunoslar kabi kof harfini kofi arabiy, gof harfini esa kofi ajamiy atamasi orqali ifodalagan. **Masalan:** *kengash* (كنگش) – kofi avval arabiy va kofi soniy ajamiy ba ma'nii mashvarat.

Muallif asarda bir xil yozilib, turli ma'no anglatuvchi so'zlarga ham alohida e'tibor bergan. **Masalan:** *ur* (روا) va *o'r* (روا) so'zlari arab yozuvida bir xil yozilishini inobatga olib, birinchi so'z urmoq fe'lining buyruq mayli, ikkinchi so'z o'rmoq fe'lining buyruq mayli o'r yoki o'r-chuqur ma'nosini anglatishini ko'rsatish maqsadida yoniga **imola**



atamasini qo'yadi (**imola** so'zi bir harfni yoki harfiy birikmani u yohud bu tarzda o'qilishini anglatadi. **Masalan:** *tun - to'n*).

Agar so'z ma'nosi ommaga tanish bo'lsa, misol berilmagan va izoh ham qisqa bo'lgan. **Masalan:** (تیش - دندان است. تانگ - صبح است).

Agar so'z ma'nosi omma uchun notanish sanalsa, unga kengroq to'xtalgan va misollar berilgan.

Masalan: (اویت - اویال بمعنی شرمندگی باشد.)

Ey ko'z, onsiz o'zga ko'rmakni qilmish sen havas,

Hajr tig'idin o'yul yoxud Navoiydin uyal.

Masalan:

(توش - بچند معنی آمده است. اول بمعنی برابر و مقابل باشد. دیگری بمعنی پایان آمدن است. سومی بمعنی خواب دیدن است.)

Har telba kimgaki himmat nazari tush bo'lur,

Ko'kni talashquncha uchar qushbo'lur.

Muallif lug'atning avvalida ot (آت), o't (اوت), tuz (توز), tush (توش), uz (اوز), it (اوز), yosh (یاش), o'q (اوق) kabi omonim va ko'p ma'noli so'zlar misolida o'zbek tilining naqadar boy varang barangligini ta'kidlab o'tadi. Masalan Nazir Ali Sayyid quyida to'rtlikning birinchi misrasida **it** so'zi **kuchuk**, ikkinchi misrasida **ket**, to'rtinchi misrasida **itar** ma'nolarida ishlatilganligini ko'rsatish maqsadida "Muhokamatul lug'atayn" dan misol keltiradi:

Ey raqib, o'zni angat utsang ham it,

Bizga rahm aylab, aning kuyidan it.

Garchi bor do'zaxcha ishqing shu'lasi,

Bizni o'z ilginq bila ulsari it.

Rahbarlik lavozimi ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar: qoon (قآن), otaliq (اتالیق), yuzboshi (یوزباشی),

Qarindosh-urug'chilikni ifoda etuvchi so'zlar: og'a (اغا), ini (اینی), ota (اتا), ona (انا), opa (آپا), singil (سینگیل), beka (بیکه) (bizning fikrimizcha so'zidagi hoyi havvaz harfi turkiy tilga xos emas. Chunki, Mahmud Koshg'ariy o'zining tilshunoslikka oid "Devoni lug'atit turk" asarida bu harfni xo'tanlardan kirganligini aytib o'tadi.), bekacha (بیکچه),

Tana a'zolarini ifoda etuvchi so'zlar: ko'krak (کوکراک), yanoq (یاناق), tiz (تیز), tish (تیش), til (تیل), so'ngak (سونگاک), tomur (تامور), qo'l (قول), put (پوت), teri (تیری), tirnoq (تیرناق),

Libos - kiyim ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar: chopon (چاپان), to'n (تون), ..

Qurol - yarog', armiyaga oid ma'nolarni ifoda etuvchi so'zlar: tir (تیر), o'q (اوق), qo'shin (قوشین), cherik (چیریک), ..

Harakat ma'nosini ifoda etuvchi so'zlar: semurmak (سیمورماک), chidamak (چیداماک), suymak (سویماک), solmoq (سالماق), qarg'amoq (قارغاماق), yotmoq (یاتماق), quvonma (قارغاماق), tindi (تیندی),

Ovoz - tovush ma'nolarini ifoda etuvchi so'zlar: tovush (تاووش),

Hashoratlarni ifoda etuvchi so'zlar: o'rgimchak (انگبود),

Afsonava ertak ma'nolarini ifoda etuvchi so'zlar: cho'pchak (چوپچاک), ertak (ایرتاک), ..

Jonivor va hayvonlarni ifoda etuvchi so'zlar: qo'y (قوی), echki (ایچکی), tovushqon (تاووشقان), ot (آت), it (ایت), ...



Daraxt va daraxt tanalarini ifoda etuvchi soʻzlar: terak (تيراک) (Devoni lugʻatit turk asarida “*terak*” soʻzi “*daraxt*” maʼnosini ifoda etuvchi soʻz sifatida zikr etiladi. Keyinchalik *terak* soʻzi daraxt turini anglatuvchi soʻzga aylangan.), *gʻunchi* (غونچى) yoki *gʻanchi* (غانچى) (bu soʻz Oʻzbek tilining izohli lugʻatida *gʻunchi* soʻzining oʻzagi “gʻon” – ipak qurti boqiladigan soʻkichakda qurt yegandan keyin qolgan barg va axlatlar. Lekin Fargʻona shevasida bargi qurtlar tomonidan yeyilgan tut novdasi tushuniladi).

Yer va tuproq bilan bogʻliq maʼnolarni ifoda etuvchi soʻzlar: tosh (تاش), tufroq (توفراق) (bizningcha f tovushi turkiy tillarga xos boʻlmagan tovush. Chunki *fotiha* soʻzini *potiha* yoki *pata*, *falak* soʻzini *palak*, *falon* soʻzini *palon* kabi aytilishi bejiz emas)

Sovgʻa – salom va hadya maʼnosini ifoda etuvchi soʻzlar: tortugʻ (تارتوغ),

....

Tabiat hodisalarini ifoda etuvchi soʻzlar: shamol (شامال), qyun (قويون), ...

Masofa bilan bogʻliq maʼno anglatuvchi soʻzlar: yigʻoch (يىغاج), yiroq (يىراق),

Rang – tus maʼnolarini ifoda etuvchi soʻzlar: koʻkim til (كوكىمتىل), sariq (ساريق), oq (آق),

Tomon maʼnosini anglatuvchi soʻzlar: teskari (تيسكارى), oʻng (اونگ), soʻl (سول), ...

Kun va tun boʻlaklarini ifoda etuvchi soʻzlar: tong (تانگ), qorongʻu (قارانغۇ), tun (تون),

Tabiat hodisalarini ifoda etuvchi soʻzlar: qyun (قويون), shamol (شامال),

Insonning ruhiy holati bilan bogʻliq soʻzlar: telba (تېلبا),

Samoviy unsurlarni ifoda etuvchi soʻzlar: quyosh (قوياش), oy (آى), yulduz (يولدوز),

Imorat va imorat qismlarini ifoda etuvchi soʻzlar: boʻsagʻa (بوساغا),

Qushvaparandalarni ifoda etuvchi soʻzlar: chumchuq (چومچوق), burgut (بورگوت),

Tadbir va marosimlarni ifodalovchi soʻzlar: toʻy (طوى) (bu soʻz Nazir Ali Sayyidning mazkur lugʻatida طوى shaklida yozilgan. Bizning fikrimizcha bu notoʻgʻri chunki “to” harfi oʻzbek tiliga xos boʻlmagan harflar sirasiga kiradi va Devoni lugʻatit turkda bu soʻzni te harfi bilan توى shaklida yozilgan.), ...

Soʻroq maʼnosini ifoda etuvchi soʻzlar: nima (نېما), nega (نېگا), netti (نېنتى), qaysi (قايسى), qayon (قايان),

Xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, lugʻatni lingvistik jihatdan batafsil tadqiq etish biz tilshunoslarning dolzarb vazifalarimizdan boʻlib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Hamidov Z. Lugʻatshunoslik tarixi va qoʻlyozma lugʻatlar. T., 2004., 9-bet
- 2.B.Hasanov «Alisher Navoiyning“ Sabʼatu hur» lugʻati. T., 1981;
- 3.M.Hasanov «Lugʻatshunoslar» Oʻzbek tili va adabiyoti., 1978, 5-son, 25-bet.;
- 4.E.Umarov «Yangi topilgan Navoiy asarlari lugʻati», Oʻzbek tili va adabiyoti, 1991, 4-son, 76-bet.;
- 5.E. Umarov «Eski oʻzbek lugʻatlari». T., 1994; «Oʻzbek tili leksikologiyasi», T., 1981 y.



*Feruz Mamatqulova, QDPI,
filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

“

MANTIQ UT-TAYR” DOSTONIDA FOLKLOR MOTIVLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada folklor motivlarining yozma adabiyotdagi in'ikosi Shayx Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga kirgan og'zaki adabiyotga tegishli bir qissa misolida tahlil qilingan. Bu jarayonda dostonning ramziylik xususiyatlari, ulardagi majoziy timsollarning doston syujetining shakllanishidagi o'rni va Ibn Saqqo (SHayx San'on) haqidagi ertaknamo hikoyatning genezisi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar

Doston, qissa, folklor, ramz, majoz, qushlar, insonlar, qissa, ertak, genezis, talqin.

Abstract

In this article, the perception of folklore motifs in written literature is analyzed on the example of a story related to oral literature included in the epic “Mantiq ut-tayr” by Sheikh Farididdin Attar. In this process, the symbolic features of the epic, the role of figurative symbols in them in the formation of the epic plot, and the genesis of the fairy tale about Ibn Saqqah (Shaykh San'an) were discussed.

Key words

Epic, story, folklore, symbol, metaphor, birds, people, story, tale, genesis, interpretation.

Абстрактный

В данной статье анализируется восприятие фольклорных мотивов в письменной литературе на примере рассказа, относящегося к устной литературе, вошедшего в эпос «Мантук ут-тайр» шейха Фаридиддина Аттар. При этом обсуждались символические особенности эпоса, роль в них образных символов в формировании эпического сюжета, генезис сказки об Ибн Сакке (Шейхе Санане).

Ключевые слова

Эпос, повесть, фольклор, символ, метафора, птицы, люди, повесть, сказка, генезис, интерпретация.

Farididdin Attorning “Mantiqut-tayr” asari folklordan keng yo'sinda oziqlanish asosida quyuq ramziy tusga ega, ko'p qatlamli islomiy, ruhiy-axloqiy, ijtimoiy g'oyalar bilan to'lib-toshgan murakkab doston hisoblanadi. Uning bosh mavzusi ilohiy zot bilan insonning munosabati masalasiga bag'ishlangan. U asarning bosh mavzusini ochishga xizmat qiluvchi folklorga xos majoz yo'sinidagi asosiy yetakchi hikoyat va bosh g'oyani dalillash uchun xizmat qiladigan majoziy va o'rni bilan haqiqiy masal, naql, ertak va kichik hikoyatlardan tarkib topgan.

“Mantiqut-tayr” dostonida barcha qushlar bir yerga jam bo'lib, majlis qurishadi. Biroq bazmdagi tartib masalasida, ya'ni o'rin-martaba, izzat-xurmat va sharaf-salohiyat, ulug'lik va tubanlik, kamtarlik va manmanlik o'zini bilish va bilmaslik kabi masalalarda ziddiyatlar kelib chiqib, mojar o yuz beradi. Qushlar o'zlariga insof-diyonatli, odil, haqqoniy bir podshoh saylash zarurligini, shu orqali o'z jamoatida yuz bergan janjal-mojaro, qiziqqonlik holatlariga barham berish muhimligini his kiladi. Xuddi shu chog'da



popushak Xudhud bashorat berib, qushlar naslidan bir podshoh Simurg' borligini, uning qushlar ahvolini miridan-sirigacha bilishligini, u garchi qushlarga juda yaqin bo'lsa-da, qushlar g'ofilik va nodonliklari sababli undan ancha yiroqlashib ketishganini aytadi. Endilikda qushlar ana shu Simurg'ning visoliga noil bo'lsalargina, barcha tahlikalar va nizolardan forig' bo'lish mumkinligini aytadi. Qushlar xursand bo'lib, Hudhudga ana shu Simurg' dargohiga boshlab borishni taklif qilishadi. Hudhud Simurg'ning dargohiga yetib borish jarayonida duch kelishi muqarrar bo'lgan talay mashaqqatlar, azob-uqubatli sinovlar kutajagini ham bayon qiladi. Ma'lumki, Farididdin Attor bu yerda Hudhud va qushlar timsoli orqali o'zining tariqat g'oyasini bayon qiladi. Ya'ni, ramziy ma'nodagi ustoz-pirning Hudhud orqali aqldan ozib, g'aflatda qolgan kishilarga qarata qilingan nasihati sifatida nazm tiliga ko'chiradi. Hudhud Fano yo'lidagi mashaqqatlarni yengib o'tish chog'ida donishmand pir, kishilarni irshodga boshlovchi ustoz sifatida namoyon bo'ladi. Simurg'ga borar yo'lda uchragan mashaqqat oldidan, qushlarda paydo bo'lgan ranjlar, ayrim qushlarda yuzaga kelgan ikkilanishlarda ularning ko'nglini ko'tarish, mashaqqatlardan cho'chimasliklari uchun, albatta biror-bir ibratli rivoyat yoki hikoyatni aytib, ularni yupatgan va bu yo'lda sobit bo'lishlariga undagan. Olmon islomshunosi Anna Mariya Shimmelning bir esdaligida ushbular aytilgan edi: "Kishining ulkan muhabbat tufayli behud-devona bo'lib qolishi to'g'risida ham ancha-muncha rivoyatlar mavjud. Ularning ichida eng mashhuri SHayx San'on tarixidir. SHayx to'satdan bir tarso qiziga ko'ngil qo'yib qoladi va uning visoliga yetish uchun qizning buyrug'i bilan may ichadi va hatto uning cho'chqalarini boqadi. Rivoyat nihoyasida shayxni yo'ldan ozdirgan qizning o'zi Haq yo'lga o'tib, imyon keltiradi va shayx o'z muridlari yoniga qaytadi. Mavlono Farididdin Attor o'zining "Mantiq ut-tayr" kitobida bu rivoyatni mumtoz asar darajasiga yetkazib hikoya qilgach, rivoyat sharq islom olamida ma'lum va mashhur bo'lib ketdi. Kashmir adabiyotida ham, Malayziyada ham bu asarning o'sha tillardagi namunalari bor. 1994 yilda Buxoroda bo'lganimda tarjimon qiz bu rivoyatning Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub chig'atoy turkcha namunasini ichki bir ehtirom bilan hikoya qilib, meni juda hayratga soldi. Zero, Shayx San'on sarguzashtlarida ayolga nisbatan bo'lgan muhabbatning g'oyatda ulkan, mislsiz qudratga ega ekanligi bayon etilgan".[2,92]

Farididdin Attorning "Mantiq ut tayr" idagi arab folklorida yaratilgan Shayx San'on qissasi ham besabab keltirilmaydi. Muallif ana shu qissaning aytilishiga alohida zamin yaratgan va qissa Hudhud tomonidan hikoya qilib berilgan. "Shayx San'on qisasi" dostonning to'rtinchi maqolasida keladi. Simurg' daragini eshitgan Qushlar safar oldidan qattiq xavotirga tushib, Hudhuddan bir savol so'raydilar. Chunki dostonning shu o'rnigacha Qushlar buning mohiyatidan mutlaqo bexabar bo'lganlar:

Chun hama qushlar eshitdi bu suhan,
Bildilar, ne ermish asrori ko'han.

Jumla ul Semurg'ga nisbat topdilar,
Ham o'shal asrorga rag'bat topdilar.

Ul suhan bois boz keldilar,
Jumla hamdardu hamovoz keldilar. [1,86]

Demak, qushlar Hudhuddan Simurg'ning sifatlarini eshitganlaridan so'ng uning oldiga birgina u olib borishi mumkinligini anglab yetadilar, chunki: "Yo'lni bilmas edi



andin o'zgasi..." Shuning uchun piri murshidni yana bunday savolga tutadilar: *"...ustodi buyuk, Bul mashaqqat yo'lni oshgaymiz nechuk? Bizda parvoz yo'q baland, oliy maqom, Bul yo'sin manzilga yetgaymiz qachon?"* [1,89] Qushlarning bu savoli oldida Hudhud dovdirab qolmaydi, balki o'zi aytgan manzilga qanday olib borish mumkinligini birgina so'zda bayon qilib beradi: *"Oshiq o'lgan kimsa jonni o'ylamas..."* [1,88] Darhaqiqat, tasavvufda oshiqlik jondan kechmoqlikdir. Jondan kechmoqlik esa, bu maqsad yo'lida uchraydigan har qanday to'siqlarni sabot va matonat, sabr va qanoat bilan muttasil yengib o'tishdan iborat. Simurg'ga olib boriladigan yo'l mashaqqatlarga to'la. Hudhud shuning uchun ham oshiqlikning shartlari va oqibatlarini erinmasdan qushlarga tushuntiradi va bu bilan "SHayx San'on qissasi" uchun bir zamin tayin etadi:

Xohi zohid bo'l va yo fosiq o'zing,
Jonni tark etsang agar, oshiq o'zing.

O'ylakim, joningga dushmandir ko'ngil,
Jonni topshirsang yetar poyonga yo'l.

Saddi rohdur jon, jonni iysor qil,
Pardani ot, yor ila diydor qil.

Desalar gar senga: hoy iymonni qo'y,
Ham xitob aylab deyishsa jonni qo'y.

Undanam kech, bundanam... tark aylagil.
Tarki iymon ayla, jon tark aylagin.

Desalar: mumkin ermas, ey aziz,
Sen degil: ishq kufru iymondan aziz. [1, 90]

Shundan keyin, Hudhud qushlarga ishq nima, oshiqlikning shartlari nimalardan iboratligi borasida so'z aytadi. Hudhudning so'zlariga qaraganda, kufru iymon bilan ham, tanu jon bilan ham ishqning zarracha ishi yo'q, ishi bo'lmaydi. Ishq o'ti oldida kufr ham, iymon ham, tan va jon ham chekinadi. SHunday zot oshiq bo'la oladiki, u har qanday xirmonga - tanga ham, jonga ham o't qo'yadi. Bu o'rinda "o't urmoq" va "xirmon" so'zlari ostiga yashiringan ma'noni to'g'ri anglamoq lozim. Ilohiy ishqqa yetishgan zot uchun eng maqbul sifatlar jamlangan xirmon ham bir xaschalik qadrga ega bo'lmay qoladi. Chunki Ishq atalmish bir qudratli kuch bularning hammasini mahv etib yuboradi. Hudhudning keyingi so'zlari ham ana shu masalalar talqinida yanada o'zgacha qudrat kasb etadi:

Dardu xuni dil emishdir ishq aro,
Qissayi mushkul emishdir ishq aro. [1,91]

Darhaqiqat Ishq insonning dard qoni va buning qissasini bayon etish ham shu kabi mushkul. Ishq xo'lu quruqni baravar yondirib yuboradi, odamni iymondan ayiradi, ko'zini ko'r qilib qo'yadi. Ishqqa giriftor bo'lgan oshiq dard chekadi. Shunday dardga sohib bo'lmagan oshiq esa oshiq emas. Uning oshiqligi haqiqiy bo'lsa, barcha narsani kulga aylantiruvchi kuchga ega bo'lishi kerak. Chunki Haqiqiy ishqning zarrasi dunyoning ikki qutbida bo'yalgan ufqlardan o'tliroqroq, bunday Ishqning zarrasi dunyodagi barcha majoz oshiqklarining ishqidan chandon a'loroq bo'ladi:



Dard kerak oshiqqa chun yondirguchi,
Goh yoqib o'tlar, gahi so'ndirguchi.
Zarrayi ishq barcha ofoqdan aziz,
Zarrayi dard barcha ushshoqdin aziz.[1,93]

Zero Hudhudning so'zlariga qaraganda, *"Ishq – mag'zi koinot mudom, Ishqki bedard ersa, noqisdir tamom. Olami qudsiyda darddin gard yo'q, Odamiydin o'zgasida dard yo'q. Kimki ermish ishq aro sobit qadam, Ul kufrdan voz kechar, islomdanam. Ishq faqirlik eshikin ochguvchi ul, So'ng faqirlikdin kufirlik sori yo'l. Ishqu kofirlik aro eshlik erur, Cun kufirlik – mag'zi darveshlik erur."* [1, 97]

Xullas, folklor motivlari yozma adaiyotning asosiy manbasi hisoblanadi va bu barcha tildagi adabiyotlarda o'z ta'sirini ko'rsatib keladi. Shayx San'on haqidagi qissaning "Mantiq ut-tayr" dan o'rin olishini ham shu bilan izohlash to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Farididdin Attor. Mantiq ut-tayr. – T.: SHarq, 2008. -B.356.
2. Anna Mariya Shimmel. Jonon mening jonimda. T.:SHarq,1999. – B.173.
3. Saidov A. Attorshunoslik. – T.: SHarq, 2013. – B.383.
4. Siddiqov M. Tetronar tipologiya. // JPI. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikning dolzarb masalari. – 2017.
5. SAIDAKBAROVA, M. "Historical facts and poetic fictions in the work of Alisher Navoi." *Scientific Journal of Fergana State University* 1 (2018): 106-108.
6. SAIDAKBAROVA, M. «Historical facts and poetic inventions in Alisher Navoiy's creative work.» *Scientific journal of the Fergana State University* 1.4 (2018): 106-108.
7. Саидакбарова, Мукаддас. «» TARIXI MULUKI AJAM» («ИСТОРИЯ ИРАНСКИХ ЦАРЕЙ») КАК НАУЧНО-ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ИСТОЧНИК.» *Theoretical & Applied Science* 12 (2018): 122-126.
8. Muqaddas, Saidakbarova. «INTERPRETATION OF ENLIGHTENMENT AND SPIRITUALITY.» *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 405-409.
9. Muhammadrahimovna, Saidakbarova Muqaddas, and Kurbanova Feruza Azamovna. "FOLKLORE AND WRITTEN LITERATURE RELATIONS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.7 (2022).
10. Matatqulova, Feruza Tohirovna. "THE USE OF TRADITIONAL REPETITION IN THE EPIC" TAHIR AND ZUHRA"." *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions* 2.6 (2021): 1-6.
11. Tohirovna, Mamatkulova Feruza. «Version Of The Story By The Poet Zohir Kochkor Oglu.» *Journal of Positive School Psychology*(2022): 6493-6501.
12. Mamatkulova, Feruza. «INTERPRETATION OF PATRON CHARACTERS IN FOLK EPICS.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 683-688.
13. Mamatkulova, F. T. «UNIVERSAL CULTURAL HERITAGES: SIMILARITY AND UNIQUENESS.» *Journal of Modern Educational Achievements* 3 (2022): 15-21.
14. Маматкулова, Феруза. "КАЗАХСКАЯ ВЕРСИЯ ДАСТАНА" ТАХИР И ЗУХРА"." *Theoretical & Applied Science* 1 (2019): 245-248.
15. Abdurahimovna, Jo'rayeva Ramziya. «METHODOLOGICAL TOOLS IN CRITICAL CREATION.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1882-1885.



16. Abdurakhimovna, Ramziya Juraeva. «Lexemas of meaning of clothes in mukimi's works.» *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)* 10.3 (2021): 199-202.
17. Abdurahimovna, Joraeva Ramziya, and Rakhimov Sarvarjon Akramjon o'g'li. «On the Study of Critical Creation.» *Miasto Przyszłości* 29 (2022): 394-397.
18. Madalievna, Iskandarova Sharifa, and Juraeva Ramziya Abdurahimovna. "The Analogies Used in Mukimi's Works." *European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630)* 9 (2021): 95-99.
19. Saidakbarova, Muqaddas Muhammadrahimovna, and Ramziya Abdurahimovna Jo'Rayeva. "SHOH BAHROM: TARIXIY SHAXS VA BADIY OBRAZ." *Academic research in educational sciences* 4. Conference Proceedings 1 (2023): 168-173.

**Raxmatullayeva Dilafruzxon Shuxratovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti**

O'ZBEK TILIDAGI "ILM-MA'RIFAT" SEMALI LUG'AVIY BIRLIKLAR PARADIGMASI

ANNOTASIYA. Maqolada jahon tilshunosligida, jumladan, o'zbek tilshunosligida leksik birliklar tadqiqi, o'zbek tilidagi "ilm-ma'rifat" semali birliklar paradigmasi haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: leksik birlik, til qurilishi, til sathlari, paradigma, lingvistik maydon, semantik maydon, leksemaning semantik tuzilishi, semantik tasnif, dialektik munosabat, lingvistik munosabat.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматривается изучение лексических единиц в мировой лингвистике, в том числе узбекской лингвистике, и парадигма единиц «наука-просвещение» в узбекском языке.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: лексическая единица, языковая конструкция, уровни языка, парадигма, языковое поле, семантическое поле, семантическая структура лексемы, семантическая классификация, диалектическая связь, языковая связь.

ANNOTATION. V state rassmatrivatsya izuchenie lexicheskikh edinit v mirovoy lingvistike, v tom chisle Uzbekskoi lingvistike, i paradigm edinit «nauka-prosveshchenie» v Uzbekskom zyzyke.

KEY WORDS: lexical unit, linguistic construction, layered language, paradigm, linguistic field, semantic field, semantic structure lexeme, semantic classification, dialectical association, linguistic association.

Jahon tilshunosligida XIX asrdan boshlab til qurilishi, til sathlari, ular o'rtasidagi turlicha lisoniy munosabatlar tadqiqiga katta e'tibor qaratildi. F.de Sossyur tomonidan ilgari surilgan ilmiy nazariya keyinchalik Yu.Stepanov, V.Solnsev, T.Lomtev, L.Vasilyev, L.Novikovlar tadqiqotlari bilan rivojlantirilib, takomillashtirildi, mazkur nazariya o'zbek ilmiy tilshunosligida I.Qo'chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, A.Nurmonov, H.Ne'matov, R.Rasulov, A.Sobirov, M.Abdiyev, S.Muhamedova va ularning izdoshlari faoliyati orqali davom etdi.



“Jahon tilshunosligi qo‘lga kiritgan yutuqlardan samarali foydalanayotgan o‘zbek tilshunosligi ham til hodisalarini sistem-struktur tadbillar asosida o‘rganish yo‘lida ulkan yutuqlarga erishdi. Bu yo‘nalish bo‘yicha Sh.Rahmatullayev, I.Qo‘chqortoyev, H.Ne‘matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Rasulov singari peshqadam tilshunoslar diqqatga sazovor anchagina ishlar qildilar”, – deb yozadi professor A.Berdialiyev⁸⁶.

Ta’kidlashicha: so‘zning semantik tuzilishi (strukturasi) bevosita ma’no (semema) bilan bog‘lanadi. Chunki semantik qurilishga ega bo‘lmagan sema yo‘q. Har bir ma’no semantik tuzilishiga, tarkibiga ko‘ra “baholanadi”. U muayyan so‘zning mazmun tomonini hosil qilib, o‘z tovush asosi – ifoda tomoni bilan birgalikda, bir butun holda til va nutqda muayyan vazifa bajaradi. Aniqrog‘i, ma’no ruhiy mohiyat – ong hodisasi sifatida o‘zining tashqi (ekstralingvistik) asosiga ega. Har bir mustaqil ma’noli so‘z asosini hosil qiluvchi ob’ektiv borliq predmet, narsa-hodisalari o‘zining tabiiy tuzilishiga, qurilish a’zolariga ega bo‘lib, ularning har biri tildagi (lisoniy) nomida – til birligi(so‘z)da, so‘z ma’nosida aks etadi.

M.Abdiyevning ko‘rsatib o‘tishicha, “til birliklari, shu jumladan, uning leksik birliklari ham 1) sistema, 2) struktura va 3) me’yor(norma)ning dialektik munosabati asosida shakllanadi. Bunda sistema elementlarning yaxlit majmuidan, struktura esa shu majmuaning ichki tuzilishidan iboratdir. Binobarin, til hodisalarini sistem-struktur o‘rganish, birinchidan, sistema tashkil qiluvchi elementlar yig‘indisi (ro‘yxati)ni tuzish va, ikkinchidan, mazkur elementlar orasidagi ichki munosabat va aloqalarni belgilash, ularning o‘zaro pog‘onali (iyerarxik) joylashishi hamda bir elementning ikkinchi elementdan hosil bo‘lish yo‘llarini ochib berishni taqozo etadi. Ushbu o‘rinda me’yor til hodisalarining barqarorlashgan ifoda shakli ekanligini ta’kidlash joizdir”⁸⁷.

Bizga ma’lumki, struktur tilshunoslikda leksik-semantik paradigmalar markazida turuvchi lisoniy vositalar o‘rtasidagi paradigmatic, sintagmatic, iyerarxik, gipogiperonimik, graduonimik, iyerarxonimik singari munosabatlar muammosi muhim o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligida lug‘aviy ma’no tadqiqining semasiologik aspekti to‘g‘risida fikr yuritgan olim professor M.Mirtojiyevning qayd etishicha, bunday izlanishlar lug‘aviy ma’noni mantiqiy-semantik tahlil etish, maydonlarga ajratish, nutqiy asosda sintagmatic munosabat doirasida hamda til sistemasidagi paradigmatic munosabatlari orqali tadqiq etishga yo‘naltirilgan.

XX asrning oxirlariga qadar tilga muntazam aloqadorlikdagi elementlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topgan yaxlit sistema sifatida qaralib, leksemaning lisoniy belgilarini turli xil aspektlarda mukammal tadqiq etish o‘zbek tilshunosligining alohida yo‘nalishlaridan birini tashkil etdi.

Ta’kidlash zarurki, sistemaviy tilshunoslikning shakllanishi, paydo bo‘lgunigacha ham lug‘aviy birliklarning semantikasi masalasi lingvistlarning diqqatini jalb etib kelgan. Ammo bu talqinlar tilning faqat bir sathiga doir birliklar bilan chegaralanganligi sababli, tilning sistemaviy tabiatini yoritish mukammal ravishda amalga oshirilmagan edi. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda lisoniy birliklarning shakl va mazmun tomoniga sistemaviylik tamoyillarining izchil tatbiq etilishi lisoniy semantikaning shakllanishi va taraqqiyotiga puxta zamin hozirladi.

Lisoniy semantikaning o‘rganish ob’ektlaridan biri lingvistik maydon bo‘lib,

86 Бердиалиев А. Ўзбек тили синтактик қурилиши асосининг парадигматик тизими. Хўжанд, 2019. 4

87 Абдиев М.Б. Соҳавий лексиканинг систем таҳлили(Самарқанд вилояти касб-хунарлари материаллари асосида): Филол. фанл. докт.... дисс. автореф. Тошкент, 2005. 3-4



semantik maydon lisoniy semantika doirasida muhim o'rin tutadi. Tilshunoslikda *semantika, maydon, lisoniy semantika, semantik maydon* singari tushunchalar, terminlar ostida garchi ma'lum darajada umumiy fikrlar berilsa-da, bir-biridan farq qiluvchi xilma-xil talqinlar ham mavjud. Bu xususda professor N.Mahmudov "Til tilsimi tadqiqi" nomli monografik asarida to'xtalib o'tadi: "Gumanitar fanlarda, xususan, tilshunoslikda ayrim terminlar ko'p ma'nolidek ko'rinadi. Masalan, polyak semasiologi A.Shaff bundan oltmish yil burun "Bugungi kunda semantika ilmiy tadqiqot sohasi sifatida shunchalik murakkablashib bormoqda va terminning o'zi ham shu qadar ko'pma'nolilik kasb etmoqdaki, agar biz ko'ngilsiz chalkashliklar va mantiqiy noaniqliklardan qochishni istasak, "semantika" so'zining o'zini semantik tahlilga tortishimiz lozim bo'ladi" deb yozg'irgan edi".

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida onomasiologik tamoyilga asoslangan, til mazmuniy mundarijasiga maydon sifatida yondashishga asoslangan tadqiqotlar ancha ommalashdi. Jumladan, A.Sobirov o'zining tadqiqotida leksik sathga mazmuniy maydon sifatida yondashgan bo'lsalar, bir qator tadqiqotchilar leksik sath tarkibidagi ma'lum mikromaydonlarning semantik tahliliga, mazmuniy strukturadagi turli sathlarga xos birliklarning struktur tahliliga e'tibor qaratdilar.

Dastlabki ishlarda muayyan mazmuniy umumiylik ostida mikromaydonga birlashgan leksemalar tadqiq ob'yekti sifatida olinsa, keyingi tadqiqotlarda turli sath birliklarining bir umumiy mazmun ostida birlashishiga diqqat qilindi.

Xususan, dastlabki izlanishlarda lisoniy semantikaning umumiy semantika tarkibidagi alohida fan yo'nalishi bo'lib, uning psixologik semantika va mantiqiy semantika bilan uzviy bog'lanishi, ayni vaqtda, ularning hammasi umumiy semantikaning takomili uchun ta'sir etishi hisobga olinadi.

Paradigma bilan mazmuniy maydon o'rtasidagi muhim farqlovchi belgilar bir sathlilik – turli sathlilik va gomogenlik – geterogenlikdir. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ba'zan bir sathga mansub bo'lgan birliklar ham bir mazmuniy maydon tarkibiga birlashishi mumkin. Bunday vaqtda paradigma va mazmuniy maydon tushunchalari o'zaro maksimal yaqinlashadi va ular faqat bitta farqlovchi belgi bilan: gomogenlik-geterogenlik belgisi bilan o'zaro zid munosabatda bo'ladi. Bir sathga mansub bo'lgan birliklar bir mazmuniy maydonga birlashganda, ular o'rtasidagi geterogenlik belgisi turli so'z turkumlariga mansublikda namoyon bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tilgan barcha yo'nalishlarda lug'aviy ma'no anglatuvchi birliklar integral belgisi bilan yaxlit paradigmaga birlashishi, differensial belgisi orqali turlicha semantik guruhlariga, sathlararo umumiylik tizimida esa mazmuniy maydonlarga ajratilishi tadqiqotlar markaziga turadi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, til sistemasidagi har qaysi birlik, ayniqsa ikki tomonlama mohiyat sanaluvchi yuqori sath birliklari muayyan paradigma yoki maydondan joy olishi bilan birga, nutq jarayonida turlicha tarzda voqelanadi.

Voqelanayotgan har qanday variant integral va differensial belgilariga ega bo'lib, bu belgilar uning invariant sifatida tilda yashashini ta'minlaydi. Umumiy hodisa sifatida invariantning tilga xosligi bo'lsa, xususiy hodisa tarzida variantning nutq birliklariga xosligi bilan namoyon bo'ladi.

Professor D.Nabiyeva variantlilik haqida bahs yuritir ekan, uning qo'llanilish ma'nolariga to'xtaladi.



Uningcha: “Birinchisi, variantlilik deganda til evolyusiyasi natijasida ro’y bergan lisoniy birliklarning har qanday o’zgaruvi, modifikasiyasi, bir hodisani nomlash uchun qo’llaniladigan turli xil lisoniy vositalar ma’nosida qo’llaniladi. Ikkinchisi, variantlilik deganda til birliklarining sinxron holatda mavjud bo’lish va funksiyalanish usuli ma’nosida ishlatiladi. Boshqacha aytganda, invariant-variant zidlanishi til birliklari va uning nutqiy reallashuvini ifodalash uchun ishlatiladi”.

Ma’lumki, til aloqa vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasi bo’lib qolmay, balki tinglovchiga ta’sir qiluvchi qudratli vosita hamdir.

Professor Sh.Shaxabitdinova umumiylik-xususiylilik dialektikasi va uning tilda aks etishi borasida so’z yuritir ekan, uch muhim belgisini ajratadi:

I. Xususiylilikning moddiyligi va bevosita kuzatish: fahmda berilganligi.

II. Xususiylilikning alohidaligi va takrorlanmasligi.

III. Xususiyliliklarning cheklanmaganligi va behisobligi.

Til birliklarining nutq jarayonida reallashuvi natijasida har qaysi lisoniy birlik voqelanar ekan, uning bevosita kuzatishda namoyon bo’lish shakli muayyan funksional uslub bilan uzviy aloqador bo’ladi. Boshqacha aytganda, nutq jarayonida lisoniy birliklar har qaysi matnning o’ziga xos talabi, me’yorlari asosida voqelanadi.

O’zbek tili lug’at tarkibidagi “ilm-ma’rifat” semali birliklar ham turlicha funksional uslub, turlicha matnlar ehtiyojidan kelib chiqqan holda namoyon bo’ladi. Ta’kidlanganidek, bu guruhga mansub leksemalarni hozirgi kun talablari asosida tahlil etish mazkur yo’nalishdagi tadqiqotlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdiyev M.B. Sohaviy leksikaning sistem tahlili(Samarqand viloyati kasb-hunarlar materiallari asosida): Filol. fanl. dokt.... diss. avtoref. Toshkent, 2005.
2. Berdialiyev A. O’zbek tili sintaktik qurilishi asosining paradigmatic tizimi. Xo’jand, 2019.
3. Vasilyev L.M. Sovremennaya lingvisticheskaya semantika. M.: VSH, 1990.
4. Iskandarova Sh.M. O’zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o’rganish (shaxs mikromaydoni): Filol. fanl. dokt....diss. avtoref. Toshkent, 1999.
5. Mahmudov N. Til tilsimi tadqiqi. Toshkent: MUMTOZ SO’Z, 2017.
6. Muhamedova S.X. O’zbek tilida harakat fe’llarining semantik va valentlik xususiyatlari: Filol. fanl. dokt.... diss. avtoref. Toshkent, 2007.
7. Nabiyeva D. O’zbek tilining turli sathlarida umumiylik-xususiylilik dialektikasining namoyon bo’lishi. Toshkent: Sharq, 2005.
8. Ne’matov O., Bozorov O. Til va nutq. Toshkent: O’qituvchi, 1993.
9. Ne’matov H., Rasulov R. O’zbek tili sistem leksikologiyasi. – Toshkent: O’qituvchi, 1995.
10. Nurmonov A., Shahobiddinova Sh., Iskandarova Sh., Nabiyeva D. O’zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
11. Shaxabitdinova Sh.X. Umumiylik va xususiylilik dialektikasi hamda uning o’zbek tili morfologiyasida aks etishi: Filol. fanl. dokt....diss. avtoref. Toshkent, 2001.

SEMANTIC TYPES OF MODAL WORDS IN LINGUISTICS.

Abstract. The modal category and modal words are of great importance in linguistics. The category of modality has not yet been fully explained due to its functional properties, diversity and specificity of linguistic expression. In this article, the various definitions given by linguists to this complex language category and the semantic types of modal words that form the core of the sentence were studied.

Key words: Cognitive, modal words, semantics, modal verb, rational evaluation, confidence, certainty, language, doubt, probability, thinking, logic.

Аннотация: Модальная категория и модальные слова имеют большое значение в языкознании. Категория модальности еще не до конца объяснена в силу ее функциональных свойств, многообразия и специфики языкового выражения. В данной статье были изучены различные определения, данные лингвистами этой сложной языковой категории, и семантические типы модальных слов, составляющих ядро предложения.

Ключевые слова: Когнитивные, модальные слова, семантика, модальный глагол, рациональная оценка, уверенность, определенность, язык, сомнение, вероятность, мышление, логика.

When we study linguistic categories with cognitive properties, we have to turn to the problem of language and thinking again. At the same time, these linguistic categories include the category of modality. L.V. As Sherba notes, «Language and thought form an inseparable unit, observations in language are observations in thought, and the two cannot be observed outside of linguistic forms» [1: 339]. It is known that the study of the category of modality is a subject of linguistics and logic. In linguistics, modality is one of the important features of a sentence as a linguistic unit, while in logic it is considered as an important example of judgment as a form of thinking. Therefore, the analysis of the linguistic category of modality can be carried out only in close connection with the analysis of the logical category of modality and the form of thinking in which it is natural [2:159].

Many scholars have given different definitions to the category of modality in linguistics. In particular, According to A.M. Peshkovsky, the category of modality represents only one attitude - the attitude of the speaker to the connection established between the content of the quoted sentence and reality, i.e. "attitude to attitude". [3:512] Therefore, modality is studied as a complex and multidimensional category that actively interacts with the whole system of other functional-semantic categories of the language and is closely related to the categories of the pragmatic level.

Modal words have not been a separate subject of English. Previously, they were usually classified as adverbs, and for the first time in Russian linguistics, modal words were distinguished separately. Modal words are one of the most important tools of text organization. They convey specific information that is woven harmoniously into the fabric of the text and defines its overall direction. They have the ability to give special



meaning to the speech. Let's consider the following sentences as an example:

1. "...Death had **apparently** been due to the gas, but he had first been rendered unconscious by the barbiturate" (Gardner)

A sentence without the word **apparently**:

2. "...Death had been due to the gas, but he had first been rendered unconscious by the barbiturate".

Analyzing the above sentences, it can be said that both sentences are grammatically correct, but there is a significant difference in terms of the meaning conveyed. In the first given example, the speaker's attitude of doubt and probability to this situation was expressed by using the word **apparently**. In the second example, the word **apparently** is not used, and therefore the whole sentence is a simple statement of the fact that someone has died.

There is no single meaning classification of modal words in English. Therefore, V.V.Shuvalov divides modal words into two classes depending on their main meaning: 1) modal words expressing the relationship of the sentence to reality and 2) modal words expressing the relationship of the sentence itself [4: 240]. V.N. Zhigadlo, I.P. Ivanova, L.L. Iofik divide modal words into the following depending on their subjective relationship to the facts of reality: 1) words expressing a statement; 2) words that express an assumption and 3) words that give a subjective assessment of the content of the statement in terms of its appropriateness or inappropriateness [5:183].

The term «rational evaluation» is present in the dictionary meanings of modal words expressing rational evaluation belonging to the first semantic type. These modal words are divided into four semantic types according to their meaning structure:

1. The first semantic subtype includes modal words with the meaning of precision. In this subtype, modal words are combined in structures with the presence of a certain invariant lexical meaning of «trust». This subtype includes modal words «certainly, sure, surely, naturally, definitely, doubtless, undoubtedly» and modal phrase such as «of course». The term «trust» is defined by the following dictionary definitions:

certainly -	without doubt; undoubtedly, definitely; with certainty, fixedly, without doubt, unquestionably;
of course -	certainly, naturally; obviously;
definitely -	certainly, without doubt;
doubtless -	without doubt, unquestionably, certainly, no doubt;

Here are examples of the use of the first subgroup of modal words:

1. "Would you like a cup of coffee?" "I **certainly** would" (SP, 68).

2. "It seemed awfully awkward to me". "**Of course** it did" (PF, 158).

3. **Doubtless** many men besides the Egyptians devised independent systems of pic to grams (OL. 69).

2. The second semantic group includes modal words expressing the meaning of evidence. This subgroup includes modal words that have a certain invariant "certainty" meaning in their lexical meaning structures. These are modal words like "really, actually, indeed, obviously, evidently, absolutely".

obviously -	it can be easily seen (that), plainly;
-------------	--



evidently - plainly, obviously; it is proved by clear signs (that); it is plain (that);
absolutely - in actual fact, positively; without condition or limitation;

Let's look at the following dictionary definitions in examples:

4. **Obviously** we ought to distinguish between words and forms of words (G, 51).

5. **Evidently** we must make this variation the basis for our classification (SL, 187).

6. "You're sure you want me to come?" "**Absolutely**, old sport" (GG, 91).

3. The third semantic subtype includes modal words with probabilistic value, and meaning structures contain a certain invariant "probability" scheme. These are modal words like "probably, apparently, likely".

probably - almost (but not quite) certainly;

apparently - it seems (that), as it happens; evidently, visibly;

likely - probably.

For example:

7. Some of the terms are **probably** unintelligible to most people... (G, 41).

8. "The thing is ... she told Agatha Runcible she wasn't going to ask me".

"Why not?"

"**Apparently** she's in a rage about something she said about Miles" (VB, 85).

9. More than **likely**, Alan thought, the man was the worst kind of ocean drifter whom no one wanted, and with good reason (IMP, 114).

4. The fourth semantic group is represented by modal words with a doubtful meaning. This subgroup includes modal words with the lexical meaning of "doubt". These are words like "maybe, perhaps, possibly, unlikely". Let's look at the dictionary definitions.

maybe - perhaps, possibly;

perhaps - it may be, possibly; possibly but not certainly;

possibly - perhaps, in accordance with possibility; maybe;

Here are some examples:

10. "Well, Romeo, he's not my friend", Sam said after a little pause.

"**Maybe** he's your friend, Gary?" (AD, 102).

11. "But he really was a bit of a genius."

"**Possibly**, though I doubt it" (MF, 33).

12. Number, **perhaps**, raises fewer problems (G., 87).

In conclusion, it can be said that the analysis of dictionary definitions and the analysis of sema allows to identify the common semas that exist for all words forming a semantic type in the lexical meaning structures of modal words and to determine their belonging to this type. The general term for modal words of the first type of semantic structure is "rational evaluation".



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. – Л.: Наука, 1974. – 210 с.
2. Панфилов В.З. Гносеологические аспекты философских проблем языкознания. - М.: Наука, 1982. - 357 с.
3. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. - 7-е изд. - М.: Учпедгиз, 1956. - 512 с
4. Шувалов Б.Б. Модальные слова в современном английском языке: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Л., 1953. - 18 с.
5. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык. Теоретический курс грамматики. - М.; Издво лит-ры на иностр. яз., 1956. - 350 с.

*Hilola Raimova,
FarDU 1-bosqich doktoranti*

BAHRAMANDLIK

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amiriyning (Umarxon Amiriy) Xorazm adabiy muhitiga ta'siri masalasiga diqqat qaratilgan bo'lib, fikr va mulohazalar Avaz O'tar she'riyati misolida dalillangan.

Kalit so'zlar: Amiriy, adabiy muhit, devon, ishqiy g'azallar, badiiy

Klassik adabiyotimiz tarixida alohida hodisa bo'lgan Qo'qon adabiy muhitining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun astoydil harakat qilgan Amiriy o'zi yaratgan muhitning zabardast sohibi qalamlaridan hisoblanadi. Shoir tomonidan yaratilgan g'azal -u muxammas-u musaddas, musamman-u tuyuqlarida so'zlarni shunday darajada qo'llaydiki, uni „so'z guharshunosi“ [1.13] deb atash, albatta, joizdir.

Shoir devonining bir qancha nusxalari mavjud. Devon g'azal, muxammas, musaddas, tuyuq kabi janrlardan tarkib topgan. Ushbu janrlardan g'azal va muxammas Amiriy ijodida asosiy o'rinni egallaydi. Amiriy g'azallari mavzu jihatidan asosan ishqiy yo'nalishda bitilgan.

Sharq so'z san'atining zabardast namoyondalaridan so'z jilosi sirlarini o'rganish, ulardan ilhomlanish, hamda ularga ergashish, g'azalllariga tatabbu' yozish, taxmis bog'lash – Amiriy ijodining karakterli xususiyatlaridan hisoblanadi [2.77]. O'z navbatida, Amiriy ham zamondoshlari bilan bir qatorda o'zidan keyingi avlod shoirlari uchun ham va hatto o'zga bir adabiy muhit vakillariga ham o'z ta'sirini o'tkaza olgan. Qo'qon adabiy muhitining asoschisi Amiriy o'z davrida qator ijodkorlarga ustozlik qilgan. Shoirlik borasida yo'l-yo'riq ko'rsatgan. Amir Umarxonning shoirlik borasidagi, ustozlik borasidagi faoliyatlari ulkan bir davr - Qo'qon adabiy muhitining shakllanishi va rivojlanishiga zamin hozirlagan.

1821-yilda Fazliy Namangoniy Umarxon amriga binoan, 70 dan ziyod shoirning she'rlarini o'z ichiga olgan «Majmuai shoiron» to'plamini tuzgan. Uni ulug'lab qasidalar yozish, g'azallariga tatabbu'lar bog'lash bu shoirlar ijodida yetakchi o'rin tutgan. Bu narsa Xorazm ijodkorlarini ham befarq qoldirmagan. Amiriy ijodiga qiziqishning, uning



g'azallariga tatabbular bog'lashlarining eng asosiy yana bir sababi uning ijodidagi serjilolik, betakrorlikdir. Chunonchi, Xiva adabiy muhitining iste'dodli vakili Avaz O'tar ijodiga nazar tashlaydigan bo'lsak, uning Amiriydan ilhomlangani, o'ziga ustoz deb bilgani, shoirning ayrim g'azallariga ta'tabbular bitganligini ko'rishimiz mumkin.

Amiriy ijodida "Muborak" radifli g'azal mavjud bo'lib, ushbu g'azal badiiy mukammalligi bilan ajralib turadi. G'azal aruz vaznining *rajazi musammani solimi maqbul* vaznida yozilgan. Ya'ni ruknlari: *mustaf'ilun -fauvlun-mustaf'ilun -fauvlun (- - v - / v - - / - - v - / v - -)* asllaridan hosil bo'lgan.

Husning kamola yetdi, ey mahliqo muborak

Oyinayi jamoling topdi safo muborak [3,175]

Bayti bilan boshlanuvchi Amiriyning ushbu g'azali tavsifiy xarakterda bo'lib, ma'shuqaning husn-u malohatda ham, ibo-hayoda ham tengsiz ekanligi va shu sifatlarga munosib tarzda yor inoyatda ham sahovatli bo'lishini iltijo qiladi. Amiriy bo'y qizlarning kamolga yetib, bir mahliqo bo'lganligini ta'riflar ekan, ular jamolini oynadek ekanligini va uning g'oyat pokiza ekanligini ta'kidlaydi.

Avaz O'tar ham Amiriy izidan borib, "muborak" radifli g'azalga tatabbu bitadi. Amiriy g'azali to'qqiz baytdan iborat bo'lsa, Avaz O'tar yetti baytli tatabbu bitgan. Har ikki g'azalda ham vazn bir xil, radif aynan takrorlangan, qofiyalar ham o'xshash.

Topmish kamol husning, ey mahliqo muborak.

Bermish bori jahonga nuri ziyo muborak. [4, 105]

Avaz O'tarda matla'ning birinchi misrasini takrorlangan holda, ikkinchi misrada ma'shuqasining kamolga yetgan go'zal husn-u jamoli hatto butun olamga ziyo tarqatayotganligi ma'lum qilinadi.

Amiriy g'azalining ikkinchi bayti quyidagicha:

Xo'b o'ldi orazingni oyinadin yoshurding,

Ey sho'xi mohi tal'at sharm-u hayo muborak.

Ushbu baytda oyina so'zi jahon, olam ma'nosini ifodalaydi va bu o'rinda yor yuzini olamdan yashirayotganligini ma'lum qiladi. Oshiq oy yuzli mashuqaning hayoli ekanligidan shodlanadi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, ushbu g'azalda ifodalangan majoziy ishq bu baytga kelib ilohiylik kasb etgandek bo'ladi. Ya'ni shoir orazingni oyinadin yoshurding deya bu ishning yaxshi bo'lganligini ta'kidlar ekan, shu o'rinda Yaratganga, uning jamoli butun insoniyatga yashirin ekanligiga ishora qiladi.

Avaz O'tar ikkinchi baytni shunday ifodalaydi:

Qilmish fuzun jamoling zeb ila ziynatingni,

Ey yor, toza kiygan gulgun qabo muborak.

Ushbu baytda shoir mashuqasini shunday madh etadiki, zeb-ziynatlar mashuqani emas, balki yorning go'zalligi zeb-ziynatlarni ko'rkini ochadi go'yo.

Amiriy:

To yuzga g'oza chekting, qonimni to'kdi g'amzang,

Noz ilgida, nigoro, bo'lsin xino muborak.

Amiriy ushbu baytda "g'oza", "xino", "yuz", "qo'l" so'zlari orqali tanosub san'atining go'zal marjonini tizadi. Mashuqasining o'ziga zeb berib, pardoz qilishi oshiqning ahvolini yanada og'irlashtiradi. Yorning noz qilishi esa, oshiqning dardini ikki karra oshiradi.

Avaz O'tar:



*Ey ishq hayli ichra mehr-u vafoda sodiq,
Kelmish yuzin ochib ul bazming aro muborak.*

Avaz O'tar esa yorini sadoqatli, vafoga sodiqligini bayon qilar ekan, uni oshiqqa peshvoz chiqishi bayramdek bo'lishiga urg'u beradi.

Amiriy:

*Harchand manga paymon paymonasin ushotting,
Qilding raqiblarga ahd-u vafo muborak.*

Amiriyda esa mashuqa oshiqqa faqat va faqat jabr-u zulm qiladi. Ayni paytda, raqiblarga yaxshi munosabatda bo'lishi oshiqning paymonasini to'ldiradi.

Avaz O'tar:

*Ag'yori shumni aylab bu kecha dog'u nokom,
Ul sho'xi shang qilg'on lutfu ato muborak.*

Tatabbuda Avaz O'tar mashuqasi ag'yorni lol qoldirib, oshiqqa lutf qiladiki, bundan oshiqning boshi osmonga yetadi.

Amiriy so'z ma'nolarini benihoya nozik his qiladi va o'z she'rlarida undan mahorat bilan foydalanadi. Chunonchi shoir bir baytda:

*To masnadi malohat sultonisan, vafo qil,
Shahdin karam munosib, quldin duo muborak.*

deya go'zalliklar sohibi, sultoni bo'lgan yorga oshiqqa bir bora ehson qilishini yolvoradi. Ayni shu o'rinda "shoh" va "qul" so'zlari orqali tazod san'atian unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni ijodkor "vafo qil" deya mashuqasiga murojaat qilar ekan shu o'rinda mashuqa orqali butun insoniyatga "Shahdin karam munosib, quldin duo muborak" deya nasihat qilib o'tgandek bo'ladi. Amiriy mamlakat hukmdori sifatida aholiga adolat va muruvvat qilish lozimligi ta'kidlash orqali shahzodalarga ham o'git aytgandek bo'ladi. Ayni paytda, majoziy ishqni yana bir bor ilohiylik tomon buradi. O'zining banda, ya'ni qul ekanligini ta'kidlab, Ollohga jamiki go'zalliklar sultoniligini, karam, xayr-sahovat shohga munosib bo'lgan hislat ekanligini aytib o'tadi.

Avaz O'tarda shu ma'nodagi bayt:

*Javru jafo rusumin tark aylabon bu oqshom,
Ul nozanin tutubdir rasm-u vafo muborak.*

Tatabbuda mashuqa bir kecha jabr qilish odatini tark etib, yorga inoyat qiladi. Mashuqaning ushbu harakati oshiqni behad quvontiradi.

Amiriy:

*Bir sho'xi dilraboning bo'ldim asir-u zulfi,
Boshimga tushdi savdo, qilsun Xudo muborak.*

Ushbu baytda Amiriy bir o'ynoqi dilbarga oshiq bo'lib qolganligini bayon qilar ekan, boshiga tushgan bu azobli savdo bilan o'zini-o'zi qutlaydi.

Avaz O'tar:

*Ayyomi vasl bordur ayyomi iyd yanglig',
Ahhob bo'lg'ay ul kun doim manga muborak.*

Avaz O'tar tatabbuda xuddi xayit bayrami singari visol bayrami bor ekanligini, ushbu bayramni intiqlik bilan kutajagini ma'lum qiladi. Bu o'rinda shoir tashbeh san'atiga murojaat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Maqta'ni Amiriy faxriyachi o'laroq qabul qilish o'rinli bo'ladi:

*Ul sarvqad xayolin qilding Amir insho,
Tab'i salim birla fikri raso muborak.*



Ul sarv bo'ylik yor xayolini shunday yozdingki, ta'bi sa'lim va fikri rasolik muborak bo'lsin! Bu o'rinda Amiriy ma'shuqa ta'rifini maromiga yetkazib taviflashda unga Yaratgandan berilgan iste'dod qo'l kelganligini ta'kidlaydi.

Avaz O'tarda esa bunday ma'shuqa visoli oshiq uchun faqat orzu bo'lib qolishiga ishora qilgandek bo'ladi. Chunonchi:

*Shum muddaiy yuzina solma nazar Avazkim,
Diydorin oni ko'rmak oshiqqa nomuborak.*

Ko'rinib turganidek, Avaz O'tar Amiriy yaratgan g'azalga, o'zidan oldingi ijodkorlar boshlab bergan silsilani davom ettirgan holda, juda go'zal bir o'xshatma qilish orqali nafaqat o'z ijodini, balki Xorazm adabiy muhitini ham yangi bir san'at asari bilan boyitgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamidjon Xomidiy. Ko'hna sharq darg'alari. - Toshkent: Movaraunnahr, 1999.
2. Zebo Qobilova. Amiriy she'riyati. -Toshkent: Fan, 2010.
3. Amiriy. Devon. 1-tom. O'zbekcha she'rlar. -Toshkent: Tamaddun, 2017
4. Avaz O'tar. Saylanma. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.

***Yusupova M.B.,
FarDU tayanch doktoranti***

EVFEMIZM IZOHLARIGA DOIR

Annotatsiya

Mazkur maqolada evfemizmlar turli tadqiqotchilar, olimlar tomonidan berilgan hamda lug'atlarda keltirilgan izohlariga asosan qiyosan o'rganildi. Evfemizmlarning mohiyati ta'riflandi.

Kalit so'zlar: evfemizm, izoh, tushuncha, ijobiy ma'no beradigan so'z.

Annotatsiya

V dannoy stat'e evfemizmi izuchayutsya po opredeleniyam, dannim uchenimi i issledovatelyami, a takje dannimi slovary. Opredelyaetsya sushnost` evfemizmov.

Klyuchevie slova: evfemizm, opredelenie, ponyatie, slovo s polojitel`nim znacheniem.

Annotation

The given article is devoted to the comparative analyses of the definitions of euphemisms, given by scientists and researchers along with the dictionaries. The essence of the euphemisms is defined.

Key words: euphemism, definition, notion, words with positive sense.

Evfemizm hodisasi tilshunoslikda dolzarb va muammoli masalalar qatoriga kiritilgan bo'lib, bugungi kunda aksariyat tadkikotchilar evfemizmlarning tadqiqiga nihoyatda katta ahamiyat bermoqdalar.

Evfemizm so'zi grek tilidan kelib chiqib, "yaxshi ifoda etish, yaxshi gapirish" ma'nolarini anglatadi. Evfemizm tushunchasi turli tadqiqotchilar tomonidan ifodalangan. Biz ham ushbu hodisaning aniq tarifini ifoda etish uchun turli manbalarga



yondashamiz va ushbu tushunchaning ma'nosini atroflicha talqin etamiz. Jumladan, ingliz tilining Oksford lugatida evfemizmlar yoqimsiz ma'no beradigan so'z yoki iborani o'rnini bosadigan ifoda sifatida talqin etiladi[3]. Bir qator lug'atlarni ko'rib chiqib, evfemizm hodisasining ta'riflariga yondashamiz. Masalan, The Concise Oxford Dictionary of Current English ta'rifiga ko'ra, ters va to'g'ridan-to'g'ri fikr o'rniga ishlatiladigan yumshoq va noaniq nutq birligidir[6].

Cambridge Advanced Learner's Dictionary ta'rifiga ko'ra evfemizmlar yoqimsiz yoki ranjitadigan so'zlardan voz kechish uchun qo'llanadigan so'z yoki iboradir[7]. Webster's Revised Unabridged Dictionaryda yozilishicha evfemizm ters yoki o'ylamasdan aytilgan so'z yoki ifodani yumshatib, ranjitmaydigan o'rindosh so'z sifatida qo'llaniladi. ("a figure in which a harsh or indelicate word or expression is softened; a way of describing an offensive thing by an inoffensive expression; a mild name for something disagreeable"[8]. The American Heritage Dictionary of the English Language lug'atida ta'kidlanishicha, evfemizm so'zlovchining to'g'ridan-to'g'ri ranjitadigan so'zning o'rniga yumshatish uchun foydalaniladigan so'zdir[9]. Albatta, lug'atlarda keltirilgan evfemizmning har bir izohi bir biriga yaqindir. Olimlar K.Allan va K.Burridjning ta'riflariga kura, «Evfemizmlar xijolatli xolatga tushmaslik uchun yoki tinglovchilarni ranjitib qo'ymaslik uchun ishlatiladigan iboralardir» [1].

V.Lutzning aytishicha, evfemizm yoqimsiz va qo'pol voqe'likdan qochish uchun foydalaniladigan yumshoq so'z yoki iboradir[2]. Evfemizmlar to'g'ridan-to'g'ri biror narsaga bog'lik narsa yoki vaziyatni tasvirlab bermaydi. Balki, ular aytilmaydigan, istalmagan, turli salbiy, qo'pol, yoqimsiz, ranjituvchi, uyaltiradigan so'zlarga o'rindosh so'z yoki ibora sifatida qo'llaniladi. Aksariyat odamlar o'zlarini ishlari bo'yicha ijobiy fikrlarni eshitishni xohlashadi. Ular vazifalarini qanday taqdim etishlaridan va bajarishlaridan qat'iy nazar, ijobiy javob eshitishga moyildirlar. Evfemizmlardan foydalanish so'zlovchining qay darajada xushmuomala va madaniyatli ekanligini belgilab beradi. Hammamizga ma'lumki, insonlarning qo'pol va uyatli so'zlarni ishlatishini oldini olishda xushmuomalalik qoidalar asos bo'lib xizmat kiladi. Biz tinglovchilarimiz bilan chiroyli suhbat qurish va shunga rioya qilish uchun evfemizmlardan foydalanamiz. Barcha tillarda xushmuomalalik qoidalariga rioya qilish chiroyli so'zlashning asosi hisoblanadi. Bu necha asrlardan beri, muvaffakiyatli suhbatga erishish uchun eng sinalgan va samarali yo'l hisoblanadi. Shuning uchun, evfemizmlar qo'pol va yoqimsiz so'zlarga o'rindosh bo'lib ishlatiladi. Ular asosan xomiladorlik, siyosat kabi yoqimsiz mavzularni ifoda etilishida o'rindosh bo'lib hizmat qiladi. Bularga hojatxona, o'lim, nogironlik va boshqa bir qancha mavzular kiradi. Turli tillarda evfemizmlar tadqiqida, so'zlovchining yangi evfemizmlarni ishlatishi va ularni o'zbek va ingliz tillarida solishtira olishi bugungi kunda yangidan yangi tadqiqot ishlarning olib borilishiga turtki bo'ladi. Shu bilan birga, aytishimiz mumkinki, har qaysi tilda taqiqlangan tushuncha, vaziyat, narsa va predmetlar mavjud. Turli tillarda taqiqlangan tushuncha va vaziyatlar millat mentaliteti, urf-odatlar bilan bog'liqdir. Shuning uchun evfemiya hodisasining ta'rifida lingvokul'turologik masalalarga ham yondashib, uning mohiyatini ochib berish zarurdir. Masalan, "o'tib ketdi, bu dunyoni tark etdi, u dunyoga ravona buldi, oyog'ini uzatib yubordi, bandalikni bajo keltirdi, to pass away, to kick the bucket, to go to another world" kabi evfemizmlarning xammasi "o'lmoq, o'lim" so'zini ifoda qilmoqda. Homiladorlikni ifoda etadigan evfemik birliklar "bo'yida bor, in delicate



condition, in a family way". Ko'rinib turibdiki, yuqorida evfemik birliklarning ayrimlari ikki tilda ham muvofiqligi bilan ta'riflanadi yoki aynan madaniy xususiyatlarni namoyon etib, farqlilik jihatlarini yuzaga chiqaradi. Evfemiya turli sohalarda ko'p uchraydigan hodisadir. Evfemizmlarning nafaqat tilshunoslik sohasi, balki ayrim boshqa fanlarda bir necha izohlariga e'tibor qaratamiz. Falsafiy termin sifatida, evfemizm qalb xotirjamligi, hayotsevarlikni anglatadi. Yana bir varianti ruh xotirjamligiga erishish. Xuquqiy termin sifatida, qo'pol harakatlar o'rniga xushmuomala murojaatda bo'lish deganidir. Lingvistik tushuncha buyicha, evfemizm birlamchi qalb so'zi, ikkilamchi esa nutq so'zidir. Diniy termin sifatida soqinlikni anglatadi.

Evfemizmlar bugungi kunda og'zaki nutq, badiiy asarlar, publisistik va gazeta uslublarida keng qo'llanmoqda. Bu tilning ma'no mazmun imkoniyatlari ko'pligini ifodalaydi. Evfemizmlar xushmuomalalik va yuksak saviyali muloqot madaniyatining mahsulidir. Bu, o'z navbatida, har bir so'zlovchining tilning go'zal va boy imkoniyatlarini ko'rsatib berishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Allan K., Burrige K. Forbidden Words. Taboo and the Censoring of Language. Cambridge University Press, 2007. ISBN : 978-0-521-52564-0, 303 pages.
- 2.Lutz, W. (1987). Doublespeak: From "Revenue Enhancement" to "Terminal Living": How Government, Business, Advertisers, and Others Use Language to Deceive You. New York: Harper & Row.
- 3.Oxford English Dictionary (OED, <http://www.oed.com/>)
- 4.Online Handbook of Pragmatics (2021), ed. by Jan-Ola Ostman&JefVerschueren[https://benjamins.com/online/hop\(1991:11\)](https://benjamins.com/online/hop(1991:11))
5. Online Handbook of Pragmatics (2021), ed. by Jan-Ola Ostman&JefVerschueren[https://benjamins.com/online/hop\(2000:231\)](https://benjamins.com/online/hop(2000:231))
- 6.The Concise Oxford Dictionary of Current English. 8thed. / ed. by R. E. Allen. Oxford: Clarendon Press, 1990.
- 7.Cambridge Advanced Learner's Dictionary / ed. by P. Gillard. Kundli.: Cambridge University Press, 2003.
- 8.Webster's Revised Unabridged Dictionary, © 1996, 1998 M1CRA, Inc // <http://dictionary.reference.com/search?q=euphemism>
- 9.The American Heritage ® Dictionary of the English Language, Fourth Edition Copyright 2000 by Houghton Mifflin Company. Published by Houghton Mifflin Company// <http://dictionary.reference.com/search?q=euphemism>
- 10.<http://humanities.edu.ru/db/msg/1377>.





“TA'LIM” MIKROMAYDONI LUG'AVIY BIRLIKLARINING TERMINLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “ta’lim” mikromaydoni lug’aviy birliklarining terminologik tizimdagi terminlik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar. termin, aniqlik, qisqalik, abbreviatura, bir ma’nodlilik, leksik qisqartirish.

Аннотация. В данной статье анализируются терминологические особенности лексических единиц микрополя «образования» в терминосистеме.

Ключевые слова. термин, точность, краткость, однозначность, лексического сокращения, аббревиации.

Annotation. This article analyzes the terminological features of the lexical units of the microfield of “education” in the terminological system.

Key words. term, precision, brevity, abbreviation, monosemy, lexical reduction.

“Ta’lim” mikromaydoni lug’aviy birliklarining terminlik xususiyatlarini o’rganish uchun, avvalo terminologik tizimning xususiyatlari, terminlarga qo’yiladigan talablarni bilishimiz zarur.

Bizga ma’lumki, terminlarga odatda an’anaviy tarzda aniqlik, qisqalik, kontekstdan tashqarida ham mustaqil ma’no anglati olishi, uslubiy betaraflik, bir ma’nodlilik, ko’p hollarda universallik, ya’ni boshqa tillarda ham bir xil ma’no va shaklda ishlatilishi va boshqa shu kabi xususiyatlari bilan umumiste’modagi so’zlardan ajralib turishi talab qilinadi.

Terminologik tizimdagi terminlarning eng asosiy xususiyatlaridan biri aniqlik bo’lib, birinchi marta D.S.Lottening asarlarida ilgari surilgan⁸⁸. Terminlardagi aniqlik – terminlarda maxsus tushunchaning mavjudligi, ma’noning cheklanganligi va terminologik tizimda ta’riflash orqali chegaralanishidir. *University and College Union, Northern Ireland Curriculum Assessment* kabi ta’lim mikromaydoniga taalluqli terminlarda aniqlik, maxsus tushunchaning mavjudligi va ma’noning cheklanganligini ko’rishimiz mumkin. Boshqa tomondan esa bunday so’z birikmasi holatidagi terminlar I.V.Arnold⁸⁹ning fikriga asosan qisqalik talabiga ziddir.

Terminlarning kirib kelishi, rivojlanish va o’zgarish bosqichlaridan xulosa qilishimiz mumkinki, ulardagi aniqlik xususiyati ham ma’lum vaqt davomida shakllanib, terminologik tizimda o’zining maxsus chegaralangan ma’nosiga ega bo’ladi. Shuningdek, terminning qisqaligi ham uning nafaqat adabiyotlarda, balki kundalik hayotimizda ham qo’llanilish chastotasiga ko’ra sayqallanib qisqarib boradi. Odatda terminning ana shunday qisqaligi uning qisqartirilgan shaklini paydo qiladi. Misol uchun, V.P.Danilenko terminlarning bunday qisqalikka ega bo’lishlari abbreviatsion, derivatsion va ellipsis

88 Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. М.: Изд-во АН СССР, 1961, с. 26-28с

89 Арнольд, И. В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие / И. В. Арнольд. — М.: Высш. шк., 1991. — 89-91с



holatida paydo bo'lishini aytadi. Boshqa manbaalarda esa⁹⁰ bunday qisqartirilgan shakl 2 xil usulda – leksik qisqartirish va abbreviatura orqali hosil qilinib, uning qisqa versiyasi terminning asliga va funksional belgisiga ekvivalent hisoblanadi. Masalan: *DTS – davlat ta'lim standartlari*.

Bunday qisqartirishlarning eng muhim sharti uning to'liq versiyasidagi ma'noni, konseptni saqlab qolishdir.

O'zbek va ingliz tillarida "ta'lim" mikromaydoniga taalluqli quyidagi qisqartirilgan terminlarni uchratishimiz mumkin.

- 1) **Abbreviatsiya** usuli orqali: *Advanced Level – A-Level, Baccalaureate – Bac, Education & Excellence – Edexcel, electronic learning – e-learning, examination – exam; Ordinary Grade – O-Grade; h-indeks, shuningdek, akronimiya usuli orqali: Assesment for Learning – AfL, Department for Education – DfE, Excellent Teacher Scheme – ETS, managed earning environment – MLE, National Foundation for Educational Research – NFER, Workers' Educational Association – WEA;*
- 2) Ellipsis: *International Baccalaureate – Baccalaureate, fixed mindset – mindset, viva voce – viva, tuition fee – fee [ADOE].*

Terminlar har doim ham qisqalik talabiga javob bera olmasligini inobatga olib, ulardagi aniqlik va uslubiy neytralligi tahlil qilingan maydon lug'aviy birliklarida ham asosiy omil ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khasanovna, G. D. LEXICAL SEMANTIC ANALYSIS "EDUCATIONAL ESTABLISHMENTS" IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.
2. Ganieva, D., & Moxichexra, I. (2022). STUDY OF SYNONYMS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES. Conferencea, 56-57.
3. Лотте Д. С. Основы построения научно-технической терминологии. М.: Изд-во АН СССР, 1961, с 72-73.
4. Даниленко В. П. Лингвистический аспект стандартизации терминологии. М.: Наука, 1993.
5. Арнольд, И. В. Основы научных исследований в лингвистике: Учеб. пособие / И. В. Арнольд. — М.: Высш. шк., 1991. — 140 с.
6. Хохлачева, В. Н. Краткие варианты терминов в ГОСТах / В. Н. Хохлачева Культура речи в технической документации (на материале ГОСТов и специальной литературы). – М.: Наука, 1982. – С. 53-67.



90 Хохлачева, В. Н. Краткие варианты терминов в ГОСТах / В. Н. Хохлачева// Культура речи в технической документации (на материале ГОСТов и специальной литературы). – М.: Наука, 1982. – С.61-62с



*Xalilova Nilufar Bahromovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti
tayanch doktoranti*

QO'QON XONLIGI TARIXIGA DOIR MANBALARDAGI ANTROPONIMLARNING VARIANTDORLIK XUSUSIYATI

Annotatsiya. Maqolada Qo'qon xonligi tarixiga doir manbalardagi antroponimik birliklarning variantdorlik masalasi tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar. o'zbek tilshunosligi, lisoniy variantdorlik, onomastik tizim, antroponimlar, Qo'qon xonligi, intim, ismlar, antroponimik indikatorlar.

Annotation. The article examines the issue of variation of anthroponymic units in sources related to the history of the Kokhan Khanate.

Keywords. Uzbek linguistics, linguistic variation, onomastic system, anthroponyms, Kokan Khanate, intimate, names, anthroponymic indicators.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос вариативности антропонимических единиц в источниках, связанных с историей Коканского ханства.

Ключевые слова. Узбекское языкознание, языковая вариативность, ономастическая система, антропонимы, Коканское ханство, интимное, имена, антропонимические показатели.

O'zbek tilshunosligida lisoniy variantdorlikka xos xususiyatlarni talqin qilish birinchi bor 1966-yili nashrdan chiqqan "Hozirgi o'zbek tili" kitobida ifodalanadi. Variantdorlik hodisasi umuman onomastik tizimga, jumladan, antroponimik birliklar uchun ham xos. O'zbek ismlarining lug'aviy-lahjaviy va imloviy variantlariga oid fikrlar E.Begmatovning "O'zbek ismlari" kitobida yanada ixcham va aniq holda o'z ifodasini topgan. Olimning o'zbek ismlari imlosi muammolariga doir olib borgan tadqiqot ishlarida o'zbek ismlari imlosidagi xilma-xil imloviy variantlar, ismlarning unli tovushlar, undosh tovushlar bilan bog'liq imloviy nuqsonlar, antroponimlarning lahjaviy hamda qisqarish xususiyatlari tahlil qilingan. E.Begmatovning fikricha, ismning mahalliy shevada shu xil o'zgarishga uchrashi bitta nomning birdan ortiq variantga ega bo'lib qolishga va bu variantlarning yozuvda aks etishiga sababchi bo'ladi⁹¹. «Variantdorlik, ya'ni nutqda erkin va maqsadga muvofiq tanlash imkoniyati bo'lmasa, adabiy til o'zining muhim badiiy-estetik funksiyasini, ta'sirchanlik, ifodalilik tomonlarini ta'minlay olmas edi. Inson nutqi hissiz, o'lik qoliplar, qaytariqlardan iborat bo'lib qolardi⁹². R.Shukurovning "So'zning morfologik variantlari" nomli tadqiqotida variantdorlikka ta'rif berar ekan, biror til birligining, masalan, bitta so'zning ikki yoki undan ortiq shaklda ifodalanishi ekanligini aytadi⁹³. Shuningdek, aynan antroponimlar sohasidagi variantdorlik bo'yicha R.Xudoyberganovning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. U tadqiqot ishida ismlarning qisqarish hamda erkalash-kichraytish variantlari, lug'aviy-lahjaviy, qisqargan hamda unlilar va undoshlar imlosi bilan bog'liq, shuning-

91 Begmatov Э. Киши номлари имлоси. –Тошкент: Фан, 1970. – Б.18.

92 Begmatov Э., Бобоева А., Асамиддинова М. Адабий норма ва нутқ маданияти. –Тошкент: Фан, 1983. –Б.65

93 Шукуров Рашид. Сўзнинг морфологик вариантлари. –Тошкент: Фан, 1990. – Б. 6.



dek, tovushning tushishi yoki ortishi bilan bog'liq hodisalarga oid variantlar haqida batafsil ma'lumot beradi⁹⁴.

Qo'qon xonligi tarixini hikoya qiluvchi manbalarda ham antroponimik birliklarning turli shakllarda yozilganligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, tarixiy shaxslar, Qo'qon xonlari, xonzodalari, malikalar, sarkardalar, lashkarboshi va turli xil amaldorlarning ismlari, laqablari, ismlar tarkibida kelgan antroponimik indikatorlarning manbalarda turlicha berilishi bu tarixnavisning mahoratini, dunyoqarashini, qahramonlarga bo'lgan intim munosabatini belgilaydi. Bundan tashqari, tarixiy asar qahramonlarining nomlanishida asar yozilgan davr, muhit, xalq shevalari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yana shuni aytish joizki, tarixiy asarlardagi shaxslarning nomlanishidagi turlichalik kitobxonni tarixni o'rganishda, qahramonlarni tanib olish jarayonida biroz ikkilantirib qo'yadi. Quyida Qo'qon xonligi tarixini hikoya qiluvchi ba'zi manbalardagi antroponimlarning turli xil shakllarda berilganligiga misollar keltiramiz:

“Tarixi Turkiston” asarida	“Ibratul havoqin” asarida
Abdulboqiy	Abdulboqi
Eshon domla Yoqub Oxund	Eshon domla Muhammadya'qub ustoz
Davronbek tojik-boturboshi	Davronbek dodxoh
Ziynatshoh	Zinnatshoh
Qanbar sharbatdor	Qambar sharbatdor
Kali Shodi/Kalli Shodiy marg'inonlik	Kal Shohi Marg'inoniy/Shohiy mingboshi
Rustambek dodxoh Qozoqboy oqsoqol o'g'li	Rustambek ibn Qozoqboy Toshkandiy
Solihxo'ja sudur Ota o'g'li/Ota o'g'li	Solih sudur/Solihxo'ja sudur
Haqli mingboshi	Haqquli yuz-mingboshi
Shodmonxo'ja o'roq/mingboshi	Shodmonxo'ja Toshkandiy
Sotiboldi dodxoh	Sotiboldi dodxoh Xo'qandiy/ Sotiboldi dodxoh Qosimbek otaliq o'g'li
Rahmatulloh dodxoh	Rahmatulloh ming

Manbalarni varaqlar ekanmiz, Qo'qon xonligining asoschisi bo'lgan Shohruxbiyning ajdodi Shohmastbiy tarixiy kitoblarda *Chamashbiy/Shohmast/Shamast* kabi shakllarda uchraydi. Norbo'tabiy laqabi bilan mashhur bo'lgan Qo'qon xoni Abdulhamidbek ibn Abdurahmonxon ibn Abdulkarimxon ibn Shohruxxon ham Niyoz Muhammad Xo'qandiyning “Ibratul xavoqin” asarida Norbotur, Narbotur, *Nar Bahodir*, Ishoqxon To'ra Ibratning “Tarixi Farg'ona” asarida *Borbo'ta vallomiy* kabi nomlar bilan ataladi. Bu mahalliy xalqning shevaviy-lahjaviy munosabatidan yuzaga kelgan desak, to'g'ri bo'ladi. Qo'qon xoni Sheralixonning katta o'g'li, Xudoyorxonning akasi, asl ismi Abdurahmonbek bo'lgan xonzodaning *Salimsoqxon/Sarimsoqxon* tarzida, Qo'qon

94 Худойберганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 146 б.



xonligining mingboshisi, amiri lashkari Mulla Alimqul Husaynboy o'g'li (1831/32-1865) ni *Mullo Olimqul qirg'iz/Mullo Olimqul/Aliguli qirg'iz* tarzida, Xudoyorxon davlatining mingboshisini *O'tabboy/O'tabbiy/O'tambiy* qo'shbegi mingboshi qipchoq shaklida nomlanganligiga guvoh bo'lamiz. Shuningdek, *Rajab devonbegi/Rajab qo'shbegi tojik, Abdurahimbiy/Rahimxon, Irisqulibek/Idrisqulbiy, Odinaqul/Annaqul, Tangriquli/Taniququl* kabi variantdosh ismlarni ham uchratamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бегматов Э. Киши номлари имлоси. –Тошкент: Фан, 1970. – Б.18.
2. Шукуров Р. Сўзнинг морфологик вариантлари. –Тошкент: Фан, 1990. – Б. 6.
3. Худойбергганов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2008. – 146 б.
4. Ниёз Муҳаммад Хўқандий. Ибратул Хавоқин. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 468 б.
5. Муҳаммадҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 717 б.
6. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент : Янги аср авлоди, 2009. – 241б.

Sultonova Dilnoza Sohibjonovna
Namangan davlat universiteti,
Jahon tillari fakulteti katta o'qituvchisi

CH.DIKKENSNING “OLIVER TWISTNING BOSHIDAN KECHIRGANLARI” HAMDA TOHIR MALIKNING “ALVIDO... BOLALIK” KRIMINAL ASARLARI USLUBIY O'ZIGA XOSLIGINI SHAKLLANTIRGAN OMILLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu mqolada Ch.Dikkensning “Oliver Twistning boshidan kechirganlari” hamda Tohir Malikning “Alvido... bolalik” kriminal asarlari o'zaro qiyosiy tahlil qilingan. Har ikkala asarda yozuvchi ijodidagi mushtarak jihatlar ham, farqli xususiyatlar borligi yaqqol ko'rinib turadi. Yozuvchilar voqealarni tasvirlash, qahramonlarni tavsiflash, sujet, kompozitsiya, peyzaj, qahramonlar ruhiyati tasviri kabilarda sezilib turishi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sujet, kompozitsiya, peyzaj, vaziyat, portret chizish, qahramonlar ruhiyati.

Annotation. This article compares the criminal works “The Adventures of Oliver Twist” by C. Dickens and “Farewell... Childhood” by Tahir Malik. In both works, it is clear that there are common aspects and different features of the author's work. It is shown that the writers are noticeable in describing events, describing characters, plot, composition, landscape, and depicting the psyche of heroes.

Key words: subject, composition, landscape, situation, portrait drawing, psyche of characters.

Kriminal asarlarning uslubiy o'ziga xosligini aniqlashda ikki yozuvchining mavzusi bir-biriga yaqin bo'lgan asarlarini qiyoslash usulidan foydalanish yaxshi samara beradi.



Bu xususda adabiyotshunos To'xta Boboyev yozadi:

“Bunday qiyoslash jarayonida har ikkala yozuvchi ijodidagi mushtarak jihatlar ham, farqli xususiyatlar ham borligi yaqqol ko'rinib qoladi. Ijoddagi mushtarak belgilar har ikkala yozuvchi ham yagona ijodiy metodga asoslanganligini anglatga, original uslub sohibi ekanliklaridan guvohlik beradi. Bu farq fikrni yozuvchilarni bir-biridan ajratib turadigan xislatlar har ikkala yozuvchining ham bayon qilish, voqealarni tasvirlash yo'sini, qahramonlarni tavsiflash, sujet va kompozitsiya, konflikt va xarakter yaratish, peyzaj, vaziyat, portret chizish, qahramonlar ruhiyati tasviri kabilarda sezilib turadi” (B. 550-551.)⁹⁵.

Jumladan, turli vaziyatlar va sabablar taqozosiga ko'ra, bolalik davri “o'girlangan” va jamiyat, tuzum va atrofdagi odamlarning ta'siri ostida jinoyat olamiga kirib qolgan bolalar obrazi qora bo'yoqlarda tasvirlangan ingliz adibi Charlz Dikkinsning “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” hamda o'zbek adibi Tohir Malikning “Alvido... bolalik” asarlaridagi uslublarni qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, ularda til vositalaridan foydalanishdan tortib, milliy dunyoqarash, siyosiy tuzum, davr ruhi, ilmiy-texnik va davrdagi taraqqiyot darajasi – kabi ko'plab omillar uslubni shakllantiruvchi vosita sifatida xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin.

Asarlari tilidagi uslubiy xosliklar haqida gap ketganda quyidagi tushunchalarga alohida to'xtalish zarur.

1. Asarlarda fikrni bayon qilish, voqealarni tasvirlash yo'sini, Har ikkala asarda ham voqealar muallif tilidan hikoya qilinadi. “Oliver Tvistning boshidan kechirganlari” romanidagi muallif hamma narsani biluvchi hikoyachi sifatida namoyon bo'ladi. Biroq muallif bayonining toni (ohangi) o'zgarib turadi. Aksariyar o'rinlarda, jumladan, Oliverning tobutsoz uyida masxaralanishi va kaltaklanishi, qochib Londonga yo'l olib, uzoq masofani yayov bosib o'tishdagi qiyinchiliklari tasvirida, yozuvchi qahramonga hamdarddek ko'rinadi. Ba'zan ularga nisbatan kinoya, kesatish ohangidagi tavsiflar beradi. Ta'kidlash kerakki, bunday yondashuv asarda insonning turli vaziyatdagi holati bir shaxs tomonidan turlicha tavsiflanishi ham ko'rsatadi. Zero, inson murakkab xarakter va tafakkur egasidir.

“Alvido ... bolalik” asarida muallif nutqida, ta'bir joiz bo'lsa, yozuvchining keksaroq yoshdagi odam ekanligi darrov sezilib qoladi. Asardagi ko'plab qahramonlar maktab yoshidagi bolalar ekanligi hamda bu asar ham, o'z navbatida, yoshlarga ko'proq tavsiya qilinishini e'tiborga olsak, bu holat asar tili ta'sirchanligida doim ham yaxshi samara beravermaydi.

Yozuvchilarning asardagi nutqi haqida gapirganda, adabiyotshunos olim Hotam Umurovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli: “Muallif barcha sarlarining hikoyachisi bo'lganligi sabab, u “qo'mondonlik” vazifasini bajaradi: har bir personajning o'rnini, o'y-kechinmalarini, fikr-mulohazalarini, harakatlantiruvchi muhitning shart-sharoitlarini, muomala-munosabatlarini ta'rif-tavsiflash, ko'rsatish orqali – hammasini bir maqsadga – asarda ifodalanayotgan fikr-g'oyani ro'yobga chiqarish uchun harakatga keltiradi. Bu harakatning zarur ikir-chikirlarigacha tasvirilaydi. Ularni bir-biriga mustahkam qilib bog'laydi... Ayni paytda tasvirlanayotgan hamma narsa (obraz, muhit, tafsilot, detal) ga munosabatini bilvosita bildiradi”(153-b.)⁹⁶.

95 Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T. “O'zbekiston”, 2002. B.558

96 Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Mas'ul moharrir: B.Valixo'jayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.



Ta'bir joiz bo'lsa, ushbu iqtibosdagi ikki o'rin – asardagi harakatlarni “bir-biriga mustahkam qilib bog'lash” hamda ularga “munosabatini bilvosita bildirishi” tavsiflari muallif uslubini shakllanishida juda muhimdir. “Oliver Twistning boshidan kechirganlari” asarida muallif mahorati shunda yaqqol ko'rinadiki, u tasvirlarga aralashmaydi, bayonchilik yoxud nasihatga berilishi hollari deyarli kuzatilmaydi, biroq Tohir Malik asarida ayrim o'rinlarda muallif nasihat qilishga yoki voqeani o'quvchiga “tushuntirib” berishga o'tib ketishi hollarini kuzatish mumkin. Asar tilida uslubiy vositalarni qo'llanishi tahlilida shunga ham guvoh bo'ldikki, Tohir Malik kinoya qo'llagan o'rinlarda, aksar hollarda “kinoya qildi” mazmunidagi gapni qo'llaydi. Masalan, asar qahramoni Asror bilan geografiya o'qituvchisi o'rtasidagi dialog asarda kinoya qo'llangan eng yaxshi dialog bo'la oladi. Biroq shu parchaning o'zidayoq bir necha o'rinda gap kinoya haqida ketayotganini muallif qayta-qayta ta'kidlaydi (**Ta'kidlar bizniki** – S.D.):

— Xo'sh, Mirisayev, Lotin Amerikasi mamlakatlarining tashqi bozorga qaramligi nimalarda yaqqol ko'rinib turar ekan?

Muallimaning **kinoyasi** Asrorga og'ir botdi. Qo'pol gapirib yubormaslik uchun labini tishlab, indamadi. ... O'quvchisidan sado chiqavermagach, ko'zini tashqaridan olmagan holda so'radi:

— O'rtoq, Mirisayev, qulog'imiz sizda. Transportshahobchalari konfiguratsiyasidan ko'rinarmidi?

Achchiqni achchiq, zaharni zahar kesadi deganlariday, Asror chidab turolmay, o'zi bilmagan holda **kinoya bilan** javob qaytardi:

— O'rtoq A'zamxonova, baxtsizlikni qarangki, men Lotin Amerikasi mamlakatlarining tashqi bozorga qaramligi bilan qiziqib ko'rmabman.

— Shunaqami? — muallima shunday deb unga o'girildi. Lablari pirpirab ketdi, — unda nimaga qiziqdingiz, o'rtoq Mirisayev? (15-b.)

— Ichki bozorga qiziqibman, o'rtoq A'zamxonova.

Kinoya o'yini dovuldan darak berardi. Shu sababli Asrorning gapiga piq etib kulgan qizni bolalarning o'zlari turtib, tinchitishdi. ...

— Yaxshi, — u barmoqlaridagi titroqni yashirish uchun musht qilib tugib oldi, — unda ichki bozorda ahvol qanday ekan?

Asror unga tik qaramoqchi edi, eplolmadi. Muallimaning gezargan lablaridagi titroqni ko'rdi-yu, ko'zini olib qochdi. Avvalgi shashtidan asar ham qolmadi.

— Yomon ekan, — dedi boyagidan pastroq ovozda, — ayniqsa pattachilari yomon ekan. Aqli yetmagan ishlarga aralashaverarkan. Sen bu yerda sotma, sal naryog'da savdo qil, deb g'alva ko'taraverarkan.

Bolalar buni **hazil deb** tushunib, kulishdi. Ammo o'q nishonga tekkan edi. Muallima titrab ketdi. Asror tomon bir qadam qo'ydi-yu, yana to'xtadi. O'quvchisining bu qadar badahloqligi undagi g'azab daryosini toshirib yuborgan edi. (16-b.)

Fikrimizcha, ijodkor asarda dialoglar va voqealarni shunday tasvirlashi kerakki, u yerda kinoya yoxud majoziy ma'no borligini tushunib olishni kitobxon e'tiboriga havola qilgani ma'qul. Ana shunda o'quvchilarda ham kitob o'qish madaniyati shakllanib boradi, tafakkuri oshadi, yozuvchi yashirib bergan tagma'noni tuhshungani uchun o'zidan qoniqish his qiladi.

2. Bosh qahramon tavsifi. Ch.Dikens asarida bosh qahramon – Oliver Twist. Roman uning ayanchli taqdiri va kechinmalari bilan boshlanib, baxtli kunlarga erishuvi bilan yakun topadi, butun voqealar uning atrofida aylanadi.



“Alvido... bolalik” asari markazida ko’proq Asror va mayor Maqsud Soliyev obrazlari bosh qahramonlar sifatida gavdalandirilgan. Garchi mayor Maqsud Soliyev ko’p o’rinlarda ko’rinmay qolsa ham, voqealar rivojida uning roli sezilib turadi. U har safar “maydonga chiqishi” bilan harakatlar tezlashadi.

3. G’oya, mavzu va problematika. Mohiyat e’tibori bilan ikkala asar markazida ham jinoyat, xususan, yoshlarni jinoyat olamiga hayot taqozosi hamda boshqalar (kattalar) ta’sirida kirib qolishi asosiy muammo bo’lib ko’zga tashlanadi.

Mavzu – bu yozuvchi yoki yozuvchi ta’kidlamochi bo’lgan markaziy g’oya. Romanda ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi tinimsiz kurash, hayotda, tuzumdagi absurdliklar, tarbiya va oilaning hayotdagi ahamiyati o’rtasidagi to’qnashuv ko’rsatilgan.

“Alvido... bolalik” qissasida ham yoshlar tarbiyasi va ularning murakkab hayot so’qmoqlarida adashishlariga ko’proq hayotdagi shart-sharoitlar, ta’lim tizimining qoniqarli emasligi, oiladagi qiyinchiliklar va ota-onalarning faqat farzandlarining kundalik yashash ehtiyojlarini qondirishnigina o’ylashi, bu borada hattoki bolalar majburiy mehnatidan ham foydalanishlari, farzandlarining ichki xohish-istaklari, orzu-umidlari bilan har doim ham qiziqavermasliklari Kabir qato muammolar yuqori saviyada badiiy gavdalandirilgan.

Rus shoiri M.Isakovskiy bir o’rinda asarda ijodkor tanlagan voqea haqida fikr yuritar ekan, ushbu voqea “... faqat shoir va ma’lum doiradagi odamlar uchungina ahamiyatli bo’lmay, balki, eng muhimi, keng o’quvchilar ommasiga uchun ahamiyatli bo’lishi kerak”⁹⁷, deydi.

Ta’bir joiz bo’lsa, ikkala asarda ham mualliflar butun jamiyat uchun muhim bo’lgan mavzu va muammolarni ko’tara olishgan.

3. Sujet va kompozitsiyani shakllantirish. Asarlarda sujet elementlari va harakatlar dinamikasi o’ziga xos tarzda. Romandagi asosiy sujet tuguni Oliver Twistning tobutsozning uyidan qochishidan boshlanadi, chunki ungacha bosh qahramon faol harakat qilmaydi faqat voqealar oqimida “suzadi”.

Oliver Fejin to’dasi jinoyatchilari doirasiga tushib qolganidan so’ng harakatlar sur’ati bir qadar tezlashadi va voqea rivoji keskin va jadal boradi. Buni “harakatlar dinamikasining ko’tarilishi” deyish mumkin. Oliver va Rouz o’zlarining asl nasl-nasabi kim ekanligini bilib olganlari va Fejin qatl etilgandan so’ng harakatlar sur’ati bir qadar susayib ketadi. Buni voqea rivojida “harakatlar dinamikasining pasayishi” deb ta’riflash mumkin.

Romanda voqealar rivojining avj nuqtasi – kulminatsiya Sayks Nensini o’ldirib, tasodifan o’zini osib qo’yishi fonida sodir bo’ladi.

“Alvido ... bolalik” qissasida esa sujet tuguni jahon adabiyotidagi aksariyat kriminal mavzudagi asarlari singari qotillik tasviri bilan boshlanadi.

Asardagi kulminatsiya esa mayor Maqsud Soliyev tomonidan jinoyatlarning ketma-ket fosh qilinishi lavhalarida namoyon bo’ladi.

Asar kompozitsiyasida yozuvchi g’oya va maqsadni ta’sirchan va chuqurroq ifodalash maqsadida xalq maqollari, iboralar va kiritma hikoya (kichik hajmli rivoyat tipidagi hikoyalar) dan ham o’rinli foydalangan.

97 Isakovskiy M. Badiiy ijod haqida (yozuvchilarning badiiy ijod haqidagi maqolalari va nutqlari to’plami). T.: O’zdnashr.1960. 30-b.



Asarda makon konsepti: “Oliver Twistning boshidan kechirganlari” romanida voqealar ko’proq Londonning iflos xarobalari va janob Braunlou va missis Meylilarning osoyishta yashash uylari muhitida kechadi.

“Alvido... bolalik” qissasida esa ko’proq Asrorlarning uyi, qotillik yuz bergan pivoxona va kanal atroflari, Keldiyorovlar xonadoni, Salim va Qamariddin yshaydigan uylar tasviri ko’p takrorlanadi.

4. Konflikt va xarakter yaratish mahorati: Asardagi xarakterlarning shakllanishi turlicha. Oliver Twistda ko’proq o’zgarmas xarakter namoyon bo’ladi. U asar boshida qanday yaxshi bo’lsa, so’ngida ham shunday qoladi. Hayot mashaqqatlaridan toblanib xarakterida uddaburonlik yoxud yomon xislatlar shakllanmaydi. Yosh ayol Nensi va janob Braunlouda biroz dinamik – o’zgaruvchan xarakterlar ko’rinadi. Qolgan barcha obrazlar - Fejin, Sayks yoki va Rouz kabilar, xarakterida statik belgilar ustivor va ular xatti-harakatlarida hech qanday o’zgarish ko’rinmaydi.

“Alvido... bolalik” asarida ham qahramonlar xarakterida kuchli dinamik o’zgarishlar kuzatilmaydi. Qamariddin va Salim asar boshida qanday bo’lsa, shunday yakunda ham shunday qolishadi. Asror va Dilfuzalarning hayotidagi kutilmagan sinovlar ular dunyoqarashi va tafakkurida qandaydir o’zgarishlar qilganday ko’rinosa ham, ularning harakatlari va tutimlarida keskin o’zgarish yaqqol ko’zga tashlanmaydi. Faqat asar yakuniga borib, Asrorda qilgan ishidan pushaymon qilish hislari kuchaygani ko’rinadi, biroq ko’pincha u o’zini oqlashga ham harakat qiladi. Asarda eng e’tiborni tortadigan jihatlardan biri – otlar obrazlarining barchasi doim ishni o’ylab, farzandlari taqdiri va tutimlariga befarq, ta’bir joiz bo’lsa, oiladagi muammolarga befarq qilib tasvirlangani. Bu vaziyatda asosan Keldiyorov o’g’lining ketma-ket muammo chiqarishida biroz boshqotirgan ota sifatida ko’rinadi xolos, Bizningcha, yozuvchi bu bilan oilani boqish qiyin, zamon og’irligini ko’rsatmoqchi bo’lgan.

“Oliver Twistning boshidan kechirganlari” romanida konfliktning ikki ko’rinishi ko’proq namoyon bo’lgan. Birinchisi, Oliver va yovuzlik dunyosi o’rtasidagi tashqi ziddiyat. Ikkinchisi – psixologik ziddiyat – Oliverning qalbida uning mavjudligi, yovuzlik bilan kurashi va hayotidagi muammolar, ular qanday hal qilinishi haqidagi ichki ziddiyat.

“Alvido... bolalik” qissasida ham konfliktning mazkur ikki ko’rinishi namoyon bo’lgan. Jumladan, asardagi xarakterlararo ziddiyatni biz mayor Maqsud Soliyev hamda jinoyatchilar o’rtasidagi kurashlarda ko’rsak, psixologik ziddiyat – eng ko’p Asrorning ichki kechinmalari, azoblari va nihoyat shular ta’sirida o’zini halok qilishi bilan namoyon bo’ladi.

5. Peyzaj, ekspozitsiya va vaziyatlar tasviri. Asarlarning har ikkalasida ham peyzaj, ekspozitsiya, turli vaziyatlarda g’amgin kayfiyat hukmronlik qiladi. Ayniqsa, peyzajlar tasvirida bo’lajak g’amgin voqealarning sharpasi sezilib turadi. Ayniqsa, asarlarda tabiatning tundagi tasviri juda ko’p berilishi ulardagi qora bo’yoqlar tasvirini nihoyatda kuchaytirgan.

6. Qahramonlar ruhiyati tasviri. Romanda fojiali, istehzoli va o’ta satirik bo’lsa-da, hamdardlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ktiobxon Oliver har safar zo’ravonlik va jinoyatlar tuzog’iga tushganda, unga qo’shib chorasizlik va g’amginlikni his qiladi.

“Alvido ... bolalik” asarida Asror ruhiyati va dunyoqarashi o’ziga xos tarzda tasvirlangan. U asar boshida o’ta aqli, tirishqoq o’quvchi. Shu darajadaki, o’qituvchilari ham unchalik bilimga ega bo’lishmaganidan, undan hayiqib turishadi. Asar so’ngida esa



uning yosh bolaligi, tajribasizligi qayta-qayta ta'kidlanadi. Asardagi onalarning deyarli barchasi turmush azoblaridan ezilgan, ilojisiz shaxslar tarzida gavdalanirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dickens Ch. Oliver Twist; or, the Parish Boy's Progress...The Third Edition. With an Introduction by the author. *London: Chapman and Hall, 1841.* P.541.
2. Dikpens Ch. Oliver Tvistning boshidan kechirganlari: Roman (Ruschadan E.Mirobidov tarj.).-T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. – 304b.
3. Malik T. Alvido... bolalik: yoxud to'rt taqdirning to'liq bayoni / Roman. – T.: Yangi asr avlodi, 2015. – 504 b.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T. "O'zbekiston", 2002. B.558
5. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / Mas'ul moharrir: B.Valixo'jayev. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – 264 b.
6. Isakovskiy M. Badiiy ijod haqida (yozuvchilarning badiiy ijod haqidagi maqolalari va nutqlari to'plami). T.: O'zdavnashr.1960. 30-b.

*Axmedova Gavharoy,
FarDu tayanch doktoranti*

THE LITERATURE OF VICTORIAN ERA AS A SOURCE FOR CONVEYING A REALISTIC PORTRAIT OF BRITAIN DURING THE INDUSTRIALIZATION

Annotation. During the nineteenth century, English literature was at its highest because of the growth of literacy in the Victorian era. The novel genre in particular witnessed rapid development in authorship and readership because of its potential to treat a wide range of issues. So, in this article, I will review the major features of one of the famous novel of the Victorian literature focusing on its themes and styles. We shall also discuss women's writing in the 19th century England.

Key words: Victorian period, style, literary work, speech, feminism, personality

Annotatsiya. XIX asr ingliz adabiyotida Viktoriyan davri Angliya ijtimoiy hayoti, adabiyoti gullab yashnashi bilan birga eng yuqori cho'qqiga chiqdi. Ayniqsa, roman janri keng ko'lamli masalalarni hal etish imkoniyati tufayli mualliflik va kitobxonlar safida jadal rivojlandi. Ushbu maqolada men ingliz nasrida Viktoriyan davr adabiyotining mashhur romanlaridan birining asosiy xususiyatlarini ko'rib chiqish bilan bir qatorda shu davr adabiyotining mavzulari va uslublariga e'tibor qarataman. Shuningdek, 19-asr Angliya ayol yozuvchilari ijod namunalari muhokamasiga ham biroz to'xtalib o'taman.

Kalit so'zlar: Viktoriyan davri, uslub, adabiy asar, nutq, feminizm, shaxsiyat.

Аннотация. В девятнадцатом веке английская литература была на пике из-за роста грамотности в викторианскую эпоху. Жанр романа, в частности, стал свидетелем быстрого развития авторства и читательской аудитории из-за его потенциала для решения широкого круга вопросов. Итак, в этой статье я рассмотрю основные черты одного из известных романов викторианской литературы, сосредоточив внимание на его темах и стилях. Мы также обсудим женское письмо в Англии XIX века.



Ключевые слова: викторианский период, стиль, литературное произведение, речь, феминизм, личность.

Victorian literature has become a very important source for historical facts and the life style of the 19th century England mainly because it relies on a realist mode of representation. Thus, as known of Victorian era that was a time of development of science, Victorians explored issues related to their historical and social context such as industrialization, rural-urban life and the condition of children and women. The later are present in many literary work in which their role and position were of interest of both female and male writers.

In this sense, Victorian literature was characterized by a powerful, political stance because it offers a critique of social circumstances related to power, the conflict between classes as well as the women's rights. It tends to be close to the daily life of people by reflecting their inner feelings and external conditions in the most realistic way.

Daniel Deronda, novel by George Eliot, published in eight parts in 1876. It is notable for its exposure of Victorian anti-Semitism. The novel builds on the contrast between Mirah Cohen, a poor Jewish girl, and the upper-class Gwendolen Harleth, who marries for money and regrets it. The less convincingly realized hero, Daniel, a young English gentlemen, well-educated and mannered. The best part of *Daniel Deronda* is the keen analysis of Gwendolen's character, which seems to many critics the peak of George Eliot's achievement.

Deronda was the first of Eliot's novels to be set in her own period, the late 19th century, and in it, she took on what was a highly unusual contemporary theme: the position of Jews in British and European society and their likely prospects. The eponymous hero is an idealistic young aristocrat who comes to the rescue of a young woman and in his attempts to help her find her family.

In fact, George Eliot lived in society known by its subjugation of women .The message was supposed to fulfill was her portrayal and depiction of a particular view of reality as seen by her. So, the choice of George Eliot is mainly based on our interest in her novel "Daniel Deronda" which reflected a picture of the women in English society in the early of nineteenth century, when women were suffering and struggling to achieve self-fulfillment and happiness. In the novel, both women heroes represent the women standing up for herself in the suffering life with two different ways.

Readers can learn about Gwendolen Harleth from her response to her change in fortune and its circumstances such as sense of entitlement, narcissism, lack of concern with family, pawns chain of her dead father, strange lack of self-esteem. what is more, readers can analyse Gwendolyn's responses to her own abilities and attitudes toward the ideal of femininity. Gwendolen is dissatisfied with her talents, dislikes reforming women. Mirah Cohen forms a contrast with that of Gwendolen. "Daniel deronda" is not based on feminism, but it examines many sides of the circumstances of women show a new move towards freedom and equality as well.

In any literary work form and content are inseparable and depend on each other to formulate the whole text .Thus, Style is the way in which language is used in a given context; how a particular writer says things . The analysis of style involves the examination of a writer's choice of words, the use of figures of speech, devices



and the shape of his work. Also, it examines the language of a literary text in order to understand and appreciate the writer's artistic achievement. Style and technique are tools which applied to study literature in an explicit way in which, the text is considered as the whole work, is the specific use of language, also the starting place for the study of style. In the novel *Daniel Deronda*, Eliot uses various techniques to create her assorted form. Thus, she incorporates these techniques to make certain ideas stand out to make passages become more expressive as diction, pathetic fallacy, imagery and symbolism.

Through language the writer can make a sense of the world. Language is the only way of expression in the literary work in which language form determines content. Form is the way the content is presented focusing on style and techniques. Thus, a text's genre is indicated by its structural form which allows the interpreters to gain insights into a text based on what they can know about its formal characteristics. It shows the writer's method as a male or female writer, for example in the case of George Eliot's *Daniel Deronda* that we are going to study who is a female writer has her own perspective about women. Moreover, being a female writing, it gives a new manner of writing different from man because it had seen from women point of view. Women try to present their reality as it really is not as it has been presented by male writers because they have different life experiences, so, their writing will differ as well.

The novel in the nineteenth century was a tool which the writers used to deliver social criticism. It was the source that gave the reader a clear picture of what was happening during that period. Moreover, it was a realistic portrait of Britain during the industrialization. It was the new form that was developed from drama. In addition to that, George Eliot's novels which denounced the pitiful conditions by depicting the different issues of society and expresses her own view with regard to women conditions. They enable the reader to know the personalities of the characters in the texts and to understand the symbols in each character that reflect the nineteenth century English society.

References:

1. Carter, R.McRae, J. (2001) *The Penguin Guide to Literature in English Britain and Ireland*. London .Penguin Book.
2. George eliot, *Daniel Deronda*, 2002. Penguin Popular classic. London.
3. Muda, G, E. (2011) *The Mirror Image. The representation of social roles from women in novels by Charlotte Bronte, Kete Chopin, Edith Watton and Jean Rhys*. London.
4. Makati, P. (2008). *A Critical Study of Charles Dickens's representation of the Socially Disadvantages*. University of Fort Hare. East London Campus.
5. Noheh, S.Pourgin, F. (2012) *Showalter's Gynocriticism*. An International Journal in English. London.
6. Pollard, A. (1993) *The Victorians the Penguin History of Literature*. Penguin book. London



QISSADA BADIY HAQIQATNING TALQINIGA DOIR

Annotatsiya. Maqolada mahoratli adib Luqmon Bo'rixonning "Bir tomchi yosh" qissasi haqida mulohazalar bildirilgan. Muallif badiiy mahorati hamda voqelikka yondashuviga e'tibor berilgan. Qissaning yangicha badiiy talqinlariga, uning jahon adabiyoti mezonlariga uyg'un tamoyillarini ochishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: uslub, xarakter, pafos, badiiy til, detal, badiiy haqiqat, ramz, absurt, novella, psixologik tasvir.

Аннотация. В статье комментируется рассказ «Бир томчи ёш» искусного писателя Лукмана Борихана. Обращается внимание на художественное мастерство автора и подход к действительности. Сделана попытка выявить новые художественные интерпретации новеллы, ее принципы, совместимые с критериями мировой литературы.

Ключевые слова: стиль, характер, пафос, художественный язык, деталь, художественная правда, символ, абсурд, новелла, психологический образ.

Abstract. The article comments on the story "Bir tomchi yosh" by the skilled writer Lukman Borikhan. Attention is paid to the author's artistic skills and approach to reality. An attempt has been made to reveal new artistic interpretations of the short story, its principles compatible with the criteria of world literature.

Key words: style, character, pathos, artistic language, detail, artistic truth, symbol, absurd, novella, psychological image.

O'zbek adabiyotida Luqmon Bo'rixon tomonidan yaratilgan qissalar adabiy jarayonda muhim voqea sifatida e'tirof etilgan. Bu qissalarning badiiy-estetik xususiyatlarini aniqlash, unda aks etgan hayot haqiqatining yangicha badiiy jihatlarini ochib berish adabiyotshunosligimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Muallifning "Bir tomchi yosh" qissasi uslubi qahhorona kinoyaviy tarzda, xalqona poetik jozibador ohangda yaratilgan. Uning g'oyaviy-ijtimoiy dolzarbligi o'tish davrida, bozor iqtisodi shakllanayotgan jarayonda hayotda o'z o'rnini, o'z kasb-korini topolmayotgan navqiron yigit Baxtiyorning xarakter qirralari qalamga olingan. To'g'ri, atrofdagi yaqinlari uning uchun g'amxo'rlik qilgan bo'ladilar.

Quruvchilar tarkibida bezash ishlari bilan shug'ullanib, biroz sarmoya to'plagan Baxtiyorning shovqin-suronli Toshkentga borgisi yo'q. Yozuvchi nutqiy xarakteristika usulida Baxtiyorning maqsad-muddaolarini psixologik ko'lamda talqin etgan, uning mazmun-mohiyati shunday:

"- Uning endi Toshkentga borgisi yo'q edi. to'g'rirog'i, bu yerdagi ishini, tuzukkina tushumni, izzat-obro'sini ko'zi qiymaydi.

- Axir poytaxtga borsa hammasini noldan boshlashi kerak. E-he-ye, katta musavvirlar davrasiga kirib olguncha yana qancha ter to'kish kerak. Ayni paytda Baxtiyorning bunga tobu-toqati yo'q edi.

- Axir bu yerda pul topayapti, pul! Ham otasining ro'zg'orini, ham o'zini boqayapti.



“ – Siz yurak xastaligi bo'yicha hisobimizda turasiz, tez-tez bizning ko'rigimizdan o'tib turing”, - deya zorlangan mahalla vrachining gaplariga quloq solma qo'ydi.

- Hatto ba'zi bir boyvachcha buyurtmachilar ishdan so'ng beradigan ziyofatlardan gandarab, arang qaytaradigan bo'lib qoldi. Maxo'rlikka o'rgana boshladi...”

Voqealar rivojidan ma'lum bo'ladiki, qissa syujeti va umuman arxitekto-nikasida Baxtiyor hayotining kundalik manzaralari ko'z oldimizdan kino lentasidek bir maromda o'ta boshlaydi. Adabiyotshunos T.Rasulovning yozishicha, “Uslubni u yoki bu ijod tilidan yoki priyom va badiiy tasvir usullaridan emas, balki yozuvchilarining shu ijod tili hamda usullardan foydalanishdagi o'ziga xos, original xususiyatlari, individual “pocherk”idan qidirish maqsadga muvofiqdir”⁹⁸.

Luqmon Bo'rixon ijod dunyosiga, adabiy uslubiga tegishli tasvirda gogolona, qahhorona istehzo, qochirim, borliqqa, insson va hayotda tanqidiy-isyonkorona munosabat xosligi bilan e'tiborni tortadi. Yozuvchining individual “pocherk”i – ya'ni, o'ziga xos g'oyaviy-badiiy kredosi, tasvirlash uslubi xalqona jozibaga, lirik ko'lam va psixologik tadqiqotga egaligi bilan muhimdir. Professor Qozoqboy Yo'ldoshning qayd qilishicha, Luqmon Bo'rixon o'z asarlarida “atay ijtimoiy muammo ko'tarmaydi, balki odam taqdirini aks ettiradi. Odam esa hamisha ijtimoiy muammolar og'ushidadir”⁹⁹.

Baxtiyordek oddiy yigitning bozor iqtisodi maydonidagi tinimsiz izlanishlari tashqaridan oddiy va kundalik voqelik kabi ko'rinishi bilan jiddiy ijtimoiy muammo maqomida talqin qilingan.

Ayni vaqtdagi bu obraz kayfiyatida zohir tushkun holati bilan parallel jarayon. Darhaqiqat, hayotidan mamnun bo'lmagan yigit o'sha davrada ichish, yeyish, davraning shodon ruhiga qo'shilib ketish uchun kuch topmaydi. Binobarin, yozuvchi buni uning mayga hushi yo'qligi, mayusligi kabi ramziy-istoraviy talqinda ifodalagan:

“ - O'sha kuni Baxtiyorning ta'bi mayga ko'p tortmadi. Bu kayfiyatsizlik ta'siri edi;

- Ikkov ora-ikkov ora bo'lib, allaqanday ikir-chikirlar haqida gaplashib, bahslashib yotgan davrani Baxtiyor esa mayus kuzatib o'tirardi;

- Nogoh uning ko'zi hovuz tubidagi ko'lmakda balqib turgan yulduzlarga tushadi.”

- Isqirt bir ko'lmak yuzida balqib turgan yulduzlar istoraviy tarzda hayotdagi oq va qoraning, ezgulik va yovuzlikning, quvonch va qayg'uning poetik-ramziy ifodalariga ishora ekanligi barchaga ham ma'lum bo'lavermasligiyam mumkin (shu iasvir kitobxon xotirasida beixtiyor Abdullo Oripovning “Oltin baliqcha” fojiasini esga tushiradi), chunonchi, choyxonaning eski chorpoyasida maishat qilib o'tirgan quruvchilarning bu kontrast manzara bilan mutlaqo ishlari yo'q; bu bechora odamlarning mo'l pul keladigan biron qulay ish topishdan, bu pulga yayrab maishat qilishdan, bo'g'ziga kelguncha mayxo'rlik qilishdan o'zga ilinji va intilishi yo'q; psixologik mahorat ustasi bo'lgan yozuvchining bu teran poetik-ramziy talqin orqali mustaqillikni mustahkamlashdek o'ta mas'uliyatli davrga turli toifa kishilarining befarqlik fojiasi istehzoli tarzda tasvirlanganini badiiy jihatdan ko'rsatishdan ko'zlangan niyati o'z-o'zidan ayon bo'ladi; yozuvchi davr va shaxs, mas'uliyat va loqaydlik g'oyaviy pafosini asar matni markaziga qo'yib, bu dolzarb falsafiy-ijtimoiy niyatlari ifodasida ramziylik-istoraviylikning quyuuq poetik talqinlriga suyanganligini anglab yetish qiyin emas;

98 Rasulov T. Adabiy ijodda uslub // Adabiyet nazariyasi. Ikki tomlik. 2 tom. Adabiy-tarixiy jaraen. “Fan”, T., 1979, 155-bet (448 bet).

99 Iyldosh A. Badiiy kamolot iyyi // Buxhon L. Qush xali botmagon. T., “Uzbekiston”, 2015, 5-bet (368 bet).



“- Tun! Qop-qora, motamsaro daraxtzor!

- Ko'rganlari Baxtiyorga sirli bir hikmatlar so'ylardi, fikratiga sirli bir ishora qilardi”.

E'tibor beraylik: yozuvchi Baxtiyor tiynatini, uning davradoshlaridek mazaxo'rak, maishatboz to'dalar olamidan naqadar uzoq turuvchi tiynatini psixologik tahlil ko'lamida, aniqrog'i, Baxtiyorning ichki kolliziyalar, ruhiy to'lg'onishlar fonida hayotiy jozibasi bilan ko'rsata olgan.

Edgar Allan Poning “Sukunat” novellasi olis Liviyadagi “huvillagan o'lka”da Iblisning asar qahramoni (“men”ga)ga hikoya qilgan voqeligi asosiga qurilgan. Bu “o'lka” misoli qiyomat ro'y bergan la'natlangan makonga o'xshaydi: “orom ham skunat ham yo'q” bu makonda: daryo suvi za'farli; botqoqlikda o'lgan ulkan bo'yli suv lolalari xo'rsinishadi; zahmatli qorong'ilik; qilt etgan shabada yo'q; qonli yomg'ir yog'adi...

Shunday borliqda xarobat qurilishi hukmron o'ta tushkun va qo'rqinchli muhitda, rivoyachi (“men”) botqoq gullari orasiga yashirib, yolg'iz odamni kuzatadi. Bu odam fenomeni sirli g'aroyib ma'volar bag'rida chiziladi:

- Inson qomatdor va ulug'vor edi, yelkasidan tovonigacha qadimgi rumo ridosiga burkangan edi;

- Uning jussasi elas-elas ko'rinar, ammo yuzidan nur yog'ilardi;

- Tun qorong'iligi, tuman va shabnamning harir pardalari uning chehrasini to'solmasdi;

- Manglayi o'ylardan baland, nigohi tashvishlardan telbavash, peshonasidagi ajinlar yozuvi, g'am-anduh, charchoq, horg'inlikdan so'zlardi;

- bashar avlodlaridan ko'ngli qolgan va yolg'izlik qo'msagan bu bechora kishi ozurda qalb hikoyasini aytardi;

- Inson xarsangga o'tiradi, boshini qo'lga tiraydi, qarshisidagi xarobot manzarasiga qaraydi;

- U pastak, oromsiz butalarga, baland yovvoyi daxatlarga, guvillagan sadolarga to'la samoga, bag'ri qonga belangan oyga hayrat-la qaraydi;

- Inson yolg'izlikdan titrardi; lekin tun oxirlab borar, u hamon qoyada o'tirardi, balki nima qilishini, ikki oromijon kimsa maqomida namoyon bo'lardi¹⁰⁰.

Xarobot muhitga tushib qolgan bu noma'lum odam (umuman, inson timsoli) faoliyati Baxtiyorning o'zi xohlamagan muhit, harakat-munosabatlar og'ushidagi ahvolotini eslatadi. Baxtiyor ifloslangan suv qoldig'i miltillab turgan eski hovuz holatidan nojoiz hayot, nomatlub taqdir aziyatlarini sezib, qiynalsa, to'g'ri va oydin yo'l orzui bilan kuyib-yonsa, asosiy omma-quruvchilar esa shirin va mazali taomlardan, o'tkir ichimliklardan boshqa narsa bilan ishlari yo'q. Asarda ikki toif parallel tasvirlangan, birinchisi Baxtiyor timsolida ma'naviy komillikka intilga, ijodiy fikrlaydigan, yurt taqdiriga befarq bo'lmagan shaxslar umumlashmasi; ikkinchi toifa, o'tkinchi hoyu havaslarga g'arq quruvchilar – olomon timsoli.

Luqmon Bo'rixon badiiy mahoratining jozibasi psixologik talqin borasidagi san'atkorligi bilan ham belgilanadi. Baxtiyorning so'rida quruvchi sheriklari bilan ulfatchilik davrasida qarshisidagi “qop-qora bo'shliqqa mayus-mahzun” holda beixtiyor tikilib qolishi bilan bog'liq mikrosyujet talqinidagi holati uning ruhiy olami iztiroblar silsilasini ifodalashi – psixologik tahlil in'omi sanaladi. Ovqatdan, maishatdan, aroq

100 По Э.А. Сукунат // По Э.А. Буюк Темур. “Янги аср авлоди”. Т., 2016, 190-191-бетлар (304 бет).



simirishdan boshqa narsani bilmaydigan, asosiy gaplari pul topish va qorin to'ydirish bo'lgan ma'naviyatsiz to'da davrasi iste'dodli yigitning xayfini va xo'rligini keltirishi tabiiy hol. Unga istagan niyatlariga yeta olmayotganligi, rassomlik iste'dodini namoyish etish imkonining cheklanganligi, muhitning torligi, bir tomondan oila tebratish burchi munchagina sarmoya topishga majbur ham qilishi – beixtiyor xo'rligini keltirishi mantiqqa mos badiiy psixologik talqin. Ta'kidlash joizki, hovuz, ko'lmak, shu ko'lmakda bir hovuch yulduz aksi, qop-qora bo'shliq, mas'uliyatsiz maishatboz quruvchilar kabi detallar o'z bag'rida Baxtiyor uchun nojoiz taqdir ramzlari sanaladi.

Asli yurak xastaligi bilan og'rikan Baxtiyor o'n kuncha viloyat kasalxonasida davolanib chiqadi. Kasalxonadan tuzalib chiqar chog'i doktor yana odatdagiday tayinlaydi: "Sizga qattiq ta'sirlanish ta'qiqlanadi. Spirtli ichimliklardan mutloq uzoq yuring".

"- Baxtiyor odatdagiday bosh irg'ab qo'yadi, xolos. O'sha tunda ko'rgan eski hovuz, yulduzlar manzarasi hali-hanuz uning ko'z o'ngida turardi; Kasalxonadan chiqiboq mo'yqalam tutishni mo'ljallab yurardi. Bu uning doimiy orzu-armoni edi "Agar shuni ham eslasam, ikkita zo'r kartinam bo'ladi, - xayolidan o'tkazdi u, keyinroq Toshkentga olib boraman. Eng mashhur rassomlarga ko'rsatib maqtanaman..."; Yaxshisi bira to'la poytaxtga ko'chib ketishni o'ylaydi; Faqat ijod qilib, ijod bilan shug'ullanishni shirin xayol qiladi, ammo bunga ishonchi ham yo'q edi. Ungacha ro'zg'or-oila iqtisodini tiklab olish, uch-to'rt yil ishlayam ro'zg'ori kechadigan darajada mablag' g'amlashni shirin xayol qiladi.

Luqmon Bo'rixon asarlarida, jumladan, "Bir tomchi yosh" qissasida realistlik, psixologik yoki ramziy-istioraviy uslublar qatorida sharqona pandnoma axloqiy-falsafiy o'git g'oyaviy pafosi ham tabiiy poetik maqomda sintezlanib ketganligi ko'zga tashlanadi. Muallif asar qahramonlari xarakterini ochib berish, tabiiy fenomenini talqin etish maqsadida adabiy tasir vositalaridan unumli foydalana oladi.

Nabiyeva Sharifa Ismailovna
QDU doktoranti

O'ZBEK ORTOLOGIYASI VA O'QUV ORTOGRAFIYASI TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada orfografik minimumlarni tuzishning nazariy va amaliy masalalarini hal etish, yozma ijodiy ish yoki diktant matnini tuzish va baholash mezonlarini belgilashda orfografik minimumlar, internet leksikografiyasi (kiberleksikografiya) yutuqlaridan foydalanib bolalar uchun ta'limiy o'yinga asoslangan onlayn imlo-alifbolarni yaratishhaqida so'z yuritiladi.

Kalitso'zlar: orfografik minimumlar, internet leksikografiyasi, kiberleksikografiya, ortologiya va o'quv ortografiyasi.

Annotation. In this article written about solving theoretical and practical issues of constructing orthographic minimums, creating online spelling alphabets based on educational play for children using orthographic minimums, achievements of internet lexicography (cyberlexicography) in determining the criteria for drawing up and evaluating written creative work or dictation text.



Keywords: orthographic minimums, internet lexicography, cyberlexicography, orthology, and training orthography.

Аннотация. этой статье будет рассказано о решении теоретических и практических вопросов построения орфографических минимумов, создании онлайн-алфавитов правописания на основе обучающей игры для детей с использованием орфографических минимумов, достижениях интернет-лексикографии (киберлексикографии) в определении критериев составления и оценки письменной творческой работы или текста диктанта.

Ключевые слова: орфографические минимумы, интернет-лексикография, киберлексикография, ортология и обучающая орфография.

Til o'z ijtimoiy vazifasiga ko'ra me'yoriy tizim. Zotan, har qanday til ma'lum me'yorlarga ega bo'lishi shart. Me'yorlashuv jarayoni til bilan birga taraqqiy etib, til bilan birga takomillashib boradi. Taniqli me'yorshunos S.Karimov A.G'ulomovning "fonetik o'zgarishlarning sababi talaffuzga qulay qilish, gapirishni yengillashtirish, so'zlash organlarining, muskullarning harakatini va vaqtni tejash – qulaylik va ekonomiya prinsipi" degan fikriga diqqatini qaratib, tildagi o'zgarishlar talaffuzda qanday holatlarda uchrashi mumkinligi hamda me'yoriy va nome'yoriy holatlarning adabiy me'yorlarga, uslubiy maqsadlarga, singarmonizm hodisasiga mosligi ona tilimiz tabiatidan kelib chiqib yuz berishi, nuqsonli alifbogina tilning tovush jihatiga juz'iy ta'sir qilishi, agar alifbo to'g'ri tuzilsa, bunday juz'iy ta'sir ham bo'lmasligi xususida to'xtalgan edi [1,26]. Haqiqatan ham imloning mukammalligi alifboning mukammalligi bilan ham bog'liq. Shu sababli imlo va alifbo muammolari doimo birgalikda hal etib kelingan.

Ayni paytda o'zbek ortologiyasi va o'quv ortografiyasi istiqbollari o'zbek tilshunosligi, lingvodidaktikasi, leksikologiyasi va o'quv leksikologiyasi oldida turgan quyidagi vazifalar yechimi bilan bog'liq:

- rivojlangan xorijiy davlatlarda shu davlat rasmiy tilining me'yoriy asoslarini bilish fuqarolikni olishning majburiy mezonini hisoblanadi. Masalan, Rossiya qonunchiligiga ko'ra, migrant Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi, davlat qurilishining tayanch asoslari, mamlakat tarixining ba'zi jihatlarini bilish bilan birga, rus tilining tasdiqlangan orfografik, orfoepik minimumlari bo'yicha imtihon topshirganlik haqida sertifikatga ham ega bo'lishi;

- shu nuqtayi nazardan mamlakatimizda ko'pchilik rivojlangan davlatlar tajribasi, xususan, Rossiya ta'lim tizimidan kelib chiqib umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi hamda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini unifikatsiya qilish, ya'ni yagona davlat imtihonini (Единый государственный экзамен (ЕГЭ) joriy etish ko'zda tutilmoqda[2]. 2021-2022-o'quv yilida tajriba sinov tariqasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilanadigan hududdagi umumiy o'rta maktab va akademik litsey, 2022-2023-o'quv yilidan boshlab barcha umumiy o'rta maktab, akademik litsey va qabuli 9-sinf negizi asosida amalga oshiriladigan kasb-hunar maktabi (umumta'lim muassasalari) bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi hamda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlari birlashtirilib Yagona davlat imtihoni (YADI) o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Bunday vaziyatda ta'limning muayyan bosqichiga o'qishga kirish uchun



o'tkaziladigan yozma ishlar, xususan, diktant shaklidagi sinov imtihonlari yoki boshqa davlat attestatsiyalarini o'tkazishga mo'ljallangan yozma ijodiy ish yoki diktant matnini tuzish va baholash mezonlarini belgilashda orfografik minimumlar nihoyatda zarur. YADIning orfografik minimumi har bir ta'lim oluvchining prezident maktablari, ixtisoslashgan va ijod maktablari, kasb-hunar maktablari, universitet va boshqa o'quv yurtlariga kirish imtihonidan muvaffaqiyatli o'tish uchun bilishi zarur bo'lgan minimal imloviy talablardir.

Aytib o'tish kerakki, o'zbek tilida hozirga qadar na o'zbek tilini ona tili sifatida o'rganuvchilar uchun, na xorijiy til sifatida o'rganuvchilar uchun orfografik minimumlar tuzilmagan. Umuman, o'zbek o'quv lug'atchiligida bu amaliyot yo'lga qo'yilmagan. Bu orfografik minimumlarni tuzishning nazariy va amaliy masalalari ilmiy tadqiq etishni talab etadi.

Me'yorshunos olim S.Karimov "Til tarbiyasi ham farzand bola tarbiyasiga o'xshaydi. Intizom ozroq bo'shashgan joyda u ham, albatta, o'zining salbiy natijasini ko'rsatadi. Bu boradagi ishlarda stixiyaga, kompaniyachilikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Aksincha, bu faoliyatni markazlashtirish va muvofiqlashtirish, uni davlat ahamiyatiga ega bo'lgan, keng jabhada olib boriladigan, odat tusiga kirgan ish darajasiga olib chiqish lozim. Bu ulkan vazifani birdaniga hal etib bo'lmasligi ham aniq. Ammo u bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, ijobiy natijalar qo'lga kiritilishi lozimligi zamon talabidir. Ko'pchilikning fikriga tayanib aytamizki, ona tilimizga mehrni bolalar bog'chasidayoq uyg'otishimiz, adabiy til me'yorlarini o'rganishning bolalar bog'chasi o'rta maktab oliy maktab tarzidagi uzluksizligini ta'minlashimiz zarur"[3,89], degan edi.

Shuni aytib "har qanday lug'at adabiy tilning amalda bo'lgan me'yorlariga asosan ishlab chiqiladi. O'quv lug'ati so'zligi foydalanuvchining yosh xususiyati, uzluksiz ta'limning qaysi bo'g'inida ta'lim olayotganidan kelib chiqib darajalanadi. Masalan, boshlang'ich sinflar uchun yaratilgan lug'atlar bola nutqiga xos bo'lgan til birliklarini qamrab olib, nutq jarayonida orfoepik, orfografik, leksik, morfologik, sintaktik me'yorlarga amal qilish kompetensiyalarini shakllantirib boradi. Bu esa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun "To'g'ri talaffuzga o'rganamiz", "To'g'ri gapir", "So'zni to'g'ri qo'lla", boshlang'ich sinflar uchun "To'g'ri yozamiz", "To'g'ri talaffuz qilishga o'rganamiz" tipidagi me'yoriy lug'atlarga bo'lgan talabni oshirmoqda[4,115].

Bugungi kunda leksikografiyaning kompyuterlashtirish bilan bog'liq yangi tarmog'i – internet leksikografiyasi yoki kiber leksikografiya paydo bo'ldi. Internet leksikografiyasining qimmati yuqori darajada axborotlilik, qidiruv tezligi, havolalarga boylik, lug'at mualliflarining global tarmoqda o'z mahsulotini namoyish qilish imkonini berishi bilan o'lchanadi. Dunyoning ko'pgina yetakchi leksikografik nashrlari shaxsiy internet saytlariga ega bo'lib, son-sanoqsiz turli elektron qurilmalarda onlayn va oflayn tartibda ishlashga mo'ljallangan lug'atlar joylangan. Hozir internetda ta'limiy o'yinga asoslangan rus yoki ingliz tillarida yaratilgan bunday dasturlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, *ABC Spelling*, *Azbuka pravopisaniya dlya detey*, *Play Kids Preschool Learning Free* kabi. Bu bo'yicha elektron video mashg'ulotlar ishlab chiqilib ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirilgan[5].

Aslida til madaniyatini egallash, to'g'ri muloqotga o'rgatishni ancha erta, maktabgacha yoshdan boshlashimiz lozim. Buning uchun bolalarni ta'limning ilk bosqichlaridan to'g'ri yozish va to'g'ri gapirishga o'rgatishga mo'ljallangan ta'limiy



o'yinlar, imlo-alifbolar ishlab chiqilishi lozim. Bolaga alifboni o'rganish asnosida so'zlarni tanish, to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish, harflarni rasmlarga bog'lab tushuntirish, istalgan vaqtda va istalgan joyda foydalanish imkonini beradigan *ta'limiy o'yinga asoslangan onlayn imlo-alifbolar*, "*To'g'ri talaffuzga o'rganamiz*", "*To'g'ri gapir*", "*So'zni to'g'ri qo'lla*", *boshlang'ich sinflar uchun "To'g'ri yozamiz"*, "*To'g'ri talaffuz qilishga o'rganamiz*" tipidagi me'yoriy lug'atlarni tuzish o'zbek lingvodidaktikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov S.A. Til ta'limi va me'yor. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. –267 b. – B. 26
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.06.2020.dagi "2020/2021-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4749-son qarori // <https://lex.uz/docs/4855128>
3. Karimov S.A. Til ta'limi va me'yor. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. –267 b. – B. 89
4. Rahmatova Z.H. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini o'stirishning lingvistik asoslari. Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... diss. – Qarshi, 2021. – 141 b. – B.115
5. Spelling ABC for Kids ABC Spelling Spell & Phonics educational games for kids part 1 <https://www.youtube.com/watch?v=g0WuTuSnyzo>

Ubaydullayeva Umida Abdushukur qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU tayanch doktoranti

ALISHER NAVOIYNING "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA QO'LLANILGAN ZONIMLARNING SEMANTIK-FUNKSIONAL TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida qo'llanilgan tuyoqli hayvonlar nomlari yig'ildi va tahlil qilindi. Asarda yirik shoxli hayvon nomlari uchramasligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, asar yaratilgan davrda turkiycha so'zlar bilan yonma-yon arabiy va forsiy so'zlar ham faol qo'llanishda bo'lganini kuzatish mumkin.

Kalit so'zlar. zoonim, Alisher Navoiy, termin, eski turkiy til, doston

Аннотация. В данной статье были собраны и проанализированы названия копытных, использованные в эпосе Алишера Навои «Лейли и Меджнун». Оказалось, что в произведении нет названий крупных рогатых животных. Также можно заметить, что арабские и персидские слова активно использовались наряду с турецкими словами на момент создания произведения.

Ключевые слова. зооним, Алишер Навои, термин, древнетюркский язык, эпос.

Annotation. In this article, the names of ungulates used in Alisher Navoi's epic "Layli and Majnun" were collected and analyzed. It turned out that there are no names



of big horned animals in the work. It can also be observed that Arabic and Persian words were actively used alongside Turkish words at the time the work was created.

Key words: zoonim, Alisher Navoi, term, old Turkish language, epic.

Tilning tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishda tarixiy manbalar tadqiqi asosiy o'rinni egallaydi. Til lug'at boyligining shakllanish jarayonini kuzatish uchun qadimgi manbalar tilini, leksikasini o'rganish va bugungi kun leksikasi bilan qiyosiy o'rganish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, turkiy tillar taraqqiyotini belgilashda XIV-XV asrlar muhim o'rin egallaydi. Xususan, shu davrda yashab, ijod etgan Alisher Navoiy hazratlarining boy ma'naviy merosi eski turkiy til uchun ham, hozirgi adabiy til uchun ham muhim manba bo'lib, turkiy tillar taraqqiyot qonuniyatlarini Navoiy asarlarining leksik tahlilisiz mukammal belgilab bo'lmaydi.

Turkiy xalqlar azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib kelishgan. Ming yillar davomida chorvachilik va ovchilikning rivojlanishi shu sohalariga doir terminologiyaning rivojlanishiga turtki bo'lgan. F.f.d., Professor B.Abdushukurov XI-XIV asrlar turkiy obidalar tilidagi tuyoqli hayvonlar nomini anglatuvchi terminlarni quyidagicha mavzuiy guruhlarga ajratib, tahlil qilishni maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

1. Ot va tuyalar nomini ifodalovchi atamalar;
2. Tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar;
3. Mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi atamalar;
4. Yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi terminlar [1:68].

Biz quyida Alisher Navoiy "Layli va Majnun" dostonida uchraydigan zoonimlarni yuqoridagi mavzuiy guruhlar asosida tahlil qilishga urinamiz.

Ot va tuyalar nomini ifodalovchi atamalar

Yakka tuyoqlilarga mansub, o'txo'r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni [150] bo'lgan **ot** qadimgi turkiy xalqlarning asosiy ulovi bo'lgani uchun bu termin Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida ham ko'p o'rinlarda uchraydi. Masalan:

Ot qay sarikim borur dam urmay,

Tursa dag'i yo'l yurgur surmay [3:153].

O'zbek tilining etimologik lug'atida **ot** so'zi qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgani aytiladi [8:258]. Asarda qo'llanildan **ashhab** so'zi ham diqqatimizni tortdi:

Yuzumdurur **ashhabing** tuvog'i,

Boshimdurur markabing ayog'i [3:148]. **Ashhab** so'zi Navoiy asarlari izohli lug'atida *oq, oqish bo'z ot* deb izohlanadi [9:159].

Eski o'zbek tili, xususan, Navoiy asarlarida **tuya** (bir yoki ikki o'rkachli, juft tuyoqli, asosan yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli, sutemizuvchi ish hayvoni [11:222]) ma'nosida **teva** so'zi qo'llanilganini ko'rishimiz mumkin:

Ot-u **tevasi** hisob ila jup,

Qo'y-u qo'zisi hisobdin ko'p [3:56]. Teva – tuya [11:219].

Shuningdek, asarda *chopqir tuya* ma'nosida **jamoza** termini qo'llangan:

Chun etti uzrining tamomin,

Tez urdi **jamoza** sori gomin [3:206]. Jamoza – chopqir tuya; [9:561]

Tuyoqli yovvoyi hayvonlarni anglatuvchi zoonimlar



Forscha **ohu** termini quvush shoxli sutemizuvchilar oilasiga kiruvchi yovvoyi hayvon nomini anglatadi. Eski o'zbek tilida ham bu so'z mavjud bo'lib, u bilan birgalikda bu turdagi hayvonlarni nomlashda **kiyik**, **jayran**, **g'izol** so'zlaridan ham foydalanilgan. Masalan, Navoiyning "Layli va Majnun" dostonida shunday satrlar bor:

Mushk oncha sochib bu **ohuni** Chin,

Kim, ayladi mo'ndularni mushkin [3:63].

Asarda bu hayvonni nomlashda ko'p o'rinlarda **kiyik** so'zi qo'llanilgan:

Har qumg'aki maqdami yetishib,

Bir dasht **kiyik** anga ergashib [3:143]. Yana bir boshqa baytda:

Girdida **kiyik**, to'la yaboni,

El o'rtada o'ylakim, shuboni [3:143]. Kiyik – ohu, kiyik; [10:113].

Quyidagi baytda turkiycha **jayron** termini **jayran** shaklida qo'llanilgan:

Ul vahshki, erdilar jalisi,

Bir **jayran** edi aning anisi [3:240]

Mayda shoxli hayvonlar nomini bildiruvchi terminlar

Mayda shoxli hayvonlardan turkiy xalqlarda eng keng tarqalgani **qo'y** bo'lib, bu so'z Navoiy asarida ham shu shakl va ma'noda qo'llangan:

Kim, "Menkim ishim erur shubonliq,

Qo'y birla qo'zig'a mehribonliq" [3:212]. Mazkur baytda qo'y termini bilan birga *turkiycha* qo'zi zoonimi ham qo'llanilgan. "Layli va Majnun" dostoni matnida yirik shoxli hayvonlarni ifodalovchi zoonimlarni uchratmadik.

Dostonda, shuningdek, *babr*, *bo'ri*, *dad*, *qoplon*, *pil*, *sher* kabi yovvoyi hayvonlar nomi ham qo'llanilgan bo'lib, bu haqida kelgusi tadqiqotlarda batafsil to'xtalish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, eski o'zbek tilida zoonim terminlar mavjud bo'lib, Navoiy "Layli va Majnun" dostonida ulardan bir qanchasini ishlatgan. Mazkur dostonda qo'llanilgan hayvon nomlarining aksariyati turkiy so'zlar bo'lsa-da, arabiy va forsiy so'zlar ham uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdushukurov B., Sindarov I., XI-XIV asr turkiy yozma manbalarda qo'llanilgan zoonimlar, 2019, Oltin bitiglar, 67-94.
2. Alisher Navoiy "Layli va Majnun" (nasriy tabdil). -Toshkent, 2021.
3. Alisher Navoiy "Layli va Majnun". -Toshkent, 2020.
4. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. O'quv-uslubiy majmua. – T.:2019. -B.117.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent, 2007.
6. Rahmatullayev Sh., O'zbek tilining etimologik lug'ati, 1-jild, 2000-yil.
7. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 1-жилд. – Тошкент, 1983.
8. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 2-жилд. – Тошкент, 1983.
9. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. – Тошкент, 1983.
10. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент, 1983.



BARKAMOL SHAXS TARBIYASIDA MUSTAHKAM OILANING O'RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada iste'dodli yozuvchi Tohir Malikning "Jinoyatning uzun yo'li" turkimidan o'rin olgan "Alvido, bolalik!" qissasida ko'tarilgan ma'naviyat masalasi haqida so'z yuritilgan. Qissada jinoyat ko'chasiga kirib qolgan o'smirlarning boshdan kechirgan mushkul sarguzashtlari, fojiali taqdirlarii hikoya qilinadi. Adib har bir timsol harakterida jinoyatga moyillikni yuzaga kelish sabablarini axtarishga, jinoyat paydo bo'lgan muhitni ko'rsatishga, ko'rsatibgina qolmay, jinoyatchi o'smirning shu yo'lga kirishiga sabachi bo'lgan kimsalarning qiyofasini yoritishga alohida diqqat qiladi.

Kalit so'zlar. turkum, qissa, timsol, ma'naviyat, ruhiyat, oilaviy muhit, ijtimoiy muhit.

Аннотация. В этой статье "Прощай, детство!" часть цикла "Долгий путь преступления" талантливого писателя Тахира Малика затрагивается вопрос духовности, поднятый в рассказе. История рассказывает о непростых приключениях и трагических судьбах подростков, попавших на улицу криминала. Особое внимание писатель уделяет поиску причин склонности к преступлению у каждого символического персонажа, показать среду в которой произошло преступление, и не только показать но и осветить образ тех, кто стал причиной преступного подростка. Вступить на этот путь.

Ключевые слова: сериал, рассказ, символ, духовность, психика, семейное окружение, социальная среда.

Annotation. In this article, "Goodbye, childhood!" is part of the series "The Long Way of Crime" by the talented writer Tahir Malik. The issue of spirituality raised in the story is discussed. The story tells about the difficult adventures and tragic fates experienced by teenagers who have fallen into the street of crime. The writer pays particular attention to the search for the reasons for the tendency to crime in each symbolic character, to show the environment in which the crime occurred, and not only to show, but also to illuminate the image of those who caused the criminal teenager to enter this path.

Key words. series, short story, symbol, spirituality, psyche, family environment, social environment.

Bugungi kunda jamiyatimizda olib borilayotgan islohotlarni kuzatar ekanmiz, barcha sohadagi o'zgarishlar yagona maqsad shu yurt farzandlarining har taraflama yetuk va barkamol kelajagini ta'minlashga qaratilganiga guvoh bo'lamiz. Barkamol shaxsni tarbiyalashga ta'sir etuvchi eng muhim omil maqsadli ta'lim- tarbiya jarayoni bo'lib, u asosan oilada, ta'lim dargohlarida, mahallalarda hamda ijtimoiy muhit ta'sirida amalga oshiriladi. Ushbu sharaflari va mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda o'zara bog'liq uch omil: oila – mahalla – ta'lim muassasalari hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi



Bola nima sababdan jinoyat ko'chasiga kiradi? Bugungi kunda o'smirlar orasida sodir etilayotgan jinoyatchilik o'rganib chiqilganda aksariyat hollarda ana shu hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi aniqlanmoqda. Oiladagi notinchlik, ta'lim muassasasidagi e'tiborsizlik, atrofdagilarning loqaydligi va beparvoligi sabab o'smir jinoyat ko'chasiga kirib qolganligi ko'rsatiladi.

Atoqli adib Tohir Malik "Alvido, bolalik!" qissasida aynan mana shu dolzarb masalaga e'tibor qaratgan. Ushbu qissa adibning "Jinoyatning uzun yo'li" turkum asarlarining dastlabki kitobi bo'lib, unda jinoyat ko'chasiga kirib qolgan o'smirlarning boshdan kechirgan mushkul sarguzashtlari, fojiali taqdirleri yoritilgan.

"Alvido, bolalik!" qissasining muqaddimasida shunday tasvir bor. "Quyosh barchaga baravar nur sochadi", deydilar. Haq gap. Biroq, uning nuridan hamma ham bir xilda bahramand bo'lavermaydi.

Tikanli sim, temir panjaralar, baland devorlar ortidan mo'ralagan tonggi quyosh ko'ngilga ozod hayotdagi kabi iliqlikni bera olarmikan? Tikanli simlar bilan o'ralgan qamoqxona hovlisiga ham bahor kiradi, bu yerdagi daraxtlar kurtagi ham ko'z ochadi, surxchalar barg chiqaradi. Ammo, bahor gashti tikanli simlarni oshib bu yerga o'ta olarmikan? Ozodlik so'zini bu yerda nonday aziz ko'rishadi. Bu yerda oylar sanaladi, kunlar, soatlar sanaladi. Har lahza, soat, kun... ularni ozodlikka yaqinlashtiradi.

Har lahza, soat, kun... ularni iskanjaga oladi, ular o'ylamay bosilgan qadamlarini la'natlab yashashadi."¹⁰¹

Yozuvchi g'oyat ta'sirchan ana shu tasvir orqali o'smirlar orasida yuz bergan jinoyatchilikning, sabab va oqibatlarini ko'rsatish, insonning ma'naviy kamolotiga xizmat qiluvchi hayotiy unsurlarini ta'kidlashni e'tiborda tutadi. Adib har bir timsol xarakterida jinoyatga moyillikni yuzaga kelish sabablarini axtarishga, jinoyat paydo bo'lgan muhitni ko'rsatishga, ko'rsatibgina qolmay, jinoyatchi o'smirning shu yo'lga kirishiga sabachi bo'lgan kimsalarning qiyofasini yoritishga alohida diqqat qiladi.

Asarning bosh qahramoni Asror jinoyatga o'zi istamagan holda aralashib qoladi. Aslida uning Qamariddin bilan aloqasi nochorlikdan boshlangan. Asrorning bolalik tuyg'usining erta so'nib borishiga asosiy sababchi otasi. "San'atkor" otasining uni maktabdan chiqarib, majburan to'ylarga olib chiqishi. Shu sababdanmi, Qamariddinday ko'cha bezori bir bola bilan osh-qatiq bo'lib qoladi. Natijada begunoh bir odamning qotiliga aylanadi. Asrordagi muqaddas tuyg'ular butunlay so'nmagan. Aks holda Asror qotillik yuz bergan kechasi va undan keyin ham qilib qo'ygan ishidan o'kinib, pushaymon bo'lib tashvishga tushmas edi. Asror kuchli ruhiy iztirobning iskanjasida qolib ketadi. Bundan keyingi tunlarni bedor o'tkazadi: yulduzli osmonni bir chetdan yamlab kelayotgan qo'ng'ir bulutlar orasida shafaq chiqib, yashin chaqnadi. Uning nuri peshayvon derazalaridan o'tib, gullar tushirilgan devorga urildi. Asrorning nazarida osmonda chaqmoq chaqnamadi, balki o'sha odamning ko'zlari yondi Nur ham o'sha ko'zlardan chiqdi. "Men qotilimni izlab edim, topdim", deya shu beshinchi qavat peshayvoniga otildi. Momoqaldiroq gumburladi. Asrorning nazarida o'sha odam na'ra tortdi. "Qarang, qotilimni topdim", deya shahar ahlini uyg'otmoqchi bo'ldi.¹⁰²

Qissaning "Alamzada odam yohud onasi tashlab ketgan bolaning ayanchli hayoti haqida hikoya" faslida qissaning yana bir qahramoni Qamariddinning fojiali qismati ham hikoya qilinadi. Qamariddin ko'cha bolasi bo'lib tug'ilgan va ko'cha bolasi bo'lib

101 Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo'li. "Alvido, bolalik!" 1-kitob. –Toshkent, "Adolat", 2016-y 39-bet.

102 Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo'li. "Alvido, bolalik!" 1-kitob. –Toshkent, "Adolat", 2016-y 39-bet.



o'sgan. Asror va uning atrofidagi bolalar Qamariddinni jinoiy uyushmaning boshlig'i sifatida taniydilar. Ammo ular Qamariddinning armonini bilishmaydi. Qamariddinning hayoti orzu qilinmaydigan hayot. Yozuvchi ana shu masalaga urg'u berar ekan, Qamariddinning fojiasi ildizaga nazar tashlaydi. Qamariddin otasi kimligini bilmaydi. Onasini esa uchinchi sinfga borayotganda ilk bor ko'rgan. Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida tarbiya topadi. Ota-ona mehri, kindik qoni to'kilgan uy degan tushunchalar unga mutlaqo begona. Shu sababdan bo'lsa kerak Qamariddin noinsoniy odatlarga o't qo'yishni istaydi yoki ularga qarama-qarshi ish qilishdan rohatlanadi.

Qissada hayotdan adashgan birgina Asror yoki Qamariddin emas, balki ularning hamtavog'i Salim ham, o'smir qiz Dilfuza ham bor. Asli bularning taqdirida ko'zga ko'rinmas mushtaraklik mavjud. Shu sababdan ular o'zlarini "xo'rlanganlar" toifasidan deb biladilar.

Asarni diqqat bilan o'qib chiqsak, qahramonlarning barchasi yuziga qora chaplab, jinoyatchi sifatida tasvirlamaydi. Jumladan, qissada bu qahramonlarga zohiran do'st bo'lgan, ammo xarakteri bilan qarama-qarshi qutbda turuvchi Zoir timsoli ham bor. Zoir ma'nan yuksak xaraterga ega qahramon. U Asrordan farqli ravishda, o'z mustaqil fikriga ega. Zoirning hayotga munosabati Asrorga o'xshaganlarni lol qoldiradi. Zoirning kun tartibi Asrorga ma'lum: borib yuvinadi, ovqatlanadi, kitob o'qiydi, bir soatcha ko'cha aylanadi, keyin dars tayyorlaydi. Oila kechki ovqatlanish vaqtida jam bo'lib, bugungi kun yakunlari va ertangi yangi kun rejalari haqida suhbatlashadilar. Zoirning ota-onasi oilada shunday tartib o'rnatganlar va albatta o'zlari namuna ko'rsatganlar.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ma'naviy boy, axloqiy yetuk, chuqur bilimli barkamol shaxs, avvalo, so'g'lom turmush tarzi qaror topgan mustahkam oiladagina shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo'li. "Alvido, bolalik!" 1-kitob. -Toshkent, "Adolat", 2016-y 3-bet.
2. Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo'li. "Alvido, bolalik!" 1-kitob. -Toshkent, "Adolat", 2016-y 39-bet.
3. AZamovna, Qurbonova Feruza. "Adabiy talimda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning amaliy ahamiyati.» *Oriental Art and Culture* III (2020): 368-372.
4. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Study of Modern Uzbek Written Literature and Folklore." *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION* 2.5 (2022): 142-145.
5. Qurbonova, Feruza. "Classic traditions and folklore motivations in the stories of Isajan Sultan." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.3 (2021): 492-495.
6. Agzamovna, Kurbanova Feruza. "Artistic speech is a factor of creating the hero's spirit (on the stories of Isajan Sultan)." *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH* 10.5 (2021): 37-39.



*Meliboyeva Marhabo,
Qo'qon DPI O'zbek tili kafedrası
katta o'qituvchisi*

«O'G'UZNOMA» DOSTONI TADQIQI XUSUSIDA

Annotasiya. Ma'lumki, turkiy xalqlar mafkurasida shomonlik, zardo'shtiylik, moniylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar alohida o'rin tutadi. Ana shu diniy oqimlarning har biri alohida qadimgi turkiy adabiyotning ko'rinishlarini yuzaga keltirdi. Shu sababli olimlar qadimgi turkiy adabiyotga kengroq, yangicha nuqtai nazardan yondashish kerakligini ta'kidlaydilar. Qadimgi turkiy adabiyotni moniylik, shomonlik, buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotga bo'lib o'rganish lozimligini aytadilar. «O'g'uznoma» dostoni ham qadimgi turkiy adabiyotning bir namunasi bo'lib, turkiy xalqlarning mushtarak meroslaridan biridir.

Аннотация. Известно, что такие религиозные течения, как шаманизм, зороастризм, монизм, буддизм занимают особое место в идеологии тюркских народов. Каждое из этих религиозных течений создавало отдельные проявления древнетюркской литературы. По этой причине ученые утверждают, что к древнетюркской литературе необходимо подходит с более широкой, новой точки зрения. Говорят, что древнетюркскую литературу нужно изучать в контексте монашества, шаманизма, буддизма. Эпос «Огузнома» также является образцом древнетюркской литературы и является одним из общих достояний тюркских народов.

Annotation. It is known that religious movements such as Shamanism, Zoroastrianism, Monism, Buddhism have a special place in the ideology of the Turkic peoples. Each of these religious currents gave rise to separate appearances of ancient Turkic literature. For this reason, scholars emphasize the need to approach ancient Turkic literature from a broader, new perspective. They say that ancient Turkic literature should be studied in the context of monasticism, shamanism, and Buddhism. The epic "Oguznoma" is also an example of ancient Turkic literature and is one of the common heritage of the Turkic peoples.

Insoniyat tafakkurining ilk qatlamlari miflarda o'zining poetik ifodasini topgan. Mif asosida inson ma'naviyati tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi adabiyot deb atalmish tushuncha shakllangan.

Turkiy xalqlarning qadimgi yozma adabiyoti xususida so'z ketganda, asosan, o'rxun-enasoy yozuvidagi yodgorliklar tilga olinadi. Ammo bugungi kunda olimlarning izlanishlari samarasi o'laroq, qadimgi turkiy adabiyot faqatgina O'rxun-enasoy yozuvidagi yodgorliklardan iborat emasligi ma'lum bo'ldi. O'rxun-enasoy yozuvidagi yodgorliklar turkiy adabiyotning bir qismi bo'lib, qadimgi turkiy adabiyot yana ko'plab adabiy yodgorliklarga ega ekanligi aniqlandi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar mafkurasida shomonlik, zardushtiylik, moniylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar alohida o'rin tutadi. Ana shu diniy oqimlarning har biri alohida qadimgi turkiy adabiyotning ko'rinishlarini yuzaga keltirdi. Shu sababli olimlar qadimgi turkiy adabiyotga kengroq, yangicha nuqtai nazardan yondashish kerakligini ta'kidlaydilar. Qadimgi turkiy adabiyotni moniylik, shomonlik, buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotga bo'lib o'rganish lozimligini aytadilar.



“O‘g‘uznoma” dostoni ham qadimgi turkiy adabiyotning bir namunasi bo‘lib, turkiy xalqlarning mushtarak meroslaridan biridir. Dostonni, yuqoridagi tasnifga ko‘ra, shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot sifatida o‘rganish mumkin.

“O‘g‘uznoma” dostoni eski uyg‘ur yozuvida bitilgan va hozirda Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Doston umumturkologiyada jiddiy o‘rganilmagan bo‘lib, faqat O‘g‘uz shaxsi haqida bildirilgan fikrlar mavjud (dostondagi mifologik motivlarni to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi). “O‘g‘uznoma” dostonini o‘rganishga bo‘lgan turkiyshunos olimlarning qiziqishi uning qanchalik keng yoyilganidan va qay darajada ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

“O‘g‘uznoma” dostonini o‘rganishni 1815-yilda nemis olimi Diyes boshlab berdi. U asarni shu yili nemis tiliga tarjima qilib, chop ettirdi. XIX asrning oxirida doston V.V.Radlov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, transkripsiyasi amalga oshirildi. Doston, bundan tashqari, Rizo Nur tomonidan turk tiliga, V.Bang tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan.

1959-yili turkolog olim A.M.Shcherbak “O‘g‘uznoma”ni eski uyg‘ur yozuvidagi yana bir asar “Muhabbatnoma” bilan birga rus tiliga tarjima qilib, nashr qildirdi. “O‘g‘uznoma” dostoni turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi bo‘lganligi sababli, 1986-yili qozoq olimlari ham A.M.Shcherbak nashri asosida qozoq tiliga o‘girib, qozoq og‘zaki adabiyoti va “O‘g‘uznoma” dostoni xususida fikrlarini bildirdilar. 1987-yilda doston A.M.Shcherbak nashri asosida o‘zbek tiliga o‘girildi.

“O‘g‘uznoma” dostoniga ikki yo‘nalishda munosabat bildirilgan:

- 1)adabiyotshunoslik yo‘nalishida;
- 2)tilshunoslik yo‘nalishida.

Adabiyotshunoslik yo‘nalishida o‘rgangan olimlar dostonning quyidagi tomonlariga e‘tibor qaratib, o‘z fikrlarini bildirganlar:

- dostondagi O‘g‘uz shaxsiga va uning prototipiga;
- dostondagi mifologik motivlar talqiniga.

“O‘g‘uznoma” dostonidagi O‘g‘uzxoqon timsoliko‘pchilik olimlar tomonidan tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. V.V.Radlov, Rizo Nur, N.Ya.Bichurin, I.Markvart, D.Sinor, G.Potantin kabi olimlar O‘g‘uz xoqon timsolida ma‘lum bir tarixiy shaxs gavdalandirilgan, degan fikrni ilgari suradilar. Ular O‘g‘uz xoqon timsoli ostida xun hukmdori Mode (N.Ya.Bichurin), Yuan - Shidagi Bug‘axon (V.V.Radlov), Iskandar Zulqarnayn (Rizo Nur), Chingizxon (I.Markvart, D.Sinor) kabi tarixiy shaxslar yotishini ta‘kidlaydilar.

Rus turkolog A.M.Shcherbak dostonidagi O‘g‘uz shaxsini “O‘g‘uznoma”ning o‘ziga asoslanib, uning o‘zidan kelib chiqib talqin qilishga harakat qiladi. Olim eposga aniq bir tarixiy hodisalar va obrazlarning begonaligini aytib, O‘g‘uz xoqonni Mode bilan ham, Iskandar Zulqarnayn va Chingizxon bilan ham bog‘lash mumkin emasligini ta‘kidlaydi. Jumladan, olim shunday yozadi: O‘g‘uz xoqon uchun ma‘lum bir shaxs asos bo‘lgan, deb qarash unchalik ishonchli emas, chunki doston O‘g‘uz xoqonning epik yodgorlik sifatida o‘ziga xosligini nazarda tutmaydi”. Bundan ma‘lum bo‘ladiki, A.M.Shcherbak “O‘g‘uznoma”ga va O‘g‘uz shaxsiga, eposlarga, ularning shakllanishiga xos bo‘lgan xususiyatlarni nazarda tutib yondashish lozimligini ilgari suradi. Aynan shu sababli olim O‘g‘uz xoqon obrazi haqida G.N.Potantin bildirgan fikrni bir qadar o‘rinli deb baholaydi. G.N.Potantin O‘g‘uz xoqon obrazi haqida dastlabki fikr bildirgan olimlardan bo‘lib, u O‘g‘uz shaxsiga eposlarning shakllanishi nuqtai nazaridan yondashadi.



Shuning uchun u O'g'uz xoqon obrazining epik xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, mo'g'ul og'zaki ijodidagi O'kirbash va "Manas" eposidagi Jonibekka bog'laydi.

"O'g'uznoma" dostoni yuzasidan alohida tadqiqotlar olib borgan o'zbek olimlaridan biri N.Rahmonovdir. Doston 1987-yili N.Rahmonov tomonidan o'zbek tiliga o'girildi va "Sharq yulduzi" jurnalida olimning kichik maqolasi ham chop etildi. Ushbu maqolada va olimning 2001-yilda nashrdan chiqqan "Ruhiyatdagi nur murodi", 2003-yilda H.Boltaboyev bilan hammualliflikda yozilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" kabi kitoblarida doston haqida ancha jiddiy fikrlar bayon etilgan. N.Rahmonov dostonidagi mifologik motivlar, ulardan kelib chiqadigan mazmun haqida o'z xulosalarini bildiradi.

"O'g'uznoma" dostoni turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi bo'lganligi sababli ozarbayjon va turkiyalik olimlar tomonidan ham keng tadqiq qilingan.

Adabiyotlar:

1. Tokhtasinovich, Akramov Shukurjon, and Tursunova Navruza. "WORD EXPANDERS IN UZBEK LANGUAGE." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1765-1771.
2. Мадраҳимов, И. С. «Субстанциал морфология ва лисоний бирликлар таснифи муаммолари.» (2022).
3. Hasanov, A. «STUDY OF SYNONYMS IN LINGUISTICS.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 207-212.
4. Yigtaliyev, Umidjon, and Shohruhbek Umidjonov. «THE ROLE OF SYNONYMY AND ANTONYMY PHENOMENA IN THE CHAIN OF GRADUAL RELATIONS.» *Open Access Repository* 4.3 (2023): 894-896.
5. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «LINGVOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 176-181. Rakhimovna, Mahbuba Tojiboyeva, and Kimyanazarov Muslimbek. «COMMONALITIES AND DIFFERENCES IN THE TEXT OF THE AUTHOR'S SPEECH IN THE STORY "O 'TMISHDAN ERTAKLAR".» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 212-215.
6. Usmonova, Sofiya, and Shakhzodaxon Avazmatova. «TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O 'RNI.» *Talqin va tadqiqotlar* 1.1 (2023).
7. Abdurahimovna, Juraeva Ramziya, and Umaralieva Jannatkhan Ubaydullo Qizi. "About the Study of Zavkiy's Work." *Miasto Przyszości* 29 (2022): 267-269.
8. Sharipovna, Meliboeva Marhabo. «ON THE STUDY OF THE EPOS.» *OGUZNOMA"* *Journal of Ethics and Diversity in International Communication* 1 (2021): 4-6.
9. Nasirov, Muslimjon. "ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT IN ASSOCIATIVE ASPECT." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 171-175.
10. Tukhtasinova, O. «OCCASIONALISM OF SPOKEN SPEECH.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1647-1649.
11. Mahmudova, Nilufar. "UZBEK LANGUAGE IN PARTICULAR OF TELECOMMUNICATION TERMINOLOGY." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 186-190.
12. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudova. *Journal of Positive School Psychology* 7 (5), 104-110, 2023
13. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 167-170.

NAVOIY NASRIDA USTOZ-SHOGIRD AN'ANASINING TASVIRLANISHI

Annotasiya. Maqolada ma'naviy barkamol shaxsning tarbiyalanishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida Navoiy nasriy merosidagi ta'lim-tarbiyaga oid masalalarni tadqiq etish, Navoiy piri komil Abdurahmon Jomiy siymosi, ruxiy olamining o'ziga xos jihatlarini alohida tasvirlash ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar. pir, ustoz, shogird, komil inson, kasb-hunar

Аннотация. В статье предполагается изучить вопросы, связанные с образованием в прозаическом наследии Навои, в воспитании духовно совершенной личности, нахождении своего места в обществе, описать специфические аспекты духовного мира совершенной фигуры Пира Навои Абдурахман Джамии.

Ключевые слова. учитель, ученик, совершенный человек, профессия.

Annotation. In the article, it is intended to study the issues related to education in the prose heritage of Navoi in the upbringing of a spiritually perfect person, finding his place in the society, to describe the specific aspects of the spiritual world of the perfect figure of Navoi's piri Abdurahman Jami.

Key words. pir, teacher, student, education, perfect person, profession

“Xamsat ul-mutahayyirin” Jomiy va Navoiy o'rtasidagi ustoz-shogirdlik munosabatlarini yoritish uchun eng mo'tabar ilmiy-tarixiy manba hisoblanadi. Jomiyning ustozlik sifatlarini ko'rsatish muallif oldida turgan asosiy maqsadlardan biri edi. Asarda bu vazifa bekam-u ko'st ado etilgan.

Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon Jomiy bilan tanishadi. Jomiy uni ham farzand, ham shogird sifatida qadrlaydi. Keyinchalik bu ikki ulug' shoir o'rtasidagi ustoz va shogirdlik munosabatlari yanada mustahkamlanib, ijodiy hamkorlikka aylanadi. Navoiy ijodida Jomiy bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan asarlar alohida o'rin tutadi. Biroq ustozga aloqador asarlar orasida “Xamsat ul-mutahayyirin” yaqqol ajralib turadi. Chunki asar, avvalambor, boshdan-oxir Jomiy ta'rifu tavsifiga bag'ishlangani, Jomiy vafotidan keyin yozilgani uchun ham u, qaysidir ma'noda, ikki buyuk ijodkor munosabatlarining o'ziga xos xotimasi ham hisoblanadi. Qolaversa, u Jomiy xotirasini abadiylashtirish uchun maxsus yozilgan. Bu haqida oldingi maqolalarimizda ham aytib o'tilgan[1].

Navoiy komil inson tarbiyalash, har bir kishining ilm-ma'rifat egallashi, kasb-hunar o'rganishga doir mulohazalari manoqiblarda tasvirlanar ekan shoirning asosiy tayanch dasturi Qur'oni Karim bo'lganligini bilish mumkin. Adib “Xamsat ul-mutahayyirin muqaddimasida Abdurahmon Jomiy tarixat ahlining peshvosi “ koshifi asrori rabboniy “ deb ataydi. (735- bet)

Ul olimi allomg'a yuz hamdu sano —
Kim, Odam ila tuzdi chu bu dayri fano.
Ilmig'a milk surmodi bir harf yano,
Juz nukta «subhonaka lo ilma lano».
(jalla sha'nuhu va azuma sultonahu)



Yuz na't angakim, xulqi karim o'ldi fani,
Ya'niki, karam koni rasuli madani,
Mundoq dedi ilm ahlini aylarga g'ani,
«Man akroma oliman faqad akramani»

Filologiya fanlari doktori Q. Ergashev Alisher Navoiyning deyarli barcha asarlarida Abdurahmon Jomiy shaxsi, sur'ati va siyratiga ta'rif-u-tavsif berganini ta'kidlaydi. Q. Ergashevning fikricha, Jomiyning ta'rifu-tavsifi nihoyatda mubolag'ali bir uslubda amalga oshirilgan. "Muallif uni (Jomiy) quyoshga, daryoga qiyos qiladi " tariqat ahlining muqtadosi va imomi ", " koshifi asrori rabboniy " deb ataydi. Albatta, Jomiy har qancha ta'rif va maqtovga loyiq "[2]. Asarda doimiy ravishda muallifning Abdurahmon Jomiyga bo'lgan cheksiz va samimiy hurmati aks ettirilgan. Shoir piri komil Abdurahmon Jomiyning hayot yo'liga teran nazar tashlaydi. Abdurahmon Jomiyning siymosi, ruhiy olamining o'ziga xos jihatlarini alohida e'tibor bilan tasvirlaydi. Asarda Jomiy siymosining komil tasviri yaratilgan. Bu quyidagilarda ko'rinadi.

1. Abdurahmon Jomiy – buyuk shoir, ilmi ba'dening donishmandi.

"Agarchi bir necha vaqt bizzarurat ulum kasbig'a ishtig'ol ko'rguzubdurlar, ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas erkandurlar. Chun alarg'a bizzot mashrabi tavhid voqe' bo'lg'ondur, haqiqat jamolin majoz muzohiri mushohadasida muoyana ko'rub, beixtiyorlig'lar dast berur ekandur. Ul ma'nin nazm libosida ado qilmoqdin guzirlari yo'q erkandurkim, bu vosita bila o'tqa taskin va o'tluq ko'ngulga orom bo'lur erkandur. Bu jihatdin nazmdin hargiz forig' bo'lmaydurlar va bu boisdin nazmg'a tadvinu devong'a tazyin bo'lubtur va mururi ayyom o'tub, alarning nazmi har sinf she'rdin olamning zolining quloq bila bilagin samin durrlar bila muzayyan va jayb bilan etagin otashin la'l bila mamlu va mulavvan qilibturlar nazmda bu boisdan nazmg'a tadvin va devong'a tazyin voqe' bo'lubtur"[3]. Olima S. G'aniyeva ta'kidlanganidek, Alisher Navoiy Jomiyning she'riyatdagi iste'dodi, qudratini uning bosh fazilati, deb biladi.

2. Abdurahmon Jomiy – tasavvuf ilmining peshvosi. "... ul ilmni o'z risola va kitoblarida xo'broq alfoz va ado bilan ul nav' tasniflar qildilarkim, ko'proq faqirlar aning mutolaasidin hazz topib, bahramand bo'lurlar"[3]. Demak, Jomiy tasavvuf ilmiga aloqador fikrlarini o'z asarida ko'pchilikka tushunarli qilib, sharh va izohlar bilan bayon etgan.

3. Abdurahmon Jomiy – tariqat ilmining rahnamosi. "... tariqat odobi sulukida andoq daqiq ravish bila tariyqlarini tuzdilarkim, ... hech kim u kishining bu ish bilan mashg'ul ekanligini bilmas va sezmas edi "[3].

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy Jomiy siymosida o'z davrining buyuk mutafakkiri, donishmandini ko'radi. Ustozining ma'naviy quvvati ruhiy olami beqiyos ekanligini ta'kidlaydi. Navoiyning ustози haqidagi iliq fikrlari boshqa maqolamizda ham aytib o'tilgan[4]. XV asr 2-yarmi XVI asr boshlarida Hirot adabiy muhitining buyuk namoyondasi bo'lgan Abdurahmon Jomiyning sur'at va siyratidagi mutanosibligini aniq dalillar bilan isbotlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Goyibboeva Rayhonoy. THE IMAGE OF ABDURAHMON JAMI IN NAVOI'S PROSE. Germany World Bulletin of Social Sciences (WBSS) Available Online at: <https://www.scholarexpress.net> Vol. 10, May,2022 ISSN: 2749-361X



2. Yergashev Qodir Otadjanovich. Alisher Navoiyning nasriy uslubi masalalari. 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti (filologiya fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi avtoreferati. – Toshkent: 2022. 66-bet.

3. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 5-jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2013 – B. 738

4. Goyibboeva Rayhonoy Ahmadjonovna, Mominjon Sulaymanov. TOPICS AND SPECIFIC FEATURES OF ALISHER NAVOI'S PROSE WORKS. ACADEMICIA : An International Multidisciplinary Research Journal ISSN: 2249-7137, Vol. 11 Issue 12, DECEMBER 2021, Impact Factor: SJIF 2021.492

6. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. 5-jild. Xamsat ul-mutahayyirin. – Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2013 – B. 735

Гончарова Нина Васильевна
ст. преподаватель кафедры русского
языка и литературы Кокандского ГПИ

ТЕМА ПОТЕРЯННОЙ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ Ф.М. ДОСТОЕВСКОГО

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема потерянной человеческой личности, замкнутой в своём одиночестве в своеобразном «подполье». Попытка героев Достоевского вырваться из замкнутого круга приводит их к бунту. Опыт свободы от мира, через который проходят герои Достоевского, оказывается опытом трагическим. Утверждается мысль о личной ответственности человека за свои поступки и действия.

Ключевые слова: потерянная человеческая личность, одиночество, отчуждение, подполье, разобщённость, страдания, бунт.

Тема потерянной человеческой личности, поставленной в условиях трагического одиночества, утратившей ощущения своего гармонического единства с миром, - стала одной из ведущих тем литературы XX столетия. Нередко истоки этого явления стремятся обнаружить в творчестве Ф.М.Достоевского.

Действительно, у Достоевского немало героев, «замкнутых» в своем одиночестве. Многие его герои прячутся в конуру, в своеобразное «подполье», уродливое одиночество. И большей частью – это незаурядные личности: замыкаются в себе и Раскольников, и Ставрогин, и Иван Карамазов.

Вот как изображает Достоевский состояние Раскольникова после совершенного им убийства: «с ним совершалось что-то совершенно ему незнакомое, новое, внезапное и никогда не бывалое. Если бы теперь вдруг комната наполнилась первейшими друзьями его; то у него, кажется, не нашлось бы для них ни одного человеческого слова, – до того вдруг; опустело его сердце. Мрачное ощущение мучительного, бесконечного уединения и отчуждения вдруг сознательно сказалось душе его. Если бы его приговорили даже сжечь в эту минуту, то и тогда он не пошевелился бы, даже вряд ли прослушал бы приговор



внимательно. И что всего мучительнее: это было более ощущение, чем сознание, чем понятие, ощущение самое мучительное из всех, до сих пор пережитых жизнью... В нем было какое-то бесконечное, почти физическое отвращение ко всему встречавшемуся и окружавшему, упорное, злобное, ненавистное. Ему гадки были все люди, гадки были их лица, походка, движения. Просто наплевал бы на кого-нибудь, укусил бы, кажется, если бы кто-нибудь с ним заговорил...» Раскольников «как паук к себе в угол забился» и хоть ненавидел эту «конуру», а «выходить из неё не хотел, все лежал...» [1].

Своё подполье и у Свидригайлова, представлявшего вечность в виде закоптелой деревенской бани с пауками по углам.

Ипполит в романе «Идиот» трагически переживает свою разобщённость с миром. Он не хочет оставаться в жизни, принимающей странные и уродливые формы «чудовищного» насекомого, «вроде скорпиона», но только гаже и ужаснее тем, что таких в природе нет, «коричневого и скорлупчатого, пресмыкающегося гада». И как остро он воспринимает свою отъединённость от мира, где всякая мушка «место своё знает» и лишь он один всему чужой, «выкидыш» [1]. Здесь мы видим, как удивительно точно соответствует мироощущение Ипполита мироощущению князя Мышкина, почувствовавшего себя, после всех несчастий, таким же «выкидышем», как когда-то в Швейцарии, когда он едва умел говорить.

А.Н. Латынина писала, что: «Все эти тарантулы, пауки и насекомые Достоевского – форма персонификации идеи враждебности мира человеку – или человека миру» [2. С. 233].

Однако, герои Достоевского пытаются вырваться из замкнутого круга, они ищут пути человеческой свободы. Так, Раскольников, Ставрогин, Иван Карамазов мучаются и страдают над вопросом подлинной свободы. Они осознают невозможность свободы в мире и удаляются от него, вступая с ним в конфликт. В этом есть и правда, но есть и ложь.

Достоевский исследует, ведёт ли разрыв с миром к подлинности человеческого существования, к обретению свободы. И он приходит к выводу, что идея разрыва с миром оказывается ложной, уродующей человека. Вся беда и Родиона Раскольникова, и Ивана Карамазова состоит в том, что они стремятся достичь свободы всеми доступными средствами. Это приводит их к новому тупику, они чувствуют себя еще более несвободными, ибо личную свободу человек может познать лишь в общении с другими людьми.

Опыт свободы от мира, через который проходят герои Достоевского, оказывается опытом трагическим. Раскольникова терзает не страх, а сознание невозможности разорвать нити, связывающие его с людьми. «О, если бы я был один, и никто не любил меня, и сам бы я никого никогда не любил! Не было бы всего этого!» - таков финальный вывод, к которому приходит Раскольников. Наказание своего героя Достоевский видит в его оторванности от мира людей. «Уход в «подполье» - не путь к достижению подлинности. Подполье – всё же болезнь, нравственная или даже физическая». [2. С. 235].

В «Братьях Карамазовых» Достоевский выражал идею о всеобщей виновности, чтобы утвердить мысль об ответственности каждого человека не только за свои действия, поступки, поведение, но и за всё, что происходит в мире.



Это давало ему возможность сконцентрировать внимание на таких конфликтах, которые раскрывали нравственные возможности личности, борьбу человека не только с внешним злом, сколько с самим собой, с тем негативным, что было в нем, - и от природы, и от враждебных обстоятельств. [3].

Отсюда интерес Достоевского к истории «воскресения» героя, не задавленного средой, а свободного, но который приходит к несогласию с жизнью. У Достоевского виновность означает ответственность за нравственный выбор, который человек осуществляет в состоянии свободы.

Утверждая мысль о личной ответственности человека, Достоевский предоставил своим героям право на оценку собственных поступков и действий. И герои Достоевского сами подвергают себя собственному моральному суду и наказанию. Достоевский считал, что вина всегда в самом человеке: «Всякий из нас пред всеми виноват» (Эту мысль Достоевский в романе «Братья Карамазовы» вложил в уста Маркела, брата Зосимы). [4]. Пробуждение собственного чувства вины он считал более важным, чем общественное, судебное обвинение. Поэтому чувство вины Достоевский рассматривал как средство самонаказания, так как чувство вины приводит к угрызениям совести. Совесть для Раскольникова, Дмитрия Карамазова – это осознание своего долга перед другими людьми, перед народом и всего человечества. [5].

Достоевский выразил боль за человека, за его унижение и притеснение, трагизм повседневного существования, в котором господствуют слепые и темные силы зла и разрушения, таящиеся под покровом обыденности и во внешнем мире, окружающем человека, и на дне его собственной души.

Тем не менее, герои Достоевского – натуры активные, враждебно противостоящие общественной среде, откуда их вытесняют. Они борются с нею доступными им средствами, стремясь к самоутверждению. Размышляя над человеческим существованием, они, не находя в нём разумного смысла, бунтуют против всего миропорядка, так неразумно устроенного. И бунт их приобретает характер и размах вселенский.

Для героев Достоевского «подполье» было отрицательным полюсом их существования, полюсом, от которого они так же, как их создатель, страстно рвались к «живой жизни». [6].

Использованная литература:

1. Достоевский Ф.М. Полн. Соб. Соч.: В 30 т. – Л., 1972-1986
2. Латынина А.Н. Достоевский и экзистенциализм // Достоевский – художник и мыслитель. – М., 1972.
3. Щенников Г.К. Художественное мышление Достоевского. – Свердловск, 1978.
4. Смирнов А.В. Достоевский и Ницше.
Источник: https://azbyka.ru/otechnik/Aleksandr_Smirnov/dostoevskij-i-nitshe/
5. Щенников Г.К. Об эстетических идеалах Достоевского // Достоевский. Материалы и исследования. – Л., 1980.
6. Фридлендер Г.М. Реализм Достоевского. – М.; Л., 1964.
7. Goncharova, N. V. (2022). The Union of Nature and Conscience in F. Dostoevsky's



Novel "Crime and Punishment". International Journal of Social Science Research and Review, 5(7), 167-171.

8. Гончарова, Н. В. (2023). ПРОБЛЕМА АНАЛИЗА И ИНТЕРПРЕТАЦИИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА. *Academic research in educational sciences*, 5(NUU Conference 2), 275-279.

*Raximov Sarvarjon Akramjon o'g'li,
Qo'qon DPI tadqiqotchisi*

XALQ ERTAKLARINING FOLKLOR JANRLARI O'RTASIDAGI O'RNI XUSUSIDA

Annotatsiya: maqolada xalq ertaklarining paydo bo'lishi, ularning janr xususiyatlari va xalq og'zaki ijodi (folklor)ning boshqa janrlari o'rtasidagi o'rni haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq ertaklari, kirish, boshlanma, tugun, sarguzasht, tugallanma, naql, doston, afsona.

Аннотация: в статье рассматривается возникновение народных сказок, их жанровые особенности, место среди других жанров фольклора.

Ключевые слова: народные сказки, вступление, начало, узел, приключение, завершение, повествование, эпос, легенда.

Abstract: the article discusses the emergence of folk tales, their genre features, and their place among other genres of folklore.

Key words: folk tales, introduction, beginning, knot, adventure, completion, narrative, epic, legend.

Dunyodagi barcha mamlakatlarda, xalqlarda bolalarga ertak aytib berish an'anasi mavjud bo'lsa kerak. Chunki odamiylik, adolat, mehr-muhabbat, ota-onaga hurmat, oqko'ngillik, vatanga sodiqlik, jasorat kabi insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etgan janr namunalari bolalarga orom baxshida etish bilan birga, ushbu fazilatlarni ularning qalbiga jo qiladi. Ertaklarda har bir xalqning o'ziga xos madaniy urf-odati, ijtimoiy-geografik muhiti va orzu-istaklari aks etgan bo'ladi. Bu janr inson paydo bo'libdiki, turli uslub va shakllarda ijro etilib, ming yillar davomida takomillashib kelgan.

Dastlab ertaklar ibtidoiy odamlarning turmushdagi ma'lum voqea-hodisani oddiy tarzda hikoya qilishi bilan paydo bo'lgan bo'lsa, ma'lum davrlar o'tib tasavvuriy, animistik, totemistik, fetishistik va mifologik qarashlaridan, tabiat hodisalari, o'zlarining kundalik mashg'ulotlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Shuningdek, hayvonlar qo'lga o'rgatilgandan so'ng hayvonlar haqidagi ertaklar yuzaga keldi va ular majoziy ertaklar yaratilishiga asos bo'ldi.

Xalq ertaklarining folklor janrlari tarkibidagi doston, afsona, naql va rivoyat kabi janrlaridan farqi shundaki, kirish, boshlanma, tugun, sarguzasht va tugallanma ertak kompozitsiyasining asosiy tarkibi hisoblanadi. Shuningdek, ertaklar ko'proq bolalar uchun mosligi jihati bilan ham boshqa folklor janrlardan ajralib turadi. Ertaklarning an'anaviy kirish bilan boshlanishi jahondagi barcha xalqlar ertakchiligi uchun mush-tarak xususiyat hisoblanadi. An'anaviy kirishning vazifasi tinglovchilar e'tiborini bir



nuqtaga jalb etish, ertak tinglashga hozirlashdir. An'anaviy kirishlar sujet tabiatiga mos tushadigan xayoliy fon yaratishni, auditoriya, tinglovchilar qalbida ko'tarinki ruh, xushchaqchaq kayfiyat paydo qilishni ko'zlaydi.¹⁰³

“Bir bor ekan, bir yo'q ekan, bir ... bor ekan”, “Bor ekan, yo'q ekan, och ekan, to'q ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan, g'oz karnaychi ekan, o'rdak surnaychi ekan, tovuq toq etdi, bilmadim qayoqqa ketdi”, “Bor ekanda yo'q ekan, bir ... bor ekan”¹⁰⁴ kabi boshlanmalar ertaklarning sirli olamiga qiziqtiruvchi kalit hisoblanadi. Mana shu boshlanmalar ertak tinglovchilarining diqqat-e'tiborini tortishda asosiy “qurol” hisoblanadi. Ba'zan ertaklarning kirish qismi undagi hajviy ruhga ishora xarakterida bo'lishi ham mumkin: «Taraqa — turuq, omochu bo'yinturuq, Shomirzoyi qoqquruq, Boqi charaqi, baroq ko'z darvozaboni, hayhot, og'zingga nowot, siynani siynaga qo'yib, diqqina xap yot, oftobda shayton ko'ndalang, o'rikda maymun tippa-tik, qonimjoninggajippo-jip. Ammo lekin, tomgabekin, zamonlarning zamonida bir podsho bor ekan» kabi. Kirish qism ayrim hollardagina ertak boshlamasiga ulansa, ayrim hollarda o'zicha mustaqil holda qolaveradi. Ertakda boshlama sujet chizig'ida doimiy element hisoblansa-da, sujet rivojiga aloqador emas, balki harakatning tashkil topishiga turtki bermaydi. U qahramonlar haqida ma'lumot beradi. Sujet chizig'ida sodir bo'ladigan voqea hodisalarning qaysi zamon va makonda kechajagidan xabar beradi. Boshlama sujet yo'nalishida noaniqlik va umumiylik kasb etadi. «Bor ekanda, yo'q ekan. Och ekanda, to'q ekan. Qadim zamonda bir podsho o'tgan ekan» kabi.¹⁰⁵

Qadimdan o'zbek xalqi ertak aytish an'anasiga jiddiy e'tibor qaratib kelgan.

Xalqimiz tomonidan «Ertak ermak emas, ertakchi og'ziga kelganini demas» degan maqol bejiz aytilmagan. Chunki bolalarning mo'jaz qalbida ezgulik urug'larini sochuvchi, ularda yaxshilikka ergashish, yomonlikka nafrat, adolat va haqiqat tarafda bo'lish kabi komil inson fazilatlarini shakllantirishda ertaklar folklorning boshqa janrlaridan ustunlikka ega. Ertaklar ramz va majozlar orqali asoslanishi, ixcham hamjli bo'lishi va voqelikning xayoliy va hayotiy uydirmalar vositasida tasvirlanishi jihatidan naqlarga o'xshab ketadi. Sababi o'tmishda afsona, mif, rivoyat va ertaklar turkiy qo'lyozmalar hamda kitoblarda bir nom bilan naql deb aytilgan. Lekin folklorning bu ikki janri bir biridan farq qiladi.

Naql atamasi sharq xalqlari orasida “Zarbulmasal” deb ham atalgan. K.Imomov esa uni matal deb ataydi. “Naql” arabcha – “uzatish, o'tkazish, qayta hikoya qilib berish”¹⁰⁶, biror maqol, voqealarni hikoya qilib berish” kabi ma'nolarni anglatadi. Naqllarda didaktik nasihat mazmuni yuqori bo'lib, ular badiiy tasvir vositalariga boy bo'lmaydi. Ertaklarda esa badiiy tasvir vositalari keng beriladi, mubolag'a, sujetda estetik zavq yuqori bo'ladi.

Ertaklarni afsonalar bilan qiyoslasak, afsonalar ma'lum bir tarixiy shaxs hayoti, tarixiy dalil yoki ma'lumotlar haqida xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan, tarkibida real tarixiy shaxslar bilan bir qatorda, xayoliy va mifik obrazlar ham ishtirok etadigan og'zaki nasriy asar sanaladi.¹⁰⁷ Albatta, afsonalarda ishtirok etgan tarixiy shaxslarni

103Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010. B -204

104 Afzalov M., Rasulov , Husainova Z. O'zbek xalq ertaklari. - Toshkent.: O'qituvchi, 2007. 16-20-b.

105 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010. B -204

106 O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent.:O'zbekiston nashriyoti. – 2020. B-29.

107 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010. B -180.



ing hayoti oddiyligicha berilmasligi mumkin, ya'ni tarixiy shaxs bilan bog'liq voqealar ularning hayotida sodir bo'lmagan to'qima sujet asosiga ham qurilishi mumkin. Ertak esa xalq og'zaki ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmalarga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar.¹⁰⁸

Demak, afsonalarda asosiy qahramon qilib tarixiy shaxs olinsa,

ertaklarda asosiy qahramon qilib hayvonlar-u jonsiz predmetlar olinishi mumkin.

Ertak ertakchi tomonidan yo bir kishiga, yo butun bir jamoaga qarata aytiladi. Bunda aytish mohiyatan ijroga teng. Aytaylik, ertakchi tinglovchilar diqqatini qozonish uchun ertak mazmuniga mos ruhiy holatlarga kiradi, ertak sirli olamini ta'minlash uchun ovoz jilosiga, yuz va gavda harakatlariga (mimika va pantomimikaga) alohida e'tibor beradi, ertakni baqirib-chaqirib aytmaydi, balki goh

shivirlab, goh ovozini ko'tarib, ko'zlarini har xil holatga solib, yumshoqlik bilan samimiy hikoya qiladi. Hayvonlarga xos ovozlarni taqlid qilsa, mifologik obrazlar ovozi vahmkor ohangda bo'lishini ta'minlaydi. Shu taxlitda butun bir ertakni bir o'zi ijro etadi, asardagi ruhiy olamni o'z kechinmalari bilan to'ldiradi va hayajonbaxshligini ta'minlaydi. Shu ijro xususiyatiga ko'ra ertak ijrochiligi xalq yakka aktyor teatrini eslatga-da, aslida har qanday dekoratsiyalardan va

boshqa sahnaviy atributlardan xoliligi bilan undan farq qiladi.¹⁰⁹

Ishlab chiqarishning dehqonchilik turi yetakchilik qilgan davrlarda ertak, odatda, dehqonlarning dala yumushlari tugagan paytda – kuz va qish mavsumlarida, uzun va zerikarli oqshomlarda aytilgan va bu o'ziga xos an'ana tusini olgan. Ertakchilik oqshomlari shomdan tonggacha davom etgan. Shundandirki, xalqning o'zi bu hodisani «Doston kunda aytiladi, ertak tunda» degan maqolida maxsus ta'kidlab qo'yishni unutmagan.¹¹⁰

Xulosa qilib aytganda, ertaklar xalqning ma'naviy xazinasini, boyligidir. Ularda bashariyatning orzu-istaklari, madaniyati, urf-odatlari va milliyliigi ham aks etadi. Kelgusi avlodni tarbiyalashda, ularda milliy ruhni, ona vatanga muhabbat va ezgulik tuyg'ularini shakllantirishda xalq ertaklarining o'rni beqiyos kattadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afzalov M., Rasulov , Husainova Z. O'zbek xalq ertaklari. - Toshkent.: O'qituvchi, 2007.
2. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent.:O'zbekiston nashriyoti. – 2020.
4. “Boburnoma”dagi toponimlarning grammatik tuzilishi va yasalishi. “Iqtidorli talabalar Ilmiy Axborotnomasi” ilmiy to'plami Namangan davlar universiteti-2021 (OAK).
5. “Boburnoma”dagi geografik nomlarning atalishi. “Ilm-fan muammolari magistrantlar talqinida” respublika ilmiy-amaliy konferensiya, Qo'qon shahri 2022-yil.
6. Til, tafakkur va madaniyat munosabati. “Talqin va tadqiqotlar” respublika ilmiy-uslubiy jurnali 11-son, 2022-yil.
7. LINGUISTIC AND SOCIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LANGUAGE. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E):

108 O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent.:O'zbekiston nashriyoti. – 2020. B-52.

109 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010. B -203.

110 Safarov O. O'zbek xalq og'zaki ijodi. Toshkent.:Musika nashriyoti. – 2010. B -203.



- 2347-6915 Vol. 10, Issue 12, Dec. (2022) page 1750-1753
8. On the Study of Critical Creation. *Miasto Przyszłości Kielce* 2022, 394 Vol. 29 (2022): *Miasto Przyszłości Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X* page 394-397
 9. Ellipsis And Anti-Ellipsis In The Erkin A'zam's Works. *Journal of Positive School Psychology* <http://journalppw.com> 2022, Vol. 6, No. 12, page 935-940.
 10. LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF THE NAMES OF PEOPLE USED IN MUKIMI'S WORKS. *ACADEMIC RESEARCH IN MODERN SCIENCE* International scientific-online conference 2022 page 23-26.
 11. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. "IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 167-170.
 12. Usmonova, Sofiya, and Shahzodaxon Avazmatova. "TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O'RNI." *Talqin va tadqiqotlar* 1.1 (2023).
 13. Abdurahimovna, Juraeva Ramziya, and Umaralieva Jannatkhan Ubaydullo Qizi. "About the Study of Zavkiy's Work." *Miasto Przyszłości* 29 (2022): 267-269.
 14. Sharapovna, Meliboeva Marhabo. «ON THE STUDY OF THE EPOS.» *OGUZNOMA* "Journal of Ethics and Diversity in International Communication" 1 (2021): 4-6.
 15. Nasirov, Muslimjon. "ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT IN ASSOCIATIVE ASPECT." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 171-175.
 16. Tukhtasinova, O. «OCCASIONALISM OF SPOKEN SPEECH.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1647-1649.
 17. Mahmudova, Nilufar. "UZBEK LANGUAGE IN PARTICULAR OF TELECOMMUNICATION TERMINOLOGY." *Open Access Repository* 9.3 (2023): 186-190.
 18. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudova *Journal of Positive School Psychology* 7 (5), 104-110, 2023

Usmonov G'iyosiddin Murotjonovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti

DUNYO ILM-FANIDA JADIDCHILIKKA DOIR YANGI YO'NALISHLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti tarixida nafaqat poetik iste'dodi, balki xalq tarixida elu yurt ravnaqi uchun jonini tikkan fidoyi shaxs sifatida ham o'ziga xos chuqur iz qoldirgani bilan alohida e'tiborni tortadigan Jadidlar faoliyati xalqimiz ma'naviyati, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan. Shuningdek, dunyoning nufuzli ilm o'choqlarida, dunyo ilm-fanida jadidchilik harakati, jadid adabiyotiga doir eng yangi ilmiy izlanishlar olti yo'nalishda olib borilayotgani alohida qayd etilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, fenomenal shaxs, qomusiy olim, mutafakkir, jadidchilik falsafasi va mafkurası, "usuli jadid", "usuli savtiya" maktablari, jadid matbuoti va noshirlik faoliyati, jadid teatri va san'ati, jadidlar folklorshunosligi, jadidlar matnshunosligi va tarjima shunosligi, jadid adabiy tanqidchiligi

Аннотация. В данной статье рассматривается творчество Джадиды, оставившего особый глубокий след в истории узбекской литературы не



только благодаря своему поэтическому таланту, но и в истории нации как самоотверженного человека, пожертвовавшего своей жизнью для развития страны, обращает особое внимание на духовность, культуру, общественно подчеркнуто, что это имеет большое значение в политическом развитии. Также отмечается, что новейшие научные исследования по джадидскому движению и джадидской литературе ведутся по шести направлениям в престижных научных центрах мира.

Ключевые слова. джадидизм, Феноменальная личность, энциклопедист, мыслитель, философия и идеология джадидизма, школы «усули джадид», «усули савтия», джадидская печать и издательство, джадидский театр и искусство, джадидский фольклор, джадидское текстоведение и переводоведение, современное Литературная критика.

Annotation. In this article, the Jadids, who have left a special deep mark in the history of Uzbek literature, not only because of their poetic talent, but also in the history of the nation as a selfless person who sacrificed their lives for the development of the country are highlighted that it is of great importance in political development. It is also noted that the latest scientific researches on Jadidism and Jadid literature are being conducted in six directions in prestigious centers of science of the world.

Key words. Jadidism, phenomenal person, encyclopedist, thinker, philosophy and ideology of Jadidism, “Usuli Jadid”, “Usuli Savtiya” schools, Jadid press and publishing, Jadid theater and art, Jadid folklore, Jadid textual studies and translation studies, modern literary criticism.

Har bir xalq ma'naviyati va madaniyatini uning tarixi va adabiyotidan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Agar o'zbek adabiyoti tarixiga ham shu ma'noda nazar tashlansa, har bir davr o'ziga xos iste'dod egalari voyaga yetkazganligini kuzatish mumkin. Jumladan, o'zbek adabiyoti tarixida shunday ijodkorlar mavjudki, ular nafaqat poetik iste'dodi, balki xalq tarixida elu yurt ravnaqi uchun jonini tikkan fidoyi shaxs sifatida ham o'ziga xos chuqur iz qoldirgani bilan alohida e'tiborni tortadi. Jadidlar shunday toifadagi insonlar edi. Ularning faoliyati xalqimiz ma'naviyati, madaniyati, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

XX asr boshlarida yashagan Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat (1886-1938) o'zbek xalqining yetuk ziyolilaridan, Buxoro farzandi, jadid faollaridan biri edi. U o'zbek xalqi ilm-fani, xususan, o'zbek tili, adabiyoti va folklorini o'rganish, o'rgatish, dunyo miqyosida keng targ'ib qilish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Ular haqida birinchilardan bo'lib o'z ilmiy qarashlarini ilgari surdi. Shunisi bilan ularning fan sifatida shakllanishiga asos yaratishda ishtirok qildi.

Fitrat 1917 yili “Turkiston muxtoriyati” e'lon qilingandan bir oy o'tmay: “Kuchga tayangan har buyrug'a bo'yinsundik, butun borlig'imizni qo'ldan berdik. Yolg'iz bir fikrni bermadik, yashirunturdik, emgaklarimizg'a o'rab saqladik: Turkiston muxtoriyati!” – deb yozgan edi.

Fenomenal shaxs, qomusiy olim, mutafakkir ijodkor Abdurauf Fitrat Mir Arab madrasasi tahsilidan so'ng Turkiyaning Istanbul dorilfununida to'rt yil (1909-1913) o'qidi. Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida faoliyat yuritib, o'zbeklar orasida birinchi bo'lib “professor” ilmiy unvoniga erishdi. Xuddi mana shu yillar va yo'llar Abdurauf Fitrat dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.



Fitrat “Yosh buxoroliklar”ning siyosiy kurashlaridagi faol ishtiroki, maorifni isloh etish, jadidchilik harakatlaridagi jiddiy izlanishlari tufayli tug‘ilgan savollariga bu mamlakatning zamonaviy kechmishlaridan javoblar qidirdi. U butun faoliyatini el va yurt ozodligi, taraqqiyoti maqsadlariga bo‘ysundirgan, shu zaylda davlatning boshqaruv tizimini, maorifni, jamiyatni, tuzumni isloh qilish g‘oyalarini ilgari surgan, faylasuf va davlat arbobi ham edi. Shularni amalga oshirajak qahramonlar qiyofasini, orzu-umid, armonlarini badiiy asarlarida gavdalandirgan ulug‘ san’atkor sifatida jahonga tanildi.

Insonlarning erk va ozodligi kuychisi Abdurauf Fitrat hayoti hamda ijodiga qiziqish jahon bo‘ylab kechdi. Yurtimizda esa bu ish faqat mustaqilligimizdan so‘ng paydo bo‘ldi va rivojlanib bordi. Bunda xorijlik adabiyoshunos va olimlarning qiziqishlari ham yildan-yilga ortib borganligini alohida ta’kidlash lozim. Ularning o‘rgangan va tarjima qilgan ishlari turli nufuzli manbalarda e’lon qilindi.

Jadidchilik, jadidlar faoliyati, ularning hayoti va ijodiga bo‘lgan e’tibor shu kunlarda yanada oshirilmoqda. Chunki jadidlar o‘z millati ravnaqi yo‘lida hech qanday xavf-xatardan cho‘chimay, jon kuydirgan, xalqining ma’rifatli va yuksak ma’naviyatli bo‘lishini chin yurakdan orzu qilgan, bu yo‘lda shaxsiy mablag‘ini ham sarflab, tinimsiz samarali ishlarni amalga oshirgan fidoyi insonlar edi.

Shunday jadid namoyanlardan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat haqida xorijdagi olimlarning ham o‘z qarashlari paydo bo‘ldi. Ular Fitratning ijodini ilmiy tahlil qilish orqali unga xos fenomenlikni asoslashni ko‘zlab, bir qancha xayrli ishlarni amalga oshirdilar. Xususan, so‘nggi yillarda O‘zbekistonning dunyo davlatlari o‘rtasidagi mavqei oshib, jahon hamjamiyatidagi o‘rni sezilarli darajada mustahkamlanib borayotgani yurtimizda adabiy aloqalar sohasida ham ijobiy yutuqlarga erishishni ta’minlamoqda. Xorijlik adabiyotshunoslar bizning bu sohada amalga oshirayotgan ishlarimizga katta baho bermoqda.

AQSH, Fransiya, Germaniya, Yaponiya va Turkiya davlatlarining nufuzli universitetlarida “Markaziy Osiyo adabiyoti”ni o‘rganish uchun maxsus yo‘nalishda grantlar ajratilgan, bo‘limlar tashkil qilinganki, ularda jadidchilik adabiyotiga alohida qiziqish va e’tibor bilan yondashilgan. Bu borada olimlar turli izlanishlar olib bormoqdalar. Ular qatorida Edvard Olvort¹¹¹, Aleksandr Benningsen, Ken Petersen, Adib Halid, Charlez Kursman, Ingeborg Baldaufnlarning alohida o‘rni bor.

Sh.Nazarova “Uchinchi Renessans – jadidlar maslagi” nomli maqolasida AQShning Kolumbiya, Michigan, Chikago, Kaliforniya universitetlari, Yaponiyaning Tokio xorijiy tadqiqotlar universiteti, Rossiya Fanlar akademiyasi, Rossiya islom instituti, Qozon federal universiteti, Turkiyaning Anqara, Eje, Istanbul universitetlari, Ozarbayjon Fanlar akademiyasi, Qo‘lyozmalar instituti, Boku davlat universiteti, Qozog‘istonning Yevroosiyo milliy universiteti, Turkmaniston Fanlar akademiyasi kabi nufuzli ilm o‘choqlarida dunyo ilm-fanida jadidchilik harakati, jadid adabiyotiga doir eng yangi ilmiy izlanishlar olti yo‘nalishda olib borilayotganini alohida qayd etgan.¹¹² Ammo olimaning bu fikriga tayangan holda, ushbu tasnifni yanada kengaytirish mumkin. Jumladan:

111 Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history. – Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190. / An Analysis of the Western Scholarly Discourse on Turkic Identity in Central Asia, The Turkish Yearbook of International Relations, No: 32, 2002, - P.127-166.

112 Nazarova SH. Uchinchi Renessans — jadidlar maslagi // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – 2022 yil. – 5 noyabr soni. – B.5.



Birinchisi yo'nalish – jadidchilik falsafasi va mafkurasini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar. Ularda tarixiy jarayon, siyosiy mafkura, dinga munosabat borasida jadidlar qarashlari qamrab olingan. Bunga oid tadqiqotlar ko'proq Qozon federal universiteti, Xakas davlat universiteti, Boku davlat universiteti, Anqara va Eje universitetlarida amalga oshirilgan.

Ikkinchi yo'nalish – maorif, ta'lim-tarbiya (pedagogika), yangi usulda o'qitadigan “usuli jadid”, “usuli savtiya” maktablarini tashkil qilish masalalari.

Uchinchi yo'nalish – millat taqdiri, yoshlar, xotin-qizlar gender tengligi muammolari talqini.

To'rtinchi yo'nalish – til, imlo, tilshunoslik bo'yicha tadqiqotlarning olib borilishi. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarda jadid atamashunosligini ishlab chiqish borasida ham muayyan natijalarga erishilgan. Masalan, Fitrat nafaqat o'zbek, balki butun turkiy xalqlar ijod namunalarini yozib olish, to'plash, nashr qilib tekstologik jihatdan o'rganish yo'lida ancha samarali ishlarni amalga oshirdi. Arab yozuvi asosidagi va lotin yozuvi asosidagi o'zbek xatlarini yaxshi bilgan Fitrat ularga mo'ljallangan transkripsiyani ham ishlab chiqdi.¹¹³

Beshinchi yo'nalish – jadid ijodkorlarining badiiy ijodi, adabiyotga qo'shgan hissassi tadqiqini qamrab olgan. Bunda ularning shoir, nosir, dramaturg sifatidagi ijodiy faoliyati, o'zbek she'riyati, nasri, dramaturgiyasiga qo'shgan ulushi yoritilgan. Bu yo'nalishda Kolumbiya, Michigan universitetlarida, Yevroosiyo milliy universiteti, Turkman jahon tillari milliy institutida qiziqarli izlanishlar yuritilgan.

Oldinchi yo'nalish – jadid matbuoti va noshirlik faoliyatiga doir tadqiqotlar. Bu bo'yicha Ozarbayjon Fanlar akademiyasi Adabiyot instituti, Anqaradagi Hoji Bayram valiy universitetida muhim izlanishlar amalga oshirilgan. Binobarin, milliy uyg'onish davrida jadidlar tomonidan juda boy va salmoqli manbalar yaratilgan. Jadidlar jasorati bilan chop etilgan gazeta-jurnallar, qo'lyozma, toshbosma kitoblar anchagina, ammo ularning katta qismi vaqt bo'ronlarida yo'qolib ketganini ham tan olish lozim.

Yettinchi yo'nalish – jadid teatri va san'ati, o'zbek jadid dramasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar. Bunga Tokio xorijiy tadqiqotlar universtiteti, Michigan va Eje universitetlarida olib borilgan tadqiqotlar misol bo'la oladi.

Sakkizinchi yo'nalish – jadidlar folklorshunosligi.¹¹⁴ Bevosita Fitrat tashabbusi bilan tuzilgan “Chig'atoy gurunggi” tashkiloti yo'qolib ketish xavfi ostida qolgan o'zbek ijodkorlarining, shuningdek, folklor durdonalarini asrab qolish ishlarida jonbozlik ko'rsatdi. Garchi bu o'sha davrda hukmron bo'lgan mustabid sho'ro tuzumi siyosatiga qarshi bo'lsa-da, Fitrat va uning atrofida gilar bundan qo'rqmadi. Ular milliy qadriyat va an'analarimiz oyoq osti qilinib, “eskilik sarqiti” deb qaralayotgan ulkan ma'naviy merosimizni jasorat bilan to'plab, o'rgana boshladilar. Buning uchun ular katta aybdor sanalib, 1938 yil oktabr oyi boshida otib tashlandi. Faqat istiqlol yillaridagina ularning nomini tilga olish, ijodiy merosini o'rganish sari yo'l ochildi.

To'qqizinchi yo'nalish – jadidlar matnshunosligi va tarjimashunosligi. SH.Nazarova aytganidek, “Jadidlarning hali keng jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanayotgan

113 Mirzayev T. Abdurauf Fitrat. // Hodi Zarif suhbatlari. Ustozlar, hamkorlar va safdoshlar. – T.: “SHAMS - ASA” MCHJ bosmaxonasi. – B.51.

114 Amonov U. XX asr boshlarida o'zbek folklorining o'rganilishi tarixi (Abdurauf Fitrat, G'ozzi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida): Filol. fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – T., 2018.



“Sabzazor” (1914), Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi nodir qo‘lyozma, toshbosma va bosma asarlar fondida saqlanayotgan “Milliy ash‘ori Tarjimon” (1910), “Milliy she‘rlar majmuasi yoxud adabi din” (1912), “Yangi adabiyot” (1915), Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonaning nodir kitoblar bo‘limida saqlanayotgan “O‘zbek yosh shoirlari” (1922) bayoz, majmua, she‘r to‘plamini izoh va tadqiqi bilan qaytadan mukammal nashr etishga ulgurish lozim”.¹¹⁵

O‘ninchi yo‘nalish – jadid adabiy tanqidchiligi. Bunda adabiy davrlar chegarasini belgilash, adabiy avlodlar zanjirini yaxlit tasavvur qilish, yangi manbalarni o‘rganish, o‘rganilgan manbalarni qayta baholash va ularning barchasini istiqloq muhitida qayta idrok etish bo‘yicha izlanishlar yuritilmoqda.

Shu tariqa jadidchilik va jadid adabiyoti turli ijtimoiy-adabiy, ilmiy-amaliy yo‘nalishlarda rivojlanib, ularga doir izlanishlar xalqaro miqyosda tanila bordi. Biroq ruslar o‘zlari bosib olgan hududlardagi ilg‘or ziyolilarni, xususan, jadidlarni yo‘q qilishga urinishi natijasida ularning ijodiy merosi, millat ravnaqi yo‘lida amalga oshirgan ezgu ishlari yo‘q qilindi. Biroq o‘sha vaqtlarda bosib olingan hududlar o‘z milliy mustaqilligiga erishgach, jadidlar faoliyatiga natijalarni ilmiy umumlashtirish ma‘naviy ehtiyojga aylandi. Bunga faqat jadidlar faoliyat olib borgan hududlardagina emas, jahon miqyosida qiziqish paydo bo‘ldi. Jadidshunoslik xalqaro ko‘lam kasb etdi.

Milliy g‘urur tuyg‘usi, milliy istiqloq g‘oyasi bilan yonib yashagan Fitrat va boshqa jadidlar ijodi va faoliyatining hali ochilmagan qirralari anchagina.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward Allworth. Modern Uzbeks. From the fourteenth century to the present / A Cultural history. – Californiya: Hoover Institution Press Stanford University, 1190. / An Analysis of the Western Scholarly Discourse on Turkic Identity in Central Asia, The Turkish Yearbook of International Relations, No: 32, 2002, - P.127-166.
2. Nazarova SH. Uchinchi Renessans — jadidlar maslagi // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – 2022 yil. – 5 noyabr soni. – B.5.
3. Mirzayev T. Abdurauf Fitrat. // Hodi Zarif suhbatlari. Ustozlar, hamkorlar va safdoshlar. – T.: “SHAMS - ASA” MCHJ bosmaxonasi. – B.51.
4. Amonov U. XX asr boshlarida o‘zbek folklorining o‘rganilishi tarixi (Abdurauf Fitrat, G‘ozi Olim Yunusov va Elbek faoliyati misolida): Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – T., 2018.

Sherzod Xo‘jamberdiyev,
mustaqil tadqiqotchi

HAMZANING BIR TARJE’ G‘AZALI

Annotasiya. Mazkur maqolada mumtoz she‘riyatda keng istifoda etilgan tarje‘ (takrorlash) usulining zamonaviy adabiyotning ilk davrida, xususan jadid adabiyotida istifoda etilishi, tarje‘ning nazariy masalalari, uning lirikadagi maqomi xususida so‘z borgan. Ayni chog‘da, tarje‘ning tarje‘bandlardan farqi masalasiga ham to‘xtab o‘tilgan.

¹¹⁵ Nazarova SH. Uchinchi Renessans — jadidlar maslagi // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi. – 2022 yil. – 5 noyabr soni. – B.5.



Tarje'ning she'riyatdagi o'rni, muallifning asosiy niyati ana shu tarje'larda namoyon bo'lishligiga urg'u berilgan. Nazariy fikrlarning dalili sifatida Hamza Hakizodaning she'riyatda tajdid bo'lgan tarje' g'azali tahlil etilgan. She'rning g'azallik belgilari hamda tarje'lik xususiyatiga alohida to'xtab o'tilgan. "Milliy she'r" deb atalmish bu tarje' g'azal to'liq tahlil etilgan va shoirning aytmoqchi bo'lgan fikru niyatlariga munosabat bildirilgan. O'rni bilan she'r poetikasi xususida muxtasar so'z borgan.

Kalit so'zlar. Jadidchilik, jadid, millat, istiqlol, istiqbol, hikmat, o'zbek eli, dard, darmon, so'yi samo, Luqmon, tarje, tarjeband, bayt, band, misra, poetika, metafora, istiora, talmeh.

Аннотация. В данной статье говорится об использовании метода таре (повтор), который широко применялся в классической поэзии, в ранний период современной литературы, особенно в современной литературе, теоретических вопросах таре, его статусе в лирике. В то же время обсуждается и вопрос о разнице между тарже и таржебандс. Делается акцент на роли таре в поэзии, а также на том, что в этих таре проявляется основной замысел автора.

Ключевые слова. Современность, современность, насия, независимость, перспектива, мудрость, узбекская насия, бол, медисина, сой само, Лукман, тардже, тарджебанд, стих, банда, мисра, поетика, метафора, талмех.

Annotation. This article talks about the use of tarje' (repetition) method, which is widely used in classical poetry, in the early period of modern literature, especially in modern literature, theoretical issues of tarje, its status in lyrics. At the same time, the issue of the difference between tarje and tarjebands is also discussed. Emphasis is placed on the role of tarje in poetry, and the fact that the main intention of the author is manifested in these tarje.

Keywords. Modernity, modernity, nation, independence, perspective, wisdom, Uzbek nation, pain, medicine, soi samo, Luqman, tarje, tarjeband, verse, band, misra, poetics, metaphor, talmeh.

Hamza Hakimzodaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" majmuasiga kirgan bandlari uch misradan iborat bir she'ri bor. Unda har banddan keyin bir misra - "Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida" takrorlanadi. "Oq gul" to'plamidan joy olgan. She'r 9 band, 29 misra. Nega 27 misra emas, degan haqli savol tug'iladi. Zero, oxirgi bandda 4 misradan so'nggina ana shu misra takroran keladi va oxirgi band muxammas tusini oladi. Muallifning eslatishiga ko'ra, ushbu she'r xalq tomonidan ashula qilib aytib kelingan "Do'st, mavlon-yey" ohangiga tushadi. Shoir matn shu ohangga tushsin, degan maqsadda ayni ashuladan ushbularni namuna qilib keltiradi:

Men bu yonga kelmas erdim,
Yora, kelturding mani-yo!
O'tga solsa, kuymas edim,
Yora, kuydirding mani-yo!

Do'st, mavlon-yey, ko'nglum, olloh, sandadur. [1, 29]

Qizig'i shundaki, she'rning har bandida dastlabki ikki misra g'azal shakliga to'la mos keladi. Bilamizki, g'azal bandlardan emas, balki baytlardan tashkil topadi. Demak, Hamza Hakimzoda baytlarning har biriga bir misradan qo'shib, bandga aylantirgan. Endi bandlar uchlik shaklini olgan va musallas janriga mansub deyishga sabab bo'lgan.



Baytlar ham, takror ham – umuman, bandlar aruz vaznida. Aruzning ramali musammani mahzuf vazniga to'la mos tushadi. Afoyli: foilotun foilotun foilotun foilun. Taqte': - V - - V - - V - - V - ; "istamas" so'zi radif bo'lib, bandning matla'ida toq va juft, qolgan bandlarda juft misralarda takror kelgan. Qofiyalar "darmon", "mohi tabon", "Luqmon", "pushaymon", "Qur'on", "irfon", "bir jon", "davron", "bir non", "imkon", "nomusulmon" so'zlaridan iborat bo'lib, arabiy, forsiy va qisman turkiy so'zlardan iborat. Qofiyaning muqayyad turiga to'g'ri keladi; bunda "n" undoshi raviy bo'lib, birinchi "davron" so'zi bilan "mohi tabon" mujarrad qofiya hisoblanadi.[6,105]

Chunonchi, she'rning birinchi bandi tubandagicha:

Bizning Turkiston eli dardiga darmon istamas,

Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,

Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida. [1,29]

E'tibor qilinsa, birinchi band texnikasi yuqoridagi fikrlarning tasdig'i sifatida namoyon bo'layotganini kuzatish mumkin. Masalaning mohiyati bunda ham emas. Gap shundaki, qaytariq "Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida" she'rning barcha bandlarida, hattoki oxirgi besh misrali bandda ham beshinchi misra bo'lib takrorlanyapti. Bu holat she'rshunoslikda tarje' hisoblanadi. [6,106] She'riy janrlar orasida "tarje'band" nomli tur ham mavjud. Nazarimizda, har qanday misra yoki bayt takroriga asoslangan she'rni ana shu termin bilan nomlash to'g'ri emasga o'xshaydi. Masalan, Boborahim Mashrabda "Yorga yetar kun bormi, yoronlar", Muqimiyda "Men muhtalo qayda boray" kabi murabba'lar, Furqatda "Sayding qo'yaber, sayyod" musaddasi bor. Darslik-qo'llanmalarda ularni ham tarje'band deyish urfga kirgan. Lug'atlarda "tarje'band" terminiga quyidagicha ta'rif berilganini ko'ramiz: "mumtoz adabiyotdagi o'ziga xos kompozision qurilishga ega yirik hajmli she'r. Tarje'band bir necha baytdan tashkil topib, uning har bir bandi g'azal tipida qofiyalanuvchi (a-a, b-a, v-a, g-a...) bir necha baytdan tarkiblanadi, har bir band oxirida esa masnaviy tipida qofiyalangan bir bayt takrorlanadi" [2, 312] U.To'ychiyev qalamiga mansub "Adabiy turlar va janrlar" kitobidagi ta'rif ham xuddi shunday. [3,201]. Tarje'bandlarda misralar soni turlicha bo'lishi mumkin. Hofiz Xorazmiy, Alisher Navoiy tarje'bandlari 14, 22 misrali. Nodiraning "Firoqnoma"si 20 misrali tarje'band, jami yuz misra. Uvaysiyning Qo'qonda Hasan baqqoldan shikoyatlanib yozgan hasbi hol musammanining har bandida ikki misralik tarje' berilgan. Shunisi e'tiborliki, tarje' misra yoki bandlar shu she'rlarning g'oyaviy mundarijasini yaqqol eslatib turadi. Bandlar oxirida misra yoki masnaviy bayt shaklida qaytariluvchi ana shu bayt "vosila bayt" (bog'lovchi bayt) deb yuritiladi. Bir so'z bilan aytganda, tarje' misra yoki bayt takrori. Ammo tarje'band emas. Hamza Hakimzodaning biz zikr etgan "Dardiga darmon istamas" deb shartli nomlangan she'rini hech ikkilanmay tarje' g'azal deb atash mumkin ekan. Zero, Hamza Hakimzoda she'riyatida, ayniqsa, "Milliy she'rlar..."i orasida tarje'li uchlikdan tashqari, tarje'li to'rtlik, tarje'li beshlik, tarje'li oltilik bandlar ham uchraydi. "Yashasun millat!" deb shartli nomlangan oq she'ri "Xizmat qilsin joriyalar, yashasin millat!" misrasi takrorlangan murabba' shaklidagi tarje'li she'r bo'lib, 17 bandni tashkil qiladi (68 misra) va barcha bandlarning 4 misrasi tarje'. "Bir zarra bormu aqlu hushimiz" deya shartli nomlangan she'ri oltilik bo'lib, 8 bandni tashkil etadi va unda

Yetishdi hamon o'qurg'a zamon,

Endi ilmsiz yashamoq gumon –



qo'shmisrasi har band oxirida takrorlanadi. [1,27-28]. Demak, tarje' ko'proq, murabba', musaddas, qisman, musamman she'rlarni hosil qilish uchun istifoda etilar ekan. Musallas hosil qilishda ishtirok etgan tarje'larga faqat Hamza Hakimzoda she'riyatida duch kelinadi. Bunday holatni boshqa shoirlarda uchratmadik.

Agar zikrimiz markazida turgan ana shu musallas she'rga chuqurroq yondashilsa, to'g'rirog'i, uning ma'no-mundariyasi bilan tanishilsa, g'azal shaklidagi she'r qaysi maqsadda musallasga o'tib qolganining sababi ayon bo'ladi. Demak, bu holat she'rning mazmuniga-da munosabat bildirishni taqozo etadi.

Ma'lumki, jadidlarning tilagida "Chor hukumatini yo'qotish" (Munavvarqori Abdurashidxonov iborasi) deksiyosiy qarash mavjud bo'lsa-da, ular buyo'lining eng sodda, ta'bir joiz bo'lsa, ilmu irfon bilan erishish usulini tanlaganlar. Dunyo siyosatida bunday yo'l hech qachon o'zini oqlamagan. Bu Turkiya, Germaniya, Rossiya ma'rifatparvarlarining sa'y-harakatlarida ham bo'lgan. Bizning jadidlar ham ayni shu yo'lni tanlab, maqsadga erishishni niyat qilganlar. Buning ob'yektiv sabablari ham yo'q emas – ularda na qurol, na mablag' bo'lgan, jadidlarning aksariyati ziyolilar bo'lgan, siyosatshunoslar emas. Ana shu niyatga jadidlar o'z publisistikasi, she'riyat va nasriy asarlari, teatru (dramalari) asarlari, sahna san'ati vositasida erishishga harakat qilganlar. Bu maqsadda eng ko'p harakat qilgan Hamza Hakimzoda bo'lgan, desak yanglishmagan bo'lamiz. [6,177] To'g'ri, Munavvarqori, Avloniy, So'fizodalar ham bu yo'lda bir qator ishlar qilgan. Ularning ham millatning savodli bo'lishlari, shu orqali erk va ozodlikni qo'lga kiritish mumkinligini uqtiruvchi she'riy asarlari anchagina bo'lgan. Biroq Hamza Hakimzodanikicha emas. "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar" ostida yettita to'plam tuzgan bo'lsa, ularning barchasida millatimizning o'sha davrdagi ahvoli – savodsizligi, ma'rifatni (u diniy bo'lsin yo dunyoviy bo'lsin) egallashga sa'y qilmasliklari, boyonlarimizning xayru ehsonda u qadar qo'llari ochiq bo'lmaganligidan shikoyatlari, hatto davr mafkurasini va siyosatining o'zbek millatiga nisbatan noxolis munosabatlarigacha hech hayiqmay she'r bitganining guvohi bo'lamiz. Zikri borayotgan va shartli ravishda "Dardiga darmon istamas" nomli "Milliy she'r"i ham ayni shu mavzuda. Yana ushbuning shoir tomonidan "Milliy she'r" deb atalishi ham fikrimizni dalillaydi. She'rning birinchi bandida bunday yozadi shoir:

Bizni(ng) Turkiston eli dardiga darmon istamas,
Zulmat ichra kechsa umri, mohi tobon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida. [1,29]

Bandning birinchi misrasidanoq shoir ramziy yo'l bilan o'sha davr kishilarining ma'rifat borasidagi ahvolini istiora usuli orqali "og'ir dard" sifatida baholaydi va ularning bu og'ir dardga shifo istamasliklariga kuyinganligini hech ikkilanmay, ochiqdan ochiq bayon etmoqda. Ikkinchi misradagi "zulmat (qorong'ilik, zimiston)" metaforasi keyingi misradagi "uxlama" chaqirig'iga vobasta bo'lib kelmoqda; "o'zbek eli" nidosi hamda to'g'ridan to'g'ri aytilgan "asri taraqqiy" izofasi bu fikrlarni birlashtirib turuvchi ob'yektga aylantirgan. Natija o'laroq, she'rning umummazmuni ayni shu bandda namoyon bo'lib, keyingi bandlar millatning qay darajada "uxlab" yotganiga ishora qiladi. "Uxlamoq" fe'li ushbu o'rinda millatning o'qimaganligiga, qoloqligiga, diniy va dunyoviy ma'rifatdan bebahralligi metaforik ishorasi ekanligi keyingi misralar mazmuniga singdirilgan. Galdagi bandda yana tarje' kelib, qo'lida tama'ning tuzog'i, ko'nglida nafs havo, ko'zida kayfu xumor, shuning uchun bag'rini zillat hanjari burda-burda qilsa ham bir hoziq tabib istamaydi, sochlari oqarib, qaddi dol bo'lsa ham, bulardan pushaymonlik chekmaydi, deb



afsuslanadi shoir. Biroq hamma balo ana shu ilmsizlik tufayli ekanligini anglab turadilar, anglab turadilaru, g'ayrat va ittifoq aylab irfon istamasliklaridan shikoyat qiladi. Zero, deydi shoir, shunday zamon, ya'ni murdaga aylangan tanlaru jonlarni tiriltiruvchi bir davr keldi, osmondan tushdi ("Masihoyi ilm"), nima uchun bizning ellar na aqoid, na hadis, na tafsiri Qur'on atalmish jismiga jon, ruhiga ozuqa bo'ladigan uhroviy ilmlardan, na tirikchiliklarini ta'min etadigan dunyoviy bilimlardan bebahra bo'lib qolmoqda, deb yozg'iradi. Keltirilgan fikrlar "Ko'nglidadur oshuftai lahv u tarab, nafs u havo, Tilsa zillat hanjari bag'rini Luqmon istamas", "Qo'lidadur domi tama', ko'zidadur kayfu xumor, Soch oqarub, qaddi xam bo'lsa pushaymon istamas", "Jamshid"u, "Zarqum", "Bayoz" ahli salohin ilgida, Yo aqoid, yo hadis, tafsiri Qur'on istamas", "Ilmsizlikdan hama kelgan baloni anglayur, Ittifoqu g'ayrat aylab lek irfon istamas" baytlarida mujassamlashtirilgan. [1,29] (Shu o'rinda noshirlar yo'l qo'ygan bir xatoni to'g'rilab ketishni joiz deb bilamiz: qo'limizdagi "Fan" nashriyotida chop qilingan she'rning to'rtinchi bandida "tasviri qur'on" izofaviy birligi kelgan. Shu izofa, bizningcha, "tasviri qur'on" emas, "tafsiri Qur'on" bo'lishi kerak. Shuning uchun biz izofani aqoid, hadislariga mos ravishda "tafsir" so'zi bilan almashtirib, tanosublar qatorini to'ldirishni lozim topdik – Sh.X.)

She'rning mana bu bandi shoir fikrlarining asosli ekanligini to'la ta'min etadi:

O'zga millat uchsalar hikmat topib so'yi samo,
Bizni(ng) ellar loaqal yer uzra davron istamas. [1,30]

Ya'ni boshqa millat vakillari ilm egallab, osmonlarga uchayotgan bir paytda, suvlarning ostiga kirayotgan zamonda, bizning odamlar yer yuzidan ham bir davron topishni istamaydi. Boshqa millat vakillari har kuni ming bir ixtirolar qilayotgan bo'lsalar, bizning odamlar bitta nonni beranj yeyishni ham istamaydilar:

O'zgalar etmakda har kun bing sanoyi ixtiro,
Biz aholi topmoqqa beranj bir non istamas. [1,30]

She'rning muxammas bandida shoir oldinda aytgan fikrlarini haddi a'loga ko'taradi. Nazarimizda, lirik qahramon jamiyatdagi aytilganlar kabi qoloqliklardan, millatning tepsa tebranmasligidan qattiq o'kinadi va butun afsusu nadomatini ana shu misralarga jo etadi:

Bu na vahshat, na jaholat, er qizu piru javon
Domi g'afatdan xalos o'lmoqqa imkon istamas.
Ey Nihon, bing hayf, ey insoniyat, islomiyat,
Millati xor o'lmag'in hech nomusulmon istamas,
Uxlama ko'p, o'zbek eli, asri taraqqiy vaqtida. [1,30]

She'r shu bilan nihoyasiga yetadi. Haqli savol tug'iladi: Hamza Hakimzoda nima sababdan o'sha paytdagi ijtimoiy ahvolga bunday qattiqqo'llik bilan baho beradi? Bu - realistik she'r. Buning uchta sababi bor. Birinchisi, turkiy millatlar qadim-qadimdan ma'rifatni, ilm-fan sohalaridagi yangiliklarga o'ch bo'lib kelgan. Madrasalar va maxsus maktablarda diniy ilmlar qatori dunyoviy ilmlar ham o'rgatib kelingan, ulamoyi kiromlar dars berishgan. Beruniy, Ibn Sino, Xorazmiy, Farg'oniy, Ulug'bek, Qozizoda Rumiy singari allomalarni ular ham bilgan. Turli ixtirolar yuzaga kelgan. Shaharsozlik, hunarmandchilik rivoj topgan. Bu vaqtga kelib esa, iqtisodiy nochorlik bu ulug' ishlar ko'lamining kengayishiga emas, torayishiga sabab bo'lgan. Ikkinchisi, ilm-fanning jamiyatdagi o'rni susayishi bilan millat kishilari o'zlari bilan o'zlari bo'lib ketib, jipslik, ilm-fanni hurmat qilish, ilmiy kishilarni qo'llab-quvvatlash, yosh avlodni ilm-ma'rifat



bilan ta'min etishga panja orasidan qaraganlar. Buni Hamza Hakimzoda boshqa she'rlarida ham ko'p bora ta'kidlagan. Yanglishmasam, axloqiy hikoyalarining birida nima uchun yahudiy va armanlar orasida gadolar yo'g'u, bizning millat orasida gadoyu tilanchilar bosib ketgan, deya bong urganligiga shohid bo'lish mumkin. Uchinchisi, shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Jadidlarning tilagi millatni asriy uyqudan uyg'otish, nafsoniy o'zligidan voz kechtirib, haqiqiy o'zligini topishga undash edi. Buning yo'li, yuqorida ham aytib o'tildi, ilm olishga rag'batini jonlantirish, real voqelikni bo'rttirib ko'rsatish orqali millatning ko'zini ochishga undash bo'lganki, Hamza Hakimzoda ham bu usulni tanlashni lozim topgan va bunga erisha olgan. Hamza Hakimzodaning zamondoshlari So'fizoda, Avloniy, Munavvarqori, Siddiqiy Ajziy, Siddiqiy Xondayliqiy singari qalamkashlar ham ana shu yo'ldan borganlar. [4,84] Bu esa Hamza ma'rifatining ular nafaslari bilan uyg'un, ayrim tomonlardan esa ustun ekanligini ko'rsatadi. Buni biz tahlilga tortgan tarje' g'azali ham to'la tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom. She'rlar, pyedagogik risolalar, nasriy asarlar. – T.: Fan, 1988. – B.564.
2. Quronov D., Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010. – B.399.
3. Adabiy turlar va janrlar. (U.To'ychiyev) 3 jildlik. 2-jild. Lirika. – T.: Fan, 1992. – B.248.
4. Qosimov B., Yusupov Sh. , Dolimov U. va bosh. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Universitet va pedagogika oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - T. : Ma'naviyat. 2004. -B. 462.
5. Siddiqov M. Baholash me'yorida evrilishlar va oqibatlar. – Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti. – Farg'ona, 2019. – B.174-184.
6. Quronov D. Hamzaning poetik izlanishlari haqida. – Hamza va XX asr o'zbek adabiyoti. – Farg'ona, 2019. – B.102-111.

***Zulayho TO'YCHIYEVA,
Guliston davlat universiteti***

ZULFIYA SHE'RLARIDA SINTAKTIK-STILISTIK VOSITALARNING QO'LLANILISHI

Annotasiya. O'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan mohir so'z san'atkori shoira Zulfiya she'riy asarlari tilini lingvopoetik tahlil etish orqali uning individual ijodiy manerasiga xos xususiyatlarni belgilash va shoira poetik asarlari matnida konnotativ vazifa bajarayotgan til elementlarining uslubiy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Shoira she'rlarining til xususiyatlarining ayrim qirralari tahlil qilinib, ularning o'ziga xosliklari o'rganildi.

Kalit so'zlar. badiiy matn, poetika, frazema, ko'chma ma'no, poetik aktuallashuv, antiteza, antonim, mahorat, so'z qo'llashdagi individuallik ekspressivlik, turg'un birikmalar.

Аннотация. Селю данного исследования является определение особенностей ее индивидуального творческого стиля посредством



лингвостиллистического анализа языка поэтических произведений выдающейся художницы узбекской литературы поэтессы Зулфии, а также определение стилистических возможностей языковых элементов, выполняющих коннотативную функцию. функцию в тексте поэтических произведений поэтессы. Были проанализированы некоторые аспекты языковых особенностей стихотворений поэта и изучены их особенности.

Ключевые слова. художественный текст, поэтика, фраза, переносное значение, поэтическая актуализация, антитеза, антоним, мастерство, индивидуальность в употреблении слов, выразительность, устойчивые сочетания.

Annotation. The purpose of this study is to determine the features of her individual creative style through a linguistic and ethical analysis of the language of poetic works by the outstanding artist of Uzbek literature, the poetess Zulfiya, as well as to determine the stylistic possibilities of linguistic elements that perform a connotative function. function in the text of the poetess's poetic works. Some aspects of the linguistic features of the poet's poems were analyzed and their features were studied.

Key words. literary text, poetics, phrase, figurative meaning, poetic actualization, antithesis, antonym, skill, individuality in the use of words, expressiveness, stable combinations.

XX asr o'zbek adabiy tilining umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishi va rivojlanishida o'ziga xos davr bo'ldi. O'zbek milliy ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, adabiy tili, adabiyoti va madaniyatining shakllanishi va taraqqiy etishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Chunki adabiy tilning rivoji uchun badiiy adabiyot tili eng boy manba bo'lib xizmat qiladi. Adabiy tilning badiiy mukammallikka, milliy xarakterlar yaratishdagi o'ziga xoslikka erishishida so'z san'atkorlarining mashaqqatli xizmatlarini alohida ta'kidlash lozim. Shu bois ularning asarlari tili va uslubini lingvistik jihatdan o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Badiiy asarning bosh g'oyasi so'z, umuman, til ekan, uning chinakam san'at darajasiga ko'tarila olishida muallifning til vositalarini qay darajada qo'llay olishi asosiy omil sanaladi. So'nggi davr yozuvchilari nasriy asarlari xususidagi ilmiy tadqiqotlar xarakteri, asosan, adabiy tahlil doirasida ekanligi va badiiy asar tilini lingvistik jihatdan o'rganishga ehtiyoj ortganligi bois, keyingi paytda lingvopoetik tahlilga e'tibor ancha kuchaydi.

Badiiy asar yaratish borliqni badiiy obrazlarda idrok etish va qayta yaratish jarayoni bo'lib, san'atkor zimmasiga umumxalq tili boylik va imkoniyatlaridan oqilona va unumli foydalanish mas'uliyatini yuklaydi. Zero, umumxalq tili fikriy rang-barang bo'yoq va shakllarda ifodalash imkoniyatini beruvchi bitmas-tuganmas xazinaki, uning javohirlaridan har bir yozuvchi o'z kuzatuvchanlik qobiliyati, falsafiy mushohadasi va badiiy mahorati doirasi hamda darajasida foydalanadi.

Ijodkorning til sohasidagi san'atkorligi birinchi galda shunda namoyon bo'ladiki, u keng iste'moldagi so'z va iboralarni mohirona qo'llash bilan bir qatorda, xalqning ilg'or, peshqadam vakili sifatida umumxalq tili boylik va imkoniyatlarini mumtazam ravishda kengaytira boradi. O'z tili materiallari asosida yangi so'z va iboralar yaratadi, har xil dialoqlarda va umuman og'zaki nutqda mavjud bo'lib, adabiy – yozma nutq boyligi hisoblanmaydigan ayrim leksik va frazeologik birliklarni umumxalq sharoitlarda qo'llash



yo'li bilan ularga yangi ma'no va vazifalar yuklaydi.

Badiiy nutqning kommunikativ va shu bilan birga estetik vazifa bajarishi ma'lum. Badiiy uslubning boshqa uslublardan ajralib turadigan asosiy belgisi uning estetik funksiyasi, obrazlilik va yekspressivligidir.

Til mohiyatan, ichki qurilishi jihatidan denotativ (atash, nomlash, nominativ) va konnotativ ma'no bildirib, shu asosda aloqa vazifasini bajara oladigan vosita ekanligi uning ichki dualizmi, bir tomondan, ob'yektiv borliqni aks ettiruvchi tafakkurning shakli: ikkinchi tomondan, har bir elementning mohiyati shu elementning boshqa elementlar bilan bo'lgan ichki munosabatlaridan kelib chiqadigan mustaqil tizimdir.

Iste'dodli shoira Zulfiya mohir so'z san'atkori sifatida badiiy tasvir vositalaridan juda keng va mohirona foydalangan. Badiiy asarda qo'llangan barcha so'zlar ham baliy tasvir vositalaridir. Ana shu so'zlar vositasida yozuvchi asarning ma'nosi, g'oyasini o'quvchiga yetkazib beradi, unda tasvirlanayotgan voqea-hodisaga o'quvchi munosabatini uyg'otadi¹¹⁶.

Adabiyotning badiiyligi ijodkorni voqelikni obrazli idrok etishi va ana shu obrazli idrok etilgan voqelikni so'zlar vositasida o'zgalar hissiga, ruhiga va ongiga ta'sir ko'rsatadigan tarzda qayta yaratishdan, shakllantirishdan iborat murakkab ruhiy, aqliy va shuuriy hodisadir. Bu hodisada insonning besh sezgisi va oltinchi sezgi hisoblanmish ichki sezish orqali qabul qilingan har qanday axborat inson qalbidagi mavjud barqaror va beqaror tuyg'ularga ta'sir etib badiiy kechinma tug'diradi. Badiiy kechinma esa ijodkor ruhiy, aqliy faoliyati bilan sintezlashib muayyan obrazlarni shakllantiradi. Ana shu obrazli hosilani estetik qimmatga ega bo'lgan so'zlar vositasida tasvirlash adabiyotning badiiyligini tashkil qiladi¹¹⁷.

Zulfiya o'z she'rlarida badiiylilik, hayotiylikni yuzaga chiqarish uchun uslubiy vositalardan biri bo'lgan antitezadan ham unumli foydalangan.

Antiteza hodisasi bir necha asrlar davomida tilshunos olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan. Lekin bu hodisa haqidagi fikrlar uning umumiy ma'nosini ko'rsatish bilan chegaralangan. Mashhur fransuz tilshunos olimi Sh. Ballining "Fransuzkaya stilistika" kitobining nashr etilishi hamda unda birinchi marta til va nutq birliklarining stilistik vosita sifatida ma'lum bir belgilangan funksiyasini bajarish haqidagi fikrlarning bayon etilishi stilistik figuralar, shu jumladan, antiteza hodisasining sintaktik – stilistik vosita sifatida alohida o'rganish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Natijada til stilistikasiga oid ishlarning ayrimlarida antiteza hodisasi sintaktik–stilistik hodisalardan biri sifatida alohida tilga olinadigan bo'ldi¹¹⁸.

Antiteza badiiy adabiyotga ma'lum bir stilistik vazifani bajarish uchun xizmat qiladigan murakkab stilistik vositadir. Fikrlar shuni ko'rsatadiki, eng qadimiy stilistik usullardan biri hisoblangan antiteza hozirgi zamon o'zbek adabiy tili nutq stillarida juda keng qo'llanadi. Antitezaning asosiy vazifasi kontrast hisoblanadi. Semantik kontrast asosida maxsus sintaktik strukturaga ega bo'lgan nutq birliklarining stilistik maqsadda qarama-qarshi qo'llanishi natijasida antiteza hodisasi yuzaga keladi¹¹⁹.

Antiteza badiiy adabiyotga va notiqlik san'atiga aktiv qo'llanadigan sintaktik–stilistik vosita hisoblanib, unda bir-biriga zid qo'yiladigan tushunchalar, fikrlar qarama-

116 Кўнғуров Р. Бадий тасвирнинг лексик воситалари.

117 Саримсоқов Б. Бадийлик асослари ва мезонлари. – Т.: Фан, 2004. 121-бет.

118 Ўзбек тили стилистикаси. –Т.,1983. –В.190.

119 Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. –Т.: Фан, 1990. 15-бет.



qarshi qo'yilishi natijasida nutqning ta'sirchanligi ortadi, bayon qilinayotgan fikrga nisbatan tinglovchining qiziqishi kuchayadi. Masalan:

Kunlar qancha shodlik,
Qancha noshoddik,
Qancha ish,
Kohishga etar ro'baro'.
Jahonga sig'magan sevinchga nordek
Kelib bir bahamni qilganda orzu,
Taqdir to'siq bo'lsa,
Uni izlayman.

(Izlayman.)

Antiteza usulidan stilistik maqsadlarda keng foydalaniladi. Antiteza stilistik oppozitsiya usulidir. U ikkilik xarakteriga ega, ya'ni unda faqat ikki narsa bir-biriga solishtiriladi va zid qo'yiladi. Bu hodisada uchinchi narsa bo'lmaydi. Shuning uchun ham antitezali sintaktik konstruksiyalar binar tamoyili asosida shakllanadi va simmetrik xarakterga ega bo'ladi. Masalan:

Kaftda tutmas to'ydanda tantanavorlik,
Hayot bog'i goh tinch,
Gohi bo'ronlik.
Og'irlik yelkada,
Iqbol o'rtada
Boqiy qolsin juft-la sevgi visoli.

(Kelin tushdi)

Shundan beri tikman. Har nega qalqon,
Baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'u,
Birov azasida yig'layman qon-qon,
To'yida yayrayman o'xshab ohuga.

(Sensiz.)

Keltirilgan birinchi misolda hayotning qarama-qarshiliklarga boyligi antiteza vositasida tasvirlangan. Bu yerda qarama-qarshilikni yuzaga chiqarishda antonim so'zlardan foydalanilgan: tinch-bo'ronlik. Aslida tinch leksemasining antonimi shiddatli hisoblanadi. Biroq badiiy tafakkurning kengligi, badiiy nutqning imkoniyatlarining cheksiz ekanligi bo'ronlik leksemasini tinch leksemasiga qarshi qo'yish imkoniyatini beradi. Hayot, darhaqiqat, ziddiyatlarga boy, hech qachon bir maromda, tekis o'tmaydi, ba'zan sokin kechsa, ba'zan turli "bo'ronlik"larga duch keladi kishi. Mana ziddiyatlar antiteza vositasida yuzaga chiqarilgan.

Ikkinchi misolda esa ikki voqelik zidlangan: Birov azasida yig'layman qon-qon-To'yida yayrayman o'xshab ohuga. Mazkur voqelikning yuzaga kelguniga qadar shoira o'quvchiga vaziyatni yaqqolroq yetkazish maqsadida oldingi misralarda ham antitezaga murojaat qiladi: bahor-qish, baxt-qayg'u. Lirik qahromon hijron dardlarini bayon etar ekan, shuncha qiyinchiliklarga qaramay tirikligini, har nega qalqon bo'lib kelayotganini eslaydi: har nega qalqon, baxtga, bahorga ham, qishga, qayg'u. Shoira baxt va bahor tushunchalarini birga, qish va qayg'u tushunchalarini esa birga ta'kidlaydi. Mantiqiy yondashilsa ham bahor faslining baxtliligi, qish faslining qayg'u ekanligi asosli. Bu holatda alliterasiya – undosh tovushlarning uyg'unlashuvi (bahor-baxt, qish-qayg'u)



antitezaning ta'sir kuchini oshirgan.

Nutqda ifodalilikni yanada oshirish maqsadida mazmunan biri ikkinchisiga zid tushunchalar, mantiqan biri ikkinchisini rad etuvchi fikrlarni qarama – qarshi qo'yiladi. Antiteza hodisasi til sathlarining barchasida kuzatiladi. Lekin bu hodisaning sintaksis doirasidagi, ayniqsa, qo'shma gap sintaksisi doirasidagi vazifasi alohida ahamiyatga ega. Stilistik – sintaktik figuralar doirasida antiteza usuli qo'shma gaplarda qo'llanilish mahsuldorligi jihatidan sintaktik takror bilan bir qatorda turadi.

Antitezani yuzaga chiqarishda ishtirok etuvchi nutq birliklari antitezaning materiali hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, antitezali qurilmalarning ma'lum bir sistemani tashkil etishi ham tabiiy bir holdir. Antitezani yuzaga chiqishida quyidagilar asosiy o'rin egallaydi:

1. Antonim so'zlar. Masalan:

Bu hayotning hamma toza, chiroyli dami,
Aziz do'stim, mudom seni esga soladi.
Ko'zlar amri, yurak erki, jo'shqin his bilan
Kecha-kunduz jang qilmoqdan aqlim toladi.
Ham tabiat, ham do'st, ham raqib,
Barchasini qoldirib dog'da,
Ko'rishsak-u, yana tirilsa
O'sha o'lgan bo'sa dudog'da.

(Sog'inganda.)

2. Ayrim leksik-grammatik shakllar. Antitezali qo'shma gaplarning ba'zi turlari kontekst talabi bilan ma'nosi bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladigan ayrim so'zlar va so'z shakllari yordamida hosil qilinadi.

Masalan:

Ikkimizga ma'lum bir qudrat
Yillar o'ta senga tortadi.
Unutayin deymanu, faqat
Dilda uning o'ti ortadi.

(Sog'inganda.)

3. Tasdiq va inkor shaklli so'zlar. Antitezali gaplarda tasdiq va inkor formali so'zlar antiteza materiali bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

Biz yig'ladik tepangda shu kun,
Keldingmi, deb ko'tarmading bosh.
Ayt-chi, sen-la baxtiyor onlar,
Ko'rganmiding ko'zimda bir yosh?
(Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh.)

4. Antiteza materiali predikativ birliklardan bo'lishi mumkin. Masalan:

Sog'inganda izlab bir nishon,
Qabring tomon olar edim yo'l.
Keltirarding menga bir zamon,
Endi har chog' men eltaman gul.
(Ko'rganmiding ko'zlarimda yosh.)

Antiteza hodisasi qo'shma gapning har uchala turi orqali yuzaga kelishi mumkin. Antiteza usuli yordamida qo'shma gaplarning murakkablashgan turlari hosil qilinganda,



sintaktik qurilma qismlarining har biri qo'shma gapning biror turidan iborat bo'lib, ular orqali ifodalangan fikrlar o'zaro qiyoslanadi va farqi ochiladi. Antiteza usuli qo'shma gaplarning shart-payt, qiyoslash-zidlash munosabatini ifodalovchi turlarini hosil qilishda yetakchi usul hisoblanadi. Shuning uchun ham antitezaning qo'shma gap tuzishda ishtirok etuvchi sintaktik-stilistik figuralardan biri sifatida izohlanishi maqsadga muvofiqdir.

Antitezali qo'shma gaplar nutq uslublaridan asosan ikkitasida: so'zlashuv va badiiy uslublarda keng qo'llaniladi. Antiteza usuli kitobxonga nutqda qarama-qarshi qo'yiladigan voqea-hodisa, predmetlar o'rtasidagi aloqani konkret izohlashga yordam beradi. Alohida olinganda bir-biriga zid bo'lmagan predmetlar, tushunchalar badiiy asarda kontekst talabi bilan o'zaro qarama-qarshi qo'yilishi mumkin. Masalan:

Tog'day bor deb bilgan yuragim
Qush boshicha qolmadi chog'i?
G'amni yengarman degan sarim
Yana ortar alami, dog'i.
(Ne baloga etding muhtalo.)

Mana shu o'rinda shoiraning mahorati yana bir karra namoyon bo'ladi. U alohida olinganda mazmunan zid bo'lmagan so'zlarni vaziyatga mos holda ustalik bilan qarama-qarshi qo'ygan: tog'day – qush boshicha. Lirik qahramonning o'sha paytdagi ahvolini yorqinroq tasvirlash uchun antitezadan unumli foydalangan.

Antiteza usuli bilan hosil qilingan sintaktik konstruksiyalarda qarama - qarshilik ob'yekti quyidagilardan iborat bo'ladi:

1) shaxs sifati:
O'zing tashna etding, o'zing suv tutding,
Qalbmimdagi sahrom, daryomsan, xalqim!
Seni seva-seva men boyib ketdim,
Dunyo ichra topgan dunyomsan, xalqim!
(Xalqimga aytar so'zlarim.)

2) predmet belgisi:
Sevaman oltin kuz, sevaman jondan!
Tovusday bezangan daraxt, bog'larni!
Yomg'irli oqshoming, quyoshli tonging,
Xayolga cho'mganim go'zal onlarni!
3) shaxs yoki predmet harakati va holati.

Masalan:
Mana qimmatligim, yana bahor kelib,
Seni izlab yurdi, kezdi sarsari.
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekindi nari.

(Bahor keldi seni so'roqlab.)

Xuddi senday uzoq va senday yorqin,
Avji chaqnaganda so'nadi u ham,
Bir yupanch: sevgimning osmonidan
O'chmasdan yonasan, ey go'zal hamdam! (Yulduz.)
Zulfiya she'rlarini tahlil qilar ekanmiz, unda matn mazmunidan kelib chiqib



yuzaga keltirilgan antitezalarni ko'plab uchratishimiz mumkin:

1. Sarg'aygan dashtlarga berding yashil qon,
Tuproq tepalarda shahar ko'tarding:
Har bir g'alabangni ko'rgan suyak on
Dildagi o'z g'amim kuyi cho'kardi.

Keltirilgan parchada sarg'aygan leksemasi yashil qon leksemasiga qarama-qarshi qo'yilgan. Alohida olinganda sariq rang yashil rangga antonim emas. Biroq badiiy nutqning keng imkoniyatlari, shoiraning keng badiiy tahayyuri bu so'zlarni ayni vaziyatda qarshilantira olgan: sarg'ayib yotgan dashtlar yashillikka burkandi. Keyingi misrada ayni belgiga xos holatlarning keltirilishi she'rning badiiy ta'sirchanligini oshirib bergan: tuproq tepalarda shahar ko'tarding. Mazmuniy muvofiqlik ham saqlangan: sarg'aygan dashtlar – tuproq tepalar; yashil qon berding – shahar ko'tarding.

Xoh inongin, inonma xohi,
Xayolimda kezasan yolg'iz.
Meni sevgin!
Yigit nigohi
Sevgi tilar – sukut qilar qiz.

(Muhabbat tongi kulganda).

Mazkur parchada badiiy o'ziga xoslikning yana bir go'zal namunasini ko'rish mumkin. Muhabbat tarannum etilgan bu misralarda shoira antitezadan o'rinli foydalangan. Bunda ikki harakat, ya'ni yigit va qizning harakatlari qarama-qarshi qo'yilgan: yigitning nigohlar sevgi tilamoqda – qiz esa sukut qilib turibdi. Ayrim olinganda tilamoq (so'ramoq) fe'li aytmoq fe'liga antonim hisoblanadi. Yuqoridagi misralarda esa tilamoq leksemasi sukut qilmoq leksemasi bilan qarama-qarshilik hosil qilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, antiteza uslubiy vosita sifatida badiiy matnda keng tarqalgan. Shoira Zulfiya o'z she'rlarida antiteza vositasidan keng foydalangan. Antonimlar, qarama-qarshi predikativ birliklar, ayrim leksik-semantik shakllar antitezani yuzaga chiqarishga yordam bergan. Ayrim olinganda o'zaro ziddlik hosil qilmaydigan so'z va birikmalar shoira badiiy tafakkuri yordamida antitezani hosil qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'ng'urov R. Badiiy tasvirning leksik vositalari.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: Fan, 2004. 121-bet.
3. O'zbek tili stilistikasi, – T., 1983. – B.190.
4. Mamajonov A. Qo'shma gap stilistikasi. – T.: Fan, 2004. 121-bet.





TOG'AY MURODNING «YULDUZLAR MANGU YONADI» ASARIDAGI SHEVAGA XOS SO'ZLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asaridagi shevaga xos so'zlar, ularning fonetik, grammatik va leksik-fonetik jihatlari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Dialektlar, dialektologiya, mahalliy kolorit, leksik dialektizmlar, spirantizatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются диалектные слова, их фонетический, грамматический и лексико-фонетический аспекты в произведении Тогай Мурада «Юлдузлар мангу ёнади».

Ключевые слова: диалекты, диалектология, местный колорит, лексические диалектизмы, спирализация.

Abstract: This article talks about dialectal words, their phonetic, grammatical and lexical-phonetic aspects in Togay Murad's work «Yulduzlar Mangu Yonadi».

Key words: Dialects, dialectology, local color, lexical dialectisms, spirantization.

O'zbek tili juda ham boy va qadimiy tildir. O'zbek tilining lug'at boyligi, so'zlarning shevaga xos ko'rinishlari, bir so'zning bir necha xil qo'llanishi uning yanada mukammal tillardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Xususan, shevaga xos so'zlar o'zbek tilining o'ziga xos jihatlardan biridir. Ularni o'rganadigan alohida soha mavjud bo'lib, u "dialektologiya" deb ataladi. "Dialektologiya" shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim beradigan fan bo'lib, ijtimoiy hayotni, etnik qatlamni o'rganishi bilan o'ziga xosdir.

Dialektlar qo'llanishi muayyan hududgagina xos bo'lgan leksemalardir. Xususan, dialektlarning badiiy asardagi o'rni beqiyos. Badiiy asarlarning deyarli ko'pchiligida dialektlarga duch kelish holatlari ko'p uchraydi. Dialektlar badiiy asarni yanada ko'proq kitobxon qalbidan joy olishini va hududning mahalliy koloritini ochib berishini ta'minlaydigan muhim vositalardir. Muallif shevaga xos so'zlardan foydalanar ekan, uni kitobxon qalbidan yanada chuqurroq joy egallashini xohlaydi. Shuning uchun ham kitob mutolaa qilayotgan o'quvchi asarda tasvirlangan muhitda o'zini o'sha joyda mavjuddek his qila oladi. Dialektlarning yana bir muhim xususiyatlaridan biri bu millatning milliyligini yanada oshirishidir.

O'zbek adabiyotida ham dialektlarga boy asarlar ko'p uchraydi. Tog'ay Murod asarlari shular sirasiga kiradi. Yozuvchi asarlari tarbiyaviy ahamiyati va o'ziga xos uslubi bilan farq qiladi. Kitobxon nasr ustasining qissa va romanlarini o'qir ekan, ularda aks etgan o'zgacha milliy ruhni, asarda ishtirok etayotgan personajlarning noodatiy dialoglari asarga g'ayritabiiy jonlanish berganini anglab yetadi.

Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" qissasi yuqorida aytib o'tilgan sifatlari bilan boshqa asarlardan farq qiladi. Asarni jonlilik, badiiy ruh bilan ta'minlagan vosita bu uning tilidir.



Ushbu asarda yozuvchi Surxon vohasidagi shevaga xos soʻzlardan juda ham unumli foydalangan. Dialektlar esa asardagi hududning mahalliy koloritini ochib beruvchi eng muhim asosiy tayanch nuqtasidir. Maʼlumki, dialektizmlarning fonetik, leksik-fonetik va grammatik koʻrinishlari ham mavjud boʻlib, Togʻay Murod oʻzining asarlarida dialektizmlarning ushbu uch turidan yetarli darajada istifoda qilgan. Ularni quyidagi misollarda koʻrib oʻtamiz:

1. Fonetik dialektizmlar- dialektga xos nutq tovushlari yoxud soʻzning u yoki bu shevadagi fonetik tarkibi.

1) Soʻzning oʻrtasidagi **v** tovushi **b** tovushiga oʻzgargan: ...*Toboq-toboq palov suzildi*. (toboq-shevaga xos koʻrinishi, tovoq esa adabiy tildagi ot soʻz turkumi sirasiga kiruvchi leksema. Lekin ushbu kontekstdan anglashiladiki, toboq soʻzi lagan yaʼni quyuq taomlar suziladigan sayoz idish” maʼnosida kelyapti.

2) Asar tarkibida olmoshlarning ham fonetik tarkibi oʻzgargan: *Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab koʻring!* Olmosh tarkibidagi **a** unlisi **o** unlisiga, **b** harfi **v** ga oʻzgargan hamda ajratilib yoziladigan soʻz qoʻshilib ketgan: manovi-mana bu.

Ushbu keltirilgan parchada fonetik hodisa roʻy bergan. “Manovi” soʻzida spirantizatsiya (ayrim portlovchi undoshlarning ikki unli orasida sirgʻaluvchi undoshga oʻtishi) hodisasi roʻy bergan.(b va v undoshlari)

3) Soʻzning birinchi boʻgʻinidagi u unlisi o unlisiga almashgan: “Maʼqul, polvon bovaning suyaklari davrada qotgan!” Bova- shevadagi shakl, buva leksemasi esa adabiy tildagi koʻrinishi, ot soʻz turkumi.

“Yulduzlar mangu yonadi” asarida leksik dialektizmlarlardan ham samarali foydalanilgan.

2. Leksik dialektizmlar deyilganda, soʻzning adabiy tildagi koʻrinishidan yiroqda boʻlgan, yaʼni soʻz tarkibi tubdan oʻzgarganligi tushuniladi.

1) “Boʻrining onasi kadini chuqurchaga yaxshilab joylashtirib qoʻydi.” Ushbu parchada adabiy tilda mavjud boʻlmagan soʻz shevaga xos koʻrinishda aks etgan. Kadi-qovoq yoki oshqovoq poʻstlogʻidan tayyorlanadigan idish.

2) “U-u, ola jelak, undan koʻra boʻyningga toʻrva osib tilanchilik qil!” Asarning ushbu parchasida” jelak” soʻzi istifoda qilingan. Bu soʻz ham yuqorida taʼkidlab oʻtilgani kabi adabiy tilda mavjud boʻlmagan dialektizmlardir.

Jelak– nimcha, yengsiz yupqa kiyim.

3) “Mingoy baycha, ularga peshvoz chiqib, qoʻllaridan dasturxonni oling.” Ushbu parchada “baycha” soʻziga koʻp insonlar tushunmaydi. Negaki, u adabiy tildan yiroqda. “Baycha” soʻzi Qashqadaryo va Surxondaryo shevalariga xos soʻz boʻlib, xotin-qizlarga murojaat qilinayotganda qoʻllaniladigan “xon, oy, gul” maʼnosida foydalanilgan.

Dialektizmlarning grammatik shakli haqida soʻz borganda, ushbu asarda uning juda ham shakllarini koʻrishimiz mumkin.

3. Grammatik dialektizmlar-biror shevaning oʻzigagina xos (adabiy tildan farqlanuvchi) grammatik shakllari.

1) “Suyak borib tushmish yerdan chang koʻtarildi.” Asarning mazkur parchasidagi “tushmish” soʻzida fonetik hodisa roʻy bergan. Adabiy tilda qoʻllanuvchi oʻtgan zamon grammatik shakli -gan oʻrnida -mish qoʻshimchasi foydalanilgan. Maʼlumki, toʻliqsiz feʼl hisoblangan “emish” soʻzi baʼzi holatlari oʻzi bilan birga kelayotgan soʻzga qoʻshilib, birinchi boʻgʻinidagi e unli tovushi tushib qoladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu holat



“sandhi hodisasi” deb ataladi. Sandhi hodisasi–analitik shakllarning ixchamlashuvi natijasida sodir bo‘ladigan fonetik o‘zgarish.

2) “Xiyol o‘tmadi, mehmonlar-da keldi.” Qissaning ushbu parchasida “mehmonlar-da” so‘zidagi -da shakliga e‘tibor berilganda, grammatik tomondan kuchaytiruv-ta‘kid yuklamasi, kontekstdagi ma‘nosiga ko‘ra u ham yuklamaning kuchaytiruv-ta‘kid ma‘noviy turiga kiruvchi “ham” grammatik shakli o‘rnida qo‘llanilgan.

3) “ Polvonlar oyog‘iga zax o‘tmasin uchun davraga somon sepildi.” Ushbu gapda adabiy tildan yiroqda bo‘lgan “o‘tmasin uchun” so‘zlari qo‘llanilgan. Bu so‘zning adabiy tildagi ko‘rinishi “o‘tmasligi uchun” shaklida bo‘ladi. Bu yerda esa -ligi shakli o‘rnida -in shaklidan foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Tog‘ay Murodning nafaqat “Yulduzlar mangu yonadi” qissasini, balki boshqa bir qator asarlarini ham “milliylik ruhida bitilgan” deyilsa, noto‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki yozuvchi tug‘ilib o‘sgan Vatanining milliy qadriyatlarini, o‘zbek xalqining mard va jasurligini o‘z asarlari negiziga singdirgan.

Ushbu asardagi dialektlar asarning badiiy jozibadorligini, jonligini oshiruvchi, Surxon vohasining milliy qadriyatlarini yoritib beruvchi hamda o‘zbek tilining yanada mukammal tillardan biri ekanligini ko‘rsatuvchi vosita sanaladi va ular benazirdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jamolxonov H.A Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanmasi.- T: “Talqin”, 2005.
2. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. O‘quv qo‘llanmasi.-T: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2013.
3. Wiktionary.org. wikilug‘at.

***Furqat Valiyev,
Qo‘qon DPI tadqiqotchisi***

JAMIYAT MUAMMOLARINING BADIY AKSI

(Furqat g‘azali misolida)

Annotatsiya: Maqolada Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqatning ijtimoiy lirika mahsuli bo‘lmish g‘azalidagi ijtimoiy dard va ijtimoy-axloqiy illatlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: g‘azal, mavzu, mansab va mas‘uliyat, devon, an‘ana va badiiy mahorat.

O‘zbek adabiyoti tarixining yorqin iste‘dodli vakillaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat ijodida nafaqat ishqiy mavzudagi she‘rlar, balki, ijtimoiy mavzudagi she‘rlar ham talaygina. U o‘z davrining yorqin fikrli ma‘rifatparvari sifatida mavjud tartibotlarga jim qarab tura olmas edi. Ana shunday asarlaridan biri “tuf” radifli g‘azalidir:

Ey, Qo‘qon boyonlari, sizlardek insonlarga tuf,
Taltayib faytunda surgan davr-u davronlarga tuf.
Sizni sakratgan Zaharov ham Morozov boyniki,
Fabrikant moli bilan hovliqma nodonlarga tuf.



Fabrikantlarning pulin yeb sindingiz bir qanchangiz,
Tuf, bu insonu diyonatlarga bu imonga tuf.
Bo'ldi sizlarga ona sutdin halol sudxo'rlik,
Bu harom pullardin etgan xayr-u ehsonlarga tuf.
Ot va qo'y sizdan emas, sizga omonat hovli-joy.
Yeb yetim haqini qilgan ko'shk-u ayvonlarga tuf.
Xatmi xo'ja, to'y qilursiz domlalar, boylar uchun,
Kambag'allar, och-yalang'och, qorni to'yg'onlarga tuf.
Oq-qorani ajratmagan, ...
Rohi rost ko'rsatmagan mulla-eshonlarga tuf.
Furqato, boylarga tuf deb qancha yozsang, shuncha oz,
Rost erur bu so'zlarim, billohki, yolg'onlarga tuf. [1.80]

Sakkiz baytli bu g'azal dard kuchi va ko'lami jihatidan bugungi kun uchun ham dolzarbligini yo'qotmagan, deb hisoblaymiz. Radif sifatida "tuf" taqlid so'zi qo'llanilgan. Shu birgina so'z orqali ijodkor bor nafratini ifoda etgan. Go'yo asar voqealar rivoji - kulminatsion nuqtadan boshlanganday, ijodkorda murosa uchun toqat yo'qday.

G'azal o'zbek mumtoz she'riyatda eng ko'p ishlatilgan ramali musammani mahzuf vaznida yozilgan (ruknlari: "foilotun-foilotun-foilotun-foilun", taqte'si: -v--/-v--/-v--/-v-). Qofiyadosh bo'lib kelgan to'qqizta so'zning ikkitasi turkiy, bittasi fors-tojik, qolgan oltitasi esa arabiy so'zdir. Ijodkor odamlar yashaydigan jamiyatni axloqiy jihatdan mukammal bo'lishini, rivojlanishini xohlaydi.

G'azalni baytma bayt sharhlashga harakat qilamiz.

1. Qo'qon va uning atrof tumanlarida istiqomat qilga ijodkor barchani ayblash va tanqid qilishdan qochib, aynan Qo'qon boylariga murojaat qiladi. 2-qatordagi jumlar bugun ota-onasining mablag'i evaziga avtomobil olib, yo'l harakati qoidalariga amal qilmaydigan, harakat ishtirokchilari va piyodalarga bepisand munosabatda bo'luvchi, haydovchilik guvohnomasini ham egri yo'llar bilan qo'lga kiritgan boyvachcha zamondoshlarimizga ham taalluqlidir.

2. Alloh taoloning odamlarning millat va elatlarga ajratib yuborishini hikmati shuki, o'zaro raqobatda dunyo gullab yashnasin. Raqobat bor ekan - manfaatlar to'qnashuvi ham bor. Mustamlakachilik kayfiyatidagi insonlarga ishonish esa nodonlikdir. Mol-u dunyo bilan hovliqish esa har qanday insoniylikka ziddir.

3. Ma'lumki, turmush o'rtoq tanlanayotganda moli, husni, nasl-nasabi qolib, dini komil bo'lgani tanlanadi. Shoir insof, diyonat va iymonni mol-mulkka almashtirib yuborganlarga nafratini izhor etadi.

4. Haromdan pul topib, so'ng undan sadaqa va ehson qilish qo'lni najosatga belab, so'ngra peshob bilan tozalashga qiyoslanadi. Bir qarashda tozaday, ammo pok emas. Sudxo'rlik - ana shunday harom, gunohi kabiralardan bittasi.

5. Odamda boshqa barcha maxluqlar qorni to'ygach, to'xtaydi. Ammo odam bolasi bunday emas: ovlaydi, qafasga tiqib sayratadi, o'z turi bilan urishtiradi. Me'yor tushunchalarini unutib, qo'shni haqiga hiyonat qilib baland imoratlar quradi. Bu boyliklarning kelish manbayi esa halol emas. "Kim bir yetimning boshini silasa, qiyomatda birga bo'lamiz",- deb ko'rsatkich va o'rta barmoqlarini juft qilib ko'rsatganlar Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v). Afsuski, tubanlik yo'lga tushib va o'rnashib olganlar uchun bu muhim emas.



6. “Bir kun to’y berish - sunnat, ikki kun to’y berish - isrofgarchilik, uch kun to’y berish esa - riyokorlikdir”. Riyo - kichik shirkdir. “Dasturxonning eng yomoni boylar chaqirilib, kambag‘allar aytilmaganidir”. Bizning boylarimiz bo‘lsa, ana shunday yo‘l tutib savobdan ham bebahra qoladi, odamlarning ham nafratiga duchor bo‘ladi, deydi shoir.

7. Har bir inson o‘z qo‘li ostidagilardan so‘raladi. Diniy mulozim odamlarga amri ma‘ruf va nahiy munkar qilmasa, qiyomat kunida og‘ziga cho‘g‘ solinishi aytilgan. Rohi rost - to‘g‘rilik va adolat yo‘lini ko‘rsatmay, oq-qorani farqlamay yashash esa “TUF” deyishga bois bo‘ladi.

8. “Tuf” deyish va bu so‘zni ishlatish uchun inson juda ezilgan bo‘lishi, jonidan to‘yiishi va sabri tugagan bo‘lishi lozim. Furqat davridagi hayot va amaldorlar ijodkorga mana shunday ruhiy azob bergan. Hattoki, “tuf” deyish blan ham ijodkordordagi nafrat o‘ti so‘nmaydi.

Bir kichik g‘azalda shoir bir qancha badiiy san‘at va uning turlaridan mahorat bilan foydalangan. So‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlaridan juft so‘zlarning ko‘proq ishlatilishi (davru davron, xayru ehson, hovli-joy, ko‘shku ayvon, och-yalang‘och, oq-qora, mulla-eshon) ma‘noni kuchaytirishga xizmat qilgan bo‘lsa, tazod san‘ati orqali esa ijtimoiy farq va qarama-qarshiliklarga o‘quvchi diqqati qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Furqat devoni. Toshkent. “Mumtoz so‘z”-2013.
2. Furqat. Saylanma. –Toshkent: “Ma‘naviyat”, 2009.
3. Furqat. Tanlangan asarlar. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti”, 1975.

Boshmanova Dildora Maxram qizi
QDPI Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi

TIL VA NUTQ MASALALARINING UZVIYLIGI

Annotatsiya. Har qanday millatning dunyoda borligini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir. “Milliy tilni yo‘qotmak, millat ruhini yo‘qotmakdir”, degan edi ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa bugungi globallashuv – dunyo xalqlarining turmush-tarzi umumiylik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so‘zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Kalit so‘zlar. til, madaniyat, lisoniy, nutq, lingvokulturologiya, psixolingvistika, paradigma.

Annotation. Language and literature are the mirror of life of any nation in the world. To lose the national language is to lose the spirit of the nation, said the great thinker Abdulla Avloni. In fact, there is no doubt that the importance of language, its existence determines the development of any country and nation. Especially in today’s globalization - in a time when the lifestyle of the peoples of the world has become common, the meaning of the above words increases twice.



Keywords. language, culture, linguistic, speech, cultural linguistics, psycholinguistics, paradigm.

Yurtimiz ozodlikka erishgach, o'z ona tilimizda emin-erkin so'zlash huquqiga ega bo'ldik, tilimizning kamsitilishiga chek qo'yildi. Nufuzli xalqaro minbarlarda o'zbekcha so'zlarimiz yangray boshladi, tilimizni o'rganishga qiziquvchi xorijliklar ko'paydi. O'zbek tilida chop etilayotgan matbuot nashrlari, kitoblarning turi va adadi keskin darajada oshdi. Zamonaviy axborot texnologiyasi bo'yicha o'zbekcha dasturlar paydo bo'ldi va hokazo. Mana o'zbek tiliga "Davlat tili" maqomi berilganiga ham o'ttiz uch yil to'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 23 dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universitetiga tashrifi chog'ida ziyolilarga qarata: "Ona tilimizning boyligini, unga bo'lgan hurmatingiz va muhabbatingizni tilimizni dunyoga tarannum etish bilan ko'rsatishingiz kerak", degan edi.

Nizomiddin Mahmudov tilga ehtirom ko'rsatish va unga e'tibor berishni ta'kidlab shunday deydi: "Til benihoya muqaddas va mo'tabar ne'mat, u odam degan mavjudotga shakllantirilgan, qavmlar o'laroq birlashtirgan, taraqqiyot bosqichlariga olib chiqqan, ruhiy takomilga boshlagan, tafakkur gulshanining darvozalarini ochgan bemisl bir robitadir. Shuning uchun ham tilga nopisandlik insoniyatning o'zligiga nopisandlik demakdir. Tilga ehtirom va e'tibor esa bu dunyoda inson bolasi muhtamligining e'tirofidir". Vilgelm fon Gumboldning "Tilda xalq ruhi aks etadi" degan fikri N.Mahmudovning asarlarida o'ziga xos tarzda davom ettirilganini ko'rish mumkin: "... tilda xalqning urf-odati, yashash tarzi, iqtisodiy ahvoli, qisqasi, xalqning bor budi, bo'y-basti aks etadi. Muayyan xalqning tilini bilish uning butun borlig'ini anglash demakdir. Muayyan xalq tilining mazmun mohiyatini idrok etish shu xalqning tarixi-yu kelajagini idrok etish demakdir. Til xalqning bebaho va muqaddas boyligidir, xalqning har bir asl farzandi o'z tilida sobit va o'z tiliga sodiq bo'lmog'i azal-abad ham qarz, ham farz".[1; 3]

Zero, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining "Davlat tili haqida"gi qonunning Toshkent shahrida ijro etilishini o'rganish natijalari to'g'risida"gi qarori asosida Hukumatimiz tomonidan 2018 yilning 24 dekabrda ishlab chiqilgan "Yo'l xaritasi"da ham "Davlat tili haqida"gi qonunning yangi tahririni tayyorlash bosh masala qilib qo'yilgan. Yaqinda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida bo'lib o'tgan davra suhbatida aynan shu mavzu atroflicha muhokama etildi. Davra suhbatida filologiya fanlari doktori professor Nizomiddin Mahmudov so'z olib shunday degan edilar:

Biz millat yashovchanligi, ravnaqi haqida fikr yuritsak, avvalo, til birlamchi bo'lishi shart. U davlat tili deyiladimi, boshqami – millat tilsiz bo'lishi mumkin emas. Til haqidagi qonunning eskirganiga ancha bo'ldi. Hatto 1995 yildagi tahriri ham bugungi talabga javob bermaydi. Xayriyatki, Oliy Majlis Senatida bu muhim masala bir necha bor rasman ko'tarildi. Bu juda katta voqea. Biz bu jarayonda faol va tashabbuskor bo'lishimiz lozim.

Shu o'rinda taniqli tilshunos olim Nizomiddin Mahmudovning keyinchalik bilan aytgan fikrlarini keltirib o'tish lozim: "Ayni paytda nutqiy madaniyati tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyati bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Til amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p



vaqtini turli ko'rgazmali qurollar yasashga sarflaydi. Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroyli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida asosiy, jonli ko'rgazmali qurol o'qituvchining o'zidir"[2; 26].

Nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulodda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'tirof etilgan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, o'qituvchilarning nutqiy madaniyat mahorati, farzandlarimizning madaniy nutq ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarbdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – T.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2007. – 184 b
2. Mahmudov N. Til. - Toshkent: „Yozuvchi“ nashriyoti, 1998. – 37 b
3. Mahmudov N., Saidqulov Z., Sotimov F. Komillik kaliti. – T. :Ma'naviyat, 1999. – 277 b
4. Mahmudov N. So'z sandiqchasi. T. : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2021. – 215 b

A'zamova Shahzoda Otaqo'zi qizi
QDPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

TOHIR MALIKNING “ALVIDO BOLALIK” ASARIDA TERMINLARNING LINGVOKULTUROLOGIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tohir Malikning “Alvido bolalalik” asaridagi terminlarning o'rganilishi, badiiy asarda ularning o'zaro ma'naviy munosabatlari to'g'risida mulohaza yuritilgan va fikrlar aytilgan. Asar tabiatidan kelib chiqib, hozirgi kun yosh avlodning tarbiyasi haqida ibratli mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. termin, akademiya, akademik, professor, jo'ra, ustara, koptok, sarta-rosh, jasad, murid, qalb, texnika terminologiyasi.

Atoqli adib, o'zining “Shaytanat” asari bilan deyarli barcha o'zbek xonadoniga kirib borgan, xalqimiz ma'naviy kamolotiga o'z hissasini qo'shgan yozuvchi Tohir Malikdir. Uning detektiv va didaktiv usulda yozilgan asarlari, shubhasiz, o'zbek yoshlari orasida eng ko'p o'qiladigan kitoblardir. Shu o'rinda “Alvido, bolalik” asarini ham mashhur yozuvchining detektiv asarlar turkumiga qo'shish mumkin.

Adib asarda har doim muhim hisoblangan “tarbiya” masalasiga e'tibor qaratgan. Asar qahramonlari ayni psixologik o'tish davrida bo'lgan o'smirlardir. Mana shu muhim paytda tarbiyasiga e'tibor qaratilmagan yoshlar jinoyatning qaytib bo'lmas olamiga kirib ketishadi. Mana shu yo'lga kirib ketgan bolalarning tilidan aytilgan gaplarni o'qib, bu bolalarga vaqtida nega e'tibor qaratilmadi, ular ham ota-ona mehriga haqli



ediku, birinchi bor ichib kelganida otasi nega qattiqroq tegib, uning birga daydib yurgan "jo'ralari"ga diqqatni qaratmadi, degan savollarni berishingiz tabiiy.

Asarni, asosan, maktab yoshidagi kitobxonlarga tavsiya qilgan bo'lardim. O'zi tengqur yoshlarning nimani o'ylashi, qilayotgan harakatlari ularga yaxshiroq tanish, ularning taqdirilariga befarq bo'la olmaydi. Ular qilayotgan xatolarni ko'rib, bu ishlarni oxiri rostdan ham "voy" bo'lishini his qilib, o'zlari uchun kerakli xulosalar chiqarishlari zarur. Asror, Salim va Dिल्фуza singari murg'ak qalblar Qamariddin qiyofasidagi yomonlik mevasidan ta'tib ko'rib, yaxshi ketayotgan hayotlarini xaosga aylantirdilar. So'nggi pushaymon, o'zingga dushman deganlaridek, ularni boshi devorga qattiq urilgani, yosh kitobxon uchun unutilmas dars bo'lishi tabiiy.

Badiiy asar qay tarzda, qaysi yo'sinda yozilmasin odamlarni tarbiya qilishga ya'ni yaxshilik sari boshlab, yomonlikdan qaytarishga xizmat qilishi lozim. Taniqli yozuvchi Tohir Malik ham yozgan asarlarining muqaddimasida shu hikmatli so'zni eslatib o'tadi: "Jismingiz qanchalik sog'lom bo'lmasin, qalbingiz maraz ekan, bilingkim olloh nazdida siz mitti qo'ng'izdan ham xaqirroqdirsiz" Payg'ambarimiz (s.a.v): "Ogoh bo'ling! Tanangizda bir parcha go'sht bor. Agar u sog' bo'lsa, butun jasad sog'dir. Agar buzilsa butun jasad buzuladi. Ogoh bo'ling, u qalbdir!- degan ekanlar. Donolar aytadilarki, "Sen o'zingni ko'rmoq istaysanmi u holda ko'zgudagi tashqi qiyofanga emas, ichingdagi ko'zguga boq. Biz esa... kunda necha bor ko'zguga qaraymiz, qalbimizgachi?

Yozuvchi Tohir Malik ayni shu qalbga murojaat qilgan. Uning "Alvido, bolalik" asarida boladagi ruhiy olamni hayotiy va xayoliy kechinmalarini ochib bergan. Asarda hayot zarbalariga chidayolmasdan uning noma'qul ko'chalariga kirib qolgan bolalar haqidagi hikoyalar o'rin olgan. Adib bu asardagi bolalar bilan yashay oldi va asar shu qadar shuhrat qozondiki, hali-hanuz muxlislar qalbidan, ongidan uning o'chmas asarlari-yu, o'lmas ruh yashamoqda.

O'zbek tilshunosligida terminlar ma'lum fan, texnika yoki kasbga xos tushunchalarni ifodalash uchun maxsuslashtirilgan, foydalanish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan birliklardir.

Adib asarda terminlardan mahorat bilan foydalangan. Masalan:

1. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Men u yoqda...

Qamariddin barmoqlarini panjara qilib ko'rsatdi – akademik bo'lib kelganman.

Akademik – ot. Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi biror akademiyaning oralig'iga saylangan olim, adib, rassom, haykaltarosh va shu kabilar.

Qamariddin aytadiki: "Hech kim o'z-o'zidan yomon bo'lib tug'ilmaydi, uni odamlar yomon qilib tarbiyalaydi" – deb. U nega bunday deb o'ylaydi. Aslida ham shundaymi? Ha aslida hayot bizni tarbiyalaydi. Qamariddin bolalar uyida katta bo'ldi. U ota onasini qahramonlarcha halok bo'lgan deb o'ylardi. Afsuski unday emas edi. Onasi uni olgani kelganida buni bildi. U onasiga va muhitga bo'lgan nafrati tufayli odam o'ldirib qamaladi va asarda ta'kidlanganidek yetti yilda "Akademik" darajasiga yetadi. U yerda faqat ota-onasidan o'ch olish darajasiga yetdi.

2. "Akademiyada" orttirganlari unga qul emas, xoja edi.

Akademiyada – yunoncha, u qahramon hamda Akadem nomi bilan hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan ilm-fan va san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori darajali olimlarga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa.

Asarda "Akademiyada" so'zi qamoqxonaga nisbatan qo'llangani asarni yanada sirlikka, kitobxonni biroz o'ygatib tolderadi. Qamoqxonada insonlar qilgan qilmishlarini yaxshilab anglab, bu yerga qaytib kelmaslikka harakat qilishadi. Qamariddin esa u yerdan



qutilgach, qiladigan yovuz ishlarini rejalashtiradi. U yerda o'ziga o'xshaganlar orasida kattasi, ya'ni ular ustidan o'zicha boshliq bo'ladi. U yerda shunday narsalarni miyasida amalga oshiradiki, go'yo akademiyaning eng kuchli mutaxassislari bu akademikni o'zlarining eng yaxshi usullari bilan qurollantirganday. Adibning akademiya terminidan foydalangani tahsinga loyiq.

3. Sen oilangda "Professor" bo'lishing mumkin lekin men u yerda...

Professor – lotincha muallim, o'qituvchi, murabbiy, oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarning va ilmiy tadqiqot institutidagi ilmiy hodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi, shunday unvon va lavozimli shaxs.

Yuqoridagi gapda professor iborasi asarning bosh qahramonlaridan biri Asrorga nisbatan qo'llangan. Uning o'qishda ishlari yaxshi edi. Hamma fanlardan a'lochi, hatto sinf faollaridan biri edi. Uning do'mbirachilikka ham iste'dodi bor edi. Lekin dadasi bu iste'doddan noto'g'ri yo'lda foydalanar edi. Dadasi hofiz bo'lib to'ylarga, ziyofatlarga borar edi. Asror esa hamisha dadasiga hamroh edi. To'g'ri ro'zg'or tebratishda dadasiga yordamchida dersiz, lekin Asrorga o'zi qiziqmagan ishni qilish yoqmasdi. Ular borgan ziyofatlarda ularga ba'zan joy ham berishmas, bir piyola choyni ham ko'p ko'rishardi. Bu ham yetmaganday dadasining o'yinchi ayollarga bo'lgan munosabati Asrorga kuchli azob berardi. Qamariddin unga aytgan "Oilangda professor bo'lsang" degan gapida ham bir achchiq haqiqat yotardi. U o'z oilasining shunday zerikarli hayotidan shunday zerikkan ediki, adib ta'kidlab o'tkanday "professor" darajasiga yetib borgan.

Xulosa o'rnida aytish joizki, yozuvchi tomonidan asarga kiritilgan har bir termin badiiy maqsad hosilasi sifatida generator vazifasini bajargan. Bu esa o'z navbatida asarning badiiyatini ochib berishga zamin yaratgan.

Ayniqsa, jamiyatda ildiz olib ketgan poraxo'rlik, boqibeg'amlik kabi illatlar insonlar taqdirini qanchalik yomon tarafga o'zgartirishini Keldiyorovlar oilasini qismatida ko'rishimiz mumkin. Mayor Soliyev esa halol, to'g'risiz, o'z ishini yaxshi biladigan, haqiqatdan yuz o'g'irmaydigan, ahdda sodiq qoluvchi inson sifatida kitobxon mehrini qozonadi. Shuningdek, inson umriga zomin bo'luvchi ichkilik, giyohvandlikka o'xshash illatlar insonni naqadar tuban mahluqotga aylantirib qo'yishini ham asar voqealarida jarayoni kuzatamiz.

"Alvido, bolalik" asari xalqona, tushunarli tilda yozilgan. Qahramonlar o'rtasidagi suhbatlar sizga, menga juda tanish, sababi biz bu so'z va ibolarlarni deyarli har kuni foydalanamiz. Yozuvchi ortiqcha bo'yoq va metaforadan qochgan, natijada asar juda yengil o'qiladi. Qahramonlar tilidan o'zbek va jahon xalqlarining folkloridan o'rin olgan hikmatli so'zlardan ham o'rinli hamda unumli foydalanilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tohir Malik "Alvido bolalik" – Yangi asr avlodi: O'zbekiston, 2019. – 293 b.
2. Shahzoda, A. Studying the Historical terms used in Takhir Malik's works from the aspect of Text Linguistics. *International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology*.
3. Mirhojiddinovna, J. D., Bakhodirovna, S. D., Otakozievna, A. S., Makhmudovna, A. K., & Jumanovna, U. G. (2022). Peculiarities Of Studying The Linguopoetic Features Of Historical Terms In A Text Environment. *Journal of Positive School Psychology*, 6(11), 1595-1598.



QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLARINING BADIHYLASHUVI

Annotatsiya: badiiy matnda qishloq xo'jaligi terminlarining lingvopoetik va lingvokulturologik xususiyatlari, ijodkorning badiiy tafakkuri, shuningdek, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishi, shu sababli so'zlar kabi qishloq xo'jaligi terminlarining ham ma'naviy xususiyatlarini matn qurshovida aniqlashning maqsadga muvofiqligi xususida baxs yuritiladi.

Kalit so'zlar: turkiy tillar, terminlar, qishloq xo'jaligi terminlari, badiiy matn, lingvopoetika, lingvokulturologiya, metafora, badiiy-estetik butunlik, poetik aktuallashish.

O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo miqyosida bu tilda 50 millionga yaqin odam so'zlashadi. Ona tili mustaqil davlat uchun istiqloq belgisi va milliy g'urur ramzi hisoblanadi.

Albatta, o'zini hurmat qilgan har bir millat ona tilini ham e'zozlaydi. Uni rivojlantiradi, taraqqiy ettiradi. 1989-yil 21-oktabrda o'zbek tilining rasmiy davlat tili maqomiga ko'tarilishi ham tom ma'noda tarixiy hodisaga ega. Agar tillar tarixiga nazar solsak, turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili boy adabiy xazinasiga bilan har doim tadqiqotchilar e'tiborini tortib kelganini ko'ramiz. Kushon shohlari, Xun, Buyuk turk xoqonligi tangalarida zarb urilgan "yabg'u-jabg'u" (xoqon, shahzoda) degan so'zdan tortib, O'rxun-Enasoy toshbitiklari, Markaziy Osiyo hududidan topilgan turkiy yozuvdagi arxeologik yodgorliklarga barchasi tilimizning qanchalik uzoq tarixga ega ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tili ham juda boy. Uning so'z manbaida leksik birliklar asosiy o'rinni egallaydi. O'zbek adabiy tili leksikasi qonuniyatlari negizida shakllangan terminologik leksika tarixini qadimgi turkiy til (VII-X) terminologiyasi, eski turkiy adabiy tili (XI-XIV) terminologiyasi, eski o'zbek adabiy tili (XV-XX asr boshi) terminologiyasi sho'rolar davri o'zbek tili terminologiyasi va istiqloq davri o'zbek tili terminologiyasi tarzida davrlashtirish sal kam 14 asrlik vaqt mobaynida terminologik leksika tizimida intralingvistik va ekstralingvistik omillar negizida sodir bo'lgan jarayonlarni anglab yetish imkonini beradi. Badiiy asarlarda qo'llangan terminlar asarning ta'sir kuchini kuchaytiradi. O'sha davrdagi holatni teran ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

Badiiy adabiyotlarda atamalarining o'rni katta ahamiyatga ega. Umummilliy leksika tarzida kuch, fizika, texnika, harbiy ish, iqtisodiyot, huquqshunoslik sohalarida "qudrat, kuchlar, qo'shinlar, quvvat, qonuniy huquqqa egalik" kabi ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Jumladan, iroda kuchi, Yerning tortishish kuchi, ishchi kuchi, yangi qonun kuchga kirdi kabilar.

Umumadabiy leksik birliklarning terminlashuv jarayoni natijasida omonimlashish sodir bo'ladi, ya'ni yangi ifodalanish uchun ilgaridan ma'lum bo'lgan qobiqdan foydalaniladi. (Danilenko 1977, 27).

Genetik ko'rinishi nuqtai nazaridan o'zbek tilida qo'llanuvchi terminlar:

- a) terminologiya tizimiga tayyor til birligi sifatida qabul qilingan so'zlar;
- b) maxsus nom tarzida yasalgan so'zlarga taqsimlanadi.



Bunday ko‘rinishni muayyan lisoniy hodisa va vaziyatlarning mahsuli deb baholash kerak bo‘ladi.

O‘zbek tili texnik terminologiyasi tizimida detallar, mexanizmlar, qishloq xo‘jaligi atamaları, mashina qismlari hamda buyum asboblari anglatish uchun xoslangan ko‘z, oyoq, qadam, barmoq, qo‘ltiq, to‘siq, qobirg‘a, og‘iz, tirnoq, quloq, pichoq, quti, taroq, qozon, qoshiq, panja, musht, tuynuk, til, tish, ketmon, traktor kabi so‘zlar talay miqdorni tashkil qiladi. Ilmiy matnlarda bu so‘zlar o‘zlarining birlamchi (denonativ) ma‘nosini yo‘qotib, yakka ma‘noli ilmiy atamaga aylanadi. Badiiy asarlarda ko‘p ma‘noli bo‘lib kelishi mumkin.

Mahmud Qoshg‘ariyning (Devonu lug‘otit turk) asarida čanoq so‘zi 1) o‘yib yasalgan kichik hajmdagi yog‘och idish, 2) kosa, tovoq, lagancha ma‘nolarida qo‘llangan (DTS 1969.138.). Bu leksema eski o‘zbek adabiy tilida hayvonlar suv ichadigan idish (ANATIL. III 1984.450.) ma‘nosini anglatgan.

So‘z mulkining sultoni Alisher Navoiy ijodida ham qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan terminlar uchraydi. Masalan, besh dostonidan iborat bo‘lgan “Xamsa” dostonining “Farhod va Shirin” dostonida “tesha” atamasi ishlatilganini ko‘rishimiz mumkin:

Bu xoro tesha birla bo‘lmas afgor,

Nechukkim tesha metin aylamas kor.

Bu yerda ustachilik va xo‘jalikda ishlatilgan buyumlarni maydalashda ishlatiluvchi buyum ma‘nosida kelganiga guvoh bo‘lamiz.

Shuningdek, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida urush davridagi qishloq aholisining hayoti tasvirlangan. Unda front ortidagi ayollarning mashaqqatli mehnati, qishloq hayotida kerak bo‘ladigan barcha mehnat qurollarini badiiy tilda yorqin tasvirlanganligining guvohi bo‘lamiz. Masalan:

Bultur traktor tepib, bir oy azob chekkanim yodimga keldi...

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish kitoblari ham qishloq ho‘jaligiga oid terminlarni juda ko‘plab uchratish mumkin. Chunki qishloq xo‘jaligi terminlari orqali hikoya va ertaklarni soddaroq va yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Bu haqida keyingi maqolalarimda batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, badiiy matnda qo‘llangan qishloq ho‘jaligi terminlari ijodkorning badiiy tafakkuri bilan bog‘liq holda metaforik ko‘chim vazifasida yoki o‘xshatishli qurilmalar tarkibida kelib, lingvopoetik maqsadni amalga oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, hech qanday termin alohida olinganda lingvopoetik qimmatga ega emas. Terminlar bu xususiyatini faqat matn qurshovida, boshqa so‘zlar bilan munosabatida namoyon qila oladi. Shu sababli so‘zlar kabi qishloq ho‘jaligi terminlarining ham ma‘naviy xususiyatlarini matn qurshovida aniqlash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘.Hoshimov “Ikki eshik orasi” Toshkent-2015
2. 9-sinf adabiyot darsligi Toshkent
3. B.Abdushukurov Eski turkiy til leksikasi-Toshkent 2015
4. X.Dadaboyev Военная лексика-Toshkent Fan 1990-c 3-83.
5. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students’ Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.



6. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.
7. Abdulxayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
8. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO SYSTEM. Gospodarka i Innowacje, 159-161.
9. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
10. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
11. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.
12. BADIY MATNDA QISHLOQ XO'JALIGIGA OID TERMINLARNING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI MD Alijonovna Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 3, 169-174

Mirmuhsin Yuldashev Munavvarovjon ugli
A teacher of Kokand Pedagogical Institute

AKT SOHASIDAGI O'ZLASHMA TERMINLAR

Annotatsiya. AKT sohasidagi o'zlashma terminlarni o'rganish muammosi hozirgi kunda umumjahon darajasiga ko'tarildi. Ingliz tili, zamonaviy AKT terminlarni boshqa tillarga shu jumladan o'zbek tiliga ham assimilyatsiya bo'lishiga katta rol o'ynaydi, jahondagi AKT terminlarining tilimizga ham kirib kelishida ingliz tili asosiy vositachi til hisoblanadi.

Kalit so'zlar. AKT, neologizmlar, qisqartmalar, etimologiya, assimilyatsiya, ijtimoiy tarmoqlar

Аннотация. Проблема изучения заимствований терминов ИКТ в наш язык, особенно современных терминов ИКТ, имеет международное значение. Английский язык играет большую роль в усвоении международных терминов ИКТ многими языками, включая наш язык. Он играет огромную роль в распространении интернациональных терминов, как основной язык-посредник.

Ключевые слова. ИКТ, неологизмы, аббревиатуры, этимология, ассимиляция, социальные сети

Annotation. The problem of studying the borrowings of ICT terms into our language, especially modern ICT terms has an international impact. English plays a great role in the assimilation of international ICT terms into many languages, including our language. It plays a huge role in the dissemination of international terms, as the main intermediary language.

Key words. ICT, neologisms, abbreviations, etymology, assimilation, social networks

AKT sohasi terminologiyatizimi tashqi va ichki omillar ta'sirida paydo bo'lmoqda. Shular orasida, ekstralingvistik omillar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:



1) Kompyuterlashgan zamonaviy AKT tizimining vujudga kelishi; 2) yangi tushunchalarni ifodalovchi terminlarni yaratilishi; 3) AKT lingvistikasiga asos solinishi; 4) ijtimoiy-zaruriyat sababli o'zga tillardan tayyor holdagi terminlarni o'zlashtirish.

So'nggi lingvistik tahlillar shuni ko'rsatidiki, hozirgi mavjud AKT sohasi bo'yicha yaratilgan terminlarni bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlarining barchasi ham lug'at tuzish qoidalariga to'liq javob bera olmaydi. Buning asosiy sababi shundaki, haqiqatdan, mazkur sohada lug'at yaratgan mualliflarni deyarli barchasi asosan AKT sohasi mutaxassislari hisoblanadi va bizning nazarimizda, ular lug'at tuzishning muayyan qoidalari va prinsiplaridan birmuncha yiroq ekanligi sezilib turadi. AKT tizimidagi lug'atlarni tasniflash jarayoni turli bosqichlarda amalga oshiriladi. Eng asosiy bosqichda AKT mavzuiy guruhlari hamda sohalararo kompyuter terminlar va terminologik birliklar asosiy manbasi hisoblanadigan ingliz tili materiallari asosida tanlab olinadi.

Misol uchun: *Aberration* 1) aberratsiya, buzilish; 2) og'ish (standartdan) chetga chiqish; *Aberration of image position* tasvirning siljishi; *Antenna aberration* - antenna aberatsiyasi. *Light aberration*- yorug'lik aberratsiyasi; *scanic aberration*-skanerlash aberratsiyasi; *Wave aberration*- to'lqinli aberratsiya. Ingliz tilida ahamiyatga molik bir hodisa borki tildagi oddiy so'zlar AKT paydo bo'lishi hamda rivojlanishi munosabati bilan keng miqyosda kengroq lingvopragmatikada qo'llanila boshlaydi misol uchun; *Browse* so'zi ingliz tilida avvalo chorvani yaylovga olib chiqish yoki kurtak va yosh nihollarni yeb bitirish ma'nosida kelgan bo'lsa yana barglarni yeyish, yosh nihollar, varaqlash, qarab chiqish, ko'z yugurtirish, tartibsiz o'qish, nazar tashlash ma'nolari ham bor. Ingliz tilidagi ushbu ko'p ma'noli so'zni internet olamida termin sifatida ham keng joriy qilindi. Internetda *browse* so'zi bu kompyuterda, ayniqsa, internetda ma'lumot izlash deyiladi. *Browser* esa bu: 1) Internetda ma'lumot izlovchi; 2) internetda yo'li kompyuterda kerakli ma'lumotni ko'rish uchun yaratilgan dastur. 3) veb-saytlarni ko'rib chiqish va ishlash dasturiy ta'minoti.

AKT terminlari quyidagi mavzuiy guruhlarga bo'linadi:

Axborot va uning turlari bo'yicha: *data*- ma'lumotlar, *ordinary personal data*-shahsiy ma'lumotlar, *limited access information*-foydalanish cheklab qo'yilgan axborot, *folder*-papka, *file*-fayl.

Hisoblash texnikasi vositalari: *portable computer(PC)*-portativ kompyuter, *software*-dasturiy, *hardware*-ishlatuv tizimi, *gateway*-shlyuz, *cluster*-klaster

Jarayonlar: *hacking*-buzish, *interference*-aralashuv; xalaqit berish, *indexing*-indekslash, *browsing*-kerakli ma'lumot izlash, *searching*-qidiruv, *installation*-o'rnatish, *download*-yuklash, *limiting*-cheklash, *programming*-, *compute*-hisoblash.

Harakatlar va amallar: *delete*-o'chirish, *shift*-o'tish, *paste*-qo'yish, *copy*-ko'chirish, *play*-o'ynamoq; *switch on*- yoqish, *switch off*-o'chirish, *back*-orqaga qaytish, *inviting*- ijtimoiy tarmoqlarda kanal yoki guruhga qo'shilish uchun taklif.

AKT sohasidagi kasb-kor nomlarini anglatuvchi terminlar: *network operator*- aloqa operatori, *information owner*- axborot mulkdori, *web-disigner*-veb-dizayner, *Web-developer (пазработчик)*-dasturchi, *3D-animator*, *designer*, *IT-technician*-IT-texnik (kompyuter muammolari bilan shug'ullanivchi, yangi dasturlarni sinovdan o'tkazuvchi, *Data-base administrator*-ma'lumotlar bazasi administrator, *Mobile designer*-mobil ilovalar dizayneri, *QA-engineer-(Quality Assurance)*-dasturiy ta'minot sifatini nazorat qiluvchi, *UI-designer (User Interface)*-sayt bezatuvchisi (ranglar kombinatsiyasi,



shriftlar, rasmlar bilan ishlovchi), *3D Rigger*- personaj modellarini yasovchi va ularni animatsiya jarayoniga tayyor holatga keltiruvchi, *team leader*-ishlov berish guruh rahbari. Hozirgi kunda tilimizdagi AKT kasb nomlari asosan, internatsional nomlar bo'lib, ular o'zlashma holda keng qo'llanilmoqda: *sysadmin* (*system administrator*)-tizim admini, *admin*-boshqaruvchi, *site admin*- sayt ma'muri, *cablename*-kabel yotqizuvchi odam.

Ijtimoiy tarmoqlar mavzuiy guruhidagi termin va atamalar. Hozirgi kunda hayotimizda ijtimoiy tarmoqlar (*social media*) aholimiz orasida, ayniqsa, yoshlar orasida keng foydalanilmoqda, shuning uchun aynan shu sohadagi xalqaro terminlar ona tilimizga boshqa sohadagi terminlarga ko'ra tezroq kirib kelmoqda; *super group* (*public group*)-super guruh, *ban*-taqiqlamoq, *spam*-keraksiz (so'ralmagan) xabar, *hater*-g'arazgo'y, *follower* (*ноднучук*)- kuzatuvchi; ergashuvchi, *fan*-muhlis(a), *page*- sahifa, *bot*-haqiqiy inson bo'lmagan, maxsus dastur doirasida faoliyat ko'rsatadigan virtual robot, *verification*- akkauntni yoki foydalanuvchi sahifasini haqiqiylikni aniqlash jarayoni, *beauty-blogger*- moda haqida akkaunt yurituvchi, *live account*- tirik akkaunt (tashlab qo'yilmagan, faol akkaunt), *content*- content; matnli, grafik yoki multimediya ko'rinishidagi axborot (postlar, stories, video-post, jonli efir), *like*-layk-kontent ostidagi yurakcha shaklidagi belgi (Instagram), *monetization*- monetizatsiya, reklama orqasidan pul ishlab topish, instagramda akkauntga pulli reklama qo'yish, *publication*-publikatsiya, biror akkaunt tomonidan ommaga taqdim qilinadigan har qanday turdagi kontentni tushuniladi, *moderation*-moderatsiya, ommaga publikatsiya jarayoni oldidan imloviy xato, qonuniyligi hamda ommaga taqdim qilish joizligini tekshirish, *wrapping-up* (*накрутка*)-botlar tomonidan yoki atayin akkaunt ko'rsatgichlarini noxolislik yo'li bilan ko'tarish (layklar, kommentariylar, kuzatuvchilar sonini sun'iy oshirish), *post*-axborot taqdim qilishdagi son jihatidan birlik, *posting*- post joylash jarayoni, *promotion* (*раскрутка*) -botlar yordamida emas, balki insonlar tomonida biror akkauntga boshqa yangi potensial auditoriyani (kuzatuvchi va ishtirokchilarni) chorlash, *repost*-manbasi havola orqali ko'rsatilgan kontentni boshqa akkaunt orqali boshqalar bilan baham ko'rish imkoniyati, *fake*-feyk yolg'on ma'lumot, *troll* (*троль*)-trol, biror brend yoki shaxs atrofida ataylab nizo chiqaruvchi bot bo'lmagan foydalanuvchi. *hashtag*-heshteg. Ijtimoiy tarmoqlar ham AKT sohasining ajralmas qismi bo'lib uning turlari ko'p bo'lgani bilan ishlash prinsiplari deyarli bir xil yoki bir-birini to'ldirib boradi. Ijtimoiy tarmoqlarni aksariyat qismi ingliz tilida gaplashadigan mamlakatlarda paydo bo'lib, rivojlanib ommalashishi jarayonida yurtimizga ham keng tarqalayotgani, ulardagi atama va terminlari boshqa xalqlar orasida ham to'g'ridan-to'g'ri tillarga o'zlashishi oqibatida bizning ona tilimizga ham terminlarni original nomi o'zbek tiliga tarjimasiz keng qo'llanilyapti.

Ingliz tildan o'zbek tiliga kirib kelgan 625 ta AKT terminlarini qiyosiy o'rganilganda, bir-biri o'xshash jihatlari ko'pligi, strukturaviy o'xshashligi, ya'ni izomorfli aniqlanib, ularni struktur jihatidan 3 turga tasniflandi: 1) Sodda (o'zak-so'z) terminlar 146 ta; *net*, *virus*, *protocol*, *proxy*, *session*, *tag*, *traffic*, *byte*, *page*, *ban* kabi. 2) Yasama (affiksali) terminlar 326 ta *provider*, *browser*, *streamer*, *cleaning*, *antivirus*, *router*, *loading*, *opening*, *updating* kabi. 3) Qo'shma-terminlar 153 ta: *broadcast*, *webcam*, *call center*, *gateway*, *soundtrack*, *backspace* kabi. 4) Sodda birikma terminlari 2630 ta *data base*, *colour balance*, *wireless fidelity* (*Wi-Fi*), *IP Address*, *group owner*, *online order*, *anti-virus*



program kabi 5) murakkab yoyiq terminlar 1238 ta: *access control bot, automated data processing system, application service provider, code division multiple acces s (CDMA), compact disk recordable (CD-R), Uzbekistan Digital Television (UzDigital TV) Virtual Private Network (VPN), world wide web (WWW)* kabi.

Foydalanadigan adabiyotlar:

1. Баранов А.Г. Проблемы стандартизации языка техниче
2. Axmedov O.S. Ingliz va O'zbek tillarida soliq-bojhona terminlarining lingvistik tahlili va tarjima muammolari: Filol. fan. dok. dis. Avtoref.-T.,2016.-B.27.
3. KADIRBEKOVA D. K. Attempts to create learner corpus for ESP students // Иностранные языки в Узбекистане. – 2019. – №. 1. – С. 120-125.
4. Kadirbekova D. K. Cross-cultural Approach to the Study of Terminological Units in the System of Information Technologies //Eastern European Scientific Journal. – 2016. – №. 2.
5. Бархударов Л.С., Жукова Ю.И. Пособие по переводу технической литературы. – М., 1967. – С. 12.
6. Беликова И.А. Особенности образования терминов-неологизмов в подъязыке компьютерной техники: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Омск, 2004. – 27 с.
7. Гильдина А.К. Некоторые вопросы семантики и функционирования терминов вычислительной техники в английском языке. – Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 1976. – С. 111 – 119.
8. Yuldashev M. Writing intellectual stories as a personal style of Lydia Davis // Экономика и социум. – 2021. – №. 2-1 (81). – С. 413-415.
9. Mirhojiddinovna J. D. et al. Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 1599-1604.
10. Munavvarjon o'gli M. Y. FLASH FICTION AS AN INNOVATION IN LYDIA DAVIS'S SHORT STORIES //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 422-425.
11. Munavvarjon o'gli M. Y. Development of short story genre in american literature. – 2022.
12. Munavvarjon o'gli M. Y. FLASH FICTION AS AN INNOVATION IN LYDIA DAVIS'S SHORT STORIES //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 422-425.



POETIK TASVIRDA O'ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xon taxallusi bilan ijod qilgan Qo'qon xoni Muhammad Alixon ijodida salaflariga badiiy ergashish poetik tasvirda o'ziga xoslik haqida fikrlar boradi va she'rlar badiiy tahlilga olinadi.

Kalit so'zlar. devon, badiiy ergashish, o'ziga xoslik, an'ana, poetik tasvir, badiiylik

Аннотация. В данной статье рассматриваются художественные следования его предшественников в творчестве Коган-хана Мухаммада Алихана, творившего под псевдонимом Хан, рассматриваются представления об уникальности поэтического образа и художественно анализируются поемы.

Ключевые слова. Девон, художественное следование, оригинальность, традиция, поэтический образ, артистизм

Annotatsiya. In this article, the artistic following of his predecessors in the works of Koqan Khan Muhammad Alikhan, who created under the pseudonym Khan, the ideas about the uniqueness of the poetic image are discussed and the poems are analyzed artistically.

Key words. devon, artistic following, originality, tradition, poetic image, artistry

Amir Umarxon davrida shakllangan Qo'qon adabiy muhiti xonlikning madaniy va ma'naviy hayotida katta o'rin tutgan. Qo'qonning bir qator hukmdorlari temuriylar an'anasini davom ettirib, o'zlari ham ilm-ma'rifat bilan shug'ullanib, bu sohalarini ravnaq topdirishga katta sa'y-harakat qilganlar. Ayniqsa, Qo'qon xonlaridan Umarxon va Muhammad Alixon davri va ijodi diqqatga sazovor.

Ma'lumki, Hazrat Alisher Navoiydan keyin yashab o'tgan qalam ahli borki, undan ta'sirlangan, o'rgangan va o'zlari ham yaxshigina ijod namunalarini yaratishga erishgan. Navoiy bilan birgalikda ulug' ozar shoiri Muhammad Sulaymon o'g'li Fuzuliy ham turkiy she'riyatga katta ta'sir ko'rsatgan. "XVIII asr oxiri – XIX asr avvali o'zbek adabiyotiga eng ko'p ta'sir qilgan, binobarin, o'z asarlari bilan bu davr adabiyoti taraqqiyotida juda katta rol o'ynagan shoirlardan biri ulug' ozarbayjonlik Fuzuliydir, - deb yozadi V.Zohidov. – Bu ajoyib so'z ustasining, ayniqsa, tili, uslubi, muhabbat kuylari deyarli hamma shoirlar ijodida chuqur iz qoldiradi. "Kima", "holima", "xoram", "etmaz", "o'lmisham", "dushdim", "no'la", "ver", "cho'x" va hokazolar qator o'zbek shoirlari ijodiga bevosita o'shal ustoddan kirib keladi. Fuzuliy she'rlariga muxammaslar yoziladi".[1.194-195] Chunki "Fuzuliy turkiy g'azal uslubini kamolot cho'qqisiga ko'targan buyuk siymolardan biri sanaladi. Uning g'azallari ravon va musiqiyligi, o'ynoqiligi bilan, go'zal tashbehlarga boyligi bilan ko'ngillarni band etadi.[2.102]

Xon ijodini kuzatar ekanmiz, unga Fuzuliyning ta'siri katta bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Ta'bir joiz bo'lsa, Xon she'riyati shoirning fuziliynomasidir. Necha o'nlab she'rlar o'g'uz lahjasida Fuzuliyga ergashib yaratilgan ijod namunalaridir.

Sharq adabiyotida mashhur oshiq va ma'shuqalar obrazlari qatorida Layli va Majnun, Farhodu Shirinlar nomi alohida sanaladi. Mazkur obrazlar ko'pincha oshiqning ruhiy holati ifodasi o'laroq bayt va misralarda qo'llanadi. Fuzuliy devonida ham bir qator g'azallarda mazkur obrazlar talmeh qilingan:



Qil tafoxurki, saning ham vor mandak oshqing,
Laylining Majnuni, Shirinning agar Farhodi vor: [3.71]

Mazmun bunday: “Sen iftixor qilginki, agar Laylining Majnuni, Shirinning Farhodi bo’lsa, sening ham mendek oshig’ing bor!”. Xuddi shunday mazmun kasb etgan bayt sevimli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” asarida Anvar tilidan aytilgan:

Agar Farhodning Shirin, bo’lsa Majnunlarning Laylosi,
Nasib o’lmish menga gullar aro gullarning Ra’nosi.

“Adabiyot – so’z san’ati. Shoir – san’atkor. San’at va san’atkordan, avvalo, nima talab qilinadi? Obrazli tasvir mahorati. Poetik tasvirda o’ziga xoslik va yangilikka erishilmasa, she’rxonning ko’ngliga yo’l ochish, fikr-tuyg’ularini yangilash quruq da’voligicha qolaveradi. So’z va tasvir go’zalligining birinchi sharti ruhni zavqlantirish, ma’no va mohiyatni ruhoniyl idrok ob’yektiga aylantira borishdir”[4.287]. Xon ham poetik tasvirda o’ziga xoslikka erishgan. Quyida g’azal matnini to’liq keltiramiz (Mazkur g’azal ilk marotaba tabdil qilinib, o’quvchilarga taqdim etilmoqda):

*Ul malohat sham’idin joni dilim giryonalar,
Sachrag’an uchqunlaridur har taraf parvonalar.*

*Tebatib jon rishtasi holim parishon aylayin,
Turra marg’ulin dog’itg’on jilvasi mastonalar.*

*Ko’z yoshimdan sangdil ar ko’ngili moyil o’lmamish,
Kim egilmaz¹²⁰ sel ila toshdon o’lan koshonalar.*

*Baski har soat xayoli husning etmishdir maqom,
Chashmi hayronimda dutmush ishq ko’zguxonalar.*

*Tun abiromiz¹²¹ esib ko’nglumi chok etdi nasim,
Angladim mashshota zulfi mushkiborin shonalar.*

*Ko’ngluma har dam jafodur dilrabolar etdug’i,
Jonima rahm aylab etmazlar vafo jononalar.*

*Xoni g’am ishqin deyub Farhodu Majnun qissasin,
Demagim jon so’z emaz bu dardsiz afsonalar.[5.18-08]*

G’azal oshiqona ruhda bitilgan. Ma’shuqaning sitamlaridan zorlanish ustivor. G’azalda favqulloda go’zal tashbehlariga, obrazli ifodalarga duch kelamiz. Matla’dayoq hayratlanarli o’xshatishni kuzatamiz: “Ul go’zal husnining sham’idan dilim tinmay yosh to’kadi, sham’ atrofidagi parvonalar o’sha yoshlardan paydo bo’lgan!” yoki uchinchi baytga e’tibor qilamiz: “Ko’z yoshlarimga ul toshyurak parvo qilmaydi-ya, xuddi toshdan qilingan koshonalarni xatto sel ham yemira olmaganidek” yoki beshinchi baytda: Kechasi xushatirli shaboda esib ko’nglimni chok etdi, angladimki, pardozchi

120 Эгилмаз – едирилмас, парчаланмас

121 Абиромиз – атирдек



sochini taramoqda". G'azal maqta'si esa yanada ta'sirli: "Xonning g'amlik ishq'i oldida Farhodu Majnun qissasidan gapirma, ular jonni o'rtovchi qissa emas, balki dardsiz bir afsonadir!".

Ko'rinadiki, Fuzuliy baytida o'z ishqini Majnun va Farhodga tenglaydi, Xon esa, ular ishqini shunchaki "dardsiz bir afsona" deya yangi poetik ifoda yaratadi.

"An'ana – she'riyatdagi uzviy silsilaviy hodisa va ma'lum bir tarixiy davrni o'tagan amaliy tajribalar natijasi. Mumtoz adabiyotimiz namoyandalari orasida bu bosqichni o'tamagan, salaflari boy merosidan uzilib qolgan biror-bir ijodkorni uchrata olmaymiz. Ammo ijodiy ta'sirdan yuzaga kelgan har qanday o'xshash obraz, tasvir, g'oyada o'ziga xos yangilik singdirilgan bo'ladi. Ya'ni, novatorlik an'ananing tadrijiy takomilidir" [6.83]. Xon ijodiga ham xuddi shu nuqtai nazardan yondashsak, an'ana doirasida ijod qilgan bo'lishiga qaramay, uning ham o'ziga xos iste'dodli shoir bo'lganligi, o'zbek mumtoz she'riyatining ko'plab badiiy barkamol namunalarini yaratganligiga ishonch hosil qilamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Zohidov V. O'zbek adabiyoti tarixidan. – Toshkent: O'zadabiynashr, 1961. – B. 194-195.
2. Vohidov E. Shoiru she'ru shuur (Adabiy o'ylar). – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. – B. 102.
3. Muhammad Fuzuliy.Devon. G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. -T.:1968.B71
4. Haqqul I.Taqdir va tafakkur. – T.: Sharq, 2007. – B. 287.
5. "Devoni xon Muhammad Alixon" O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondi, 1808-raqamli qo'lyozma
6. Qobilova Z.B. Badiiy ijodda ta'sir va izdoshlik: Filol.fan.dok...diss.avt.-Toshkent, 2021. – B 83

Akbarova Munira Shavkatovna
QDPI boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

TILSHUNOSLIKDA G'AYRIODATIY BIRIKMALAR MUAMMOSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda ekspressiv sintaksisning asosiy birliklari, sintaktik ekspressivlikni ifodalovchi til satxlari, jumladan g'ayriodatiy birikmalar; ularning badiiy matnni lingvopoetik qadr-qimmatini oshiruvchi vosita ekanligi, ekspressiv sintaksisdagi o'rni izohlangan. Badiiy asarlarda uchraydigan g'ayriodatiy birikmalardan namunalar keltirilgan va ularning lingvopoetik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. ekspressiv sintaksis, lingvopoetik aktuallashuv, oksyumoron, g'ayriodatiy birikmalar.

Аннотация. В данной статье перечислены основные единицы экспрессивного синтаксиса в языкознании. Объяснены языковые уровни, выражающие синтаксическую выразительность, в том числе необычные



сочетания, их роль в экспрессивном синтаксисе, а также то, что они являются средством повышения лингвопоэтической ценности художественного текста. Приводятся примеры необычных сочетаний, встречающихся в художественных произведениях, и выявляются их лингвопоэтические особенности.

Ключевые слова. экспрессивный синтаксис, лингвопоэтическая актуализация, оксюморон, необычные сочетания.

Annotation. This article lists the main units of expressive syntax in linguistics. Language levels expressing syntactic expressiveness, including unusual combinations, their role in expressive syntax, and the fact that they are a means of increasing the linguopoetic value of an artistic text are explained. Examples of unusual combinations found in works of art are presented and their linguopoetic features are revealed.

Key words. expressive syntax, linguopoetic actualization, oxymoron, unusual combinations.

Tilning o'ta murakkab va o'ziga xos asosiy bo'limlaridan biri, shubhasiz, uning sintaktik sathidir. Sintaktik sathdagi til birliklarining mazmun-mohiyati, tabiati, o'zaro bog'lanish va aloqaga kirishish mexanizmlari til haqidagi fanning, aynan, sintaksis masalalarining markaziy mavzusi sifatida o'rganib kelinadi. Sintaktik qurilishdagi aksariyat birliklar va ularning o'zaro munosabatini yoritishda tilshunoslikda bir qancha umumiy, yaqin bir fikrlar mavjud bo'lsa-da, ushbu sathda alohida o'ringa ega bo'lgan g'ayriodatiy birikmalar masalasida boshqa tilshunosliklarda ham bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida hanz tamoman aniq bir to'xtamga kelingan emas. Tilning kommunikativ-sintaktik strukturasini, yanada aniqrog'i, matn sintaksisini mukammal darajada tavsiflash va tasvirlash uchun g'ayriodatiy birikmalar mavzusini e'tibordan chetda qoldirishning aslo imkoni yo'q. Boz ustiga, badiiy nutq sintaksisini o'rganishda ham g'ayriodatiy birikmalar alohida ahamiyatga ega. Ular yozuvchilar uchun badiiy tasvir va estetik ta'sir imkoniyatlariga juda boy bo'lgan sintaktik vositalardan biri sifatida o'ziga xos ahamiyatga egadir. Aytish mumkinki, bugungi o'zbek adabiy tilida g'ayriodatiy birikmalar anchayin faol qo'llanadigan va axborotning yanada to'liq, estetik ta'sirli tarzda ifodalanishiga ko'mak beruvchi o'ziga xos murakkab sintaktik hodisalardan biri sifatida ham semantik-grammatik, ham lingvopoetik jihatdan o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb nazariy muammolardan biridir. O'zbek tilshunosligining zabardast olimi, professor Nizomiddin Mahmudov o'zining "So'z estetikasi" nomli qo'llanmasida "g'ayriodatiy birikma" atamasiga alohida to'xtalib, uning ma'nosini izohlab, qo'llanish xususiyatlariga turlicha namunalar keltirib o'tadi. Estetik butunlik bo'lgan badiiy asar ijodkori uchun esa "narsalarning qat'iy, yalang'och mohiyati" emas, balki ularning yuksak badiiy ifodasi, yaxlit obrazi ahamiyatlidir. Ijodkor ana shu maqsad bilan tildan yangi-yangi imkoniyatlar izlaydi. Bunday imkoniyatlardan biri badiiy bo'lmagan nutqda o'zaro bog'lanishi chegaralangan so'zlarni bog'lash orqali turli ma'no nozikliklari, ekspressivlik, emotsionallik va shu kabilarni yuzaga keltirishdir. Badiiy nutqdagi bunday birikmalarni shartli ravishda "g'ayriodatiy birikmalar" deb ataymiz.[2, 40]. Masalan, *achchiq shamol, burama gap, zaifona chiroy, mardona chiroy, hasadgo'y taqdir* birikmalaridagi so'zlarni o'z ma'nosida tushunilsa, bu birikmalar naqadar bemantiq bo'lib tuyuladi. Ammo ular badiiy nutq nuqtai nazaridan qaralganda juda ham mantiqli va obrazlidir. *To yetib borgunimizcha Namanganda havo aynib, achchiq shamol esayotgan ekan. Sovuq shu darajada ediki, biron*



pana joyga yashirinmasa chidab bo'lmas edi. (S.Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" asari). Bu gapni eshitib Anvar "shu odam ota bo'lgan xalqning padariga la'nat!" dedi. Yonidagi hamkasblar avvaliga bu burama gapning mag'zini chaqishmadi. Keyin tushunib qolib, kulib yuborishdi. (T.Malik "Shaytanat") "Yomon ko'zdan asrasin, bunaqa husnni xudoyim har kimga ham beravermaydi, suygan bandasiga beradi. Bu zaifona chiroy emas, mardona chiroy", degan edi. Bugun "hasadgo'y" taqdir shu mardona chiroyni kemtik qilmoqchi bo'ldi. Ammo eplolmadi. (S.Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" asari).

Adabiyot san'atida ham ijodkor o'z ijod mahsulini yaratish uchun til materiallaridan shunchalik mohirona foydalanadiki, til materiallarini bir-biriga semantik va grammatik jihatdan shunday birlashtiradiki, natijada o'quvchi bu ijod namunasining naqadar betakror san'at asari ekaniga shohid bo'ladi. G'ayriodatiy birikmalar esa badiiy matnning lingvopoetik qiymatini oshiruvchi eng muhim sintaktik vositalardan biridir. Shu jihatdan g'ayriodatiy birikmalarning tilshunoslikdagi, ayniqsa, ekspressiv sintaksisdagi o'рни beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983.-b.8.
2. X.Abdurahmonov, N.Mahmudov «So'z estetikasi», - Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1981-y, - 59 b
3. Yuldashev M.M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009.-b.39.

Ismoilova Kamola Rafikovna
QDPI, Xotijiy tillar fakulteti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi
Xamdamova Shoxidabonu Muzaffar qizi
ingliz tili va adabiyoti yonalishi talabasi

INTERNETNING INGLIZ TILI RIVOJLANISHIDAGI ROLI

Annotatsiya. Maqolada ingliz tilining morfo-semantik, grafo-fonemik va leksik hususiyatlariga Internetning ta'siri muhokama qilinadi. Shuningdek, u vaqt o'tishi bilan ingliz tilining yangi orfografik turiga aylanishi mumkin bo'lgan shakllarini ham ko'rib chiqadi.

Kalit so'zlar. Ingliz tili, Internet, Morfo-semantik, Grafo-fonematik ta'sir.

Annotation. The article discusses the influence of the Internet on the morpho-semantic, grapho-phonemic and lexical features of the English language. It also examines the forms that may evolve into a new orthographic type of English over time.

Key words. English language, internet, morpho-semantic, grapho-phonemic influence.

Аннотация. В статье рассматривается влияние Интернета на морфосемантические, графо-фонематические и лексические особенности английского языка. В нем также рассматриваются формы, которые со временем могут превратиться в новый орфографический тип английского языка.



Ключевые слова. английский язык, Интернет, морфосемантическое, графо-фонематическое влияние.

So'nggi yigirma yil ichida hayotimizning deyarli barcha jabhalarida Internetning ishtiroki o'sdi va internet butun dunyo bo'ylab odamlarning muloqot qilish usuliga aylanib bordi. Bu ingliz tilining lingvistik tuzilishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Internet XX asr oxiriga kelib eng muhim texnik yangiliklardan biri sifatida keng e'tirof etildi. Internetning ingliz tiliga muhim ta'siridan biri bu yangi so'zlarning ko'payishi. Internet odamlarning til va fikrlar almashishi uchun global platforma yaratdi. Raqamli sohada ishlatiladigan yangi so'zlar, iboralar va qisqartmalar kundalik tilning bir qismi bo'lib, ingliz tilining leksikonini o'zgartirdi. Masalan, LOL, BRB yoki ROFL kabi qisqartmalar endi onlayn platformalardan tashqari suhbatlarda tan olinadi va foydalaniladi. Ushbu tadqiqot asosan internet foydalanuvchilari tomonidan qo'llaniladigan yangi ingliz tilini shakllantirishda internetning ishtirokini o'rganishga qaratilgan.

O'tmishda turli irqdagi odamlar uchun ingliz tilida suhbatlashish va ma'lumot uzatish shart emas edi. Ammo bugungi kunda siz ingliz tilini yaxshi bilmasangiz internetdan keng foydalana olmaysiz. Bu shuni anglatadiki, agar siz allaqachon ingliz tilini bilsangiz yoki o'rgangan bo'lsangiz, uni Internetda qo'llash orqali yanada ko'proq o'rganishingiz mumkin. Ingliz tili bugungi kunda internet tili bo'lganligi sababli, internet bu tilda malakasi bo'lmaganlar uchun bilvosita o'qituvchi vazifasini ham bajaradi. Shu bilan birgalikda internetni tilning leksik, fonologik va sintaktik me'yorlariga ta'siri ham kuchayib bormoqda. Misol uchun, zamonaviy texnologiyalar butun dunyo bo'ylab ingliz tilida turli qisqartmalarni paydo bo'lishiga olib keldi. Bu virtual dunyoning chat guruhlarida paydo bo'lgan til shaklidir. Quyida eng yaqqol ko'rinadigan o'zgarishlar keltirilgan.

Morfo-semantik ta'sir:

Bu ma'noda so'zlar shunchalik qisqartirilganki, ingliz tilining rasmiy foydalanuvchisi so'zlarning ma'nosini aniqlay olmasligi mumkin. Misol tariqasida: RUOK? =Are you ok? (Ahvolingiz yaxshimi?) JUS 2 RMD U ABTD DISKSN=Just to remind you about the discussion.

Yuqoridagi misollarda internet foydalanuvchilari o'z yo'nalishlari bilan so'zlarning yozilishidagi leksika qoidalarini buzishgan. So'zlarning deyarli tushunarsiz grafikali va raqamli birikmasiga qisqartirilganligiga qaramay, buni yaxshi tushunishadi.

Grafonemik ta'sir:

Quyidagi misollarda so'zlarning grafonemik o'zgartirishlari ko'rsatilgan. Ingliz tilida harflar ko'pincha tovushlarni doimiy ravishda ifodalamaydi. Biroq, internetdan foydalanganda grafema odatda fonemani ifodalash uchun yasaladi. Masalan: so wot =So what (Xo'sh) @ home=At home (Uyda) 2day=Today (Bugun) B4 =Before (Oldin) Qisqartmalar aksariyat hollarda internet foydalanuvchlari tomonidan ko'p foydalaniladigan usullardan biridir. Misol uchun "c" grafemasi odatda ingliz tilida /k/ fonemasi bilan ifodalanadi. Bunda /s/ fonemasini ifodalash uchun "c" grafemasi yasaladi" see you=ko'rishguncha" LLPP=Long life and prosperity (Uzoq umr va farovonlik) Brb=be right back (Hozir qaytaman)



Alfavitizm:

alifboda ushbu harflarning fonetik qiymati bilan talaffuz qilinadigan so'zlarning birinchi harflarining birikmalaridan foydalanib qisqartirish: CD=Compact Disk (kompakt disk) SMS=Short Message Service (Qisqa xabarlar xizmati);

Qirqimlar bir yoki bir nechta bo'g'indan iborat bo'lgan so'zlardan ham tashkil topishi mumkin: mike=mikrofon, demo= demonstration. So'z yasash til o'rganish usullaridan biridir. Tildagi leksikaning yetishmasligi yangi so'zlarning shakllanishiga yordam beradigan omillardan biridir. "K.Ismoilova"(2023)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Internetning keng qo'llanilishi ingliz tilining tarqalishi va rivojlanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatdi. Morfo-semantik, grafo-fonemik va leksik o'zgarishlar odamlarning onlayn muloqot qilish usulida yaqqol namoyon bo'ladi, ko'pincha ingliz tilining noan'anaviy shakllari sifatida ko'rinishi mumkin bo'lgan qisqartmalar va fonetik tasvirlardan foydalaniladi. Internet ingliz tilining global til sifatida tarqalishini va ahamiyatini tezlashtirdi. Ko'proq odamlar Internetdan turli yo'llar bilan foydalanishda davom etar ekan, til o'z foydalanuvchilarining ehtiyojlariga moslashish uchun rivojlanishda va o'zgarishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R. Rasulov. "UMUMIY TILSHUNOSLIK". Toshkent. Fan va texnologiya. 2010.
2. Crystal, David. Internet Linguistics: A student Guide. Routledge. New York. 2011.
3. Crystal, David. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press. 2013
4. Omowon, A. A. (2013). "Internet as a Communicative Tool in Sustainable Educational Reforms" In Nigerian Journal of Languages, Arts, Education and Social Sciences (NIJOLATESS) 4(1) 241-247
5. Longman (2009). Dictionary of Contemporary English. New Edition for Advanced Learners.
9. Ismoilova, K. (2022). INFLUENCE OF WORDS FROM THE FIELD OF "IT" ON THE UZBEK LANGUAGE
6. Е. Н. Галичкина "Компьютерная коммуникация: Лингвистический статус, знаковые средства, жанровое пространство". Волгоград — 2012
7. Rafikovna, I. K. (2023). MORPHO-SEMANTIC ANALYSIS AND SEMANTIC SHIFT OF ENGLISH INTERNET SLANGS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(4), 514-518.
8. Kamolaxon, I. (2022). THE IMPACT OF THE INTERNET ON THE MODERN ENGLISH LANGUAGE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 405-408.
- AND ITS LINGUISTIC ANALYSIS. ICARHSE.
10. Ismoilova, K. (2022). The Submission of Uzbek Diplomatic Terms in the Dictionaries. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*.
11. Qizi, M. U. F., Qizi, M. M. T., Qizi, N. M. S., Qizi, H. N. N., Rafikovna, I. K., & Sayidaliyevna, S. S. (2022). THE THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF METAPHOR IN A COGNITIVE ASPECT. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
12. <https://poe.com/Sage>



AKHL KATEGORIYASINI VOQELANTIRUVCHI TIL VOSITALARINING KONSEPTUAL XUSUSIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada AKHL ni bildiruvchi so'zlarning kognitiv tahlili yoritilgan bo'lib, u nafaqat ijtimoiy amaliyotda va tilda tasdiqlangan jamoaviy, ijtimoiylashtirilgan bilimlarni, balki individual bilimlarni o'rganishga ham qaratilganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Lingvistik ma'nolar, statik-konseptual tizim, dinamik- nutq, assotsiativ aloqa

Аннотация. В данной статье выделен когнитивный анализ слов, обозначающих РДРВ, указано, что он направлен не только на изучение коллективных, социализированных знаний, подтверждаемых в социальной практике и языке, но и индивидуальных знаний.

Ключевые слова. языковые значения, статико-понятийная система, динамическая речь, ассоциативная связь.

Annotation. In this article, the cognitive analysis of the words denoting ECD is highlighted, it is stated that it is aimed not only at the study of collective, socialized knowledge confirmed in social practice and language, but also individual knowledge.

Key words. Linguistic meanings, static-conceptual system, dynamic-speech, associative communication

So'zni til tizimining birligi sifatida semantik tahlil qilish har doim tildan muloqot vositasi sifatida foydalanadigan xalq jamoaviy bilimlarini o'z ichiga oladi, ya'ni muayyan sotsiumda mavjud bo'lgan, ma'lum bir tilda so'zlashadigan butun jamoaga xos bolgan bilimni nazarda tutadi, chunki til ijtimoiy hodisadir va u faqat ijtimoiy ongda, jamiyatda mavjuddir. Lingvistik ma'nolar so'zlovchilarning ijtimoiy ongida saqlanadigan ijtimoiy sobit ma'nolardir, garchi dastlab bu ma'nolar individual ma'no sifatida paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

AKHL ni bildiruvchi so'zlarning kognitiv tahlil ham nafaqat ijtimoiy amaliyotda va tilda tasdiqlangan jamoaviy, ijtimoiylashtirilgan bilimlarni, balki individual bilimlarni o'rganishga ham qaratilgan. Chunki avvalambor bilim va fikrlash tabiatan individualdir. Dastlab subyektiv bilish natijalarining faqat bir qismi, atrofdagi olamning individual tasviri va so'zlovchi subyekt tomonidan shakllantirilgan ma'nolar tizimi ijtimoiy amaliyot tomonidan asta-sekin o'rnatiladi va butun jamiyat, jamoaviy bilimlar haqidagi konseptual tizim so'zlarning ma'nosiga aylanadi. Dastlab ushbu individual tasvirlar va ma'nolar ushbu tilda so'zlashadigan har bir kishi uchun har doim ham tushunarli emas. Masalan: ko'pincha maxsus ravishda yaratilgan yangi nazariyalar, ilmiy farazlar va tushunchalar; individual badiiy tasvirlar va boshqalar oxir oqibat, vaqti-vaqti bilan, vaqtinchalik xarakterga ega boladi [N.N. Boldirev 2014; 86-87].

Demak, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish inson tomonidan til yordamida dunyoni bilishning asosiy tushunchalari ekan, bu lingvokulturologiya nuqtai nazaridan yondashish til hodisalari mazmunini to'liqroq organishga imkoniyat yaratadi.



Til mahsulotining qanday bo'lishi uni yaratuvchi shaxsga olamni bilish, uni tasvirlash, so'zlovchiga bog'liq. Demak, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirishning ko'lami, qamrovi va sifat xarakteristikasi so'zlovchi insonga bog'liq. Ammo, masalan, tilda so'zlovchilar soni 100 million kishi bo'lsa, ularning ongi, tafakkuri, savodi, madaniyati, dini, turmush tarzi, yoshi, jinsi, yashash hududi va boshqalari turlicha bo'ladi, demak, konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish 100 million ko'rinishda amalga oshiriladi.

Statik-konseptual tizimning asosiy elementi sifatida bilim kvantlari, ya'ni birliklarini tanlash hamda tematik konseptlarga ajratishdan iboratdir.

Dinamik- nutq faoliyati jarayonida obyekt, hodisalar va ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilish birligi kvant sifatida tanlash va ularni olam haqidagi bilim sifatida talqin qilishdan iboratdir. Konseptuallashtirishning obyekti olam haqidagi bilimdir.

Shu o'rinda kognitiv semantikaning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratish ko'rilayotgan masalaga yanada oydinlik kiritadi. Kognitiv semantika ko'p qirrali ma'no nazariyasi bo'lib, ushbu xususiyatiga ko'ra u til tizimining doirasidan tashqarida bo'lgan va uning qiziqish doirasiga kiradigan boshqa semantik nazariyalardan tubdan farq qiladi, nafaqat til semantikasining muammolari, balki til birikmalarining ma'nosi va ishlatilishiga ta'sir etuvchi boshqa bilim tuzilmalarini o'z ichiga oladi [N.N. Boldirev 2014]. Shuningdek, konseptuallashtirish bilish jarayoni bo'lib, ularni bir-biridan farqlagan holda bilim birligi konsept holida shakllanadi.

Aynan konsept til birliklarining semantikasini belgilaydi, uni ifodalab berishda qo'llanadigan til birikmalarining semantikasini ochib beradi [N.N. Boldirev 2014; 84].

Asosiy metodologik tamoyil tarzida til birikmalarining tadqiqida kognitiv semantika tilning antroposentrik qoidalarini qo'llaydi (fikrlarning shakllanishi hamda ularning voqelanishida markaziy o'rinni inson egallaydi) tilni kognitiv qobiliyat sifatida, bilimlarni aqliy va lingvistik darajalarini farqlash, tushunchalar bo'yicha birliklar sifatida ishlatiladi. Kognitiv kontekstni lingvistik semantikaning shakllanishiga ta'siri, olamni tilda konseptuallashtirish hamda kategoriyalashtirish darajasining xususiyati, prototiplari to'g'risida bilimlar tabiiy, shu jumladan lingvistik, obyektlarning asosiy toifalarini tashkil etish tamoyilidir [N.N. Boldirev 2014; 207].

Konsept - bilim birligi ekanligi haqida E. S. Kubryakova, N.N. Boldirev, I. A. Sternin, Z. Popova, Sh. Safarov, D. Ashurova va boshqa ko'plab olimlar ishlatilishi tajribasi Z.N. Verdieva ishida mavjuddir (Verdieva, 1986:120). Ushbu tadqiqotda jami tahlil etiladigan so'zlarning semantik tuzilmasida belgilanadigan umumiy ma'nolarni aks ettiradigan bir xillashtiruvchi so'zlar komponenti tahlil usullari yordamida aniqlanadi. Shuni qayd qilish kerakki, amal, kasb-hunar va lavozimni (AKHL) bildiruvchi so'zlarning leksik-semantik guruhlarga tasniflanishi qaysidir ma'noda shartli bo'ladi, u o'zakning denotativ ma'nosi asosida o'tkaziladi, so'z yasaliishi jarayonida esa AKHL da denotativ nisbatlilikning siljishi yuz beradi. Biroq, shartligiga qaramasdan, bunday tasniflash g'oyat muhimdir, chunki denotativ belgisiga ko'ra ajratilgan guruhlar motivatsiya manbaini ko'rsatadi va AKHL ning ma'nosining tusini, uning ma'no jihatdan mustaqilligini shakllantiradigan semantik belgilarni hosil qiladi. Ma'lumki, "so'zlarning turli narsalar, belgilarining assotsiativ aloqasi negizida vujudga keladigan semantikasi aniq chegaralarga ega bo'lmaydi. Lekin so'zning... ligi o'zagi har doim o'zgarimas bo'lib qolaveradi, chunki u umumiy xalq tilida ushbu so'z bildiradigan tushunchali-predmetli



ma'noga, ya'ni garchi uning normativ semantikasiga kirmasa-da, baribir unga bog'liq bo'ladi" [Aznaurova, 1973:125].... likning o'ziga xosligini belgilash uchun avvalo uning leksik ma'nolari va bunday ma'nolar xosil bo'ladigan leksik-semantik guruhlar tahliliga murojaat qilishi zarur.

Ingliz tilidagi apish, dovelike, horsy, goatish, foxy, shaky va boshqa hosila so'zlar o'zaklari lug'aviy definitsiyalarining ko'rib chiqilishi shuni ko'rsatadiki, ushbu so'zlar leksikafgrafik definitsiyalarida umumiy ma'noga ega "animal", "creature" so'zlari aniqlanadiki, bu ularni leksik-semantik guruh "zoosemizmlar" ning bir xillantiruvchilari deb hisoblashga imkon beradi.

Inliz tilida, bear va bird so'zlarining lug'aviy definitsiyalarida ko'rsatilgan bir xillashtiruvchilar eksplitsit tarzda ifodalangan. bear-large, heavy animal with thick fur (OZED).

Olimlar tomonidan fikr va mulohazalar bildirildi va yoqlangan ilmiy ishlarida o'zining tasdig'ini topdi. Ammo shunga qaramay bahsli munozaralar ham mavjud bo'lib, ular asosan konsept va tushuncha kabi mohiyatlarni bir-biridan farqi xususidadir. Konseptni obrazli tarzda talqin qiladigan bo'lsak, xirmonga o'xshatish mumkin. Xirmon har xil dalalarda yetishtirilgan bir xil mahsulotlarning uyumidir. Demak, kontsept ham bir tuzilishga ega, ammo, turli birliklarda verballashishi bilan xirmonga o'xshaydi. Masalan: jon leksik birlik sifatida ruh, hayot, kuch-quvvat lug'aviy ma'nosidan ushbu leksema haqida umumiy tushuncha hosil bo'lsa, kontsept sifatida tadqiqi qilinganda quyidagicha verballashadi: joni uzildi (vafot etdi), jonini chiqarmoq (jaxlini chiqarmoq), joniga tegmoq (zada bo'lmoq), bir tuyoq bilan beshta jonni boqmoq (inson), jon olmoq (o'ldirmoq), jon kirmoq, (tirilmoq, qiyinchilikdan chiqib olmoq), jon achimoq (dildan xayrixohlik bildirmoq), jonini koyitmoq (qattiq urinmoq), bir jon bir tan bo'lmoq (bahamjihat bo'lmoq), jonli ijro (fonogrammasiz, tabiiy ovozda kuylamoq), jon-dil bilan (astoydil), o'zbek ismlariga jon qo'shimchasini qo'shish orqali erkalash va hurmat kabi ma'nolarni anglatadi. Mazkur konseptning kognitiv maydonini yanada kengaytirish mumkin. Aynan tahlil qilingan misoldan ham kognitiv semantikaning ana'naviy semantikadan tadqiqot ko'لامي kengligi bilan uning farqi yorqin namoyon bo'ladi.

Shuning uchun konitiv tilshunoslikda kontseptual tizim tushunchasi xam sermahsul qo'llanadi. R.I.Pavilyonis insonning kontseptual tizimi olam haqidagi doimiy ravishda ma'lumotlar bilan boyib borishi ya'ni bilimga aylanishiga e'tibor qaratdi. Tabiiy til odamga og'zaki belgilarni boshqarish orqali kontseptlar, kontseptual tizimning muayyan bir elementi sifatida ishlatishga va nafaqat ushbu voqelikning sharti bilan, balki ushbu tizim tomonidan shartlangan yangi kontseptual tuzilmalar asosida qurish va yaratishga imkon beradi. [Pavilyonis 1983:13, Bolirev N.N. 2014:170]

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi. T. Fan. 2004, 240 b.
2. Safarov Sh. S. Pragmalingvistika. M. Fan. 2013, 248 b.
3. Степанов Ю.С. Сред. Анталогия семиотики. М. Наука, 2012, 760 с.
4. Гумбольдт В.фон. Избранные труды. М. Изд. Прогресс, 1977, 850 с.
5. Болдырев Н.Н. Языковые категории как формат знания. Вопросы когнитивной лингвистики, Т. 2006, № 2, с. 5-22



*M. Ergashova(f.f.nomzodi, dotsent)
Sh. Jumaboyeva (magistrant) Qo'qon DPI*

“TOHIR VA ZUHRA” DOSTONI ABDULHAMID QORI JALOL TOSHBOSMA VARIANTI TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodining muhtasham badiiy qadriyatlaridan biri “Tohir va Zuhra” dostoni qo'lyozma matni tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek eposi, sujet, etnos, mifologiya, qo'lyozma matn, matnshunos, tahlil.

Аннотация. В данной статье дан анализ рукописного текста эпоса «Тахир и Зухра» - одной из великих художественных ценностей узбекского устного народного творчества.

Ключевые слова: узбекский эпос, сюжет, этнос, мифология, рукописный текст, текстолог, анализ.

Annotation. This article analyzes the handwritten text of the epic “Tahir and Zuhra” - one of the great artistic values of Uzbek oral folk art.

Key words: Uzbek epic, plot, ethnos, mythology, handwritten text, textual critic, analysis.

“Tohir va Zuhra” dostoni o'zbek xalqining sevimli dostonlaridan biri bo'lganligi sababli uni xalqimiz gap-gashtak va turli o'tirishlarda o'qittirib ham eshitganlar. Gap shundaki, doston muallifi Sayyodiy hayoti va shaxsiyatiga doir ma'lumot beruvchi yagona manba - uning “Tohir va Zuhra” dostoni xolos. Hozirgacha ham adabiyotshunosligimizda yoxud folklorshunosligimizda shoir hayoti va ijodining ayrim nuqtalari haqida turli bahsli fikrlar mavjud.

Shoirning asl ismi Sayyid Muhammad Qilich bo'lib, Balx yaqinidagi Xayrobod degan joyda tug'ilib o'sgan va keyinchalik ovchilik bilan shug'ullangan. Tatar olimlari, jumladan, X.Xismatullin Sayyodiy dostoni 1414-yilda yozilgan, chunki shoir XIV-XV asrlarda yashagan deb hisoblaydi¹²². Dostonning qachon yozilganligi to'g'risida o'zbek olimlari o'rtasida ham yakdillik yo'q. Sayyodiyning o'zi esa bu haqda shunday yozadi:

Baqar yili bunga bo'ldi inoyat,
Ki jum'a kun edi qildum rivoyat...
Shukur Ollohga, bu bitdi nahangda,
Ki har kimki so'rar Movarounnahrda.

Ko'rinadiki, Sayyodiy dostoni baqar(mol) yilida yozila boshlangan, nahang (baliq) yilida tugallangan. Shoirning yozishicha, Tohir va Zuhra haqidagi sujet O'rta va Yaqin sharqda o'sha vaqtlarda ham juda keng tarqalgan bo'lib, xalq orasida ertak qilib aytib yurilgan, soz jo'rligida esa yigitlar kuylagan.

Xalqimizning boy tarixiga nazar solar ekanmiz, ma'naviy xazina hisoblanmish qo'lyozma manbalarining qanchalar ahamiyatli ekanini koramiz. Ularning qaysi yozuvda yozilgani, uslubi, badiyatiga, albatta, yurtimizga bo'lgan arablar istilosi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Eski o'zbek yozuvi arab alifbosi asosida shakllangan va bu yozuvda ozbek xalqi adabiyoti, tili, tarixiga oid yodgorliklarning asosiy qismi yozilgan.

¹²² Боринги татар адабияты. – Казан: Татарстан китап нәшрияты, 1963. – Б.250.



“Tohir va Zuhra”ning ertak, doston, qissa shaklidagi juda ko‘p variantlari mavjud. Xususan, Abdulhamid Qori Jalol o‘g‘li ko‘chirgan variant ana shularning biridir. Doston «Tohir va Zuhra bo tasvir» deb forscha nom bilan nomlangan. “Bo tasvir” - tasvirli degan ma’noni bildiradi. Doston suratlarga boy bo‘lgani uchun ham shunday nomlangan. Hozirda №630 inventar raqami ostida O‘z. R. F. A. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Qo‘lyozmalar fondida saqlanadi. Quyida ushbu qo‘lyozma manbaning tavsifiga batafsil to‘xtalib o‘tiladi.

Zero, rus adabiyotshunosi S.A.Reyser ta’kidlaganidek, matnshunos zimmasiga uchta asosiy vazifa qo‘yilgan. Bular: badiiy asar matnining asliyatini tiklash, materiallarini tahrir qilish va badiiy matn tahlilini amalga oshirishdan iborat². Shuning uchun ishni matnni tahlil qilishdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

№630 .raqamli toshbosma. «ريوس ت اب يسي اي كح مروز و رهط» - kotibi Abdulhamid Qori Jalol o‘g‘li bo‘lgan «Tohir va Zuhra hikoyasi bo tasvir» deb nomlangan.

Toshbosma 19 varaq (38 bet)dan iborat. Toshbosma o‘lchovi 23×13, 5. Yo‘li 19 satrdan iborat. Muqova qismi saqlanmagan. Ichki muqova sariq rangli qog‘ozdan. Hoshiya qismi naqshlangan. Naqshlar ikki qator. Qog‘oz chetida ingichka naqsh va biroz ichkarisiga gul solib ishlangan yirik naqshdan iborat. Yuqori qismiga «Hulmaston» نام ت ح deb yozilgan. Bu nima ma’no bildirishi anglashilmadi. Oraliqda nash yozuv turida yozilgan. O‘rta qismiga yirik harflar bilan nasta’liq yozuvida «Tohir va Zuhra hikoyasi bo tasvir» deb doston nomiforschada yozilgan. Atrofiga mayda naqshlar berilgan. Uning pastidan “Hat imon mullo mirzo Ahmad valad mirzo Karim al-Marhum” نام ت ح deb yozilgan. Ostiga o‘simlik naqshlari bilan ishlov berilgan.

Doston boblarga ajratilmagan. Nasr va nazm aralash holda keladi. Nasriy o‘rinlar bir qator, she’riy o‘rinlar ikki qator qilib yozilgan. Bundan chetga chiqish hollari ham uchraydi. Xususan, ba’zan bo‘g‘ini oz bo‘lgan she’rlar uch qator kelishi yoki g‘azal janrida yozilgan misralar bir qator kelishi ham uchrab turadi. Varaqlarga poygir qo‘yilmagan.

Manbada qolgan manbalarda bo‘lgani kabi boshi va oxiridagi yozuvlarsiz bir varaq joy yo‘qolgan. Toshbosmadagi asosiy matn turkiy tilda, ammo kam bo‘lsa-da forscha, arabcha so‘zlar uchraydi. Dostonning tugallanishida ko‘chirilgan sanasi «Tammat tamom 1933 hijriy» deb yozilgan. يرج ۱۹۳۳ م امت ت م

Shuo‘rindatushunmovchilikuchraydi. Chunki doston haqidakelgan ma’lumotlarda, aynan, Zohir shoir Qo‘chqor o‘g‘li varianti «Tohir va Zuhra»ning F.Mamatqulova va M. Jo‘rayev nashrga tayyorlagan variantida¹²³ doston 1913-yilda bosilganligi haqida yozilgan (120-121-betlar oralig‘i). Dostonning tugash qismi 48-bet bo‘lib, eng ostiga kotib nomi yozilgan. ل ا ب ج ي ر ا ق د ي ح ل ا د ب ع ب ت ا ك

Kotib Abdulhamid Qori Jalol.

Adabiyotimiz tarixida Tohir va Zuhra dostoni muhim o‘rin tutadi. Xalqimizning bu asarni qanchalar qiziqish bilan tinglagan va o‘qiganini turli hududlarda turlicha variantlar bilan tarqalgani ham isbotlab turadi. So‘z yuritayotgan manbamiz ham ana shunday qimmatli manbalardan biridir.

Namangan diyori azaldan adabiyotga, ma'naviyatga oshnolar yurti bo'lgan. Namanganda xalq og'zaki ijodining dostonchilik janri juda keng tarqalganligi, Namangan adabiy muhitida dostonchilikni rivojlanishiga asos bo'lgan. Chunki xalq dostonlarini eshitib katta bo'lgan avlodda doston yaratish ishtiyoqi uyg'onadi. Namangan adabiy muhitida dostonchilik an'alarini rivojlanishida Ziyovuddin Mansurning o'rni ham beqiyosdir.

Ziyoviddin Mansur 1954-yili Namangan viloyati Uychi tumanidagi Mashad qishlog'ida tug'ildi. 1975-yilda Namangan davlat pedagogika institutini imtiyozli diplom bilan tugallaydi. Mehnat faoliyatini Uychi tumanidagi 4-o'rta maktabda o'qituvchilikdan boshlagan ijodkor, keyinchalik Respublika ma'naviyat targ'ibot markazi Namangan viloyat bo'limida, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limida xizmat qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputati sifatida faoliyat ko'rsatdi. Uning qobiliyatlaridan biri – bu faol jamoatchiligi. Bu jihati ko'pchilik uchun ibrat. Unafaqatnamanganliklarni, balki butun vodiy ijodkorlarini turli adabiy gurunglarga chorlab, boshini qovushtirib turadi. Namanganda har yili tashkil etiladigan an'anaviy Mashrabxonlik, Nodimxonlik, Chustiyxonlik, Usmon Nosir, Habib Sa'dulla she'riyati kunlari, Poramon anjumani, shuningdek, har hafta muntazam o'tayotgan ijodiy seminar mashg'ulotlari uning O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi faoliyatini hozirgi talablar darajasida tashkil etayotganidan dalolat. U yetuk ma'rifatparvar hamda faol targ'ibotchi sifatida ham respublika Prezidenti va hukumati olib borayotgan xalqchil siyosatni ta'sirchan shakllarda omma ongiga yetkazadiki, u o'tkazgan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar hamisha sermazmun va maroqli bo'lishiga havas qilish kerak. Namanganda Habib Sa'dullaning qalb qo'rlari va tashkilotchilik iste'dodlari tufayli shunday adabiy anjumanlar, kechalar, uchrashuvlar bo'lib o'tganki, ularda ishtirok etgan kishilar ruhiy oziq olish bilan birga adabiy did va bilimlarining ham boyiganini sezmay qolmaganlar. Adabiy davralarga jon bag'ishlovchi Habib Sa'dulladan keyin uning ishlarini Ziyoviddin Mansur shunday davom ettirmoqda. U hozir Namangandagi adabiy hayotni habibona madaniyat, habibona zakovat va habibona harorat bilan boshqarmoqda. Ziyoviddin Mansurning insoniy sajiyasidagi ana shu madaniyat, aql-farosat, mehr- muhabbat uning she'rlarida ham jilva berib turadi.

“Gullar shahri” – Namangan bulbuli Ziyoviddin Mansurni she'riyat muxlislariga tanishtirish shart emas. Mamalakatimizda birorta gazeta yoki jurnal yo'qki, uning dasta-dasta she'rlari chop etilmayotgan bo'lsin... Birinchi she'ri 1969-yil Uychi tuman gazetasida bosilib chiqdi. Shundan so'ng “Xo'rozqand” (bolalar uchun), “Ezgulik elchisi”, “To'tiyo” she'riy kitoblari chop etildi. She'rlari qoraqalpoq, rus, ingliz, nemis, hind tillariga tarjima qilingan.

Mustaqillik yillari “Qalbim parchalari”, “Noyob kashfiyot”, “O'n sakkiz yoshliklar sevgisi”, “Hayrat saltanati”, “Namangan va namanganliklar”, “Dilrabolar diyori”, “Muhabbat bog'i” kabi she'riy turkum va kitoblari chop etildi. “Abadiyat qo'shig'i” kitobiga saylanma she'rlari jamlandi. Bu kabi she'riy kitoblarini ham o'qib, uning ijodi to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Yangi-yangi badiiy ifoda vositalarini topish, tesha tegmagan qofiyalarga teran ma'nolar yuklash Ziyovuddin Mansur she'rlarining o'ziga xosligini ta'minlaydi. Har bir ijodkor – takrorlanmas iste'dod, boshqa bir olam. Ziyovuddin Mansur kimni yoki nimani xush ko'rsa, shuni ko'klarga ko'taruvchi, kimdan yoki nimadan nafratlansa,



ko'nglidagi shu nafrat tuyg'ularini yashira olmaydigan ijodkorlar sirasidan. Ammo uning nigohi, birinchi navbatda, hayotdagi ezgulikning turfa ko'rinishlariga tushadi. U bu ezguliklar, bu tarixiy o'zgarishlarning ma'no va mohiyatini ilg'ashga intiladi. Shu ruhiy-ijodiy jarayonda mustaqillikning tarixiy-ijtimoiy mohiyatini anglagandek bo'lib, uning ijodkorini butun qalbi bilan ardoqlashga kirishadi. Ziyovuddin Mansur – o'zining mag'zi to'q she'rlari, badiiy puxta asarlari bilan mamlakatimizning Said Ahmad, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Habib Sa'dulla singari so'z san'atkorlari nazariga tushgan, ular va minglab kitobxonlar mehr-muhabbatini qozongan iste'dodli shoir. Bu o'rinda uning respublika matbuoti sahifalarida bosilib, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan "Buyuklik haqida", "O'zbekiston", "Sohibqiron", "Ma'naviyat yohud Navoiy", "Millatim qasidasi", "Ka'baday muborak qadamjo", "Xudo suygan yurt", "Istiqlol me'mori", "Daxldorlik", "Abadiyat qo'shig'i", "Munosabat", "Ogohlik" singari she'rlari bugungi milliy o'zbek she'riyatida eng go'zal badiiyat namunalaridir.

Namangan adabiy dostonchiligida Ziyovuddin Mansurning hissasi va o'rni salmoqli. Uning ijodida dostonlar katta qismni egallaydi. "Istiqlol yo'li", "Shom va tong", "Shaxmat qaridagi hikmatlar", "Yakkatut manzumasi", "Ayolning qirq joni tavsifi", "Onaginam, onajonginam" kabi dostonlari bunga misol.

Ziyovuddin Mansur turli xil mavzularda dostonlar yozgan. Dostonlar ichida vatanni madh etgani ham, onalarni kuylagani ham bor. Shoir dostonlarida xalq rivoyatlaridan, hikmatli so'zlaridan o'rinni foydalangan. "Quyosh hayqiriqlari" dostoni O'zbekistonni ta'riflaydi.

„Istiqbol yo'li“ dostoni ham vatan va istiqbolning istiqboli haqida, bu yo'lda birdamlik va ahillik kerakligi haqida bo'lsa, yana bir dostoni „Shaxmat qaridagi hikmatlar“ ulug' ustoz Ozod Sharafiddinovning porloq xotirasiga bag'ishlangan. „Ayolning qirq joni tasnifi“ dostoni ayol zotining mukammal yaralgani, ular bilan olam munavvar ekanligi ta'riflanadi. Dostonda rivoyatdan foydalanib unga bog'lab juda chiroyli o'xshatishlar keltiriladi. Ziyoviddin Mansur ham „Onaginam, onajonginam...“ nomli lirik dostonini onajonisiga bag'ishlagan.

Ziyoviddin Mansur ijodidagi mavzularning ko'lamini kengligi, ixcham va sodda yozilganligi, ayniqsa hayotiyligi kitobxonni o'ziga jalb qiladi. Shoirning so'zamolligi, hozirjavoblighi va betakror iste'dodi kichik she'rlarga sig'maydi. Shuning uchun u doston janrida ko'proq ijod qilgan deb o'ylayman.

„Shom va tong“ dostoni mustaqillikka erishish ostonasidagi tarixiy voqealarni bayon qiladi. Shom bu - sobiq Ittifoq davri, tong - mustaqillikka erishgan payt. Juda chiroyli o'xshatish qilingan, to'g'rimi?! Doston o'sha davrda bo'lgan voqealarni yosh kitobxonga yetkazadi. Bu voqealar kelajak avlod uchun afsonaga, ertakka o'xshab tuyilishini, lekin bu haqiqat ekanligini, istiqbolga erishish oson bo'lmaganini, uning qadriga yetish kerakligini uqtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ziyovuddin Mansur, To'tiyo, Toshkent, „Sharq“ – 2008.
2. Ziyovuddin Mansur, Quyosh hayqiriqlari, Toshkent, „Sharq“ – 2019.
3. Erkin Xudoyberdiyev, Adabiyotshunoslikka kirish, Toshkent, „Sharq“ – 2008.
4. To'xta Boboyev, Adabiyotshunoslikka asoslari, Toshkent, „O'zbekiston“ – 2002.



*Nozima Ochilova,
Buxoro davlat universiteti,
Adabiyotshunoslik (o'zbek) mutaxassisligi
1-bosqich magistranti*

TABIATGA OSHUFTA QALB EGASI

Bolalar adabiyotiga o'zining sezilarli hissasini qo'shgan Anvar Obidjon bolalarning nozikkina qalbini tushunib, uni his etgan holda nafis she'r va hikoyalar yaratdi. U turli buyumlar, jonivorlar, o'simliklar olamini yosh kitobxonga sirdosh etib, ular orqali tabiatga mehr uyg'otish maqsadini namoyon etdi. Adibning ijod namunalari sodda va samimiyligi, shu bilan birga mantiqning kuchliligi bilan nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham adabiyotga qiziqishga undaydi. Ayniqsa, uning tabiat hodisalarini tasvirlash mahorati bolalarni she'riyatga qiziqishga ham yo'naltiradi. Har bir o'xshatish yoki taqlid uning she'rlaridagi jozibadorlik va mazmundorlikni yanada boyitishga xizmat qiladi.

Anvar Obidjon ijodi serqirraligi tufayli hamisha hayotiy mavzularga bog'lanib turadi. Fikrlarimizni shoir she'rlari tahlili asosida yoritishga harakat qilamiz.

"Irmoq qo'shig'i" she'rida tabiat tasviri mahorat bilan ifoda etilgan:

Toshdan-toshga sakrab keldim,
Shildir-shildir.
Ariqlarni yalab keldim,
Shildir-shildir.

Qitiqlayman tomirlarni,
Shildir-shildir.
Qo'msayman O'sh, Shopirlarni,
Shildir-shildir.

Ushbu she'rda bolaning ko'z oldida toshdan-toshga urilib o'tayotgan irmoq gavdalanadi. Adib irmoq orqali Ona vatanimizning go'zalligini, Yurt sog'inchini aks ettirgan. Inson vatani bilan qayerda bo'lmasin doimo faxrlanib, uni qo'msab yashashi, uning tog'lar-u bog'lari takrorlanmas mo'jiza ekanligini bolalarga quvnoq irmoq orqali obrazli ifodalab beryapti. Shunga o'xshash yana bir she'ri "Shamol qo'shig'i" bilan tanishamiz:

Bolalarga yoqaman,
Guv-Guv.
Mevalarni qoqaman,
Duv-duv.

Ba'zi fe'lim be'mani,
Guv-guv.
Cho'ktiraman kemani,
Qiy-chuv.

Insonlar xarakteri aks ettirilgan bu she'rda mehribon, sho'x insonlar doimo atrofdagilarga quvonch baxshida eta olishi ifoda etilgan. Bu she'rning birinchi



misrasida yaqqol ko'rinib turibdi. Fe'li tor, badjahl insonlarning xarakter-xususiyatlari esa nimalarga olib kelishi shamol keltiradigan talofot orqali ifodalangan. Demak, shoir bolalarga ikki toifali insonlarni shamolning o'ziga bergan ta'rifi orqali ko'rsatib, xulosani o'zlariga yuklagan. Shu jumladan, "Chakka qo'shig'i" ga ham to'xtalib o'tsak:

Kirolmasam romingizdan,
Chakka-chuk, chakka-chuk.
Teshib tushdim tomingizdan,
Chakka-chuk, chakka-chuk.

Tomchilayman boshingizga,
Chakka-chuk, chakka-chuk.
Tegish uchun ga'shingizga,
Chakka-chuk, chakka-chuk.

Chakka orqali ba'zi insonlar yoki bolalar qay yo'l bilan bo'lmasin o'zining istaklarini amalga oshirish uchun maqsadidan qaytmasligi ko'rsatib berilgan. Bolalar ayrim paytlarda o'z istaklarini amalga oshirishni qat'iy istashadi. Hazil aralash she'r orqali maqsadga erishish yo'lida taslim bo'lmaslik, ammo ba'zida shu yo'lida kimlarnidir g'ashini keltirib qo'yish ham mumkinligini ifodalagan.

"Oymomo haqida qo'shiq" she'rida esa erkin va ozod vatanning qadriga yetish kerakligi, el uchun fidoyilik, mardlik, insonparvarlik g'oyalari Oymomo timsoli orqali ifodalagan:

Childirmasin osmonda,
Dakadung chaldi oymomo.
Ko'rganlarin olamga
Kuylab toldi oymomo.

Dastlabki satrlarda Oymomo yuksakdan turib olamni ko'ra olgan, butun olam bilan muloqot qila oladigan kuchga ega sifatida ko'rsatiladi. Albatta, Oymomoning samoda porlab turishi uning imkoniyatlarini kengaytiradi, ya'ni u butun yer yuzini bir paytning o'zida ko'ra olishi va butun olam bilan muloqot qila bilishi mumkin. Ammo butun olamni ko'ra olish imkoniyati Oymomo zimmasiga yana ko'plab vazifa va majburiyatlarni yuklaydi. U olamni ko'rib turar ekan, olamdagi ajoyibotlardan zavqlanish, bular to'g'risida o'ylab topish qatorida muammolarga birdek ham sherik bo'ladi.

Boqib so'lg'in gullarga,
Boqib so'niq dillarga.
Boqib baxtsiz ellarga,
Yig'lab oldi oymomo.

Endi olamning dardi uning qalbiga so'lg'inlik solib, yig'lab ham oladi. Shu bilan bir qatorda "kuylab toldi", "yig'lab oldi" tarzidagi qofiyalanish ham she'rga ajib bir ohangdorlik baxsh etgan. Ammo shoir o'z she'rlarida go'zallik va xunuklik, yaxshilik va yomonlik to'g'risida bir paytning o'zida so'z yuritar ekan, bolalar qalbida ezgulik g'alabasiga, yovuzlikning esa mahv bo'lishiga ishonch ruhini mustahkamlashni hamisha istaydi.

Lekin dunyo emas tor,
Gulgun, ozod yurtlar bor.



Baxtlilarga baxtiyor,
Nazar soldi oymomo.

She'r qahramoni Oymomo ham olamning ana shunday ikki qutbi borligini, ularning har biriga o'z holatiga qarab munosabatda bo'lish kerakligini anglaydi. Baxtlilarning baxtiga sherik bo'lish qatorida baxtsizlarning dardiga malham topish istagida harakat qiladigan, qalbi ezgulikka esh bo'lgan, saxovatli insonlar olami Oymomo timsolida mujassam etiladi.

Gohi cho'mdi sukutga,
Gohi to'ldi umidga.
Yotib oxir bulutga,
Uxlab qoldi oymomo.

Sukutga cho'mgan, umidga to'lgan Oymomo goho xushnud, goho ma'yus insonning umumlashma badiiy timsolidir. Bunday insonlar faqat o'z tashvishi bilan yashamaydi, balki o'zgalarni ham o'ylaydi. O'zgalar qiyinchiliklari bilan og'rinadi, quvonchi bilan yayraydi. Demakki, olamni ana shunday saxovatpesha insonlarning iliq tafti isitadi, yoritadi.

Ona vatanimiz ozodlikka erishish uchun qanchadan-qancha sinovlarni boshidan o'tkazmadi. Shunga qaramay baxtli yashashga intilgan xalq har narsadan go'zallik izlashga intildi. Oymomo bularning bariga guvoh bo'ldi. Inson borki, nurga intilib yashaydi. Oy nuri kechqurun hamma yoqni yoritgani singari mustaqillik ham insonlar qalbini nurga to'ldirdi.

Anvar Obidjon qalamiga mansub juda ko'p she'rlar yuqoridagilarga o'xshab purma'no va hazil-mutoyibaga boy. Uning bolajonligi esa xalqimizning qalbi, xarakter-xususiyati ifodasidir. Adib fikrlarini jonli va ramziy tasvir-u ifodalarda singdirishga intiladi. Bizga ma'lumki, bolalar doimo kattalarga ergashadi. Ularga taqlid qiladi. Shunday ekan, bolalar uchun yozuvchi-ijodkorlar zimmasida boshqalardan ko'ra og'irroq, jiddiyoq, yuksak ma'suliyat yuklanadi. Shu ma'suliyat va sharaflari majburiyatni chuqur his qiladigan bolalar yozuvchilari, hatto har bir so'z yoki iborani ehtiyotkorlik bilan ishlatadilar. Demak, Anvar Obidjon bolalar adabiyotida o'ziga xos maktab yaratgan shoirlardan biri desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Uning asarlari xalqchil, tili sodda, qahramonlari insonparvar, bag'rikeng, hazilkash bolalar. Shu tufayli shoir bolalar ko'ngliga osongina yo'l topa oldi. Adabiyotning asosiy materiali – inson. Inson tabiatning, borliqning turli-tuman jihatlarini o'rganib, ular orqali fikr doirasi kengayadi, sayqallanib bir qolipga joylashadi. Yozuvchi Said Ahmad ta'kidlaganidek: "Anvarjon yozgan asarlar maza qilib o'qishdan boshqa narsaga yaramaydi". Shunday ekan, Anvar Obidjonning o'zbek bolalar ravnaqida o'z o'rni va ovozi bor.

Adabiyotlar:

1. Anvar Obidjon Juda qiziq voqea. – T: "Yulduzcha", 1987.
2. Anvar Obidjon Masxaraboz bola. – T: Yosh gvardiya, 1986.
3. Said Ahmad Yo'qotganlarim va topganlarim. – T: Sano-standart, 2014.
4. Anvar Obidjon asarlari. Internet sayti: @kitoblar_apk.



SINTAGMATIK MUNOSABAT

Annotatsiya. Ushbu maqolada sintagmatik munosabatning turlari haqida ma'lumotlar berib borilgan.

Kalit so'zlar. Sintagmatik munosabat, teng munosabat, tobe munosabat, so'z shakli, sintaktik aloqa.

Annotation. This article provides information about the types of syntagmatic relations.

Key words. syntagmatic relationship, equal relationship, subordinate relationship, word form, syntactic relationship.

Аннотация. В данной статье представлена информация о типах синтагматических отношений.

Ключевые слова. синтагматическая связь, равноправная связь, подчинительная связь, словоформа, синтаксическая связь.

Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi.

Sintaktik birlik til tizmasi tarkibida yuqori sath birligi sifatida shakl va mazmun birligidan tashkil topgan bir butunlik ekan, sintaktik birliklar o'rtasida sintagmatik munosabat ham ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: a) shakliy sintagmatik munosabat; b) mazmuniy sintagmatik munosabat.

Shakliy sintagmatik munosabat

Ma'lum sintaktik shaklning (gap bo'lagi shaklining) boshda sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakliy sintagmatik munosabat sanaladi.

An'anaviy tilshunoslikda «sintaktik munosabat» va «sintaktik aloqa» terminlari farqlanadi. «Sintaktik munosabat» termini sintaktik birliklar o'rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni, sintaktik aloqa termini esa shakliy sintagmatik munosabatning ifoda tomonini bildiradi(1:17).

Har qanday shakliy sintagmatik munosabat ma'lum mazmuniy sintagmatik munosabatni ifodalaydi va bu ikki munosabat birligi shakl va mazmun dialektikasini aks ettiradi. Masalan, ega va kesimning shakliy munosabatidan tashkil topgan *men keldim* sintaktik qurilmasi subyekt va predikatning mazmuniy munosabatini ifoda qiladi.

Shakliy sintagmatik munosabat ikki xil bo'ladi:

a) teng munosabat (tenglanish); b) tobe munosabat (tobelanish).

O'zaro teng (bir xil) vaziyatdagi sintaktik shakllar munosabati teng munosabat hisoblanadi.

Teng munosabatdagi sintaktik birliklar ko'pincha bir xil grammatik shaklda, bir xil sintaktik vaziyatda turadi va bir xil so'roqqa javob bo'ladi.

O'zaro teng munosabatda bo'lgan sintaktik shakllar boshqa bir umumiy siitaktik shakl bilan tobe munosabatda bo'ladi.

A. M. Peshkovskiy fikricha, Salim, Karim, Halim kelishdi kabi qurilmalarda Salim, Karim, Halim bo'laklari bitta keldi bo'lagi ustidan hokimlik qilishi tufayli



o'zaro bog'lanadi. Aslida esa uyushiq bo'laklar o'rtasida shakliy bog'lanish yo'q, ular birgalikda keldi bo'lagi bilan aloqaga kirishadi[4:48].

T. Lomtev uyushiq bo'laklar o'rtasida mazmuniy munosabat mavjudligini e'tirof etadi. Uning ta'kidlashicha, uyushiq bo'laklar o'rtasida shakliy munosabatning yo'qligi bu so'zlar orqali ifodalangan predmetlar o'rtasida munosabatning yo'qligini bildirmaydi[3:51]. Predmetlar o'rtasida munosabat bor: bu munosabat uyushiq bo'laklar orqali ifodalangan predmetlarning birlik holatdagi munosabatidir. Uyushiqlik munosabati ifodalanmish munosabatini aks ettirganligi tufayli unga so'z shakllari o'rtasidagi aloqa turi sifatida qaralishi mumkin emas[2:49]. Lekin uyushiq bo'laklar bir xil vaziyatdagi sintaktik birliklarning shakliy jihatdan ma'lum bog'lovchi vositalar (teng bog'lovchilar va sanash ohangi) yordamida bog'lanishi **bo'lganligi sababli, ular** o'rtasidagi shakliy sintagmatik **munosabatni inkor qilib** bo'lmaydi.

Biri tobe, ikinchisi hokim vaziyatdagi sintaktik shakllar munosabati **tobe munosabat** hisoblanadi. Bunday munosabatda tobe vaziyatdagi siitaktik shakl hokim vaziyatdagi sintaktik shaklning «bo'sh o'rinlari»ni to'ldiradi, uning shakliy va mazmuniy valentliklarini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun ham bunday munosabat doimo ikki qismdan — tobe va hokim qismdan iborat bo'ladi. Masalan, **moviy osmon**.

Shakliy sintagmatik munosabat ma'lum bog'lovchi vositalar yordamida ro'yobga chiqadi. Bunday vositalar an'anaga ko'ra sintaktik aloqa vositalari hisoblanadi.

O'zbek tilining qonun-qoidalari asosida ma'lum bir so'z yoki so'zlar guruhini bog'li nutqning mustaqil (sodda, qo'shma gaplar va matn) va nomustaqil (gap bo'lagi va so'z birikmasi) xususiyatga ega bo'lgan birligi sifatida shakllantiruvchi va ularni bog'lovchi vositalar sintaktik aloqa vositalari sanaladi. Ular quyidagilardan iborat: a) kelishik, egalik shakllari; b) yordamchi so'zlar; v) ayrim holatlarda mustaqil so'zlar, asosan, olmoshlar; g) gap va matnda gap bo'laklarining yoki boshqa qismlarning tartibi; d) ohang[1:77].

So'z **shakli**. So'zlarning o'zgarish paradigmasidagi so'z o'zgartiruvchi vositalar (kelishik va egalik shakllari) bog'li nutqda mustaqil so'zlarni o'zaro siitaktik aloqaga kirituvchi vositalar sanaladi. O'zgarish paradigmasidan sintaktik aloqa xarakteriga muvofiq keladigan aniq bir shaklini qo'llash yordamidagina maqsadimizga mos ma'noni bera olamiz va gapni grammatik jihatdan o'zbek adabiy tili me'yoriga muvofiq ravishda to'g'ri qo'llay olamiz. Solishtiring: **Akamga kitob oldim — Akamdan kitob oldim**. Akam so'zining kelishik paradigmasidan (akam, akamning, akamni, akamga, akamda, akamdan) maqsadimizga muvofiq bittasini tanlashimiz ma'no farqlash uchun xizmat qiladi. Birinchisida maqsad kitobni kim uchun olganligini ifodalash bo'lganligi uchun **aka** so'zining kelishik paradigmasidan atash semasiga ega bo'lgan jo'nalish shaklini, ikkinchisida esa maqsad kitobni kimdan olganligining ifodasi bo'lganligi uchun kelishik paradigmasidan chiqish semasiga ega bo'lgan chiqish kelishigi shaklini tanlagan. Yoki uzum so'zining kelishik paradigmasidan (uzum, uzumning, uzumni, uzumga, uzumda, uzumdan) so'zlovchi o'z maqsadiga muvofiq ravishda bittasini tanlaydi. Solishtiring: uzum **ye** (umuman uzum), uzumni **ye** (aniq, oldidagi, ma'lum bir navdagi uzum), uzumdan **ye** (hammasini emas, uning bir qismini).

So'z o'zgarish paradigmasidan o'zimizga zarur bir shaklini tanlashimiz so'zlarning o'zaro bog'lanish qonun-qoidasiga muvofiq (boshqaruv, moslashuv yoki bitishuv) amalga oshiriladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramov Sh.. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol[WpM] valentlik aspektida. NDA. T.1997-yil.
2. Hojiyev A. O'zbek tilida forma yasalishi. -T., 1977. 105-b.; Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. - T., 2006. 77-b.
3. Ломтев Т. П. Структура предложения в современном русском языке. - М., 1979, с. 49.
4. Ломтев Т. П. Структура предложения в современном русском языке. - М., 1979, с. 51.
5. Пешковский А.М. Русский синтаксис в научном освещении. -М.: Наука, 1948. с.-48.

YULDASHEVA MUNOJAT HAKIMBEKOVNA
NamDU, 1-kurs magistri

O'ZBEK TILIDAGI OMONIMLARNING NUTQDA ISHLATILISHI

Annotatsiya: ishda omonimlarga xos uslubiy xususiyatlar yoritilgan

Kalit so'zlar: omonimlar, so'z, og'zaki nutq, publitsistik uslub, badiiy uslub.

Аннотация: в статье подчеркиваются стилистические особенности омонимов

Ключевые слова: омонимы, слова, устная речь, публицистический стиль, художественный стиль.

Annotation: the article expresses specific characteristics of homonyms

Key words: homonyms, words, oral speech, publicist style, artistic style

Mavjud adabiyotlarda omonimlar omograflar, omoformalar, omofonlar deb ajratiladi. «O'zbek tili stilistikasi»da esa to'rt turga ajratiladi. Uslubiy jihatdan omofonlar va omograflar jiddiy ahamiyatga ega emas: ular to'g'ri yozilsa va to'g'ri o'qilsa bo'lgani. Ammo omoformalar (qaysi turkumga mansubligidan qat'iy nazar) maxsus uslubiy vosita sifatida badiiy ijodda, askiya va turli so'z o'yinlarida alohida ahamiyatga ega.

Og'zaki nutqda yoki axborot xarakteridagi ishlarda omonimning muayyan nutq paytidagi birgina ma'nosi nazarda tutiladi. Masalan, «yer tayg'anchiq» iborasida «yer» so'zining «yemoq» so'zi bilan omonim ekanini hech kim o'ylab o'tirmaydi. Lekin badiiy ijodda **bunday so'zlarning turlicha ma'nolari** ma'lum bir maqsadga bo'ysundiriladi.

Omonimlardan foydalanish oddiy so'z o'yini yoki shoirning «o'z talantini ko'rsatishi» bo'lmay, balki uning zaminida so'zni to'g'ri ishlatish, uning ma'nosini to'g'ri tushunishga da'vat etish mazmuni yashiringan.

Publitsistik uslubda so'z tanlashga alohida e'tibor beriladi. Tanlangan so'z voqelikni aniq ifoda etishga, tinglovchida ma'lum bir his-tuyg'u, davrning aktual masalasiga faol munosabat uyg'otishga ko'maklashadi. Publitsist o'z fikr-mulohazalari, ijtimoiy hayotga munosabatini yanada jonliroq ifoda etish uchun barcha nutq stiliga oid bo'lgan so'z-terminlar, ekspressiv ottenka tashuvchi formalar, badiiy uslubga xos tuzilmalar-tasvir vositalari va boshqalardan unumli foydalanadi va shunday qilib



o'quvchi qalbiga kirib boradi, uni o'z ta'siriga oladi.

Ma'lumki, o'zbek mumtoz she'riyatida tuyuq janrining yetakchi badiiy vositasi omonimlardir.

Tuyuqlarda birinchi misrada bayon qilingan fikr masalaning qo'yilishi bo'lib, ikkinchi misrada bu fikr rivojlantiriladi, mustahkamlanadi, bo'rttiriladi: uchinchi, to'rtinchi misrada esa avvalgi baytning natijasi sifatida xulosa chiqarilib, shoirning subyektiv munosabatlari, mulohazalari, nozik hissiy kechinmalari aks etadi. Bunda oxirgi misradagi omonim (uning ma'nosi) alohida ahamiyat kasb etadi.

Masalan:

Olmani sundi nigorim – **ol!** – dedi,

Olma birla bu ko'ngilni **ol!** – dedi.

So'rdim ersa olmasining rangini,

Ne so'rarsan, olma rangi – **ol!** – dedi(A.N.)

Tig'i ishqing yorasidir **butmagan**

Dardini har kimga aytib **butmagan**.

Hajr sahrosida ohim o'tidin

Onda gul yoxud giyohe **butmagan** (A.N.)

Omonimlar boshqa she'riy san'atlarda qofiyaning bir vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, masnaviy janrida yozilgan she'riy asarlarda misralar omonim bilan qofiyalanadi:

Bo'ying sarvu sanuvbarteg, beling **qil**,

Vafo qilg'on kishilarga vafo **qil**.(X.).

Tuyuqlar so'z va yordamchi so'z+so'z formasidagi omonim (shartli omofon) bilan qofiyalanishi mumkin:

La'lidin jonimga o'tlar **yoqilur**,

Qoshi qaddimni javodin **yo qilur**.

Men vafosiz va'dasidin shodmen,

Ul vafo bilmonki qilmas, **yo qilur**.

Dilbarimning sochi sumbul, yuzlari **gulzor erur**,

Bo'yina oshiq sanavbar, yuziga **gul zor erur**(S.S.).

Bundan tashqari, muayyan so'zning omonimik xususiyatini hisobga olib yaratiladigan Lutf san'ati ham mavjudki, bunda bir so'z orqali ikki so'zning ma'nosi o'qila beradi:

Kun tushta ko'rgali seni tushti zavolga,

Oy tong'a qoldi, kecha boqib ul jamolga. (L.).

Birinchi misraning mazmuni: 1. Tush payti, kun seni ko'rish uchun pastga tushdi.

2. Kun seni tezroq tushida ko'rmoq uchun shoshildi-ko'z yumdi-uyquga ketdi-botdi.

Ikkinchi misraning mazmuni: 1. Oy kechasi uning jamolini ko'rib, bunday go'zallikka hayron bo'lib qoldi-tang ahvolga tushdi:

2. Oy kechasi ul go'zal jamolini ko'rib, hayratdan tong otguncha unga boqib qoldi. (termilib chiqdi)

Omonimlardan askiya janrida ham keng foydalaniladi. Chunki askiyada so'zning yo ko'chma ma'nosi yoki omonimlik xususiyati hisobga olinadi:

- Turing, dadasi,... do'konga **mol** kepti.



- A? Nima deding? Ola **molmi**, qora **molmi**? (H. T.)
Ko'rinadiki, omonimlar muhim uslubiy vositalardan sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

10. Mamatov A. E. Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi. – Toshkent: Bayoz, 2014, 5-bet.
11. Xolmonova Z. Tilshunoshlik nazariyasi. – Toshkent, 2019. 3-bet
12. Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: o'qituvchi, 1983, 115-bet.
13. Enazarov T. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2017. 41-bet.

YULDASHEVA NOZIMA SOLIJONOVNA
NamDU 1-kurs magistri

SINONIMLAR VA ANTONIMLAR USLUBIYATI

Annotatsiya: maqolada sinonim va antonimlarga xos uslubiy xususiyatlar yoritilgan

Kalit so'zlar: so'z, sinonim, antonim, ma'no, uslub, xususiyat

Аннотация: в статье описаны методические особенности, характерные для синонимов и антонимов.

Ключевые слова: слово, синоним, антоним, значение, стиль, характеристика

Annotation: the article describes the methodological features specific to synonyms and antonyms.

Key words: word, synonym, antonym, meaning, style, feature

Til jamiyat uchun xizmat qiladi, jamiyat a'zolari muloqotini ta'minlaydi. Sinonimlar va antonimlar muloqot jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Sinonimlar ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar bo'lib, o'zaro nozik ottenka bilan farqlanib turadi. Shuning uchun ham ayrim hollarda ularning biri o'rnida ikkinchisini qo'llash ma'noga kuchli ta'sir etmaydi, ammo ayrim hollarda bunday almashtirish mumkin emas. Masalan, boshiga urdi-kallasiga urdi, deyish mumkin bo'lgani holda «boshim osmonga yetdi» ni «kallam osmonga yetdi» deb qo'llab bo'lmaydi.

Bir qator sinonimlar o'rtasidagi farq sezilmas holga kelib qolganki, buni aniqlash, tushunish va tasavvur etish hamisha mumkin bo'la bermaydi

Masalan, **isqirt, irkit, isliqi, iqna; majol, mador, hol; bo'ron, dovul; ishq, sevgi, muhabbat; asal, bol; totli, mazali** kabilarning nozik ma'no ottenkalarini izohlash kimlar uchundir qiyin.

Sinonimlar nutqni ravon qiladi, voqea-hodisalarni nozik nuqtalarigacha aniq va mufassal ifodalash imkonini beradi, shuning uchun ham sinonimlar va ulardan to'g'ri, o'z o'rnida foydalanish stilistikaning bosh masalasidir. Stilist sinonimlar o'rtasidagi ottenkani aniq ochib berishga intilishi lozim.



Sinonimik qatorni tashkil etuvchi soʻzlar maʼnosi va qoʻllanishiga koʻra oʻzaro farq qilishi mumkin. Masalan, **oraz, chehra, jamol, sabo, tabassum, dudoq, kokil** kabi soʻzlar, asosan, poetik (badiiy) nutqqa xosligi bilan; **xasta, betob** kabilar eskirganligi va jonli nutqda, **bemor** soʻzi badiiy nutqda koʻp ishlatishi bilan ajralib turadi.

Sinonim soʻzlarning bir guruhi salbiy yoki ijobiy munosabat bildiradi: ular jonli soʻzlashuv va badiiy uslubda munosabat ifodalashga xizmat qiladi: **chehra, jamol** soʻzlari ijobiy; **aft, bashara** soʻzlari salbiy munosabat ifodalaydi, **diydor** soʻzi esa qanday soʻz bilan birikishiga koʻra ham ijobiy (diydoriga toʻymoq) ham salbiy (diydoring qursin) munosabat ifodalashi mumkin.

Sinonimlar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) soʻzlovchining shaxs, predmet va voqelikka munosabatini qoʻshimcha izohsiz aks ettiradi;

b) nutqni ravon, jozibali, taʼsirchan qiladi;

v) voqelikning nafis nuqtalarigacha (nozik ottenkalar) ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi;

g) gap ichida oʻrinsiz takrorga chek qoʻyadi (aks ettiradi, tasvirlaydi, bayon qiladi, ifodalaydi kabi);

d) juftlashib kelganda maʼnoni kuchaytiradi, umumlashtiradi;

ye) biri ikkinchisiga aniqlovchi boʻlib kelib, fikrni obrazli ifodalaydi: Saida damodam iljayib kulayotibdi, (A.Q.);

yo) birini ikkinchisiga zid qoʻyish orqali vaziyatni yumshatishga intilishni koʻrsatadi: Bunisi oq mum ... shimisa ham boʻladi, chaynasa ham boʻladi. (A.Q.);

Baʼzan esa bunday zid qoʻyish orqali maʼno kuchaytiriladi: Yigʻlatti meni demaki, siqtatti meni. (N.);

j) ikki sintaktik butunlik tarkibida qoʻllanib, biri ikkinchisining maʼnosini xarakterlaydi, aniqlaydi, ajratadi: ... yana kuldi, yosh boladay oʻzini tutolmay qiqirlar edi. (A.Q.)

Alisher Navoiy «Muhokamatul-lugʻatayn» asarida sinonimlar, ularning qoʻllanishi va maʼnodagi farqlarini oʻz vaqtida juda keng va aniq bayon qilib berganki, bu zamonlar osha ham oʻz qiymatini yoʻqotmay kelmoqda.

Antonimlar (gr. anti-qarshi va onuma-nom) qarama - qarshi maʼnoli soʻzlar boʻlib, biri ikkinchisini inkor etadi, lekin bu inkor yangi tushuncha bilan bogʻliq boʻladi. Bu tushuncha esa voqea-hodisalarda tabiiy manfiy va musbat tomonlarning mavjudligini hamda ularning oʻzaro nisbiy aloqadorligini aks ettiradi. Masalan: katta borligi uchun kichik bor, keng borligi uchun tor bor, kecha borligi uchun kunduz bor, yaxshi borligi uchun yomon bor, demak, antonim qarama-qarshi ikki qutbdir.

Antonimdagi inkor umuman inkor etish emas, biror narsa-hodisaning qarshi tomoni (ikki argumentdan biri) ni tasdiqlash orqali inkor etishdir. Masalan: «**uzun**» soʻzining inkori «**kalta**» («qisqa»)dir. Lekin bu antonimlik inkordir. Uni «uzun emas» deb inkor etish ham mumkin, lekin bunda «uzun»lik inkor etilsa ham, «kalta»lik tasdiqlanmaydi. Shu sababli «uzun» va «uzun emas» antonim boʻla olmaydi.

Antonim tushunchasi antonim soʻzlarining birga (juft) kelishi yoki bir gap tarkibida qoʻllanishi bilan bogʻliq. Ayrim gap tarkibida qoʻllangan antonim fikr ifodasidagi zarur soʻz sifatida xizmat qiladi, xolos. Masalan, Uzoq yoʻl bosib keldi, gapida antonim yoʻq, uzoq soʻzi shu gapda tasvir uchun zarur boʻlgan xolos.



Matniy antonimlar deb yuritiluvchi hodisalar mohiyat e'tibori bilan antonim emas, masalan, iliqlik qarash qildi - yov qarash qildi kabilarda antonimik munosabat aks etsa ham, bu yerda hech qanday antonim yo'q. Demak, leksik jihatdan so'zlar ayrim olinganda bir-birini tasdiqlash yo'li bilan inkor etsagina antonim bo'la oladi.

Antonimlar fikrni lo'nda, aniq va ta'sirli ifodalashda, badiiy tasvirda turli usullarni qo'llashda muhim uslubiy vositadir. Ular so'zlashuv, badiiy va publitsistik uslubda keng qo'llanadi, rasmiy-ish va ilmiy uslubda esa kam ishlatiladi.

Antonimlarning uslubiy xususiyatlari quyidagicha:

a) narsa-hodisalarni umumlashtiradi, jamlaydi (juft holda), bu juftlik ifodalagan mazmun-tushunchani boshqa so'z, ibora, gap bilan berish mutlaqo mumkin emas. Majlisga **katta-yu kichik** to'plandi. Mana shu umumlashtirish orqali fikr kuchli, ta'sirli va obrazli ifodalanadi;

b) antonimik juftlikdan foydalanib, birining ma'nosi kuchaytiriladi, alohida ta'kidlanadi, tinglovchiga ta'sir etiladi. Kuchaytirish ko'pincha keyingisiga nisbatan bo'ladi: **yuraging yumshoq, irodang qattiq**;

v) real voqelikni tasviriy ifodalashga xizmat qiladi: Saida goh boshqalardan **oldin**, goh boshqalardan **keyin** boychechak aytar edi. (A.Q.) **Tashqarisi** boshqa-yu, **ichi** boshqa (A.Q.) – kontrast, antiteza hodisasi; «Sevimli yozuvchimiz Oybek antonimlarning bu xususiyatidan juda ustalik bilan foydalangan».

g) ma'noni bo'rttiradi, vaziyatning oxirgi chegara-imkoniyat darajasida ekanini ko'rsatadi: Qalandarov kechani **kecha**, kunduzni **kunduz** demay, o'z ishiga juda qattiq yopishdi. (A.Q.)

Nutqda sinonimlar va antonimlardan o'ylab va o'rinli foydalanish zarur, aks holda fikriy xiralik, chalkashlik kelib chiqadi. Agar sinonimlar va antonimlar nutqda o'rinli foydalanilsa, nutqiy ta'sirchanlikka erishiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mamatov A. E. Tilning eng muhim 100 ta funksiyasi. – Toshkent: Bayoz, 2014, 5-bet.
- 2.Xolmonova Z. Tilshunoshlik nazariyasi. – Toshkent, 2019. 3-bet
- 3.Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: o'qituvchi, 1983, 115-bet.
- 4.Enazarov T. Nutq madaniyati. – Toshkent, 2017. 41-bet.





GRADUONIMIYA HODISASI

Annotatsiya: Ushbu maqolada graduonimiya hodisasi qanday so'zlar qatorida uchrashi, sinonimik qatorlarda graduonimiya hodisasi haqida fikrlar berildi. Sinonimiya va graduonimiyaning o'xhashsligi va farqliligi misollar orqali ko'rib chiqildi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, sinonimik qator, semema, leksema

Abstract: In this article, the phenomenon of graduonymy occurs in the series of words, opinions about the phenomenon of graduonymy in synonymous lines were given. Similarities and differences of synonymy and graduonymy were considered through examples.

Key words: graduonymy, synonymous series, sememe, lexeme

Аннотация: В данной статье рассматривается явление градуонимии в синонимичных строках. На примерах рассмотрены сходства и различия синонимии и градуонимии.

Ключевые слова. Градуонимия, синонимичная строка, семема, лексема.

Ma'lumki, graduonimiya leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishidir. Bunday darajalanish oppozitsiyaning (zidlanishning) bir turi deb qaraladi va shu qatordagi bosh so'zga nisbatan belgilanadi. Masalan: «yosh» belgisiga ko'ra (bosh so'z ajratib ko'rsatilgan): buzoq-g'unajin-sigir; qiz-juvon-ayol, «belgi»dagi darajalanish asosida: chiroyli-suluv-ko'rkam-zebo; «siljish sur'ati» belgisiga ko'ra: yurmoq-chopmoq-yugurmoq-yelmoq kabi.

Graduonimiya hodisasini o'z vaqtida Alisher Navoiy ham payqagan va uni turkiy (o'zbek) tilining boylik ko'rsatkichlaridan biri sifatida izohlagan edi. U o'zining «Muhokamatul-lug'atayn» asarida «yig'lamoq» ma'noli so'zlar guruhini ayni shu darajalanish aspektida talqin qiladi: yig'lamsinmoq-ingramoq-singramoq-o'kurmoq-hoy-hoy yig'lamoq kabi. Demak, Alisher Navoiyni shu hodisaning ilk tadqiqotchisi desak bo'ladi.

Leksemalarning ma'no munosabatlarida darajalanish hodisasining o'rganilishi ko'p jihatdan ahamiyatlidir: lug'at boyligining tizim sifatidagi tavsifini berishda, sinonimlar va antonimlar lug'atini tuzishda, lug'aviy birliklarning uslubiy vosita (stilistik figura) sifatidagi qiymatini belgilashda graduonimik tadqiqotlar natijasidan foydalanish mumkin.

Lug'aviy birliklar o'zaro ma'noviy munosabatiga ko'ra ma'lum darajalanish qatorini hosil etishi fanga qadimdan ma'lum bo'lib, uning eng yorqin namunasi- o'rta so'zini o'z ichiga olgan so'zlar qatoridir:

Masalan:

Katta- o'rta – kichik

Yosh – o'rta – qari

Uzoq – o'rta – yaqin



Baland- o'rta- past

Uzun- o'rta- qisqa

Ma'lumki, o'rta so'zi bilan ifodalangan belgi- xususiyat tom ma'noda o'rtalik, oraliq, ya'ni ikki bir- biriga zid belgi oralig'idagi holatni ko'rsatadi. O'rta leksemasi antonimlar oralig'idan o'rin olsa, katta- o'rta – kichik darajalanishi kam seziladi. Lekin o'rta leksemasi birliklarni zid belgi asosida emas, ma'lum bir belgining kamayishi yoki o'sishi asosida idrok etilsa, ma'noviy darajalanish yaqqol anglashiladi.

Graduonimik lug'aviy qatorni ajratishning lisoniy omili quyidagilar:

a) ma'noviy omil; b) so'zlararo paradigmatik munosabat. Graduonimik qatorni ajratishdagi ma'noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememsida ma'lum bir belgining oz- ko'pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, darcha- eshik- darvoza leksemasining "O'zbek tili izohli lug'ati" dagi izohini kuzataylik: 1. Darcha- ilgari vaqtlarda deraza vazifasini o'tagan bir yoki qo'sh devorga o'rnatilgan kichkina eshikcha (O'TIL, I, 212)

2. Eshik- uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o'rnatilgan ochib- yopib turiladigan moslama (O'TIL, II, 457).

3. Darvoza- hovli, qo'rg'on, qal'a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib- yopiladigan katta eshik, qopqa (O'TIL, I, 209). [1. 165]

Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo'yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo'lib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida yuz- bet - aft - bashara- turq qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Ma'nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil : " odam boshi old tomoni", "peshonadan iyyakkacha". Ammo ifoda semalari har bir leksemada o'ziga xos . Aniqrog'i, "Shaxsiy munosabat" har bir leksemada boshqa - boshqa namoyon bo'lgan. U yuz leksemasida "shaxsiy betaraf munosabat" ko'rinishida bo'lsa, turq leksemasida " o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat" tarzida .

Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar: 1) ijobiy yoki salbiy baho yohud munosabat semasi;

2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: " eskirgan", " o'ta yangi", " arxaik", "tarixiy"; 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: "shevaga xos", "so'zlashuvga xos", "kitobiy", " ko'tarinkilik" va h.k. [1. 161]

Yuqorida sinoninima va graduonimiyaga ta'rif berib o'tildi. Quyida biz sinonimlik qatorda graduonimiyaning namoyon bo'lishini ko'rib chiqamiz:

Ajablanmoq-taajjublanmoq-hayron bo'lmoq-hayratlanmoq. Tushunolmay, bilolmay hayron holatda bo'lmoq. Ajablanmoq so'zida hayronlikka nisbatan qiziqish kuchliroq bo'ladi. Hayron bo'lmoq so'zida es, aksincha, hayronlik holati kuchli bo'ladi. Hayrtalanmoq so'zida belgi darajasi yana ham kuchliroq bo'ladi. [2. 15]; Aniq-ochiq-yaqqol-ravshan-yorqin-oydin-ayon. Eshitish, ko'rish , tushunish jihatdan yaxshi , to'la ifodali. Aniq eshitish, tushunish va ko'rish jihatdan yaxshi ma'nosini ifodalash uchun qo'llanaveradi. Ochiq tushunish jihatdan yaxshi ma'nosini bildiradi. Yaqqol ko'proq ko'rish va eshitish jihatdan bo'lgan belgiga nisbatan qo'llanadi. Ravshan so'zida belgi draajasi kuchli va u ifodaning eshitish, ko'rish va tushunish jihatdan to'laligini bildirish uchun qo'llana oladi. Lekin bu so'z nisbatan kam uchraydi. Yorqin yozma nutqqa xos bo'lib, ko'rinish va tushunish belgisiga nisbatan qo'llanadi. Oydin ifodaning tushunish



jiyatdan yaxshi ekanini kuchliroq ottenka bilan ifodalaydi. Bu so'z ochiq so'zi bilan juft so'z holida ham qo'llanadi[2.30]; Darrov, darhol, tez, tezdan, birpasda, bir zumda, lahzaada, zumda,. Qisqa vaqt ichtida, tezlik, bilan. Darhol so'zida tezlik va qisqalik darajasi darrov, birpasda, so'zlariga nisbatan kuchliroq. Bir zumda, zumda, lahzada so'zlarida ham kuchli.[2.85]

Yuqoridagi sinonimik qatorlarda leksemalarning semalaridagi atash va vazifa semalari darjаланib borib graduonimiya hodisasini yuzaga keltirgan.

Bundan tashqari graduonimiya hodisasini sinonimlik qatordagi so'zlar va iboralar birgalikda hosil qilishini quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz:

Sevinmoq, shodlanmoq, terisiga sig'may ketmoq, do'ppisini osmonga irg'itmoq;

Achchiqlanmoq, qahrланmoq, joni chiqdi;

lymanmoq, uyalmoq, yer yorilsa kirguday bo'moq;

Toza, pokiza, yog' tushsa yalaguday;

Ajablanmoq, hayratlanmoq, ko'zi qinidan chiqib keta yozdi.

Xulosa o'rnida Odiljon Bozorovning "O'zbek tilida darjаланish" monografiyasida keltirgan quyidagi fikrlarini aytishimiz mumkin: "Lisoniy darjаланish hodisasi butun olam shakllanish qonuniyatlaridan biri bo'lgan miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga tadrijiy o'tib borishining til olamidagi in'ikosiy darjаланishi bilan bog'liqdir".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bozorov O. O'zbek tilida darjаланish. Toshkent, 1997

2. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyev, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova, Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent-2009

2. Azim Hojiyev, O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. "O'qituvchi". Toshkent-1974

6. Shavkat Rahmatullayev. O'zbek tilining frazealogik lug'ati. "O'qituvchi". Toshkent-1978

7. Rahimova, Maftuna. LEKSIK ANTONIMIYADA BELGILIK. 2022.

***Dilzodaxon ABDULLAYEVA,
Qo'qon DPI 2-bosqich talabasi***

AMIRIY IJODIDA RANG SIMVOLIKASI

Annotatsiya. Maqolada qora rang, rang zamiridagi ma'no qirralar haqida fikr yuritilgan. Amiriy ijodidan misollar keltirilgan hamda shogirdning ustози g'azaliga bitgan "qaro" radifli g'azali qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar. G'azal, ishq, qora, tashbih, jasur, yor, rang, muborak, qaro, do'stlik, muxammas, oshiq

Аннотация. В статье обсуждается значение черного цвета и значение цвета. Приведены примеры из произведений Амири и сравнительно изучена газель учителя ученика с «черным» радифом.

Ключевые слова. газель, любовь, черный, ташбих, храбрый, ёр, цвет, мубарак, дружба, мухаммас, любовь,



Annotation. The article discusses the meaning of black color and the meaning behind the color. Examples from Amiri's works are given and the ghazal of the student's teacher with a "black" radif is studied comparatively.

Key words. ghazal, love, black, tashbih, brave, yor, color, mubarak, friendship, muhammas, love,

Har bir shoir, yozuvchi borki, ijod namunalarida turli xil ranglardan foydalanadi. Ranglar zamiriga yaxshilik va yomonlik, visol va ayriliq, yoshlik va keksalik, sevgi va muhabbat, tinchlik va ahillik, do'stlik va xiyonat kabi bir qancha mazmunlarni berkitadi. Qo'qon amiri Umarxon Amiriy ijodida ham ranglar muhim ahamiyat kasb etgan. Ko'plab o'rinlarda "qora" rangga murojaat qilgan. Qora rang orqali yoshlik, muhabbat, birlik, yor ishqida yonish, ro'zgorining ahvoli, jasorat, qoralik kabi go'zal ifodalarni badiiy san'atlar qamrovida lutf etgan.

Taniqli adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul "Qora rang - muborak rang" nomli maqolasida qora rangni turli tarafdin tasniflab bergan. Rangning ahamiyati, muqaddaslik sabablari aniq tarixiy haqiqat va manbalarga tayanilgan holda ochib berilgan. "Qora rang - yoshlik ramzi. Kimning boshi qora bo'lsa - unga bu muboraklikdir. Negaki, yoshlik - elning "toju torak"i demak" [3, 46]:

Qoralik sifatleri quyidagi baytlarda go'zal ifodalagan:

Qaro xolingmudur ul la'li gulbofing uza yokim

Chibin qo'nmish, halovat istayub shakkar bila bola?[1, 306]

Bu baytda labning qirg'og'ida joylashgan xolning qaroligi tajohil ul-orif qilinadi. Ya'ni, bu qora xolmi yoki, bol va shakar axtarib qo'ngan chivinmi?

Do'ndurur iymondin, chiqmangki, ul kofir ko'rub,

Ko'z qarolori bila din ahlig'a savdo qilon.[1, 252]

Ushbu baytdako'zning qaroligi nelarga qodirligi aytilib, oshiqqlar ogohlantirilmogda go'yo. Keyingi baytimizda yorning yuzi ko'ngulni ravshanlashtirishi ammo, surmali (qora) mujgonlar qarolashtirishi tasvirlangan:

Mehri ruxsoring ko'ngulni garchi ravshan aylamish,

Ro'zgorim surmadin mujgoning aylabdur qaro.[1, 40]

"Nizomiy ta'kidiga ko'ra, dunyodagi biror-bir rang qoradan yaxshi emas. Hattoki, "Dar siyohi shukuh dorad moh" - Oy ham qorong'ulikda shukuhlidir"[3, 55]. Buni yaxshi bilgan Amiriy qora rang haqida ustoz Hazrat Navoiyning "qaro" radifli g'azaliga ergashib, tatabbu ham bitadi. G'azallar vazni bir xil: ramali musammani mahzuf. Navoiy g'azali yetti bayt, Amiriy g'azali to'qqiz baytni tashkil etadi. Amiriy g'azalida Navoiyning "anbar" qofiyasi qaytariladi, qolgan qofiyalar yangi: dilbar, lashkar, har, chodar, gavhar, Iskandar, shahpar.

Navoiyning "qaro" radifli g'azali "qora kiygan dildorning diydoridan oshiqning ko'nglida hosil bo'lgan ishtiyoq va talpinish, iztirob va sog'inch, orzu va umid kabi go'zal tuyg'ularning tarannumidan iborat." [4, 184] Amiriy g'azali ham ushbu sifatleri aks ettirgan holda, salafi bitgan mazmun ko'lamini kengaytirgan.

Dastavval, g'azallarning radifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "qaro" so'zi g'azalning asosiy o'qtomiri, negizi vazifasini bajarib, oshiq va yorning holatleri, hissiy kechinmalarini go'zal ifodalar bilan ochib bergan.

Xil'atin aylabmudur ul sho'xi siyminbar qaro,

Tun savodi birla kiygandek mahi anvar qaro.[2, 48]



Navoiy g'azalning matla'sida yorni qora kiyimda tasvirlar ekan, tun kechada porlab turgan oyga mengzaydi. Kechqurungi osmonning qoralikka burkanishi yorning ko'ylagi sababli. Qorong'ulikka cho'mgan falakni endi yorning yuzi oy o'laroq yoritadi. Amiriyning matla' bayti Navoiy baytidan farqli. Baytda yor ko'zlariga surma qo'ysa yuz beradigan ko'ngilsizliklar lutf etiladi:

*Surma tortib qilma jodu ko'zni, ey dilbar qaro,
Dinu dil yag'mo qilur, gar kirsu ul yag'mo qaro.* [1, 51]

Baytda oshiq yoriga surma qo'yib ko'zlarini qoralashtirsa, din-u dili o'zaro urush qilishi mumkinligini uqtirmoqda. Birinchi misrada qo'llangan "qaro" so'zini ikki xil ma'noda tushunishimiz mumkin. Biri "surmadan keyingi ko'zning qorayishi", yana biri "surma qo'yib chiroyni yana-da qarolashtirishi" (yomon, balo). Ikkinchi baytda din-u dil yag'mogar ko'zni (jodu ko'z surma qo'yilganidan so'ng, yag'mogarga aylandi) talashishi oqibatida urush chiqishi aks etgan. Baytda iyyom, tazod, ishtiyoq va istiora san'atlaridan foydalanilgan. Navoiy navbatdagi baytda oshiqni bolalar toshidan qorayib, kiyimlari ado bo'lib ketgan bo'lsa-da, xo'jayin xizmatidan bo'yin tovlamasdan hindulardek ishlayotganini keltiradi:

*Ul pari hindusimen men telbakim, uryon tanim,
Tifllar toshidin iynak bo'ldi sartosar qaro.* [2, 48]

Amiriy baytida "hindu" so'zidan boshqa bir aloqadorlik yasalgan:

*Husn torojig'a xat hindulari qildi hujum,
Saf chekib Rum uzra ko'rguzgan kibi lashkar qaro.* [1, 51]

"Qora rang – muborak rang" nomli maqolada ayni shu Amiriy qo'llagan "qora lashkar" birikmasi Lutfiydan quyidagi bayt orqali tushuntiriladi.

*Buzdi qaro cherik bila ko'nglum viloyatin,
Ul ko'zki, turklardek ishi talamoq emish.* [3, 47]

Olim ko'ngil viloyatini ishg'ol qilgan qora cherikmi, oq cherikmi juda chuqur ahamiyat kasb etmasligi, bu mazmunni anglash uchun sira bosh qotirmasdan, shoirona lutf tarzida ham qabul qilish mumkinligini aytar ekan, ammo sinchiklab tekshirilsa, mazmun yanada ravshanlashini qayd etadi. Ya'ni, Turklar qora rangga nisbatan favqulodda e'tibor, muqaddaslik ramzi o'laroq e'tiborda bo'lishgan. Amiriy baytida xat hindularining husn mamlakatiga yurish qilishi qora lashkarning Rum ustiga harakatlanishiga tashbeh qilinmoqda. Bundan tashqari, baytda "rum va qaro", "husn va xat" so'zlari yashirin tazodni hosil qilmoqda.

Bilamizki, mushklar qora rangda bo'lib, o'zidan xushbo'y ifor taratadi. Amiriy buning sababini shoirona lutf bilan o'quvchiga tushuntiradi:

*Chini zulfingdin dedi bir so'z sabo savdogari
Bo'ldi g'amdin ro'zgori nofayi anbar qaro.*

Ya'niki, ertalabki mayin shaboda sochlarning hidlarini, ta'riflarini nofayi anbarlarga yetkizgan. Sochning bo'yini his etgan va ta'rifini maqtovlarda eshitgan mushklarning ro'zgori qarolashdi. Baytda husni ta'lil san'ati qo'llangan. Amiriyning navbatdagi baytida ham vazifasi o'zgargan "mayin shabada" keltiriladi va bu bayt beixtiyor Navoiy matla'siga o'xshash:

*Sochi qaddi uzra tarqaldi nasimi subhdin,
Yo magar qo'ymishdurur egniga ul dilbar qaro.*

Tong shabadasi yor sochlarini qomati uzra yoydi. Sochlar qomatni shunday o'rab oldiki, xuddi egniga qora libos kiygandek bo'ldi.



“Oshiq uchun yor – uning butun jon-u jahoni, borlig’i. Diydor imkoni tug’ilganda ko’rish qobiliyatidan mahrum bo’lgan oshiqning tole yuzi so’nganligi Oy to’lganda boshqa yulduzlar qora zulmat ichra qolganiga o’xshaydi” [4, 185]:

Ashkdek oqti qaro su ko’zlarimdin hajrida,

Tong yo’q idborim, chu bo’lmishdur manga axtar qaro.[2, 48]

Navoiy baytida oshiq yor tufayli yo’q bo’lib qolgan yulduzga o’xshatilsa, Amiriyning quyidagi baytida oshiqning oh-u dudidan har tarafning qaro bo’lganligi tasvirlanadi:

Kecha ul oykim yuzin zulf ichra pinhon ayladi,

Bo’ldi ohim dudidin bu nilgun chodar qaro.

Har ikki bayt yorning hijronida ado bo’lgan oshiqlarning hissiy holatlarini reallashtirgan. Amiriy baytidagi oshiqning oh-u dudi shunchalik kuchliki, har tarafdagi ko’m-ko’klikni sarg’aytirmasdan, bira to’la kuydurub, qarolashtira oladi. Bu o’rinda mubolag’a san’atining g’uluv darajasidan foydalanilgan. Ayni shu mazmunning yanada chuqur aks etishini Mashrab ijodiga oid “O’rtar” radifli g’azalda ham ko’rishimiz mumkin.

Na qattig’ kun ekan, dilbar, visolingdin judo bo’lmoq,

Mening ohim o’tig’a bul zaminu osmon o’rtar.

Yorning diydoridan ayrilgan bechora oshiqlar. Biri yulduzlardek qorong’ulikka cho’mib oy jamolidan benasib, biri zulf ichra yashirin husnning ayrilig’ida to’rt tarafni, yana biri yer-u osmonni kuyduradi. Tatabbuning yana bir baytida holatni yanada chuqur anglatish uchun, hattoki, Iskandar oynasining ham qarolashishi lutf etiladi:

Xat chiqording, tiyra bo’ldi orazing oyinasi

Bo’ldi go’yo rang ila mir’oti Iskandar qaro.[1, 51]

Xat chiqarib, orazing yana-da tiniqlashgan edi hamki, buni ko’rgan Iskandar oynasi yorqinlikdan, go’zallikdan qorayib ketdi. Umuman olganda, “turkiylar uchun qora rang shunday ma’no va mohiyatga ega bo’lgan edi” [3, 55]

Xulosa qiladigan bo’lsak, qora rang faqat yomonliklar, aza kabi marosimlar ramzi emas. U yoshlik, tinchlik, jasur er yigitlar, ulug’lik va davlatning qudrati ramzi. Amiriy ijodida uchrovchi qora ranglar tasviri ko’pincha, oshiqning holati, yordagi ulug’lik va go’zallik, yoshlik ramzi bo’lib kelgan. Bu jihatdan ustoz Hazrat Navoiy g’azallarining zamiri boy va ma’no qirralari ham keng ekanligini ko’rishimiz mumkin. “Navoiyni o’qib o’rganish bilim kamligini sezish ham demak” [3, 55]. “Bir she’rida:

Bir paripaykar xati la’lini sharh ettim Amir,

Bu g’azalni zeri mashqidur Navoiy daftari. –

deb yozgan edi Amiriy san’atkor shoir g’azaliyotidagi yetakchi belgilarni chuqur anglagan” [1, 19]. Alloh Amiriyning umr yoshini boshqa yoshda belgilagan bo’lganda, Navoiyga izdoshligi yanada chuqurlashgan bo’lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amiriy. Devon. – T.: Tamaddun (nashrga tayyorlovchilar: Qobilova Z., Davlatov O., Madaminov A., Ergashev O.). 2017.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami III tom. – Xazoyin ul maoniy, G’aroyib us-sig’ar. T.: 1988.
3. Ibrohim Haqqul. Zanjirband she’r qoshida. – T.: Tafakkur tomchilari, 2021.
4. O.Davlatov. Ma’nolar xazinasi, 1-kitob. – T.: Tamaddun, 2021.



O'ZBEK ADABIYOTIDA MUHABBAT, ISHQ MAVZULARINING AKS ETISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning insonga muhabbati, ishq, majoziy ishq, dunyoviy ishqning bir-biridan farqli xususiyatlari yoritilgan.

Key words: muhabbat, dunyoviy ishq, majoziy ishq, haqiqiy ishq.

Barcha xalqlar tillarida “muhabbat” tushunchasi murakkab va keng o'rganilgan. Muhabbat- Hazrati insonga xos bo'lgan eng aziz va olijanob tuyg'u bo'lib, u azaliy va abadiydir. Muhabbat- ko'p qirrali hissiyot bo'lib, ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi muhabbat, vatanga bo'lgan muhabbat, insonning u yoki bu voqeaga, narsaga, hodisalarga munosabatini bildiruvchi tuyg'udir. Muhabbatning eng oliy darajadagi ko'rinishi bu erkak va ayol o'rtasidagi sevgi-muhabbatdir. Shuning uchun ham inson yaratilibdiki, asrlardan- asrlarga, avlodlardan- avlodlarga, “muhabbat” atamasi xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning asosiy mavzusi bo'lib kelyapti. Jumladan, sevgi-muhabbat timsoli bo'lgan “Tohir va Zuhra”, “Chor Darvesh”, “Farhod va Shirin” dostonlarida muhabbat mavzusi keng yoritilgan. Shuningdek, yozma adabiyotda muhabbat mavzusi lirik va epik, dramatik turlarda yaratilgan asarlarda ham o'z ifodasini to'la namoyon etgan. Tasavvufiy adabiyotda ishq ikkiga bo'linadi: ishq haqiqiy va ishq majoziy. Majoziy ishq – zohiriy insoniy ishq. Haqiqiy ishq tasavvufda Xudoga bo'lgan muhabbat tarzida tushuniladi. Ayniqsa, g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy ijodida muhabbat mavzusi haqiqiy ishq va majoziy ishq tushunchalari sifatida aks etadi. Haqiqiy ishq-muhabbatni shoir “Lison ut-tayr” dostonida qushlar tilidan tasvirlab beradi. Navoiyshunos olim Sultonmurod Olim fikricha, “Tasavvufiy adabiyotning kamoloti davrlariga kelib, ishqsiz kishini odam sanamaslik darajasigacha borib yetildi. “Lison ut-tayr”da bir qush Simurg'ni izlash unga og'irlik qilishini, bu mushkul yo'lni bosib o'tish uchun sherning kuchidek quvvat bo'lishi lozimligini, o'zining esa mo'r, ya'ni chumolidek nimjonligini aytadi. Qushlarning rahnamosi – Hudhud uning bu fikrini rad etar ekan, Simurg'ni izlash ishqning ishi ekanini, oshiq bo'lmagan kishini esa odam sanab bo'lmasligini uqtiradi:

Chunki bu ish keldi beshak ishq ishi,

Kimki oshiq ermas, ul ermas kishi.

Biz ishqni, bir jinsga tegishli kishining ikkinchi jins vakiliga muhabbati, deb tushunamiz, xolos”. Alisher Navoiy o'zining “Xamsa” asarida insoniy ishq-muhabbatni “Farhod va Shirin” dostoni orqali tasvirlaydi. Asarning sakkizinchi bobida shoir dostonni yozishga nimalar sabab bo'lganini bayon etadi. Uning e'tiroficha, dostonni yozishga undagan sabablardan biri- o'zining muhabbati, sevgisi bo'lib bu ishqning alam va izzatoblari edi. Mazkur bobda shoir ko'ngil qo'ygan mahbubasining ovozi Farang (Yevropa), Xito (Qoshgar) va Chin (Xitoy) ga ham yetib borgan edi. Ya'ni g'arbda va sharqda ham ularning muhabbati oshkor bo'lgan, demoqchi edi. Shuning uchun, Navoiy Shirinni har jihatdan mukammal Farhodning muhabbatiga loyiq vafodor bo'lgan qahramon qilib yaratadi. Navoiy tasvirida u nihoyatda go'zal va bu go'zallik esa uning ruhiy dunyosi asosini tashkil qiladi. Biroq bugun tilimizda va adabiyotimizda muhabbat, ishq tushunchalariga ta'rif berishda olimlarimiz va kitobxonlarimiz o'rtasida ko'p bahsli



o'rinlar mavjud. Xususan, adabiyotshunos Sultonmurod Olim majoziy ishq tushunchasini dunyoviy ishq tushunchasi bilan bir deb tushunmaslik kerak, ular shaklan bir-biriga o'xshab ketsa ham keskin farq bor. Majoziy ishq ham amalda Xudoga ishq, faqat bunday ishqqa muhtalo oshiq Tangri taolo go'zalligini u yaratgan narsalarda ko'radi; dunyoviy ishqda esa Xudoni sevish yo'q, shuning uchun "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" o'rtasidagi muhabbatni hozirgacha adabiyotshunosligimizda keng yoyilgan majoziy ishqqa "insonning insonga muhabbati" deb qaramasligimizni uqtiradi.

Shunday ekan, bugun yosh avlodga jadidchilik davri adabiyotida yaratilgan "O'tkan kunlar"(1926), "Mehrobdon chayon"(1929) romanlarini, Hamid Olimjonning Zaynab va Omon poeamasini va boshqa lirik asarlarni tahlil qilish jarayonida dunyoviy ishq insonning insonga muhabbati tarzida tushuntirishimiz lozim bo'ladi. Bu bizning bugungi ilmiy tadqiqotimizdagi muhabbat konsepti mavzuidagi ishimizning asosini tashkil etadi. Shu jihatdan kelajakda filologik tahlil jarayonida mavzuni keng yoritib berish maqsadimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami, 20 tomlik, 8-tom – Toshkent: "Fan", 1991.
2. A.Qodiriy. O'tkan kunlar. – Toshkent: "Ilm-ziyo", 2019.
3. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, Toshkent, 1/2020.
4. M.Ahmadjonova. Tohir va Zuhra. Toshkent: Cho'lpon, 2019.

BAHRONOVA BARCHINOY BAHODIR QIZI,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Media va kommunikatsiya fakulteti,
Madaniyatlararo kommunikatsiyalarning lingvistik ta'lim yo'nalishi
2-boqich talabasi

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLISISTIKASIDA TILGA E'TIBOR MASALASI

Annotatsiya. Maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy publisistikasida tilga e'tibor masalasining yoritilishi o'rganilgan.

Kalit so'zlar. Publisistika, maqola, Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi, til masalasi, adabiy til, bilingualizm, matbuot.

Behbudiy publisist sifatida o'z davri ijtimoiy hayoti yangiliklari, muammolari, o'zgarishlariga faol munosabatda bo'lganligini uning xilma-xil mavzulardagi maqolalari orqali bilish mumkin. "Behbudiy o'zbek adabiyoti va Turkistondagi ijtimoiy fikr rivojiga o'zining publisistik va badiiy ijodi bilan ham katta hissa qo'shdi. U ikki yuzdan ko'proq publisistik asarlar yozdi. Bularning mavzui, ularda ko'tarilgan masalalar g'oyat rang-barang, muhim va dolzarbdir: davlat tuzilishi, Turkistondagi jamiyat taqdiri xalqning iqtisodiy ahvoli, Rusiya va Turkiston xalqlari munosabati, Turkistondagi millatlarning birdamligi, maorif-madaniyat, adabiyot va san'at, matbuot va nashriyot, o'zbek tilini davlat tili darajasiga ko'tarish va rivojlantirish, axloq va urf-odatlar, sog'liqni saqlash, tarixni o'rganish, arxeologiya, geografiya, astronomiya va matematika, gigiyena, savdosotiq, qishloq xo'jaligi... Bular haqida yozish uchun qomusiy bilimga ega bo'lish kerak edi, Behbudiy esa hamma ilmlardan chuqur xabardor inson edi" [3.77].



Adib o'zining ko'plab maqolalarida Vatan va millat taraqqiysiga erishishda zarurat va ehtiyoj bo'lgan omillar – hurriyat, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya haqida juda ko'p fikrlar bayon etgan. Shular qatoriga uning asarlarida til masalasiga daxldor bo'lgan qarashlari ham kiradi. Ma'rifatparvar adibning til masalasiga alohida diqqat qaratganligini kuzatamiz. Ona tiliga e'tibor, jahon tillarini o'rganishning ahamiyati muammolari haqida bahs yurituvchi maqolalarida ijodkor o'zining yurt ravnaqi uchun kuyunchak bir ziyoli ekanligini namoyon etdi. Jumladan, uning "Ikki emas, to'rt til lozim", "Sart so'zi ma'lum bo'lmadi", "Til masalasi", "Sart so'zi majhuldur", "Kitobat ul-atfol" asarlarida til va imlo masalalari xususida fikrlar bayon etilgan.

"Oyna" jurnali ma'rifat va madaniyat tarqatishda juda katta xizmat qildi. Unda millat va uning haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoliga doir qiziqarli maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa til masalalari muharrirning hamisha diqqat markazida bo'lgan" [4.16]. Chindan ham ijodkorning ilmiy faoliyatida matbuotning o'rni katta bo'lgan. U o'zining ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy qarashlarini matbuot nashrlarida e'lon qilib, keng jamaotchilik hukmiga havola etib borgan. Ijodkorning til masalasiga daxldor qarashlari ham shu doiradagi faoliyatining ma'lum bir qirrasini tashkil etadi.

"Jurnalning 1915-yil 11-12-sonlarida bosilgan Behbudiyning "Til masalasi" maqolasida tillarning o'zaro munosabati haqidagi bahs davom etadi. Ulug' ma'rifatchi tillarning bir-biridan o'rinli lug'at olishini tabiiy jarayon deb qaraydi. Eng boy tillardan bo'lgan inglizchaning ham "o'ng minglar ila begona lug'atlarni majburan olganligini" dalil qilib ko'rsatadi va masalaning boshqa jihatiga – yagona adabiy til, til birligiga diqqatni qaratadi" [4.17]. Behbudiyn "Til masalasi" maqolasi orqali ona tilimiz, unga bo'lgan e'tibor, hurmat kabi masalalar xususida so'z yuritadi. Tilni soddalashtirish yoki uni butunlay adabiylashtirish kabi jarayonlarga alohida to'xtaladi. Ya'niki, sodda tildan foydalanish kishining kundalik muqolot jarayonida bir qancha qulayliklar tug'diradi, ammo undan ilm-fan doirasida foydalanish turli tushunmovchilik va farqlarni yuzaga keltirishi, tabiiy. Chunki o'lkamizning turli hududlarida xilma-xil, bir-biridan tamoman farq qiladigan shevalar, lahjalar tarqalgan. Ulardagi so'zlar, tushunchalar mutlaqo farqli va qator tafovutlarga ega hisoblanadi. Adib tili bilan aytganda: "...Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydi" [1.189]. Ijodkor xuddi shu shevalar va lahjalar haqida nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirish bilan bir qatorda, ularning o'zbek adabiy tilimizni boyitishda kasb etadigan yuksak ahamiyati to'grisida ham fikr yuritadi. Shu sababli ham Behbudiyning qarashlariga ko'ra, bu ikki – sodda va adabiy til o'z o'rniga ega bo'lishi va me'yorini saqlab qolishi maqsadga muvofiqdir.

Zakiy ijodkor mamlakat va millat taraqqiysiga erishishda ko'p tilni bilishning ahamiyatini ham teran anglaydi va targ'ib etadi. "Behbudiyn millatning taraqqiysi uchun bir necha til bilishni shart hisoblardi. Masalan, jurnalning 1913-yil 20-avgust, birinchi – nishona sonidayoq, "Ikki emas, to'rt til lozim" degan maqola bilan chiqqan edi" [4.16]. Behbudiyn ko'ptillilik, zamonaviy so'z bilan aytganda, bilingualizmning kishi hayotidagi roli va ahamiyatini ochib berishga harakat qilgan. Bu xususida o'zining "Til masalasi" maqolasida shunday so'z yurutgan edi: "Dunyomizni ilm-u fanidan xabardor bo'lmoq uchun rus, nemis, fransaviy, anglis, itoliyoli, arabiy, jopuniy tillaridan birini bilmoq kerak va alarni bilmaganda Kafkoz va yo Qirim lahjayi adabiyasini bilgan kishini dunyodan xabarlik bo'lushig'a vosita bo'lur" [1.188].



Ijodkorning “Ikki emas, to‘rt til kerak” nomli maqolasida insoniyatning madaniy saviyasi yuksalishi va intellektual salohiyatining rivojlanishida ko‘p tillarni bilishning ahamiyati yanada chuqur ochib berilgan. Maqolada o‘z ona tilidan tashqari bir necha til sohibi bo‘lishning foydalari to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, muallif xalqimiz uchun manfaatli bo‘lgan 4 tilni alohida sanab bergan. Shuningdek, ushbu tillarni qayerda va qanday qo‘llash maqsadga muvofiqligi borasida o‘zining qimmatli maslahatlarini berib o‘tgan. “Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar. Turkiy va forsiyni keraklig‘icha so‘z yo‘qdur. Yana bir so‘z va xat borki, butun olam bir-biri-la aning ila so‘ylaydur. Ul Franse tili xatidur” [2.398]. Bundan tashqari, adib til bilish adabiyotning buyuk, jahonga mashhur namoyondalarining asarlarini bevosita mutolaa qilish va ulardan lazzat olish kabi cheksiz imkoniyatlar yaratib berishini ta’kidlaydi.

Ijodkor ko‘p til bilish zaruriyati haqidagi fikrlarini diniy manbalarga tayanib ham mukammal asoslab bergan. “G‘ayridinning ilm va xatini o‘rganmoq shariatcha durustdur. Hadisi sharifdan ma’lum bo‘ladurki, janob payg‘ambar o‘z sahobalaridan Zayd bin Sobit(g‘a) yahudiy xatini o‘qub o‘rganmoqg‘a buyurgan ekanlar. Va ul janob amri hazrat nubuvvat panohi ila yahudiy xatini o‘rganib, hazrat payg‘ambarg‘a yahudiylardan keladurg‘on xatlarni o‘qub berar ekanlar (“Sahihi Buxoriy”, juz 4, sahifa 156)” [2.398].

Ko‘rinadiki, Behbudiy xalqimizning ma’naviy salohiyatini oshirish maqsadida tilimizni boyitish, uni yuksaltirishni ustuvor vazifa deb hisoblaydi, tildan to‘g‘ri va oqilona foydalanish yuksak madaniyat namunasi ekanligini asoslaydi, kishining o‘z adabiy tilini mukammal bilishini komil bo‘lib yetishishning poydevori sifatida e’tirof etadi. Ko‘p til bilishni esa insonning dunyoqarashi, ilm-u salohiyati, ma’naviyati, saviyasini oshiruvchi vosita va barcha imkoniyatlarning kaliti sifatida ulug‘laydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy qarashlari bugungi kun uchun ham katta ahamiyatga ega. Ona tilini ulug‘lash ma’naviy qadriyatlarimizni yuksaltirishning, jahon tillarini bilish iqtisodiy-madaniy taraqqiyotga erishishning asosi ekanligini ijodkor asarlari orqali yanada teran anglaymiz.

Adabiyotlar:

5. Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – 280 б.
6. Бехбудий М. Танланган асарлар. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2021. – 512 б.
7. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999. – 544 б.
8. Қосимов Б. Карвонбоши. / Бехбудий М. Танланган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 5-38.





*Rahimjonov Davlatbek,
Student of the Faculty of Foreign Languages of FerSU
Jurayev Islom,
Teacher of the English language department of FerSU*

ISSUES OF RELATIONSHIP BETWEEN INDIVIDUAL AND SOCIETY IN “ROBINSON CRUSOE”

Annotation. The article discusses the relationship between the individual and society in the novel “Robinson Crusoe” by D. Defoe.

Key words. person, society, social attitude, humanity

Annotatsiya. Maqolada D. Defoning “Robinzon Kruzo” romanidagi shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlar tahlilga tortilgan.

Kalit so’zlar. shaxs, jamiyat, ijtimoiy munosabat, insonparvarlik

Аннотация. В статье анализируются взаимоотношения личности и общества в романе Д. Дефо «Робинзон Крузо».

Ключевые слова. человек, общество, социальная позиция, человечность

The Enlightenment was a period of intellectual and cultural growth that took place in Europe during the 18th century. This period was marked by a renewed interest in science, reason, and individualism. The literature of the Enlightenment reflected these values, exploring the relationship between the individual and society, and often championing the rights of the individual over the demands of the state or the church. One of the most famous works of Enlightenment literature is Daniel Defoe’s «Robinson Crusoe,» which explores the themes of individualism and society in a compelling narrative. [2.45]

«Robinson Crusoe» tells the story of a young man named Robinson Crusoe, who is shipwrecked on a deserted island and forced to survive on his own for many years. During his time on the island, Crusoe learns to rely on his own skills and ingenuity to survive, building shelter, finding food, and even making his own clothing.

As Crusoe reflects on his past life, he comes to realize that he had been living a life of false values and superficiality. He had been pursuing wealth and status, but had not been truly happy or fulfilled. It is only through his experience on the island that Crusoe comes to appreciate the simple things in life, such as food, shelter, and companionship. Crusoe’s experience on the island thus becomes a metaphor for the human condition, and the novel can be read as a critique of the values of 18th-century society, which placed too much emphasis on wealth and status at the expense of individual happiness and fulfillment.

Robinson, the son of a merchant from York, dreams of the sea from a young age. On the one hand, there is nothing exceptional in this - England at that time was the leading power in the world, English sailors plied all the oceans, the profession of a sailor was the most common, considered honorable. On the other hand, Robinson is drawn to the sea not by the romance of sea voyages; he does not even try to enter the ship as a sailor and study maritime affairs, but in all his voyages he prefers the role of a passenger paying the fare; Robinson trusts the traveller’s unfaithful fate for a more prosaic reason:



he is drawn to «the rash venture to make a fortune by scouring the world.» Indeed, outside of Europe it was easy to get rich quick with some luck, and Robinson runs away from home, defying his father's admonitions. Father Robinson's speech at the beginning of the novel is a hymn to bourgeois virtues, to the «average condition».[3.76]

Those who leave their homeland in pursuit of adventure, he said, are either those who have nothing to lose, or the ambitious who yearn for the highest position; embarking on enterprises that go beyond the framework of everyday life, they strive to improve their affairs and cover their name with glory; but such things are either beyond my powers, or humiliating for me; my place is the middle, that is, what can be called the highest stage of a modest existence, which, as he was convinced by many years of experience, is for us the best in the world, the most suitable for human happiness, freed from need and deprivation, physical labor and suffering falling to the lot of the lower classes, and from luxury, ambition, arrogance and envy of the upper classes. How pleasant such a life is, he said, I can already judge by the fact that all those placed in other conditions envy him: even kings often complain about the bitter fate of people born for great deeds, and regret that fate did not put them between two extremes - insignificance and greatness, and the sage speaks in favor of the middle as a measure of true happiness, when he prays heaven not to send him either poverty or wealth.

However, young Robinson does not heed the voice of prudence, goes to sea, and his first merchant enterprise - an expedition to Guinea - brings him three hundred pounds (it is characteristic how accurately he always names sums of money in the narrative); this luck turns his head and completes his «death». Therefore, everything that happens to him in the future, Robinson considers as a punishment for filial disobedience, for not obeying «sober arguments of the best part of his being» - reason. And on an uninhabited island at the mouth of the Orinoco, he falls, succumbing to the temptation to «get rich sooner than circumstances allowed»: he undertakes to deliver slaves from Africa for Brazilian plantations, which will increase his fortune to three or four thousand pounds sterling. During this voyage, he ends up on a desert island after a shipwreck.

And then the central part of the novel begins, an unprecedented experiment begins, which the author puts on his hero. Robinson is a small atom of the bourgeois world, who does not think of himself outside this world and regards everything in the world as a means to achieve his goal, having already traveled three continents, purposefully following his path to wealth.

He is artificially torn out of society, placed in solitude, placed face to face with nature. In the «laboratory» conditions of a tropical uninhabited island, an experiment is being carried out on a person: how will a person torn from civilization behave, individually faced with the eternal, core problem of mankind - how to survive, how to interact with nature? And Crusoe repeats the path of humanity as a whole: he begins to work, so that work becomes the main theme of the novel.

When Robinson finds himself on a desert island, he does not really know how to do anything, and only little by little, through failure, he learns to grow bread, weave baskets, make his own tools, clay pots, clothes, an umbrella, a boat, breed goats, etc. It has long been noted that it is more difficult for Robinson to give those crafts with which his creator was well acquainted: for example, Defoe at one time owned a tile factory, so Robinson's attempts to mold and burn pots are described in detail. Robinson himself is



aware of the saving role of labor: "Even when I realized the whole horror of my situation - all the hopelessness of my loneliness, my complete isolation from people, without a glimmer of hope for deliverance - even then, as soon as the opportunity opened up to stay alive, not to die of hunger, all my grief vanished like a hand. : I calmed down, began to work to satisfy my urgent needs and to save my life, and if I lamented about my fate, then least of all I saw heavenly punishment in it." [1.65]

However, in the conditions of the experiment started by the author on human survival, there is one concession: Robinson quickly «opens up the opportunity not to starve to death, to stay alive.» It cannot be said that all his ties with civilization have been completely cut. First, civilization operates in his habits, in his memory, in his life position; secondly, from the plot point of view, civilization sends its fruits to Robinson surprisingly timely. He would hardly have survived if he had not immediately evacuated all food supplies and tools from the wrecked ship (guns and gunpowder, knives, axes, nails and a screwdriver, sharpener, crowbar), ropes and sails, bed and dress. However, at the same time, civilization is represented on the Isle of Despair only by its technical achievements, and social contradictions do not exist for an isolated, lonely hero. It is from loneliness that he suffers the most, and the appearance of the savage Friday on the island becomes a relief.

As already mentioned, Robinson embodies the psychology of the bourgeois: it seems quite natural for him to appropriate everything and everyone for which there is no legal property right for any of the Europeans. Robinson's favorite pronoun is «my», and he immediately makes Friday his servant: «I taught him to pronounce the word master «and made it clear that this is my name.» Robinson does not question whether he has the right to appropriate Friday for himself, to sell his friend in captivity, the boy Xuri, to trade in slaves. Other people are of interest to Robinson in so far as they are partners or the subject of his transactions, trading operations, and Robinson does not expect a different attitude towards himself.

In conclusion, «Robinson Crusoe» is a powerful exploration of the relationship between the individual and society in the literature of the Enlightenment. By depicting the experiences of a solitary individual on a deserted island, Defoe offers a critique of the values and priorities of 18th-century society, while also acknowledging the importance of human companionship and cooperation. The novel thus remains a timeless classic of Enlightenment literature, offering insights into the nature of the human condition that are just as relevant today as they were in the 18th century.

References:

1. Defoe, Daniel. Robinson Crusoe. Oxford University Press. 2007.
2. Елистратова Л. Л. Английский роман эпохи Просвещения - М. 1966.
3. Novak M. E. Robinson Crusoe's Fear and the Search for Natural Man //Modern Philology. 1961. T. 58. №. 4.
4. Griffith, Benjamin W. Study Keys to English Literature. NY: Barron's Educational Series, Inc. 1991.



Ramziya Jo'rayeva
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, PhD
Navro'za Tursunova,
Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

TURK VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "HAYVON" SEMALI LEKSEMALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiyaning paremiologik fondi hisoblanuvchi birligi – maqollarning leksik-semantik xususiyatlari haqida so'z yuritilgan. "Hayvon" semali leksemalar o'zbek hamda turk maqollari misolida tahlil qilingan. Olamning lisoniy manzarasi "hayvon" semali leksemalar yordamida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: fenomen, diskurs, leksema, sema, paremiologik fon, ramz, ijobiy bo'yoq, mazmun plani, lug'at.

Аннотация: В данной статье говорится о лексико-семантических особенностях пословиц, которые считаются паремиологическим фондом лингвокультuroлогии. Лексемы типа «животное» анализируются на примере узбекских и турецких пословиц. Языковой ландшафт мира освещается с помощью лексем со словом «животное».

Ключевые слова: явление, дискурс, лексема, sema, паремиологический фон, символ, положительный цвет, содержательный план, лексика.

Abstract: This article talks about the lexical-semantic features of proverbs, which is considered a paremiological fund of linguo-cultural studies. Lexemes like «animal» are analyzed on the example of Uzbek and Turkish proverbs. The linguistic landscape of the world is illuminated with the help of lexemes with the word «animal».

Key words: phenomenon, discourse, lexeme, sema, paremiological background, symbol, positive color, content plan, vocabulary.

Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. [2; 21] Lingvokulturologiyaning predmeti madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma'no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtirilib mif, afsona, folklor va diniy diskurslarda, poetik va prozaik badiiy matnlarda, frazeologizmlarda, metaforalarda hamda ramzlarda aks etadigan til birliklari sanaladi.[2; 27] Lingvokulturologik birliklardan biri tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi. Tilning paremiologik fondini xalq durdonalaridan tuzilgan va uning madaniyatidan mustahkam o'rin olgan javohir sandig'i deyish mumkin. Ma'lumki, maqol asl ma'noda "kichik asar, nutq" kabilarni ifoda etadi. Lug'atda yozilishicha: "Hayotiy tajriba asosida xalq tomonidan yaratilgan, odatda, pand-nasihat mazmuniga ega bo'lgan ixcham, obrazli, tugal ma'noli hikmatli ibora, gap".[3; 665] V.N.Teliya aytganidek, lingvokulturologiya, avvalo, jonli kommunikativ jarayonlarni va ularda qo'llaniladigan til ifodalarining sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan aloqasini tadqiq qiladi.[2; 22] Xalq og'zaki ijodi namunalarining tarkibiga kiruvchi maqollar zamiriga muayyan davrda yashagan ajdodlarimizning kechinmalari, tasavvurlari muhrlangan. Ularda ifodalangan ramzlarni tadqiq etish va ularni to'g'ri talqin qilish ajdodlarimizning ichki dunyosini yoritib berishga, bizni ularga yaqinlashtirishga, ma'naviyatimizni boyitishga xizmat qiladi. Shuning uchun bir qancha o'zbek va turk maqollarida qo'llangan hayvonlarning turiga oid leksemalarni tahlil qilib o'tamiz.



Mol olasi sirtida, odam olasi ichida.

Adamın alası içinde davar alacası dışında. [4; 87]

Ushbu o'zbek va turk maqoli o'zaro ma'nodoshlikni hosil qilgan. Maqollar ostiga singdirilgan ma'no o'xshashligi ulardagi umumiylikni yuzaga keltirsa, asosiy mazmunni ifodalashga xizmat qiluvchi leksemalarning turlicha ekanligi farqli jihati hisoblanadi. O'zbek xalq maqolida hayvon nomlaridan mol leksemasi ishtirok etgan bo'lsa, turk xalq maqolida xuddi shu vazifani davar ya'ni echki leksemasi bajargan. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan to'y-marosimlarni hamda mehmondo'stlikni xush ko'radi. Shu boisdan ko'proq daromatga ega bo'lish uchun, asosan, chorvachilikning mol boqish turi bilan shug'ullangan hamda bu hayvonning urg'ochi turidan sut va sut mahsulotlari olish imkoniyati mavjudligi ham bunga turtki bergan. Turk xalq maqolida echki leksemasining qo'llanishiga sabab, turklar ko'p holatlarda chorvachilikning echki boqish turi bilan mashg'ul bo'lgan. Echki suti turk tabobatida juda ham foydali, xususan, bir qancha kasalliklarga davo bo'lgan. Maqollar majozan: "Odamning yomonligi, ayyor, makkorligi, dilgirliги sirtidan bilinmaydi, diliga yashiringan bo'ladi. Shuning uchun uni obdan sinab, qandayligini yaxshi bilib, keyin u bilan muomala qil", degan ma'noda qo'llanadi. Variantlari: "Kishi olasi ichida, Yilqi olasi tashida"; "Hayvon olasi sirtida, Odam balosi ichida"; "Qarg'a qarisin kim bilar, Kishi olasin kim anglar". [5; 258]

Sherning o'ligi ham ot hurkitadi.

Cesurun bakışı korkağın kılıcından keskindir. [4; 91]

Misol sifatida berilgan maqollar ham o'zaro ma'nodosh hisoblanadi. Tarkibida ishtirok etgan sher leksemasiga to'xtalib o'tamiz, sher tasviri turkiylarda kuch-qudrat, jasurlik ramzini ifodalagan sher marmar yoki yog'ochdan yasilib, saroy yoki maqbaraning kiraverishiga qo'yilgan. Bu tasvir turkiylar mamlakati hamisha mudofaada ekanligini anglatib turgan. [6; 61] Ko'pchilik xalqlarning madaniyatida kuch-qudrat, savlat, saltanat ramzi, hayvonlar podshohi hisoblanadi. Boshqa tomondan shavqatsizlik, vahshiylik, hayvoniy hayot tarzini namoyon qiladi. [2; 146] Demak, sher leksemasi botir, jasur, qo'rqmas, kuchli semalaridan iborat. Maqolning mazmun planiga "Qo'rqoq odam mard, botir, jasur, qo'rqmas odamning o'zi tugul o'ligidan ham qo'rqadi, hayiqadi", deyilmoqchi.

Ot – yigitning qanoti

At yığdın yoldaşdır. [4; 88]

Quyidagi o'zbek va turk maqollarida ma'no ham maqol mazmunini aks ettirib turuvchi leksema ham umumiy. Ot kuchli, sabr-chidamli, ko'rkam, pokiza, ziyrak, hushyor, biror narsani darhol payqash, ko'rish, hid bilish, tovushni, hatto bilinar-bilinmas sharpani eshitish, sezish qobiliyati kuchli hayvon. Bu fazilatlaridan tashqari ot insonning sodiq do'sti, vafodori, og'ir ishlarda madadkori, safarlarda hamrohi, jang-u jadalda, boshqa xavf-xatarli holatlarda ko'pincha kishini o'lim-yitimdan saqlab turuvchi ajoyib jonivordir. [7; 263] Qadimgi turkiylarda ot qutlug' hayvon sanalgan. U odamning doimiy yo'ldoshi, mavqeyi jihatdan odam bilan baravar, bir kunda tug'ilgan, deb tasavvur qilingan. [6; 119] Mahmud Koshg'ariy ta'biri bilan aytganda ot "turkning qanotidir". Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, otlar taxminan, miloddan uch ming yil oldin xonakilashtirilgan. Demak, ot leksemasi o'z tarkibiga bir qator ijobiy bo'yoqqa ega bo'lgan ya'ni kuchli, pokiza, ziyrak, vafodor, sodiq kabi semalarni umumlashtiradi. Ushbu maqol variantlari: "Oti borning – qanoti bor"; "Oting –



qanoting”; “Er qanoti – ot”; “Ot bitdi – qanot bitdi”; “Ot tegdi – qanot tegdi” kabilar. Aynan ot leksemasi ishtirok etgan maqollar o‘zbek hamda turk xalq og‘zaki ijodida ko‘plab uchrab turadi. Yana bir misol:

Otning o‘limi – itning bayrami

Atın ölümü itın bayramıdır. [4; 80]

Ushbu maqollar ham umumiy ma‘noni ifodalaydi. Keltirilgan misol orqali ot leksemasining ijobiy semalarga ega ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin. “Ot turkiy qabilalarda totem jonivorlardan biri bo‘lib, ezgulik ruhi sifatida shomonga yovuzlik ruhi ustidan g‘alaba qilishga yordam beradi. Shomonlarning hassalari ko‘pincha ot ramzini ifodalaydi va o‘zbek xalqida hozirgacha otning devi bor degan inonchlar saqlanib qolgan”. Ot leksemasining kuchli, ulug‘vor, sodiq, mard semalariga zid ravishda it leksemasi qo‘llangan. O‘zbek va turklar qadimdan qardosh xalq bo‘lgani uchun ham asrlar davomida saqlanib kelayotgan xalq og‘zaki ijodi namunasi bo‘lmish maqollarida ishtirok etadigan leksemalar umumiy. Har ikki maqolda qo‘llangan ot leksemasi ijobiy bo‘yoqni akslantirdi. It leksemasi bo‘lsa, har ikki paremiologik birlikda salbiy bo‘yoqni ifodalagan. O‘zbeklarda, turklarda va boshqa qator turkiy xalqlarda it haqoratni bildiradi. [2; 43] Maqolning variantdoshlari: “Ot o‘limi – itga to‘y”; “Eshak o‘lsa – itga to‘y”. Mazmuni: “Yaxshi odamlarning o‘lim-yitimi, mag‘lubiyati, muvaffaqiyatsizligi yomon, ko‘ngli qora odamlarni quvontiradi. Ular bu hodisa tufayli biror moddiy yo ma‘naviy foyda ko‘rsalar ham, hech bir foyda ko‘rmasalar ham, baribir shodlanaveradilar. Zero, ichi qora odamlarning tabiati o‘zi shunaqa”. [5; 313] Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, it leksemasi doim ham salbiy ma‘nolarni aks ettiravermaydi. Ruslarda it salbiylik bilan bir qatorda sodiqlik, vafodorlik, oddiylikni assotsiatsiyalaydi. [2; 43]

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek va turk maqollari ko‘plab umumiy jihatlarga ega. Ijobiy hamda salbiy bo‘yoqqa ega leksemalar maqol mazmunini aks ettirmoqda. Hayvon semali leksemalar orqali insonlardagi xos fe‘l-atvor, xususiyatlar yoritib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: “Sharq” 2005.
2. Sh. Usmanova. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 2019.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘zbek milliy entiklopediyasi”, 2006.
4. I. Yo‘ldoshev. O‘zbek va turk maqollari iboralari. – Toshkent: 1998.
5. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma. – Toshkent: 1990.
6. H.Rahmon. Turk xoqonligi. – Toshkent: “Xalq merosi” 1993.
7. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Ma‘nolar maxzani. – Toshkent: “O‘zbek milliy entiklopediyasi” 2001.
8. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi” 1978.
9. D. Xudoyberganova. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: “Fan” 2013.



II. ANTROPOTSENTRIK TILSHUNOSLIK SOHALARI: KOGNITIV TILSHUNOSLIK, ASSOTSIATIV TILSHUNOSLIK, PSIXOLINGVISTIKA, PRAGMALINGVISTIKA

O'rayeva Darmon Saidaxmedovna
Filologiya fanlari doktori, professor
O'zbekiston, Buxoro davlat universiteti.

Kaxarova Iroda Sidikovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent arxitektura va qurilish instituti

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA UNDOVNI FONOPSIXOLOGIK IFODALASH VOSITALARI

Annotasiya. Maqolada o'zbek va ingliz tillarida undovni ifodalovchi tovushlarning fonopsixologik xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. fonema, nofonematik tovush, fonopsixologiya, emosiya, undov so'z, ekspressiv, his-hayajon gap, emosional undov, his-hayajon undovlari.

Аннотация. В статье раскрываются фонопсихологические характеристики звуков, репрезентирующих восклицание в узбекском и английском языках.

Ключавый слова. фонема, нефонематический звук, фонопсихология, эмоция, восклицание, экспрессивное, эмоциональное предложение, эмоциональное восклицание, эмоциональное восклицание.

Annotation. The article reveals the phonopsychological characteristics of sounds representing exclamation in Uzbek and English languages.

Key words. phoneme, non-phonemic sound, phonopsychology, emotion, exclamation, expressive, emotional sentence, emotional exclamation, emotional exclamation.

Jahon xalqlarining til – tafakkur – hissiyot ketma-ketligi asosida emosional leksikasi shakllangan. Ular vositasida ob'yektiv haqiqatni tushunish, idrok etish va tushuntirishga qaratilgan his-hayajon gaplar paydo bo'ladi. Bunday gaplar emosionallik bilan birga baholash, obrazlilik, ekspressivlik va intensivlikka ham xizmat qiladi. Til tizimining inson his-tuyg'ularini ifodalash va unga ta'sir qilish elementlarini qamrab oluvchi his-hayajon gaplar ijtimoiy-psixologik ta'sirlanish manbasi sifatida jahon tilshunosligida alohida ahamiyat kasb etadi. Ularni turli tizimli tillar doirasida kognitiv-pragmatik jihatdan chog'ishtirib o'rganish asosida tilning inson madaniy hayoti va turmush tarzi, psixologiyasi bilan uzviy bog'liq holda shakllanib, rivojlanib borganligini anglash mumkin bo'ladi. Shuning uchun dunyo tilshunosligida turli ruhiy holatlar, his-kechinma va sezgilarni tilda aks ettirish bilan bog'liq vosita va usullarni aniqlashga katta e'tibor qilinmoqda.



His-hayajon gaplarni falsafiy tilshunoslik va psixologiya hatto, biologiya va fiziologiya fanlari kesimida tadqiq qilish ularni kognitiv o'rganishga olib keladi. Sh.Safarov ta'kidlashicha, "Kognitiv tilshunoslik majmuaviy (kompleks) tadqiqot yo'nalishidir...". Shuningdek, S.D. Kasselson fikricha, "Til nafaqat muloqot quroli, balki fikr va g'oyani shakllantiruvchi hamda uni ifodalovchi quroldir". Darhaqiqat, his-hayajon gaplarda tafakkur va hissiyot uzviylashuvining tildagi in'ikosi kuzatiladi.

G.Paul gap so'zlovchining ruhiyatida ro'y bergan holatni ifodalashini e'tirof etgan. Inson nutqi nafaqat til, qolaversa, ruhiy omillar asosida ham qo'llaniladi.

His-hayajon gaplar bayon qilinayotgan fikrga xursandlik, shodlanish, zavqlanish, huzurlanish, tantana, qoniqish, lazzatlanish, ishonch, qoyil qolish, erkalash, taraddud, hayrat, hayajon, taajjub, vahima, qo'rquv, og'riq, afsuslanish, g'azab, nafrat, ishonmaslik, shubha, kesatish, qochirim, ta'na, mazax, mensimaslik, nopisandlik, baland kelish, qo'rqitish, yoqtirmaslik, keskin va qat'iy ogohlantirish, achitib gapirish singari ijobiy yoxud salbiy his-tuyg'ular, ruhiy kechinmalarga mos paydo bo'lgan emosional munosabatni kuchli ohangda ifoda etishi bilan darak, so'roq, buyruq maqsadli emosional bo'lmagan gaplardan farqlanadi.

I.R.Pavlov ta'kidlaganidek, so'zlar oliy nerv faoliyatining shakllaridan biri bo'lsa, emosiylar uning namoyon bo'lishidir. Shuning uchun inson hissiyotining so'zdagi ifodasi psixofiziologik va ijtimoiy asosga ega, chunki his-hayajonlar real dunyo komponentlarini uning tildagi ifodasi singari so'z orqali insonning tipik psixologik holatlari bilan bog'liqlikda aks ettiradi.

His-hayajon undovlarining emosional ma'nosi ob'yektiv dunyodan olingan taassurotning kishi ongida umumlashtirilishidan hosil bo'ladi. His-hayajon undovlari ko'pincha so'zlovchining ma'lum sharoitda o'z fikrini umumiy mazmunda anglatish ehtiyoji tufayli ishlatiladi.

Ma'lumki, emosional ma'noni ifodalash, odatda, ohang (intonasiya) va unlilarning uzun-qisqaligi, talaffuzning sur'ati bilan ham bog'liq bo'ladi. O'zbek tilida his-hayajon undovlari, asosan, quyidagidir: **i, e, a, o, o', ih, ix, eh, ex, ox, oh, uh, hm (him, im), be, xo, he, ha, uf, fu, tuf, dod, voy, xah, obbo, ura, o'ho', o'hho', oho (ohho), aha, eha, ehe (ehhe), iye** va boshqalar. Ko'rinyaptiki, his-hayajon undovlarining bir qismini tovush ko'rinishidagi his-hayajon undovlari: **i, e, a, o, o', yo** fonemalari tashkil etadi.

Tovush ko'rinishidagi his-hayajon undovlarning bir tizimga mansub bo'lmagan ikki til, ya'ni ingliz va o'zbek tilida qo'llanishini badiiy matnlarning tarjimasida misolida kuzatganimizda, **o'** tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz tilida uchramasligi o'z-o'zidan ayon bo'ldi. Lekin ingliz tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjima matnlarida uning uchrashi kuzatildi. Bunda u ko'proq **oh** undovining o'rnida qo'llanilgani ko'zga tashlanadi: Oh! (S.M. Rain, 19) – O'-ho'! (A.O. Yomg'ir, 14).

O'zbek tilida **o'** undovi hayrat, nopisandlik, mensimaslik, inkor etish singari ma'no ottenkalarini ifodalashga xizmat qiladi. Agar u yuqoridagi misoldagidek **o'-ho'** ko'rinishida qo'llansa, kuchli hayratni bildiradi: Watteu! he cried (S.M. The Fortunate Painter, 230) – O'h-ho'-o', bu Vatoning ishi-ku! – deya xursandchiligini oshkor etdi u. (M.O. Omadi chopgan musavvir, 22).

Biron kishi tomonidan ilgari surilayotgan fikr yoki xulosani keskin inkor qilishda ko'pincha u **o'-o'** ko'rinishida takror ishlatiladi: O'-o', bunga shisha butilka sabab bo'lgan (A.O. Chandiqli kishi, 76) – Oh, that was due to a bottle that burst when I was opening it (S.M. The Man with the Scar, 76).



A tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz va o'zbek tillarida, asosan, e'tiroz bildirish, taxmin qilish ma'nolarida qo'llanadi. Jumladan, A-a, nazarimda, bugungi kun sizga bir oz noxushroq boshlanganga o'xshaydi, – dedi chol, otalarcha jilmayib (M.O. Omadi chopgan musavvir, 19) misolida uning taxmin, chama ma'nosida ishlatilgani seziladi.

Shunisi borki, tarjima jarayonida asliyatda bo'lmasa-da, tarjimada undov so'zlardan foydalaniladi. Yoxud, aksincha, asliyatda mavjud undov so'z tarjima matnidan tushirib qoldiriladi. Bu holat ularga xos hissiy va modal munosabat ifoda etish xususiyati bilan bog'liqdir. Aytaylik, You ought to have been up before dawn like me. Lazy beggar (S.M. Mackintosh, 107) gapida **a** undovi mavjud bo'lmasa-da, shu gapning tarjimasida undan foydalanilgan: Menga o'xshab tong otmasdan, erta saharda o'rningizdan tursangiz bo'lmaydimi, **a**, ishyoqmas tanbal! (M.O. Makintosh, 146). Shu asosda ingliz tilidagi darak gap o'zbek tiliga his-hayajon gap ko'rinishida o'girilgan.

O undosh tovushidan iborat undov so'z o'zbek va ingliz tillarida tasdiq (O, yes, yes); hayrat va zavq O! Meybl xonimni aytasizmi? U judayam alomat ayol (M.O. Meybl xonim, 87)–She had been a pretty little thing. (S.M. The Taipan, 570); O, msye, siz bag'oyat saxovatpesha va mehribonsiz! – hayqirib yubordi Charli (M.O. Omadi chopgan musavvir, 22) – That would be awfully good of you cried Charlie (S.M. The Fortunate Painter, 230); qoniqish va mamnunlik O, msye Leir. Marhamat, ichkariga kiring (M.O. Omadi chopgan musavvir, 15) – Come in cried Charlie, looking round (S.M. The Fortunate Painter, 228); ogohlantirish O, azizim, bilasizmi, siz kabi bugungi avlod yoshlari nihoyatda besabr (M.O. Omadi chopgan musavvir, 15) – My dear fellow you young men are so impatient (S.M. The Fortunate Painter, 228); norozilikni O-o... jin ursin... tag'in nimalar qilib yuribsiz, msye? (M.O. Omadi chopgan musavvir, 31)–What the dickens are you doing? (S.M. The Fortunate Painter, 234) ifodalab keladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, tarjima jarayonida asliyatda bo'lmagan undovlarni qo'shib tarjima qilish ushbu undov tovushi misolida ham kuzatiladi. Jumladan: She had been a pretty little thing (S.M. The Taipan, 570) gapining o'zbekcha O, naqadar ajoyib, ofatijon qiz edi u (M.O. Taypan, 75) tarjimasini kuzatar ekanmiz, unga mutarjim tomonidan qo'shilgan "o" undovi e'tiborni tortadi. Bu bilan tarjimon ushbu gapning ta'sirchanligini kuchaytirishga tirishgani anglashiladi. Ba'zan bunday holatlarda tarjimonlarning tovush undovlarini takror keltirish orqali intensivlikka erishgani kuzatiladi: You're quite a stranger, Mr Mackintosh (S.M. Mackintosh, 120). Ko'rinyaptiki, asl matnda **o** undovi yo'q, lekin uning tarjimasida mavjud. Qolaversa, takror ham qo'llangan: O-o, janob Makintosh, biz taraflarda umuman ko'rinmay ketdingiz (M.O. Makintosh, 196). Shu orqali tarjima matni ta'sirchanligining orttirilishiga erishilgan.

E tovushidan iborat his-hayajon undovi ingliz va o'zbek tillarida e'tiroz qatori ma'qullash, hayrat, zavqlanish, nopisandlik, inkor qilish, ikkilanish singari ma'no ottenkalarini ifodalab keladiki, shuning uchun tarjima jarayonida garchi asliyat matnida bo'lmasa-da, tarjimada ularga o'rin berish xatolik sifatida qabul qilinmaydi. Masalan, That's what I'm always telling her. I can't get her to enjoy herself (S.M. Louise, 259) – E, buni unga doim aytaman. Do'stlaring bilan o'ynab kulib yur deb, hech ko'ndirolmadim (A.O. Luiza, 96); Well, you know what she is. She sits there and smiles to herself (S.M. Home, 106) – E, uning qanaqaligini bilasiz-ku. O'rnida o'tirganicha o'zicha jilmayadi (A.O. Xonadon, 120).



Ko'riyaptiki, misol qilib olingan inglizcha uchala gap tarkibida ham **e** undovi mavjud emas, lekin ularning o'zbekcha tarjimasida bu undov voqelangan. Bunga, albatta, keltirilgan gaplarning **e** his-hayajon undovi mazmuniga mosligi, ya'ni birinchi gapning e'tiroz va inkor, ikkinchi va uchinchi gaplarning esa norozilik ma'nolarini anglatayotgani asos bo'lgan.

E undovi kuchli hayratni ham ifodalaydi: E, ha, hali bu ko'chirma nusxa deng? – deyarli qichqirib yubordi chol (M.O. Omadi chopgan musavvir, 24) – A copy? Cried Mobsieur Leir (S.M. The Fortunate Painter, 231). Agar u takror qo'llansa, kuchli hayrat barobarida kuchli qoniqish hissini ham ifodalay oladi: E-ee... Ofarin. Qoyil sizga-ey... (M.O. Omadi chopgan musavvir, 30).

Yo tovushidan iborat his-hayajon undovi o'zbek tilida ham ("Yo, Olloh, o'zing qo'lla!". "Yo, qudratingdan!"), ingliz tilida (You men!) ham uchraydi va har ikkala tilda ham kuchli hayratni ifodalaydi.

Kuzatilgan matnlar misolida aytish mumkinki, tovush ko'rinishidagi undovlar o'zbekcha matnlarga nisbatan inglizcha matnlarda juda kam kuzatildi.

Ingliz tilidagi **oh** bo'g'in ko'rinishidagi his-hayajon undovi o'zbek tiliga o'girilgan matnlar tarkibida **e** tovush ko'rinishidagi his-hayajon undovi bilan berilishi kuzatiladi: Oh, it was nothing. I guess my back's broad enough to bear a few hard words (S.M. Rain, 33) – E, hechqisi yo'q. Men bunaqa haqoratlarga parvo ham qilmayman (A.O. Yomg'ir, 39).

Shuningdek, ingliz tilidagi **oh** bo'g'in ko'rinishidagi his-hayajon undovini o'zbekcha tarjima matnlarida **o** tovush ko'rinishidagi his-hayajon undovi bilan berilgani ham ko'zga tashlanadi: Oh, no, I'm not hungry; you see, I don't eat luncheon (S.M. The Luncheon, 98) – O, yo'q, men och emasman. Ko'rib turibsiz, men nonushtaga hech narsa yemayman (A.O. Nonushta, 85).

Shuni aytish kerakki, undov so'zlarning qaysi ma'noda kelayotganini anglashda ularning yonida qo'llanayotgan so'zlarga e'tibor qaratish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Masalan, yuqoridagi gapda **oh**, **o** undovlarining yonida kelayotgan **yo'q** inkorni bildiruvchi modal so'zi orqali bu undovlarning ham inkorni bildirib kelayotgani anglashiladi.

Ey undovining **E-e-ey** shaklidagi intensiv ko'rinishi ham uchraydi va o'zida qoyil qolish, kuchli hayratlanish ma'nolarini ifodalaydi: E-e-ey, jasoratingizga qoyilman-ey! – dedi u kulgisidan nafasi tiqilguday bo'lib (M.O. Omadi chopgan musavvir, 30) – I like your damed impudence, trying to pass that off as a copy (S.M. The Fortunate Painter, 233).

His-hayajon undovlari so'zlovchining ichki ruhiy holati-hayajonini ifodalashi bilan birga, uning jismoniy sezgisi bilan bog'liq bo'lgan emosional "qichqiriqlari"ni ham ifodalaydi. Bunday undovlarning shakliy tomoni ham odatdagi emosional undovlar kabidir. O'z navbatida, ular quyidagi emosional ottenkalarni ifodalaydi: a) ruhiy kechinmalar bilan bog'liq ruhiy holatlarni; b) jismoniy charchash bilan bog'liq bo'lgan ruhiy holat va vaziyatlarni; v) jismoniy tana og'riqlarini.

Umuman aytganda, his-hayajon bilan bog'liq holatlar psixologiya bilan uzviy bog'liqdir. His-hayajon universal psixologik hodisa sifatida insonlarga xos tabiiy, shaxsiy hissiyotlarni ifodalaydi.

His-hayajon neyrofiziologik jarayonlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu jarayonlar



ichki va tashqi omillar bilan shakllanadi, sub'yektiv hodisa va jarayonlarga, shaxsning munosabatiga asoslanadi.

His-hayajon undovlari voqea-hodisaning bevosita ta'siri natijasida tug'iladigan ruhiy holatni, his-hayajonni va sub'yektning ob'yektga munosabatini anglatadi, lekin o'sha ruhiy holatni atab ko'rsatmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B.14.
2. Каснелсон С.Д. Типология языка и речевое мышление. – Л.: Наука, 1972. – С.110.
3. Паул Г. Принципы истории языка. – М.: Издательство иностранной литературы, 1960. – С.140-143.
4. Павлов И.П. Двадцатилетний опыт объективного изучения ВИД (поведения). 7-е изд. – М.: Медицина, 1951. – 506 с
5. William Somerset Maugham. The Moon and Sixpence. English Classical Literature. Издательство КАРО Санкт-Петербург. 2013. – 384 с.
6. U.S.Моем "Oy va sariq chaqa" R. Inog'omov tarjimasi. –T.: 2012. -236 b.
7. Моем У.С. Подводя итоги / Уилям Сомерсет Моем; пер. с англ. М. Лорие. – М.: Высшая школа, 1991. – 559 с.3.
8. Скороденко В. Сомерсет Моем / В. Скороденко // Моем С. Узорный покров; Острие бритвы: романы. – М., 1991 (электрон). http://www1.lib.ru/INPROZ/MOEM/moem0_1.txt
9. Сомерсет Моем. Избранные произведения в 2-х томах Т.И. М «Радуга», 1985. –С. 564.
10. Patterson R.F. "The story of English literature" New York, Philosophical library. 1947. – P. 335.

Muhayyo Hakimova

Alisher Navoiy nomdagi ToshDO'TAU professori v.b.

O'ZBEK TILI LEKSIK SATHIDA ABSTRAKSIYANING VOQELANISHI

Annotatsiya. Abstrakt va konkret so'zlar ziddiyatiga ikki xil: umumlashtiruvchi va ayiruvchi abstraksiya natijasi asos bo'lgan. Konkret nomlar umumlashtiruvchi abstraksiya natijasida hosil bo'lgan umumiy belgi, xususiyatlar asosida shakllangan tushunchalarni ataydi. Ayiruvchi abstraksiyada olamda obyektidan ajralgan holda bo'lishi mumkin bo'lmagan belgi, xususiyat, holat, harakat obyektidan ajratilgan tarzda, alohida voqelik sifatida tafakkur qilinadi, nomlanadi. Mazkur abstraksiyada belgi, xususiyat, holat, harakatning tashuvchisi e'tibordan soqit qilinadi.

Kalit so'zlar. abstraksiya, lisoniy abstraksiya, leksik abstraksiya, umumlashtiruvchi abstraksiya, ayiruvchi abstraksiya, abstrakt so'zlar, konkret so'zlar.

Abstraksiya insoniyat erishgan eng katta yutuqlardan biridir. Abstraksiya jarayonining natijasi o'laroq fikrlash osonlashdi, tushuncha vujudga keldi, til shakllandi. Har qanday tilning asosida abstraksiya jarayoni mavjud bo'ladi. Fonetik-fonologik sathdan sintaktik sath birliklarigacha abstraksiya mahsulidir.



Leksik sath birliklarining, jumladan, nomlovchi soʻzlarning shakllanishida abstraksiya jarayoni muhim oʻrin tutadi. Konkret yoki abstrakt tushunchalarni ifodalashidan qatʼiy nazar muayyan tushunchani nomlovchi har qanday soʻzda abstraksiya mavjud. Chunki mazkur soʻzlar maʼnosi zamiradagi tushuncha abstraksiya jarayonining natijasidir. Maʼlumki, tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shakli boʻlib, unda bir turdagi predmetlarning muhim boʻlmagan belgilari eʼtibordan chetda qoladi, faqat muhim belgilarigina umumlashadi. Masalan, «bola» tushunchasida jamiki yoshi kichik insonlarning umumiy xususiyatlari aks etadi.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar (abstraktlashar) ekan, demak, uni toʻlaligicha aks ettira olmaydi. Bu maʼnoda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin tushuncha predmetning muhim belgilarini inʼikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, toʻlaroq ifoda etadi. Masalan, bargning yashilligini koʻramiz va u borliq bilan bevosita bogʻliq. Nima uchun aynan yashil rangda ekanligini aqliy bilish orqali anglaymiz. Bu esa koʻrishga nisbatan bargning mohiyatini toʻliqroq ochib beradi. Lekin nima uchun yashil ekanligini anglash uchun uning yashilligini hissiy bilish kerak.


Abstrakt va konkret soʻzlar ziddiyatiga ikki xil: umumlashtiruvchi va ayiruvchi abstraksiya natijasi asos boʻlgan. Konkret nomlar yaxlit, butun predmetlar va ularning sinfini, yaʼni narsalarni, tirik jonzoatlarni, jarayonlarni, voqealarni, tabiat hodisalarini nomlaydi. Ular umumlashtiruvchi abstraksiya natijasida hosil boʻlgan umumiy belgi, xususiyatlar asosida shakllangan tushunchalarni ataydi.

Umumlashtiruvchi abstraksiyada olamda alohida-alohida holda mavjud narsalar maʼlum tushuncha va nom ostida umumlashtiriladi. Abstraksiyaning bu turida umumlashtirilayotgan narsalar (predmet, belgi, harakat, holat)ning oʻxshash tomonlari eʼtiborga olinib, oʻziga xos tomonlari eʼtibordan soqit qilinadi. Masalan, olamda *atirgul, lola, lolaqizgʻaldoq, binafsha, boychechak, moychechak* kabi koʻplab gullar mavjud. Ularning har biri oʻziga xos boʻlib, atirgul lolaga oʻxshamaydi, lola binafshaga oʻxshamaydi. Lekin ularning hammasi bitta nom bilan ataladi, “gul” nomi ostida bir tushunchaga birlashadi. Bu insoniyatga berilgan neʼmatlardan tafakkur va tilning abstraksiyalash jarayoni mahsulidir. Agar umumlashtiruvchi abstraksiya jarayoni sodir boʻlmasa, olamdagi barcha tabiiy va inson qoʻl bilan yaratilgan narsalar, insonlar, hayvonlar, oʻsimliklar, belgi, miqdor, holat, jarayon, harakatlar barchasi alohida-alohida nomlar bilan atalsa, tasavvur ham qilish qiyin, nima sodir boʻlishini. Inson ongi bu ogʻir yukni koʻtara olarmidi? Yoki uning bor imkoniyati ularni eslab qolishga qaratilarmidi? Ularning barchasiga yangi nom qoʻyishga til imkoniyatlari yetarli boʻlarmidi? Masalan, 45 daqiqa davom etadigan darsda oʻqituvchi bir necha bor tinglovchilarga nisbatan «oʻquvchilar» deya murojaat qiladi. Agar umumlashtiruvchi “oʻquvchi” soʻzi boʻlmasa, har bir tinglovchining nomi birma-bir aytib chiqilsa, dars ham oxiriga yetib qoladi.


Odam soʻzi homo-sapiens turiga mansub son-sanoqsiz individlarni nomlaydi. Ushbu individlar turli-tuman boʻlib, ular makon, zamon, irq, jins, yosh, boʻy, hajm va turli nuqtiy nazarlardan farqlanadi. Lekin *odam* soʻzi zamiridagi tushunchada son-sanoqsiz individlarning barchasida mavjud boʻlgan belgilar (ongli, ijtimoiy jonzot) umumlashadi, oʻziga xos farqli tomonlari eʼtiborga olinmaydi. Eʼtibordan chetda qolgan belgilarning dolzarblashuvi boshqa tushunchalar hisobiga amalga oshadi: *ayol, erkak, chol, kampir,*



bola, yigit, negr, ... Demak, umumlashtiruvchi abstraksiyada bitta tushunchada umumlashuvchi predmetlarning o'xshamaydigan belgilari e'tibordan chetlashtiriladi.




1-rasm. Inson so'zida umumlashtiruvchi abstraksiya



2- rasm. Ayol so'zida umumlashtiruvchi abstraksiya

Abstraksiyaning yana bir turi – ayiruvchi abstraksiyadir. Unda olamda obyektidan ajralgan holda bo'lishi mumkin bo'lmagan belgi, xususiyat, holat, harakat obyektidan ajratilgan tarzda, alohida voqelik sifatida tafakkur qilinadi, nomlanadi. Mazkur abstraksiyada belgi, xususiyat, holat, harakatning tashuvchisi e'tibordan soqit qilinadi. Bunda ajratilgan obyektlar gnoseologik xarakterda bo'lib, ularni faqat aql orqali bilish mumkin. Ushbu voqeliklarni nomlovchi so'zlar abstrakt so'zlar deyiladi.

Abstraksiyaning mazkur turida predmet va hodisalarning xususiyat va munosabatlari obyektidan fikran ajratilib, ongda alohida substansiya sifatida anglanadi. Bunda mazkur ajratilgan xususiyat, munosabatning obyektini xayolan yoki fikran e'tibordan chetda qoladi. Masalan, «yaxshilik» insonning xususiyatlaridan bo'lib, ushbu nomda mazkur xususiyat obyektidan, ya'ni insondan ajratilgan. *Yaxshilik* nomi atayotgan tushunchada real olamda insondan ayri tarzda mavjud bo'lmagan xususiyat insondan ajratilgan holda alohida substansiya sifatida umumlashgan. Avval xususiyat maqomidagi tushuncha substansiya aylanar ekan, tabiiyki, endi uning ham o'ziga xos belgilari, xususiyatlari shakllanadi.



3 - rasm. Inson so'zida ayiruvchi abstraksiya

Yurak va *ko'ngil* so'zlarini qiyosan tahlil qilishga harakat qilamiz. *Yurak* konkret so'z bo'lib, qon aylanish tizimini tartibga solib turuvchi a'zoni nomlaydi. Insonning ham, hayvonlarning ham qon aylanish tizimini boshqarib turuvchi a'zosi *yurak* deyiladi. Demak, *yurak* tushunchasining shakllanishida bir turdagi predmetlarning umumiy va muhim jihatlari e'tiborga olinib, muhim bo'lmagan noo'xshash jihatlari e'tibor qaratilmagan. Ya'ni bir turdagi predmetlarning umumiy tomonlari individual belgilaridan ajratilgan va miqdor jihatdan ko'p, sifat jihatidan turlicha bo'lgan predmetlar haqida yagona tushuncha shakllangan. Bu umumlashtiruvchi abstraksiya natijasidir. *Yurak* tashuvchisidan alohida tarzda mavjud bo'lmasa ham, u butunning qismi, organizmda ma'lum lokallikka va hududiy chegaraga, shaklga, rangga, hidga, og'irlikka ega. Ya'ni u bevosita kuzatishda berilgan. Shuning uchun til egalarida *yurak* haqida aniq tushuncha va obraz mavjud.

Ko'ngil abstrakt so'z bo'lib, kishining his-tuyg'u va kechinmalari manbaini nomlaydi. Barcha insonlarda his-tuyg'u, kechinmalar turlicha ekanligini hisobga olsak va u *ko'ngil* so'zi bilan atalishini nazarda tutsak, bu o'rinda ham umumlashtiruvchi abstraksiya amalda bo'layotganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, kimningdir shafqatsiz, kimningdir sof insoniy tuyg'ularining manbaini nomlashda umumiy belgilar muhim bo'lmagan belgilardan ajratilgan va *ko'ngil* so'zi bilan nomlangan. Bu so'zning shakllanishiga ham umumlashtiruvchi abstraksiya asos bo'lgan. Lekin *ko'ngil* so'zida yana bir abstraksiya turi amalda bo'lmoqda. *Ko'ngil* organizmda ma'lum lokallikka va hududiy chegaraga, shaklga, rangga, hidga, og'irlikka ega emas. U bevosita kuzatishda berilmagan. Ya'ni *ko'ngil* degan a'zo yo'q. Inson o'z tuyg'ularini amaliy tarzda emas, fikran ma'lum bir manbaga birlashtirmoqda. Bu mohiyat gnoseologik tabiatga ega. Ushbu tuyg'ular manbasi insondan, uning ongidan ayri holda mavjud emas. Lekin ayiruvchi abstraksiya sabab u insondan ajratildi va alohida substansiya sifatida nomlandi. Demak, abstrakt nomlarning shakllanishida ham umumlashtiruvchi, ham ayiruvchi abstraksiya asos bo'ladi.

Har qanday ajratilish ham abstraksiyaga misol bo'la olmaydi. Obyektiv olamda belgini, munosabatni predmetdan ajratib bo'lmagani holda qism butundan ajratiladi. Amaliy tarzda ajratilishlar makonda sodir etilishi mumkin bo'lsa, ayiruvchi abstraksiya esa makonga egalik xususiyatiga ega emas. Masalan, daraxtdan shoxni, shoxdan bargni ham fikran, ham amaliy ajratish mumkin. Ya'ni obyektiv olamda daraxt ham, shox ham, barg ham va ularni ifodalovchi nom ham mavjud. Lekin abstraksiyaning bunday



ajratilishdan farqlash lozim. Odamdan aql yoki do'stlikni, guldan go'zallikni, boladan beg'uborlikni amaliy tarzda ajratib bo'lmaydi. Bunday ajratilish, ya'ni abstraksiya (ayiruvchi abstraksiya) inson ongining, aqliy mushohadasining mahsulidir. *Aql, do'stlik, go'zallik, komillik* obyektiv olamda alohidaliklar tarzida mavjud bo'lmasa-da, abstraksiya natijasida jamiyat a'zolari ongida ushbu belgi yoki munosabatlar predmetidan ajratilib, alohida tushuncha sifatida shakllandi va bu abstrakt tushunchalar til egalari tomonidan alohida nomlandi. Shuni ta'kidlash kerakki, abstrakt so'zlar atayotgan belgi, holat, munosabat va tushunchalar ideal olam unsurlari emas. Lekin mazkur voqeliklar tashuvchisi bilan mavjud. Masalan, «ezgulik» insonning belgisi, u bor va mavjud. Faqat u olamda egasidan – insondan alohida mavjud emas. Yoki “hayo”, “andisha”, “ibo”, “oriyat” kabi mohiyatlar bor. Mazkur mohiyatlar o'zbek xalqidan ayro holda mavjud bo'la olmaydi. Ularning egasidan ajratib, alohida substansiya sifatida nomlanishi ayiruvchi abstraksiya natijasidir.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakka, konkret nom hisoblangan *ko'z, qosh, qo'l, yurak* kabilar ham insondan tashqarida mavjud emas. *Ko'z, qosh, qo'l, yurak* – insonning tana qismlari. Mantiqan mazkur qismlar insondan ayri holda mavjud bo'lishi mumkin emas. Qismlarning butunni tashkil etuvchi chegaralari aniq bo'ladi va odatda, qismlar bevosita kuzatishda berilgan bo'ladi. Masalan, qoshni, boshni ko'rish mumkin. Lekin ezgulikni ko'rib bo'lmaydi. U aqliy bilish orqali anglanadi.

Ayiruvchi abstraksiya va ajratilish hodisasini farqlash lozim. Tashuvchisidan ajratilgan har qanday voqelik ajratilish hodisasining natijasidir. Masalan, muzdan ajratilgan sovuqlik, qordan ajratilgan oqlik, toshdan ajratilgan qattqlik, ovozdan ajratilgan mayinlik ajratilish hodisasiga misol bo'la oladi. Inson tafakkuri muzga, qorga, toshga, ovozga xos bo'lgan belgilarni ulardan ajratib, alohida mustaqil obyekt sifatida tafakkur qilmoqda. Lekin mazkur ajratilgan belgilar hissiy bilish orqali idrok qilinishi mumkin. Ayiruvchi abstraksiyada esa ajratilgan belgi-xususiyat, holat va harakatlarni sezgi a'zolari yordamida bilib bo'lmaydi. Ular faqat aql yordamida anglanadi. Masalan, insondan ajratilgan “odamiylik” xususiyatini faqat anglash mumkin. Shu nuqtayi nazardan ajratilgan so'zlarning abstraksiya darajasi abstrakt so'zlarning abstraksiya darajasidan past hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бюиссанс. Э. Абстрактное и конкретное в лингвистических фактах: речь-дискурс-язык // Political science (RU), 2016, N 3. – С. 209-216.
2. Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2010. – С. 5-6.
3. Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси. Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 70 б.



Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinovna,
Qo'qon davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim
kafedrası professori,
filologiya fanlari doktori

BADIIY MATNDA TERMINLARNING VERTIKAL VA GORIZONTAL MUNOSABATLARI

Annotatsiya. Maqola doirasida terminlarning badiiy asarda yozuvchi idiolekti bilan bog'liq holda badiyatni ifodalovchi vositaga aylanishi matn nuqtai nazaridan tadqiq etilgan Maqolada esa tyerminlarning badiiy asarda vertikal va gorizontal munosabatlarga kirishishi Asqad Muxtor asarlari misolida talqin etilgan.

Аннотация. В рамках статьи с точки зрения текста изучается превращение терминов в средство выражения искусства в связи с идиотизмом писателя в произведении искусства. В статье введение вертикальных и горизонтальных соотношений терминов в произведение искусства интерпретируется на примере произведений Аскада Мухтора.

Annotation. Within the framework of the article, from the point of view of the text, the transformation of terms into a means of expressing art is studied in connection with the idiocy of the writer in a work of art. In the article, the introduction of vertical and horizontal correlations of terms in a work of art is interpreted using the works of Askad Mukhtor as an example.

Kalit so'zlar. Pragmatik maqsad, badiiy maqsad, ilmiy-leksik vositalar, metafora

Ключевые слова. Прагматическое назначение, художественное назначение, научно-лексические средства, метафора

Keywords. Pragmatic purpose, artistic purpose, scientific and lexical means, metaphor.

Badiiy matn yaratishda ijodkor o'z badiiy niyatiga mos holda tilning barcha imkoniyatlaridan keng foydalanadi. Bu jarayonda ijodkorga tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlari yordamga keladi. Tabiiyki, ekspressivlikni ifodalanishida tilning barcha sath birliklari ishtirok eta olsa-da, leksik sath birliklari bu borada alohida o'ringa ega. Buning ustiga, matn qurilishini o'rganishda leksik xususiyat favqulodda qimmatga molik. Terminlarning faqat bir ma'noni ifodalovchi so'zlar ekanligi lingvistik adabiyotlarda o'z ifodasini topgan. Lekin, kuzatishlarimiz asnosida badiiy asarlarda terminlarning obrazlilikni ifodalovchi vosita sifatida qo'llanilganligini guvohi bo'ldik. Bundan kelib chiqadiki, terminlar ham ko'p ma'noda qo'llanila olish imkoniyatlariga ega.

Terminlarni faqat qabul qiluvchi gap chegaralarida ko'rish ularning mohiyati uchun yetarli emas, shu bilan birga terminlarning muhim xususiyatlari kengroq lisoniy kontekst fonida tushunarli bo'ladi. O'z vazifalarining diapazoni bilan terminlar deyarli butun matn bo'ylab harakatlanadi, nafaqat matnning tematik rivojini ta'minlaydi, balki uni polisemantik chuqurlashtiradi, shuningdek, unga konnotativ-stilistik bo'yoq nozikliklarini kiritadi. Bu o'rinda ayni matn misolida yana ikki xususga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq. Avvalo, matn doirasida gaplarning o'zaro bog'lanishida, shuningdek, terminlarning asosiy - kirituvchi gap bilan (umuman, boshqa gaplar bilan



ham) bog'lanishida gorizontaal va vertikal munosabatlarni farqlash maqsadga muvofiq. Terminlarning matn bloklarini shakllantirishdagi ishtiroki, ya'ni ularning gaplar orasidagi ham gorizontaal, ham vertikal aloqadorlik mavjudligining ko'rsatkichlari bo'lishini hisobga olgan holda terminlarning matndagi ahamiyatining nechog'lik katta ekanligi kuzatamiz. Jumladan:

Keyingi vaqtlarda bir qiziq ishi uchun Vaynshteynni yana "Chang-to'zon fanlari doktori" deb ham ataydigan bo'ldilar.

Terminlarni badiiy matndagi qo'llanilishini tadqiq etishda mazkur ikki munosabat turi ham inobatga olinishi lozim. Alohida aytish joizki, bunday munosabatlar, ayniqsa, badiiy matnda favqulodda diqqatga sazovor. Shuning uchun ham M.Yo'ldoshev bu munosabat bilan quyidagilarni ta'kidlaydi: "...Ana shu mulohazalardan kelib chiqilsa, so'z yoki boshqa birlikning badiiy matndagi poetik, estetik qimmatini baholash uchun matndan uzib olingan kichik bir parcha yetarli emasligi yanada oydin bo'ladi. Estetik belgining mohiyati sintagmatik yoki kengroq gorizontaal munosabatlarda to'la namoyon bo'la olmas ekan, vertikal munosabatlar ifodasi uchun yetarli bo'lgan yaxlit badiiy matn yoki matnning yirikroq parchasi bilan ish ko'rish zaruriydir." Vertikal munosabatlarni tasavvur qilish uchun yaxlit badiiy matn yoki matnning yirikroq parchasi lozim ekanligi haqidagi bu fikrga to'la qo'shilish mumkin. Terminlarning matndagi vertikal aloqalari oldingi kontekst bilan ham (bu holat kengroq tarqalgan), keyingi kontekst bilan ham bo'laverishi mumkin. Yuqorida keltirilgan *"chang-to'zon fanlari doktori"* termini oldingi kontekstdagi tegishli parcha bilan va ayni paytda besh-olti abzas keyin kelgan quyidagi parcha bilan vertikal aloqaga ega: *Vaynshteynning "evrika"si shu tongdan boshlangan edi. U yana ko'p sinab ko'rib qat'iy xulosaga keldi: demak, shamol ko'targan sho'rxok to'zonning qalin qatlami izolyatorlarni, traverslarni qoplaydi-da, tungi qirov yoki shabnam yordamida tok zanjiri hosil bo'lib, "sham"lar yonadi.*

Sir emaski, insonning faoliyati jarayonidagi xatti-harakatlari uning nutqida aks etadi. Badiiy asarda yozuvchi pragmatik maqsadni, nutq sub'yektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashirin xususiy mazmun ko'rinishlarini ifodalashda turli til vositalariga ehtiyoj sezadi. Xuddi shu jarayonda terminlar badiiy maqsad hosilasi sifatida asarda o'rinishadi va o'ziga yuklatilgan pragmatik yukni a'lo darajada ifodalab beradi. Masalan:

Yana shunday katta mashinani o'yinchoqday o'ynatib haydaganingizga men hayron. -Ishqilib "bo'yoqchi" bo'lib qolmasam bo'ldi, - deyman unga.

Bu matnda nutq sub'yektining ichki maqsadi bilan bog'liq yashirin xususiy mazmun ko'rinishi "bo'yoqchi" kasb-hunarga oid termini yordamida ifodalangan. Bu matndagi termin yordamida ifodalangan so'zlovchi nutqiga xos illokutiv maqsadni tushunish uchun asarning to'liq mundarijasi bilan tanishish talab etiladi. Asar qaxramoni Xurshidani rasmga olish uchun gazetadan kelgan muxbir yigit uni o'zi termagan paxta mashinasini oldida rasmga tushishini aytadi. Shu jarayonni Xurshida va Tursun "bo'yoqchi" terminiga qiyoslashadi. Ular bu jarayonni pragmatik tarzda yashirin ifodalaydi va bu terminning mohiyati ikkovidan boshqa xech kim tushunmaydi.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ikki kommunikativ yo'nalishli terminlar badiiy matnda muayyan voqea-hodisa yoki qahramonni turli nuqtai nazarlardan tavsiflashda, shuningdek, polifonik – ko'p ovoqli tasvirni yaratishda o'ziga xos, eng qulay vositadir. Terminlar yozuvchining xilma-xil badiiy maqsadlarining ro'yobga chiqishiga sharoit yaratadigan benihoya ta'sirchan leksik hodisalardan biri sifatida alohida lingvopoetik



ahamiyatga molikdir. Terminlar yozuvchining o'ziga xos individual uslubining shakllanishida ham ishtirok etadigan vositalardan biridir, masalan, biz tahlil qilgan manbalarda shu narsa ayon bo'ldiki, terminlar, ayniqsa, Asqad Muxtor badiiy uslubining ajralmas bir unsuriga aylangan.

Adabiyotlar:

1. Кулиев Г.Г. Метафора и научное познание. Ин-т философии и права. - Баку.: Элм, 1987.Б.155
- 2.Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. -Toshkent.: "Fan"nashriyoti, 2008.B. 148

*Hasanova Dilraboixon Mamirovna
Farg'ona davlat universiteti*

FATIK KOMMUNIKATSIYA VA UNING O'ZDEK MULOQOT XULQIDA TUTGAN O'RNII

Annatatsiya. Ushbu maqolada fatik kommunikatsiya va uning o'zbek muloqot xulqida tutgan orni batavsil yoritilgan. Shuningdek, o'zbek muloqot xulqi va turlari va shakllari yoritilgan. Bundan tashqari, insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar. fatik kommunikatsiya, o'zbek muloqot xulqi, insonning nutq faoliyati, axborot-kognitiv, inson ongi.

Аннотация. Эта статья охватывается в фатической коммуникации и по себе в поведении Узбекского общения. Поведение, типы и формы узбекского общения также покрываются. Кроме того, речевая деятельность человека основана на научной связи тесно со всеми аспектами человеческого разума.

Ключевые слова. Фатическая коммуникация, Узбекский коммуникационный вызов, речевая деятельность человека, информация и когнитивные, человеческие.

Annotation. This article is covered by Fatik Communication and itself in the behavior of Uzbek communication. The behavior and types and forms of Uzbek communication are also covered. In addition, a person's speech activity is based on scientific connection closely with all aspects of the human mind.

Keywords: Fatik Communication, Uzbek Communication Challenge, Man Speech Activity, Information and Cognitive, Human Certainerize.

Ijtimoiy kommunikatsiyalar jamiyat hayotida vositachilik qiluvchi yangi ijtimoiy voqelikni shakllantirish uchun asos bo'lib, bilimlarning axborot-kognitiv resurs bazasiga tezkor kirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratadi va bu bilimlardan paydo bo'lgan ehtiyojlarga muvofiq foydalanishni ta'minlaydi. Virtual makonda muloqot, ularning joylashuvidan qat'iy nazar, odamlarning audiovizual harakatlari xarakterini oladi. Jamiyatda bu dunyoqarash, atrofdagi dunyoni idrok etish bo'yicha kelishuvga erishish va pirovard natijada yagona munosabatlarni shakllantirish sohasiga taalluqlidir. Muloqot ijtimoiy ongning barcha shakllarida amalga oshiriladi:



fan, san'at, din, siyosat va huquq. Ammo uning mazmuni insonning o'zi erishgan bilim va manbalarga egalik qilishdagi insonparvarlik qobiliyatini ifodalagan va takror ishlab chiqargan darajada madaniyat hodisasiga aylanadi. Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki: muloqot – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq va aniq ta'rifidir.

Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo'ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Insonning nutq faoliyati inson ongining barcha qirralari bilan chambarchas bog'langan. Nutq – inson psixik kamolotining, shaxs sifatida shakllanishining qudratli omilidir. Nutq ta'siri ostida qarashlar, e'tiqodlar, intellektual, ma'naviy va estetik hissiyotlar tarkib topadi, iroda va fe'l-atvor shakllanadi. Nutq yordamida barcha bilishga oid psixik jarayonlar erkin va boshqariladigan tus oladi. Shunday ekan, nutq – bilishga oid psixik jarayon bo'lib, inson tomonidan talaffuz qilinayotgan va eshitib turilgan tovushlar uyg'unligidan iborat, ayni vaqtda shu tovushlarga mos yozuv belgilari tizimi orqali ifodalangan ma'no va mazmunga ega.

Til – shartli belgilar tizimi bo'lib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan ma'noga va mazmunga ega bo'lgan tovushlar yig'indisi uzatiladi.

Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos bo'lib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir.

Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. So'z esa, predmet yoki hodisa to'g'risidagi tasavvur bilan bog'liq.

Umumlashtirish funksiyasi har bir so'z umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bog'liq, bu esa tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya'ni muloqot muayyan ma'lumotlarni, fikrlarni, tuyg'ularni odamlar bir-birlariga yetkazib berishdan iborat bo'lgan jarayondir.

Inson nutqining aniqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo'g'inlar, so'zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyg'ularini ifodalash imkonini beradi.

Biz ochiq ko'ngilli va shodlanayotgan odamga qaraganda g'azablanayotgan yoki azob chekayotgan odamga nisbatan o'zimizni boshqacha tutamiz. Bir mavjudotdan boshqasiga yetkaziladigan tashqi muhit holati haqidagi ma'lumot, masalan, xavfdan



yoki yaqin atrofda ijobiy, biologik muhim omillarning, deylik, ozuqaning mavjudligi haqidagi ogohlantirish muloqot mazmuni bo'lishi mumkin. Odamda muloqot mazmuni hayvonlarnikiga qaraganda ancha kengroqdir. Odamlar bir-biri bilan dunyo haqidagi bilimlar, orttirilgan tajriba, layoqatlar, malaka va ko'nikmalarni jamlagan axborot bilan almashadilar. Inson muloqoti ko'p jismli bo'lib, ichki mazmuniga ko'ra turli-tumandir.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab. Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar yetib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va yetkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, undan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Afatik ifoda (Ingliz tili: /'fætɪk/, FAT-ik) - bu ijtimoiy funktsiyani bajaradigan aloqa, masalan, ichki ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotni qidirmaydigan yoki taklif qilmaydigan, lekin xushmuomalalik uchun an'anaviy mahalliy kutishlarga rioya qilishga tayyorligini ko'rsatadigan ijtimoiy yoqimli narsalar. Fatik iboralar ijtimoiy-pragmatik funktsiyadir va kundalik suhbat almashinuvida odatda ijtimoiy signallarni chaqiradigan vaziyatli misollarda ifodalanadi. "Phatic" atamasi "lingvistik" (ya'ni "til bo'yicha") ma'nosini anglatadi va yunoncha "pha" dan kelib chiqqan phatos ("gapirish, gapirish mumkin"), mki dan phēmi ("Men gapiraman, aytaman"). Nutqning boshqa shaklini so'zlovchi tomonidan aytilgan nutq tashkil etadi, bunda tinglovchilar uning nutqini idrok qiladilar, lekin unda to'g'ridan-to'g'ri qatnashmaydilar. Bunday nutq monolog deb ataladi. Ma'ruzachining nutqi monologik nutq hisoblanadi. Bu nutq psixologik jihatdan dialogdan murakkabroqdir, chunki u tinglovchidan o'z mulohazalarini tushunarli, qat'iy mantiqqa asoslangan holda bayon qilish malakasini talab etadi. Bunda so'zlovchi yetkaziladigan axborotning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishini baholashi zarur,



ya'ni, u faqat o'z nutqinigina emas, balki tinglovchilarni ham kuzatishi kerak bo'ladi.

Dialog ham, monolog ham faol va sust bo'lishi mumkin. Nutqning faol shakli – bu so'zlovchining nutqi, tinglovchining nutqi esa sust shaklda namoyon bo'ladi. Gap shundaki, tinglayotganimizda tashqaridan unchalik sezilmasada, ichimizda so'zlovchining so'zlarini takrorlaymiz. Odamlar faol va sust nutq shakllarining rivojlanish darajasiga ko'ra ajratiladilar. Ko'pincha odam boshqa odamning nutqini yaxshi tushunadi, lekin o'zining fikrlarini etkazib berolmaydi. Va, aksincha, odam yetarlicha yaxshi so'zlab berishi mumkin, lekin boshqalarni tinglashni umuman bilmaydi.

Nutqning boshqa turi yozma nutq hisoblanadi. Yozma va og'zaki nutqlar o'rtasida psixologik tafovutlar mavjud. Og'zaki nutqning yozma nutqdan farqlaridan biri og'zaki nutqda so'zlarning qat'iy ravishda ketma-ket kelishi, bir so'z talaffuz etilganida undan oldin kelgan so'z na so'zlovchi va na tinglovchi tomonidan idrok qilinmasligidan iborat. Yozma nutqda boshqacharoq: yozayotgan ham, o'qiyotgan ham o'zlarining idrok maydonlarida bir vaqtning o'zida so'zlar qatoriga ega bo'ladilar, ehtiyoj tug'ilgan vaziyatlarda esa bir necha satr yoki sahifa orqaga qaytishlari mumkin. Yozma nutqning og'zaki nutq oldidagi afzalligi shundan iborat. Yozma nutqni ixtiyoriy ravishda tuzish mumkin, chunki yozganlaringiz doimo ko'z oldingizda bo'ladi. Shu bilan birga, yozma nutq murakkab nutq shakli bo'lib hisoblanadi, chunki u avvaldan o'ylab iboralar tuzish, mulohazalarni aniqroq bayon etishni talab etadi, negaki, unga emotsional tus berib, zarur imo-ishoralar bilan amalga oshira olmaymiz.

Nutqning yana bir – kinestetik shakli mavjud. Nutqning bu turi insonda o'tmish davrlardan buyon saqlanib qolgan. Vaqt o'tishi bilan nutqning ushbu turi o'z vazifalarini yo'qotgan va hozirda asosan nutqning emotsional-ifodali tarkibiy qismlari – imo-ishoralar sifatida qo'llaniladi.

Lekin odamlarning kinestetik nutq avvalgidek nutqning asosiy turi bo'lib sanaladigan katta guruhi mavjud. Bunda kar-soqov bo'lib tug'ilgan yoki baxtsiz hodisa yoki kasallik natijasida so'zlash yoki eshitish qobiliyatidan mahrum bo'lgan odamlar nazarda tutiladi. Albatta, hozirgi zamon kinestetik nutqi qadimgi kinestetik nutqdan tubdan farq qiladi. U bir muncha taraqqiy etgan bo'lib, belgili daraklarning yaxlit tizimiga ega.

Nutq turlarining ichki va tashqi nutq turlariga bo'linishining yana bir umumiy ko'rinishi mavjud. Tashqi nutq muloqot, axborot almashinuv jarayonlari bilan bog'liq. Ichki nutq, avvalambor, tafakkur jarayonini ta'minlash bilan bog'liq.

Og'zaki, ayniqsa, yozma nutqqa tayyorgarlik ko'rishda so'zlovchining o'z ichida nutqni qaytarib olish davri mavjud. Mana shu ichki nutqdir. Unga parchalarga bo'linganlik xosdir, u vaziyatga bog'liq bo'ladi. Ichki nutq tashqi nutq asosida shakllanadi.

Adabiyotlar:

1. G'oziyev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. Югай А.Х., Мираширова Н.А. "Общая психология" – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. "Психология". Учебник. "Питер", 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. –М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.



Камаева Рима Биҗановна,
филология фәннәре докторы
Казан (Идел буе) федераль университетының Алабуга институты
татар филологиясе кафедрасы профессоры
Усманова София Алимовна,
филология фәннәре кандидаты (PhD),
Коканд дәүләт педагогика институты
узбәк теле кафедрасының өлкән укытучысы

ФРАЗЕОЛОГИК БЕРӘМЛЕКЛӘРНЕҢ КОМПОНЕНТЫ БУЛАРАК СИМВОЛЛАР

Аннотация. В данной статье рассматриваются концепты-символы в компонентах фразеологических единиц, извлеченных из произведений современных татарских прозаиков Н.Фәттаха, М. Хәбибуллина, Р.Батуллы, Т.Галиуллина, В. Имамова, Ф. Сафина. Воплощение определенных образов, связанных с внутренним миром своих героев, авторы связывают с фразеологизмами, которые имеют концептов-символов *жан, күңел, бәгырь, (душа), йөрәк* (сердце).

Ключевые слова. татарские прозаики, фразеологизм, концепт-символ.

Annotation. This article examines the concepts-symbols in the components of phraseological units extracted from the works of modern Tatar prose writers N.Fattakh, M. Khabibullin, R.Batulla, T. Galiullin, V. Imamov, F. Safin. The authors associate the embodiment of certain images associated with the inner world of their heroes with phraseological units that have concepts-symbols *жан, kunel, bagyr, (soul), yorak (heart)*.

Key words: Tatar prose writers, phraseology, concept symbol

Аннотация. Бу мәкаләдә хәзерге татар прозаиклары Н.Фәттаһ, М.Хәбибуллин, Р. Батулла, Т.Галиуллин, В.Имамов, Ф.Сафин әсәрләреннән алынган компонентларында концепт-символлар булган фразеологик берәмлекләр тикшерелә. Үз геройларының эчке дөньясы белән бәйле билгеле образларны авторлар фразеологизмнар белән бәйлиләр, алар арасында *жан, күңел, бәгырь, йөрәк* концепт-символлары бар.

Төп сүзләр: татар прозаиклары, фразеологизм, концепт-символ.

Annotatsiya. Ushbu maqolada komponentlari zamonaviy Tatar Nasr yozuvchilari N. Fattax, M. Xabibullin, R. Batulla, T. Galiullin, V. Imamov, F. Safin asarlaridan olingan konseptual ramzlar bo'lgan frazeologik birliklar muhokama qilinadi. Mualliflar o'z belgilarining ichki dunyosi bilan bog'liq bo'lgan ba'zi tasvirlarni frazeologik birliklar bilan bog'lashadi, ular orasida ruh, ruh, qayg'u, yurak tushunchalari mavjud.

Kalit so'zlar: Tatar Nasr yozuvchilari, frazeologiya, tushuncha ramzi.

Фразеологик материал символларны күзәтү өчен киң мөмкинлек бирә, чөнки аларның тотрыклылыгы, кабатлана алуы, милли үзенчәлеге символик мәгънәне ныгыту өчен шартлар тудыра, символның милли-тел үзенчәлекләрен ачыклауга ярдәм итә.

Ю.А. Гвоздарев фразеологизмнар составында сүз-символларны тикшерүнең мөһимлеген билгели. Ул телдәге символларның «халык рухын, аның тарихи тамырларын» ачыклавын ассызыклай. «Төрле телләрнең



фразеологиясендә сүз-символларны чагыштыру телләрнең милли үзенчәлеген ачарга һәм уртақ урыннарны ачықларга ярдәм итәчәк» дип билгели. [Гвоздарев1981: 120].

Тикшеренүләр күрсәткәнчә, әдәби әсәрләрдә фразеологик берәмлекләр автор сөйләмен һәм геройларны сурәтләү өчен нәтижәле образлы чараларның берсе булып тора. Күренекле татар прозаиклары Н.Фәттаһ, М. Хәбибуллин, Р.Батулла, Т. Галиуллин, В. Имамов, Ф. Сафин үзләренең әсәрләрендә кешенең эчке дөньясын, физик халәтен, аның эш-гамәлләрен тасвирлау максатыннан компонентларында символлар булган фразеологизмнарны киң кулланалар. Компонентында *жан*, *күңел* лексемасы булган фразеологизмнарны карап үтик.

Жан бирү (В.Имамов), *жаны күккә ашу жаны жаннаткә китү* (М.Хәбибуллин); *жан тәслим кылу*, *жан тарту* (Р.Батулла) – *жан иңү*, *жан керү* (В.Имамов).

«Ул *жан биргәнне* ишеткәч кенә чышан-пышан килеп хәбәр кузгаттылар» [В.И. «К.д.», 2005: 17]. «Көтмәгәндә такыяга *жан иңгән*, ди» [В.И. «К.д.», 2005: 23]. «Фани дөньядан китәр алдыннан соңгы оныгын күрмәенчә ул *жан тартмас*» [Р.Б. «С.», 1992: 59]. «Шулай итеп угыл оланга *жан иңде*» [Р.Б. «С.», 1992: 95].

Кайбер очракларда авторлар *жан* лексемасы булган фразеологизмнарны кешене уңай яки тискәре яктан тасвирлау өчен файдаланалар: *жан дус*, *жан ахирәте* – якын кеше, *дус*; *жан кисәгем* – якын кешегә иркәләп эндәшү өчен кулланыла; *жан көеге*, *жан имгәге* – һәрвакыт кайгы гына китерүче кеше.

«Булачак *жан ахирәте*, соңрак кан дошманы Надия белән институтка керү имтиханнарын биреп йөргәндә танышты» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 494]. «Юк, юк, *жан кисәгем*, мин илле, йөз елдан соң оҗмах кошы булырсың димәкче идем» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 548]. «Әлбәттә, ул аларның – ата-аналары өчен *жан көекләренең* – тулы гаепләрен, шөгыльләрен белми иде» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 514].

Язучылар аеруча актив рәвештә *жан* лексемасы белән фразеологизмнарны үз геройларының эчке дөньясын, эмоциональ халәтен тасвирлау өчен кулланалар. Һәр автор кеше күңелендә булган кичерешләрен, жан сызлавын, дулкынлануны, борчылуны, кайгыны, сагынуны үзенчә тасвирлый.

Жан-фәрманга кычкыру, *жан яраларын ачу*, *жанны талау*, *жанны тетрәтү*, *жанны тырнау*, *жанына савылган моңсулык*, *жанын тырнаган билгесез борчу*, *жаны-тәне белән гашыйк булу* *жанны явыз мәчеләр тырнау*, *жанга яшендәй үтеп керү* (Т.Галиуллин “Төнге юллар”).

« – Болай да *жанымны явыз мәчеләр тырный*» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 549]. « – Шуның өстенә мин сиңа *жаным-тәнем белән гашыйк булдым*» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 562]. « – Дөресен әйтәм, Әнисә, син рухыма, *жаныма яшендәй үтеп кердең*» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 550]. « – *Жан яраларыңны ачма!*» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 492]. «Билгесез сагыш, әллә каян *жанына савылган моңсулык*, эчке сыкрану борчып тора» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 549].

Жан авазы, *жанын жылытырлык сүз*, *жан ачысы*, *жан сыкрау* *жан бәргәләнү* (В.Имамов “Казан дастаны”).

Жаны-коты үкчәсенә җитү, *жанга тию*, *жаны актарылу*, *жан кыйналу*, *жан ачысы*, *жанын биләү*, *жанын көйдерү*, (М.Хәбибуллин “Кубрат хан”). *Жан ачысы*, *жанны актару* *жан асрау*, *жанына ачкыч ярату*, *жаннары бергеп*



жџитмәү, жџанына кагылып китү, жџанында яралу (Ф.Сафин «Саташып аткан таң»)

«Сәйдәш уйнаган музыка жџанны актара» [Ф.С. «С.а.т.», 2003: 156]. «Әллә Мостафа белән **жџаннары береген** жџитмәгәнне аңлап, шушы сәбәп белән араны өзү, өйдән чыгып китү жаен карыймы?» [Ф.С. «С.а.т.», 2003: 99]

Фразеологизмнар составында *күңел* концепт-символы шулай кешенең хисләре, кичерешләре, жџан газаплары, шатлык чыганагы булып тора: *күңел бөрешеп калу, күңел тырналу, күңелне корт кимерү, күңел кырылу, күңел тетрәнү, күңел бушап калу, күңел нечкәрү, күңел куаныч белән тулу* (Н.Фаттах); *күңелгә кара сөрәм утыру, күңеле авыр кичерү, китек күңел, күңел тулу, күңеленә шом төшү, күңелен әсәрләндереп жџибәрү* (Т.Галиуллин), *күңеле борчылу, күңелдә соңгы өмет сүнү, күңел офыклары киңәю* (Р.Батулла), *күңеленә юл таба алмау* (Ф.Сафин).

«Эч пошу, *күңел тырналу* исә аның күзгә күренмәгән әлеге чирен генә көчәйтте» [Н.Ф. «Ител», 1980: 12]. «Тотыш! – диде Торымтай, *күңеле тулып*» [Н.Ф. «Ител...», 1980: 223]. « – *Күңелемне бер уй тырный, Тотыш...*» [Н.Ф. «Ител...», 1980: 267]. «*Китек күңел* ниләр генә барлап бетерми» [Т.Г.«Т.ю.», 2005: 520]. «Таждар *күңелендә шом кузгалды*» [В.И. «К.д.», 2005: 15]. «Акмирза-Сөем тутайның *күңеле борчыла башлады*» [Р.Б. «С.», 1992: 15]. «*Күңеленә шом төшкән* Әлфия, кабалана-кабалана, төсле клеенканы күтәрде» [Т.Г. «Т.ю.», 2005: 607]. «Үзеннән куркуларына *күңеле* булып, эре генә баруында булды» [Н.Ф. «Ител...», 1980: 9] «Акбүреләрнең *күңелләре* куаныч белән тулды» [Н.Ф. «Ител...», 1980: 39] «Яшь жегетнең *күңеле* эреде дә куйды, аны татлы кайнар дулкын күмеп китте» [Н.Ф. «Ител», 1980: 146] «*Күңел* каядыр ашкына, каядыр омтыла, кемдер дәшә, чакыра сыман!» [М.Х. «К.х.», 1985: 130]. «Ә монда, сарай урамы чатында тыңлаган жыр аның *күңелен айкап ташлады*» [М.Х. «К.х.», 1985: 123] «Оркестр уйнаганда *күңел* офыклары киңәеп китте, уй-хисләр тагын да жанлырак, нурлырак, сыман тоелды» [Ф.С. «С.а.т.», 2003: 116]. / «Аз-маз керем күренә башлагач, егетләрнең *күңелләре күтәрелде*, эш алга китте» [Ф.С. «С.а.т.», 2003: 124]. «Габдулла хан *күңеленең һәр почмагы түм-түгәрәк иде*, һәммәсен дә елмаеп кына күздән кичереп утырды» [В.И. «К.д.», 2005: 8].

Шулай итеп, күп санлы мисаллар күрсәткәнчә, язучылар үз әсәрләрендә компонентында концепт-символлар булган фразеологизмнарны актив кулланалар. Концепларның символик әһәмияте тел үзенчәлеген, фразеологик кушылманың милли үзенчәлеген күрсәтә, халык тарихы белән бәйләнешен аңларга ярдәм итә.

Әдәбият

1. Батулла Р. Сөембикә: Кыйсса. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1992. – 415 б.
2. Галиуллин, Т.Н. Сәет Сакманов: Роман-трилогия. – Казан: Татар. кит. нәшр., 2005. – 656 б.
3. Гвоздарев Ю.А. Сопоставительное описание фразеологии разных языков // Образование и функционирование фразеологических единиц: Сб. ст. / Отв. ред. Ю.А. Гвоздарев. – Ростов н/Д., 1981. – С. 116-121.
4. Имамов В.Ш. Казан дастаны: Тарихи роман / В.Ш. Имамов. – Казан: Татар. кит. нәшр., 2005. – 239 б.
5. Камаева Р.Б. Национально-специфический корпус татарской лексики в



современной прозе: лингвостилистические характеристики и способы перевода на русский язык// Казань: Редакционно-издательский центр "Школа", 2019. – 268 с.

6. Сафин Ф.М. Саташып аткан таң: роман. – Казан: Татар. кит. нәшр., 2003. – 726 б.
7. Сафиуллина, Ф.С. Хәзерге татар әдәби теле. Лексикология. – Казан: Хәтер, 1999. – 288 б.
8. Фәттахов Н.С. Ител суы ака торур. Тарихи роман. – Казан: Тат. кит. нәшр., 1980. – 398 б.
9. Хәбибуллин М.М. Кубрат хан: Роман. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1985. – 376 б.
10. Хәбибуллин М.М. Шайтан каласы. Тарихи роман. – Казан: Татар. кит. нәшр., 1993. – 303 б.

Hasanova Dilfuza Odilovna
Qo'qon DPI dotsenti, filologiya fanlari doktori

SHAXSNI JINS JIHATDAN IFODALOVCHI LEKSIK BIRLIKLARNING IZOHLI LUG'ATDA BERILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik birliklarning barchasida shaxsni jins jihatidan ifodalash ma'nosi yetakchi mavqeni egallab turganligi, shaxsning ijtimoiy holat va munosabatlari turli omillar chambarchas bog'liqligi, bu holat shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar lisoniy ma'nosiga ham ta'sir etishi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar. shaxs, sotsiolingvistik, fyeministik, sotsial, gender, psixolingvistik, aspekt, jamiyat

Аннотация. В данной статье показано, что во всех лексических единицах ведущее место занимает значение выражения человека в родовом признаке, что социальное положение и отношения человека тесно связаны с различными факторами, и эта ситуация также влияет на языковое значение лексических единиц, выражающих социальные особенности человека.

Ключевые слова: личность, социолингвистический, феминистский, социальный, гендер, психолингвистический, аспект, общество

Annotation: In this article, it is shown that in all lexical units, the meaning of expressing a person in terms of gender occupies a leading position, that a person's social status and relationships are closely related to various factors, and this situation also affects the linguistic meaning of lexical units expressing the social characteristics of a person.

Key words. personality, sociolinguistic, feminist, social, gender, psycholinguistic, aspect, society.

Shaxs sotsial belgisini ifodalovchi leksik birliklar sirasida gender, ya'ni jins nuqtai nazaridan tavsiflovchi so'zlar ham o'zbek tilining leksikasida o'ziga xos ma'no va vazifasi, lisoniy-ijtimoiy xususiyatlari bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, gender bir vaqtning o'zida shaxsning ijtimoiy-madaniy shartlashgan erkaklik va ayollik xususiyatlarini o'zlashtirish jarayoni hamda natijasini ifodalovchi tushuncha sifatida talqin etiladi. Shunga ko'ra, gender deganda jinsning ijtimoiy-madaniy aspektini ifodalovchi tushunchani nazarda tutish maqsadga muvofiq.



Til jamiyat a'zolari o'rtasida eng muhim aloqa-aralashuv vositasi sifatida alohida ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Til boshqa ijtimoiy hodisalar bilan uzviy aloqadadir. O'tgan asrning uchinchi choragida gender masalasi bilan bog'liq tadqiqotlarga nisbatan munosabat faollashdi. Ayni davrda til va sotsial munosabat doirasida til hodisalarini tadqiq etish yondashuvlarining ta'sirida tilshunoslikning yangi yo'nalishlari shakllandi.

1. Sosiolingvistik tadqiqotlar.
2. Feministik tilshunoslik.
3. Ikki jinsni o'rganuvchi sof gender tadqiqotlari.
4. Maskulinlik tadqiqotlari (Mens studies: 90 yillarda vujudga kelgan yangi tadqiqotlardan biri).
5. Jinsni psixolingvistik nuqtai nazardan o'rganish.
6. Krossmadaniy va lingvomadaniy tadqiqotlar.

Til va jamiyat, til va ijtimoiy voqelik munosabatlari ko'p qirrali va ayni paytda, murakkablik kasb etadi. Shuning uchun bitta hodisaning turli aspektda tadqiq qilinishi murakkab tabiatli hodisalarning mohiyatini ochishga, xolis va batafsil tavsiflashga xizmat qiladi, deb hisoblash lozim.

Shu o'rinda leksik birlik va uning ma'no strukturasini o'rganish ijtimoiy omillar bilan aloqadorlikda amalga oshirilganda muhim nazariy xulosalar taqdim etishini alohida ta'kidlash lozim. Til hodisalarini ijtimoiy omillar bo'lgan munosabati asosida o'rganishning asosiy maqsadi borliq hodisa va voqeligini tasvirlovchi, tavsiflovchi vositalarning tilda mavjudligi, xususan, shaxsni jins jihatdan ifodalovchi til birligi ma'nosining hosil bo'lishida lisoniy va nolisoniy omillarning o'rni, ta'sirini o'rganishdir.

Shaxsni jinsiga ko'ra tavsiflovchi leksik birliklar shaxsning gender omili asosida o'zining leksik-semantik tarkibini shakllantiradi. O'zbek tilining leksik tarkibida *o'g'il, qiz, yigit, o'g'lon, qizaloq, qizcha, er, erkak, ayol, xotin, chol, kampir, ojiza, zaifa, doya, bekach, juvon, oyimposhsha, xotin-xalaj, xotin-qizlar, qiz-juvonlar, yigit-yalang, navjuvon, hezalak, o'spirin* kabi so'zlar lisoniy ma'nosi shaxsning sotsial belgisidan biri bo'lgan jinsi bilan bog'liq holda shakllangan birliklar bo'lib, ularning barchasi uchun umumiy, birlashtiruvchi omil shaxsni jinsiga ko'ra ifodalash hisoblanadi. Shu asosda keltirilgan so'zlarning barchasi uchun umumiy lisoniy ma'no sifatida "jinsga xoslik" ma'noni qayd qilish lozim. Shuningdek, ularning har biri alohida lisoniy ma'no va vazifalarga egaligi bilan o'zaro farqlanadi. Bular uchun integral sema "jinsga xos"lik belgisi bo'lsa, farqlovchi semalar sifatida "er jinsiga mansub", "ayol jinsiga mansub" ma'no bo'lakchalarini belgilash mumkin. Ayni shu farqlovchi semalar asosida jinsga ko'ra shaxsni ifodalovchi lug'aviy birliklar dastlabki bosqichda ikki guruhga ajraladi:

- 1) erkak jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar;
- 2) ayol jinsiga mansublikni ifodalovchi leksik birliklar.

Tasniqlangan birinchi guruhga "er jinsiga mansub" semasiga ega bo'lgan *o'g'il, yigit, o'g'lon, er, erkak, chol, yigit-yalang, navjuvon, hezalak, o'spirin* kabi so'zlar mansublik kasb etsa, ikkinchi guruh "ayol jinsiga mansub" semasiga ega bo'lgan *qiz, qizaloq, qizcha, ayol, xotin, kampir, bekach, juvon, oyimposhsha, xotin-xalaj, xotin-qizlar, qiz-juvonlar* kabi birliklar bilan to'ldiriladi.

Til birliklari sotsial xoslanishining ikki xil mazmun kashf etishini farqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holatga tadqiqotchi X.Yo'ldasheva tomonidan quyidagicha munosabat bildiriladi:



- 1) nomlashning sotsial xoslanganligi;
- 2) qo'llanishning sotsial xoslanganligi.

Bundan kelib chiqqan holda sotsial leksika va sotsial nutqni farqlash lozim bo'ladi. Sotsial leksika sosiumni atash-nomlash va uning xususiyatlarini ifodalash uchun xizmat qilsa, sotsial nutq ularning nutqiy xarakteristikasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan, *ayol, erkak, podsho, vazir, o'g'il, qiz* so'zlari sosium atamaları bo'lsa, *aylanay, qoqindiq, yashshavor, cho'ntakbop, girgitton* kabi ifodalarning qo'llanilishi sotsial nutqni ifodalaydi". Shunga ko'ra, tadqiqimiz manbai uchun sosiumni atash-nomlash uchun xizmat qiladigan leksik birliklarni tanlaymiz. Bunday tipdagi leksik birliklar sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: *o'g'il, yigit, o'g'lon, er, erkak, chol, yigit-yalang, navjuvon, hezalak, o'spirin, qiz, qizaloq, qizcha, ayol, xotin, kampir, bekach, juvon, oyimposhsha, xotin-xalaj, xotin-qizlar, qiz-juvonlar* kabilar.

Ushbu leksik birliklarning barchasida shaxsni jins jihatidan ifodalash ma'nosi yetakchi mavqeni egallab turadi. Bundan tashqari, shaxsni ham jins, ham qarindoshlik, ham kasb-kor, ham yosh jihatdan tavsiflovchi leksik birliklarni ham shaxsni jinsiga ko'ra tavsiflovchi leksik birlik sifatida qarash lozim. Chunki, shaxsning ijtimoiy holat va munosabatlari turli omillar chambarchas bog'liqlik, bu holat shaxsning sotsial belgilarini ifodalovchi leksik birliklar lisoniy ma'nosiga ham ta'sir etmasdan qolmaydi. Xususan, *yigit* so'zining atash ma'nosida ham shaxsning jins belgisi, ham cholga nisbatan yosh belgisi mujassamlashgan. Yoki *kampir* so'zining ma'nosida ayol jinsiga mansublik hamda shaxsning keksalik holati semalari birgalikda tarkib topgan. *Aktrisa, artistka, akusherka, balerina, doya* kabi so'zlarning ma'nosida esa kasbi, shug'ullanadigan faoliyati bilan birga ayol jinsiga mansublik belgisi ham mavjud. Qarindoshlik, jins, yosh belgilarini birgalikda ifodalovchi ma'noga ega so'zlar sifatida *tog'a, kuyov, aka, uka, singil, egachi, moma, buva, qaynata, qaynana, kelin, pochcha, amma, xola, bobo, opa* kabi leksik birliklar qayd qilinishi lozim. Bitta so'z ma'nosining shakllanishida turli omillar hamkorligi mavjud bo'lsa-da, ushbu omillarning so'z ma'nosidagi ta'siri, mavqei turlicha bo'lishi kuzatiladi. Masalan, *yigit* so'zida jins omili yetakchi, yosh omili esa unga nisbatan keyingi o'rinda bo'ladi. *Kampir, chol* so'zlarida yosh jihati jins omiliga nisbatan kuchliroq hisoblanadi. Ham kasb-kor, ham jinsni tavsiflovchi *aktrisa, artistka, akusherka, balerina, doya, solistka, murabbiya* so'zlari leksik ma'nosida kasb va jins omili teng qiymat kasb etadi. Qarindoshlikni jins jihatidan tavsiflovchi *tog'a, kuyov, aka, uka, singil, egachi, moma, buva, qaynata, qaynana, kelin, pochcha, amma, xola, bobo, opa* kabi so'zlarda qarindoshlik holatini ifodalash yetakchi o'rinda turadi, jins omili kuchsizroq pozisiya egallaydi.

Yuqoridagi kuzatish va tahlillarga ko'ra, shaxsni jins jihatiga ko'ra ifodalovchi so'zlar guruhini qayd qilinganlar asosida yanada boyitish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 188 с.
2. Yo'ldasheva X. O'zbek tarixiy romanlarining sosiolingvistik tadqiqi (monografiya). – Toshkent, 2018. – B. 15.
3. Shaxsni jinsiga ko'ra tavsiflovchi so'zlarning leksikografik tavsifi tahlilida



o'zbek tilining izohli lug'atiga tayanamiz: O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jild. 1-5-jildlar. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008.

4. Raupova L. Dialogik diskursdagi polipredikativ birliklarning sosiopragmatik tadqiqi: Filol. fan. dokt. ... diss. – Toshkent, 2012. – B. 154.

5. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari (monografiya). – Farg'ona, 2021. – B. 180-182.

Sh.Akramov, Qo'qon DPI dotsenti

GAP BO'LAKLARI TAVSIFI XUSUSIDA

Annotatsiya. Mazkur maqolada gap bo'laklarining nazariy tahlil etishga e'tibor qaratiladi va gapdagi bo'laklar masalasi [WPM] valentligi doirasidagi mavqeiga ko'ra belgilanishi borasida fikr yuritiladi. Ayniqsa so'z kengaytiruvchisi mavqaida keluvchi birliklarning gapda mustaqil mavqega ega emasligi, ular asosiy markaz bilan o'zi birikib kelgan so'z orqali bog'lashuv hosil qilishi misollar orqali izohlanadi.

Kalit so'zlar. gap markazi, verbsentrik nazariya, valentlik, funksional to'ldiruvchi, nofunktsional to'ldiruvchi, so'z kengaytiruvchisi, gap kengaytiruvchisi.

Аннотация. В этой статье основное внимание уделяется теоретическому анализу частей речи и обсуждается, как вопрос о частях речи определяется в соответствии с их положением в валентности [WPM]. В частности, тот факт, что единицы в позиции словорасширителя не имеют самостоятельного положения в предложении, объясняется на примерах тем, что они образуют связь с основным центром через слово, к которому он присоединяется.

Ключевая слова. Распространение предложения, валентность, распространение слова, статус дополнения, статуса обстоятельства, выделения второстепенных членов предложения.

Annotation. This article focuses on the theoretical analysis of parts of speech and discusses how the question of parts of speech is defined according to their position in the valency [WPM]. In particular, the fact that units in the expander position do not have an independent position in the sentence is explained by examples by the fact that they form a connection with the main center through the word to which it is attached.

Keywords. Sentence propagation, valence, word distribution, supplement status, circumstance status, highlighting of minor members of the sentence.

So'nggi yillarda o'zbek tilshunosligida barcha til hodisalarida bo'lgani kabi gap ta'rifida ham turkiy tillarning ichki tabiatidan kelib chiqib yondashildi hamda asosiy darslik va qo'llanmalarda gapning quyidagi milliy tavsifi yuzaga keldi: "Kesimlik belgisiga ega bo'lib, tugallangan ohang bilan talaffuz qilinuvchi va ma'lum bir fikr ifodalovchi sintaktik birlik gap deyiladi"[2, 160]. Uzluksiz ta'limning asosiy bo'g'inlarida gapga berilgan ta'riflarning barchasini "kesimlik belgisiga egalik" tushunchasi umumlashtiradi. Ko'rinib turibdiki, ayni paytda o'zbek tilshunosligida gapni ta'riflashda gap bo'laklari – xususan, kesimga ta'kid berilyapti. Demak, kesim – gapning tavsifiy belgisi, fikriy mundariyasi.



Ammo nutq shu qadar cheksiz va rang-barang ko'rinishlarga egaki, ularning barcha ko'rinishlarini mavjud qoidalarda jamlab olishning imkoni yo'q. O'qitish jarayonida shunday nutq parchalariga duch kelamizki, ularni gap bo'laklariga ajratishda darsliklardangina o'zlashtirilgan bilimlar bilan qanoatlanib bo'lmaydi. "Gapda so'zlar o'zaro grammatik munosabatga kirishib, gap bo'laklarini hosil qiladi. Gap bo'laklari vazifasini mustaqil so'zlarga bajaradi"[3, 56]. Ushbu hukmga tayangan o'quvchi **Va** – *teng bog'lovchi*. **Bilan** ko'makchisi *bog'lovchi vazifasida kelishi mumkin*. **Albatta** modal so'zi tasdiqni bildiradi. **Zarur** ishlarim **bor**. **Yo'q** gapni qayerdan olding. **Lekini** ham bor kabi gaplarni bo'laklarga ajratishda *va, bilan, albatta, zarur, bor, lekin, yo'q* so'zlarining mustaqil so'z emasligi o'quvchining ularni ega, aniqllovchi yoki kesim sifatida ajratishiga, shuningdek, **O'qimaymaning** nimasi. **Boramandan** gapir. **Bordim** – *nima, bormadim* – *nima* tipidagi gaplarda esa so'zning shakli "*boramandan*"ni to'ldiruvchi, "*o'qimaymaning*", "*bordim*" va "*bormadim*"ni ega sifatida belgilashiga monelik qiladi. Darslikdagi "Ega, asosan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'lib keladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi" ta'rifi "*Bu kitobdan menda ham bor*"[4, 116] tipidagi gaplarda "*kitobdan*"ni ega deb ajratishga, tilshunoslikda kesimning grammatik shakli xususida yetakchilik qiladigan qarashlar poetik nutqda uchrovchi *Man saningman, san manim* (Iqbol Mirzo), *Aytgum, bu kun, u manim, manim* (A.Oripov), *Falak amri: men – sening, sening* ("Yevgeniy Onegin"dan) tipidagi gaplarda *saningman, manim, manim, sening* so'zlarini kesim deb qarashga to'sqinlik qiladi. Tilshunoslikda, xususan, o'zbek tilshunosligida ham mavjud bo'lgan sintaktik nazariyalarda gap bo'laklarini tasniflashga yondashuv turlicha bo'lgani kuzatiladi. Yaqinga qadar mavjud darslik va qo'llanmalarda gap bo'laklari bosh bo'laklar (ega, kesim) va ikkinchi darajali bo'laklar (aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol) sifatida o'rganilib[5, 70-71], tilshunosligimizda gap bo'laklarining ega – kesim – to'ldiruvchi – aniqllovchi – hol tartibi hamda "Ega o'z sostavidagi bo'laklarga hokim (shu sostavning bosh unsuri) bo'lganidek, kesim ustidan ham hokimdir. Kesim egaga nisbatan tobe, o'z sostavidagi bo'laklarga nisbatan hokimdir"[6,160] degan nazariya yetakchilik qilib keldi. So'nggi tadqiqotlarda gapni bo'laklarga ajratishning yangi-yangi tamoyillari ilgari surilmoqda. "Ega va kesimni asosiy, qolgan bo'laklarni esa fakultativ (ikkinchi darajali) bo'lak deb hisoblash gapning struktur sxemasini va struktur tiplarini belgilashda asosiy mezon rolini o'ynadi. Gap strukturasi bunday qarash uning tarkibiy qismlari bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linishini taqozo etdi. Gapning struktur sxemasini tashkil etuvchi predikativ minimum ifodalovchi ega va kesim shu gapning konstuyentlari sifatida bosh bo'laklar; ega yoki kesimga tobe bog'lanib, ularni kengaytirib kelgan bo'laklar ikkinchi darajali hisoblanadi"[7, 131].

Tilshunos H.Usmonovning ta'kidlashicha, gap tarkibida mazmuniy va grammatik tayanch nuqta – predikativlik shaklidagi predikat, ya'ni kesim.

Boshqa barcha bo'laklar kesimning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldirib, unga nisbatan ma'lum vaziyatda keladi. Bir necha morfologik shakllardan ifodalangan, kesimga nisbatan biror sintaktik vaziyatda kelgan sintaktik butunlik bir butun holda funksiyalashadi. Bunday sintaktik butunliklarda bir uzv boshqa uzvlarni birlashtiruvchi yetakchi vosita sanaladi. Ayni paytda, bu yetakchi qism o'zi ergashtirib kelgan boshqa qismlar bilan birgalikda bir butun holda kesimga nisbatan tobe vaziyatda keladi[7, 39].

Kesim gapning fikriy markazi ekan, gapdagi barcha bo'laklar bilvosita yoki bevosita unga tobelanadi. Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi



bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gapning tarkibiy qismini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zning va kesimlik kategoriyasi shaklining valentligi belgilaydi. Gap tarkibidagi bo'laklar ana shu markaziy bo'lakni to'ldirishdagi rolga ko'ra ayni paytda gap kengaytiruvchilari (gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi bo'laklar), so'z kengaytiruvchilari (gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldiruvchi bo'laklar)ga bo'linadi. Gapdagi barcha bo'laklarning o'zni, maqomi kesimga nisbatan aniqlanadi. Gap bitta markaziy bo'lak (yadro) – kesim, kesimlik belgisini kengaytiruvchi bo'laklar – ega, hol (ega kesim tarkibidagi shaxs-son, hol zamonni aniqlashtiradi) va kesimni ifodalagan so'zning ma'nosini kengaytiruvchi bo'laklar - to'ldiruvchi, aniqlovchilardan tashkil topadi. H.Usmonova gapning markaziy birligi bo'lgan kesimning bo'sh o'rinlariga nisbatan "sintaktik pozitsiya" terminini qo'llaydi. Uning bo'sh o'rinlarini to'ldiruvchi sintaktik birliklar kesimga nisbatan muayyan vazifani bajaradi. Bu vazifa kesimning bo'sh o'rinlariga (valentliklariga) qarab belgilanadi. Pozitsiyaga ko'ra gapni bo'laklarga ajratish masalasi o'zbek tilshunosligida o'tgan asr oxirlarida ham ilgari surilgan edi.

Gap bo'laklarini, ularning turlarini belgilashda, bir qancha hodisalar hisobga olinishi, jumladan, sintaktik munosabatdagi holat va mazmun, grammatik aloqaga kirishgan so'zlarning qaysi turkumga kirishi va formasi, gapdagi o'zni, intonatsion xususiyati muhimligi; mazmun jihatdan kesim birinchi o'rinda turishi, boshqa bo'laklarning darajasi uning kesimga yaqin turishi bilan ham bog'liqligi A.G'ulomov va M.Asqarovalar, gap bo'laklarini belgilashda, ularni gap strukturasida to'g'ri va obyektiv tayin etishda gapni pozitsion struktura ekanligidan kelib chiqishi maqsadga muvofiqligi A.Hojiyev va N.Mahmudovlar tomonidan kun tartibiga qo'yilgan.

Xususan, taniqli tilshunos J.Omonturdiyev gap bo'laklari tipologiyasi xususida to'xtalar ekan, gap bo'laklarini to'g'ri tahlil qilish va ajratish sintaktik qayta bo'linish hodisasi bilan ham bog'liqligiga urg'u beradi. Ya'ni, so'zlarning biror bo'lak bo'lishga xoslangan funksiyasi doimiy emas, gapda biror bo'lak deb qaraladigan so'z davr o'tishi bilan forma tomondan o'zgarib, oldingi vazifasini bajarmaydigan bo'lib qolishi mumkinligi ta'kidlanadi. Olim ma'lum bir bo'lakning qayta funksiyalanish natijasida gapda boshqa bo'lak vazifasida kelishiga nisbatan sintaktik qayta bo'linish terminini qo'llaydi.

Shuni ham aytish kerakki, sintaktik qurilmada ishtirok etayotgan a'zolarining qurilmadagi vazifasini aniqlash, gap bo'laklari tahlilida bo'lakning qanday so'zlar bilan ifodalanishi, so'rog'i yoki grammatik shakliga emas, balki uning gap yadrosi bo'lgan markaz, ya'ni kesimning qaysi bo'shlig'ini to'ldirayotganligi, kesimga nisbatan joylashuv o'zni ham muhim rol o'ynaydi. O'zbek nutqining turli uslubiy shakllarida uchraydigan har qanday qo'llanishlarning sintaktik qurilishi tahlilida mavjud mezonlarga qo'shimcha sintaktik pozitsiya tushunchasidan kelib chiqib yondashish gap bo'laklari tahlilida bo'shliq qolishiga yo'l qo'ymaydi. Shu sababli gap bo'laklari masalasiga an'anaviy talqinlar bilan emas sistem nazariy talqin asosida yondashish zarur. Bu vaziyatda gapning sintaktik tahlili gap yadrosi va uning qurshovini aniqlash bilan, hamda qurshovni tashkil etuvchilarining o'zini aniqlashtirib qo'yish bilan kifoyalanadi. Bu holat o'quvchi va uni tushtiruvchi o'qituvchi uchun ham birmuncha qulay hamda tushunarli bo'lar edi deb hisoblaymiz. Ya'ni gapning sintaktik tahlilida gapning asosiy markazi bosh bo'lak(kesim) va uni kengaytirishga xizmat qiluvchi so'z va gap kengaytiruvchilarini farqlash va izoh berish zarurligidir.



Shunday qilib, gap bo'laklari gap tarkibida nechta so'z bo'lishi bilan emas, gapda nechta mustaqil bog'lashuv markazi borligi bilan belgilansa maqsadga muvofiq bo'ladi. So'z bog'lashuvi haqidagi ta'limotning kurtaklari an'anaviy tilshunosligimizda aslida avvaldan mavjud. Xususan, ko'pincha aniqlovchilar o'z aniqlanmishidan mustaqil gap bo'lagi sifatida ajratilmaydi (masalan, ba'zi qaratqichli va murakkab aniqlovchilar), ular o'zi ergashib kelgan hokim bo'lak doirasida ko'riladi. Masalan, *Bepoyon dalalarda oltin boshqalar jilvalanadi* gapida bepoyon, oltin kabi aniqlovchilar holning aniqlovchisi(bepoyon), eganing» aniqlovchisi (oltin) deb qaraladiki, bizning tahlilimiz shunday talqin kurtaklarini mantiqiy nihoyasiga yetkazishga qaratilgan. Gap tarkibidagi bog'lashuv markazini gap qurilishiga bevosita aloqador bo'lmagan kengayish sifatida tahlil etish so'z kengaytiruvchilari tushunchasining shakllanishiga olib keldi. So'z kengaytiruvchilari so'z ma'noviy valentlik(bog'lashuv) imkoniyatlarining nutqdagi voqelanishi bo'lib, ular gapning sintaktik qurilishida mustaqil o'rin egallamaydi va gap tarkibiga o'zining markazi orqali bog'lanadi. Boshqacha aytganda, so'z kengaytiruvchilari o'z kengayuvchi so'zi bilangina bog'liq bo'lib, gap qurilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Ular gap tarkibidagi so'zlarning markaziy bo'lakka(muayyan so'zga) ma'noviy bog'liqligini aks ettiradi va shu asosda uning mohiyati belgilanadi[1, 45].

Anglashiladiki, so'z kengaytiruvchilari so'zning semantik valentligi bilan uzviy aloqada bo'lganligi sababli hamrohlari yoki soylari sifatida qaraladi. Hokim so'z(semantik valentlik) imkoniyati asosida kengaytiriluvchi so'z qo'llangan barcha holatlarda(o'rinlarda) uning so'z kengaytiruvchilari doimiy erashib keluvchi hamrohlar sifatida so'z bilan birga qo'llana oladi.

Gapdagi bo'laklar masalasiga (WPm) valentligi doirasida yondashish ularning mohiyatan ikki turini farqlash imkonini berar ekan, yuqorida tavsiflangan so'z kengaytiruvchilari gap bo'laklari bo'la olmasligi yanada oydinlashadi.

Bu masalada sintaktik tahlilning nazariy asosi sifatida valentlik imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda uni amaliyotga joriy etish katta samara berishini alohida ta'kidlash zarur.

Adabiyotlar:

1. Akramov Sh.T. O'zbek tilining gap qurilishida to'ldiruvchi va hol ([WPm] valentlik aspektida).ND.Toshkent. 1997 y.
2. The Position Of The Determiner In Sentence Construction. S Akramov, A Hasanov Journal of Positive School Psychology 6 (11), 2768-2777 7 2022. HIERARCHICAL INTERPRETATION OF SECOND-ORDER FRAGMENTS.
3. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining 3-kurs talabalari uchun darslik. A.Nurmonov va boshq.- T.: "ILM ZIYO", 2010. –160 b.
4. Она тили 8-синф учун дарслик. М.Қодиров ва бошқ. – Т.: Чўлпон, 2014. –144. В-56
5. Ўзбек тили грамматикаси. II-том. Синтаксис. Ғ.Абдурахмонов ва бошқ. Т.: Фан, 1976. 560 б. В-116-117
6. А.Ғуломов, М.Асқарова. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. – 256 б. В-70-71
7. Н.Usmonova. "O'zbek tilidagi gap bo'laklarining pozitsion strukturasi" Filol.fan. dok. dis.. avtoref. T., 2009. 39 b.



8. Sayfullayeva R., Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili: Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2010. 414 b. B-335
9. Tokhtasinovich, Akramov Shukurjon, and Tursunova Navruza. «WORD EXPANDERS IN UZBEK LANGUAGE.» Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 1765-1771.
10. Мадраҳимов, И. С. «Субстанциал морфология ва лисоний бирликлар таснифи муаммолари.» (2022).
11. Hasanov, A. «STUDY OF SYNONYMS IN LINGUISTICS.» Open Access Repository 9.3 (2023): 207-212.
12. Yigtaliyev, Umidjon, and Shohruhbek Umidjonov. «THE ROLE OF SYNONYMY AND ANTONYMY PHENOMENA IN THE CHAIN OF GRADUAL RELATIONS.» Open Access Repository 4.3 (2023): 894-896.
13. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «LINGVOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES.» Open Access Repository 9.3 (2023): 176-181.

U.E.Rahimov

Andijon davlat universiteti

O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.n.

KONSEPT VA KONSEPTOSFERANING TADQIQIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya

Nazariy qarashlar, konseptning sistema sifatidagi butunligini ta'minlovchi asoslar, konseptosfera va uning bugungi kundagi talqini, makro va mikrosistema sifatida tadqiq etish muammolari yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические взгляды на понятие и концепт, основы, обеспечивающие целостность понятия как системы, концептосфера и ее сегодняшняя интерпретация, проблемы исследования как макро-и микросистемы.

Annotation

This article discusses theoretical views on the concept and concept, the foundations that ensure the integrity of the concept as a system, the conceptual sphere and its current interpretation, the problems of research as a macro- and microsystem.

Kalit so'zlar: konsept, konseptosfera, kognitiv tilshunoslik, semantika, semiotika, neyrolingvistika, psixolingvistika, kommunikant, sotsial guruh.

Barcha tilshunoslar e'tirof etgani singari tilshunoslikning bugungi mental bosqichida antropolingvistik tadqiqot zamonaviy metodologiya sifatida tan olindi va antropolingvistik nazariyalar asosida rivojlanmoqda. Tilshunoslik hodisalariga antropolingvistik yondashuv tilshunosligimizga ko'plab yangi tushunchalarni olib kirdi. Natijada til hodisalarini “inson-olam-til” modeli asosida tadqiq etish kuchaydi. Bunday yondashuvda inson omili markaziy o'rinda turadi. Inson kommunikativ algoritimi o'zaro aloqadorlikda tadqiq etiladi va insonning noverbal salohiyati hamda uni yuzaga chiqaruvchi lingvistik asoslar yaxlit butunlikda tahlil qilinadi. Bunday tadqiqotlar



tilshunoslikda til hodisalariga semantik va kognitiv yondashuv deb nomlanmoqda. Semantik va kognitiv yondashuvda zamonaviy psixolingvistika hamda neyrolingvistika asosida yuzaga keldi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda inson fikrlashi ongda imkoniyat tarzida mavjudligi va ular inson yoki millatning konsepti, konseptasferasini tashkil qilinishi nazarda tutiladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda konsept va konseptasfera atamaları keng qo'llanilmoqda hamda ularning izohida ham turlicha qarashlar mavjud. Bunday qarashlarning barchasida umumiy uzv – inson ongidagi olamni idrok qilishi uchun mavjud bo'lgan tushunchalar majmui, yaxlit butunligi e'tirof etiladi. Bizningcha, konsept umumiylik va xususiylik nuqtai nazardan qaralsa, millatidan qat'iy nazar dunyodagi barcha insonlar ongidagi atrof olamni anglashdagi tushunchalar majmui sifatida baholanishi mumkin. Konseptosfera esa muayyan xalqning, muayyan shaxsning olamni idrok etishi uchun yaxlitlangan tushunchalar majmuidir. Demak, konseptosfera muayyan jamiyatdagi muayyan shaxsga nisbatan qo'llansa, nisbatan individuallik kasb etsa, muayyan jamiyatdagi muayyan xalqqa yoki millatga nisbatan qo'llansa, nisbatan umumiylikni anglatadi.

Hozirgi davr tilshunosligining rivojini antropologik tadqiqotlar ko'lami bilan izohlash mumkin. So'zning ma'no strukturasi leksik ma'nodan tashqari boshqa ma'nolar talqini so'zning "inson-olam-til" qurilmasidagi o'ziga xos tadqiqini ochib beradi. Natijada so'zning pragmatik, lingvomadaniy, lingvoma'naviy, lingvosemiotik qirralari oydinlashadi. Chunki so'zning belgilik xususiyati nafaqat tilshunoslik fanida, balki boshqa fanlar doirasida ham yuzaga chiqadi va lingvistik semiotika, fizik semiotika, biologik semiotika kabi yo'nalishlarning maydonga kelishiga turtki bo'ladi. Sistem tadqiqotlar kuchaydi. Tilda yangi-yangi yo'nalishlar va tadqiqot metodlari yuzaga keldi. Xilma-xil yondashuv va xilma-xil metodlar paydo bo'ldi, lekin bu metodlar, yondashuvlar tilning tub mohiyatini ochib bera olgani yo'q. Yuzaga kelgan yondashuv va metodlar tilning u yoki bu sohasini aniqlashtirishga xizmat qildi, xolos. Hech bir nazariya, yondashuv yoki metodlar tilning umumiy qirralarini qamrab olmadi. Shunday bo'lsa-da, hozirgi kunda tilshunoslik metanazariy bosqichga ko'tarildi. Natijada til yangi bosqichda antropotsentrik nazariya asosida talqin qilina boshlandi. Unda markaziy figura sifatida inson tushunila boshlandi. Bugungi zamonaviy tilshunoslikning lingvopragmatika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida matn yaratilishi va idrokida shaxs omili masalasi tadqiqot ob'ektining markazini tashkil etadi. Hozirgi kunda tilshunoslikda "Kognitiv lingvistika" fani judayam urfga kirdi. U fan zamonaviy tilshunoslikda mustahkam o'rin egallayotgan tilshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Kognitiv so'zi inglizcha cognize – "bilmoq", "anglamoq", "tushunmoq" dan olingan bo'lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur (ong) bilan bog'lab, uning hosil bo'lishidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarining ijtimoiy, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitiv tilshunoslik bu jihatdan psixolingvistika, antropolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika kabi turli sohalar bilan bog'lanadi. Kognitiv lingvistika – tilshunoslikning nisbatan yangi yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalishga amerikalik mashhur tilshunoslar Jorj Lakoff va Ronald Lengekker tomonidan asos solingan. 1980-yillarda J.Lakoff hamda R.Lengekkerning ishlari jahonning ko'plab



tilshunoslari uchun qo'llanma vazifasini bajardi. Margaret Vinters o'zining "Kognitiv tilshunoslik tarixi" nomli kitobida ushbu nazariyaning kelib chiqishida amerikalik tilshunoslarning xizmati katta ekanligini qayd etib o'tadi [1.]. J.Lakoff, R.Lengekker, Ch.Fillmor, V.Cheyf, L.Talmi kognitiv tilshunoslikning darg'alari hisoblanadi [2.]. Ushbu ilmiy tadqiqotlar orqali konsept va konseptosfera tushunchalari kirib keldi.

Konsept insonning bilishidagi voqelik aks etadigan harakatlarni o'z ichiga oladi. Konsept inson ongida dunyoning lisoniy manzarasini chizadi, insonning umumiy bilish fondi va axborotlarni qayta ishlashida asosiy rol o'ynaydi. Aynan konseptlar orqali individning aqliy-ruhiy faoliyati amalga oshiriladi. Rus tilshunosligida turli tadqiqotchilar konsept yuzasidan o'z qarashlarini bayon etganlar. N.D.Arutyunova fikricha, konseptning o'ziga xos maqomi mavjud, u amaliy tushuncha bo'lib, til hodisalarining mazmuniy mundarijasini inson ongida aks ettiradi. Konseptlar "madaniy qatlam, inson va dunyo aloqalari vositasida" shakllanadi [3. C.37.].

A.P.Babushkin konseptning mazmuniy strukturalarini o'rganadi. Konsept bu – mental gavdalandirishdir. Konsept narsalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni belgilaydi va ularni turkumlashtiradi[4. C.21.]. Tadqiqotchi yana konsept "ongning umumiy diskret birligi" ekanligini, tillarning turli tabiatga ega ekanligi va verballikni tadqiq qiladi [4.c.13.].

V.Z.Demyankovning fikricha, konseptlar insonning ongida imkoniyat tarzida mavjud va uning o'zi konseptni mental shakllantiradi [5. C. 45.]. Konsept bu – umumiy tushuncha, u so'zga nisbatan kengroq, "mental leksikonga aloqador birlik", bilimlar haqidagi axborot, insonning qobiliyatlari, uning tajribasi va turli narsa-hodisalar haqidagi mental faoliyatidir[5. C.48.].

Tadqiqotchi V.I.Krasik konseptni belgilar to'plamini o'z ichiga oluvchi g'oya va u umumiy, assotsiativ, emotsional birlik deb tushuntiradi [6. C. 41-42]. U yana mental ma'lumotlar, qadriyatlarni o'z ichiga oluvchi, perseptiv-obraz birligi sifatida mavjud bo'ladi. Qadriyatlar bu madaniy qatlam, xotiradagi tajribaviy ma'lumotlar va metaforik qayta ishlashlar yig'indisidir dtb tushuntiradi [7. C. 47.]. Z.D.Popovaning qayd etishicha, konseptning mavjud belgilari bu uning qaysi madaniy muhitda shakllanganligi bilan bog'liq.

Bizningcha, konsept haqida A.Babushkin va I.Sterninlarning fikrlari ancha mufassal: "Konsept bu diskret mental ma'lumotlar, inson ongidagi mental kodlar birligining umumiy bazasi, unda ma'lumotlarning ichki strukturalari mavjud, reprezentatsiya jarayoni bu – inson va jamiyatning umumiy kognitiv harakatlari natijasidir. Konsept predmet yoki hodisalar haqidagi ensiklopedik ma'lumotlarni aks ettiradi. Voqea va predmetlarga ijtimoiy dunyoqarash va munosabat esa interpretatsiya jarayonida amalga oshiriladi.

Tadqiqotchining fikricha, barcha konseptlar ham albatta til qurilishiga ega bo'lmaydi. U rus tilidagi "*molodojeny*" (yangi turmush qurgan) so'z va konsept mavjudligini, ammo "*storojeny*" (yoshi o'tib turmush qurgan)so'zi mavjud emasligini, biroq rus madaniyatiga mansub kishilar ongida ushbu konsept mavjud ekanligini misol qilib keltiradi. Umuman olganda, konseptni ma'lum bir tildagi mavjud assotsiantlarning guruhlanishidan hosil bo'lgan mental tuzilma sifatida izohlash mumkin. Masalan, qish so'zini eshitishingiz bilan bevosita ongingizda unga aloqador tushunchalar: sovuq harorat, qor, qorbobo, qorbo'ron, Yangi yil kabi tushunchalar assotsiatsiyalanadi va qish konseptining mazmuniy mundarijasidan joy egallaydi.



Konseptlar dastlab XX asrning 70-yillarida rus tadqiqotchisi S.A. Askoldov tomonidan tasnif qilingan. Tadqiqotchi konseptlarni **kognitiv (umumiy)** va **badiiy (muallif)** konseptlariga ajratadi. Kognitiv konseptlar – sxematik, umumiy konseptlar bo'ladi. Badiiy konseptlar individual ravishda tuyg'ular, istaklar, tushunchalar va g'oyalar bilan birgalikda aks ettiriladi. Shunday qilib, badiiy konseptlar kognitiv konseptlardan farqli ravishda emotsional va ekspressiv ta'sir doirasini yaratadi. Hissiy baholovchi komponentlar badiiy konseptlar strukturasi kiradi, ular ijobiy, salbiy, aksiologik, perseptiv xususiyatlarni ifodalaydi [8. C. 267-280].

Y. S. Stepanov nuqtayi nazarini bo'yicha, konseptlar mazmuniga ko'ra "ramkali konseptlar" va "yadroli konseptlar" ga bo'linadi. Belgining asosiy ma'nosi (yoki barcha ma'nolari) konseptning mazmuniy mundarijasini tashkil qiladi [9. C. 784].

V.I.Krasik ham konseptlarning boshqa tasnifini taklif qiladi:

1. Etno-madaniy va sotsio-madaniy xususiyatlarni ifodalash uchun ixtisoslashgan konseptlar;

2. Madaniy o'ziga xosligi bo'lmagan xususiyatlarni ifodalovchi konseptlar;

3. Universal konseptlar [10. C. 35.].

Tadqiqotchi etnospetsifik konseptlarni xoslangan va xoslanmagan konseptlarga bo'ladi. Xoslangan konseptlar – bu real obyektlarning xususiyatlarini tasniflovchi kategoriyalardir (muhit, vaqt, miqdor, sifat va b.) Xoslanmagan konseptlar predmetni mazmuniga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: tartiblangan (mental ma'lumotlar, ular insonlarning xulq-atvorini belgilaydi va tartibga soladi – baxt, burch, sahoovat) tartiblanmagan (turli jamiyatga xos mental ma'lumotlar, qadriyatlar bo'lishi mumkin – sayohat, sovg'a, salomatlik). Regulyativ konseptlar – etnospetsifik, sotsiospetsifik, universal va individual konseptlarga bo'linishi mumkin [10. C. 39].

A.P.Babushkin konseptlarning navbatdagi tipologiyasini taklif qiladi:

1. Olamning lisoniy manzarasi – shaxsning ijtimoiy tajribalari va individuallikka asoslangan ("babun", "siam egizaklari");

2. Sxemalar ("daryo" moviy lenta)

3. Giperonimlar – umumlashtirilgan obraz, masalan: "poyabzal".

4. Freymmlar – murakkab vaziyatlarni tasvirlaydi, tipik va muhim xususiyatlarni ifodalovchi "ramka" ("Jannat", "do'zax", "savdo", "bozor", "Hindiston yo'zi" freymmlari va hokazo).

5. Insaytlar – ongni bevosita anglash harakatlari (leksemalarning lug'aviy ma'nolarini anglash – "ko'zoynak", "soyabon", "kitob" va hokazo)

6. Ssenariylar – konseptlarning dinamik takrori, ma'lum bir bosqichlardan tarkib topishi, syujet kulminatsiyasi va yakun ("restorandagi uchrashuv", "to'y", "leksiya" va hokazo);

7. Koleydoskopik konseptlar (geshtalt, kognitiv metaforalar) – umumiy lashtirishning oliy bosqichi ("Vijdon", "tinchlik", "Erkak", "rashk", "vaqt");

8. Mantiqiy qurilgan konseptlar – shaxs va narsalarning xarakter xususiyatlarini anglatmaydi. Ular faqat leksik ma'no anglatadi ("frukt", "igrushka").

Ushbu tasnif konseptning ko'p qirraliligi va milliy madaniyatlarga qarab konsept tipologiyasining o'ziga xos o'zgaruvchanlikka ega ekanligini ko'rsatadi [11. C. 52-57.].

Tadqiqotchi I.A.Sternina fikricha, konseptlar bir bosqichli – ular faqat asosiy qatlam (asosiy leksik ma'no) (sariq, yashil, stakan, tarelka va hokazo), ko'pbosqichli – u asosiy



va kognitiv qatlamlardan iborat bo'ladi (savodxon), segmentli – ular asosiy qatlam bilan birga bir qancha qo'shimcha segment ma'nolari bo'ladi (bag'rikenglik) [12. C. 58-65.]. Tadqiqotchi S.G. Vorkachev konseptlarni murakkab konseptlar (burch, baxt, sevgi, vijdon) va oddiy konseptlarga bolishni tavsiya qiladi (avtomobil, til, erkak) [13. C. 268-276.].

Rus tilshunoslari Z.D.Popova va I.A.Sterninalarning 2007-yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli ilmiy risolasida ham konseptlar universal (quyosh, osmon, vatan, suv) hamda milliy (yaponlardagi sabi, finlardagi susi, fransuzlardagi savoir-vivre) konseptlarga ajratiladi [14. C. 314.].

Yana bir rus tadqiqotchisi M.V.Pimenova ham konseptlarni semantik jihatdan tasnif qiladi:

I. Asosiy konseptlar: (tilning asosini tashkil etuvchi va olamning lisoniy manzarasini chizishda faol bo'lgan konseptlar)

- A) Kosmik konseptlar;
- B) Geografik konseptlar;
- C) Sotsial konseptlar;
- D) Ruhiy-psixologik konseptlar.

II. Tavsiflovchi konseptlar (asosiy konseptlar tavsiflash uchun xizmat qiladi):

- A) O'lchov bildiruvchi konseptlar (hajm, o'lchov, chuqurlik, balandlik, vazn);
- B) Sifatlovchi konseptlar (harorat, sovuqlik, qattiqlik, yumshoqlik va hokazo);
- C) Miqdor bildiruvchi konseptlar (kifoya, ko'p, yetarli, oz, bitta va hokazo).

III. Munosabat bildiruvchi konseptlar:

A) Baho beruvchi konseptlar (yaxshi-yomon, achchiq-shirin, to'g'ri-xato va hokazo);

B) Pozitsiya (makon – ta'kid biznki NM) konseptlari (qarama-qarshi, birgalikda, uzoqda-yaqinda, oldida-orqada va hokazo);

C) Privativ konseptlar (do'st-dushman, olmoq-bermoq, kirish-chiqish va hokazo) [15. C. 386.].

Yana bir rus tadqiqotchisi V.A.Maslova ham konseptlarni tasnif qiladi:

- 1. Olam konseptlari (vatan, qish tunlari);
- 2. Narsa va tabiat konseptlari (suv, olov, gullar);
- 3. Axloqiy konseptlar (haqiqat, uyat, baxt, gunoh..);
- 4. Insonlarga xos sifatlovchi konseptlar (daho, axmoq);
- 5. Ijtimoiy tushuncha va munosabat bildiruvchi konseptlar (urush, erkinlik, ozodlik);

- 6. Xissiy konseptlar (quvonch, qayg'u);
- 7. Me'moriy konseptlar (maqbara) [15. C. 256.].

Yuqorida ko'rib o'tgan tasniflarimizning barchasi konseptning ko'p qirrali mohiyatga ega ekanligini ko'rsatib beradi. Har bir tadqiqotchining tasnifi konseptning u yoki bu xususiyatini ochishga qaratilgan. Shu o'rinda aytish joizki, konseptlar lingvokulturologik, lingvokognitologik va psixologik hodisa bo'lganligi sababli tasniflarda ham o'zgarishlar uchrab turishi tabiiy.

Konsept kommunikativ muloqotda nutq vaziyati, makoni, kommunikantlarning sotsial xususiyati, yoshi, jinsi, kasb-kori, bilim darajasi, millati, urf-odatlar, nutqiy vaziyatda nima muhim va nima nomuhim ekanligiga bog'liq holda o'zgarib turadi.



Konseptosfera esa, muayyan sotsial qatlamlar, yozuvchi, shoirlar, publitsistlar, muayyan kasb egalarigagina xos bo'lgan umumlashgan konseptlar yig'indisidir. Masalan, mafiya deb atalmish sotsial guruhlarining o'zigagina xos bo'lgan konseptlar: "Kalamush qo'yvorgan", "Buncha yuk og'irlik qilqmaslik", "Hosili chakki emas", "Doriga o'tirib qolmoq", "Bevafolik qilmoq", "Attorlik qilmoq", "To'g'ri ovqatlanishini nazorat qilmoq", "Jonli kontener", "Hammaning yukuni bir xaltaga solib, bo'yniga ilvolmoq", "Hamma joy quyoshli", "Qutichani qabul qilmaq", "Injiq yuk" kabi jumlarlar. Bularni eshitgan oddiy xalq yoki boshqa kasb egalari o'zining umumiy bilish xazinasi ko'lamiga mos holda bo'lakcha ma'noda tushunadi. "Kalamush qo'yvorgan"-jumlasidan anglashilgan ma'noni dehqonlar zararkunanda ekin ichiga kirganligini tushunsa, zoolog olim tajriba kalamushini qo'yib yuborgan tarzida tushunadi. Lekin mafiya sotsial guruhidagilar ichida sotqin, ayg'oqchi borligini tushunadi. "Hosili chakki emas" jumlasidan dehqon o'zi ko'targan hosili miqdorini tushunsa, mafiya sotsial guruhidagilar topgan puli miqdorini tushunadi. Bundan shu narsa ayonki, har bir sotsial guruhning o'zigagina xos bo'lgan konseptosferasi mavjud bo'ladi va shu guruhdagilar uchun tushunarli bo'ladi. Demak, konsept va konseptosfera kognitiv tilshunoslik birliklari bo'lsada, ular muayyan elementlari bilan bir-biridan farqlanadi. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldida sotsial guruhlar, ijodkorlar konseptosferasini tadqiq etishdek murakkab muammo turibdi va bu alohida tadqiqotni talab qiladi.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Winters M. Historical cognitive linguistics. –Berlin: 2010.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – University of Chicago Press, 1980; Lakoff G. Women, Fire and Dangerous Things. – University of Chicago Press, 1990; Johnson M. The Body in the Mind. – University of Chicago Press, 1987; Ray J. Semantics and cognition. –Massachusstes, 1999.
3. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. 37 С.
4. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка, их личностная и национальная специфика. – Воронеж: Издательство ВГУ, 1997. 21 С.
5. Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественной литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – 2001. – № 1. С 45.
6. Степанов Ю.С. Язык и метод: к современной философии языка. – М.: ЯРК, 1998. С 41-42
7. Карасик В.И., Прохвачева О.Г., Зубкова Я.В., Грабарова Э.В. Иная ментальность. – М.: Гнозис, 2005. С 27.
8. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М.: Academia, 1997. – С. 267–280
9. Степанов Ю.С. Язык и метод: к современной философии языка. – М.: ЯРК, 1998. – 784с
10. Бабушкин А.П. Концепты разных типов в лексике и фразеологии и методика их выявления // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: научное издание / под ред. И.А. Стернина. – Воронеж: Воронежский государственный университет, 2001. – С. 52–57.



11. Стернин И.А. Методика исследования структуры концепта // Методологические проблемы когнитивной лингвистики. – Воронеж, 2001. – С. 58–65
12. Воркачев С.Г. Культурный концепт и значение // Труды Кубанского государственного технологического университета. Сер. Гуманитарные науки. – Краснодар, 2003. – Т. 17. – Вып. 2. – С. 268–276
13. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Воронеж: “Восток Запад”, 2007. – 314 С.
14. Пименова М.В. Душа и дух: особенности концептуализации. – Кемерово: ИПК «Графика», 2004. – 386 с
15. Маслова В.А. Когнитивная лингвистика. – Минск: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.

*Umidjon Yigitaliyev,
Qo'qon DPI dotsenti, PhD*

O'ZBEK TILIDA *JINS* VA *GENDER* TUSHUNCHALARINING FUNKSIONAL-SEMANTIK VA KOGNITIV TAHLILI

Annotatsiya. Mazkur maqolada “jins” va “gender” tushunchalarining semantik va kognitiv muammosi o'zbek tili manbalari misolida tadqiq etiladi.

Kalit so'zlar. Jins, tushuncha, o'zbek tili, gender, konsept, semantik tahlil, shaxs, kognitiv tahlil.

Аннотация. В данной статье исследуется семантико-когнитивная проблема понятий «пол» и «гендер» на примере узбекскоязычных источников.

Ключевые слова. Гендер, концепт, узбекский язык, гендер, концепт, семантический анализ, личность, когнитивный анализ.

Annotation. This article explores the semantic-cognitive problem of the concepts of “sex” and “gender” on the example of Uzbek-language sources.

Key words. Gender, concept, Uzbek language, gender, concept, semantic analysis, personality, cognitive analysis.

Darhaqiqat, lug'aviy tizimda *jins* tushunchasi leksemalarning semantik-funksional tomonida voqelanadi. Shu bois funksional-semantik, boshqacha aytganda, komponent tahlilda leksemaning asosiy lingvistik tabiati – leksema sememasi va uning tarkibi masalasiga e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida *jins*ning ifodalanishi masalasiga doir qator ishlar amalga oshirilgan [5;6]. Ammo tilda “jins” konsepti bilan assotsiativ bog'lanuvchi birliklar, mazkur konseptning assotsiativ verballashuvi masalasi maxsus tadqiqotlarni taqozo etadi[6]. Mavjud ishlarni inobatga olgan holda tadqiqotda *jins* tushunchasining mohiyati, ifoda vositalari xususida alohida to'xtalib o'tishni joiz, deb bilmadik, mazkur ilmiy axborotning tadqiq obyekti, maqsadidan kelib chiqqan holda ishda “jins” konseptining assotsiativ-verbal voqelanishi masalasiga e'tiborimizni qaratdik.



Ma'lumki, o'zbek lingvomadaniyatida *jins* atamasi milliy-madaniy mohiyatga ega tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu o'rinda *jins* va *gender* tushunchalarini bir-biridan farqlash lozim.

"Jins" so'zi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da uning quyidagi ma'nolari berilgan:

1. *Biol.* Jonli organizmlarning biologik va jismoniy xususiyatlariga ko'ra ikki (erkak va urg'ochi) turidan biri. *Erkak jinsi. Xotin jinsi.*

2. *Tur, nav, xil.*

3. *Ijtimoiy grupp*a, tabaqa; urug', zot. Jinsiga tortmoq. – *Ota, bu singlim, – tabassum bilan dedi Yo'lchi. – Boynikida yashashni ma'qul ko'rmadim. – Yaxshi qilibsan: Kabutar bo kabutar, jins bo jins. To'g'ri, ular qarindoshing, lekin ular seni o'z jinsiga qo'shmaydi. Ular pul jinsidan. (Oybek, "Qutlug' qon").*

4. *geol.* Yer qobig'ining ma'lum qatlamini hosil qilgan mineral. *Tog' jinslari*[1:282].

Anglashiladiki, *jins* leksemasi ko'p ma'noli birlik hisoblanadi. Tadqiqotda "jins" konsepti birikmasidagi *jins* leksemasi *biologik jins* ma'nosida qabul qilingan.

Gender tushunchasi ham *jins* tushunchasi kabi shaxsni erkak va ayol jinsiga ko'ra farqlaydi, ammo *gender* lingvistikasida shaxs tabiat taqdim etgan *biologik jins* sifatida baholanmaydi, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy, madaniy xususiyatlarga ega *jins* sifatida o'rganiladi.

N.Usachevaning fikricha, *gender* tushunchasida *jins*ga jamiyat nuqtai nazaridan yondashiladi, asosiy tahlil obyekti sifatida *jins* emas, balki erkaklik va ayollik sifatlariga ega *sotsium* olinadi[2].

Biz ham tadqiqotda *gender* va *jins* tushunchalarini farqlagan holda "jins" konseptini *biologik jins* ma'nosida tahlilga tortdik.

O'zbek tilida "jins" konsepti tilning leksik-grammatik vositalari hamda uslubiy qo'llanish belgisi asosida verballashuv xususiyatiga ega. Mazkur konsept assotsiativ tarzda tilning turli sath birliklari bilan ham aloqaga kirisha oladi. Quyida "jins" konseptining voqelanishini leksemalar guruhida tekshiramiz.

O'zbek tilida "jins" konsepti bir qator leksemalar lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG)i orqali voqelana oladi. Chunonchi, hayvon nomlari LMGlari: *sigir – ho'kiz, qo'y – qo'chqor, tuya – nor, biya – ayg'ir, qanjiq – arslon*; parranda nomlari: *tovuq – xo'roz, moda – nar*, shuningdek, shaxs otlari LMGlari: *ayol –erkak, buvi – bobo, ota – ona, amma – amaki, xola – tog'a, qiz – o'g'il, opa – aka, singil – uka*; shu bilan birga, o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan *shoira –shoir, olima – olim, kotiba – kotib, muallima – muallim, hakima – hakim, adiba – adib, raqqosa – raqqos* kabi kasb-hunarga oid LMGlarda ham; *Karima – Karim, Salima – Salim, Zarifa – Zarif, Komila – Komil, Habiba – Habib, Ziyoda – Ziyod, Umida – Umid, Rashida – Rashid, Halima – Halim, Rahima – Rahim, Jahona – Jahon, Aziza – Aziz, Azima – Azim, Nodira – Nodir* kabi antroponimik LMGlarda ham «jins» konsepti yaqqol voqelanib, mazkur so'zlarni *jins* nuqtai nazaridan farqlab kelmoqda.

E'tiborlisi shundaki, "jins" konseptini voqelantiruvchi bu kabi leksik birliklar bu konsept bilan assotsiativ tarzda shu qadar zich bog'lanadiki, ular talaffuz etilganda til egalari xotirasida bevosita erkak yoki ayol kishi gavdalanadi. Shu bois *jins* leksemasi aytilganda beixtiyor til egalari xotirasida *ayol, erkak, buvi, bobo, ota, ona, opa, amma, xola, shoira, kotiba, raqqosa* kabi leksemalar qatorida ular uchun tanish bo'lgan kishilarning nomlari: *Komila, Komil, Umida, Umid, Aziza, Aziz, Nodira, Nodir* kabilar ham yodga keladi.



Bu holat ayni leksemalarning «jins» konsepti bilan assotsiativ bog'lanishini ko'rsatadi.

Shunisi xarakterliki, «jins» konsepti leksemaning semantik strukturasi orqali yashirin tarzda voqelanishi ham mumkin. Masalan, *salla* – *ro'mol* leksemalari juftligida har bir leksema atash ma'nosiga ko'ra turli predmetlarni anglati-da, bu predmetlarning turli jinslarga mansub kishilarga tegishli ekanligini anglatishiga ko'ra farqlanadi. *Salla* leksemasida erkaklarga xoslik; *ro'mol* leksemasida esa ayollarga xoslik ma'nosi yashiringanligi sezilib turadi. Ammo har ikkala leksema «jins» konsepti bilan bilvosita assotsiativ munosabatga kirishishiga ko'ra umumiy belgiga ega bo'ladi. Bunday munosabatni quyidagicha tasvirlash mumkin: *jins: erkak* – *salla*; *jins: ayol* – *ro'mol*. Anglashiladiki, *salla* leksemasi «jins» konsepti bilan *erkak* (yoki *chol*, *bobo*, *imom* kabilar) leksemasi orqali; *ro'mol* leksema esa *ayol* (yoki *kelin*, *ona*, *qiz*, *xola* kabilar) leksik birligi orqali assotsiativ aloqaga kirishadi.

Shuningdek, o'zbek tilida ayollarga nisbatan qo'llanib, ularga xos tashqi ko'rinish, xarakter-xususiyatlarni aks ettiruvchi *go'zal*, *sohibjamol*, *latofatli*, *nazokatli*, *nafis*, *nozik*, *parivash*, *xurliqo*, *homilador*, *shaddod* leksemalari orqali «jins» konseptining yashirin tarzda verbal ifodalanishi ko'p uchraydi. Yoki *yelkador*, *yag'rindor*, *baquvvat*, *sersoqol*, *ko'sa*, *tepakal*, *sabzamo'ylov*, *noskash*, *qimorboz*, *bangi* kabi leksemalar orqali erkak jinsiga ishora qilinishi natijasida «jins» konseptining voqelanishi kuzatiladi. Ushbu kabi birliklar ham «jins» konsepti bilan bilvosita assotsiativ bog'lanishni hosil qiladi. Mazkur birliklar «jins» konsepti bilan bilvosita assotsiativ bog'lanishni hosil qiladi.

O'tkazilgan assotsiativ tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, *jins* leksemasini eshitgan til egalari lisoniy xotirasida, avvalo, *ota*, *ona*, *opa*, *uka*, *singil*, *amaki*, *tog'a*, *bobo* kabi shaxs otlari tiklanadi. Bunday birliklar «jins» konsepti assotsiativ maydonining yadro qismidan o'rin oladi. *Jins*ni shaxsning sifat belgilari asosida farqlovchi *go'zal*, *sohibjamol*, *latofatli*, *nazokatli*, *nafis*, *nozik*, *parivash*, *xurliqo*, *homilador*, *yelkador*, *yag'rindor*, *baquvvat*, *sersoqol*, *ko'sa*, *tepakal* leksemalari esa «jins» konsepti bilan yadro birliklar orqali assotsiativ bog'lanadi. Boshqacha aytganda, bu birliklar «jins» konsepti bilan *jins – yadro – chegara* zanjirida munosabatga kirishadi. Ya'ni, *jins* leksemasi eshtilganda dastlab til egasi xotirasida *erkak* (yoki *ayol*) leksemasi, so'ngra u bilan assotsiativ bog'langan *yigit* (*chol*, *ota*, *tog'a*, *amaki* kabilar) leksemasi, keyingi bosqichda bu leksema bilan aloqador *yag'rindor* (*baquvvat*, *yosh*, *jahldor* kabilar) leksemasi ketma-ket yodga keladi.

Anglashiladiki, o'zbek tilida muayyan lug'aviy-ma'noviy guruhga mansub leksemalar atash vazifasini bajarishdan tashqari «jins» konseptini voqelantirib, u bilan assotsiativ munosabatga kirishadi.

O'zbek tilida «jins» konseptining frazemalar orqali ham verballashuvi kuzatiladi. Nutqda shunday frazemalar qo'llanadiki, ular faqat erkaklar nutqiga xos. Jumladan, «*Burnini yerga ishqab qo'yamoq*», «*Jag'ini ezib qo'yamoq*», «*Otimni boshqa qo'yaman*» kabilar. Bunday frazemalar assotsiativ tarzda «jins» konsepti (erkak jinsi) bilan bog'lanadi. Yoki ayollar nutqiga xos «*Qurib ketgur...*», «*zap ilonni yog'ini yalaganda*», «*Yashshamagur...*» «*Ko'zi yoraman*, *deb tursa ham*, *ishga chiqqan-chi*, *bu savilni?!*» va hokazo singari frazemalar assotsiativ tarzda til egalari xotirasida *ayol* obrazini tiklaydi. Yoki «*Bir hovuch pul uchun aqldan ozib*, *Butun dunyoni ham yoqishga tayyor*. *Bu o'sha abjag'i chiqqan jahongir*. *Bu – o'sha o'limtik*, *jodugar*, *ayyor*. (Uyg'un, «Hayot chaqiradi»). *Fashistni ur*, *abjag'ini chiqar*, *u yog'i bilan ishing bo'lmasin*». (Oybek, «Quyosh qoraymas»)[3:22] kabi frazemalarda assotsiativ tarzda til egalari xotirasida *erkak* obrazini tiklaydi.



“Jins” konsepti bilan bog‘lanuvchi bunday frazemalarga o‘zbek tilida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Biroq keltirilgan mazkur holatning o‘zi ham frazemalarda “jins” konseptining verballashuvini asoslaydi.

“Jins” konsepti mumtoz adabiyotimizda katta ahamiyatga ega bo‘lgan nazmiy leksika orqali ham ifodalanadi. Bunday birliklar majoziy-ramziy ko‘chma ma‘nolarda yoki o‘xshatishga asoslangan tasvir vositasi vazifasida qo‘llanib, “jins” konseptini voqelantirishga xizmat qiladi. Masalan:

*Ey nasimi subh, ahvolim diloromimga ayt,
Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandomimga ayt.* (A.Navoiy).
*Labing g‘uncha, yuzung ikki qizil gul,
Qading sarvu, soching guyoki sunbul.* (Furqat).
*Ko‘zlaring cho‘lpona o‘xshar, qoralig‘da sochlaring,
Orazing oydin munavvar, osmondir qoshlaring.* (Muqimiy).
*Ey menglari mushku, engi lola, ko‘zi ohu,
Zulfig g‘amida tutti ko‘ngilni qora qayg‘u.* (Atoyi).
*Falak ishqing yo‘lida besaru poy,
Isirg‘ang donasi zuhra, yuzung oy.* (Xorazmiy).
*Yuzu gulu, qaddi shamshod, ko‘zlari nargis,
Bahori yosumanimni tushumda ko‘rsam edi.* (Nodira).
*Sen gulsenu men xaqir bulbuldurmen,
Sen shu‘lasen, ul shu‘laga men quldurmen.* (Bobur).
*Suhaylni ko‘rdi-yu, aylandi birttek,
Kunash girdinda yurgan misli ertek.
O‘zin gul bildi-yu, bulbul Suhaylni,
Uni sevdi-yu, taslim etti maylni.* (Sayfi Saroyi).

Mazkur she‘riy matnlarda yor obrazi o‘xshatish usuli orqali o‘ziga xos tasviriga ega bo‘lgan. Matnda o‘xshatish vositalari vazifasini bajargan *sunbul, gul, g‘uncha, sarv, sunbul, cho‘lpon, mushk, lola, ohu, zuhra, oy, shamshod, nargis, shu‘la* leksemalari orqali kitobxon ko‘z oldida *go‘zal ayol* obrazi gavdalanadi. *Bulbul, qul* leksemalari esa *erkak* jinsiga ishora qiladi. Mazkur holat poetik nutqqa xos o‘xshatish vositalarining “jins” konseptini voqelantirishda muhim ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Shunisi xarakterliki, bu kabi leksemalar til egalari xotirasida aynan shu belgisi bilan o‘rnashgani bois poetik nutqda har gal “jins” konseptini voqelantiradi. Ya‘ni, *gul, g‘uncha, sarv, sunbul, ohu* kabi leksemalar poetik nutqda doimo yorga nisbatan qo‘llanishga xoslangan bo‘lib, til egalari xotirasida assotsiativ tarzda «ayol» konseptini yodga soladi. Yoki *ayol* leksemasi talaffuz etilganda xotirada *gul, g‘uncha, ohu* kabi leksemalar yodga keladi.

Xullas, o‘zbek tilida “jins” konsepti tilning leksik tizimida o‘ziga xos lug‘aviy birliklar orqali voqelanadi. Bunday birliklar “jins” konseptini voqelantirish bilan birga u bilan assotsiativ munosabatga kirishadi.

“Jins” konseptining voqelanishida lug‘aviy ma‘nosiga ko‘ra jinsiy farqlanishni aks ettiruvchi (*ayol, erkak* kabilar) leksemalar muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, poetik nutqda majoziy-ramziy ma‘nolarda qo‘llanuvchi leksik birliklar ham mantiqiy, ham assotsiativ jihatdan “jins” konsepti bilan bog‘lanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. –M.: Rus tili, 1981. –B. 282.
2. Усачева Н. Теория и методология современных гендерных исследований // <http://gender.cawater-info.net/publications/pdf/usacheva.pdf>
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1978. . –B. 22.
4. Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand,1993. – 25 b.
5. Мусаева Ф.Т. Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 52 б.
6. Umidjon Yigitaliyev. O'zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog'liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo'y. fals. dokt. ...(PhD) diss. avtoreferati. –T., 2020. –B. 54.
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:g5m5HwL7SMYC
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:rO6llkc54NcC
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:TQgYirikUciC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:hMod-77fHWUC
14. Yigtaliyev, Umidjon, and Shohruhbek Umidjonov. "THE ROLE OF SYNONYMY AND ANTONYMY PHENOMENA IN THE CHAIN OF GRADUAL RELATIONS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 894-896.
15. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «LINGVOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 176-181. Rakhimovna, Mahbuba Tojiboyeva, and Kimyanazarov Muslimbek. «COMMONALITIES AND DIFFERENCES IN THE TEXT OF THE AUTHOR'S SPEECH IN THE STORY "O 'TMISHDAN ERTAKLAR".» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 212-215.
16. Usmonova, Sofiya, and Shahzodaxon Avazmatova. «TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O 'RNI.» *Talqin va tadqiqotlar* 1.1 (2023).
17. Abdurahimovna, Juraeva Ramziya, and Umaralieva Jannatkhan Ubaydullo Qizi. "About the Study of Zavkiy's Work." *Miasto Przyszłości* 29 (2022): 267-269.
18. Sharapovna, Meliboeva Marhabo. «ON THE STUDY OF THE POS.» *OGUZNOMA"* *Journal of Ethics and Diversity in International Communication* 1 (2021): 4-6.
19. Nasirov, Muslimjon. «ANALYSIS OF ARTISTIC TEXT IN ASSOCIATIVE ASPECT.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 171-175.
20. Tukhtasinova, O. «OCCASIONALISM OF SPOKEN SPEECH.» *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 10.12 (2022): 1647-1649.
21. Mahmudova, Nilufar. «UZBEK LANGUAGE IN PARTICULAR OF TELECOMMUNICATION TERMINOLOGY.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 186-190.
22. M Rakhimova, O Bazarov, R Jo'rayeva, N Makhmudova *Journal of Positive School Psychology* 7 (5), 104-110, 2023
23. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM.» *Open Access Repository* 9.3 (2023): 167-170.



AJRATILGAN BO'LAKLAR ISHTIROK ETGAN GAPLARNING KOMMUNIKATIV MODELLARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilidagi ajratilgan bo'laklar ishtirok etgan gaplarning kommunikativ modellari misollar asosida aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar. model, ajratilgan bo'lak, gap, tema, rema.

Аннотация. В данной статье на примерах определяются коммуникативные модели предложений узбекского языка с отделяемыми частями.

Ключевые слова. модель, фрагмент, предложение, тема, рема.

Annotation. In this article, communicative models of sentences in the Uzbek language with separable parts are defined using examples.

Key words. model, fragment, sentence, theme, rheme.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida semantik yo'nalishning kuchayib borishi bilan gapning mazmuniy tomoni, xususan, kommunikativ tuzilishiga ham alohida e'tibor berila boshlandi. Shu bilan bog'liq holda ajratilgan bo'laklarga oid yangicha qarashlar vujudga kelmoqda. Mazkur qarashlarga ko'ra ajratilgan bo'laklar gapda sintaktik tuzilish emas, balki kommunikativ tuzilish birligi sifatida namoyon bo'ladi [1 – 106]. Bu qarashlar an'anaviy tilshunosligimizda bungacha mavjud bo'lgan bir qator fikrlarni maromiga yetkazishi bilan xarakterlidir. Masalan, G'.Abdurahmonov tomonidan juda ko'p o'rinlarda ajratilgan bo'laklarning murakkab fikrni sodda, ixcham va ta'sirli ifodalashning o'ziga xos usullaridan biri ekanligi, ularning o'ziga xos semantik funktsiyalari mavjudligi va bu funktsiyalarning asosiy xususiyati unda yarim predikativlik va ma'lum darajada hukmning ifodalanishi, ajratilgan bo'laklar orqali qo'shimcha ma'nolar yoki modal munosabatlarning aks etishi, ajratilgan bo'laklarning sodda gap singari o'z mustaqil mantiqiy urg'usiga egaligi va gap bo'laklaridan pauza hamda o'ziga xos intonatsiya bilan ajralib turishi haqidagi fikrlar qayd etib o'tilgan [2; 3; 4]. Shuningdek, bu borada izlanishlar olib borgan H.Boltaboeva, A.Mamatov singari tilshunoslarimiz ham shunga yaqin qarashlarni bayon etishgan [5; 6; 7; 8].

Ajratilgan sifatlovchi va ajratilgan izohlar gapda o'ziga xos kommunikativ funktsiya bajarish maqsadida qo'llanadi. Bunday vaziyatda izohlanmish yoki sifatlanmish bo'lakning sintaktik vazifasiga hech qanday ta'sir ko'rsatilmaydi. Ajratilayotgan bo'lak esa o'ziga xos mantiqiy urg'u va yarim predikativlikka ega bo'lib, ahamiyatli bo'lak – remaga aylanadi. Lekin bu rema jumladagi to'liq predikativlikni aks ettirayotgan bo'lak (kesim yoki kesim guruhi) bilan ifodalangan remaga nisbatan ikkinchi darajali hisoblanadi. Demak, ajratilgan bo'laklar sintaktik tuzilish uchun emas, balki aktual tuzilish uchun farqlovchi belgi sanaladi. Faqat boshqa vositalardan farqli o'laroq, dastlabki bosqichdagi aktual tuzilishni emas, balki keyingi bosqichdagi aktual tuzilishni ifodalashga xizmat qiladi. Ya'ni, birinchi bosqich bo'linishni ifodalashda hech qanday ahamiyatga ega bo'lmay, tema yoki rema tarkibida qolib ketadi.

Ajratilgan bo'laklar muayyan bo'lakni izohlab, ko'pincha qo'shimcha ob'ektiv axborotni yuzaga keltiradi. Ba'zan esa bu jarayon (ajratish) so'zlovchining hissiyotiga



ham bog'liq bo'lishi mumkin. Shu jihatdan ajratilgan bo'laklarni ikki guruhga bo'lish to'g'riroq bo'lardi: a) mantiqiy ajratilgan bo'laklar; b) hissiy ajratilgan bo'laklar.

Mantiqiy jihatdan ajratilgan bo'laklar mantiqiy urg'uga ega bo'lib, qo'shimcha ob'ektiv axborotni ifodalaydi. Masalan: Pastda, / shag'al to'kilgan yo'lda // mashina qorasi ko'rindi (S.Ahmad).

Hissiy jihatdan ajratilgan bo'laklar esa emfatik urg'uga ega bo'ladi. Bunday vaziyatda qo'shimcha rema orqali so'zlovchining biror voqea, holat yoki shaxsga nisbatan bo'lgan sub'ektiv munosabati ifodalanadi. Masalan: Sen, / it // nima uchun bolani yolg'iz qo'yib ketding (H.Hakimzoda).

Ajratilgan izoh bo'laklar tema tarkibida ham, rema tarkibida ham kelishi mumkin. Tema tarkibida kelgan ajratilgan bo'laklar keyingi bosqich bo'linishda izohlanmish bo'lakka nisbatan rema hisoblanadi. Shu o'rinda ajratilgan bo'laklar ishtirok etayotgan jumalarda axborot birdan ortiq yo'nalishda (ajratilgan bo'laklarning soniga ko'ra) yetkazilishini ta'kidlash lozim. Masalan, Daydidaraning asl xo'jalari / - izg'irin, sovuq // hukm o'tkaza boshladi (T.Malik) jumlasini olib ko'raylik. Bu vaziyatda tinglovchi dastlabki yo'nalishda prepozitsiyada kelayotgan bo'lak haqida uni ajratib (izohlab) kelayotgan bo'lak orqali yangi axborotga (Daydidaraning asl xo'jalari izg'irin va sovuqdir) ega bo'ladi. Ya'ni, ajratilgan bo'lak izohlanayotgan bo'lakka nisbatan rema hisoblanadi. So'ngra ular birgalikda (yaxlitligicha) ikkinchi yo'nalishda olinadigan (asosiy) axborotning temasiga aylanadi. Bu va bu tipdagi jumalarning kommunikativ modelini quyidagicha ko'rsatish mumkin:

$$T (= T P^{**}) P^{*}$$

Rema guruhida keladigan ajratilgan izohlar bevosita kesim oldida joylashgan rema yadrosi vazifasidagi bo'lakni izohlab keladi. Bunday vaziyatda rema guruhida asosiy axborot ustiga qo'shimcha axborot ham qavatlanadi. Masalan: Ammo Chaykada kelganlarga // yuqoriga, / ichi kovak bo'lib ketgan chinor tagiga alohida joy qilingan (S.Ahmad).

$$T R (= R^{**} + R^{*})$$

Bunday kommunikativ model bilan shakllangan jumalarning rema guruhida inversiya sodir bo'lishi ham mumkin: izohlanayotgan va uni ajratib izohlayotgan bo'lak kesimdan keyin keladi. Masalan: Uning bu kulgisi // eslatar edi, ilk bahor chechagin / - Xolbek gulini (Jurnaldan).

$$T R (= R^{*} + R^{**})$$

Ajratilgan izohlar kesimning o'zini ham ajratib izohlashi mumkin. Biz yuqorida ajratilgan bo'laklarning yarim predikativlik xarakteriga ega bo'lib, jumlada ikkinchi darajali rema sifatida namoyon bo'lishi haqida gapirgan edik. Lekin ajratilgan izoh kesimlar bundan mustasno. Chunki ular to'liq predikativlikni aks ettirib, buning ustiga ahamiyati izohlanmish kesimnikidan kam bo'lmaydi. Shuning uchun bunday modeli jumalarda ularga qo'shimcha axborot tashuvchi sifatida emas, balki asosiy axborotning muhim bir tarkibiy qismi sifatida qarash o'rinli. Masalan: Tog'larga oshiqmay kelgan bahor // haqqini qo'ymadi / - kech ketdi (T.Malik).

$$T R (= R^{*} P^{**})$$

Ba'zan shunday murakkab kommunikativ model ham uchraydiki, bunda bir ajratilgan izoh ikkinchisini izohlab keladi. Bunday vaziyatda remalarning darajalanishi va qavatlanishi davom etadi: Polvon arabning o'zi /// uy egasiga munosib bo'lgan yerda



// - mehmonxonaning eng quyisida, dahliz eshigi yonida / - 1919 yildagi joyida o'tirar edi (S.Ayniy).

T R (= P*+P**+P***)

(P*= (Polvon arab) uy egasiga munosib yerda o'tirardi; P**= uy egasiga munosib yer - mehmonxonaning eng quyisi, dahliz eshigi yoni; P***= 1919 yilda ham shu yerda o'tirgan)

Sifatlovchilar ham ajratish yo'li bilan aktualashtirilib, ikkinchi darajali remaga aylantirilishi mumkin. Agar jumlada ajratilgan izohlar ishtirok etganda gap bo'laklari miqdorining ko'payishi kuzatilsa, sifatlovchilar ajratilganda miqdor o'zgarmaydi. Chunki sifatlovchining ajratilishi inversiya usuli bilan amalga oshiriladi. Sifatlovchilar ajratilgan jumalarning kommunikativ tuzilishini quyidagicha ko'rsatishimiz mumkin:

1. Ajratilgan sifatlovchilar ob'ektiv (to'g'ri) tartibli jumalarning tema guruhida keladi: Qobil bobo, / yalang'och, yalangoyoq, yaktakchan // og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' qal-tiraydi... (A.Qahhor)

T (= T P**) P*

2. Sub'ektiv (inversion) tartibli jumalarning tema gu-ruhida keladi: G'ijirlaydi // arava / - shaloq... (Oybek)

R* T (= T P**)

3. Ob'ektiv tartibli jumalarning rema guruhida keladi: Men // yong'oqzor topdim / - go'zal, xushhavo (A.To'qimboev).

T R (= R* R**)

Jumlada izoh bo'laklardan tashqari izoh gaplar ham qo'llanishi mumkin. Ajratilgan izohlar oddiy izohlardan, tarkibida ega va kesimning bo'lishi bilan, ya'ni gap bo'lishlari bilan farqlanadi. Bu farqlar ularning mazmuni va grammatik vazifalarida sezilsa-da [3 - 95], kommunikativ tuzilish sathida kuzatilmaydi. Chunki ajratilgan izoh gaplar ajratilgan sifatlovchi va izoh holi bilan bir xil funktsiyani bajaradi.

Ajratilgan izoh gaplar ajratilgan sifatlovchi bilan bir xil funktsiya bajarganda asosiy gap bilan birikib, qo'shma gapni tashkil eta olmaydi. Chunki bunday izoh gaplar inversiya tufayligina shaklan gap tusiga kiradi. Aslida (inversiya yuz bermaganda) ular sifatlovchilarning aynan o'zidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

15. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 232 б.
16. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 248 б.
17. Ўзбек тили грамматикаси. Том II. Синтаксис. Тошкент: Фан, 1976. – 560 б.
18. Маматов А. Гапнинг изоҳлама бўлаклари ҳақида//Ўзбек тили ва адабиёти, 1987, № 2. - Б. 24-29.
19. Bazarov, Oybek. «MIND AND LINGUISTIC MODEL.» *Journal of new century innovations* 12.3 (2022): 182-184.
20. Odilovna, Rakhimova Maftuna, and Bazarov Oybek Odilovich. «LINGUOSEMIOTIC STUDY OF UZBEK FOLK PROVERBS.» *Open Access Repository* 9.1 (2023): 236-237.
21. Rahimova, Maftuna. Assotsiatsiya hodisasining psixologik va lingvistik talqini. 2022.



22. Rahimova, Maftuna. Leksik antonimiyada belgilik. 2022.
23. M. Rakhimova. APPROACHING THE WORD AS A SIGN. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal (9), 68-70
24. G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «LINGVOPOETIC NATURE OF PHRASEOLOGIES.» Open Access Repository 9.3 (2023): 176-181. Rakhimovna, Mahbuba Tojiboyeva, and Kimyanazarov Muslimbek. «COMMONALITIES AND DIFFERENCES IN THE TEXT OF THE AUTHOR'S SPEECH IN THE STORY "O 'TMISHDAN ERTAKLAR"» Open Access Repository 9.3 (2023): 212-215.
25. Usmonova, Sofiya, and Shahzodaxon Avazmatova. «TOPONIMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLARNING O 'RNI.» *Talqin va tadqiqotlar* 1.1 (2023).
- 26.

Расулов И.И.

Кокандский государственный педагогический институт

КОНЦЕПТ «СЕМЬЯ/ОИЛА» в русском и узбекском языках

Аннотация. Статья написана в русле когнитивной лингвистики. В ней рассматриваются вопросы изучения концепта «семья/ои́ла» в русском и узбекском языках.

Ключевые слова. лексико-семантическое поле, концепт, лексема, лексико-семантический вариант, концептосфера.

Сопоставительное изучение любого фрагмента языкового богатства народа даёт богатейший материал, позволяющий составить представление о сходстве и различиях передачи словесным способом системы ценностей, лежащих в основе духовном мире каждого народа. Данная статья посвящена изучению национальной культурной специфики концепта «семья/ои́ла» в русском и узбекском языках [1].

Словообразовательное гнездо с доминантным словом «семья» в русском языке включает целую группу слов, образованных суффиксальным способом: «семейка», «семейный», «семейство», «семейственный», «семейственность», «семьянин». Так, например, указанные лексемы имеют следующие значения [6]: «семейный» (человек) - человеке, имеющем семью, или ч-л предназначенном для семьи; «семейственный» - о человеке, приверженном к семейной жизни; «семьянин» - о человеке, обладающем качествами, необходимыми для создания семьи и т.п.

В словаре В. И. Даля [2], имеющем в настоящее время историко-лингвистическое значение, имя концепта «семья» обладает всего одним лексико-семантическим вариантом, в современном же «Большом толковом словаре русского языка» [4] оно характеризуется пятью лексико-семантическими вариантами (далее - ЛСВ). Это свидетельствует о семантическом развитии слова семья, отражающем в свою очередь эволюцию концепта «семья».



Лексикографическая интерпретация концепта «семья» в толковых словарях XIX–XXI вв. не совпадает. Общим признаком лексемы семья в рассмотренных источниках является наличие значения: «объединение близких родственников, живущих вместе». На этом основании можно заключить: это и есть основная (главная) семема имени анализируемого концепта. Семное же наполнение ее в лексикографических толкованиях вариативно. Так, в словаре В. И. Даля дается уточнение относительно близких родственников: это родители с детьми, а женатый сын или замужняя дочь, живущие отдельно, составляют уже иную семью. В словарях других авторов, изданных позднее, указываются муж, жена, а также родители и дети, иногда внуки и другие близкие/ближние родственники, проживающие совместно. Нельзя не заметить, что в русской лингвокультуре сема «живущие вместе» согласно лексикографическим трактовкам обязательна. Дополнительной является и атомарная сема «близкие/ближние» (родственники) [7].

Следующее значение имени концепта «семья» наличествует во всех словарях русского литературного языка, вышедших в свет в XX–XXI вв., и сопровождается пометой «переносное»: «группа, организация людей, имеющих общие интересы и т. п.». Причем если первая сема «объединение людей» дается во всех дефинициях слова *семья*, то вторая сема, обозначающая то, что объединяет людей в семью, в рассмотренных источниках носит вариативный характер: общая деятельность, общие интересы, дружба. В некоторых словарях (например, разные издания словаря С. И. Ожегова) данное значение трактуется также с помощью оценочной семы «сплоченная», «дружная» и имеет помету «высокое».

Ключевыми составляющими концепта «семья» являются а) ролевая ценностность семьи как таковой, которая раскрывает содержание и определяет виды отношений родства; б) отношения между супругами; в) отношения между родителями и детьми». Особую социальную значимость институт семьи и, соответственно, данный концепт имеют среди тюркоязычных народов в связи с большей, чем у европейских народов, ролью семьи для всех поколений, сохранением в той или иной мере тенденции к многодетности, ролью религии (для большинства тюркоязычных народов - ислама) во всей организации семейной (и частично общественной) жизни.

Концепт «Оила» в узбекской концептосфере имеет сложную семантико-фреймовую структуру: ядро концепта отражает его общечеловеческую универсальность как одну из форм социальной общности людей; объемная интерпретационная часть соотносится с индивидуальными особенностями восприятия и национальной картиной мира» [1].

Специфика лексико-семантического поля семьи в узбекском языке отчетливо выявляется на фоне ЛСП английского и русского полей: «В английском, узбекском и русском языках сложились разные структуры ЛСП семьи и ЛСП администрации: в английском языке ЛСП администрации «вдвигается» в ЛСП семьи, чем предопределяется наличие ряда официальных формул общения; в узбекском языке, напротив, ЛСП семьи «вдвигается» в административное ЛСП, в результате чего преобладает «семейный» тип общения в учреждениях, организациях и т. д. В русском языке ЛСП семьи и административное ЛСП максимально разграничены по сравнению с узбекским и английским языками» [3].



Особую роль в реализации специфики концепта «семья» в менталитете носителей узбекского языка играют сигналы антропонимов. В узбекском языке это прежде всего термины родства (ака, ука, ота, хола, синглим, кенаи и др.); именно их употребление во многом обеспечивает «семейный» тип отношений в административном ЛСП. В функциональном плане, особенно по отношению к ЛСП семьи, с именами собственными сближаются обозначения родственных отношений, или термины родства, а также обозначения лиц по возрасту.

Как и в других языках, можно выделить следующие линии общения между родственниками: 1) родители - дети, 2) дети - родители, 3) члены одного поколения, 4) супруги, 5) представители более отдаленных степеней родства. Каждая из выделенных линий представляет собой особую систему номинаций, ядром которой являются собственные имена и термины родства. Термины родства узбекского языка более активно, чем в английском и русском языках, участвуют в установлении разветвленной системы отношений в ЛСП семьи (отношения между членами одного поколения, отношения старших к младшим, отношения младших к старшим, отношения между мужем и женой и т. д.). М. И. Расулова приводит многочисленные факты, свидетельствующие о несимметричности и неэквивалентности именования мужчин и женщин в современном обществе: «...к женщинам гораздо чаще, чем к мужчинам, обращаются просто по имени. Разница, как правило, заключается в том, что в таких случаях подчеркивается не равноправие, а нечто прямо противоположное: подчеркнутая иерархия и снисходительность» [5].

Таким образом, концепт «семья» в сознании носителей этих языков выходит за рамки собственно семейных отношений и распространяется на административное социальное поле. При совпадении основных моделей ФЕ и паремий со значением «семья/оила» в русском и узбекских языках наблюдаются и существенные различия в грамматическом конструировании фразеологизмов двух языков. Изучение лексико-семантических полей двух сопоставляемых языков позволяет еще полнее раскрыть языковую картину мира данных тематических групп.

Использованные источники:

1. Бондаренко Е. В. Межкультурная семейная коммуникация как особый тип общения.: Автореф. дисс.... канд. филол. наук. - Волгоград, 2010., с.5
2. Даль В. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. М.: Рус. яз., 1991. Т. 4. 683 с.
3. Жураева И. А. Антропонимические формулы в английском, узбекском и русском языках и специфика их функционирования. - Ташкент: НУУз, 2012., с.66
4. Кузнецов С. А. Большой толковый словарь русского языка. СПб.: Норин, 2002. 1534 с.
5. Расулова М. И. О гендерном аспекте актов наименования // Хорижий филология.-№ 3.-Тошкент,2011, с.82
6. цит. по «Толковому словарю русского языка» СИ. Ожегова
7. Щеголихина Ю. В., Богословская З. М. Историко-этимологический анализ имени концепта «Familie» // Вестн. Томского гос. пед. ун-та (TSPU Bulletin), 2013. Вып. 10 (138). С. 80–83



**Muqimova Zohida Rasulovna,
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti doktoranti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori**

BELBOG' PREDMETLI KODNING XUSUSIYATI

Annotatsiya. Maqolada belida belbog'i bor iborasining lingvomadaniy xususiyati tahlilga tortilgan.

Annotatsiya. В статье анализируются лингвокультурологические особенности словосочетания с поясом на талии.

Abstract. The article analyzes the linguistic and cultural features of the phrase with a belt around the waist.

Kalit so'zlar: barqaror birikma, ibora, lingvokulturologiya, lingvomadaniy birlik, madaniy kod, lingvomadaniy kod, predmetli kod.

Ключевые слова: устойчивое сочетание, словосочетание, лингвокультурализм, лингвокультурная единица, культурный код, лингвокультурный код, объектный код.

Key words: stable combination, phrase, linguoculturalism, linguocultural unit, cultural code, linguocultural code, object code.

Bugungi kunda tilimizning tuganmas lisoniy boyliklari ustida lingvomadaniy yondashuvdagi ilmiy kuzatishlar olib borish zaruriy vazifalardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda e'tirof etilganidek, madaniyatning tilga ta'siri lisoniy shaxs orqali amalga oshadi. Shuningdek, tilning madaniyatga ta'sirini amalga oshiruvchi tayanch ham lisoniy shaxsdir. Zero, lisoniy shaxs, albatta, ma'lum madaniyat, shu madaniyatga xos idrok intizomi vakili bo'ladi. Demak, "har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir".

"Xalqning dunyoni milliy ko'rish tarzi va idrok intizomi, eng avvalo, shu xalqqa oid olamning lisoniy manzarasida qayd etiladi". Millatning milliy-mental xususiyatlari, milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlari, xalqning milliy tafakkuri bilan bog'liq jihatlari til egasi mansub tilning lingvomadaniy birligi sanaluvchi barqaror birikmalarida ham yorqin aks etadi. "Barqaror birliklarda asrlar davomida shakllangan, asoslangan, umummilliy xarakterdagi madaniy kod – obrazlar saqlanadi". Mazkur maqolada nutqimizda faol qo'llaniladigan *belida belbog'i bor* iborasining lingvomadaniy xususiyatini tahlilga tortdik. Ma'lumki, "madaniyat kodlari tilda, asosan, xalqning obrazli tafakkurini namoyon etuvchi maqol, ibora, turg'un o'xshatish, metafora, qarg'ish, duo va olqishlar kabi lingvomadaniy birliklarda in'ikos etadi"

Belida belbog'i bor birikmasi xalqimizning purma'no iboralaridan biridir. Ushbu ibora Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati"da ham, Sh.Shomaqsudov, S.Dolimovning "Qayroqi so'zlar (xalq iboralari)" kitobida ham kuzatilmadi. Zamirida millatning ibratli qadriyatlari mujassam bo'lgan bu kabi barqaror birikmalar "O'zbek tili frazeologizmlarning katta izohli lug'ati"dan o'rin olishi lozim.



Ayonki, belbog' so'zi ikki so'z – bel va bog' qo'shiluvidan hosil bo'lgan . Ushbu so'z qatnashgan iboralarning deyarli barchasida voqelikka milliy munosabat va ruhiyat uyg'undir. Chunki bu kabi lingvomadaniy birliklarda o'zbek xalqning muayyan tarixi, madaniyati, milliy idrok tarzi o'z izini qoldirgan. Masalan, bel bog'lamoq (shaylanmoq, astoydil kirishmoq), bel olishmoq (kurash tushmoq, kuch sinashmoq), beli og'rimaydi (mashaqqat chekmaydi, qiynalmaydi), beliga tepmoq (xalaqit bermoq), beli baquvvat (polvon, kuchli; puldor), belini bukdi (egdi). Mazkur iboralar o'zbek kishilarining milliy psixologiyasi va milliy turmush tarzi tasvirining haqqoniy ifodachisidir. Bugungi kunda tilshunosligimizda bu kabi birliklarni lingvomadaniy kodlar nuqtayi nazaridan o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. *Belida belbog'i bor* iborasidagi *belbog'* so'zi predmetli kod hisoblanadi.

Belbog' so'zining izohli lug'atdagi talqini quyidagicha:

“BELBOG' 1 Belga bog'lanadigan, to'rtburchak ro'mol shaklidagi gulli yoki gulsiz, chetlari tikilgan mato parchasi; qiyiq, qiyiqcha.

2 Umuman belga belbog' kabi bog'lanadigan narsa.

3 Har narsaning o'rta belidan o'tgan faraziy chiziq yoki halqa; ekvator.

4 ko'chma Quvvat, mador, ko'makdosh”.

Mazkur so'zning predmetli kod sifatida voqelanganini quyidagicha asoslash mumkin. Belbog' so'zi milliy xoslanganligi, milliy-madaniy buyoqdorligi bilan xarakterlanadi. Belbog' so'zining lingvomadaniy kodga aylanishida uning ko'chma ma'nosi rol o'ynagan. O'zbek yigitlari, ayniqsa, og'ir ish qilganda, kurash tushganda beli mustahkam bo'lishi uchun beliga belbog' bog'lashgan. Keyin bu ma'no ko'chma ma'no kasb etib, mard yigitlar tushuniladigan bo'lgan. *Belida belbog'i bor* birikmasining lingvomadaniy birlikka aylanishida belbog' so'zi tayanch so'z vazifasini o'tagan. Odatda, hozirgi kunda o'zbek erkaklari belbog' bog'lashmaydi. Hozirgi vaqtda u ta'ziya belgilaridan biri bo'lib qolgan. Shunday bo'lsa-da, mazkur ibora lingvomadaniy kod sifatida shakllangan va *belida belbog'i bor* iborasi mard, haqiqiy erkak ma'nosini bera boshlagan. Tilshunos olim Yorqin Odilov ta'kidlaganidek, “Azaldan o'zbek erkaklari to'n va yaktak ustidan belbog' bog'lagan, shuning uchunmi, mard va lafzi halol yigitlar belida belbog'i bor deb sifatlangan”.

O'zbek erkaklarining belbog' bog'lashi quyidagi matnlarda o'z ifodasini topgan: – *U etigini yechib uyga kirib ketdi. Etigini chetga olib qo'ya turib, paytavasi terlab ketganini bildim. Qarasam, ayvon burchagida qizil belbog'iyam turibdi. Oshxonaga kirib suv isitdim. Avval qiyiqchani, keyin paytavani yuvdim.* (Kimsanning tasviri); *Bobom oyimning bilagidan tutgancha nuqul bir gapni qaytarib, yalinar edi: – Ko'zingni och, onasi, ko'zingni och... Oqsoqol belbog'ini shosha-pisha yechib, oyimni yelpishga tushdi. Menga qarab o'shqirdi: – Suv obkelsang-chi, Robiya!* (O'Hoshimov, Ikki eshik orasi)

“Ikki eshik orasi” romani qahramoni Orif oqsoqolni o'zbek xalqining fidoyi, jonkuyar oqsoqollarining ramziy timsoli desak, mubolag'a bo'lmaydi. Orif oqsoqol belida belbog'i bor kishilardan. Quyidagi matnda Oqif oqsoqolning, haqiqatdan ham shunday inson ekanligi Shomurodning nutqida o'z isbotini topgan: *Oqsoqolning o'zi ham terlab-pishib bug'doy o'radi. Baraka topkurlar, yana jinday g'ayrat qilaylik, belida belbog'i bor odam shunaqa paytda o'zini ko'rsatmasa, qachon ko'rsatadi! – deb odamlarga bosh-qosh bo'ladi.*



Quyidagi matnlarda esa *belida belbog'i bor* iborasi mard, lafzi halol ma'nosida qo'llanib, urush ortidagi kishilarning urushda qatnashayotgan odamlarga muruvvati, insonparvarligini yoritishda vosita bo'lgan: *Oqsoqol raisligi paytida bunaqa dag'dag'alar yo'q edi. Zarur bo'lib qolganida Oqsoqol: "Xaloyiq, shu ish shundoq bo'p qoldi, belida belbog'i bor deganing kelaver", desa, odamlar o'tgayam-suvgayam urib ketaverardi. Jon omon bo'lsa, mol topiladi. Bolang sog'-salomat kelsa, to'yni taqinchoqsiz ham qilaverasan. Omadi gap shu: belimda belbog'im bor deganing obchiqaver lash-lushingni!* (O'.Hoshimov, Ikki eshik orasi) Mazkur matnda esa *belida belbog'i bor* iborasi yigitlar so'zining aniqlovchisi bo'lib, u vositasida muallif ikkinchi jahon urushida shahid bo'lgan mard, jasur o'zbek yigitlarining surati va siyratini chiza olgan: *–Dunyoda hamma narsa unutiladi, – dedi u yangroq ovozza. – Ammo-lokin farzand dog'ini unutib bo'lmaydi. Davlatimiz "No'malum askar" qatori "G'amboda ona" haykalini ochayotgani bejiz emas. Men bilaman, bolalarim: bu yog'i No'g'ayqo'rg'on, u yog'i Ko'tarma tomonlarda belida belbog'i bor ne-ne yigitlar shahid ketdi. Qanchadan-qancha onalar haliyam bolasining yo'lga ko'z tikib o'tiribdi. Sizniki izzat-ikrom bilan ketdi. Bir kun bo'lsayam diydoriga to'yib qoldingiz. Mening cholim aqalli xayrlashganiyam qo'ymadi! "Yov quvdimi, muncha hovliqdingiz", desam, men belida belbog'i bor o'g'il o'stirganman!" deb keriladi* (Xolposh xolaning nutqi).

Shuni ham ta'kidlash joizki, "Ikki eshik orasi" romani matnida mazkur ibora faqat o'zbek erkaklarini ta'riflashda emas, balki o'zbek ayollarining ham xarakterini yoritishda vosita bo'lgan. Roman qahramoni Bashorat quyidagicha ta'riflangan: *Bashorat qanday juvon edi! Xotin kishi bo'lsayam belida belbog'i bor edi!*

Ma'lumki, Bashorat – urushga ketgan turmush o'rtog'ining yo'qligini bildirmay ham uyda, ham dalada mehnat qilgan urush ortidagi o'zbek ayollarining badiiy timsoli. Muallif mazkur matnda bu iborani qo'llash orqali o'quvchi ko'z o'ngida irodasi mustahkam, mehnatkash o'zbek ayolining siymosini gavdalandira olgan.

Til kelgusi avlodga millatning milliy-madaniy bilimlarini lingvomadaniy birliklar vositasida yetkazadi. *Belida belbog'i bor* iborasiga o'xshash lingvomadaniy birliklar ham kelajak avlodga o'zbek millatining milliy-madaniy bilimlarni yetkazishda vositadir. Bir so'z bilan aytganda, *belida belbog'i bor* iborasida o'zbek xalqining tarixiy, ijtimoiy voqelar bilan bilan bog'liq oilaviy hayoti, odamlarning o'zaro munosabati, kishilarning fazilatleri, xullas, o'zbekona tafakkur o'z tajassumini topgan. Bunda belbog' so'zi lingvomadaniy kod sifatida muhim o'rin egallaydi. Chunki belbog' o'zbek lingvomadaniyatida o'zbek yigitlarining sifatlaridan biriga aylangan. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, har bir obrazli turg'un birikma asosida lingvomadaniy kod yotadi. O'zbek tilidagi barqaror birikmalarni mana shu nuqtayi nazardan o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.





PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING ANTROPOSENTRIK PARADIGMA XUSUSIYATLARI

Аннотация. Ушбу мақолада тилни антропоцентрик назария нуқтаи назаридан тадқиқ этиш жиҳатлари тилшунос олимлар фикрларига таянган ҳолда ёритиб берилган. Паремиологик бирликларнинг антропоцентрик парадигма хусусиятлари мисоллар асосида кўрсатиб ўтилган.

Аннотация. В статье освещены аспекты исследования языка с позиций антропоцентрической теории, основанной на мнениях лингвистов, на примерах показаны особенности антропоцентрической парадигмы паремиологических единиц.

Annotation. This article highlights the aspects of language research from the perspective of anthropocentric theory, based on the opinions of linguists. The features of the anthropocentric paradigm of paremiological units are shown on the basis of examples.

Калит сўзлар: антропоцентрик парадигма, лингвистик семантика, лингвокогнитология, психолингвистика, лингвокультурология, миллий қадриятлар, урф-одатлар.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, лингвистическая семантика, лингвокогнитология, психолингвистика, лингвокультурология, национальные ценности, традиции.

Key words: anthropocentric paradigm, linguistic semantics, linguocognitology, psycholinguistics, linguoculturology, national values, traditions.

Tilni antroposentrik nuqtai nazardan tadqiq etish ma'lum bir xalqning milliy o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berish hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslik masalalari jahon taraqqiyotidan kelib chiqqan holda hozirgi kunda ham ilmiy, ham amaliy nuqtai nazardan dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Ushbu o'rinda paremiologik birliklarni antroposentrik paradigma xususiyatlarini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylangan antroposentrik yo'nalish tamoyillar asosida tahlilga tortilgan maqollar orqali etnik, mental va milliy-ma'naviy xususiyatlar izohlanadi.

Bugungi kunga kelib, til birliklarining nutqdagi reallashuvini o'rganish, til birliklarining imkoniyat darajasini aniqlanishi milliy qadriyatlarimizning rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbek tilshunosligida antroposentrik paradigma asosiy mezon bo'lgan bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur yondashuvda til inson uchun, uning hayotiy faoliyatida rivojlanishi uchun ahamiyati nuqtai nazardan o'rganiladi.

Millatning milliy-mental xususiyatlari, milliy mentalitetga xos turg'unlashgan axloq qoidalari, qadriyatlari, xalqning milliy tafakkuri bilan bog'liq jihatlari til sohibi mansub tilning lingvomadaniy birliklarida yorqin aks etadi, kelgusi avlodga millatning ana shu milliy-madaniy bilimlari lingvomadaniy birliklar vositasida yetkaziladi. Jumladan, "Issiq kiyim tanni iltar, Issiq so'z jonni iltar", "Taom lazzati o'zida. Odam lazzati – so'zida", "Tilingda bo'lsa boling, Kulib turar iqboling", "Odam so'zi bilan sinalar, osh – tuzi bilan".



Mazkur maqollar ham nutqimizning teran hamda mazmunli chiqishini ta'minlaydi.

Til kelgusi avlodga millatning milliy-madaniy bilimlarini yetkazar ekan, uni xalq mentaliteti, tafakkur tarzi, olamni idrok etishidagi o'ziga xosliklari, milliy qadriyatlari, urf-odatlar, yashash tarzi bilan uzviylikda yanada teran tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Худайбергана Дурдона Сидиқовна "Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини". Докторлик диссертацияси автореферати. Тошкент – 2015 йил.

2. Шомақсудов Ш, Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбек совет энциклопедияси Бош редакцияси, 1990.

*Yigitaliyev Umidjon Saminovich,
Associate professor of Kokand State Pedagogical Institute, Kokan city, Uzbekistan,
Doç. Dr. Erhan GİRAY
Assist Prof. Dr. Artvin Çoruh University, Faculty of Science and Literature,
Department of Turkish Language and Literature, Department of
Contemporary Turkish Dialects and Literatures (Türkiye)
Shahrukhbek Umidjonov,
student of Kokan State Pedagogical Institute (Uzbekistan)*

FORMATION OF CREATIVE THINKING IN MAN (in terms of linguistic and Islamic integration)

Abstract. This article reflects scientific conclusions about the linguistic nature of creative thinking in the teaching of Eastern Islamic philosophy. Also in scientific information, the problem of being-human-language is investigated in the aspect of the anthropocentric paradigm.

Key words: Eastern philosophy, Islamic philosophy, man, language, anthropocentric paradigm, aspect, creative thinking, being and man

Being the cradle of science and cultural development, the East, in turn, served as a window for the spread of scientific precipitation over the West and Europe. The development in the East, in particular in Central Asia, of the foundations of exact and natural sciences, such as astronomy, drawing, Handiwork, medicine, served, one might say, as an important ground for the emergence of a scientific and technological revolution that put Europe on its feet.

Scientific analysis and cognition of nature, the society in which a person lives, and the person himself, his activity manifestations is the highest form of intellectual activity. This activity is fundamentally different from simple cognition, i.e. the pursuit of knowledge, aimed at meeting the needs of everyday life, primarily by its intended purpose and systematic implementation. Secondly, in the process of scientific knowledge, special means and methods are resorted to. Indeed, in the years preceding Islamic scholasticism, this is evidenced by the world-famous works of our ancestors –



Ibn Sina, Abu Nasr Farabi, Omar Khayyam, Beruni, Khorezmi, Ahmad Ferghani. Thus, Abu Nasr Farabi in his work «Ihso'al-ulum» («on the origin of sciences») states: «know that there is nothing in the universe but a merciful Creator who creates substance (ore) and accident (non-ore, ore) and substance, accident».

With this justification, Farabi claims that the material basis of all sciences is the same, and step by step studies numbers, stars, music, natural science, knowledge of truth (Islamic philosophy-U.Ya.), proving that the sciences of language, logic stem from different aspects of the same source – substance.

As can be seen from this quote, our great compatriot recognizes the unity of the sciences of the Universe in their unity with the study of various aspects of a single material existence. These thoughts allow us to see and explain the commonality in the development of sciences, their effective influence on each other, since the main source – being - is the same for all sciences. After all, as our linguists note: «the totality of means and actions of cognition used in the field of science constitutes a method of scientific research. The research method, of course, can be varied depending on the object chosen for the study. At the same time, the choice of the research method is also determined by the researcher's attitude to being (object)». In this regard, it should be emphasized once again that science is created by people with creative thinking based on the needs of society. In most cases, this process takes place in the form of an analysis of nature or society, in other words, the universe and humanity.

The idea of studying science in a broad historical context acquires deep significance in the Logical and methodological research of modernity. Today, the analysis of issues related to the scientific and creative process plays a particularly important role.

Ancient Greek philosophers Plato and Aristotle investigated the peculiarities of human creative thinking. In Eastern philosophy, this question has also attracted the attention of scientists. In particular, Mohammed al-Khorezmi divides scientists into three groups depending on the products of their creative thinking. He said, «Some study things that were not explored before him, and he inherits what follows him. Others comment on the works of their predecessors and, thus, alleviate difficulties, open up the closed, illuminate the way and provide opportunities for most people, while someone else identifies inaccuracies in some books and introduces innovations that are usually forgotten», he claims.

Abu Nasr Farabi, however, said to creative thinking: «Knowledge of something is acquired by the power of speech, or imagination, or imagination, or feelings. When it is desirable to know something that has the property of things perceived by the mental force, the verb that retains the desired in itself is born from another force that is in the mental force. That's what counts as a creative force. Thus, it will be possible to think, dream, explore, draw conclusions», he explains.

In the worldview of a mature representative of Eastern philosophy, Abu Rayhan Beruni, the issue of creative thinking was studied separately. When investigating the essence of this problem, the scientist relies on the principles of observation, trial and error, common sense. The philosopher's views on creative thinking combined ideas, diverse and completely new scientific fantasies that are inaccessible to human mental thinking when interpreting objective processes. Beruni acknowledges that the lack of certain knowledge - bias, in other words, bias-leads to scientific justification. This



circumstance hinders creative thinking [3,42]. As can be seen from the above arguments and judgments, in Eastern philosophical thought, creativity (creative thinking - U.Ya.) is considered as a concept with a complex structure.

Views on creative thinking have been specially studied in the East, as well as in Western philosophy. Fomas Aquinas in the Middle Ages, in modern times F.Bacon, R. Descartes, D.Hume, J. Berkeley, V.F. Schelling In the works of such philosophers as Schelling, serious attention is paid to this problem.

In particular, the German philosopher V. Schelling sees the defining nature of the organizational system in creative thinking. The scientist believes that “the creativity of a philosopher is a system of thinking focused on science or practical processes, like the creativity of an artist creating individuality “ accordingly” “the system of art is creativity “.

It is realized that the study of the system and historicity of creative thinking is one of its basic methodological features in the creative process. Several studies have been conducted in our country to study the logical and gnoseological aspects of creative thinking. But, O.Fayzullaev inertia of thinking and ways to overcome it, M.Abdullayeva on the connection of scientific creativity with social processes[1,17-19], features of J.Tulenov’s dialectical style of thinking, Z.Davronov’s works such as the methodology of scientific creativity deserve attention. G.Rasulova reduction of thinking style, E.Rasulev personal level of creative thinking, K.Tulenova and D.Turdiyev investigated specific aspects of economic thought.

The study of human existence, in other words, from the point of view of creative thinking, is an important task of all sciences. Moreover, there is a special science for studying this process – gnoseology, which has its own research problems.

Gnoseology comes from the Greek words gnosis – “to know”, logos - “teaching”, which means the doctrine of knowledge. Gnoseology is considered a theory of cognition, a philosophy of cognition in general. It is a philosophical science about the nature and possibilities of human cognition, studying the relation of knowledge to reality, ways and methods of determining its reliability and reliability.

Indeed, one of the central problems of linguistics is also the study of the understanding of the world in the Universe-man system, the dialectics of the relations of subject and object, in other words, the gnoseological and ontological nature of language.

A. Nurmonov explains the onto-gnoseological nature of language and its methodological basis as follows: “Philosophically, language is a complex phenomenon that has an gnoseological and ontological nature. The gnoseological approach to a complex language having an ontological nature highlights, firstly, human cognition of the world through language, the task of language to name objective forms of existence (onomasiological), and secondly, the cumulative function of language as a set of knowledge about the Universe of native speakers of this language”.

Reflecting on this, the scientist again emphasizes the following points: “the ontological property of language is understood as an objective phenomenon that has its own specific internal structure. The ontological nature of language serves as the basis for gnoseology. Because the science of language is the science of the ontological nature of language. Therefore, philosophy recognizes that ontology and gnoseology are inextricably linked.



Ontology as a general doctrine of being, a branch of philosophy that studies the fundamental foundations of being, the general essence and categories of being, serves as the basis, the source of questions of gnoseology. All the concepts and principles of gnoseology have their own ontological interpretation, an ontological aspect. Consequently, gnoseology and ontology are two closely related branches of philosophy. Their inseparable connection lies in the fact that gnoseology has an ontological nature, and ontology has an gnoseological nature"[3]. The concept of scientific cognition is a process inherent only to man, which is equally applicable by man to both living nature and inanimate nature-the Universe. Scientific cognition is realized through cognition. Until recently, linguistic science analyzed and investigated a particular language system from the point of view of Russian linguistics, i.e. its substantial properties, semantic and functional aspects separately. Today, the Science of theoretical linguistics, which is developing rapidly, is not satisfied with such a methodology.

As is known, the methodology determines the means, purpose and theoretical basis of human cognitive activity. Within the framework of the methodology, the researcher chooses the principles of analysis of various phenomena of reality, uses research methods and evaluates the results achieved in the process of research. In the encyclopedic dictionary "philosophy" the concept of methodology is defined in two directions: 1) a set of research methods used in science; 2) the doctrine of the method of scientific cognition and transformation of the world.

N.Shermukhamedova believes that the methodology of science is able to determine only the general principles of effective cognitive activity, but cannot determine specific ways of cognition of the object under study. Each object of research requires a special approach, the use of a set of special methods and tools. Therefore, it is preferable to define methodology as the teaching of a system of principles and methods of analysis. Within its framework, the theoretical basis of scientific research and knowledge acquisition, the principles of a general approach are determined.

One of the important tasks of the methodology is to determine the source of knowledge. The solution to this question should be sought in philosophy, because from a philosophical point of view, any source of knowledge is an objective reality and its reflection in human consciousness.

The reflection of being in a person's consciousness cannot be directly direct («pure as a mirror»). This reflection is influenced by the relation of the subject of cognition to the object, but the sphere of this influence depends on the capabilities of a person, is in a certain limit.

Special attention in gnoseology is paid to the question of the relationship between the image and the object of cognition arising in the process of sensory cognition: «speaking about the forms of sensory cognition as images of the external world, one should not lose sight of the fact that the «image» is inherent not in the correspondence of the object, but its correspondence to the object. The «image» is not a copy in the mirror, but also not a «sign», but a kind of perception of the object « [4,121].

The human perception of being is always subjective, regardless of whether it is perception by the senses or some kind of instrument. But at the same time it is impossible to get objective information about reality, it is wrong to conclude that what we know is not reality, but is only the result of a feeling, a sensation.



The process of subjective cognition of reality is under the control of experience, and as a result of this process we get objective knowledge about reality, concrete information, we learn objective truth. Objective truth is the content of cognition of the world, and this knowledge is not related to the subject. But the process of accumulating this knowledge directly depends on the activity of the subject, his worldview and on what means are used. All these factors are reflected in the results of scientific research and determine to what extent our knowledge of reality is formed. Therefore, each stage of cognitive activity allows us to approach objective reality at a certain level and strengthen the desire for it. Until now, modern philosophical science is able to clearly define the main directions of scientific knowledge of reality.

The ideas outlined above are fully characteristic not only of the natural sciences, but also of linguistics. Therefore, despite the fact that the statement that scientific knowledge of the language system should begin with real linguistic phenomena is erroneous, in fact it should never lead to the absolutization of the inductive method. The attempt of such rounding creates an obstacle to the development of our science, the study is limited to the surface properties of phenomena, losing sight of their true nature. Therefore, an important fundamental goal facing linguistics today, and at the same time a task, is the study of the concept of the «human factor» in the aspect of functional and semantic analysis, the specifics of the anthropocentric paradigm, the methodological necessity and integration of language.

References:

- <https://www.ijtsrd.com/papers/ijtsrd45220>
- <https://doi.org/10.5281/zenodo.7215024>
- <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/issue/view/10>
- <https://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/651/615>
- <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/download/476/447>
- <https://media.neliti.com/media/publications/343911-cognitive-analysis-of-morphological-phen-6cbde1c9.pdf>
- <http://inovatus.es/index.php/ejine/article/view/651>
- <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/download/788/730>
- <https://scholar.google.com/scholar?cluster=12612198574541195121&hl=en&oi=scholar>
- https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAAJ:r0BpntZqjG4C
- <https://elibrary.ru/item.asp?id=49850074>



*Mo'tabarxon Sharipova,
Xo'jand davlat universiteti dotsenti,
Hikmatxon Ahmedova,
Qo'qon DPI katta o'qituvchisi*

TILSHUNOSLIKDA NUTQ MADANIYATI TUSHUNCHASI HAQIDA

Annotasiya. Maqolada nutq madaniyatiga oid qo'llanma va tadqiqotlarda nutq madaniyati masalasiga qaratilgan e'tibor va e'tiroflar haqida fikr yuritiladi.

Аннотация. Статья посвящена акценту и признаниям по проблеме культуры речи в руководстве и исследованиях по культуре речи.

Ключевые слова. Культура речи, языковая культура, культурология, культура мышления, литературно-речевая практика, понятие культурной речи.

Annotation. The article is devoted to the emphasis and confessions on the problem of speech culture in the manual and research on speech culture.

Keywords. Speech culture, language culture, cultural studies, culture of thinking, literary and speech practice, the concept of cultural speech.

Nutq madaniyati o'zbek tilshunosligining murakkab, amaliyot uchun o'zlashtirilishibirmuncha murakkab sohalaridan biri sanaladi. Keyingi 30-40 yil orasida o'zbek filologiyasida nutq madaniyati muammosiga jiddiy e'tibor qaratilayotgani, uning ob'yekti, predmeti, sub'yekti, turli xil tashqi va ichki belgilari hamda boshqa aspektlariga ilmning alohida va zaruriy muammolaridan biri sifatida qaratilayotgani shundan. Bu sohada amalga oshirilgan va bardavom bo'lib kelayotgan tekshirishlar hamda tadqiqotlar bu ilmiy tarmoqning ko'pgina tomonlari bugungi kungacha muammo sifatida alohida e'tibor qaratishni taqozo qilib turibgan masalalardan ekanligini ko'rsatib turibdi. Zero, nutq madaniyati yoki til madaniyati deb yuritilayotgan bu ilmiy sohaning genezisi, uning ilmda tadqiq etilishi, hozirgacha yechimini u qadar topa olmagan zaruriy qonun-qoidalarini inkishof etish, ularni amaliyotga tatbiq qilish murakkab jarayon bo'lishi bilan birga, dolzarb muammolardan sanaladi.

Nutq madaniyatining lisoniy hamda ilmiy ob'yekti aniq belgilanishi va u lingvistikaning boshqa tarmoqlarini tekshiruvchi muammolaridan chegaralanishi kerak. "Nutq madaniyati uchun so'zning mohiyati, so'zlarning yasalishi, so'zlarning o'zlashtirish qonuniyatlari, so'zlarning morfologik tuzilishi va gaplarning sintaktik qurilishi, tovushlarning sifatiiy belgilari va talaffuzi, shuningdek tilning yozuv sistemasiga xos xususiyatlari ham taalluqlidir. Ammo nutq madaniyati bu keltirilgan lisoniy hodisalarni adabiy til normalari, nutqiy amaliyotning talablari nuqtai nazaridan tahlil qiladi va o'rganadi. Nutq madaniyati uchun til va nutqni normativ baholash xosdir. Tilga oid, kundalik og'zaki yoki yozma nutqda uchraydigan biror bir til hodisasini nutq madaniyati shunchaki qayd etish bilan kifoyalanmaydi, balki adabiy til normalari, adabiy nutq amaliyoti nuqtai nazaridan baho beradi". Bu talab nutq madaniyatiga tegishli lisoniy manbalarni jiddiy o'rganish va bu sohaga atroflicha tatbiq etishni taqozo etadi. Bu esa, birinchi galda, nutq madaniyatini yuzaga keltiruvchi manbalarni aniqlash, ularning nutq madaniyatidagi o'rnini asoslash vazifasini keltirib chiqaradi.



Ma'lumki, madaniyat tushunchasini kundalik muloqotda, OAVlarida, boshqa manbalarda ko'p istifoda etiladi. Aslida, lug'atlarda "madaniyat" istilohining ma'nolarida aniq bir to'xtamga kelinmagan. "Madaniyat" tushunchasi ko'pqamrovli jarayon sifatida jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha yo'nalishlarni, kishi hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Nutq madaniyati esa ana shu jarayondagi eng muhim masalalardan biri hisoblanadi. U fikr almashish, muomala, so'zlash kabi kundalik, doimiy, zaruriy jarayonlarda oldingi rejaga chiqadi, aytilganlarni muayyan qolipga soladi, ayni chog'da o'zi ham shakllanadi - voqelikka aylanadi, ta'sir qilish quvvatiga ega bo'ladi.

Demak, nutq madaniyati nutq bilan, nutq faoliyati bilan bevosita bog'liq ekan, til nima, nutq nima degan masalalarning ko'ndalang bo'lishi tabiiy va mantiqiydir. Inson faoliyati tarixiga nazar tashlansa, til va nutq ajralmas ijtimoiy hodisa bo'lib, ular dialektik birlikda bo'ladi. Til aloqa quroli, nutq esa aloqa usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Nutq til atalmish ijtimoiy-individual quroldan foydalanish jarayoni, muayyan tilga, masalan, o'zbek tiliga tegishli til birliklari, ularning imkoniyatlarining ob'yektiv borliq, so'zlovchi tafakkuri hamda nutqiy vaziyat bilan o'zaro zaruriy, doimiy munosabatda bo'lishi tufayli yuzaga chiqadigan hodisa hisoblanadi. Yanada boshqacha aytganda, nutq muayyan darajada rasmiy til maqomiga ega bo'ladi. Uning rasmiyligi shundaki, nutq madaniyatiga amal qilinganda, lingvistik me'yor va mezonlar, etik va estetik talablar doirasida namoyon bo'ladi. Agar aytilganlarning biri oqsasa, uning mezoniga putur yetadi. Shu sababli mutaxassislar uni muayyan bir xalq ma'naviyatining ko'zgusi, xalq va millat ma'naviyatini belgilovchi etik va estetik kategoriya sifatida baholaydilar.

Nutq madaniyati adabiy tilni faqatgina ilmiy asoslangan me'yorlarda shakllantirishning o'zi emas, balki uni millatning til madaniyati va didini tarbiyalashga, ikki tomonlama ta'sir etish darajasiga moslashtirilgan hodisa sifatida baholashga to'g'ri keladi. Tilshunoslikka tegishli manbalarda nutq madaniyati tushunchasi uch xil ijtimoiy hodisani ifoda etishi ko'rsatilgan. Birinchisi, madaniy nutqning nomi bo'lsa, ikkinchisi, ayni madaniy nutq tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan nutq madaniyati muammosi bilan bog'liq. Uchinchisi esa, tilshunoslikning nutq madaniyati muammolarini o'rganuvchi yo'nalishi bilan bog'liq bir tarmoq.

Demak: a) Nutq madaniyati adabiy til rivojining o'ziga xos xususiyatlaridan biri (Praga lingvistik maktabi); b) nutq madaniyati (til madaniyati) – bu adabiy til me'yorlarining shakllanishi va silliqalanishiga yordamlashishdan iborat bo'lgan faoliyat, ya'ni til rivojiga ongli aralashuvdir (Praga lingvistik maktabi); v) nutq madaniyati tilni, uning qonun qoidalarini ongli idrok qilish, aniq, ravshan, ifodali nutq tuza olish mahoratidir (A.Gurevich va b.); g) nutq madaniyati kishilarni o'zaro to'liq va teran fikrlashishi, tilning barcha imkoniyat va vositalarini puxta egallashdan iboratdi (B.N.Golovin va b.); d) Nutq madaniyati faqat to'g'ri nutqgina emas, balki uquvlilik va nutqiy chechanlik hamdir (G.O.Vinokur va b.). ye) nutq madaniyati til vositalaridan o'rinli foydalangan holda maqsadga muvofiq so'zlash va yoza olish san'atidir (A.I.Yefimov); j) nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir (D.E.Rozental va b.); z) nutq madaniyati bu, avvalo, fikrlash madaniyatidir (M.Agafanova).

Nutq madaniyatiga daxldor bu ta'riflar uning genezisi – manba va manshaalariga alohida e'tibor bilan nazar tashlashni taqozo qiladi. Zero nutq madaniyati o'z-o'zidan yuzaga kelib qolmaydi. Avvalo, so'z, uning nutqdagi o'rni va maqsadga yo'naltirilganligi,



nutq egasi tafakkurida hosil bo'lgan fikrni so'z orqali qay darajada ifodalay olishi (bir so'z bilan aytganda, so'zni adabiy til me'yorlari asosida madaniy nutqqa aylantirib, muloqotda istifoda etishi) va boshqa jarayonlarni ko'zdan kechirish, donishmandlarning so'z va nutq, chiroyli va mazmundor so'zlash, so'z qudratini namoyon qilish malakasi haqida bildirilgan mulohazalarni ko'zdan kechirib chiqishni maqsadga muvofiq hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E. Tursunpo'latov M. O'zbek nutqi madaniyati asoslari. T. O'qituvchi, 1991. B. 149.
2. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: 2008. – B.13.
3. Rasulov R., Husanov N., Mo'ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san'ati. – T.: 2008. – B.14.

A.Xasanov, QDPI dotsent

O'ZBEK TILIDA MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LISONIY BIRLIKLARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada milliy kontseptosferani voqelantiruvchi lisoniy birliklar o'zbek va ingliz tili misolida tahlil qilingan. Buning natijasida o'zbek va ingliz xalqlarining lingvomadaniy xayotidagi o'xshash va farqli jihatlar kuzatilgan.

Kalit so'zlar: milliy til, milliy kontskptosfera, til va madaniyat, lingvokulturologiya, mintalitet, milliy xarakter.

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg'in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning har taraflama jihatlarini o'rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o'rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to'xtalmasdan ilojimiz yo'q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o'xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo'lmish xalqning o'ziga yarasha madaniyati va o'ziga xos mentalitetini ko'rsatishga harakat qilganmiz.

Ushbu bobimizda o'zbek va ingliz maqollarining lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini tasvirlash, o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarning mavzu jihatidan bir-biriga o'xshash tomonlarini ko'rib chiqish va ulardagi mentalitet va milliy xarakterning ifodalanishi kabi masalalarga chuqurroq yondashishiga imkon qadar harakat qilganmiz. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, umuman xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omildir. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqni tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash sistemadir. U buni quyidagicha izohlaydi: *“Cultural factors are deeply interwoven with the language, and thus are morphologically and structurally reflected in the forms of the language”*.

Mashhur tilshunos Sapir shuni ta'kidlab aytadiki, tildagi so'z boyligi insoniyatning jismoniy va ijtimoiy atmosferasi orqali vujudga kelgan. Va bu nazariya asosida tilni



madaniyatning bir qismi sifatida keltirishimiz mumkin. Umuman madaniy faktorlar misolida tilshunos Teliya ma'lum xalqqa va uning tarixiga tegishli bilimlar, an'ana va qadriyatlar, kundalik odatlar va boshqa madaniy ko'rsatkichlarni insoniyatning fundamental asoslari va ular orqali dunyoni anglashini tushuntirib o'tadi. Shuningdek, uning fikricha, har bir madaniyatning asosida yotuvchi til hech qachon madaniyatdan ayro o'rganilmasligi va insoniyat tildan madaniyatning har bir nuqtasini ifodalashda foydalanishini aytadi. V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bo'g'liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta'kidlaydi. Uning aytishicha, til butun bir madaniyatni o'zida ifodalar ekan, shubhasiz paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lmish xalqning madaniyatini juda chiroyli va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishib ketgan sohasi ya'ni lingvokulturologiya asoslay oladi. Teliya buni shunday ataydi:

"if language contributes to the formation of a collective cultural identity, also paremiology, due its wide spectrum of different forms of usage and due to the fact that it often includes elements which have a strong relationship with the culture of a specific country (part of the body, animals, and colors), can be considered as a domain of linguistics which seems to adequately illustrate the correlation between culture and language. This suggests a new direction of research for proverb studies, called "linguo-cultural investigation", or the analysis of proverbs for cultural data as represented in linguistic meanings"

Demak, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida bugungi kunda tilshunoslikda lingvokulturologik izlanishlar jarayonining muhim mavzularidan biriga aylanish bosqichida. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida qo'llanilmoqda. Teliya maqollarni *"direct cultural signs"* deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omillar ekanligiga to'la ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman olganda to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgu deb hisoblaydi. U bu haqda o'z ishlaridan birida shunday deb aytadi:

"After having described the interaction between language, culture and proverbs, it seems also important to mention the ways in which culture is implemented through language. Each culture has a set of proverbs that could be defined as basic, when they enter the lexicon and the language, it is possible they act as "direct cultural signs". On the other hand, when linguistic symbols interpret these cultural patterns, then these symbols transform themselves into bodies of those cultural patterns; in this case, language units acquire the status of standard."

Demak, xalqning tilida mavjud bo'lgan har bir so'z tilda ifodalanar ekan, ma'lum xalqning maqollari o'sha xalq tilida keltirilgan so'zlardan shu xalq vakillari tomonidan shu xalqning o'ziga xos xususiyatlari bilan, yasalish usuli bilangina ko'rsatiladi. Aslida tadqiqot ishimizning asosiy qismidan biri bo'lmish ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rib chiqib, ularning o'xshash va farqli tomonlarini o'rganish ishimizning muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli yuqorida keltirilgan olimlarning nazariyalariga asoslangan holda bir qancha o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarni chuqur tahlil qilib, keltirilgan fikrlarimizni isbotlashga harakat qilmoqchimiz. Ularda xalq turmush tarzi qay darajada ifodalanganligini misollar yordamida keltirishga va ikki tilda mavjud bo'lgan maqollarning solishtirma tahlili



orqali o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsatishga harakat qilamiz. Urganch davlat universiteti magistranti Axmedova Ugiljon Kuronboyevna o'zining ***"Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari"*** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasida ko'plab maqollarni qiyosiy jihatdan tahlil qiladi. Inglizcha: ***"The nearer the Church, the farther from God"*** maqolini o'zbek tiliga tarjima qilsak, ***"cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar"*** ma'nosi kelib chiqadi. Bu o'zbek tilida: ***"Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas"*** maqoli bilan ifodalanadi. Inglizcha maqoldagi "Church" so'zi o'zbekcha tarjimada "cherkov" so'zini beradi. "Cherkov" so'zi asli o'zbekcha so'z emas, lekin o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan termin sifatida mavjuddir. "Cherkov" xristian diniga mansub bo'lgan insonlarning shu dinga xos bo'lgan rasm-rusumlarini bajaradigan joydir. O'zbek tilida bu so'zga nisbatan ekvivalent sifatida "masjid" so'zini keltirish mumkin. Agar ikki xalqning dinidan kelib chiqadigan bo'lsak, o'zbek xalqining ko'pchilik qismi islom diniga, ingliz xalqi deyarli xristian diniga e'tiqod qiladi. Xristian dinida cherkov xristianlar uchun eng muqaddas joy sanaladi va yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, xristian diniga xos urf-odatlar, an'analar o'sha joyda o'tkaziladi. Islom dinida musulmonlar uchun islom diniga oid rasm-rusumlarni o'tkazish uchun cherkovni ishlatib bo'lmaydi. Chunki musulmonlar islom diniga xos urf-odatlarni bajarish maqsadida masjid, madrasa kabi ulug' va muqaddas dargohlarga tashrif buyurishadi. "Cherkov" va "masjid" so'zlari har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so'zlar bo'lishiga qaramasdan, ular o'ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir. Bu o'rinda xalq o'ziga xos va mos bo'lgan terminidan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o'zbekcha variantida "cherkov" so'zi ishlatilmadi.

Demak, biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko'rsatishda maqollarda ishtirok etmasdan qolmaydi. Agar maqollarning ma'no-mazmunini tahlil qiladigan bo'lsak, ingliz xalqining dinida, cherkov ular uchun naqadar muqaddas joy ekanligini maqolda ifodalangan ma'nodan bilish mumkin. Ularning fikricha, doimiy cherkovga boraveradigan shaxs har doim ham xudojo'y bo'lib qolavermaydi. Bu maqol orqali dinni niqob qilgan, aslida hech qanday diniy bilimga ega bo'lmagan shaxslar ifodalanyapti. Cherkov ular uchun shu qadar muqaddas joyki, uni ko'ngli, qalbi kir insonlar yolg'ondan ulug'lashini istamasligi butun bir xalq tili orqali ifodalangan. Agar o'zbekcha variantini ko'rib chiqadigan bo'lsak, u o'zbek tilida quyidagicha: ***Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-xarishni farq etmas.*** Unda ishlatilgan "besh vaqt namoz" "harom-xarish" kabi so'zlar o'zbek tilida uchraydigan so'zlardandir. O'zbek xalqining asosan musulmonlardan iborat ekanligi, ular uchun islom dini buyuk va islom dinidagi eng muhim burchlardan biri besh vaqt namoz o'qish ekanligi o'zbek xalq maqollarida aks etgan. Besh vaqt namoz o'qish islom dinida musulmonlar uchun eng muhim burchlardan biri hisoblanadi. Asosan, musulmonlar va o'zbek xalqi uchun besh vaqt namoz o'qish bu ularning kundalik hayotining bir qismidir. Shuning uchun xalq bu so'zlardan hayotiy jarayonlarda foydalanadi va bu o'zbek xalq maqollarida o'z aksini topgan. Bundan tashqari "harom-xarish" kabi so'zlar islom dinida va shu o'rinda o'zbek xalqi tomonidan ko'p ishlatiladigan so'zlardan biri hisoblanadi. Ota bobolarimizdan bizgacha yetib kelgan pand-nasihatlariga quloq soladigan bo'lsak, unda hamisha oq-qorani tanish, halol-xaromni bir-biridan ajratish kabi masalalarga juda jiddiy qarashgan.

MILLIY KONSEPTOSFERANI VOQELANTIRUVCHI LISONIY BIRLIKLAR

Annotatsiya. Maqolada milliy kontseptosferani voqelantiruvchi lisoniy lisoniy birliklarning olamning lisoniy manzarasida aks etishi tahlil qilingan. Buning natijasida turli millat vakillarining lingvomadaniy xayotidagi o'xshash va farqli jihatlar kuzatilgan.

Kalit so'zlar: olamning lisoniy manzarasi, milliy til, milliy kontskptosfera, til va madaniyat, lingvokulturologiya, mintalitet, milliy xarakter.

Olam g'oyat murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir; inson ibtidoiy sezgi organlari va tuganmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi. Mazkur mashaqqat huzurining mag'zi va mohiyati shundan iboratki, odamzod shu tariqa **bilish** deyiladigan tuganmas jarayonlarning natijasi o'laroq kashf qilib borgan unsurlarining yaxlit tizimi shaklidagi olam manzarasini hosil qiladi. Odam ongida yaralgan olam manzarasi, tabiiyki, tamoman turg'un, o'zgarmas tuzilma emas, u tafakkur taraqqiyoti, jamiyat rivoji, fan yutuqlari, bilish usullarining takomili bilan bog'liq ravishda o'zgarib, mukammallashib borishi mumkin. Antropotsentriklikni asosiy g'oyasi sifatida e'tirof etgan bugungi tilshunoslikda "olam manzarasi" ayniqsa, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchalari markaziy o'rindadir. Hozirgi tilshunoslikda ayrim tadqiqotchilar tomonidan "olam manzarasi" terminiga "borliq haqida ijtimoiy (Shuningdek, muayyan guruh, individual) ongda shakllangan bilimlarning muayyan tartibdagi jami" tarzida ta'rif beriladi va olamning ikki, ya'ni 1) bevosita hamda 2) bilvosita manzaralarini farqlash prinsipial ahamiyatga molikligi ta'kidlanadi. Bunday qarashga ko'ra, olamning bevosita manzarasi atrofdagi borliqning kishilar tomonidan to'g'ridan to'g'ri bilinishi natijasida yuzaga keladigan manzarasidir. Bilish kishi ixtiyoridagi ham sezgi a'zolari yordamida, ham mavhum tafakkur yordamida amalga oshadi, ammo har qanday holatda ham mazkur olam manzarasining ongda "vositachilari" bo'lmaydi va olamni bevosita idrok etishi hamda anglashi natijasi sifatida shakllanadi. Bunday qarash tarafdorlari ayni paytda olamning bevosita manzarasi "milliy ongda yuzaga kelishi"ga urg'u beradilar va bu manzara yaratilish usuli, umumiy metodiga bog'liq ekanligini ham aytadilar.

Olamning lisoniy manzarasini yaratishda frazeologizmlar alohida rol o'ynaydi. Ular "xalq hayotining ko'zgusi" dir. Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratilgan bo'ladi.

Frazeologizmlar vositasida yaratilgan olamning lisoniy manzarasining tahlilida uning antroposentrik xususiyatini ham ta'kidlash o'rinli. Olamning antroposentrik manzarasi frazeologizmlar yo'nalishining insonga qaratilganligi bilan ifodalanadi. Bunda inson barcha narsalarning o'lchovi sifatida ishtirok etadi: ko'p – *boshini yeb*; to'la, butun – *boshdan oyoq*; kichik – *ko'z ilg'amas*; tez – *ko'z ochib yumguncha* va h.k.



Olamning lisoniy manzarasi turfa ranglar ,xususan, mifologemalar, obrazli metaforik so'zlar , o'xshatishlar , konnotativ so'zlar, stereotiplar, ramzalar va h.k. vositasida yaratiladi. Har qanday til o'zida mazkur til egasining dunyoqarashini belgilaydigan va olam manzarasini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini mujassamlashtiradi. Masalan, ruslarda *cho'chqa* a)ifloslik, b)nonko'rlik, d) tarbiyasizlikni; inglizlarda *pig* ochofatni, o'zbeklar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqa musulmon xalqlarida *cho'chqa* sof diniy nuqtayi nazardan o'ta haqoratni ifodalaydi; vetnamlarda *cho'chqa* ahmoqlik ramzi bo'lib keladi. Demak, *cho'chqa* so'zi turli xalqlarda turlicha belgilarni konnotatsiyalaydi. Bu esa mazkur xalqlar olam manzarasining shakllanishidagi ularning o'ziga xos , individual majoziy fikrlashini ko'rsatadi.

Xullas, har qanday madaniyat o'zining kalit so'zlariga ega bo'ladi. Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.AKarimovning tilimizning milliy-madaniy xususiyatlari haqida bildirgan quyidagi fikrlarini keltirish ayni muddaodir: " ...tilimizdagi mehr-oqibat, mehr -muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyilmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo. Shuni aytish lozimki, bu tushunchalar kimdir shunchaki o'ylab topgan shirin kalom, quloqqa xush yoqadiga so'zlar emas. Bunday tushunchalar asrlar mobaynida el-yurtimizning dunyoqarashi, ma'naviy hayotining negizi sifatida vujudga kelgan, ong-u shuurimizdan chuqur joy olgan buyuk qadriyatlarning ifodasidir.

Shunday qilib, olamning lisoniy manzarasini o'rganish masalasi inson va uning turmushi, uning dunyo bilan o'zaro munosabati, uning mavjudligining sharoitlarini aks ettiradigan olamning konseptual manzarasi masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Olamning lisoniy manzarasi insonning turli olam manzaralarini izohlaydi va umumiy olam manzarasini aks ettiradi.

*Rahmonov G'afforjon,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va
adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SINONIMIYANING ZAMONAVIY TALQINI

Annotasiya. Maqolada o'zbek tilshunosligida keyingi yillarda lug'aviy sinonimlarni ularning leksik ma'nolari tarkibini semik tahlil qilish asosida belgilash orqali ularning mohiyatidagi aynanlik va farqlilik belgilarini farqlab ajratishga asoslanib zamonaviy talqini haqida fikr yuritiladi. Аннотация. В статье рассматривается вопрос о необходимости различия тождества и дифференциации синонимических рядов через определение лексических синонимов на основе семантического анализа содержания их лексических значений.

Annotation. This article discusses traditional and modern approaches to the definition of synonyms, and also pays special attention to identifying the general and differential features of the lexical meanings of synonyms in the semantic analysis.

Kalit so'zlar: lug'aviy sinonimlar, leksik ma'no, semik tahlil, ma'noviy farqlar,



uslubiy xoslanish belgisi, konnotasiya, emosional bo'yoq, dominanta, neytral so'z, semantik hodisa, semasiologik asos, so'zning semantik strukturasi, semema, sema, nomema, aynanlik, farqlilik, umumiylik.

Ключевые слова. лексическая синонимия, лексическое значение, семный анализ, различия значений, стилистические признаки, коннотация, эмоциональная окраска, доминанта, нейтральное слово, семантическое явление, семасиологическая основа, семантическая структура слова, семема, sema, номема, схожест, различие, общность.

Keys words. lexical synonymy, lexical meaning, semic analyses, differences of meaning, stylistic features, conotation, emotional shade, dominance, neutral word, semantic phenomenon, semasiological bases, semantic structure of the word, sememe, seme, nomeme, similarity, difference, commonness.

O'zbek tilshunosligi taraqqiyotining keyingi bosqichlarida sinonimiyaga bo'lgan yondashuvlar o'zgardi. An'anaviy tilshunoslikda sinonimiyaga berilgan ta'riflarning izchil emasligi, muammo mohiyatini to'liq qamrab olmasligi ma'lum bo'ldi.

Sinonimiya hodisasi tadqiqiga bag'ishlangan keyingi tadqiqotlarda "ma'nosi aynan bir" ta'rifidan voz kechildi, sinonimiyada kuzatiluvchi ma'noviy farqlarga, uslubiy xoslanish belgisi, konnotasiyaning ifodalanishi kabi jihatlariga ham e'tibor qaratila boshlandi.

O'zbek tilshunosligida sinonimlarni semik tahlil qilish orqali ularning ma'noviy farqlanishi masalasini o'rganishga ham e'tibor qaratildi. Sh.Rahmatullayev bu muammo tahliliga oid qarashlarida sinonimiyani belgilashda leksik ma'noning bo'linishi, uning tarkibiy qismlar, ya'ni sememalardan iborat ekanligini hisobga olish lozimligi ko'rsatdi.

Bunday yondashuvda so'zning leksik ma'nosi *semema*, sememani tashkil etuvchilar esa *semalar* sifatida baholanib, sinonimiyani belgilashda semalar munosabatiga asoslanila boshlandi. Natijada sinonimiyani belgilashda ham til va nutq birliklarini farqlash masalasiga e'tibor qaratildi. Leksik sinonimiya dastlab nutq birligi bo'lgan so'z asosida belgilangan bo'lsa, endilikda sinonimlar til birligi bo'lgan *leksema* asosida tavsiflana boshlandi. Bunday qarash natijasi o'laroq, tilshunoslikda sinonimlar til va nutq sinonimlariga ajratildi.

Bu o'rinda aytish mumkinki, sinonimiyaning sememalar munosabatiga asoslanuvchi semantik hodisa ekanligi ayon. Semasiologik asosda belgilanuvchi bu hodisa, ko'pincha, stilistik-nutqiy maqsadlarga, qisman semantik-ideografik tavsiflar uchun xizmat qiladi. Zero, sinonimlar orasidagi farqlar uslubiy, shuningdek, ma'no qirrasida, xususan, ma'noni gavdalandiradigan obrazlarda mavjud bo'ladi. Leksemalar umumiy ma'nosi asosida sinonimik qatorlarga birlashtirilgan ekan, dastlab ushbu leksemalarning semantik tabiatini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Leksemalar sememalarining semantik mundarijasini belgilashda leksik ma'noni semalarga bo'lib o'rganish talab etiladi.

O'zbek tilshunosligida ham o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab so'zning semantik strukturasi semik tahlil asosida o'rganila boshlandi. Bu muammo bo'yicha Sh.Rahmatullayev, H.Ne'matov, E.Begmatov, R.Rasulovlarning nazariy qarashlari maydonga keldi. Ularning ishlarida *so'zning semantik strukturasi, semema, sema, nomema* tushunchalariga oydinlik kiritildi. Semani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari (sememaning tarkibiy qismlari)ning sema ekanligi asoslab berildi.



H.Ne'matov va R.Rasulovlar semema tarkibidagi semalarni ma'no xususiyatiga, umumiylik darajasiga ko'ra farqlanishini inobatga olib, uning quyidagi turlarini ajratishni ma'qul ko'rishdi:

- a) atash semalari (denotativ semalar);
- b) ifoda, tasvir, qo'shimcha ma'no semalari (konnotativ semalar);
- v) vazifa semalari (funksional semalar).

Mualliflarning fikricha, "har bir semema tarkibida shunday semalar mavjuddir". Aytish joizki, bu semalar atash ma'nosi, konnotativ va funksional semaga ega birliklar tarkibidagina farqlanadi. Ammo tildagi barcha so'zlar ham bir vaqtda bu kabi semalarga ega bo'lavermaydi. Darhaqiqat, ba'zi so'zlar atash ma'nosini ifodalashdan tashqari, qo'shimcha ma'no semalari, ya'ni konnotativ semaga ham ega bo'ladi. Masalan, *qiltiriq* so'zida konnotativ ma'no bir vaqtda shu so'zning lug'aviy ma'nosi orqali anglashilib turadi. Ammo *ozg'in* so'zida bu sema mavjud emas. Yoki yordamchi so'zlarning atash semasiga ega emasligi, ularga faqat vazifa semasi daxldor ekanligi hammaga ma'lum. Demak, har bir semema tarkibida shunday semalar bir vaqtda mavjud bo'lavermaydi.

Sinonimlarni belgilashga ham semik tahlilning tatbiq etilishi sinonimik qatorlarga birlashtirilayotgan leksik birliklar ma'nolaridagi aynanlik, umumiylik va farqlilikka aniqlik kiritish imkoniyatini yaratdi.

Xullas, o'zbek tilshunosligida sinonimlarni belgilashda an'anaviy va zamonaviy qarashlar tubdan farq qiladi. Keyingi yillarda lug'aviy sinonimlarni ularning leksik ma'nolari tarkibini semik tahlil qilish asosida belgilash keng tus oldi. Sinonimlarni belgilashga bunday yondashuv ularning mohiyatidagi aynanlik va farqlilik belgilarini ajratishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

A.Toshpo'latov, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qo'qon davlat pedagogika instituti

MAJHUL NISBAT SHAKLINING PRAGMATIK IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada jonli muloqot jarayonida majhul nisbat shakllarining pragmatik ma'nolari yoritilgan.

Kalit so'zlar. Pragmatika, fe'l so'z turkumi, majhul nisbat, nutqiy jarayon, kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi.

Annotation. This article highlights the pragmatic meanings of the forms of passive participle in the process of live communication.

Keywords. Pragmatics, verb group, passive voice, speech process, context, speech situation, speaker's face.

Аннотация. В данной статье выделены прагматические значения форм страдательного причастия в процессе живого общения.

Ключевые слова. Прагматика, глагольная группа, страдательный залог, речевой процесс, контекст, речевая ситуация, лицо говорящего.

Nisbat shakllarining gap semantikasiga ta'siri masalasi Alisher Navoiydan tortib prof. A.G'ulomovgacha bo'lgan olimlarning diqqatini tortgan esa-da, [1,276] lekin bu



so'zshakllarning pragmatikasi masalasi hamon tilshunoslarimiz tomonidan yetarlicha tahlil etilgani yo'q. O'zbek tilshunosligida ilk bor nisbat shakllarining aniq pragmatik vazifa bajarishi haqida M.Hakimov quyidagicha munosabat bildirgan.

Nutq sub'ekti aniq bo'lgani holda so'zlovchi o'z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun **aniq nisbat** o'rnida **majhul nisbat** shaklidan foydalanadi. Bunday usul individual o'ziga xoslikni ifoda etishda muhim o'rin tutadi. *Birov olib ketsa, qaytib kela ber deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? Yig'lanmasin!* (A.Qahhor). Misol mazmunidan ko'rinadiki, so'zlovchi aniq nisbat qo'shimchasini qo'llash bilan "*yig'lamang*" deyishi mumkin edi, lekin bunda so'zlovchining ijtimoiy ta'sir etish darajasi nutqda o'z ifodasini topmay qoladi, shuning uchun aniq nisbat o'rnida so'zlovchi majhul nisbatdan foydalanadi.[2, 34]

Nisbat shakllarining *hurmat, kamtarlik, xushmuomala, qochiriq, piching, kinoya* va shu kabi ma'nolarni kasb etishi kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi va nutq ishtirokchilarining umumiy bilimlari bilan aloqador ravishda yuzaga chiqadi. Masalan, *Menga nima olindi?* jumlasidagi so'zlovchi nutqidagi oshkora va yashirin ma'nolarni aniqlashda kontekst, nutqiy vaziyat, so'zlovchi shaxsi va nutq ishtirokchilarining umumiy bilish fondiga ehtiyoj tug'iladi. Shu o'rinda so'zlovchi aniq nisbat o'rnida majhul nisbatni qo'llash orqali pragmatik vaziyatni paydo qilmoqda (solishtiring: *Menga nima olding? - Menga nima olindi?*).

Mashhur tilshunos olim A.Hojiyev ham majhul nisbat shaklining nutqiy jarayonda *buyruqni kuchsiz tarzda ifodalashi, kamtarlik, xushmuomala, qochiriq (istehzo)* va shu kabi ma'nolarda ham qo'llanishini ta'kidlab o'tgan: *Qani, ichkari uyga kirilsin, oyim (Yashin). Masalaning hal bo'lishiga oz qoldi- ku, endi mashinaga kamroq t u s h i l s a ham bo'ladi (B. Rahmonov).*[3]

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun darslik sifatida foydalanilayotgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida ham nisbat shakllari va ularning uslubiy ma'nolari haqida quyidagicha fikrlar bayon qilinadi. Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Xususan, bosh nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatilishi mumkin. Masalan, *keldi – kelishdi, kelyapti – kelishyapti*. Shuningdek, bosh nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniladi: *qildim o'rniga qilindi, bajardim o'rniga bajarildi, kiring o'rniga kirilsin* kabi. Bunday holat ma'lum uslub-emotsional ma'no talabi bilan ro'y beradi. Ko'pincha, keyingi holat *hurmat, kamtarlik* ma'nolarini ifodalaydi.[4]

Lisoniy birliklarni umumiylik va xususiylilik asosida tadqiq etgan olima Sh.Shahobiddinovaning ta'kidlashicha, morfemalar nutqda so'zlarga tirkalgan qo'shimchalar sifatida voqelanadi va yuzlab matnlarda har bir qo'shimcha yuzlab ma'noviy bo'yoqlarga ega.[5, 58]

Darhaqiqat, o'zbek tilidagi har bir nisbat shaklining shu kungacha ustozlarimiz tomonidan o'rganilgan sintaktik va semantik belgilariga qo'shimcha ravishda pragmatik imkoniyatlarini yoritish hozirgi yosh tilshunoslarimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилд. Тошкент: “Академнашр”, 2012. – Б 276.
2. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. Тошкент: “Академнашр”, 2012. – Б 54.
3. Ҳожиёв А. Феъл. Тошкент: “Фан”, 1973.
4. Муаллифлар гуруҳи. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент: “ИЛМ ЗИЁ”, 2013.
5. Тухфа (Профессор Ҳамид Неъматовнинг 60 йиллиги бағишланади) Тўплам. Мерос, 2001. – Б 58.

Bozorov Hamid Xo'shmurodovich
Termiz davlat universiteti

O'ZBEK XALQ ERTAKLARIDA PRETSEDENT BIRLIKLARNING QO'LLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. maqolada o'zbek xalq ertaklarida mavjud pretsedent birliklar haqida fikr yuritilgan. Lingvomadaniyatshunoslikda pretsedent birliklarning o'rne va ahamiyati hamda ushbu birliklarning jahon tilshunosligida o'rganilishiga oid ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar. lingvomadaniyat, pretsedent birliklar, qadriyat, madaniyat, xalq ertaklari.

Аннотация. в статье рассматриваются прецедентные единицы в узбекских народных сказках. Представлены роль и значение прецедентных единиц в языкознании и изучение этих единиц в мировой лингвистике.

Ключевые слова. лингвокультурология, прецедентные единицы, ценность, культура, народные сказки.

Annotation. the article discusses precedent units in Uzbek folk tales. The role and importance of precedent units in linguistics and the study of these units in world linguistics are presented.

Key words. linguistic culture, precedent units, value, culture, folk tales.

Har bir xalqning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi madaniy birliklar mavjud. Bu birliklar ichida inson omilini birinchi o'ringa chiqaruvchi hamda o'ziga xos tomonlarini ko'rsatib beruvchi tushunchalar asosiy o'rinni egallaydi. Chunki jamiyatdagi rivojlanish insoniyatning g'oyalari-yu qarashlariga asoslanadi. Bu qarashlar asrlar davomida shakllanib boradi, qaysidir jihatlari kam miqdorda bo'lsa ham xalq hayotidan chiqib ketadi, ko'pchiliklari esa, aksincha, o'sha xalqning o'ziga xos milliyligi va an'anasi, qadriyatlarini ifodalovchi muhim bir tushuncha sifatida xalq hayotidan o'rin egallaydi. Bu tushunchalar asrlar o'tsa-da, o'sha xalqning ongida yashaydi, kelgusi avlodlarga ham yetkazib beriladi. Bugungi kun tilshunosligi oldida turgan muhim masalalardan biri ham xalq madaniyatining lisoniy birliklar asosida inson ongida yashashi va undan kerakli vaziyatda foydalanishni tavsif qilishga e'tibor qaratmoqda. XX asrning oxirlariga kelib antroposentrik tilshunoslikning rivojlanishi inson madaniyatning til orqali namoyon



bo'lishini dalillar asosida tahlil eta boshladi. Bu borada ko'plab ilmiy ishlar, tadqiqot materiallari yuzaga keldi. Jumladan, lingvomadaniyatshunoslik fanining yuzaga kelishi til va madaniyatning o'zaro bog'liq jihatlariga, inson madaniyatini tilda aks etishining tahliliga e'tibor qarata boshladi. Xalq madaniyatining tilda yashashiga va u orqali madaniy qadriyatlarni ifodalash lingvomadaniyatshunoslikning alohida fan sifatida vujudga kelishiga asos bo'ldi va albatta, fan oldida turgan asosiy maqsad va vazifalarini belgilab oldi. Bundan tashqari, har bir fanda bo'lgani kabi o'rganilishi lozim bo'lgan obyektlarni ham aniq tanlab oldi, ya'ni "Lingvokulturologiyaning obyekti - madaniyat va tilning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'sirini bir butunlikda tadqiq qilish" [Usmonova Sh. 2019:26], deb belgilandi.

Shu ma'noda lingvomadaniyatshunoslik milliy qadriyatlar, urf-odat va an'analarning lisoniy shaxsda yashashi va keyingi avlodlarga milliy madaniyatning o'ziga xos tomonlarini etib kelishida tilning hissasini inobatga olish kerakligini ko'rsatadi.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy belgilarini matnlarda ifoda etilishini jahon tilshunosligidagi tahlili va o'rganilishi haqida olim D.Xudayberganova quyidagicha fikr bildiradi: "Matnning kognitiv-semantik xususiyatlari, olamning lisoniy manzarasini yaratishda muayyan etnosning o'rni, tilning shaxs mentaliteti, tafakkuri, ruhiyati bilan aloqador jihatlar, badiiy matnda shaxs ruhiyati aks etishi, shuningdek, lingvomadaniy birliklar, pretsedent matnlar va nomlar, kognitiv metaforalar yuzasidan dunyo mamlakatlarining ilmiy markazlari, universitetlarida, jumladan, Kopenhagen University (Daniya), Groningen University, Utrext Univesity (Niderlandiya), Sank-Peterburg universiteti, Moskva davlat universiteti, Moskva lingvistika universiteti (Rossiya), Vitebsk davlat universiteti (Belorus), Qozoq Milliy universiteti (Qozog'iston)da keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda [Худайбергано́ва Д. 2015:5]. Bu borada o'zbek tilshunosligida ham bir qator ishlar amalga oshirilib, o'zbek xalqiga xos milliy-madaniy merosning lingvistik xususiyatlari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarga e'tibor qaratilmoqda.

Lingvomadaniyatshunoslik fanida lingvistik birliklarning va har bir xalq madaniyatining o'zgachaligini jahonga ko'rsatadigan madaniy qadriyatlar ham mavjud. Lingvomadaniyatshunoslikning o'rganish obyektlari qatorida milliy qadriyatlarning o'rni katta. Bu haqida rus tilshunosi V.A.Maslova shunday deydi: "Madaniy qadriyatlar universal va individual, asosiy va qo'shimcha ma'nolarni ajratib ko'rsatish mumkin bo'lgan tizimdir. Ular tilda, aniqrog'i, so'z va sintaktik birliklar ma'nolarida, frazeologik birliklarda, paremiologik fond va pretsedent matnlarda o'z aksini topadi. Masalan, barcha madaniyatlarda ochko'zlik, qo'rqqoqlik, kattalarni hurmat qilmaslik, dangasalik va boshqalar kabi insoniy illatlar qoralanadi, lekin har bir madaniyatda bu illatlar har xil belgilar kombinatsiyasiga ega [Маслова В.А. 2001:49].

Ma'lumki, inson alohida olingan narsa, shaxs, hodisa kabilarni ularning o'ziga xos belgilari asosida esda olib qoladi. Narsa miqdor jihatidan ko'plikni tashkil etsa, eslab qolishning asosiy yo'li narsalarni tasnif qilish, guruhlariga ajratish, ularga xos o'xshash va noo'xshash belgilarni aniqlash, shu yo'l bilan ajratilgan guruhlarini ana ichki guruhlariga, ularni esa eng kichik birliklarga - tashkil etuvchilarga ajratishdir [Неъматов Х., Бозоров О. 1993:13].

H.Ne'matov va O.Bozorovlarning fikrini aynan milliy qadriyatlarga qiyoslash ham mumkin. Xalq hayotida mavjud tushuncha (narsa-buyum, shaxs, voqea-hodisa va h.k.)



larni eng asosiy belgilarini ongda saqlab qolish har bir shaxs ong faoliyatida kuzatiladi.

Pretsedent birliklar haqida gap ketar ekan, Maslova: “Madaniy universallik, bir tomondan, moddiy olamga, ikkinchi tomondan, etnosning milliy-madaniy, axloqiy muammolariga qaratilgan. Bunday ikki tomonlamalikularning semantik imkoniyatlariga, matndagi yetakchi g’oyalar, millat va davr timsollarining ramziy ifodasiga aylana olishiga xizmat qiladi. Bular, go’yo matnning madaniy mayoqlari... Pretsedent nomlar - bu xalqning ko’pchilik vakillariga ma’lum bo’lgan holatlar bilan mashhur matnlar bilan bog’liq individual nomlar” [Маслова В. 2001:49], - deb ta’kidlaydi.

“Pretsedent” atamasining o’zbek, rus, ingliz va nemis tillaridagi izohi, ensiklopedik, etimologik lug’atlarda turlicha izoh va ta’riflari mavjud. Xususan, pretsedent nom yoki ism “Lingvistik ensiklopedik lug’at”da quyidagicha izohlanadi: pretsedent (lot. Praecedens – oldinda yuruvchi, oldingi) – oldin, o’tmishda sodir bo’lib, shu ko’rinishdagi keyingi birliklarga namuna yoki oqlovchi dalil bo’lib xizmat qiluvchi birlik. Boshqacha aytadigan bo’lsak, oldin mavjud bo’lgan, barchaga tanish bo’lgan nomning o’zga bir shaxs yoki narsaga nisbatan qo’llanilishi tushiniladi [Ахмаджонов Н. 2022:12].

Pretsedent birliklarni lingvistik jihatdan tahlil etgan Y.N.Karaulov rus tili va adabiyoti o’qituvchilarining VI xalqaro kongressida (1986) quyidagi fikrlarni bildirib o’tadi: “Til shaxsining tuzilishi va faoliyatida pretsedent matnlarning roli” mavzusidagi ma’ruzasida “*pretsedent matn*” atamasini ilmiy muomalaga kiritdi. Karaulov pretsedent matnlar “u yoki bu shaxs uchun kognitiv va hissiy jihatdan ahamiyatli bo’lgan, g’ayritabiiy xususiyatga ega, ya’ni bu shaxsning keng doirasiga, shu jumladan, uning o’tmishdoshlari va zamondoshlariga yaxshi ma’lum bo’lgan va nihoyat, shaxs murojaatida yangilangan, ma’lum bir lingvistik shaxsning nutqida qayta-qayta qo’llanadigan matndir. Pretsedent matnlar inson ongida “tayyor intellektual va hissiy bloklar”dir [Орлова Н.В. 2014:116], deya tavsiflaydi.

Xalq hayotida muhim iz qoldirgan shaxslar ma’lum xalq vakillarining lisoniy ongida o’rin egallab, nutqida ko’p qo’llanadigan matnlar, jumlar, obrazlar (asosan, namuna sifatida ko’rsatish uchun ijobiy obrazlar, ba’zan yomon sifatlarining “oqibatlarini”ni tahlillashga qaratilgan salbiy obrazlar) xalq og’zaki ijodi namunalarida, jumladan, xalq ertaklari tilida ko’p uchraydi.

Har bir xalqning ertaklarida pretsedent birliklar bilan bog’liq qator nomlarni uchratish mumkin. Jumladan, qadimiy og’zaki ijod an’analariga ega bo’lgan o’zbek xalq og’zaki ijodida ham pretsedent birliklarini ifodalovchi nomlarni yoki xalq ongidan muqim o’rin egallagan matnlar talaygina. O’zbek xalq ertaklarida shunday matnlar borki, undagi obraz, tasvir yoki nomlar asrlar o’tsa-da, xalqimizga xos madaniy va ma’naviy qadriyatlarni o’zida saqlab, keying avlodlarga yetib kelishida ko’priq vazifasini o’tab kelmoqda. O’zbek xalq ertaklarida mavjud pretsedent birliklarga: Tohir va Zuhra, Zumrad, Qimmat, Qorabotir, Hotam, Xizr kabi antroponimlar, Ko’hi Qof, Bog’i Eram kabi mifonimlar, Susambil toponimi, Semurg’ zoomifonimlarini misol qilishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, o’zbek xalq ertaklarida mavjud pretsedent birliklarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish bugungi kun tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ertaklarning xalq hayotidagi o’rni, yosh avlodning ma’naviy jihatdan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyatini inobatga olib, ertaklar tilini ilmiy tadqiq qilish zarur hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 248 b.
2. Худайберганова Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини. Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Т.: 2015. 102 б
3. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001. 208 с.
4. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи. 1993. 32 б.
5. Ахмаджонов Н. Бадий услубда қўлланган прецедент номларнинг лингвопоетик таҳлили. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дисс. автореферати. Фарғона. 2022. 154 б.
6. Орлова Н.В. Лингвокультурология: учебное пособие / Н. В. Омск : Издво Ом. гос. унта, 2014. 168 б.

*Ro'zimatova Dilnoza Murodovna
O'zRFA, O'zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti*

IJTIMOIY MAQOM TUSHUNCHASINING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijtimoiy maqom tushunchasi haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu tushunchaning pragmalingvistik doirada o'rganilishi, pragmalingvistik xususiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Uning nutqiy akt jarayonidagi holati ham talqin qilingan.

Kalit so'zlar. sotsiolingvistika, pragmalingvistika, ijtimoiy maqom, nutqiy akt, postulat, ijtimoiy holat, ijtimoiy tabaqa.

Аннотация. В данной статье говорится о понятии социального статуса. Также проводится изучение данного концепта в рамках прагмалингвистики, даются сведения о его прагмалингвистических особенностях. Интерпретируется и его статус в процессе речевого акта.

Ключевые слова. социолингвистика, прагмалингвистика, социальный статус, речевой акт, постулат, социальный статус, социальный класс.

Annotation. This article will talk about the concept of social status. Information is also provided about the study, pragmalinguistic features of this concept within the pragmalinguistic framework. His condition in the process of Speech Act was also interpreted.

Keywords. sociolinguistics, pragmalinguistics, social status, colloquial act, postulate, social status, social class.

Insoniyat jamiyatini tashkil etishning muhim elementi bo'lgan ijtimoiy maqom odamlarning xatti-harakatlarini bildiruvchi ko'plab til birliklari semantikasida u yoki bu shaklda belgilanadi. Ijtimoiy maqom me'yoriy kategoriyadir, shuning uchun u orqali yuzaga chiqadigan munosabatlarni o'rganish orqali biz tabiiy tilning barcha boyliklarida kodlangan ijtimoiy tashkilot tamoyillarini o'rganamiz. Bu ma'lum bir tilda so'zlashadigan va shunga mos ravishda ma'lum bir jamiyatning baholash me'yorlari tizimini baham ko'radigan odamlar xatti-harakatlarining umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib



chiqish imkoniyatini ochadi. Shaxsning ijtimoiy mavqeyini o'rganishning madaniy jihati shunday.

Ijtimoiy maqom tushunchasi dastlab yuridik shaxsning huquqiy maqomini anglatgan. [Санов,1990:331]. Ushbu tushuncha mashhur nemis sotsiologi Maks Veber tomonidan keng ilmiy foydalanishga kiritilgan bo'lib, uning asarlarida maqom, sinf va hokimiyat – ijtimoiy tabaqalanishning asosiy o'lchovlari bo'lib xizmat qilgan. [Weber,1978:305,927-937]. Olimlar ijtimoiy munosabat tamoyillarini o'rganar ekan, sotsiologlar sinflar o'rtasidagi ko'plab oraliq shakllanishlarni, mulk va ishlab chiqarishga munosabatda birlashgan odamlarning katta guruhlarini e'tibordan chetda qoldira olmadilar. Vazifa esa ijtimoiy guruhlarini aniqlashning obyektiv mezonlarini aniqlash edi.

Shaxsning ijtimoiy mavqeyini pragmalingsvistik jihatdan o'rganish, qisman sotsiolingsvistika bilan birgalikda tahlil etish ikki yo'nalishni ham takomillashtiradi. Til tavsifining pragmalingsvistik yo'nalishida shaxsning ijtimoiy holati muloqotning asosiy o'lchovlaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy maqom nutqiy aloqa va nutq aktlari postulatlarida, muloqot sohalari va nutq janrlarida, ta'sir qilish usullari va nutqni ifoda uslubi xususiyatlarida, shuningdek, til birliklarining pragmatik ma'nolarini ifoda etishda o'zini namoyon qiladi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi maqom munosabatlarining dinamikasi – bu mavzuni rivojlantirish chizig'iga qo'yilgan maxsus aloqa ko'rsatkichi hisoblanadi. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan nutqiy xatti-harakatlar maqom bilan belgilangan axloqiy xatti-harakatlarning bir qismidir. Ijtimoiy maqom-neytral nutq harakatlariga qarshi hisoblanib, ushbu tushunchaga bog'liq va bog'liq bo'lmagan nutqiy harakatlarga bo'linadi. Shaxsning ijtimoiy mavqeyi belgisi ijtimoiy masofada muloqot qilish sharoitida, shuningdek, kommunikativ postulatlar buzilgan taqdirda o'zgaradi. Shaxsning ijtimoiy maqomi belgisi ijtimoiy notenglik sharoitida, shuningdek, nutqiy postulatlar buzilgan taqdirda faollashadi. Shaxsning ijtimoiy maqomi so'zlovchining tinglovchiga ta'sir qilishining asoslaridan(sabablaridan) biridir. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan nutqiy harakatlar bir nechta harakatlarni o'z ichiga oladi, ular esa o'z navbatida, asosiy va qo'shimcha harakatlarga bo'linadi. Asosiy nutqiy harakatlar aniq nutqiy aktning mohiyati, iltimos, kechirim, iltifot va boshqa shu kabilarni ifodalaydi. Qo'shimcha harakatlar esa o'zida u yoki bu nutqiy akti bajarganda bevosita va bilvosita shaklda rag'batlantirish ifodasi, hurmat munosabatining va maqsad belgisini ifodalaydi. Ijtimoiy maqom bilan belgilangan vaziyatning eng muhim tarkibiy qismlari xatti-harakatlarning ishtirokchilari yoki faollari hisoblanadi: biror bir tashkilot vakili, bemor, respondent, va boshqa shaxslar haqida shunday deyish mumkin. Ijtimoiy maqom muloqotda namoyon bo'lishi esa turli fe'llarning ma'nosida o'z aksini topadi, rasmiy mezonlar bo'yicha tasniflanadi. Ijtimoiy maqom holatlarining to'rt turi mavjud: ijtimoiy maqomning huquqiy va tantanavor holatli jarayondagi ko'rinishi, ijtimoiy maqomning boshqaruv jarayonidagi turi, bo'ysinish va undagi o'zgarishlar. So'zlarning leksik ma'nolaridagi baholovchi xususiyatlarning yig'indisi jamiyat madaniyatining qadriyat asosini tashkil etuvchi tilning aksiologik kodini tashkil qiladi. Aksiologik kod qiymat mulohazalari bilan ifodalanadi. Shaxsning ijtimoiy mavqeyining pragmalingsvistik xususiyatlari uch turdagi toifalarda ifodalanadi: toifa-omillar, sotsiolingsvistik xususiyatga ega, tegishli pragmalingsvistik xususiyatga ega bo'lgan kategoriyalar-turlar va lingvosemantik xususiyatga ega bo'lgan kategoriyalar. Xullas, tilshunoslikning pragmatika bo'limida xilma-xil tushunchalar mavjud: pressupozitsiya, nutqiy aktlar,



madaniyatlararo nomutanosiblik, perfomorativlar, deysis, xushmuomalalik va isbotlar strategiyasi, kodlarning o'zgarishi kabi tushunchalar kiradi. [Карасик, 1991:138].

Tilning vazifaviy yoki kommunikativ modeli lingvistik dalillarni o'rganishning boshqa ketma-ketligini taklif qiladi. Keng ma'noda pragmatika muloqotning qoidalari tizimi, shu jumladan, nutqiy muloqotni anglatadi. Bu haqida amsterdamluk olim F.Neumeyer jamiyatning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda nomlanishning o'ziga xos xususiyatlarini jismoniy omillarga qaratadi: masalan, eskimoslar orasida qor bilan bog'liq juda ko'p so'zlar, iboralar mavjud. Tilshunoslik bilan bog'liq omillarga esa ko'p tilli muhitda tillarni almashtirish kirs, ijtimoiy-madaniy omillarga kommunikantlar o'rtasidagi aloqani saqlab qolish va ular o'rtasida uyokibu turdagi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatish kabilar kiradi. Pragmalingvistikaga oid ishlarda nutqiy xulq-atvorning ijtimoiy-madaniy o'lchovlari quyidagi terminlar orqali ifodalangan: xushmuomalalik va hurmat, birdamluk, obro' va tanqid. Hurmat va xushmuomalalik adresant va adresat o'rtasidagi ijtimoiy masofa sifatida qaraladi. Muloqot qanchalik rasmiy bo'lsa, muloqot qiluvchilar orasidagi ijtimoiy masofa shunchalik katta bo'ladi. Ijtimoiy maqom saqlangan dialogdagi bo'ysunuvchining nutqi nisbatan kattaroq murakkabligi va uzunligi bilan ajralib turadi. Obro' va tanqid esa ma'lum mos referent guruhlarda qabul qilingan yoki qoralangan ma'lum til shakllari bilan bog'liq. [Dik, 1986:21-28]. Muloqotning ijtimoiy-madaniy omillari bevosita shaxsning ijtimoiy mavqeyiga bog'liq ekanligi yuqoridagi bir necha misollar orqali ma'lum.

Jamiyatda nutq sifatining roli katta. Nutq ijtimoiy tabaqalanishning tarbiyaviy mezonining ko'rsatkichidir. Uning yordami bilan siz mansab pillapoyalariga ko'tarilish yo'lini sezilarli darajada soddalashtirishingiz, osonlashtirish va qabul qiluvchiga etkazib beriladigan ma'lumotlar hajmini sifat jihatidan yaxshilashingiz mumkin. Nutq ko'nikmalarini doimiy ravishda rivojlantirish kerak, chunki faol so'z boyligi asta-sekin kamayib boradi. Adabiy talaffuz qoidalarini eslab qolish nihoyatda muhim, chunki nutq oddiy usul emas, ma'lumot uzatish – bu odam haqida mutlaqo hamma narsani ayta oladigan aniq tasvir hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dik S.C. Functional Grammar. - North Holland Linguistic Series 37. – Amsterdam, 1979. – 230 p.
2. Dik S.C. On the Notion 'Functional Explanation' // Belgian Journal Of Linguistics . - 1986. - P.11-52.
3. Карасик. И.В. Язык и социальный статус. –Москва, 1991. –С.220.
4. Киселова Л.А. Вопросы теории речевого воздействия. –Москва, 1978. –С.220.
5. Крысин Л.П. Речевое общение и социальные роли говорящих. // Социально-лингвистические исследования. –М, 1976. –с.49.
6. Крысин Л.П. Социальный компонент в семантике языковых единиц // Русский язык в школе. – 1983, N 3. – С.78-84.
7. Крысин Л.П. Социоллингвистические аспекты изучения современного русского языка. – М.:Наука, 1989. – 188 с.
8. Кон И.С. Социология личности. – М.:Политиздат, 1967. – 383 с.
7. Сапов В.В. Статуса социального теории // Современная западная социология: Словарь. – М.:Политиздат, 1990. - С.331-332.



KOGNITIV METAFORA XUSUSIDA MULOHAZALAR
(Rauf Parfi ijodi misolida)

Annotatsiya. Maqolada kognitiv lingvistika terminlari, xususan, kognitiv metafora atamasiga oid nazariy fikrlar o`rganilib, keltirilgan ilmiy asoslar shoir Rauf Parfi ijodidagi uchliklar misolida dalillangan.

Аннотация. В статье обсуждаются теорические идеи, связанные с терминами когнитивной лингвистики, в частности с термином когнитивной метафора, и доказываются приведенные научные основания на примере троек в творчестве поэта Рауф Парфи.

Annotation. In the article, the theoretical ideas related to cognitive linguistics terms, especially the term cognitive metaphor, are discussed, and the cited scientific bases are proved by the example of triplets in the works of the poet Rauf parfi.

Kalit so`zlar. Zamonaviy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, kognitiv metafora, sema, konsept.

Ключевые слова. современная лингвистика, когнитивная лингвистика, когнитивная метафора, сема, концепт.

Key words: Modern linguistics, cognitive linguistics, cognitive metaphor, sema, concept.

Konsept, bilish ssenariysi, kognitiv metafora, freym, skript singari terminlar zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo`nalishlaridan bir sanaluvchi kognitiv lingvistikaning asosiy birliklaridir. Xususan, metaforalarni o`rganish tilshunoslik fanining uzoq tarixiga borib taqaladi, ammo har bir davrda o`ziga xos, yangicha xususiyatlari kashf etilmoqda. Hozirgi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, metafora tahliliga kognitiv yondashuv metaforologiyada muhim ro`l o`ynaydi. Metaforaning kognitiv aspektida o`rganilishi E. Makkormakning “Когнитивная теория метафоры” tadqiqoti bilan bog`liq bo`lib, unda olim metaforaning kognitiv jihatlari haqida o`zining atroflicha hamda chuqur talqinlarini yozgan.

Kognitiv lingvistikada metaforaga tushunish, idrok etish, qabul qilish singari psixik jarayonlarning asosi deb qaraladi. Metaforaning kognitiv xususiyati haqida G. Nasrullayeva o`zining nomzodlik ishida quyidagilarni qayd etadi: “Insonning metaforik qobiliyati uning sezgi a`zolarining rivojlanganligi bilan bog`liq. Ammo ularning har biriga kishining intellektual qobiliyati hamrohlik qiladi. Intellektual qobiliyat boshqalar anglamagan, ko`ra olmagan hodisalarni ko`ra olish, baholash imkonini beradi. Metaforada inson sezgi a`zolari va intellektual imkoniyatlari yaxlit amal qilishini ta`kidlash lozim. Zero, metafora ijodkori bo`lgan inson – kognitiv mavjudlikdir.

Metafora tushunchani ifodasi sifatida kelganda matn tarkibida so`z yoki so`z birikmasi sifatida namoyon bo`lib, matnda qo`llangan biror jumla tarkibidagi predmet belgi yoki harakat-holatning boshqa bir predmet belgi yoki harakat-holat bilan qiyosiy-munosabatini ifodalaydi. Ijodkor metafora vositasida o`z fikrlarini shunchaki bayon qilmaydi, balki ularning emotsional-ekspressiv, estetik imkoniyatlaridan ham keng foydalanadi.



Azaldan Sharq xalqlari qisqa satrlarda katta ma'nolarni ifodalashga intilgan. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ham bugungi kunda mana shunday ijod namunalarini uchratamiz. Jumladan, atoqli o'zbek shoiri Rauf Parfi ijodida ham kognitiv metaforaning beqiyos namunalarini uchratish mumkin.

*Yulduzlarning rahmi keladi,
Oy mo'ltirab qaraydi menga,
Yuzlarimni silaydi og'och.*

Shoirning ushbu she'ridagi har bir satrda metafora mavjud. O'zaro mehr-muhabbat, insonparvarlik o'zbek xalqiga xos bo'lgan milliy, diniy o'ziga xoslikdir. Rauf Parfi ham keltirilgan asarida *Rahmi kelmoq, mo'ltirab qaramoq, yuzlarini silamoq* kabi birliklarni qo'llaydiki, ular *mehr* umumiy semasini ifodalaydi. Ijodkor yuqoridagi she'rda yulduz, oy va og'och so'zlarini misralarga mohirlik bilan joylashtirgan va unda go'zal tasvir yarata olgan.

Metaforalar orqali o'z she'riyatining mazmunini metaforalar orqali boyitgan shoir quyidagi she'rida

*Xayr, qo'llarini silkitar bulut,
Miyig'ida kulib qo'yar oy.
Shivirlar Ilash To'ychi degan shoir.*

Bu she'ri orqali shoirning xayrlashish daqiqasining she'riy manzarasini chizganligiga guvoh bo'lamiz. *Bulutning qo'l silkitishi, oyning miyig'ida kulishi* kabilarda metaforaning original namunalari sifatida ijodkorning qisqa satrlar orqali ham keng voqea yoki manzaralarni chiza olishidan xabar beradi. Yuqoridagi metaforalar *xayrlashuv daqiqasi* degan umumiy semani ifodalaydi. Lekin, shoir ushbu asari bilan xayrlashuv onlarida ham yana qayta diydor ko'rishishga umid qiluvchi o'zbek xalqining milliy hissini she'rning "*Shivirlar Ilash To'ychi degan shoir*" misrasiga singdirgan. Ijodkor deyarli barcha uchliklarida tugal kognitiv hukmni qayd etmaydi, balki uni o'quvchining o'ziga qoldiradi. O'quvchi asarni idrok etgach, intellektual qobiliyat orqali anglaydi.

Shuningdek, o'zbek tilida "oy" konsepti ezgulik vositasi, yorug'lik timsoli sifatida talqin etilgan. Rauf Parfi ijodini o'rgangan o'quvchi, unda oy konsepti keng qo'llanilganligiga amin bo'ladi. *Oylar kuydi, portladi quyosh, jigarimga o't qo'ydi oylar, oy suzadi, muzlagan kecha* kabilarni misol sifatida qayd etish mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, metaforizatsiya tilning tejamkorlik qonuniyatiga asoslanadi hamda olamdagi narsa-hodisalar o'xshashligi va muvofiqligi asosida mavjud ifoda vositalariga vazifa yuklovchi jarayon hisoblanadi. Metafora borliqni bilish, uni tilda aks ettirish, nutqni ta'sirchan qilish, unga bo'yoqdorlik beradigan vositalardandir. Uni tilning turli sohalarida, turlicha aspektlarda tadqiq etish metaforaga doir bilimlarni boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Макормак Э. Когнитивная теория метафоры // Теория метафоры. – М., 1990.
2. Насруллаева Г. Антропосентрик метафоранинг лисоний, когнитив ва лингвوماданий аспекти//дис. 2019. – Б. 58
3. Rauf Parfi. Saylanma. 2 jildlik. Birinchi jild. Toshkent -2022



QO'CHQOR NORQOBIL HIKOYALARIDA LEKSIK TAKRORLAR MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik takrorlarning badiiy matn qismlarini bog'lovchi vosita ekanligi va ularning Qo'chqor Norqobil hikoyalarida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. matn, matn qismlarini bog'lovchi vositalar, takrorlar, ot takrorlar, sifat takrorlar, olmosh takrorlar, fe'l takrorlar.

Аннотация. В этой статье объясняется, что лексические повторения являются связующим звеном частей художественного текста и что их в рассказах Кучкор Норкобила говорится о его роли.

Ключевые слова. текст, связующие части текста, повторы, существительные повторы, прилагательные повторы, местоимения повторы, глаголы повторы.

Annotation. This article describes that lexical repetition is a means of connecting parts of literary text and its role in Quchqor Norqobil's stories.

Key words. text, means of connecting parts of literary text, repetition, noun repetition, adjective repetition, pronoun repetition, verb repetition.

Bugungi kunda badiiy matn lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning eng ko'p murojaat qilinayotgan masalalaridandir. Tilshunoslikda ham boshqa sohalar singari, nazariyadan qochib, til hodisalarini real nutq vaziyatida o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Matn bu yozma hujjat shaklida obyektlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan yozma xabardir.

Galperin fikriga ko'ra, matn ham sintaktik birlik va u ham xuddi gap hosil qilish uchun gap bo'laklari bir- biri bilan grammatik va mantiqiy bog'lanishni talab qilgani kabi, matn tarkibidagi gaplar ham o'zaro muayyan bir bog'lovchi vositalar orqali bog'lanadi. Bu esa matnning mazmuniy va struktural jihatdan bir butun yaxlitligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, badiiy asar matnini yaratish yozuvchilardan ushbu vositalardan mohirona foydalanishni talab qiladi. Chunki o'ziga yuklangan ijodiy yukni kitobxonlar qalbiga to'la-to'kis olib kira olish uchun badiiy asar matni qismlari har tomonlama mustahkam bog'langan bo'lishi kerak.

Zamondosh adibimiz Qo'chqor Norqobil hikoyalarining o'quvchilar qalbidan chuqur o'rin egallaganining sababi ham balki yozuvchining ana shunday bog'lovchi vositalardan unumli foydalana olish mahoratidadir. Quyida adib hikoyalaridagi ba'zi bog'lovchi vositalar va ularning matn ekspressivligida tutgan o'rni xususida munozara yuritamiz.

Adib asarlarini lisoniy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, unda bog'lovchi vositalarning deyarli barcha turidan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, hikoyalarda uchraydigan takrorlar asar matnini o'zaro bog'labgina qolmay, undagi g'oyaviy maqsadni ham to'liq ta'minlay olganligi tahsinga sazovordir.



Avvalo, takror usuli nima ekanligi haqida soʻz yuritsak. Tilshunos olim M.Yoʻldoshev fikriga koʻra birinchi gapda qoʻllangan ayrim affiksalar, soʻz, soʻz birikmalari va gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qoʻllanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni taʼkidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi.

Takrorlash - soʻz yoki iboralarni takrorlash, buning natijasida oʻquvchi (tinglovchi) diqqatini ularga qaratadi va shu bilan ularning matndagi roli kuchayadi. Takrorlash badiiy matnga uygʻunlik beradi, uning hissiy taʼsirini kuchaytiradi, eng muhim fikrlarni taʼkidlaydi.

Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga koʻra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori va feʼl takrori kabilarga boʻlinadi. Adib hikoyalari quyidagi soʻz turkumlari takrorini koʻrishimiz mumkin.

Ot takrori: *“U ayni damda oʻz **onasini** eslab yigʻlardi. U ayni damda **onasini** sogʻinganini his qildi – u **onasini** sogʻinib yigʻlardi, olislardagi **onasi** uni hozirgina oʻlim changalidan olib qolganini, olis-olislardagi **onasi** oʻz joniga ora kirganini savqi-tabiiy hissiyot bilan sezib turardi.*

*“Chindan ham **onamga** oʻxsharkan”, – oʻylardi u.*

*“Ha, **onamga** oʻxsharkan...” (“Ona” hikoyasi)*

Ushbu parchada ot soʻz turkumiga mansub boʻlgan “ona” soʻzi hikoya qismlarini bogʻlovchi vosita hisoblanadi.

Sifat takrori: *“**Yolgʻiz** – **yolgʻiz** oʻgil. Gʻulom bobo bilan Oysara xolaning **yolgʻizi**, ortida qoladigan yorugʻ izi.*

Harbiyga chaqiruv keldi.

***Yolgʻizni** afgʻon urushiga olib ketishdi.” (“Urushning surati”).*

“Urushning surati” hikoyasidan olingan ushbu parchada adibning soʻz qoʻllash mahoratiga yana bir bor guvoh boʻlamiz. Oʻsha paytda hammani, hattoki, u oilada yolgʻiz oʻgʻil boʻlsa ham, afgʻon urushiga olib ketilganini taʼsirchanroq qilib tasvirlash uchun adib hikoya qahramoniga Yolgʻiz degan ism qoʻyadi. Natijada kishi ismi boʻlgan Yolgʻiz va sifat soʻz turkumiga mansub yolgʻiz soʻzlari juftligi hikoya matnida oʻzgacha bir ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Olmosh takrori: *“Hech kimning oldida tiling qisiq emas, odamlardan **oʻzing** bezding, odamlardan **oʻzing** olislashding. Aslida, sen **oʻzingdan oʻzing** qochding, **oʻzingdan oʻzing** bezding.” (“Nozi... Nozigul” hikoyasi)*

Hikoyaning bu qismida berilgan oʻzlik olmoshi matn qismlarini bogʻlabgina qolmay, maʼno kuchaytirish va hikoya taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Feʼl takrori: *“Qasam ichdi. Ogʻzidan ogʻir gap chiqdi. Buni bir Toʻxta **bildi**, oʻzi **bildi**. Poyidan oqib oʻtayotgan ariq **bildi**, boshdagi tonggi osmon, oyogʻi ostidagi yer **bildi** – borliq **bildi**.” (“Nozi... Nozigul” hikoyasi)*

Soʻz takrorlaridan tashqari biz ushbu hikoyalarda soʻz birikmasi va gap takrorlarini ham uchratishimiz mumkin. Masalan, “Nozi... Nozigul” hikoyasining olti oʻrnida kelgan *“**surxa, oq kishmish, tuyatish**”* kabi uzum navlarining takrori butun hikoyaning eng kulminatsion soʻzi boʻlgan desak, adashmaymiz. Bu soʻzlar hikoyaga oʻzgacha ruh, kitobxon qalbiga oʻzgacha hayajon olib keladi: *“...Bogʻiga traktor soldim. Bogʻning oxirgi joʻyagidagi uch tup tokni opqoldi. Bular **surxa, oq kishmish, tuyatish** deydi. Bularni buzmag, bularning egasi bor, deb tok tepasida uvillab yigʻladi...”* Adib hikoyada bu jumla



takroridan shunday mahorat bilan foydalanganki, natijada kitobxon nazdida ushbu soʻzlar hikoya qahramonlari boʻlgan Sarvar va Nozigul oʻrtasidagi muhabbat va sadoqat ramziga aylanib ketgan.

Adib asarlari ichida “Urushning surati” hikoyasi hajmi kichik boʻlsada urush suratini ayovsiz chiza olgan asar hisoblanadi. Ushbu asarda **“Men otamdan oldin oʻlganman...”** degan jumla takrori va unga ohangdosh qilib aytilgan **“Men bolamdan keyin oʻlganman...”** jumlasini butun hikoya mazmunini ifodalaydigan, oʻz zimmasida oʻta ogʻir yuk koʻtargan soʻzlar jamlanmasidir; yukki, kitobxonga kitob sahifalarini koʻz yoshlari bilan sugʻorishdan oʻzga chora qoldirmaydigan ogʻir yuk... *“Askar kiyimida jilmayib turgan oʻgʻlonning surati tagida : “Men otamdan oldin oʻlganman...” degan yozuvni oʻqidim. Oʻzimni qoʻlga oldim.*

–Ana, yonidagi Gʻulom otaning qabri, – dedi qoʻshnim.

Qabr boshidagi marmar lavhdagi: “Men bolamdan keyin oʻlganman...” degan yozuvga koʻzim tushdi. Endi oʻzimni tutolmadim.”

Ushbu misollardan koʻrinib turibdiki, Qoʻchqor Norqobil asarlarida mavjud leksik takrorlar nafaqat badiiy matn qismlarini bogʻlash uchun, balki matn ekspressivligini oshirish vositasi boʻlib ham xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». — Т. 1. — М., 1974. — С. 67.
2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. —T.:1989.
3. Yoʻldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. —Toshkent, TDPU, 2007.
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.—Toshkent: Fan, 2008.— 160 b
5. Samodil: hikoyalar. Qoʻchqor Norqobil. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 400 b.

Rajabov Elshod Erkinovich
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Qiyomova Nigora Bahodir qizi
Buxoro viloyati Gʻijduvon tumani
34-maktab ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

OʻZBEK VA INGLIZ XALQ IBORALARIDA “OILA” KONSEPTINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oʻzbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: oila, maqol, naql, ota-ona, oʻgʻil, qiz, uygʻunlik, yaxshilik, tahlil.

Annotation. This article compares and analyzes phraseological units in Uzbek and English languages.

Key words: family, proverb, wise saying, parents, son, daughter, harmony, kindness, analysis.

Аннотация. В данной статье сравниваются и анализируются паремиологические единицы на узбекском и английском языках.



Ключевые слова: семья, пословица, мудрое изречение, родитель, сын, дочь, гармония, доброта, анализ.

Ma'lumki, oila jamiyatning, har bir xalq turmush tarzining ajralmas bir bo'g'ini hisoblanadi. Shaxsning shakllanishi, ma'naviyatining tarkib topishi va rivojlanishida oilaning o'rni beqiyosdir. Jamiyatning asosiy guruhi hisoblangan oila shu jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlanib boradi. Qadimgi sharq xalqlarida "Oila – vatan ichra vatan", "Oila – mehr-oqibat maskani", "Oila – baxt qo'rg'oni" kabi purma'no hikmatlarning mavjudligi oilaning inson va jamiyat hayotidagi mavqeyi naqadar ahamiyatli ekanligining yorqin dalilidir.

Insoniyat taraqqiyotidan ma'lumki, ibtidoiy jamiyatning ilk davrlarida shakllana boshlagan oila-qarindoshlik munosabatlari ma'lum davrlar o'tishi bilan tobora mustahkamlanib, takomillashib borgan. Shaxs, oila va oilaviy munosabatlar masalasi bugungi kunda ham o'zining tarixiy, madaniy, milliy va umumbashariy qadriyatlarga egaligi bilan katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, har bir xalq, millat vakili oila muqaddas ekanligi, uni ulug'lash, e'zozlash zarurligi, unda umuminsoniy va milliy qadriyatlar aks etganligini his qilishi lozim. Shu o'rinda Hazrat Navoiyning oila tayanchlari bo'lmish ota va ona haqida bitgan purhikmat misralarini keltirish o'rinlidir:

*Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuning aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.*

Oila tushunchasi dunyoning barcha xalqlarida ham mavjud. Ammo, tabiiyki, ulardagi oila tushunchasiga bo'lgan qarashlar bir xil emas. Ayniqsa, oiladagi qadriyatlar, milliy urf-odatlar va an'analar, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar masalasida turli xalqlar milliy madaniyatida o'zaro tafovutlar yo'q emas. Oila to'g'risidagi bunday qarashlar o'z-o'zidan tilda aksini topdi va bu tushunchalar lisoniy ifodaga ega bo'ldi. O'zbek va ingliz tillarida ham "oila" konseptiga ishora qiluvchi lisoniy birliklar talaygina bo'lib, ushbu ishda frazeologik birliklarning ikki tildagi qiyosiy-tipologik tahliliga e'tibor qaratildi, o'zbek va ingliz xalq iborolari misolida oila tushunchasining lisoniy mohiyati, uning mazmuniy xususiyatlari tahlil qilindi.

Ma'lumki, frazeologik birliklar paremiologik birliklar singari xalq donishmandligi natijasida vujudga kelgan, ma'lum bir ibratli fikr-xulosani o'zida mujassam etgan barqaror birikmalar hisoblanadi. Frazeologik birliklarda milliy tafakkur, xalqona urf-odatlar va an'analar, turmush tarzi, milliy mentalitet kabi tushunchalar yaqqol aks etadi.

"Oila" konseptiga ishora qiluvchi o'zbek va ingliz xalq iboralarini quyidagi mazmuniy guruhlariga ajratgan holda tahlil qilish mumkin:

1) oila a'zolari va qarindosh-urug'lar bilan bog'liq iboralar;
2) oilada turmush tarzi, uy-joy, ro'zg'or masalalari va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq iboralar;

3) oilali bo'lish, turmush qurish masalalari bilan bog'liq iboralar;

4) oilada farzandning o'rni haqidagi iboralar.



O'zbek va ingliz tillarida oila a'zolari va qarindosh-urug' nomlari bilan bog'liq xalq iboralari salmoqli. O'zbek tilida oila a'zolari, ular o'rtasidagi qarindoshchilik munosabatlari quyidagi frazeologik birikmalarda aks etadi: *Bir mayizni teng bo'lib yeydi* (bir-birlaridan hech narsa ayamaydigan, doimo birga yuradigan, topganlarini o'rta qo'yib, birga baham ko'radigan yaqin qarindoshlar va do'stlarga nisbatan ishlatiladi); *Biri qosh, biri ko'z* (o'ziga eng yaqin qarindosh-urug'i yoki samimiy do'stiga nisbatan ishlatiladi); *Bir ko'rpada tepkilashib o'sgan* (bir nechta oshna-og'aynilar, do'stlar yoshlik chog'laridan birga o'sadilar, birga ulfatchilik qiladilar, ularni hech kim ajrata olmaydi ma'nosidagi ibora); *Bir-biri bilan qirq pichoq bo'lib, urushib o'layozishdi* (biror narsa – yer, mulk, meros ustida bir katta oilaning ikkiga bo'linib qattiq urush qilishlarini ifoda etadi); *Oftobda qatiq ichishgan qarindosh* (bir odam yuqoriroq amalga ega bo'lganda, unga o'zini qarindosh qilib ko'rsatuvchilar ko'payadi ma'nosida ishlatiladi); *Yaqindagini bo'ri yemas* (bir odam to'y yoki ziyofat qilganda, o'zining yaqindagi qarindoshi yoki do'stini esdan chiqarib aytolmaydi, ammo uzoq-uzoq joylardan qarindosh-urug'lari o'z vaqtida yetib keladi. Shunday vaziyatda ushbu ibora ishlatiladi); *O'ligimga o'tirgan, tirigimga tik turgan, ko'zdek qarindoshim* (hamma masalada yordam beradigan, to'yiga qarashib turadigan, o'lim bo'lsa borib xizmat qiladigan qarindoshlarga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Hozircha tirik to'qimga yo'lamay, sag'risiga qo'l tekizdirmay yuribdi* (oilaga hayotidan uzoqda bo'lgan, tirikchilikka bo'ysunmagan, ro'zg'or ishlarini bo'yniga olmagan shu oilaning a'zosiga nisbatan ishlatiladigan ibora). Ingliz tilida esa qarindoshlik munosabatlarining madaniy jihatlarini o'zida aks ettirgan quyidagi idiomatik birliklarni keltirib o'tish mumkin: *to get serious* (to have a relationship with someone), *to get back together* (to turn to a relationship or marriage after separating), *to be like one of the family* (used as a way to say that someone or something is a part of the family or a member of the family), *to run in the family* (to be common quality among members of a particular family, a lot of people in the family have that characteristics), *to be at cross-purposes* (not understand each other because they are trying to do or say different things), *to live in each other's pockets* (to do everything together), *to hit off* (to develop a friendly relationship quickly), *to start off on the wrong foot* (to have a bad start to a relationship), *to look up to someone* (to respect and admire someone, to have a very good opinion of someone), *to take after someone* (to resemble a member of your family in appearance or character), *to get round someone* (to persuade someone to let you do or have something, usually by flattering them), *to take one's side* (to support someone), *to be close to someone* (to like someone very much), *eternal triangle* (a relationship between three people), *empty nest syndrome* (the sad feelings which parents have when their children grow up and leave home), *in and out family* (members of the same family who are regulars at the workhouse), *a close band* (relationship or feeling of togetherness), *nearest and dearest* (someone's close relatives), *one's own flesh and blood* (someone's relatives), *a man and a brother* (one's best relatives and friends), *a long-lost relative* (is one whom you have not seen for many years), *shoulder to shoulder* (relatives who live together), *forty second cousin* (not to be close relatives), *cousin seven times removed* (relatives who are not close), *to receive someone into one's house* (to receive someone as a relative), *to be one's kith and kin* (to be related by blood), *a man of no family* (a man who has not got family and any relatives such as wife and children).

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qarindoshlik atamaları va tushunchasi ishtirok etadigan frazeologik birliklar har doim ham oila, qavm-qarindoshlik munosabatlariga



ishora qilavermaydi. Ba'zi frazeologik birliklarda bunday atamalar qo'llansa ham, umumiy mazmun boshqa munosabatni ifodalashga xizmat qiladi. Bu kabi birliklarni o'zbek tilining ham, ingliz tilining ham lug'at boyligida uchratish mumkin. Jumladan, o'zbek tilida *Onasining qornida* (hali tug'ilgani yo'q, mutlaqo yo'q, yer yuzida topilmaydi), *Onasini ko'rsatmoq* (ta'zirini bermoq, jazolamoq), *Ona suti og'zida* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan ketmagan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'zidan anqib turgan* (hali yosh, tajribasiz ma'nosida), *Ona suti og'ziga kelmoq* (haddan tashqari qiynalmoq ma'nosida), *Onadan tug'ma bo'lib* (har qanday kasallikdan yoki balo-qazolardan xoli bo'lib, aslidagiday; sog'lom, hech narsa ko'rmaganday), *Ota go'ri qozixona* (bir kishining arzimagan aybini katta jinoyatga yo'yib ko'rsatish), *Otang temirchimi?* (Muncha ezmasan, gapni cho'zma, degan ma'noda ishlatiladigan ibora), *Otasining xunini so'ramoq* (biror narsa uchun haddan ziyod pul yoki haq so'ramoq, biror narsaga juda qimmat baho qo'ymoq), *Bu ham yo'q edi, otam bozordan keltirdi* (Bolalar biror taom, kiyim-bosh, buyumdan norozi bo'lib, xarxasha qilib, injiqlik bildirganda shunday deyiladi. Boriga, topilganiga shukur qil, shu ham aslida yo'q edi, dadang bozordan keltirdi, deya mazkur buyumning narxi oshiriladi, bahosi – qadri ko'tariladi) kabi turg'un birikmalarda; ingliz tilida esa *Am I my brother's keeper?* (Am I guilty?); *Sister Anne* (reliable friend); *Bob's your uncle* (everything is good); *It's not your uncle* (it is not easy), *Husband's tea* (cold tea); *If my aunt had been a man, she'd had been my uncle* (what if, in case); *Sister company* (branch of the company); *Father daughter dance songs* (songs of good fortune) kabi barqaror birikmalarda yuqoridagi holat ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, turmush tarzi, uy-ro'zg'or, oiladagi ahillik, oila a'zolari o'rtasidagi inoqlik, birlik, mehr-muhabbat, oilaviy munosabatlar masalasi qadimdan o'zbek va ingliz iboralarida asosiy o'rin tutib kelgan. Bu holatni o'zbek tilidagi *Qozonni suvga tashladi* (zo'rg'a tirikchilik ko'rayotgan oilalarda har kun ham qozon qaynamaydi, qozon qaynamagan o'sha kun ushbu ibora ishlatiladi); *Qora qozoni qaynab turibdi* (biror kishining turmushi, ro'zg'ori, tirikchiligi o'tib borayotir ma'nosida ishlatiladi); *O'choqning kulini tort* (oilalarning o'rtasida ro'zg'orini tejash maqsadida aytiladigan ibora); *Bo'yniga tuzluq to'rva tushdi* (ota-onaga yoki merosga orqa qilib tirikchilikni bo'yniga olmagan odam ota-ona o'lgach, meros tomom bo'lgach tirikchilik qilishga majbur bo'ladi); *Baland oxurdan suv ichgan* (katta yeb, katta ichib o'rgangan va og'ir mehnatga darrov bo'yin egmaydigan oila a'zolariga nisbatan ishlatiladigan ibora); *Beli baquvvat* (puli ko'p, davlati zo'r oila kishilariga nisbatan ishlatiladigan ibora) frazeologizmlari orqali ifodalash mumkin. Ingliz tilidagi *to feel homesick* (to feel after moving away from own family), *to set up home* (to start an independent life in one's own flat or house), *to provide for one's family* (to earn enough money to support family), *on the rocks* (difficult situation in relationship), *to be born with a silver spoon in one's mouth* (to be born to a wealthy family with many advantages), *to fly the nest* (to leave to live independently), *not to see eye to eye* (you do not agree on something), *to have its ups and downs* (to have good and bad moments), *to live to a ripe old age* (living well into old age), *to be at death's door* (to be close to death), *to feel one's age* (to feel as old as they are), *a family feud* (quarrel in a family causing bad feeling for many ears), *a bumpy relationship* (up and down like a car on a road with bumps) frazeologik birliklari ham yuqoridagi masalaning yorqin bir dalilidir.

Har qanday xalqlarda bo'lgani kabi o'zbek va ingliz xalqlarida ham oilali bo'lish, turmush qurish, er va xotin munosabatlari singari dolzarb masalalar shu xalqlarning



tilida turli xalqona naqlar orqali gavalantiriladi. O'zbek tilida *oila qurmoq, oilali bo'lmoq, turmush qurmoq, ro'zg'or boshiga tushmoq, boshini ikkita qilib qo'ymoq, bo'yniga olaxurjun tushmoq, bir yostiqa bosh qo'ymoq* kabi ko'plab iboralar mavjud. Ingliz tilida ham shu kabi *"To tie the knot"* (turmush qurmoq), *"It is good to marry late or never"* (Kech yoki hech uylanmaslik yaxshi), *"Marry your daughters betimes, lest they marry themselves"* (Qizning o'zi erga tegmasligi uchun uni tezroq erga berish kerak), *"Marry your son when you will, your daughter when you can"* (O'g'lingni xohlaganingda uylantir, qizingni esa imkoniyating borida uzat) iboralari mavjud ekanligini ta'kidlash kerak.

Oilada farzandning tug'ilishi, uning oiladagi tarbiyasi masalasi ham o'zbek va ingliz xalqlari milliy madaniyatining o'ziga xos bir namunasidir. Bu madaniy jihatlar o'zbek va ingliz xalqlarining tilida ham o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, o'zbek tilida *Bir palakdan necha xil qovun yetishadi* (bir ota-onadan olti-yetti bola tug'lsa, shu bolalar tashqi ko'rinishda bir-birlariga o'xshasalar ham, xulq-atvori jihatidan har xil bo'ladilar, bir-birlariga o'xshamaydilar. Mana shunday bir ota-onadan tug'ilgan bolalar fe'l-atvorining har xil bo'lishiga qarab ishlatiladi), *Burunni sassiq deb kesib tashlab bo'lmaydi* (ba'zan kishi a'zolarining hammasi baravar salomat bo'lavermagandek, bir ota-onadan bo'lgan bolalarning hammasi ham bir xil yaxshi bo'lavermaydi. Ota-ona farzandlari ichida yomon bolasini harchand yaxshi yo'lga solaman deb urinib ko'radi, lekin epga ololmaydi. Ota-ona bunga chora topolmasligini, farzandini yo'q qilolmasligini nazarga olib ishlatiladi), *Yengilini yetaklab, og'irini orqalab, bularni boqquncha ona sutim og'zimga keldi* (bolani boqish va tarbiyalash mas'uliyatli va qiyin ishdir. Shunday azob-uqubat bilan bola boqqan ota-onaga nisbatan ishlatiladigan ibora), *Yerga qo'ysam gard bo'ladi, osmonga qo'ysam chang bo'ladi, deb bolasini yer-u ko'kka ishonmaydi* (shunday xotinlar bo'ladi, uzoq yillar bola ko'rmaydi yoki bolasi turmaydi. Natijada eng so'ng tug'gan bolasini hech kimga ishonmaydi. Doimo asrab-avaylab, erkalab o'stiradi. Mana shunday xotonga nisbatan ishlatiladi), *Jo'javurdek jon* (tovuq jo'jalarining ko'pligiga qarab, ko'p bolali odamlarga nisbat beriladi, ya'ni bolasi ko'p kishiga "jo'javurdek jon" deyiladi. Bu ibora ko'proq achinish, ayash ma'nosida ishlatiladi), *Yirtiqqa yamoq, dardga davo bo'ladi* (bu ibora bolaga nisbatan ota-ona tarafidan aytiladi. Ota-ona bolani qiyinchiliklar bilan boqib voyaga yetkazadi, so'ngra qo'lidan ish kelmaydigan bo'lib qolganda, ba'zi bolalar ularga qaramay qo'yadi. Mana shunday holda ishlatiladigan ibora), *Kun tug'sa ham shunga tug'sin; oy tug'sa ham shunda tug'sin* (ota-ona yaxshi ko'rgan farzandiga eng go'zal, ko'rkam, a'lo darajali narsalarni ravo ko'radi. Oy, kun va ularning tug'gan bolasi yoki ularning chiqishini yaxshi ko'rgan farzandiga munosib ko'rib shu iborani qo'llaydi), *Tobut ostida qolgan bola* (qarigan kishining xotini tug'adi, ammo chol o'lib qoladi. Tug'ilgan bolaga nisbatan shu ibora ishlatiladi) singari iboralar bunga yaqqol misol bo'ladi. Ingliz tilidagi *"As the tree, as the fruit"* (Daraxtiga ko'ra mevasi, ota-onasiga ko'ra bolasi), *"Each bird loves to hear himself sing"* (Qora qo'ng'iz ham o'z bolasini oppog'im deydi), *"Every mother thinks her own gosling a swan"* (Har kimniki o'ziga, oy ko'rinar ko'ziga), *"Like father, like son; like mother, like daughter"* (Otdan o'g'il, onadan qiz), *"The parson always christens his own child first"* (Har kimsa birinchi bo'lib o'z bolasini cho'qintiradi), *"Happy is he that is happy in his children"* (Har kishining baxti uning bolalarida ko'rinadi), *"Many a good father has but a bad son"* (Ko'p



yaxshi otalarning yomon o'g'li bo'ladi) iboralari ham farzand to'g'risida ekanligi bunga misol bo'la oladi.

O'zbek va ingliz tillarida oila konseptiga xos bunday frazeologik birliklar juda ko'p. Oila konseptiga ishora qiluvchi maqollar o'zbek va ingliz xalqi muloqot jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev T, Musoqluv A, Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari lug'ati. – Toshkent, "Sharq", 2013
2. Shomaqsudov Sh, Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O'zbek xalq maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent, 1990
3. Shomaqsudov Sh, Dolimov S. Qayroqi so'zlar: xalq iboralarining izohli lug'ati. – Toshkent, "O'zME", 2011
4. Karomatova K.M, Karomatov H.S. English proverbs. Toshkent, 2005
5. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartiblari. Toshkent, "Ma'naviyat", 2000

*Akhmedova Kamola Kudratovna
Urgench State University*

CYBERLINGUISTICS AS A NEW BRANCH OF SCIENCE

Annotation: In the following article distinguishing characteristics of cyberlinguistics development and functioning as a modern linguistic trend are pointed out.

Key words: cyberspace, virtual personalities, Internet discourse, electronic means of communication.

Аннотация: В статье выделены отличительные черты развития и функционирования киберлингвистики как современного лингвистического направления.

Ключевые слова: киберпространство, виртуальные личности, интернет-дискурс, электронные средства коммуникации.

Annotatsiya: Quyidagi maqolada zamonaviy lingvistik tendensiya sifatida rivojlanib borayotgan kiberlingvistika sohasining o'ziga xos xususiyatlariga to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kibermakon, virtual shaxsiyat, Internet diskurs, muloqotning elektron vositalari.

In recent decades and especially in the new XXI century, almost all areas of human activity are associated with cyberspace. And this, on the one hand, seems to be a completely unsurprising phenomenon at the present time of the ubiquity of the Internet and related technologies, since communication itself in this space is realized through natural language, which differs depending on a particular region of the globe. On the other hand, it is logical that in this case this language falls into field of study of cyberlinguistics.



Cyberlinguistics is a separate linguistic discipline that studies the language of cyberspace. The field of activity of cyberlinguistics is computer-mediated communication carried out in cyberspace with unlimited possibilities for an unlimited number of people to create their virtual personalities through linguistic expression. Thus, cyberlinguistics and cyberspace have no limits that bound them. The Internet, indeed, has evolved significantly over the decades since its introduction, and especially over the past 15 years. At the same time, it changed and expanded the contours of human knowledge about the world and also, naturally, improved their dissemination in many ways. For this reason, cyberlinguistics naturally attracts the attention of many scientists.

Both the Internet and the virtual space, as shown by numerous statistics, significantly affect various areas of public life. This impact is particularly intense at the present time. This is due to the fact that various virtual worlds in cyberspace have succinctly integrated into modern society, providing Internet users with extensive and diverse opportunities for self-identification. First of all, that is quite natural, the audience of the Internet space and consequently, the consumers of the language of the Internet are young people.

In their report "Effective Communication with Young People", P. Shanahan and D. Elliott stated: "The Internet offers options for young people for information and entertainment" [1; 11]. These are the most important functions of the Internet in the understanding of young people. But the matter was not limited to representatives of the younger generation. And with the rapid development of computer technology, the language of the Internet harmoniously and rapidly entered the lives of all age and social groups around the world.

Cyberlinguistics exists and develops in cyberspace. Cyberspace itself, by its nature and structure, is a synthetic entity. Cyberspace at the same time cannot simply be recognized as a kind of real or physical space. Texts included in cyberspace are called «living texts», and this is also no coincidence, since, unlike ordinary written texts, they are constantly changing and improving. R. Caballero, in his work "Theorizing about Genre and Cyber genre", points out in this regard: "On the other hand, users are free to access texts in a traditional - sequential and unidirectional - manner, as if they were printed texts or, rather, they can use them as a starting point for traveling through the network or interacting with other users» [2; 23]. The authors of Internet texts at a convenient time for them can easily do any work to change them. By the nature of its variability, a computer text can be compared with good reason with a dialect of some living language. After all, dialects, as you know, are in the process of more dynamic change than the literary language.

In the Internet discourse of the global network, there is also a clear tendency to avoid excessively emotional means of punctuation (double or triple brackets, and even question and exclamation marks). This feature is due to the fact that they not only impede the speed of perception of the information received, but sometimes cause a feeling of discomfort among visitors to Internet sites. Of course, this circumstance, although it is associated with a certain economy of means of expressing meaning, runs counter to the generally accepted norms of grammar. But the language of computer communication should not compete with them, because the Internet environment is too diverse without it.



Texts distributed on the Internet are called electronic texts. As it is commonly known, when citing various works from the Internet, they are made in the form of electronic resources and are also accompanied by indications of the dates of access to them. A. O. Abu Sa'aleek, considering the evolution of electronic discourse, argued: "The advent of the Internet and the rapid development of electronic means of communication increase the rise of a new kind of language" [3; 135]. Along with this condition, the development of cyberspace offers new broad prospects in the field of communication and communication of people around the world. Not without a reason, C. Vasilescu, in his work "An analysis of the linguistic diversity of cyberspace", speaking about the modern era and its innovative nature, summarized: "The era of the Internet in which we live is the era of communication" [4; 34]. This statement is indisputable, because the harmonious functioning of different areas of social life depends on the speed of transmission of messages and their perception. Indeed, the number of people communicating online is growing, which leads to a faster exchange of information between them. In such a virtual space, it is easier to share impressions and experiences with representatives of other cultures. But for this purpose, i.e. providing communication, the Internet was originally created, only later its potential and functions expanded significantly.

Bibliography:

1. Shanahan P., Elliott D. Effective Communication with Young People. Report for the Office for Youth. Canberra: E&S Research Pty Ltd, 2009. 138 p.
2. Caballero R. Theorizing about Genre and Cybergenre // Computer Resources for Language Learning. 2008. № 2. P. 14–27.
3. Abu Sa'aleek A. O. Internet Linguistics: A Linguistic Analysis of Electronic Discourse as a New Variety of Language. International Journal of English Linguistics, 2015, vol. 5, no. 1, pp. 135–145.
4. Vasilescu C. An analysis of the linguistic diversity of cyberspace. Journal of Defense Resources Management, 2015, vol. 6, iss. 2, pp. 31–36.

Karasayev Azizbek Sabit uli
Nawayı mámleketlik pedagogika institutı oqıtıwshısı

KÁSIPLIK LEKSIKA LINGVOMÁDENIY BIRLIK SÍPATÍNDA

Annotatsiya. Bu maqolada Navoiy qoraqalpoqlari tilida kasbiy leksikani lingvomadaniy birlik sifatida o'rganish masalasi so'z etilgan. Unda ayrim turkiy tillar va qoraqalpoq tilining kasbiy leksikasining o'rganilish tarixi va yo'nalishlari haqida ma'lumot berilgan. Bu kabi izlanishlar lingvokulturologiya sohasining shakllanib, qoraqalpoq tilshunosligining yana da rivojlanishiga yordam beradi.

Tayanch so'zlar. Kasbiy leksika, lingvomadaniy birlik, qiyosiy-tarixiy paradigma, sistem-struktur paradigma, antropotsentristik paradigma, lingvokulturologik aspekt.

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос изучения профессиональной лексики как лингвокультурной единицы в навоийском каракалпакском языке. Содержит сведения об истории и направлениях изучения



некоторых тюркских языков и профессиональной лексики каракалпакского языка. Подобные исследования будут способствовать формированию поля лингвокультурологии и дальнейшему развитию каракалпакского языкознания.

Ключевые слова. Профессиональная лексика, языково-культурное единство, сравнительно-историческая парадигма, системно-структурная парадигма, антропоцентрическая парадигма, лингвокультурологический аспект.

Annotation. This article discusses the issue of studying the professional lexicon as a linguistic and cultural unit in the Navoi Karakalpak language. It contains information about the history and directions of the study of some Turkic languages and the professional lexicon of the Karakalpak language. Such researches will help to form the field of linguo-cultural studies and further development of Karakalpak linguistics.

Key words. Professional lexicon, linguistic and cultural unity, comparative-historical paradigm, system-structural paradigm, anthropocentric paradigm, linguocultural aspect.

Házirgi waqıtta ilimniń dinamikalıq rawajlanıwı, integracıyalanıwı hám jańa tarawlardıń payda bolıwı menen adamzat tilin hám mádeniyatın birlikte úyreniw zamanagóy til biliminiń áhmiyetli máselelerinen biri bolmaqta. Ásirese, bul másele til bilimde antropocentrizistik paradigmanıń júzege keliwinen payda bolǵan kognitiv lingvistika, psixolingvistika, sociolingvistika, pragmalolingvistika hám lingvokulturologiya sıyaqlı jańa tarawlar menen baylanıslı. Sonlıqtan házirgi waqıtta dúnya til bilimde tildi sol til iyesi arqalı úyreniw máselesi keń orın aldı.

Kópshilik túrkiy tiller sıyaqlı qaraqalpaq til bilimde de lingvokulturologiyalıq izertlew jumısları baslanıp atır. Til hám mádeniyat arasındǵı ajralmas baylanıs arqalı ózinde qanday da bir mádeniy belgilerdi saqlap júriwshi til birliklerin lingvomádeniy birlik sıpatında úyreniw házirgi qaraqalpaq til bilimi ushın oǵada áhmiyetli. Frazelogizm, teńew, metafora, evfemizm hám disfemizm sıyaqlı xalıqtıń oy-órisin, dúnyatanımın, qorshaǵan ortalıqqa degen kózqarasın, úrp-ádetlerin kórsetiwshi birlikler solar qatarına kiredi. Nawayı qaraqalpaqları tiliniń kásiplik leksikasın da usınday til birlikleriniń biri sıpatında úyreniw múmkin. Sebebi kásiplik leksika sol tilde sóylesiwshi xalıqtıń mádeniyatın, ózligin, úrp-ádetlerin kórsetiwshi leksikalıq qatlam sanaladı. Sonlıqtan qálegen tildiń kásiplik leksikasın hár tárepleme jetik úyreniwde sol til iyesi bolǵan xalıqtıń ótmishine, jasaw sharayatına, kásip-ónerine hám miynet túrlerine ayırıqsha dıqqat qaratıw lazım.

Ózbekstan Respublikasınıń Nawayı wálayatında jasawshı qaraqalpaqlar da áyyemnen hár túrli kásip-óner menen shuǵıllanıw keledi. Atap aytqanda, olar Nawayı wálayatınıń Kenimex hám Tamdı rayonları aymaǵında balıqshılıq, sharwashılıq, diyqanshılıq, ańshılıq, kesteshilik, ustashılıq, tiginshilik hám basqa da kásip túrleri menen shuǵıllanadı. Biraq aymaqlıq jaylasıwı, qońsılas tuwısqan xalıqlar hám olardıń tiliniń tásiiri nátiyjesinde kásiplik leksikasında birqansha ózgeshelik belgiler bar. Bul milliy-mádeniy belgiler qaraqalpaq til bilimde usı waqıtqa shekem arnawlı túrde lingvomádeniy birlik sıpatında analiz etilmegen. Áne, usınday jergilikli kásiplerge baylanıslı sózlerdi lingvomádeniy birlik sıpatında úyreniw oǵada zárúr. Birinshiden, bul arqalı Nawayı qaraqalpaqları tili menen házirgi qaraqalpaq ádebiy tili arasındǵı uqsaslıq hám ayırmashılıq belgiler úyrenilse, ekinshiden, eki aymaqta jasawshı



qaraqalpaq xalqınıń mádeniyatı hám mentalitetindegi ózgeshelikler anıqlanadı. Sebebi kásiplik leksikada uzaq ótmishten baslap házirgi kúnge shekemgi xalıqtıń shuǵıllanǵan kásip-kári, óneri haqqında qunlı maǵlıwmatlar saqlanadı.

Sońǵı waqıtlarda Ózbekstanda, sonıń ishinde Qaraqalpaqstanda til bilimine jańasha kózqaras penen milliy tildi hám ol arqalı xalıqtıń ótmishin, milliy úrp-ádetlerin, salt-dástúrlerin tereńirek úyreniw máselesi jolǵa qoyılǵanı belgili. Bizińshe, Nawayı qaraqalpaqları tilinde kásiplik leksikanı úyreniw de xalıqtıń ózligin ańlawǵa, mádeniyatın ele de rawajlandırıwǵa bolǵan umtıslarınıń biri bolǵanlıqtan, hárdayım áhmiyetli máselelerdiń biri bolıwı sózsiz.

Kásiplik leksika hárbir tildiń quramında ayrıqsha orınǵa iye bolǵanlıqtan, dúnya til biliminde álleqashan izertlew obyektine aylanǵan. Biraq túrkiy tillerde kásiplik leksikanıń úyreniliw dárejesi hám izertlew baǵdarı birdey emes. Máselen, ózbek til biliminde S.Ibrahimov tárepinen Fergana sóylesiminiń kásip-óner leksikası boyınsha erteden izertlew jumısları alıp barılǵan. Qazaq tiliniń kásiplik leksikası Q.Aytazinniń avtorlıǵında baspadan shıqqan “Kásiplik leksika máseleleri” miynetinde lingvistikalıq jaqtan hár tárepleme úyrenilgen. Balıqshılıqqa baylanıslı sózler tatar tilinde O.Byatikova tárepinen izertlengen.

Rus til biliminde kásiplik leksikanıń struktura-semantikalıq, funkcional-stilistikalıq ózgesheliklerin anıqlaw menen birge, ol jańa baǵdar, kognitiv aspektte úyrenilgen.

Qaraqalpaq tilinde kásiplik leksika boyınsha birqansha ilimiy jumıslar islendi. Olarda qaraqalpaq xalqınıń áyyemnen shuǵıllanıp kiyatırǵan kásiplerine baylanıslı sózler hár tárepleme lingvistikalıq talqı islendi. Máselen, qaraqalpaq tilinde sharwashılıqqa baylanıslı sózler Q.Paxratdinovtıń “Qaraqalpaq tilinde sharwashılıq leksika” atlı kandidatlıq dissertaciyasında arnawlı túrde izertlendi. Onda avtor sharwashılıq terminleriniń leksika-semantikalıq ózgeshelikleri, tariyxıy shıǵısı hám jasalıw usılları haqqında sóz etiledi. Qaraqalpaq tilinde diyqanshılıq kásibine baylanıslı sózler Sh.Kárimxojaevtıń ilimiy miynetlerinde arnawlı túrde úyreniledi. Onda diyqanshılıq terminleriniń leksika-semantikalıq toparları hám olardıń jasalıwı boyınsha bahalı maǵlıwmat beriledi.

Qaraqalpaq tiliniń kásiplik leksikasında qol ónerine baylanıslı sózler de belgili orındı tutadı. Sh.Allaniyazovanıń “Qaraqalpaq tiliniń qol óneri leksikası” miynetinde qaraqalpaq xalqınıń milliy qol ónerine tiyisli sózlerdiń úyreniliw tariyxı, tematikalıq klassifikaciyası, tariyxıy derekleri hám de olardıń jasalıw sóz etiledi. Al qaraqalpaq tilinde balıqshılıqqa baylanıslı leksika boyınsha A.Tursınbaev tárepinen izertlew jumısları alıp barılmaqta. Joqarıda sóz etilgen kásiplik leksikaǵa arnalǵan barlıq izertlew jumısları salıstırmalı-tariyxıy hám sistemalıq-strukturalıq paradigma boyınsha alıp barıldı.

Házirgi waqıtta qaraqalpaq tilindegi bunday til birliklerin antropocentristlik paradigma tiykarında qayta úyreniw áhmiyetli. Qaraqalpaq til biliminde bul baǵdarda dáslepki pikirler Sh.Abdinazimov hám X.Tolıbaevlardıń avtorlıǵındaǵı “Lingvokulturologiya” miynetinde ayıldı. Onda avtorlar qaraqalpaq til biliminde birinshi ret lingvokulturologiyanıń teoriyalıq tiykarları, onıń obykti hám predmeti, maqseti hám wazıypaları, metod hám metodologiyası, lingvomádeniy birlikler haqqında sóz etedi.



X.Tolibaevtiń qaraqalpaq dástanlarında qollanılǵan toponimlerdi lingvómádeniy birlik sıpatında úyreniwge arnalǵan miyneti de bul baǵdardaǵı tabıslı jumislardıń biri. Onda toponimlerdi lingvokulturologiyalıq izertlew obyektı sıpatında qarap, olardıń quramındaǵı mádeniy belgiler úyrenilgen. Olardı memorativ hám deskriptiv túrge ajıratıp, semantikası, mifolingvistikalıq analizi, stillik qullanılıwı boyınsha ózgeshelikleri keń túrde mısallar menen kórsetilgen.

Juwmaqlap aytqanda, kásiplik leksika uzaq dáwirler dawamında qáliplesip, ózinde milliy-mádeniy belgilerdi saqlap qalıwshı leksikalıq qatlamlardıń biri. Onda xalıqtıń dúnyaǵa degen kózqarası, til arqalı átirap ortalıqtı sáwlelendiriw ózgeshelikleri kórinedi.

Kásiplik leksikanı lingomádeniy birlik sıpatında úyreniwdiń áhmiyeti xalıqtıń dúnyatanımı, obyektiv dúnyanı ózlestiriwi hám ózine tán mádeniyatınıń úyreniliwinde kórinedi. Bul baǵdarda izertlew jumısları qaraqalpaq til biliminde lingvokulturologiyanıń ulıwmalıq qaǵıydaların anıqlawǵa, kásiplik leksikanı tártiplestiriwge hám sistemalaştırıwǵa járdem beredi.

*Ubaydullayeva Madina Baxtiyorovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti*

ДИСКУРСИВНАЯ ЛИНГВОКРЕАТИВНОСТЬ

Аннотация. В данной статье широко рассматривается явление лингвокреативности в разных типах дискурса. В статье раскрывается сущность понятия лингвокреативности, а также даётся понятие о типах дискурса в современной лингвистике. Наряду с этим автор пытается объяснить как проявляется лингвокреативность в разных типах дискурса.

Ключевые слова. лингвокреативность, дискурс, текст

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy tilshunoslikdagi turli diskurslarda lingvistik ijodkorlikni aks ettirilishini keng bayon qiladi. Lingvistik ijodkorlik nima ekanligi haqida maqolada ma'lumot beriladi va diskurs turlari bilan tanishtiriladi.

Kalit so'zlar. lingvistik ijodkorlik, diskurs, matn

Annotation. This article describes the notion of linguistic creativity in different types of discourse. The author gives the definition of the linguistic creativity as well as explains the types of discourse in modern linguistics. Along with this author tries to explain how linguistic creativity is expressed in different types of discourse.

Key words: linguistic creativity, discourse, text

Лингвокреативность в современной лингвистике рассматривается, как явление универсальное, т.е. свойственное всем типам дискурса в разных языках и характеризующееся набором универсальных параметров и форм их проявления, которые в разных дискурсах распознаются как креативное (оригинальное) использование языка, позволяя различать случаи намеренного (прагматически ориентированного) нарушения языковой нормы, универсальные средства выразительности и случаи интерференции языковых, межкультурных и межкультурных элементов.



Дискурсивная лингвокреативность предполагает наличие определенной специфики «действия» универсальных параметров в каждом конкретном типе дискурса и особые формы проявления в нем креативного (оригинального) использования языка. [1.110]

По мнению Карасика В. И. дискурс является «основным способом человеческой жизни «в языке»», а также представляет собой континуум языкового и социокультурного опыта как отдельной языковой личности, так и социальной группы, части социума и лингвокультурной общности в целом. [2.477] Как отмечает Е.С. Кубрякова, «за каждым типом дискурса проступает свой «возможный мир», действия и объекты в котором оцениваются и осмысливаются по логике этого (воображаемого и, в общем, конструируемого человеком) мира». [3.35]

Ю. С. Степанов считает, что каждый тип дискурса — это «особое использование языка» для «выражения особой ментальности» (или «особой идеологии»), которое «влечет активизацию некоторых черт языка и, в конечном счете, особую грамматику и особые правила лексики». [4.38-39]

Для формирования объективных представлений о возможностях и границах креативного использования языка представлялось необходимым привлечение дискурсов, обладающих как схожими, так и контрастирующими типологическими характеристиками.

Проявление лингвокреативности во многом зависит от интенциональности дискурсов, проявляющейся в самых разных планах и, в

частности, в конструировании вымышленных миров, построению новой художественной реальности или, напротив, трансляции реальных событий, изложению фактов (*игровой кинодискурс, художественный дискурс, медийный, эпистолярный и научный дискурсы*). [1.100] Вкратце рассмотрим ЛК в каждом типе дискурса.

Важное значение для раскрытия природы лингвокреативности, способов ее манифестации в разных дискурсах имеет учет выполняемых ими основных функций а кроме того, и ключевые эстетические и / или прагматические задачи и установки, диапазон которых в исследуемых дискурсах весьма широк и разнообразен.

Учёные определяют многоуровневую систему параметров дискурса (Киоссе М.И., Ирисханова О.К.):

Уровень 1: Макродискурсивные параметры, которые эксплицируют влияние внешних факторов на реализацию креативного потенциала языковой системы в дискурсе определенного типа (например, экстралингвистические факторы, социокультурного, когнитивного и коммуникативно-прагматического характера, различных культурных, общественных, политических, экономических, международных и других событий).

Уровень 2: Микродискурсивные параметры, свидетельствующие о креативном использовании языковых средств и о создании разного рода лингвокреативных процессов (морфологических, синтаксических, лексических, фразеологических, орфографических и др.) в исследуемых типах дискурса. На данном уровне изучаются разновидности лингвокреативных единиц, среди которых, например,



языковая игра, окказиональные трансформации языковых единиц, намеренные девиации, стилистические приёмы всех уровней языка.

Уровень 3: Интердискурсивные параметры, которые раскрывают взаимовлияние анализируемых дискурсов, приводящее к повышению / понижению лингвокреативного потенциала друг друга. Киоссе анализирует как поэтический дискурс влияет на лингвокреативное моделирование кинодискурса или рекламного дискурса, как научная терминология становится средством художественного познания, в результате чего возникают уникальные креативные новации, влияющие на развитие языковой системы.

Как уже отмечалось именно ХД в силу своего творческого характера характеризуется разнообразными средствами и способами лингвокреативности.

Под **художественным дискурсом** понимается совокупность вербальных высказываний, сформированная в результате взаимодействия автора и читателя посредством ХД. Под ХД понимается текст обладающий эстетической ценностью и являющийся продуктом художественного творчества, с учетом эстетических, коммуникативных, прагматических, когнитивных и социокультурных факторов порождения и восприятия текста.

Художественный дискурс представлен в культуре несколькими формами и разновидностями, такими как проза, поэзия, драма. Отношения между элементами высказывания обусловлены нелинейной композиционной структурой художественного текста, представленной вертикальным членением и намеренным выбором и расположением автором слов, что влияет на смыслообразование текста и формирует неузуальные синтаксические, семантические и прагматические отношения. [1.191]

Процессы, происходящие в художественном дискурсе и научном дискурсе, по-разному воздействуют на языковые изменения в целом. Дискурс науки основан на обязательной институционально-коллективной коммуникации в обществе, тогда как художественный дискурс — на личностно-индивидуальной коммуникации автора и читателя (зрителя, слушателя). Соответственно, в науке закрепляются лишь апробированные традициями языковые единицы (как правило, термины), и в таком виде они входят в языковой фонд. Художественный дискурс, в отличие от научного дискурса, свойственна большая языковая свобода: языковые новации не должны утверждаться коллективом и могут входить в общенациональный язык стихийно, а могут и вовсе в него не входить, оставаясь при этом фактами художественного языка.

Под **научным дискурсом** понимается совокупность вербальных высказываний, сформированная в результате взаимодействия членов научного сообщества посредством научного результата (текста), с учетом эвристических факторов порождения и восприятия этих высказываний в конкретных научных дисциплинарных областях.

Существенными характеристиками научного дискурса являются: институциональность, рациональность, достоверность полученных результатов, универсальность для всех культур, стремление к однозначности языковых знаков (терминов), особый характер научной коммуникации, специфический способ организации академического текста.



Список использованной литературы:

1. Лингвокреативность в дискурсах разных типов: Пределы и возможности. Коллективная монография под ред. Зыковой В.И. с. 110
2. Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс В.И. Карасик. – Волгоград: Перемена, 2002. – 477 с.
3. Кубрякова, Е.С. Язык и знание: На пути получения знаний о языке: Части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира
4. Степанов Ю. С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принципы Причинности // Язык и наука конца XX века. М.: РГГУ, 1995. С. 38–39.
5. Ubaydullayeva, M. B. (2023). THEORETICAL AND PRACTICAL DIFFICULTIES IN THE TRANSLATION OF NEOLOGISMS. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(1), 1027–1031.
6. Bakhtiyorovna, Ubaydullaeva Madina. «Language and the internet. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 3 (01), 58–61.» (2022).
7. Убайдуллаева, М. (2022). Проблемы перевода юридических терминов с английского на русский язык. Переводоведение: проблемы, решения и перспективы, (1), 87–90
8. Bakhtiyorovna U. M. Linguistic Creativity In The Language System And Discourse //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 11. – С. 3121-3127.
9. Madina U. INTERLEVEL PARAMETRIZATION OF LINGUISTIC CREATIVITY // INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 12. – С. 410-413.
10. Bakhtiyorovna U. M. THE NOTION OF LINGUISTIC CREATIVITY AND ITS TYPES //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 09. – С. 320-324.

Nizomiddinova Dildora Nosirovna
Qoʻqon DPI Boshlangʻich taʼlim kafedrasi
katta oʻqituvchisi

ANTROPOTOPONIMLAR – TILIMIZ BEBAHO BOYLIGI, TARIXIMIZ YODGORLIGI

Аннотасија. Ushbu maqolada antroponimlar doirasiga kiruvchi kishi ismlari, laqablar, familiyalardan vujudga kelgan, ular asosida yaratilgan joy nomlari antropotoponimlar xususida fikr yuritiladi.

Калит soʻzlar. Toponim, zoonim, onomastika, oykonim, etnonim, antroponim, antropotoponim, antroponekronim, antropogidronim, antropooronim, antropooykonim.

Аннотация: В данной статье рассматриваются антропотопонимы, которые представляют собой имена людей, прозвища и фамилии, а также созданные на их основе топонимы.

Ключевые слова. Топоним, зооним, ономастика, ойконим, этноним, антропоним, антропотопоним, антропонохрония, антропогидроним, антропоороним, антропойконим.

Annotation. This article discusses the anthropotoponyms, which are the names of people, nicknames, and surnames, and place names created on their basis.



Keywords: Toponym, zoonym, onomastics, oikonym, ethnonym, anthroponym, anthropotoponym, anthroponechry, anthropohydronym, anthropooronym, anthropoykonym.

Antroponimika bilan toponimika tarixiy jihatdan bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liqdir. Ularning har ikkisi ham tildagi atoqli otlarni o'rganadi. Antroponimika kishi nomlarini, toponimika esa joy nomlarini tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Antroponimlar doirasiga kiruvchi kishi ismlari, laqablar, familiyalardan vujudga kelgan, ular asosida yaratilgan joy nomlari antropotoponimlar deb yuritiladi.

Antropotoponimlar turli ijtimoiy davrlarning mahsuli bo'lib, tilning lug'at tarkibidagi eng tarixiy toponimik qatlamlardan biridir. Bunday joy nomlari xususiy mulkchilikka asoslangan jamiyatning yuzaga kelishi bilan paydo bo'lgan. Aholi turar joylari – qishloq, mahalla, qo'rg'on, ovul, guzar, ko'cha-ko'ylar o'z davrida o'sha yerga asos solgan, uni barpo etgan, obodonchiligi uchun mablag' sarflagan obro'li, mo'tabar shaxslar nomlari bilan atala boshlagan.

Respublikamiz joy nomlari tizimida, xususan, Farg'ona vodiysida antropotoponimlar ma'lum bir o'rinni egallaydi. Bunday antropotoponimlarning bir guruhi Qo'qon xonligi davrida vujudga kelgan. Ularning aksariyati xonlar va ularning farzandlari, aka-ukalari, qarindosh-urug'lari, saroyda muhim mavqega ega bo'lgan amaldorlar, ulamolar, din arboblari nomlari bilan atalgan. Qo'qon xonlari nomlari asosida yaratilgan joy nomlariga Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Sheralichek, Farg'ona viloyatining O'zbekiston tumanidagi Xudoyorxon, Mallaxon toponimlari yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu oykonimlar 1842-1845-yillarda xonlikda hukmdorlik qilgan Sheralixon, qariyb 25 yil xonlikni boshqargan Xudoyorxon, 1858-1862 yillarda xonlik taxtida o'tirgan Mallaxon nomlari bilan bevosita bog'liqdir. Farg'ona viloyatining Rishton tumanidagi Chek Nasriddin, Andijon viloyatining Baliqchi tumanidagi Nasriddinobod, O'rmonbek qishloqlarining nomlari Xudoyorxonning o'g'illari – Nasriddinbek va O'rmonbek nomlari bilan yuritilgandir. Xonlar avlod-ajdodlari, qarindosh-urug'lari nomlari asosida vujudga kelgan toponimlar sirasiga Qo'qon shahridagi Hojibek guzari, Beshariq tumanidagi Hojibek, Baliqchi tumanidagi Sultonmurodbek toponimlarini kiritish mumkin. Hojibek Qo'qon xoni Norbo'taxonning inisi bo'lib, xonlikka qarashli O'ratepa shahri va To'raqo'rg'onda hokimlik vazifasida ishlagan. Sultonmurodbek – Xudoyorxonning tug'ishgan ukasi; u ayrim uzilishlar bilan 1853-yildan deyarli xonlik tugatilgunga qadar Marg'ilon bekligini boshqargan.

Farg'ona vodiysi hududidagi antropotoponimlarning ayrimlari xonlik davridagi davlat xizmatchilari – yirik amaldorlar, yuqori mansabga ega bo'lgan ulug' martabali kishilar, harbiy sarkardalar nomlari asosida yuzaga kelgan. Bularga Musulmonqulariq, Risqulibek guzari, Xolmatdodho, Oftobachichek, Sheralimimboshi toponimlarini misol qilib keltirish mumkin. Musulmonqulariq – Andijon viloyatining Baliqchi tumani hududidadir. Ariqning bunday tarzda atalishi XIX asrning 40- va 50-yillari boshlarida Qo'qon xonligining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan, qipchoqlarning qulon urug'idan yetishib chiqqan Musulmonqul nomi bilan bevosita aloqadordir. Musulmonqul xonlik saltanatida bosh vazir – mingboshi darajasigacha ko'tarilgan. U XIX asrning o'rtalarida Qoradaryoning chap qirg'og'idan ariq qazdirib chiqargan. Bu ariq uning nomi asosida Musulmonqulariq deb atala boshlagan.

Xolmatdodho qishlog'i Andijon viloyatining Asaka tumani o'ramida joylashgan. Joy



oti xonlik saltanatidagi lavozimlardan biri – dodho lavozimini egallagan Xolmuhammad ismli shaxs nomi asosida vujudga kelgan. Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalardan qayd etilishicha, Asaka hududidagi yer maydonlarining talay qismi Muhammad Nazar qushbегining o‘g‘li, katta mansabdor Xolmuhammad dodho ixtiyorida bo‘lgan. Xolmuhammad dodho egaligidagi yerlarda bunyod bo‘lgan qishloq uning nomi bilan yuqoridagi kabi atalib ketgan. 1909-yil Skobelev (hozirgi Farg‘ona) da nashr qilingan aholi punktlarining ro‘yxatida mazkur qishloq nomi Chek Xolmat dodho tarzida uchraydi.

Oftobachichek – Andijon viloyatining Oltinko‘l tumaniga qarashli aholi maskanlaridan birining nomidir. Qishloq Qo‘qon xonlaridan SHERALIXON va XUDOYORXON hukmronligi davrida katta nufuzga ega bo‘lgan tarixiy shaxs – Musulmonqulning o‘g‘li Abdurahmon oftobachi nomi bilan yuritilgan. Abdurahmonni Xudoyorxon oftobachi mansabiga tayinlagan, shu sababli uning ismi yoniga oftobachi so‘zi qo‘shib ishlatilgan. Xudoyorxon oftobachining xizmatlarini inobatga olib, unga Andijon hududidan bir necha yuz tanob yerni chek qilib ajratib bergan. Tarixiy hujjatlarda Abdurahmon oftobachining cheki shaklida ifoda etilgan bu joy davrlar o‘tishi bilan qisqarishga uchrab, Oftobachichek shakliga kelib qolgan.

Joynomlariorasidadinarboblari nomlariasosidavujudgakelgan antropotoponimlar ham uchraydi. Bularga Qo‘qon shahridagi Shayxulislom guzari, Xalifa Safo toponimlari misol bo‘la oladi. Shayxulislom – musulmon jamiyatida eng yuqori unvon, ruhoniylar boshlig‘i ma‘nosini ifoda etgan. Manbalarda Qo‘qon xonligida Shayxulislom lavozimini egallagan Sultonxon to‘ra Ahroriy, Ma‘rufxon to‘ra binni Ma‘murxon to‘ra, Sulaymon xoja binni Yusufxon xo‘ja, Eshon Boboxo‘ja Konibodomiy, Zokirxoja eshon Namangoniylar, Xoja Kalon Jo‘yboriylarning nomlari saqlanib qolgan. Bulardan Zokirxoja eshon Namangoniylar guzarga o‘z nomini qoldirish sharafiga muyassar bo‘lgan. Guzar avvaliga Shayxulislom Zokirxoja eshon guzari deb yuritilgan. Keyinchalik talaffuzda soddalashib, Shayxulislom guzari tarzida atalib ketgan.

Antropotoponimlarning ma‘lum bir guruhi istiqlol yillarida vujudga keldi. Respublikamiz shahar va tumanlaridagi mahalla, ko‘cha, bog‘larning ayrimlari Sharqning buyuk allomalari – Burhoniddin Marg‘inoniy, Ahmad Farg‘oniy, Termiziy, Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror, Najmiddin Kubro, Rudakiy, Alisher Navoiy, Ali Qushchi; ona-yurt uchun jonini fido qilgan buyuk sarkardalar – Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur nomlari bilan atala boshlandi.

Xullas, antropotoponimlar – tilimizning bebaho boyligi, ko‘hna tariximiz yodgorligi, moziy sadosidir. Ularni ilmiy jihatdan puxta o‘rganish tilshunoslik, tarix, etnografiya fanlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Охунов Н. Антропотопонимика нима? Тошкент, 1984. 6-бет.
2. Никонов В.А. Введение в топонимику. М., 1965. С. 30.
3. Горбачевич К.С. Русские географические названия. М.-Л., 1965. С.140.



EVFEMIZMLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada evfemizmning tarixiy ta'rifi, motivlari, vazifalari va lingvistik vositalari haqida umumiy ma'lumot berigan. Bundan tashqari, evfemizmning eng samarali va keng tarqalgan turlari haqida gapiriladi.

Kalit so'zlar. tarihiy evfemizmlar, evfemizm hodisasi, sinonim, misollar, funksional evfemizmlar

Аннотация. В данной статье представлен обзор исторического определения мотивов функций и языковых средств эвфемизма. Кроме того, обсуждаются наиболее эффективные и распространённые виды эвфемизма.

Ключевые слова. исторические эвфемизмы, явление эвфемизма, синонимы, примеры функциональные эвфемизмы

Annotation. This article provides an overview of the historical definition, motives, functions and linguistic tools of euphemism. In addition, the most effective and common types of euphemism are discussed.

Key words: historical euphemisms, the phenomenon of euphemisms, synonyms, examples, functional euphemisms.

Kirish. Biz salbiy so'zlarni aytmasdan, inson qadr-qimmatiga ta'sir qiladigan, noqulaylik tug'diradigan, hurmatsizlik yoki axloqiy me'yorlarni buzadigan vaziyatlarning salbiy ta'sirini kamaytirish va yashirish uchun ijobiy so'zlardan foydalanamiz. Bu evfemizm deb ataladi va evfemizm yoqimsiz xabarni yumshoqroq tarzda yetkazish va ifodalash uchun ishlatiladi. Inglizcha "evfemizm" so'zini birinchi marta 1656-yilda Thomas Blount, Glossographia (Burchfield 1985:13) tomonidan yozilgan kitobda topish mumkin va yunoncha euphemismos so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "euphemos", "yaxshilik" sifatidoshidan olingan. Evfemizm haqoratli yoki yoqimsiz so'z deb qabul qilingan, asl bildiruvchini boshqa so'z bilan almashtirishdan iboratdir. U qadimgi yunoncha eu- "yaxshi" va "fanay" ma'nosini anglatadi. Bular evfemizmos yaratish uchun birlashtirilib, "yomon alomat o'rniga xayrli so'zlarni ishlatish" degan ma'noni anglatadi. Evfemizatsiya tilshunoslikning eng o'ziga xos tendentsiyalaridan biri bo'lib, adabiyotda unga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari mavjuddir, evfemizm tilshunoslarning diqqatini qayta-qayta jalb qiladigan lingvistik vosita bo'lib, u hali ham tilshunoslikning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Zamonaviy ingliz olimi Alkarsning fikricha, evfem lotin ildizlariga ega va ularning aksariyati 1066-yilda Angliyaning normanlar tomonidan bosib olinishidan so'ng, lotin tili hukmron sinflar va aristokratiyaning asosiy tili bo'lganidan keyin tilga kirgan (Allire, 2002). Biroq, Enrightning fikriga ko'ra "evfemizm yunon tilidan olingan bo'lib, to'g'ri gapirishni anglatadi" (Enright, 2004). Xuddi shunday, etimologiya lug'atida bu yunoncha so'z bo'lib, ikki qismdan iborat bo'lib, vir "en" "yaxshi" va "feme" "gapirish" degan ma'noni anglatadi (Onlayn etimologiya lug'ati, 2012). Evfemizmlar tillar tomonidan turlicha ta'riflangan. Ko'pchilik tilshunos olimlar tilda evfemizmlarning paydo bo'lish sabablari haqida gapirar ekan, normalarni



e'tiborga olishadi. Masalan, Allas va Burridj evfemizmlarni "deodorizing sprej va perfis" (Allan & Burridge, 1991) deb atashadi. Uilyam Lutz axloqiy mulohazalarga ham e'tibor qaratadi va aufeynni nazariy axloq deb ataydi (Luz1987). Crespo Fernandes kundalik nutqda evfemizmlarning muhimligini ta'kidlaydi va ularni og'zaki xatti-harakatlar sifatida ko'radi" (Ferminder, 2005) Fairclough shuningdek, "evfemizmn ijtimoij nutqda o'ziga xos, funktsional maqsadga xizmat qiluvchi kundalik, keng qamrovli hodisa" deb hisoblaydi (Fairclough, 2005) Ayni paytda, evfemizmlar harakatlarni aldash manbai deb hisoblaydigan tilshunoslar ham bor. Lakonning fikricha, evfemizlar oddij va tushunarli ko'rinadigan so'zlarni ortida yashirishi mumkin.

Yelena Miesning ta'kidlashicha, "euphemizing, shubhasiz, zamonaviy davrda insonij muloqotda hukmronlik qiladigan bilvosita lingvistik ko'prii bo'lib xizmat qiladi" (Miha, 2005). LaRock (2006) bu fikrni tasdiqlab, "siyosij, harbij va tijorat tushunchalari bilan bog'liq bo'lgan evfemizmlar ayniqsa aldamchi va tushunarli bo'lishi mumkinligini", - deb ta'kidlaydi.

Evfemizmlar ko'p hollarda ochiq gapirish - o'zini to'g'ri his qilmaydigan holatlarda qo'llaniladi. Misol uchun, kimdir semirib ketgan deyish o'rniga, biz ortiqcha vazn atamasini ishlatamiz. Kimdir saraton bilan kasallangan deb aytish o'rniga, biz saraton kasalligiga chalingan yoki saraton tashxisi qo'yilgan atamasini ishlatamiz. Evfemizmlar - biz ifodalamoqchi bo'lgan narsaning o'rnini bosish uchun ishlatiladigan amalar, lekin boshqalarning quloqlari uchun biroz qo'pol yoki qo'polroq bo'lishi mumkin. Masalan: ishni qisqartirish (ishdan bo'shatish). Keyin evfemizmlar ba'zi so'zlarda bo'lishi mumkin bo'lgan salbij, kamsituvchi yoki haqoratli ayblovni yumshatish yoki kamaytirish uchun ishlatiladi. Shunday qilib, evfemizmlardan foydalanish insonijyatning buyuk tabu subektlari bilan bog'liq. Shuningdek, "siyosij jihatdan to'g'ri" deb ataladigan nutq nutqqa irq yoki etnik, ijtimoij, yosh va hatto jismonij nogironlik bilan bog'liq ko'plab evfemizmlarni kiritdi. Evfemizmlardan foydalanish kundalik hayotimizda ham mavjud. Masalan: vafot etdi so'zini ishlatish o'rniga mangu tushda uxlab qoldi, olamdan o'tdi degan so'zlarni ishlatish, kasal so'zi o'rniga "sabr" deyish mumkin. Evfemizmlar xalqlarda urf-odatlar, madaniy daraja, estetik did va etnik me'yorlarning rivojlanishi bilan bog'liq. Tilning rivojlanishi bilan uning evfemik qatlami ham rivojlanadi. Evfemizmnning yangi shakllari axloqning yangi me'yorlari asosida paydo bo'ladi va dunyoqarashni o'zgartiradi. Evfemizmn tilning nutqij qatlamida sodir bo'ladigan jarayon - nom o'zgarishi to'liq ma'noda stilistik semantik guruh shakllanishi bilan bog'liq hodisadir. Va ayollik va muloqot madaniyatining o'ziga xosligini aks ettiradi. Badiij, ilmiy, so'zlashuv nutqida ma'no tusli evfemizmlarning qo'llanilishi tilning keng imkonijatlaridan dalolat beradi. Xususan, o'zbek tilida o'linga oid 300 ga yaqin evfemizmn mavjud. Variantni topish juda muhim.

Maqolamiz so'ngida shuni aytish kerakki, evfemizmlar inson nutqi jarayonida ayrim salbij fikrlarni tinglovchiga ijobij yetkazuvchi muhim til vositasi sifatida hamon ahamiyat kasb etadi. Madaniy muhit evfemizmlarning tilda qanday namoyon bo'lishini shakllantirishda kuchli kuchdir. Evfemizmlar, asosan, haqoratli so'zlarni ijobij (nohaqoratli) so'zlar bilan almashtirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabijoti:

1. Katsen A.M. Yazykovoe taboo and euphemism. L.LGPI, 1989.
2. Linguistic Czech encyclopedia of Czech language. Soviet encyclopedia. 1989.



3. Реформатский А.А. Введение в языкознание, М.1967.
4. Khojiev A. Annotated dictionary of linguistic terms. Tashkent, Ukitchich, 1974.
5. Kodirova H.B. «Euphemism and dysphemism in the Uzbek language». Instructional manual. Tashkent. 2013. Samoskayte L. «21» century political euphemisms in English newspapers: Semantic and structural study»-MA paper. Vilnius 2011.
6. Keith, Allan; Burrige, Kate. Euphemism & Dysphemism: Language Used as Shield and Weapon, Oxford University Press, 1991. ISBN 0-7351-0288-0.
7. R.W.Holder: How Not to Say What You Mean: A Dictionary of Euphemisms, Oxford University Press, 2003. ISBN 0-19-860762-8
8. Enright. D. (2004) In Other Wertz London: Michael O'Mara Books Limited. biziand.com

Muxamedjanov Farxod Mansurovich
Qo'qon davlat pedagogika instituti

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI HISSIY HOLAT, SEZGI FE'LLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada muallifning ingliz va o'zbek tillaridagi hissiy holat va sezgi fe'llarining semantik aspekti xususidagi ilmiy kuzatishlariga doir ilmiy xulosalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Ma'no, aspekt, antroposentrizm, semik analiz, matn, leksikografik izoh, kontekst, tasviriy birliklar, tasnif, polisemiya.

Аннотация. В статье изложены научные выводы автора об семантическом аспекте глаголов эмоциональном состоянии и чувства в английском и узбекском языках.

Ключевые слова. значение, аспект, антропоцентризм, семитический анализ, текст, лексикографическое объяснение, контекст, описательные единицы, классификация, полисемия.

Annotation. The article describes the author's scientific conclusions about the semantic aspects of the verbs of emotional state and the feeling in the English and Uzbek languages.

Key words. Meaning, aspect, anthropocentrism, semitic analysis, text, lexicographic explanation, context, descriptive units, classification, polysemy.

Ma'no tilshunoslikning eng ko'p tadqiq qilingan, murakkab va keng ko'lamli aspektlaridan hisoblanadi. Zamonaviy lingvistik yo'nalishlarning antropotsentrik tabiati lisoniy hodisalarni ma'nodan shaklga tomon harakatlanib tadqiq etish g'oyasini ilgari suradi. Ma'no tahlili turli ko'lamda bo'lib, semik analiz bir so'z doirasidan tortib yirik matn parchasini o'z ichiga olishi mumkin. So'zning ma'no tahlili xususida fikr yuritar ekanmiz, bunday analiz uch turda bo'lishini ta'kidlash joiz. "So'z ma'nosini leksikografik izohlarga tayanib, izohdan mantiqiy tahlil natijasi o'laroq semalarni ajratib, shu semani hosil qiluvchi belgilarni tadqiqotchi o'z tajribasiga tayangan holda aniqlashi orqali o'rganishi mumkin (masalan, agar archa barglari pastga o'sgan bo'lsa – bargning pastga



yo'nalishi aniqlanadi). Semik tahlil, shuningdek, so'zning matndagi voqelanishiga asoslangan holda, uning kontekstual ma'nolarini ajratish vositasida amalga oshiriladi; uchinchidan, so'z semalarini eksperimental tarzda ajratib tahlil qilish imkoni bor" [4, 192].

So'zning leksik ma'nosi deganda undagi predmet-tushunchaviy mazmun anglashiladi, bu mazmun muayyan predmet, tushuncha, hodisa yoki holat haqidagi bilimlarni umumlashtirib akslantirishi ma'lum [5, 81]. Albatta, tildagi barcha leksik birliklar ta'kidlangandek mustaqil ma'noga ega bo'lmasligi mumkin. Jumladan, undov va taqlid so'zlar, tasviriy birliklarga mustaqil so'z turkumi maqomi berilishi qanchalik joiz ekanligi xususida hanuz baxslar yuritiladi [6, 23]. Biroq aksariyat tillarda fe'lning semantik imkoniyatlari keng ko'lamli ekanligiga shubha yo'q. Jumladan, ingliz va o'zbek tilida fe'l paradigmasi fundamental vazifalarni bajarib, nutqda boshqa lisoniy birliklarni mazmunan va grammatik jihatdan bog'lovchi uzv xisoblanadi. Jahon tilshunosligida, shu jumladan, ingliz tilshunosligida ushbu yirik maydon tarkibidagi elementlar semantik belgisiga ko'ra quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

FE'LLARNING MA'NO TURLARIGA KO'RA TASNIFI	
Aqliy faoliyat	<i>O'ylamoq – to think, hayol surmoq – to dream</i>
Aniq harakat	<i>Tashlamoq – to throw, aralashtirmoq – to mix</i>
Belki alomatlanishi	<i>Muzlamoq – to freeze, erimoq – to melt</i>
Jismoniy holat	<i>Yonboshlamoq – to lie, cho'kkalamoq – to squat</i>
Kasbiy faoliyat	<i>O'qitmoq – to teach, savdolashmoq – to trade</i>
Qobiliyat	<i>Eplamoq – to cope, uddalamoq – to manage</i>
Qo'lga kiritish	<i>Olmoq – to get, erishmoq – to accomplish</i>
Mavjudlik holati	<i>Bo'lmoq – to be, yashamoq – to live, turmoq – to stay</i>
Modal	<i>Need (ehtiyojmand bo'lmoq), can (qo'ldan kelmoq)</i>
Munosabat	<i>Uylanmoq – to marry, do'stlashmoq – to befriend</i>
Nutqiy faoliyat	<i>Gapirmoq – to speak, shivirlamoq – to whisper</i>
Ruhiy, emotsional-kechinma holati	<i>Quvonmoq – to rejoice, qo'rqmoq – to fear</i>
Tovush-shovqin	<i>Baqirmoq – to shout, ingramoq – to moan</i>
Fazaviy	<i>Boshlamoq – to begin, yakunlamoq – to conclude</i>
Fe'l-atvor, xulqiy	<i>Qo'pollashmoq – to hector, muloyimlashmoq – to caress</i>
Harakat	<i>Tebranmoq – to tremble, uchmoq – to fly</i>
Egalik	<i>To possess, to have (egalik qilmoq)</i>

Ushbu tasnifda sanab o'tilgan ma'no turlari ingliz va rus tili leksikasida aniqlangan [8, 28-41]. O'zbek tilida bu ma'no turlaridan modal va egalik fe'llari mavjud emas. Ular ma'nosini ifodalovchi birliklar hajman va strukturasi ko'ra farqlanadi. O'zbek tilida modal fe'llar va egalik fe'llari ma'nosini birikmalar vositasida ifodalash mumkin.

An'anaviy rus tilshunosligi ta'limotlari va andozasi asosida shakllangan o'zbek tilshunosligida ham fe'lning semantik tasnifi oraliq va xususiy ma'nolarga ajratilgan holda amalga oshirilgan. Ya'ni, o'zbek tilidagi barcha fe'llar harakat va holatga ajratilgan.



Hususan, holat fe'llari quyi pog'onalarda "davomli holat fe'llari, harakat natijasi bo'lgan holat fe'llari, ijro holati fe'llari, harakatning holati fe'llari, malaka holati fe'llari, obrazli holat fe'llari, biologik holat fe'llari, fiziologik holat fe'llari, psixik holat fe'llariga tasniflanadi va bunda "holat" mushtarak sema, "davomli", "harakat natijasi", "ijro", "harakat", "malaka", "obrazli", "biologik", "fiziologik" va "psixik" kabi ma'no bo'laklari esa birlashtiruvchi sema bo'ladi" [7, 6]. Anglashilganidek, ushbu ma'no tasnifida bevosita sezgi yoki hissiy holat guruhi alohida ajratib ko'rsatilmagan. Biroq aynan shu birlashtiruvchi va farqlovchi semalar hissiy holat va sezgi fe'llari leksik ma'nosi tarkibida bor, ularning mavhum ma'nosiga aniqlik kiritadi va guruh doirasidagi ma'no munosabatlarini asoslaydi.

Hissiy holat fenomenini psixologik jihatdan kishining hissiyoti va kechinmalari atrof-muhitga, voqea-hodisalarga, o'ziga nisbatan munosabatlari asosida shakllanadigan permanent (muntazam) holat sifatida izohlash mumkin. Hissiy holatdagi o'zgarishlar sanab o'tilgan omillardagi, kayfiyat va ruhiyatdagi evrilishlar bilan chambarchas bog'liq. Lisoniy jihatdan izohlansa "hissiy holat ma'nosiga ega fe'llar kishining psixoemotsional xususiyatini namoyon qiladi. Ularning tadqiqi tilni antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil qiluvchi yangi lingvistik yo'nalishlar uchun aktual hisoblanadi" [2, 6].

Lisoniy jihatdan, hissiy holat fe'llarining leksik ma'nosiga xos bo'lgan xususiyatlardan biri mavhumlikdir. Ayni shu xususiyat ularni sezgi fe'llaridan farqlaydi. Sezgi barcha uchun umumiy, ma'lum bir sezgi organi jo'natgan signal barcha tomonidan bir xil qabul qilinadi. Sezgining sabablari yaqqol, bu aniqlik bevosita sezgi fe'llari ma'nosiga ham ta'sir o'tkazadi. Biroq hissiy holat fe'li haqida bunday deb bo'lmaydi. His-tuyg'uning intensivligi, davomiyligi kishi kayfiyati, fe'l-atvori va ruhiyatiga qarab farqlanadi. Bu omillar ko'z bilan ilg'ab bo'lmas mavhumiyat ichida. Hissiy holat fe'llari ana shunday mavhum sabab, jarayon va munosabatlar natijasi bo'lganligi uchun ularda ma'no chegaralari noaniq bo'lishi mumkin.

Demak, sezgi fe'llarining semalari nisbatan aniq ifodalanadi, hissiy holat fe'llari leksik ma'nosi mavhum, ma'no chegaralarini aniqlash mushkul. Shunday bo'lishiga qaramasdan ushbu ikki tur leksemalarni bir umumiy semantik xususiyat birlashtiradi. Ta'kidlash joizki, bu xususiyat ingliz va o'zbek tillaridagi aksariyat fe'llarga tegishli. Mazmuni bilan bir-biriga yaqin (ikkalasi ham inson holatini ifodalaydi), biroq lisoniy mohiyatiga ko'ra (ma'no qamrovi turlicha) ruhiy holat va sezgi fe'llarini polisemik tabiati birlashtiradi. Shu o'rinda leksik ma'no polisemiyasini ikki turga ajratib olish lozim. Birinchi tur polisemiya yaqqol ko'zga tashlanadi – yaqqol ko'p ma'nolikka ega so'zlarda turli lug'aviy ma'nolar bo'lib, ular bir-biridan keskin farq qiladi. Ikkinchi tur polisemiya inklyuziv ko'p ma'nolilik bo'lib, bunda so'z lug'aviy ma'nosi bitta va shu bir ma'no tarkibida turli kichik semalar mavjud bo'ladi. Tilda sof, yaqqol ko'p ma'nolilikka ega leksemalar lug'aviy ma'nodagi semik qavatlanishga ega so'zlardan kamroq. Hissiy holat va sezgi fe'llari ma'no tarkibida ham shunday inklyuziv polisemiya – ma'no qavatlanishi kuzatiladi. Hamda bu xususiyat ham ingliz, ham o'zbek tilidagi birliklarga xos.

Sezgi va hissiy holat fe'llarining asosiy lug'aviy ma'nosiga ilova bo'lgan semalardan biri kazuativlikdir. Xususan, "emotsional fe'llarda oshkora yoki yashirin tarzda sabab omili mavjud bo'ladi. Bu ularning ma'no tarkibida bo'lishi lozim bo'lgan semalardandir. Zero, hissiy holat o'z-o'zidan paydo bo'luvchi fenomen emas. Biror emotsional holat yuzaga kelishida muayyan voqea-hodisa, subyektning unga bahosi yoki munosabati rol



o'ynaydi" [3, 24-25]. Hissiy holat leksemalarida bu ma'no ko'pincha leksemaning o'zida latent bo'lib, faqat nutq kontekstida ochiladi. Shuningdek, hissiy holatning kazuativlik ma'no ko'lamini sezginikiga nisbatan kengroq. Bir emotsional holat negizidagi sabablar soni ba'zi hollarda mutlaqo chegaralanmagan. Sezgi fe'llari ma'nosi esa sabablari aniq, cheklangan ekanligi bilan farqlanadi. Ya'ni sezgi fe'llari yuzaga kelishida aniq predmet, shaxs, vaziyat yoki muhit sabab bo'lib xizmat qiladi. Hissiyot yoki sezgi sabablari bazasini intuitiv darajada hamda tajriba orqali lisonida shakllantiramiz. Nutqda esa sabablardan biri yashirin fazadan aniq shaklga o'tadi. Sabab gap tarkibida aniqlovchi shaklida, yoki qo'shma gapning bir qismi ko'rinishida voqelanishi mumkin. Masalan, lisoniy sathda quyidagi hissiy holat va sezgi fe'llari ma'nosidan ushbu sabablar anglashiladi:

Hissiy holat	Kazuativ assotsiatsiya
<i>Nafratlanmoq – to hate, to detest, to loathe</i>	<i>Kishining sovuq munosabatidan, yomon xulq atvordan, zararli, beodob odatdan va h.q.</i>
<i>Quvonmoq – to rejoice, to exult</i>	<i>Uchrashuvdan, hush xabardan, kutilmagan omaddan, muvaffaqiyatdan va h.q.</i>
<i>Qo'rqmoq – to fear, to dread</i>	<i>Qorong'ilikdan, balandlikdan, kishi bilan ayrilishdan, yomon natijalardan va h.q.</i>

Sezgi	Kazuativ assotsiatsiya
<i>Junjikmoq – to cool, to chill</i>	<i>Salqin shabadadan, sovuq suvdan, yomon xabardan</i>
<i>Seskanmoq – to be rather/slightly afraid</i>	<i>Yirtqich hayvondan, kutilmagan to'qnashuvdan</i>
<i>Chanqamoq – to be thirsty</i>	<i>Issiq havodan, davomli og'ir jismoniy faoliyatdan</i>

Sabab omili ma'lum bir son doirasida cheklanmagan, aksariyat hollarda bir sezgi va hissiy holatga lisoniy sathda qator sabablar keltirilishi mumkin. Tabiiyki, yuqorida ta'kidlanganidek, nutqda ushbu sabablardan faqat biri yoki cheklangan soni voqe'lanadi.

Asosan hissiy holat fe'llari lug'aviy ma'nosidan anglashiladigan yana bir sema munosabatdir. Hissiy holat fe'llaridagi asosiy ma'no bilan birga kishining muayyan hodisa, shaxs yoki predmetga nisbatan salbiy, ijobiy munosabati anglashiladi. Hissiy holat fe'li emotsional muvozanatning ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishini ifodalashi sabab bu fe'llar ma'nosida neytral munosabat bo'lishi mumkin emas:

Ijobiy hissiy holat fe'li	Salbiy hissiy holat fe'li
<i>Quvonmoq – to rejoice</i>	<i>Havotirlanmoq – to worry</i>
<i>Sevmoq – to adore</i>	<i>Qo'rqmoq – to be afraid</i>
<i>Hayratlanmoq – to wonder</i>	<i>G'azablanmoq – to be frustrated</i>
<i>Hayajonlanmoq – to be excited</i>	<i>Nafratlanmoq – to hate</i>
<i>Qo'msamoq – to miss</i>	<i>O'ksinmoq – to be aggrieved</i>



<i>Huzurlanmoq – to enjoy</i>	<i>Kuyinmoq – to grieve</i>
<i>Sokinlashmoq – to calm down</i>	<i>Jirkanmoq – to despise</i>

Emotsional holat fe'llari ma'nosidagi ijobiy yoki salbiy munosabat semasiga assotsiativ ravishda kishining ayni shu tipdagi kayfiyati semasi ham anglashiladi.

Hissiy holat va sezgi fellarining farqlanuvchi semalari davomiylik va oniylik deyish mumkin. Sezgi fe'llarining aksariyatiga oniylik ma'nosi xos, davomiylik semasi esa ko'pincha hissiy holat fe'llariga mansub. Ma'lum bir muddatga cho'ziladigan hissiy holat fe'llari semasida, tabiiyki, tugallanganlik ma'nosi mavjud emas. Oniy yuzaga keluvchi sezgi fe'llarining davomiylik sur'ati qisqaroq, ularda tugallanganlik yoki to'liqlilik holati kuzatiladi. Masalan: eshitmoq fe'lining davomiylik tarzi qisqa, shuning uchun undagi tugallanganlik semasi aniqroq ifodalanadi. *Tinglamoq* ham sezgi fe'li, faqat uning davomiylik sur'ati cho'ziq va bu fe'ldagi tugallanganlik tarz ma'nosini kuchsizlantiradi. Ayni qonuniyatni *ko'rmoq-kuzatmoq*, *totmoq-ta'm sezmoq* kabi juftliklarda ham ko'rish mumkin, ya'ni davomiylik semasi kuchayganda sezgi fe'li tugallanganlik semasidan uzoqlashadi va aksincha.

Hissiy holat fe'llaridagi davomiylik semasi sabab ushbu guruh so'zlarda fazaviylik ma'nosi kuzatiladi. Aniqrog'i, davomiy kechuvchi barcha holat va harakat fe'llarini boshlanish (*yoqtirmoq – to like*, *begonasiramoq – to alienate*) va davomiylik (*sevmok – to love*, *nafratlanmoq – to hate*) fazasi degan kichik ma'nolariga ko'ra tasniflash mumkin. Hissiy holat fe'llarning tugallanish fazasini aniqlash mushkul, sababi bir eimotsional holat davomiy xususiyatga ega ekan uning tugallanish bosqichi boshqa bir emotsional holatga o'tishni anglatadi. Demak, sezgi fe'llarining ma'no ko'lamida lug'aviy ma'no qavatlanishi aniqlandi, bu fe'llardagi asosiy leksik ma'no tarkibida oniylik, tugallanganlik, kazuativlik semalari kuzatiladi. Ushbu guruhdagi leksik birliklardan ba'zilarini oniylik va davomiylik ma'nolari asosida zid semantik munosabatlarini aniqlash mumkin. Hissiy holat fe'llarida ham lug'aviy ma'noda semik qavatlanish shakidagi polisemiya kuzatiladi. Ushbu leksik birliklar ma'nosida davomiylik, shaxs munosabati, shaxs kayfiyati, kazuativlik va fazaviylik kabi semantik xususiyatlar aniqlandi. Yuqorida ta'kidlanganidek, leksemaning semantik tahlili leksik izoh, nutq konteksti yoki eksperimental tarzda amalga oshirilishi mumkin. Hissiy holat va sezgi fe'llarining bu faslda aniqlangan semalari lug'aviy ma'no tarkibini ajratish asosida bajarildi. Albatta, lisondan tashqarida, ya'ni nutq kontekstida bu paradigmaning semantik xususiyatlari ortadi. Jumladan, ingliz va o'zbek tillaridagi hissiy holat, sezgi fe'llari gender hamda shaxs yoshi alomatlariga ham ega bo'lishi mumkin. Biroq ushbu semalarni nutq kontekstida yoki tarjima va asliyat matni qiyosida lingvopragmatik yondashuv asosida o'rganish ma'qul.

Lisonda hissiy holat va sezgi fe'llari ma'nosining komponent analizi shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida ushbu paradigma mazmunan bir biriga yaqin. Umuman olganda, turli tizimli va strukturali tillar orasida ifoda shakllari farqlanishi tabiiy hol. Bu farqlar tilning morfologik va boshqa tizmiy tafovutlari sabab yuzaga keladi [1, 186]. Jumladan, ingliz tilidagi sezgi fe'llari barcha zamonlarda birdek tuslana oladi, aniq va majhul nisbatda qo'llanishi mumkin. Hissiy holat fe'llarining tuslanishi oddiy va qisman tugallangan zamonlar bilan cheklanadi. Barcha zamonlarda tuslanish va nisbat shakllarini qabul qilish imkoni faqat periferiyadagi elementlarga xos. O'zbek tilidagi hissiy holat fe'llari esa huddi sezgi fe'llari kabi barcha grammatik kategoriyalarni, shu jumladan, zamon va nisbat kategoriyalarini o'zida namoyon eta oladi. Bularning



barchasi haqida ilk faslda batafsil to'xtalib o'tganmiz. Biroq vazifaviy xususiyatlariga ko'ra assimetriyalari bo'lgan ikki tildagi hissiy holat va sezgi fe'llari semantik jihatdan bir-biriga muvofiq ekanligi anglashildi. Hissiy holat va sezgi fe'llari turli tizimli tillarning ifoda shakllari har xil bo'lsa-da, vositalardagi mazmun-mohiyat umumiyligidan yana bir bor dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Богданов В. Семантико-синтаксическая организация предложения. Л., 1977. - 204 с.
2. Жукова Е. Эмоциональные глаголы английского языка: лексико-грамматический аспект: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук – М.: 1993 – С.6
3. Жукова Е. Эмоциональные глаголы английского языка: лексико-грамматический аспект: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук – М.: 1993 – С.24-25
4. **Левицкий В., Стернин И. Экспериментальные методы в семасиологии. – Воронеж:ВГУ, 1989 –192 с.**
5. Lyons J. Semantics. Cambridge; London; New York: Cambridge Univ. Press, 1978. Vol. 2. – p 81.
6. Нуруллова А. Ономотопея в современном английском, русском и немецком языках: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Казань, 2013
7. Rasulov R. O'zbek tili fe'llarining ma'no turlari – Toshkent, 2008 – 6 B.
8. Сильницкий Г. Модель глагольного действия и семантическая классификация глаголов с предикатными актантами // Категории глагола и структура предложения. Конструкции с предикатными актантами. – М.: Наука, 1983. – С. 28-

***Yigitaliyeva Shohsanam Isog'ali qizi**
Qo'qon DPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi*

KOGNITIV TILSHUNOSLIK VA UNDA KONSEPT TUSHUNCHASINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslikning dolzarb mavzularidan biri bu-konsept tushunchasidir. Bu atama kognitiv tilshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada konsept mavzusiga asosiy urg'u berilgan. Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyat uchun ham umumiy atama bo'lsada, ikkala fan uchun ham ikki xil tushunchani anglatadi.

Kalit so'zlar. kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, tushuncha, lisoniy tasvir, til mexanizmi, tushuncha va ma'no, zamonaviy tilshunoslik

Аннотация. На сегодняшний день одной из актуальных тем современного языкознания является концепт-концепт. Этот термин является одной из важных категорий когнитивной лингвистики. В этой статье основное внимание уделяется концепции. Хотя термин понятие является общим термином как для когнитивной лингвистики, так и для лингвистики, он означает два разных понятия для обеих дисциплин.



Ключевые слова: Когнитивная лингвистика, лингвистика, концепция, концепция, механизм, понимание и значение, современная лингвистика

Annotation. Today, one of the topical topics of modern linguistics is the concept concept. This term is one of the important categories of cognitive linguistics. This article focuses on the concept. Although the term concept is a common term for both cognitive linguistics and linguistics, it means two different concepts for both disciplines.

Key words: Cognitive linguistics, linguoculture, concept, concept, mechanism, understanding and meaning, modern linguistics

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir.[1,4] Tilshunos Sh.S.Safarovning fikriga ko'ra, "Kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikosi sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir" [2,91] Kognitiv tilshunoslikda eng asosiy o'rganiladigan muammo – bu konseptdir. Chunki kognitiv tilshunoslik – dunyoning lisoniy tasvirida muayyan konseptning mohiyati va dunyo voqeliklari bilan bog'liqligini o'rganuvchi fan bo'lsa, konsept kognitiv tilshunoslik fanining asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, madaniyat va inson o'rtasidagi aloqa o'rnatuvchi elementdir. "Konsept" termini o'tgan asrning 90 – yillaridan beri tilshunoslikda keng qo'llanilib kelinmoqda. Shunga qaramasdan, konsept tushunchasi hali hamon bitta umumiy izoh yoki talqinga ega emas. Konseptlarning o'rganilishi bo'yicha eng atoqli tilshunslaridan biri S.A.Askoldov hisoblanadi. U konseptga "bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir" deb izoh bergan. D. S. Lixachev o'zining «Konseptosfera russkogo yazika» ilmiy ishida konseptni so'zning lug'at ma'nosi va insonning o'z milliy qarashlari bilan to'qnashuvi natijasida hosil bo'ladigan fikrlash jarayonining maxsuli deb ta'riflaydi. E. Komarov o'zining nomzodlik ishida konseptning mazmun strukturasiga ko'ra leksik ma'nodan katta ekanligini alohida ta'kidlaydi. Buning sababi sifatida konseptning mental hodisa ekanligi bilan izohlaydi.

N.Arutyunova esa konseptni ham mental birlik, ham tafakkur elementi sifatida talqin etib, uning olam va odam o'rtasidagi madaniy unsur ekanligini izohlaydi.

E.S.Kubryakova konseptni "mental tuzilma va turli tarkibdagi va ko'rinishdagi bilimlar jamlanmasi yoki umumlashmasi" ekanini ta'kidlaydi [3,90]. S.G.Vorkachev esa "Konsept – tildagi o'z ifodasi va lingvokulturologik spetsifikasiga ega tushuncha, tasavvur va bilimlar to'plamidir" deydi. N.Yu.Shvedova "Konsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan.

Zamonaviy tilshunoslik fanida mavjud bo'lgan konseptni aniqlash muammosi, konsept va til birliklari o'rtasidagi munosabatlar muammosiga bevosita bog'liqdir. Konsept mohiyatini tushunishga bo'lgan har qanday urinish «tushuncha», va «ma'no»ni o'z ichiga olgan bir qator atamalarining mavjudligini amalga oshirishga olib keladi. Konsept atamasi tilshunoslik tadqiqotlarida XX asrning birinchi yarmidan paydo bo'la boshladi. Bu atama ingliz tiliga oid so'z bo'lib, (concept), rus tilida ponyatie (tushuncha) atamasi bilan tarjima qilinadi. Keyinchalik bu atama tushuncha atamasi bilan aralashtirib yu-



borila boshlangach, uning tom ma'nodagi mazmunini aniq shakllantirishga qaratilgan ishlar tadqiq qilina boshlandi. «Konsept» tushunchasi kognitiv fan va lingvokulturologiyaning asosidir. Ammo, «konsept» atamasi chet elda ham, mahalliy tilshunoslikda ham keng qo'llanilishiga qaramay, hozirda uning yagona izohi yo'q. Hozirgi kunda tilshunoslikda konsept atamasini aniqlash uchun bir qancha yondashuvlar mavjud: Yu.S.Stepanov konseptni shunday ta'riflaydi: «inson ongida madaniyat o'chog'i, bu madaniyat shaklida insonning aqliy olamiga kiradigan nars. Shuningdek, Yu.S.Stepanov ta'kidlaganidek, «konsept» bu «ma'lum bir so'z bilan birga keladigan g'oyalar, tushunchalar, bilimlar, uyushmalar, tajribalar to'plami». (Cognition-bilish, cognize-tushunmoq, bilmoq cognitive-bilishga oid, cognition-aql, tafakkur). Insonning dunyoni, voqelikni bilishi, uni idrok etishida uning faoliyati natijasi hisoblangan tafakkurning o'rnini alohida ta'kidlash kerak. Kognitiv tahlilning tadqiqot ob'ekti bilimlar haqidagi tasavvurlar strukturasi va ularning turli kognitiv jarayonlar (tushunish, tahlil, til axborotining qurilishi)da til imkoniyatlarini sharhlash, shu bilan birga ularning paydo bo'lishini o'rganish kabilarni o'z ichiga oladi. Kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifodasini ochib beruvchi mexanizmlar qurshovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o'ringa chiqadi.

Yuqoridagilardan shuni ko'rishimiz mumkinki, yaxshilik konsepti ham mavhum tushuncha hisoblanib, bevosita insonning bilish jarayoni bilan bog'liqdir. Yaxshilikni ifoda etuvchi o'zbek xalq maqollari insonni komillik sari yetaklashga, ezguliklar qilishga undaydi.[4,75] Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilur, Baliq bilmasa, Xoliq bilur maqoli insonni yaxshiliklar qilishga da'vat etadi; yaxshilik tushunchasini ifoda etuvchi o'zbek xalq maqollari o'zbek mentalitetiga, milliy madaniyatiga oid jihatlarini ham namoyon qiladi; - biror xalq hayotida mavjud va kundalik hayotda faol qo'llaniluvchi leksemalar tilda o'z qiyofasini yaratadi va xalqlarning milliy mentalitetini ko'rsatishda maqollarda ishtirok etmay qolmaydi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ko'plab tadqiqotlar mavzusiga aylangan kognitiv tilshunoslik antroposentrik paradigmaning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida vujudga keldi. Ushbu yo'nalish o'zbek tilshunosligida Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, O'Q.Yusupov, G'M.Hoshimov kabi atoqli tilshunoslarning ilmiy izlanishlari natijasida rivojlanib bordi. Kognitiv tilshunoslikdagi asosiy tushuncha – konsept haqida turli olimlarning fikrlarini o'rgangan holda konseptning ta'rifi bo'yicha yakdil xulosaga kelinmagani ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Воркачев С. Г. Лингвоконцептология и межкультурная коммуникация: истоки и цели // Филологические науки, 2005. – №4.
2. Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91
3. Кубрякова Е. С. О когнитивной лингвистике и семантике термина “когнитивный” // Вестник Воронежского государственного университета Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – Воронеж, 2001. 90-с.
4. Koshg'ariy M. “Devonu lug'atit turk” I tom. -Toshkent.: 1960.75
5. O'zbek xalq maqollari. –Toshkent: G' G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2009. 84
6. O'zbek xalq maqollari. – Toskent: Sharq 2012.63



7. Sulaymonov M. O'zbek xalq og'zaki ijodi(o'quv-uslubiy qo'llanma), Namangan .2008.–120 b.A.

8. Yigitaliyeva, S. (2022). GLORIFICATION OF "GOODNESS" IN THE WORKS OF ALISHER NAVOI. *Scienceweb academic papers collection*.

9. Yigitaliyeva, S. (2021). Konsept va umummilliy konseptlar hamda ularning tadqiqi. *Scienceweb academic papers collection*.

*Xolmuradova Jamila Irmetovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti*

XORAZM DOSTONLARI LEKSIKASIDAGI LAKUNALAR SEMANTIKASI

Annotatsiya. Maqolada Xorazm dostonlari leksikasidagi ayrim so'zlarning adabiy til va shevaga xos holatlardan semantik farqlanishi haqidagi mulohazalar atroflicha izohlanadi.

Kalit so'zlar. Xorazm, folklor, doston, sheva, leksika, adabiy, badiiy, leksika, adabiy, til, stilistik, semantik, ma'no.

Аннотация. В статье комплексно комментируются мысли об особенностях и типах хорезмских поэм.

Ключевые слова. Этнокультурный, Хорезм, фольклор, поэма, южный, северный, языковой, художественный, лексика, литературный, язык, стилистический, литературоведение, языкознание.

Annotation. In this article the ethno cultural peculiarities and types of Khorazm's epics are clarified.

Key words. Ethno cultural, Khorazm, folklore, epics peculiarities, south, north, linguistic, literary, lexica, language, literature, linguistics

Ma'lumki, so'zlar doston tilida, avvalo, nominativ-tasviriy funksiya bajarishi bilan xarakterlanadi. Dostonda kechgan voqea-hodisalar, ularda ishtirok etgan personajlar xatti-harakati, ularning munosabati, o'zaro suhbatlari, ular tushib qolgan sharoit va vaziyat tasviriga hamda bu tasvirlari tinglovchiga yetkazishga xizmat qiluvchi leksik birliklarni qo'llanishiga ko'ra dostonlar matnida adabiy tilda va shevalarda mavjud bo'lib, ma'noda farqlanuvchi (yoki ma'no doirasi kengaygan) so'zlar tartibida ham guruhlarga bo'lib o'rganishni taqozo qiladi. Leksik birliklarning bu ma'nolarini tuzilajak izohli lug'atda hisobga olish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Shunday so'zlardan biri adabiy tilda mavjud bo'lgan **toza** so'zidir. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati" da tavsiflangan *ozoda, pokiza, sof, asil, pok, juda ham, rosa, namunali* ma'nolaridan tashqari *chiroyli, go'zal, ixcham, yangi, oppoq, maftunkor* ma'nolarini ifodalash uchun ham xizmat qiladi:

1) *chiroyli, go'zal, ixcham, oppoq, maftunkor* ma'nolari ustun: *Ko'ro'glining eki ko'zi Qirmondalining oq bilakinda, toza bo'qoqinda* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 16-bet). 2) *chiroyli, go'zal, yangi* ma'nolarida: *Bog'bon bo'lib tersam toza gulingdan* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 42-bet).

Shimoliy Xorazm shevalarida esa **toza** so'zi ko'p hollarda shaxsga nisbatan qo'llanilib, ijobiy xususiyatni belgilashga xizmat qiladi. Jumladan, *beg'ubor, ochiqko'ngil,*



ishonchli sog'lom, pishiq, puxta, qing'ir yo'llarga yurmaydigan, harom-harish ishlardan uzoq yuruvchi kishi ma'nolarida ishlatiladi. Masalan,

1) beg'ubor, ochiqko'ngil: *Nishetsada toza odam-do, hech yomon xiyolga bormiydi.*

2) ishonchli pishiq, puxta: *Unga ishonsa bo'ladi, toza odam.* 3) pishiq, puxta, yaxshi: *U toza ishliydi.* 4) sog'lom, qing'ir yo'llarga yurmaydigan, harom-harish) ishlardan hazar qiladigan odam ma'nolarida: *Ular suyagi toza odamlardan.* Bunday misollarni mazkur shevada va dostonlarda ancha uchratish mumkin.

Shimoliy Xorazm dostonlarida ham, shevalarida ham, adabiy tilda ham mavjud bo'lib, ma'no jihatidan farq qiluvchi (yoki ma'no doirasi kengaygan) so'z (lakuna)larni ifodalagan ma'nolariga ko'ra turlicha mavzuiy guruhlariga bo'lib o'rganish lozim bo'ladi:

1. Predmet (narsa) nomlari: kavak - chuqurcha, bo'shliq, in, uya ma'nolaridan tashqari Shimoliy Xorazm dostonlarida xilvat joy ma'nolarida ham keladi: *Go'ro'g'li haligi otlining izini olip boravirdi, borip bir tog'ding kavagina kirdi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 26-bet).

Kosa - *piyoladan kattaroq idish: tarvuz yoki handalakning yarim, ba'zan chorak pallasi: bosh kosasi* (anat)dan farqli mazkur dostonlar tilida va mahalliy shevada choy ichishda qo'llaniladigan *idish - piyola* manosida ishlatiladi. *Beshisina besh kosa aroq sop berdi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 4-bet).

«Xirmondali» dostonining Xo'jyoz baxshi variantida Go'ro'g'lining nomi *Ko'ro'gli*, Xirmondalining nomi esa *Qirmondali* tarzida qayd etilgan.

Nor - arabcha erkak tuya, badandagi tug'ma qizg'ish dog', ism, o't, olov, anor ma'nolaridan tashqari, katta, ulug', biron mashg'ulot va kasb-hunar egasi, boshliq, rahbar, xo'jayin, ko'pchilikni o'ziga ergashtira oluvchi kishi ma'nolarida keladi: 1) *katta: G'iro'tga minganda nor ko'zim-maston* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali. 16-bet). *Maston ko'zim nor ochilur* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 17-bet). 2) boshliq, rahbar, xo'jayin, ko'pchilikni o'ziga ergashtira oluvchi kishi: *Avazjonim g'o'ch yigitlar noridi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 5-bet).

2. Mavhum nomlar: Dam(i) - 1) nafas, tin, so'lish, ishdan bo'sh vaqt, istirohat, orom, hordiq, to'plangan havo yoki gaz, taft, issiq, harorat, bug', hovur. 2) on, lahza, kez, payt, goh, goho. 3) ko'raga, o'choqqa havo yuboradigan garmonsimon asbob. 4) chet, qirg'oq. 5) asbobning o'tkir tomoni, tig'i ma'nolaridan boshqa changal, tuzoq, iskanja ma'nolari uchun ham ishlatiladi: *Tushdim Loyxo'rding damina* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 24-bet.). *Bu poshsho oytdi: «Ay, Arslonboy, bu qizing yeddi yoshinnan o'n sakkiz yoshina chiqqanchalli damina tushgan uch yuz oltmish polvon yigitlardi o'ltirdi. O'zi qoon, o'zi poshsho bo'ldi»* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 56-57-betlar).

Nishon(a) - belgi, alomat, iz, asar, mo'ljal, shaxs ismi, mevali daraxtning ilk mevasi va yana dalil, isbot ma'nolari ham mavjud: 1) *Qirilgan bo'lsa unnan nishona yo'qma, dedi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 14-bet.). 2) **Nishonasina** *quloq-murnini keltirdim, dedi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 14-bet.).

3. Belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar -yomon - sifati, navi past, yaxshi emas, axloqi, fe'li atvori buzuq, yaramas, noxush, yoqimsiz, ko'ngilsiz, zararli, razil, og'ir, xatarli, qattiq, past baxo, adabsiz gap kabilardan tashqari juda, rosa, nihoyatda ma'nosida ham keladi: *Ko'ro'g'lining bu so'zina parizotting yomon qari keldi* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 21-bet).

Ojiz - jismoniy jihatdan kuchsiz, zaif, bo'sh, bequvvat, notavon, noiloj, ko'rish qobiliyatini batamom yo'qotgan ko'r singarilardan tashqari past ma'nosida: *Kun gunorta*



bo'lgan vaxtda Go'ro'g'li Loyxo'rg'a **ojiz** keldi (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 23-bet). Karam sulton o'zining **ojiz** kegani Oshiq Oydin pirga ma'lum ekanini payqadi (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 44-bet).

4. Harakat-holat ifodalovchi so'zlar: Yozdirmoq dasturxonni yozdirmoq, oyoq chigilini yozdirmoq. Dostonlarda **yechmoq** ma'nosida uchraydi: *Do'xtirlar Has anxonding aldinnan chuvoldi yozdirip oldi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 14-bet).

Ko'pirmoq - o'ta maqtanchoq, maqtanchoqlik qilmoqdan tashqari to'lib-toshmoq, kuch-quvvatini ko'z-ko'z qilmoq, namoyish qilmoq ma'nolarida: *Qirq yigit ko'pirip otlanip qo'yavirdi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 15-bet). *Go'ro'g'li uzoqdan oyoq ostina qaramay, ot minan bostirip, ko'pirip-toship kelavirdi* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 49-bet).

Qirilmoq//qirmoq, - urishmoq, janjallashmoqdan farqli ko'pchilikning birdaniga vafot etishi, yoppasiga o'lishi yoki o'ldirilishi ham tushuniladi: *Qirq yigitim qirilib qoldi, -dedi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 27-bet).

Mitiq oytir o'qim yomon,

G'animlardi qo'ymon omon,

Qirarman jonni begumon -

Piltamni o't olan choqda

(Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 16-bet).

5. Vaqt bildiruvchi so'zlar: Oqshom//oxshom - quyosh botishi bilan tun boshlanishi o'rtasidagi g'ira-shira yorug' payt, kech, kechqurun. Dostonlarda ham, shevada ham bu so'z faqat kecha, oldingi kun ma'nosida keladi: *Go'ro'g'li qirq yigitiminan oxshom sho'rda bo'ldi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 14-bet).

6. O'rin-joy ma'noli so'zlar. Ich(i) - ichki bo'shliq, oshqozon, qorin, yurak, dil, qalbdan tashqari ora(si), o'rta(si) ma'nolari keladi: *Bu besh otlining ichinda biravi "Xabaringdi ber, ne ko'rdansan?" - dedi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 1-bet).

Sirt(i) - narsalarning tashqi tomoni, tashqi yuzi, tizma tog' cho'qqilari bilan birga ust, yuqori, yuza qismi va g'oyibona, izidan kabi ma'nolarni ham ifodalash uchun xizmat qiladi: 1) ust, yuqori, yuza qismi: *Go'ro'g'li bir kiyikdi Dog'istannan otip op otting sirtina bo'ktarip yurib idi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 3-bet). 2) Izidan, orqavorotdan: *Poshsho sirtinnan ot-ovozasini eshitar idi*. (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 56-bet).

O'ng(i) - gavdaning yurak o'rnashgan tomoniga qarama-qarshi joylashgan, amalda, haqiqatda sodir bo'ladigan voqea yoki hodisa, bor narsa, haqiqat, real holat, narsaning odatda ko'rinib turadigan tomoni, sirti, biror ish-harakat qilish uchun qulay fursat, sharoit ma'nolaridan farqli oldingi tomon, ro'para ma'nolarida ham ishlatiladi: *Avaxxonni ham o'nginda qo'ydi* (Xudirgan baxshi, Qirq minglar, 7-bet). *Kampir ot ustinnan kelip saksan ming nooz, to'xson ming jilva, ikki g'amzaminan Ko'ro'g'lining o'nginan kelip ta'zim beravirdi*. (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 5-bet). *Go'ro'g'li o'ngindagi kampirdan so'radi: «San arvohmisan, odam uli odammisan? Ne ko'rdansan?»* (Xo'jyoz baxshi, Xirmondali, 5-bet).

Ko'rinib turibdiki, dostonlar tilining o'zbek adabiy tili bilan o'xshash tomonlari bo'lgani holda, o'ziga xos alohida xususiyatlari ham mavjud. Shu sababli, ko'p tomlik o'zbek tilining izohli lug'ati yoki o'zbek xalq shevalari lugatlarini tuzish ishida asosiy manba adabiy til materiallari bo'lsa ham, o'rni bilan so'zlarning turli ma'no xususiyatlarini izohlashda folklor materiallaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudirgan baxshi. "Qirq minglar", qo'lyozma, O'zRFA folklor arxivi.
2. Xo'jyoz baxshi. "Xirmondali", qo'lyozma, O'zRFA folklor arxivi.

Qosimova Nazokatxon

QDPI akademik litseyi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

NUTQIY MULOQOTNING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Maqolada umuminsoniy va milliy qadriyat hisoblanuvchi muomala odobining sotsiolingvistik xususiyatlari va zarur shartlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. nutqiy muloqot, adresat, adresant, nutqiy vaziyat, muomala odobi

Аннотация. В статье говорится о социолингвистических особенностях и необходимых условиях этикета, который считается общечеловеческой и национальной ценностью.

Ключевые слова. речевое общение, адресат, адресант, речевая ситуация, этикет.

Annotation. The article talks about the sociolinguistic features and necessary conditions of etiquette, which is considered a universal and national value.

Key words. speech communication, addressee, addressee, speech situation, etiquette

Ma'lumki, insonlar ijtimoiy hayotda bir-birlari bilan nutq orqali aloqaga kirishadilar. Nutqiy muloqot insonlarning bir-birlari bilan aloqaga kirishishlarida muhim omil hisoblanadi. Nutqiy muloqot jarayonida muomala odobiga rioya qilish insonning go'zal xislatlaridan biridir. Chunki muomala odobi insondan katta mas'uliyatni talab qiladi. Muomala odobi umuminsoniy va milliy qadriyat hisoblansada, insonning o'zligini namoyon etuvchi yuksak fazilat hisoblanadi.

Nutqiy muloqotning zarur shartlariga quyidagilar kiradi:

1. Insonlarning yoshi, jinsi, jamiyatda tutgan mavqeidan qat'iy nazar suhbatdoshlar o'rtasidagi samimiy munosabat va hurmat-ehtiromlar o'rnatilishi. Muloqot jarayonida adresat (so'zlovchi) va adresant (tinglovchi) o'rtasida tabiiy ravishda lisoniy va nolisoiniy omillar ishtirok etadi. Insonlarning qanday ekanligi, ya'ni ularning bilimi, dunyoqarashi, saviyasi, axloqi, odobi, tarbiyasi, faxm-farosati, madaniyati o'z nutqlarida namoyon bo'ladi.

2. Nutqiy muloqot jarayonida so'zlarning ohangiga e'tibor qaratish. Kommunikatsiya jarayonida insonning ohangi ham katta o'rinni egallaydi. Insonlar har qanday vaziyat va kayfiyatda ham eng ma'qul ohangni tanlashlari ularni ko'zlagan maqsadlariga erishishlariga yordam beradi. Suhbat chog'ida so'zlarni o'z o'rnida aniq va ravshan talaffuz qilish, muloyim ohangda gapirish adresantda adresatni tushunishni ham osonlashtiradi. Har bir so'zni vaziyatga mos ravishda turli ohangda ifoda etish mumkin. Masalan, "o'tiring" so'zini iltimos, talab, maslahat, ogohlantirish, buyruq,



jerkish kabi ma'nolarni ifodalab kelishini misollar tahlili orqali ko'rsak.

— *Marhamat, o'tiring*, — dedi Ismoil Yusupovich qarshisidagi stulga ishora qilib.
— *Tashakkur*. — *Siz men bilan ikki kun birga bo'lasiz*. (Sh.Xolmirzayev "Jarga uchgan odam")

— *Shu*, — dedi Ortiqali irg'ishlab. *So'ng gap yo'q, so'z yo'q qishloq tomonga qarab o'qdek uchib keta boshladi. ... Yengil tortadilar. Oani, qizim, siz ham o'tiring, o'tirsinar. Obbo oppoq qizim-ey*. (X.To'xtaboyev "Shirin qovunlar mamlakati yoxud sehrgarlar jangi")

3. Qaysi vaziyatda nima haqida muloqot qilishni bilish. Masalan, to'y va shu kabi xursandchilik, shodiyona marosimlarida o'lim va aza singari xafagarchilik, g'am, qayg'u haqida so'zlash ma'qul bo'lmaganidek, azada ham to'yu tantanadan gapirish yoki kulib, xursand otirish, bo'lar-bo'lmasga yonidagilarni gapga tutish joiz emas. Suhbatdoshning holati, kayfiyati, yoshi va ijtimoiy mavqeiga qarab muomala qilish farosatli kishining go'zal axloqini ko'rsatadi. Kommunikatsiya jarayonida yoshi va mavqei yuqori insonlarning so'zlarini tinglab, ularning ko'proq gapirishlariga imkoniyat berish lozim.

4. Yoshi va mavqei yuqori insonlarga o'z o'rnida maqtov va xushomad so'zlarni qo'llash. Chunki me'yoridan ortiq xushomad va maqtov nafaqat maqtov egasi, balki atrofdagi boshqa tinglovchilar uchun ham noqulaylik tug'diradi va seziladi. Natijada bunday maqtov va xushomad hurmat sanalmaydi.

Har qanday nutqiy vaziyatga mos ravishda insonlar salomlashish, iltifot, kechirim so'rash, tabriklash, minnatdorchilik izhor qilish, xayrlashish singari turli xil nutqiy muloqot so'zlaridan foydalanadilar va ularning har birining o'ziga xos va mos muomala shakllari mavjud. Adresat va adresant tomonidan olib borilgan nutqiy muloqot verbal va noberval shakllarda bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi. Bular:

1. Nutqiy muloqot boshlanishi.
2. Nutqiy muloqot jarayoni.
3. Nutqiy muloqot yakuni.

Nutqiy muloqotning boshlanishi barcha millat va davlatlarda salomlashish hisoblanadi. Salomlashish – milliy, ma'naviy tamoyillarga asoslanadigan xatti-harakat shakli, nutq odobi unsuri. Har qanday nutqiy muloqot salomlashish jarayoni bilan boshlanadi. Bunday so'zlarga: *assalomu alaykum – vaalaykum assalom, salom, yaxshimisiz – xudoga shukur, hormang – bor bo'ling, xush kelibsiz – xushvaqt bo'ling* kabi til birliklari kiradi. Salomlashish bosqichi verbal va noverbal shakllarda ifodalanadi. Masalan, o'zbeklarda o'ng qo'l ni ko'ksiga qo'yib salom beriladi. Salom beradigan inson yoshi va mavqei ulug' bo'lsa, boshni ozgina oldinga egib, yengil ta'zim beriladi. Ayollar salomlashishi erkaklardan farq qiladi. Erkaklar suhbatdoshga o'ng qo'llarini cho'zib va maxkam qisib salomlashsa, ayollar nazokat bilan qo'l tirsaklarini ushlagan holda salomlashadilar. Yoshi, hurmati, mavqei yuqori va yaqin insonlar bilan esa ikki qo'llari bilan quchoq ochib ko'rishadilar. Masalan, *Assalomu alaykum... Sog'milar, shaxzodam, – dedi Gulshan qo'lini ko'krigiga qo'yib, bolag'a bukilingirag'an holatda. Shaxzoda javobsiz kulimsirab, Gulshanga biroz qarab turdida, ichkariga kirib ketdi*. (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon")

Nutqiy muloqot jarayoni nutqiy holatga mos ravishda turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Bunda kommunikatsiya ishtirokchilari muloqot jarayonining hosil qilishdan



ko'zlagan maqsadlatriga asosiy e'tiborlarini qaratadilar. Suhbat asnosida bir-birlarni yaxshi tushunib, jarayonning yanada jonli va qiziqarliligini ta'minlash maqsadida *yaxshi, barakalla, to'g'ri, xo'sh, qani, albatta, bemalol, mayli* va shu kabi ko'plab so'roq, iltifot, kechirim so'rash, tabriklash, minnatdorchilik izhor qilish mazmunidagi til vositalaridan foydalanadilar.

Mahdum shart etib, peshonasig'a urib yi'g'ladi:

–So'zlag'ali til yo'q... Janobning oldilarida sharmisor, g'azabka sazovor bo'ldim... Ertalab uyg'onsaq, bepadar ojizamiz yo'q... Sarosima u yon bu yon yugurib turg'animizda, Mirzo Sultonalinikidan, qizingiz biznikida, degan xabar bordi. Biz ayollar bilan yugurishibkelsak, bir onda...

–Xosh, xo'sh?

–Anvar uni yo'ldan ozdirib, bu yerdan ham olib qochibdir... Harchand ichkari va tashqarini izlab, ushbu xatdan g'ayri asar topmadiq... Evoh!.. (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon")

Nutqiy muloqotning so'nggi bosqichi bu suhbat yakuni hisoblanadi. Har qanday muloqot bosqichi xayrlashish asnosida yakun topadi. Xayrlashish chog'ida katta birinchi bo'lib kichikka qo'l uzatadi. Tashrif buyuruvchining xizmat xonasidan biror masala hal etib bo'lingach, ketish oldidan o'tirgan holda qo'l uzatish nojoizdir. Bu paytda, albatta, tashrif buyurgan inson o'rnida qo'zg'alganda o'rindan turish va so'ng xayrlashish ham ma'naviy qadriyatladan hisoblanadi. Keksa insonlar tashrif buyurganda ijtimoiy xodim eshikkacha kuzatib qo'yishi ham axloqiy odoblardan sanaladi. Xayrlashish ham boshqa bosqichlar singari verbal va noberval shakllarda ifodalanadi. Masalan, *xayr, ko'rishguncha, yaxshi qoling, yaxshi boring, yana boshqa keling* kabilar verbal shakllarda ifodalansa, aytilgan so'zlarga yana qo'shimcha tarzda qo'l harakati orqali yengil ta'zim qilish mumkin.

–Xayr, xayr, – dedi mahdum, adras to'n bilan vidolashqandek. – Sen qizlaringni ozod qo'y, Nigor, dasturxon tayyorlab, choy qaynat, Fotihaga odamlar kelsa kerak. Sen, Ra'no, sochlaringni yuvib, sal odamshavanda bo'lib yursang bo'lmaydimi, qizim? (A.Qodiriy "Mehrobdan chayon")

Muloqot jarayoni xotimalanish bosqichida suhbatdoshlar bir-birlari bilan xayrlashadilar. Xayrlashish ham milliy-ma'naviy, inson tarbiyasi va madaniyati aks etadigan xatti-harakatlari shakli, nutq odobi unsuri sanaladi.

Adabiyotlar:

1.Ganievna, T. S. (2022). Ellipsis And Anti-Ellipsis In The Erkin A'zam's Works. Journal of Positive School Psychology, 935-940.

2.Ganievna, T. S., & Odinakhan, R. (2022). LANGUAGE AND ETHICS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1026-1029.

3.Toshkhojaeva, S. (2016). The Linguopoetic Nature of the Artistic Repetition in the Works of Erkin Azam. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(5), 114-118.

4.Ташхужаева, Ш. Г. (2015). Phonetic dialecticism in erkin azam's works and it's linguapoetical properties. Ученый XXI века, (12 (13)), 66-69.

5.Тошхужаева, Ш. Г. (2016). Лингвопоэтическое исследование художественной литературы–описательные средства. Молодийвчений, 1, 382-386.

6.Ganievna, S. T. (2022). LINGUOPOETIC CHARACTERISTICS OF PARENTHESES IN



THE WORKS OF ERKIN AZAM. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1007-1010.

7.G'aniyevna, Toshxujayeva Shoiraxon. «IRONY IN THE WORKS OF ERKIN A'ZAM.» Open Access Repository 9.3 (2023): 167-170.

Saydaliyeva Mahliyoxon Ulug'bek qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti

FONOSTILISTIK TADQIQOTLARNING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTLARI

Annotatsiya. Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri til hodisalarini o'rganishda kommunikativ yondashuvdir. Bu yondashuv tilni ijtimoiy faoliyat jarayonida o'rganadi. Til muloqot nazariyasi sifatida o'rganilganda bir necha omillar tufayli variantlilik xususiyatini aks ettradi. Bu omillar ijtimoiy, hududiy, funksional-stilistik, temporal bo'lishi mumkin. Bularndan ijtimoiy omilni misol qilib olinganda, dialektlar, shevalar ma'lum jamoaga xizmat qilishi va og'zaki muloqotdan tashqarida mavjud bo'la olmasligini tushunamiz.

Kalit so'zlar. Sotsiolingvistika, fonostilistika, variantlik, kommunikativ omil, funksional-stilistik xususiyatlar.

Аннотация. Одним из ведущих направлений современного языкознания является коммуникативный подход к изучению языковых явлений. Этот подход изучает язык в процессе социальной деятельности. Когда язык изучался как теория коммуникации, он отражал характеристику изменчивости, обусловленную несколькими факторами. Эти факторы могут быть социальными, территориальными, функционально-стилистическими, темпоральными. Взяв в качестве примера социальный фактор, мы понимаем, что диалекты служат определенной общности и не могут существовать вне устного общения.

Ключевые слова. Социоллингвистика, фоностилистика, вариант, коммуникативный фактор, функционально-стилистические признаки.

Annotation. One of the leading directions of modern linguistics is the communicative approach to the study of language phenomena. This approach studies language in the process of social activity. When language was studied as a theory of communication, it reflected the characteristic of variability due to several factors. These factors can be social, territorial, functional-stylistic, temporal. Taking the social factor as an example of these, we understand that dialects serve a certain community and cannot exist outside of oral communication.

Key words. Sociolinguistics, phonostylistics, variant, communicative factor, functional-stylistic features.

Muloqot jarayonida tanlanayotgan lisoniy vositalar ko'pgina ijtimoiy omillarga bog'liq, ba'zan bunday omillar bir birini to'ldiradi ba'zan qarama-qarshilikni yuzaga keltiradi. Fonostilistika sohasi ham til o'rganish jarayonini boshqa fanlararo muvofiqlashtirish va so'ngra ularga qiyoslash natijasida o'rganilish obyekti qilib bir jihatni cheklash orqali vujudga kelgan. Fonostilistika fonetika, sotsiolingvistika, stilistika,



akustika sohalari chorraxasida paydo bo'lgan. Garchi yuqoridagi fanlar kesishishidan paydo bo'lgan bo'lishga qaramay, fonostilistika og'zaki nutqda mavjud, orfografik aks etmaydigan tovush va prosodik hosidalarini o'rganishni bitta nuqtaga to'playdi. Avval bunday hodisalar turli fanlar bo'yicha vaziyat taqazosidan kelib chiqib alohida olib borilgan bo'lsa, endilikda ularni ijtimoiy, stilistik, fonetik tizimlarning funksional-stilistik xususiyatlarini bir fan fonostilistika doirasida o'rganish mumkin. Rus tilshunosligida 1960-1980-yillar davomida og'zaki nutqning turli shakllari va turlarda fonetik vositalarning ishlash qonuniyatlari bilan tasniflangan fono-stilistik tadqiqotlar izchil rivojlangan. Jumladan K.K.Barishnikov, I.G.Torsuev, A.S.Selyx ishlari bunga misol bo'la oladi. Fonostilistik tadqiqotlar og'zaki nutqni har tomonlama o'rganishga asoslangan. N.I.Portnova kelajakda fonostilistik variantlik ijtimoiy-stilistika sifatida qaraladi degan. Trubetskoy fonetistlar nutqda yuzaga keladigan alohida tovushlarning talaffuzdagi o'zgarishi bilan shug'ullanishi va ularning qonuniyatlarini topishi kerak deb yozgan. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, bir qator fonetik o'zgarishlarni lingvistik qoidalar bilan tushuntirib bo'lmaydi, shunda sotsiolingvistik xarakterdagi farazlarga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Fonetik hodisalarning ijtimoiy o'zgaruvchanligi haqida turli tilshunoslar fikr yuritgan. Jumladan, A.D.Shveyser situatsion o'zgaruvchanlik vaziyat va aloqaga qarab ma'lum lingvistik vositalardan foydalanishni va jamiyat tuzilishi bilan bog'liq sinfiy o'zgaruvchanlikni talab qiladi – deb yozgan. Jamiyat va til o'rtasidagi o'zaro korrelyativ munosabat o'rnatish uchun til sathlaridagi ijtimoiy omillarni hisobga olish kerak. N.I.Portnova bunday omillarga quyidagicha misol keltiradi:

1. Axborot beruvchining ijtimoiy kelib chiqishi va mavqei
2. Axborot beruvchining kasbiy maqomi
3. Axborot beruvchining savodxonlik darajasi
4. Axborot beruvchining yosh guruhi
5. Axborot beruvchining ma'lum hududga mansubligi

Bu omillar muloqot jarayoniga ikki xil toifaga bo'linishini ham aytib o'tadi:

1. Funksional-stilistik
2. Situatsion-kommunikativ

Birinchi toifadagi omillar fonostilistikada o'rganiladi, lekin bu omillar klassifikatsiyani ishlab chiqish vazifasini sotsiolingvistika barajadi. Fonostilistika ijtimoiy muloqotda fonetik xodisalarning vazifasi va hissiy ottenkalarini yoritib beradi. Qolaversa, jamiyatda statik va dinamik jihatlar mavjud. Funksional stilistik tadqiqotlar hozirgi demografik o'zgarishlarning tilga ta'sirini sotsiolingvistik jihatdan tushunishga yordamlashadi va sotsiolingvistika uchun yangi ijtimoiy normalarni yaratishga asos bo'ladi. Ijtimoiy situatsion-kommunikativ omillarga keladigan bo'lsak Portnova quyidagilarni misol qilib keltirib o'tadi:

- Nutq harakatining sodir bo'lish sharoiti
- So'zlash vaqtida muloqot obyektining mavjudligi yoki yo'qligi
- Nutqning vaqtinchalik muddati
- Nutq paytida kommunikantlarda fizik faoliyat, harakatning mavjudligi
- Aloqa ishtirokchilarining soni va muloqotdagi faollik darajasi
- Muloqot ishtirokchilariga xos ijtimoiy-psixologik xususiyat
- Aloqa ishtirokchilarining munosabatini tavsiflovchi xususiyatlar



- Nutq mavzusidan habardorligi, nutq mavzusida suhbatlashishga tayyorligi

- Nutq ishtirokchilarining tanishlik darajasi, munosabatning rasmiy norasmiyligi

Situatsion-kommunikativ omilda muloqot tonalligi faqat og'zaki nutqiy vaziyatdan va ohangdan kelib chiqadi, bularsiz muloqotni to'liq tahlil qilib bo'lmaydi. Bu xususiyat funksional-stilistik omilga ham tegishli. Demak, kommunikativ faoliyat sohasi va muloqot holati tilning ijtimoiy xususiyati parametrlaridir va fonetik-stilistika tilning ijtimoiy xususiyatlarini ochishga yordam beruvchi tilshunoslikning bo'limlaridan biri.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. А.Д.Швейсер. Современная социалингвистика: Теория, проблемы, методы. Изд. 4-э.М.:Книжный дом "Либроком",2012.

2. A. Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, O'qituvchi 1983.

3. Н.И.Портнова Фоностистика французского языка. Учебное пособие для вузов. Москва высшая школа 1986.

4. Н.С.Трубетской Основы фонологии. Москва 1960

5. С.Каримов. Ўзбек тилининг фонетик стилистикаси. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2016.

Xoshimova Dilso'z Rasuljon qizi

**Qo'qon davlat pedagogika instituti ingliz tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi**

ALLYUZIYA KONSEPT IFODALOVCHI STILISTIK FIGURA SIFATIDA (VATAN KONSEPTI ALLYUZION IFODASI)

Annotatsiya. XX asrning oxirida yangi lingvistik tadqiqot paradigmalari paydo bo'ldi va faol rivojlandi, bu bizga tashbehni intertekstuallikni faollashtirish usuli va inson tafakkurining vositalaridan biri sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu "asbob" atrof-muhitni tushunish va turli psixik tizimlar orasidagi assotsiativ munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu maqolada ishoralarni o'rganishning zamonaviy usullari muhokama qilinadi. Ishorani adabiy, lingvosemiotik, intertekstual, kognitiv, kognitiv-diskursiv, lingvostilistik va lingvokulturologik yondashuvlar nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin. Allyuziya har bir usulda juda keng tushuniladi, bu esa bitta ta'rifni ishlab chiqishni qiyinlashtiradi.

Kalit so'zlar. intertekstuallik, adabiy yondashuv, lingvo-stilistik yondashuv.

Annotation. At the close of the 20th century, new linguistic research paradigms emerged and were actively developed, allowing us to view allusion as a method of activating intertextuality and as one of the tools used in human thought. This "tool" offers the chance to comprehend the environment and identify associative relationships between various mental systems. The paper at hand looks at modern methods for allusion research. From the perspectives of literary, linguosemiotic, intertextual, cognitive, cognitive-discursive, lingostylistic, and linguocultural approaches, allusion



can be examined. The allusion is understood rather broadly in each method, making it challenging to come up with a single definition.

Keywords. intertextuality, literary approach, linguostylistic approach.

Аннотация. В конце XX века возникли и активно развивались новые лингвистические исследовательские парадигмы, позволяющие рассматривать аллюзию как способ активизации интертекстуальности и как один из инструментов человеческого мышления. Этот «инструмент» дает возможность понять окружающую среду и выявить ассоциативные отношения между различными психическими системами. В данной статье рассматриваются современные методы исследования аллюзий. Аллюзия может быть рассмотрена с позиций литературоведческого, лингвосомиотического, интертекстуального, когнитивного, когнитивно-дискурсивного, лингвостилистического и лингвокультурологического подходов. Аллюзия понимается довольно широко в каждом методе, что затрудняет выработку единого определения.

Ключевые слова. интертекстуальность, литературоведческий подход, лингвостилистический подход.

Allyuziyaning mohiyatini yana ham ochib berish uchun uni misollar bilan izohlashga harakat qilamiz. O'zbek tili ifodali lug'at va allyuziya kabi uslubiy vositalarga juda boy. Bunga qo'chimcha, yozuvchi va shoirlarning aksariyat asarlari yoki she'rlarida allyuziyani aniqlash mumkin. Yuqorida keltirilgan nazariyalarning quyidagi she'r dalildir :

Vatan madhi

Muhammad Yusuf

Men dunyoni nima qildim,
O'zing yorug' jahonim
O'zim hoqon,
O'zim sulton
Sen taxti **Sulaymonim**
Yolg'izim,
Yagonam deymi
Toppingan koshonam deymi
O'zing mening ulug'lardan
Ulug'imsan Vatanim.....
Sen **Mashrabsan**,
Xalqda tumor
Balxda dorga osilgan.
Navoiysan shox yonida
Faqirni duo qilgan
Yassaviysan meniki deb,
Ko'ringan da'vo qilgan
Ming bir yog'i ochilmagan
Qo'rig'imsan Vatanim.



Mashhur o'zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf o'zining 'Vatan madhi' she'rida bir emas bir nechta stilistik uslublardan foydalangan, ulardan biri allyuziyadir. Shoir bir necha allyuziyalardan foydalanish orqali o'quvchiga ularga ma'lum bo'lgan va xalq hayotida insoniyat uchun ulkan meros qoldirgan shaxslar nomini takidlab, vatanga bo'lgan muhabbatni oshirmoqda. She'rda birinchi qo'llangan allyuziya **Sulaymon (Sulaymon alayhissalom)** islomda Allohning tanlanganlaridan biri bo'lib, unga ko'plab Alloh in'omlari, jumladan hayvonlar va jinlar bilan gaplashish qobiliyati berilgan. Musulmonlar yana, u butun umri davomida yagona Allohga sodiq qolgan va butun Isroil xalqi ustidan adolatli hukmronlik qilgan, deb ta'kidlaydilar; Undan keyin ham, undan oldin ham hech kimga berilmagan shohlik darajasi bilan ne'mat qilingan. Shoir ushbu allyuziya orqali vatan u uchun naqadar qadrli va qimmatbaho ekanligini ta'kidlaydi. She'rdagi ikkinchi allyuziya **"Mashrab"** bo'lib, uning to'liq ismi **Boborahim Mashrab** bo'lgan. O'zbek va fors tillarida she'rlar yozgan. 1673 yildan to umrining oxirigacha ijod bilan mashg'ul bo'lgan. 1711 yilda u Balh hokimi Mahmud Tarag'ay tomonidan o'ldirilgan. Shoir ushbu ishora orqali vatanni nohaq o'ldirilgan xalq fidoyisiga tenglashtiradi. She'rdagi uchinchi kuzatilgan allyuziya bu **Navoiy** haqida bo'lsa, **"Alisher Navoiy"** buyuk shoir, davlat arbobi, o'zbek adabiyotining asoschisi bo'lgan. O'z shox yonida xizmat qilgan bo'lsa ham har doim xalq uchun jon kuydirgan jonkuyar vatan qahramoni haqida eslatib o'tadi. So'nggisi bo'lsa **"Yassaviy"** dir. Movorounnahr va Turkistonda yashagan xalqlar (o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, turk) tarixda Yassaviyni o'z ajdodlari deb bilgan. Bu xalqlar orasida muammoli vaziyat bo'lib kelgan. Shoir ushbu vatan haqidagi she'rda bir nechta allyuziyadan foydalangan va u orqali xalqqa vatanning qanchalik qadrililigini o'quvchiga anglatadi.

Anna Karenina. Tolstoyning **"Anna Karenina"** (1873—7) romanida Anna davlat amaldori Kareninga turmushga chiqadi. Anna graf Vronskiy bilan ishqiy munosabatda bo'ladi va u homilador bo'lgach, eriga zino qilganini tan oladi va u o'zi va sevgilisi o'rtasida tanlov qilishni talab qiladi. U Vronskiyini tanlaydi, lekin bu ijtimoiy izolyasiyaga toqat qilolmaydi va oxir-oqibat o'zini poyezd ostiga tashlab o'zini o'ldiradi.

It was one thing reading Tolstoy in class, another playing Anna and Vronsky with the professor.

PHILIP ROTH *My Life as a Man*, 1970

Hozirgi vaqtda allyuziya haqli ravishda tilshunoslikning eng kam ta'riflangan kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Hozirgacha bu hodisaning ta'rifi yuqorida birma-bir izohlanganidek ta'riflar juda ko'p keltirilgan, ularda allyuziyaning yoki allyuziya haqidagi ta'riflarning umumiylik jihati uni qaysi tildan olinganligi va qanday ma'no anglatishi, lekin umumiy olib qaraganda lug'atlarda, darsliklarda keltirilgan ta'riflar bir-biriga juda yaqin, ba'zi rasmiy manbalarda bo'lsa u haqida umuman ta'rif keltirilmagan, shu bilan birgalikda tadqiqotchilar allyuziyaning yagona va aniq ta'rifi yo'q deb hisoblaydilar.

Xulosa

Tadqiqotlar doirasida umumlashtirgan holda shuni aytishimiz mumkinki, allyuziya matnning elementi, muallif uslubi, muayyan til jamoasi madaniyati, shuningdek, kodlash va tarjima qilish usulidir. Fon madaniy bilimlar, kognitiv jarayonlar va muallifning niyatlari hisoblanadi. Allyuziya tadqiqot uchun keng materialdir. Ishoraning yagona tasnifini yaratish va uning ko'plab funksiyalarini o'rganish muammosi dolzarbligicha qolmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Александрова И. Б. А46 Учебный словарь по лексикологии [Учебник для журналистов]. –М.: МедиаМир, 2014. – 328 с.
2. А. Квятковский (Поэтический словарь «Советская энциклопедия » МОСКВА 1966
3. А. Куддон The Penguin Dictionary of literary terms and literary theory (С. Э. Престон) 1998
4. КРИС БАЛДИК The Consice Oxford Dictionary of Literary Terms Published in the United States by Oxford University press(С) Крис Балдик 2001
5. Satimova, H.K., No'monova, M. (2021). THE ROLE OF INDEPENDENT READING IN IMPROVING YOUNG LEARNERS' SPEAKING SKILLS. International Journal on Integrated Education vol. 4, no. 4, Apr. 2021, pp.109-111
6. Mahmudjonova, H. (2022). REALIZATION THE CONCEPT OF "EDUCATION" IN MODERN LINGUISTICS. Scienceweb academic papers collection.

Hamidova Kamola Mamirovna
Qo'qon DPI katta o'qituvchisi, (PhD)

ONOMASTIK BIRLIKLAR DOIRASIDA "POLINDROMIK TOPONIMLAR" TADQIQI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbek tili onomastik birliklar doirasida teskari o'qilganda fonetik shakli va ma'nosi o'zgarmaydigan, teskari o'qilganida fonetik tarkibi o'zgarishsiz qoluvchi, ammo toponim hosil qiluvchi, komponentning o'rnini almashtirish orqali hosil bo'luvchi polindrom toponimlar yoritilgan.

Kalit so'zlar. toponim, polisonim, polindrom, variant, adabiy variant, fonetik, fonetik shakl.

Аннотация. Фонетическая форма и значение узбекского языка не меняется при его прочтении в перевернутом виде внутри ономастических единиц, фонетический состав остается неизменным при прочтении в перевернутом виде, но образует топоним, образованный изменением положения выделены топонимы.

Ключевые слова. топоним, полисоним, палиндром, вариант, литературный вариант, фонетика, фонетическая форма.

Annotation. The phonetic form and meaning of the Uzbek language does not change when it is read upside down within the onomastic units, the phonetic composition remains unchanged when it is read upside down, but it forms a toponym, formed by changing the position of the component. Toponyms are highlighted.

Key words. toponym, polysonym, palindrome, variant, literary variant, phonetic, phonetic form.

O'zbek tili onomastik birliklar doirasida "polindromik toponimlar" ham kuzatiladi.
Polindrom termini yunoncha bo'lib, *palindromeo* – *orqaga qarab yuguraman*



ma'nosini anglatadi. Tilshunoslikda polindromlar o'ngdan chapga, aksincha chapdan o'ngga o'qilganda bir xil shakl hosil qiluvchi so'z, so'z birikmasi, iboralardir.

R.Xudoyberganovning antroponimik polindromlarga doir qaydlarini e'tiborga olmaganida, o'zbek tilshunosligida onomastik birliklarga xos polindromlar o'rganilmagan.

1. Teskari o'qilganda fonetik shakli va ma'nosi o'zgarmaydigan toponimlar: *Pop* // *Bob* // *Fob* (Namangan v. Pop t.), *Quduq* (Farg'ona v. Dang'ara t., Jizzax v. Baxmal, Forish t., Qashqadaryo v. G'uzor t., Samarqand v. Kattaqo'rg'on t.), *Chomoch* (Farg'ona v. Dang'ara t.), *Tashat* (Farg'ona v. Uchko'prik t.), *Qirq* (Navoiy v. Tomdi t., Qoraqalpog'iston R. Kegeyli t.), *Qozoq* (Qashqadaryo v. Qarshi (2 ta), Kasbi, Chiroqchi, Yakkabog' t.), *Tut* (Toshkent v. Oxangaron t., Samarqand v. Jomboy t.), *Anna* (Navoiy v. Nurota t., Qoraqalpog'iston R. Chimboy, Kegeyli t.), *Acha* (Qoraqalpog'iston R. Amudaryo t.), *Kiik* (Navoiy v. Tomdi t.) va boshqalar.

Forob // *Borob* // *Parob* – o'rta asrlarda Sirdaryo yoqasida Farg'ona vodiysida bo'lgan shahar. Arab geograflaridan Istaxriy, Ibn Havqal asarlarida, jumladan, «Hudud ul-olam»da *Borob* variantida tilga olingan: **Borob** – *noz-ne'matli nohiyat, uning qasabasini Kadir ataydilar. Odamlari jangovar va botir; savdogarlar joyi. Isbijob bilan daryo bo'yi oralig'i [dagi yerlar] Isbijobning, qisman esa Choch, Borob va Kunjدهning yaylovi sanaladi. U yerda ming o'tovdan iborat sulh tuzgan turklar yashaydi, ular musulmon bo'lganlar.*

Yoqut Hamaviyning yozishicha, *Borob* // *Farob*ning markazi O'tror bo'lgan. *O'tror* – Sirdaryo sohilidagi Aris daryosi quyilishida joylashgan qadimgi shahar; XV asrda ham *O'tror* deb atalgan.

2. Teskari o'qilganida fonetik tarkibi o'zgarishsiz qoluvchi, ammo toponim hosil qiluvchi polindromlar: *Bobur* // *Rubob* (Surxondaryo v. Qiziriq t., Toshkent v. Yangiyo'l, Zangiota (2 ta), Bekobod t., Qoraqalpog'iston R. Beruniy t.), *Zomin* // *Nimoz* (Toshkent v. Bekobod t.), *Iska* // *Aksi* (Samarqand v. Kattaqo'rg'on t.), *Kakcha* // *Achkak* (Toshkent v. Yangiyo'l t.), *Sinon* // *Nonis* (Qashqadaryo v. Yakkabog' t.), *Sob* // *Bos* (Navoiy v. Nurota t.), *Toz* // *Zot* (Samarqand v. Qo'shrabot t.), *Shut* // *Tush* (Qashqadaryo v. Kitob t.), *Qili* // *Iliq* (Jizzax v. Jizzax t.) kabi.

3. Komponentning o'rnini almashtirish orqali hosil bo'luvchi polindrom toponimlar: *Bog'ubo'ston* (Farg'ona v. Beshariq t.) // *Bo'stonbog'* (Andijon v. Bo'ston t.); *Qumqayroq* (Andijon v. SHahrixon t.) // *Qayroqqum* (cho'l); *Anjirbog'* // *Bog'anjir* (Farg'ona v. O'zbekiston t., Buxoro v. Vobkent t.); *Boboxo'ja* // *Xo'jabobo* (Farg'ona v. O'zbekiston t.); *Konizar* // *Zarkoni* (Farg'ona v. Toshloq, Bag'dod t.); *Kosonsoy* // *Soykoston* (Namangan v. Kosonsoy t.); *Toshkechik* // *Kechiktosh* (Andijon v. Jalolquduq, Izboskan t.); *Avulmat* // *Ovulmat* (Andijon v. Ulug'nor t.) // *Matovul* (Toshkent v. Yuqori chirchiq t.); *Aqcha* (Andijon v. Jalolquduq t., Toshkent v. Ohangaron t.) // *Chaqa* (Samarqand v. Ishtixon t.); *Anjan* // *Janan* (Andijon v. Andijon shah.) // *Janon* (Jizzax v. Forish t.); *Alam* // *Amal* (Andijon v. Oltinko'l, Baliqchi t.); *Alqor* // *Qorla* (Farg'ona v. Buvayda t.) kabi.

S.Rospond qadimgi rus toponimlarini o'rganar ekan, toponimik variant deb bitta nomga turli formantlar qo'shilgan shaklni: *Валище-Валищево, Загорье-Загорьево, Высокое-Высоково* ba'zi hollarda turli toponimlarga bir xil formant yoki o'rin variantlari qo'shilgan hollarni tushunadi: *Березань, Дубень, Зувижень, Ртудень* kabi.

Polindromik toponimlarni shartli ravishda variant nomlarga kiritish mumkin, chunki bu o'rinda bitta joy nomining teskari aytilishi va o'qilishi natijasida yangi nomlar yuzaga kelmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М: СЭ, 1969. – С. 309.
2. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – Б. 162.
3. Худуд ул-олам (Мовароуннахр тавсифи). – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 19.
4. Роспонд С. Структура и стратиграфия древнерусских топонимов // Восточно-славянская ономастика. – М.: Наука, 1972. – С. 20-35.

Abdullayev Ziydobe Mansurovich
FarDU doktoranti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa dktori (PhD)

NEMIS TILIDA O'ZLASHGAN ANTROPONIMLAR QATLAMI

Annotatsiya: Maqolada nemis tili antroponimlarining o'zlashma qatlami, ya'ni boshqa tillardan olingan shaxs nomlari tahöllilga tortiladi.

Kalit so'zlar: antroponim, o'zlashgan qatlam, yahudiy, grek, lotin tillari, xristianlik

Аннотация: В статье анализируется аксимиляционный слой антропонимов немецкого языка, т.е. личных имен, взятых из других языков.

Ключевые слова: антропоним, аксимилированный слой, еврейский, греческий, латинский языки, христианство.

Abstract: The article analyzes the assimilation layer of anthroponyms of the German language, i.e. personal names taken from other languages.

Key words: anthroponym, assimilated layer, Jewish, Greek, Latin languages, Christianity

Nemis tili antroponimik tizimi asrlar davomida bir necha tillar ta'siri ostida shakllangan va bevosita o'zga tillardan tilning antroponimik tizimi ham boyishiga imkon yaratilgan. Xalqaro ijtimoiy aloqalarining rivojlanishi xalqlar o'rtasida chet tildan kirgan ismlar paydo bo'lishiga turtki bo'ladi. Xristianlikning tarqalishi, urushlar, savdo-sotiq aloqalari ham chetdan kirgan ismlar tarqalishiga imkon yaratgan. Bugungi kunda nemis tili ismlari ichida asosan yahudiy, grek va lotin tillaridan kirgan so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Yahudiy tilidan o'zlashgan ismlar: Yahudiy tilidan o'zlashgan ismlarning asosiy qismi Bibliyadan olingan, shuningdek diniy bo'lmagan yahudiy ismlar ham mavjud.

Mazkur ismlar sodda, qo'shma so'z va gap ko'rinishida uchraydi. Sodda yahudiy ismlarga quyidagilarni misol tariqasida keltirish mumkin: *Jonas* (kabutar), *Lea* (yovvoyi sigir), *Sara* (boshqaruvchi, hukmron). *Benjamin* (baxtli o'g'il), *Absalom*/*Absolon* (tinchlik otasi) kabilar qo'shma yahudiy ismlar hisoblanadi. Gap ko'rinishidagi yahudiy ismlar asosan diniy yoki maqto'v, shukronalikni ifodalaydi. M: *Josua* (Xudo yordam), *Zacharias* (Yagva (Oliy zot) eslovchidir), *Jonatan* (Yagva (Oliy zot) bergan). Yahudiy ismlar davrlar davomida turli tovush o'zgarishlariga uchragan, masalan rus ismi hisoblangan *Ivan* ham yahudiy *Jan* shakli o'zgarishi asosida shakllangan.

Nemis tiliga grek tilidan o'zlashgan ismlar: Grek ismlari ham asosan ikki qismdan iborat. Mazkur ismlarda ham ism ma'nosi muhim hisoblangan: *Sophokles* - *sofós* - „dono/aqli“ va *kles* - „mashhur“. Grek ismlari ham german qabilalari ismlari singari



jang, hukmronlik, din, otlarni boshqara olish kabi ma'nolarni anglatadi. Asosan qullar bir bo'ginli ismlar bilan atalgan, erkin grek ismlari asosan qo'shma so'z ko'rinishida bo'lgan. Xristianlik dinining kirib kelishi bilan grek ismlari ham keng tarqala boshlagan: *Barbara, Georg, Melanie, Sebastian, Sofia, Alexander, Andrej, Filip, Helena, Katarína*

Nemis tiliga lotin tilidan o'zlashgan ismlar: Qadimgi lotincha shaxs nomlarining o'ziga xos jihatlaridan biri ularning uch qismdan iboratligidir: *Marcus Tullius Cicero* – ism, jinsni ifodalovchi nom va mansabi. Vaqt o'tishi bilan mazkur tendensiya yo'qolib boradi va nemis tiliga faqat bir qismdan iborat ismlar o'zlashgan. Quyidagi shaxs nomlari Rimda keng tarqalgan: *Antonius, -a, Aurelius, -a, Emil, -ia, Caecilia, Claudius, -a, Cornelius, -a, Fabius, Fabian, Hortensia, Julius, -a(na), Livia, Lucretia, Marius, Maximilianus, -e, Olivia, Octavius, -a, Valerius, -a*. Qadimgi rimliklar ismlari shaxs qayerda yashashi (*Marina* – „dengiz bo'yida yashovchi“), tashqi ko'rinishi asosida *Magnus* – „ulkan/katta“, hayvon nomlari *Leo* – „sher“, orzu -istaklari asosida (*Victor, Victoria, Vincentius* – „g'olib/zafar“) ham nom berganlar.

Nemis tiliga roman tillaridan o'zlashgan ismlar: Lotin tiliga qaraganda roman tillaridan nemis tiliga kamroq ismlar o'zlashgan. Ispan tilidan *Elvira, Ramon(a), Karmen*; Italyan tilidan *Bianca - Bianka, Rita, Sandra*; Fransuz tilidan *René, Yvette - Iveta, Denis* kabi ismlar o'zlashgan. Shuningdek, nemis tiliga yana ko'plab tillardan shaxs nomlari olinganini kuzatish mumkin. Masalan kelt tilidan *Brigitte - Brigita, Arthur – Artúr; nger tilidan Ilona, Marika, Zoltán* kabilar kirib kelgan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hech bir til antroponimik tizimi boshqa tillar antroponimik tizimi ta'sirirsiz shakllanmaydi va shunga mos holda nemis tili antroponimlari ham o'zining tarixiy shakllanish davomida yahudiy, lotin, grek kabi tillaridan antroponimlar orqali boyigan va ularning ko'plari hozirgi kunda ham nemis zabon ota-onalar tomonidan frazandlariga ism sifatida qo'yilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

Kunze, Konrad: dtv-Atlas Namenkunde. Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. Berlin: Directmedia Publishing GmbH. 2005. S. 97.

Nubling, Damaris/Fahlbusch, Fabian/Heuser, Rita (2015): *Namen. Eine Einführung in die*

Onomastik. 2., uberarbeitete und erweiterte Aufl., Tübingen: Narr Francke Attempto.

Ziyodbek M. Abdullaev. (2022). The Name as an indicator of cultural and social development. *Oriental Journal of Philology*, 2(02), 15–19.



METAFORA VOSITASIDA
ZOOMORF TAVSIFINING SHAKLLANTIRILISHI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek va nemis tillari frazeologiyasidagi hayvon nomlari bilan bog'liq qiyosiy tahlillar metafora vositasida tavsifi shakllantirilgan. Badiiy adabiyotlardagi metaforik vositalar bilan bog'langan zoomorfik birliklarning qiyosiy tahlillari keltirilgan. O'rganilayotgan frazeologik birliklarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qilgan zoomorfik tasvirlar ya'ni hayvonlarga xos bo'lgan xususiyatlar qiyosiy tahlillar orqali ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Metaforik birliklar, hayvon nomlari, frazeologik birliklar, zoomorfik tasvirlar, qiyosiy tahlillar.

Аннотация. В статье сформулировано метафорическое описание сравнительных анализов, связанных с названиями животных во фразеологии узбекского и немецкого языков. Приведен сравнительный анализ зооморфных единиц, связанных метафорическими средствами в художественной литературе. Основой для создания изучаемых фразеологизмов послужили зооморфные образы, т. е. особенности, присущие животным, выявляемые посредством сравнительного анализа.

Ключевые слова: Метафорические единицы, названия животных, фразеологические единицы, зооморфные образы, сравнительный анализ.

Annotation. The article forms a description by means of metaphor of comparative analysis related to animal names in the phraseology of the Uzbek and German languages. Comparative analysis of zoomorphic units connected by metaphorical means in fiction is presented. The zoomorphic images that served as the basis for the creation of the phraseological units under study, that is, the characteristics characteristic of animals, are revealed through comparative analysis.

Key words: Metaphorical units, animal names, phraseological units, zoomorphic images, comparative analysis.

Badiiy adabiyotning ko'plab namunalarida uslubning ta'sirchanligini syujetlar salmog'ini kengaytirish va kitobxon e'tiborini toffish maqsadida ko'plab hayvonlar xarakterlari va ularning nomlaridan foydalanib kelishiga sabab bo'lgan. Jumladan, ayyor odamlarni tulkiga, ahmoq, landovur odamlarni bo'riga, ayyor shu bilan birga o'ziga yarasha dono odamlar esa ilonga, beg'am betashvish hayotda faqat rohatda yashovchi odamlarni esa aylqqa xos xislatlar va nomlar bilan bayon qilgan holda o'xshatib kelinadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, bu hayvon shakllarning har biri asar matnida o'ziga xos uslubiy vazifani bajargan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, salbiy xulq-atvorga va xarakterga ega bo'lgan insonlar doimo yiftqich va vaxshiy hayvonlarga, ijobiy va ezgu fazilatli insonlar esa har doimo hayvonlariga o'xshatib tasvirlangan.

Zoomorfizmlarni o'rganish va ularni tahlil qilish o'zbek va nemis tilshunosligida o'ziga xos alohida ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishlardan biridir. Mazkur tillarda hayvon nomlari bilan bog'liq frazeologik biriklarni bir-biriga o'xshash hamda farqli tomonlari mavjud. Ularning yorqin va majoziy ma'noga ega ekanligi, hamda antropotsentrik tabiati



tilshunoslar olimlarning muhim tadqiqot yo'nalishiga aylanib bormoqda.

Nemis tilshunos olimlaridan V.Kramer va V.Sauerlar yuqorida keltirilgan etimologik tushunchalarni tadqiq qilganlari fikrimizni yaqqol tasdig'idir. Ikkala tilning ham frazeologiyasida turli xil hayvonlar, hasharotlar va qushlarning tasvirlari uchraydi. Masalan it (der Hund) bilan bog'liq bo'lgan zoomorfizm o'zbek va nemis adabitiyotlarida o'ziga xos bo'lgan nomlar bilan kundalik turmush tarzida keng qo'llaniladi.

Nemis xalqi o'zlarining itlarga bo'lgan munosabati va g'amxo'rligi bilan boshqa xalqlardan alohida ajralib turadi. Chunki ular itlarni sevib, ularga o'zgacha mehr bilan munosabatda bo'lishadi. Nemis xalqi uchun itlar, birinchi navbatda, sodiq hamrohdur. U qadim zamonlardan to hozirgi kungacha insonlarga hamroh bo'lib kelmoqda. Shunday bo'lishiga qarmasdan, ba'zi bir nemis lingvistik madaniyat namunalari itning tasviri noaniq va ba'zan salbiy xususiyatlar bilan ifodalangan. Buni quyidagi salbiy frazeologik birliklarda ko'rishimiz mumkin: Masalan "Kein bunter Hund schaut dich an" – sen hech kimga kerak emassan, hech kim senga e'tibor bermaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, it obrazi har doim ham ijobiy tasvirlanmaydi. Ba'zan "der Hund" zoomorfizmi orqali bu hayvonga xos bo'lmagan dangasalik, ishonchsizlik kabi sifatlar insonlardagi ba'zi salbiy xususiyatlarni ochib berish uchun qo'llaniladi. Masalan "den Hund hinken lassen" insonlardagi "dangasalik", "makkorlik", "ishonchsizlik" kabi xususiyatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

O'zbek xalqi uchun ham it - bu uy hayvoni, insonning eng qadimgi va birinchi do'sti, ovda yordamchi, qo'riqchi, yo'lbo'shchi hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan ba'zan ko'plab salbiy o'xshatishlar bilan ifodalanishi ham uchrab turadi. Masalan, "Mana, yuribsan, itning keyingi oyog'i bo'lib!" [1] iborasi hamma ishda orqada qolgan, dangasa, ishyoqmas insonlarga nisbatan qo'llaniladi yoki "Qo'tir itdek bir ko'ylakda dildirab turibman" [2] gapida nochor, yupun, bechoraxol kabi holatlarlardagi insonlar tasvirlanadi. "O'zing Ibrohimbekni bu yerdan daydi itdek haydab yuborgan ekansan - ku?" [3]. O'zbek tilida boshpanasiz, hech kimga kerak bo'lmagan, g'arib kimsalarga nisbatan "daydi it" zoomorfizmi qo'llaniladi.

Shu bilan birga, o'zbek xalqida boshqalarga nisbatan g'azablangan va tajovuzkor holatdagi odamlarni tavsiflash uchun ham itning tasviriga murojaat qilishlari mumkin. Masalan: "qoraxitoylar bilan mo'g'ullar ham ulardan qolishmaydigan darajada ko'ppakdek tajovuzkor ekan. Bo'lmasa, Chingizxonning mag'rib sari sudralib kelishi - ularning qonida bor. Bunda o'zlariga go'r topadilar! Yahudiylar raqibiga kopog'on itdek, to'satdan tashlanib qolishar ekan". Keltirilgan misoldan ko'rish mumkinki, bu yerda ko'ppak-itobrazinisalbiy buyoqdorligin yanada oshirgan. "Jangari ko'ppakdek tashlandi unga qoni ko'pirgan To'lqinboy" [4]. "Birovlarga laychadek yaltoqlangan bu xumpar, egasi olqishlasa, boshqalarni quturgan ko'ppakdek qopishdan toymaydi-da! Mana shunisidan qo'rqqulik" [5]. O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishicha "ko'ppak" so'zi ikki xil ma'noda qo'llaniladi:

Qo'riqllovchi itlarning xashaki bir zoti. [Madina] Zanjirini uzib yuborguday tashlanib vovullayotgan so'qimdek ko'ppakning dag'dag'asiga ham qaramay, ichkariga kirdi (Mirmuhsin, Chodrali ayol).

Shunday itga nisbatli haqoratni (nisbatlashni) bildiradi. Ali meshkobchi ichida: Sen ko'ppakning qo'lingdan shu ish keladi, albatta, dediyu, indamay jo'nab ketdi (Mirmuhsin, Me'mor — Ha noinsof, ha ko'ppak! — Qoratoy boyni so'ka boshladi (Oybek,



Tanlangan asarlar) [6]. Shuningdek, o'zbek tilidagi singari nemis frazeologiyasida ham bu hayvonning tajovuzkorligini ko'rsatadigan iboralar uchraydi. Masalan, "Stumme Hunde beißen gern" iborasi jimgina yurib ishini bitiradigan insonlarga nisbatan qo'llaniladi: "hat man so vor ihrem Zorn keine Not bellenden Hunden stopft man das Maul mit Brot es wird nichts so heiß gegessen, wie es gekocht wird hüte dich vor Katzen, die vorne lecken und hinten kratzen stumme Hunde beißen gern wer droht" [7].

O'zbek va nemis madaniyatida ham it zoomorfizm sifatida "charchagan", "xorg'in", "ishi ko'p" insonlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Masalan, "So'ng yovdan qochayotgandek og'zini kuydirib, shoshib - pishib ovqat ichayotgan eriga qarab, uning rostdan ham itdek charchab kelishiga ishonsa ham, shu safar dili og'ridi: Men o'ynab kelyapmanmi?" [8]. Nemis tilida ba'zan boshqalar bilan kelisha olmaydigan, tezda murosaga kela olmaydigan odamlarga nisbatan "leben wie Hund und Katze" iborasi qo'llaniladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida keltirilishcha "it - mushuk" iborasi bir - biri bilan hech chiqishmaydigan, janjalli munosabatga ega kishilarga nisbatan ishlatiladi: "Aleksandr masala jiddiyligini tushundi, chunki er-xotin ikkovi it- mushuk bo'lib otasining avvalgi urishganda ham Mariya biron marta Aleksandrni nonushtasiz qoldirmagandi" [9]. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nemis tilidagi ba'zi frazeologik birliklardagi nomlari keltirilgan hayvonlarning matn ma'nosi bilan bilan hech qanday aloqasi bo'lmaydi. Masalan: "vor die Hunde gehen" iborasi it bilan emas balki tog'-kon metallurgiyasi bilan bog'liq birlik hisoblanadi.

Avvalgi paytlarda yaxshi ishlamagan konchilar jarimaga tortilgan. Ayblanuvchi orqasidan "Hunte" deb nomlangan og'ir aravani tortib yurishi kerak edi. Bunday anglashilmovchilik natijasida yuqoridagi ibora vujudga kelgan. Bunday xatoliklar nafaqat nemis balki boshqa xalqlarning tillarida ham uchraydi. V.Kramer va V.Sauer kabi nemis tilshunos olimlari yuqorida keltirilgan etimologik noto'g'ri qo'llaniladigan tushunchalarni tadqiq qilganlar.

Tadqiqot davomida o'zbek va nemis tillaridagi it bilan turli tasvirlar qo'llanilishi o'rganildi. O'zbek va nemis tillaridagi it nomi bilan bog'liq zoomorfik birikmalar berilgan matnlarni qiyosiy tahlil qilish orqali ikki til madaniyati, turmush tarzi o'rtasidagi o'xshashlik va farqli xususiyatlar aniqlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulaziz Safiy. E'tiqod: fitratga qaytib. Toshkent. «Hilol-nashr» 2022, 112 b.
2. Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. – Leipzig, 1982.
3. Gyote I.V. Yosh Verterning iztiroblari: roman. Yanglish Egamova tarjimasi. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. – B.21.
4. Hammer F. Feste Wortpaare im französisch und deutschen Sprachvergleich. Tübingen, 1993.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: Talqin, 2005. – b.17.
- Madvaliyev A va boshqalar. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston nashriyoti".
6. Toshkent – 2021.
7. Maxmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. 6-sinf ona tili darsligi. - Toshkent: Tasvir, 2017 y. –B.56.



8. Mirsagatow T.S. Deutsche Grammatik. Morphologie. – Taschkent: Fan, 1974. -S.18.
9. Маковский М.М. «английская этимология». М., Высшая школа, 1986.
10. Norkuziyeva D. Nemis va o'zbek tillarida fe'l qolipli so'z birikmalari// Science and Education. 2021. №4.2021.– B.444-449.
11. Norkuziyeva D.Sh. Badiiy adabiyotda zoomorfizmlarni qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari. Zamonaviy tilshunoslik va derivatsion qonuniyatlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. - Samarqand: SamDCHTI nashri, 2022. – 147- 149 b.
12. Sharq yulduzi jurnali. Sharq gashriyoti. Toshkent. 1990. - 137 b.

Umarova Zumradxon Avazxon qizi
Qo'qon davlat pedagogika instituti

TILSHUNOSLIKDA BAHO MUNOSABATINING O'RGANILISHI

Annotatsiya. Baho munosabati muammosi ko'p yillardan beri insoniyatning ko'plab sohalarida tadqiqotchilarning e'tiborini tortib keladi. Insonning baholash faoliyati ko'plab va ko'p qirrali tadqiqot ishlarida tasvirlangan. Tadqiqotchilar “baho munosabati” ni psixologik, mantiqiy, falsafiy va lingvistik nuqtayi nazarlardan tahlil qilishga urinishgan. Bu bahoning yuzaga kelishi qiyin jarayonligi bilan bog'liqdir, bunda ma'lum bir voqea-hodisani nafaqat idrok etish, balki mavjud hayot modeli yoki insonning shaxsiy fikrlari, his tuyg'ulari bilan qiyoslash talab qilinadi va keyin natija tahlil qilinadi. Biz, bu maqolada, bahoni lingvistik birlik sifatida tahlil qilamiz.

Kalit so'zlar. baholash, pragmatika, baholash obyekti, subyektiv baholash, semantika, kognitiv lingvistika

Аннотация. Проблема ценового отношения уже много лет привлекает внимание исследователей многих областей человечества. Оценочная деятельность человека описана в многочисленных и разноплановых исследованиях. Исследователи пытались проанализировать «ценностное отношение» с психологической, логической, философской и лингвистической точек зрения. Это связано с трудным процессом оценки, который требует не только восприятия определенного события, но и сравнения с существующей жизненной моделью или личными мыслями и чувствами человека, а затем анализируется результат. В данной статье мы анализируем класс как языковую единицу.

Ключевые слова: оценка, прагматика, объект оценки, субъективная оценка, семантика, когнитивная лингвистика.

Annotation. The problem of value has attracted the attention of researchers in many fields of humanity for many years. Human evaluation activity is described in numerous and multifaceted research works. Researchers have tried to analyze the “value relation” from psychological, logical, philosophical and linguistic points of view. This is related to the difficult process of evaluation, which requires not only perception of a certain event, but also comparison with the existing life model or personal thoughts and feelings of a person, and then the result is analyzed. In this article, we analyze the grade as a linguistic unit.



Key words. assessment, pragmatics, assessment object, subjective assessment, semantics, cognitive linguistics.

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda muammolarni aksiologiya kategoriyalari sanalgan etika, estetika va etnokulturologiya yo'nalishlari bilan bog'liqlikda o'rganish ahamiyati ortib bormoqda. Baho haqiqatning "subyektiv shaxs ko'zgusidagi aksi" bo'lganligi tufayli "antropotsentrik" tushunchalardan biri hisoblanadi. Baho, L.A.Sergeyeva ta'kidlashicha, "subyektning obyektga alohida, qadriyatga asoslangan munosabatining namoyon bo'lishi natijasi bo'lib, uning o'ziga xosligi ongli maqsadlilikdir, subyektning pozitsiyasidan, ya'ni baholovchi insonning nuqtayi nazaridan mavjud munosabatning xarakteri aniqlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda baho tushunchasi, uning mazmuni, ko'lami, tabiati va lisoniy kategoriya sifatidagi faoliyati faol muhokama qilingan (V.I. Abayev, N.D.Arutyunova, E.M.Volf, O.V.Saxarova, V.N.Teliya, V.A.Vasilenko, M.V.Pimenova, V.I.Shaxovskiy, A.A.Ivin, A.F.Juravlev, M.A.Lyukyanova, L.N.Stolovich, T.V.Markelova, M.Yakubovich va b.).

Hayotning turli xil hodisalarini baholash shaxsning kognitiv faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Inson tabiati nafaqat atrofdagi obyektlarning o'ziga xos belgilari, xususiyatlarini bilishga, balki ularni ma'lum bir pozitsiyalardan, nuqtayi nazaridan baholashga, afzallik va kamchiliklarini aniqlashga intiladi. Arutyunova o'zining "Asl insoniy kategoriyalar" nomli asarida bahoni "shaxsning jismoniy va ruhiy tabiati, uning borlig'i, hissiyotlari, tafakkuri, faoliyati, boshqa shaxslarga va voqelikka munosabati, san'atni idrok etishi bilan belgilanadi," deydi.

Baholashda semantik va pragmatik jihatlar ajralmasdir, uning faoliyatining barcha jihatlari semantika (til birliklarining ichki ma'nosi) va pragmatikaning (muloqot jarayonini amalga oshirish shartlari) uyg'unligini aks ettiradi.

Baholashning tuzilishini ko'rib chiqamiz. An'anaviy nuqtai nazarga ko'ra, u uchta asosiy qismga bo'linadi: baholash predmeti, baholash obyekt va baholash predikati (yoki baholashning asosi).

Baholash predmeti baholash tuzilmasining aniq yoki yashirin komponenti bo'lib, baho berilgan shaxs yoki jamiyatni ifodalaydi.

*Baholash obyekt*i baholanayotgan muhitning bir bo'lagi bo'lgan baholash bayonotining tarkibiy qismi hisoblanadi. Baholash obyektining xususiyati uning nafaqat ma'lum bir obyekt, balki butun vaziyatni, harakatni yoki fakti belgilash qobiliyatidir. Har bir voqelik obyekt (narsa yoki holat, shaxs yoki hodisa) soni va tarkibi noaniq bo'lgan aksiologik jihatdan tegishli xususiyatlar to'plamiga ega: obyekt bir jihatdan ijobiy, boshqa tomondan salbiy xususiyatlar bilan tavsiflanishi mumkin.

Baholovchi predikat yoki baholash asosi gapning mohiyatini ifodalovchi tarkibiy qismi bo'lib, baholash va baholash strukturasi haqiqiy asosi hisoblanadi. Subyekt va obyekt o'rtasida ma'lum munosabatning o'rnatilishi va ifodalanishi baholashning mazmuni yoki xarakterini tashkil qiladi.

Shunday qilib, tilshunoslikda baholash shaxsning og'zaki ifodalagan baholash faoliyati natijasi, so'zlovchining nutq mavzusiga munosabati tushuniladi. Baholashda subyektiv va obyektiv omillar doimo o'zaro ta'sir qiladi va ularning har biri ham baholash subyektiga, ham baholash obyektiga ta'sir qiladi.



Majburiy sanalganlarga qo'shimcha ravishda, baholash tuzilmasi ixtiyoriy elementlarning mavjudligini tahmin qiladi. Baholash strukturasining ixtiyoriy elementlariga fikrning aksiologik predikatlari, idrok, sezgi, motivatsiya, tasniflagichlar, intensivlashtirish va shuningdek deintensifikasiyaning turli vositalari kiradi.

Atrofdagi olamning predmet va hodisalarini, shu jumladan ularning lingvistik aksini o'rganish shuni ko'rsatadiki, atrofimizdagi dunyo betartib emas, balki o'xshash va farqli xususiyatlari tufayli ma'lum bir uni tashkil etuvchi obyektlar va hodisalarni ochib beradigan tarzda tuzilgan. Bu bizning ongimizga dunyo haqidagi bilimlarni toifalar tizimi - obyektlar va hodisalar, shuningdek, ularni bildiruvchi tegishli so'zlarning toifalari shaklida tasniflash imkonini beradi. Shunday qilib, dunyo tasvirining shakllanishi ma'lum bir asosiy tushunchalar yoki kategoriyalar to'plami asosida sodir bo'ladi. Muayyan fazilatlariga muvofiq taassurotlar oqimidan eng muhimini ajratib olish qobiliyati, funksiyalari va ularni sinflar yoki toifalarga ajratish, ya'ni dunyoni turkumlash qobiliyati inson aqliy faoliyatining asosidir.

Har bir toifa mazmunli ko'p qirrali va faqat boshqa toifalar bilan birlikda mavjud.

"Dunyo-inson-til" ontologik uchburchagiga ko'ra, N. N. Boldirev til kategoriyalarini uch turga birlashtiradi: leksik yoki analogik, grammatik va modal yoki baholovchi. Tilning gnoseologik vazifasi leksik kategoriyalarda amalga oshiriladi. Grammatik va leksiko-grammatik kategoriyalar tilning ontologik modelini ochib beradi. Modus yoki baholash toifalari inson ongining ontologiyasi, uning talqin qilish funksiyasi bilan bog'liq va dunyoning baholash modelini takrorlaydi.

Shuni ta'kidlash kerakki, baholovchi kategoriyalarning tuzilishi, shakllanishi va ularning lingvistik ifodasi muammosi yetarli darajada o'rganilmagan va shuning uchun batafsilroq o'rganish uchun alohida qiziqish uyg'otadi.

Biz N.N.Boldirevning baholovchi turkumlash deganda "obyektlar va hodisalarni baholash xarakteriga ko'ra tegishli baholash sinflari va toifalariga guruhlash tushunilishi kerak, ya'ni, baholovchi kategoriyalar tizimi (statik aspekt) yoki ob'ekt yoki hodisaning ma'lum bir baholovchi kategoriya (dinamik jihat) bilan aqliy o'zaro bog'liqligi mavjud».

Baholash toifalarining tabiati va tuzilishi asosan jamoaviy tizim bilan belgilanadi va insonning individual qadriyatlari, uning dunyoni idrok etishi, bu tabiiy muloqotda tildan foydalanish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu til tizimidagi va nutqdagi turkumlanishning ikki turi haqida gapirishga asos beradi. N.N.Boldirevga ergashgan holda, biz turkumlashtirishning birinchi turini tizimli turkumlash deymiz, u kishining dunyo haqidagi bilimni til birliklari ma'nolarida qayd etilgan shaklda aks ettiradi. Ikkinchi tur - funksional toifalash - axborotni qayta ishlash jarayonida mulohazalar va bayonotlarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan har xil turdagi masshtablash va baholashni o'z ichiga oladi.

Turkumlashtirishning bu turi milliy-madaniy o'ziga xoslik xos bo'lib, u til birliklarining semantikasida ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. - М.: Наука, 1988. - 339 с.

2. Болдырев Н. Н. Категории как форма репрезентации знаний в языке // Концептуальное пространство языка: Сборник научных трудов. - Тамбов: ТГУ, 2005. - С. 16-39.



3. Болдырев Н. Н. Композиционная семантика. - Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2002. - Ч. 1. - 211 с.
4. Болдырев Н. Н. Структура и принципы формирования оценочных категорий // С любовью к языку: Сб. научных трудов. - Москва-Воронеж: ИЯ РАН, Воронежский государственный университет, 2002. - 492 с.
5. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. - М.: Наука, 1985. - 228 с.
6. Маркелова Т. В. Семантика и прагматика средств в выражении оценки в русском языке // Филологические науки. - М.: Министерство общего и профессионального образования Российской Федерации, 1995. - № 3. - С. 67-79.
7. Сергеева Л. А. Проблемы оценочной семантики. - М.: Изд-во МГОУ, 2003. - 140 с.

Mahsutaliyeva Shahrizoda Mahsutali qizi
QDPI O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-kurs magistranti

LEKSIK GRADUAL MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRUVCHI BIRLIKLARNING BOSHQA SEMANTIK HODISALARGA MUNOSABATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada leksik gradual munosabatlarni shakllantiruvchi birliklar (ot, sifat, son, ravish va iboralar,) misolida ko'rib chiqildi va misollar ilmiy asoslandi.

Kalit so'zlar: graduonimiya, graduonimik munosabat, integratsiya, leksema va frazemalar, antonimiya, leksik-semantik hodisa, differensiya, sinonimiya, graduonimik zanjirlar, leksik-sinonimik qatorlar, leksik, frazeologik va leksik-frazeologik graduonimik munosabatlarni shakllantiruvchi vositalar.

Tilshunoslik nazariyasi va til o'qitish metodikalarida an'anaga ko'ra leksemalarni leksikologiyada, frazemik birliklarni (iboralarni) esa frazeologiya bo'limida o'rganilib kelindi. Vaholanki, leksema va frazemalar lug'aviy tizim semantikasida uzviy bog'liq holda o'rinishadi hamda ma'nodoshlik, zid ma'nolilik singari semantik munosabatlar integratsion holatda shakllanadi. Bu qonuniyatdan gradual munosabatlar ham mustasno emas. Chunonchi: ***ammamning buzog'i*** iborasining o'z ma'nosi bilan *lapashang, lavang, epashang, bo'shang, landavur, noshud, so'tak, bo'sh-bayov, latta* sinonimik qatoridan joy olishi, tabiiydir.

Mazkur leksik-sinonimik qatorlar sirasida graduonimik munosabatlar yoki graduonimik zanjirli hodisalar aniq ko'zga tashlanib turadi. Masalan: *kamchil ~ tanqis ~ kamyob ~ anqoning urug'i, kerilmoq ~ kekaymoq ~ gerdaymoq ~ burnini ko'tarmoq ~ ko'kragini ko'kka tirarmoq yoki achchiqlanmoq ~ qoni qaynamoq ~ g'azablanmoq ~ tepa sochi tikka bo'lmoq ~ qahrilanmoq* kabi.

Umuman olganda, leksik-frazeologik semantik hodisaga asoslangan graduonimik munosabatlar sinonimiyani shakllantiruvchi usullaridan, vositalardan biri sanaladi.. Chunonchi: *oz ~ daryodan tomchi, xursand bo'lmoq ~ do'ppisni yarimta qilmoq, toza ~ yog' tushsa yalagudek, astoydil ~ jonini jabborga berib, ozgina ~ ikki og'iz, ayyor ~ ilonning yog'ini yalagan, kutmoq ~ yo'liga ko'z tutmoq, mizg'imoq ~ ko'zi ilinmoq, birpasda ~ ko'z ochib yumguncha, xafa ~ ko'ngliga qil sig'maydi, anqov ~ og'zing qani*



desa qovog'ini ko'rsatadi, hurmat qilmoq ~ soyasiga ko'rpacha solmoq, kuchli ~ tog'ni ursa talqon qiladigan singari.

Leksik-semantik sathdagi leksik-graduonimik munosabatning ikki denotativ asosini ko'rish mumkin: 1) bir nisbiy sifat tarkibidagi (me'yoridagi) miqdoriy gradual munosabatlar (masalan, suvning harorati oshib borishi bilan bog'liq bo'lgan holatlari (sovuq ~ iliq ~ qaynoq), 2) tadrijiy sifat o'zgarishlari yo'nalishidagi bosqichli gradual munosabatlar (muz ~ suv ~ bug'). Mazkur har ikki gradual munosabatli ko'lam bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning lisoniy va nutqiy ifodalarining mavjudligi, muhim hodisadir.

Leksik gradual munosabatlarning shakllanishi bilan bog'liq mazmuniy ko'lamlarda bir tomonlama yo'nalish (*chaqaloq → go'dak → bola → o'smir → yigit* singari), aylanuvchan yo'nalish (*yoz → kuz → qish → bahor → yoz*), markazdan qarama-qarshi tomonlarga yo'nalish (*sovuq ← iliq → issiq, kambag'al ← o'rta hol → boy*) singarilar mavjud.

Gradual zanjirlarni hosil qiluvchi bo'g'inlar, boshqacha aytganda, graduonimik munosabatlarni shakllantiruvchi vositalar o'zaro turlararo (*xalta ~ qop ~ qanor, yomg'ir ~ qor ~ do'l, qish ~ bahor ~ yoz ~ kuz* kabi), qism-butun (*hovli ~ mahalla ~ shahar, oila ~ urug' ~ jamiyat* kabi) singari munosabatlarni ham shakllantirish xususiyatiga ham egadirlar.

Umuman olganda, gradual munosabatlarning shakllanishi leksemalararo, frazemalararo va leksema hamda frazemalarning oralarida ifodalanishi mumkin. Mazkur holatlarga asoslanib, leksik, frazeologik va leksik-frazeologik graduonimik munosabatlarni shakllantiruvchi vositalarga ajratish mumkin.

Leksik gradual munosabatlarning shakllanishi maxsus gradual qatorlarda yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham gradual munosabatlar qatori, qator a'zolari hamda ushbu birliklar orasidagi munosabatlar haqida fikr yuritish lozim bo'ladi.

Gradual munosabatlarning shakllanish qatorining eng muhim belgisi unda "integratsion belgi"larning ortib yoki kamayib borishidir. Anglashiladiki, leksema va frazemalar bir umumiy vosita – integratsion belgining ozlik-ko'plik gradual zanjirlari bo'yicha o'zaro semantik-funksional bog'lanishlar hosil qiladi.

Graduonimik munosabatlar yoki zanjirlar mohiyatan uch va undan ortiq komponentli (qismli) qatorlarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunga qaramay, gradual zanjirli qatorlarining lisoniy ko'rinish jihatdan ikki komponentli turi ham bordek ko'rinadi. Masalan, jo'ja~tovuq zidlanuvini olib ko'raylik. Bu yerdagi asl hodisaga (mohiyatga) e'tibor qilinsa, unda tuxumdan endigina chiqqan jo'ja ... ikki kunlik jo'ja... bir oylik jo'ja... yetti oylik jo'ja / tovuq... besh yillik qari tovuq singari ontologik (fizilogik) gradual zanjirli bog'lanishlarga duch kelamiz. Demak, lisoniy lug'aviy nominativ bog'lanish, boshqacha aytganda, leksik nominatsiya tabiiy uzluksiz gradual zanjirlar qatorini umumiy tarzda ikki komponentga ajratgan va muayyan sema – "yosh" nuqtai nazaridan kichik holatdagi (tuxum berish holatiga qadar) sifatni bir leksema (jo'ja), undan keyingi tadrijiy bog'lanishlar bilan bog'liq bo'lgan va "yosh" jihatdan katta bo'lgan sifatni ikkinchi leksema (tovuq) tarzida nomlab qo'ya qolgan.

O'z-o'zidan anglashiladiki, gradual munosabatlar zanjirida har bir gradual qator a'zosining muayyan o'rni bor. Bu holatda semantik (ma'no) gradual holat (darajasi) hal qiluvchi qiymatga ega. Ba'zi gradual zanjirli qatorlarda o'zining keng ma'nosi bilan shu qator graduonimlari o'rnida qo'llana oluvchi leksema mazkur gradual zanjirlar qatoriga



kirmasligi ham mumkin. Chunonchi, “*odam*” leksemasi bilan “*chaqaloq*” ~ “*go’dak*” ~ “*bola*” ~ “*o’smir*” ~ “*yigit*” graduonimik qatori o’zaro shunday aloqadadir.

Shu o’rinda ta’kidlash joizki, graduonimik zanjirli qatorlarga nisbatan ma’nodoshlik (sinonimiya)da voqe bo’ladigan dominanta a’zo haqida gapirish mumkin emas. Zero, ma’nodoshlik qatori aynanlik, graduonimik zanjirli qatorlar esa farqlilik asosida tashkil topadi yoki shakllanadi. Anglashiladiki, gradual munosabatlar zanjirida uchrovchi ma’nolarning tor-kengligi va biri o’rnida ikkinchisining qo’llana olishi bilan sinonimik dominantalarning qo’llanish xususiyatlari sifat jihatdan farqlanadi.

Lug’aviy gradual zanjirli qatorlarning aksariyatida belgining ozlik-ko’plik darajalari graduonimik munosabatlarni shakllantiruvchi birliklarning sememalarida bevosita aks etgan bo’ladi. Masalan, *yelvizak* ~ *shabad* ~ *shamol* ~ *bo’ron* singari.

Ba’zi hollarda esa umumiy belgining gradual munosabatni hosil qilishi gradul zanjirlarning umumiy tizimidagi tadrijiy tartibi zaminida bilvosita anglashiladi: *janub* ~ *g’arb* ~ *shimol* ~ *sharq*, *dushanba* ~ *seshanba* ~ *chorshanba* ~ *payshanba* ~ *juma* ~ *shanba* ~ *yakshanba* singari.

Graduonimik zanjirli munosabatlarda ko’pincha aniq bir belgininggina emas, aksincha u bilan uzviy bog’liq bo’lgan boshqa hamroh (yondosh) belgilarning ham izchil oshib (kamayib) borishi anglashilishi mumkin. Masalan, *chaqaloq* ~ *go’dak* ~ *bola* ~ *o’smir* ~ *yigit* ~ *chol* qatorida “yosh” belgisi hamkorlikda biologik, tafakkur, ijtimoiylikka munosabat kabi qo’shimcha belgilarning ham tadrijiy ravishda oshib borishi aks etadiki, bular, asosan, matnda voqelana oladi.

Demak, yuqoridagi umumiy belgilar shuni ko’rsatadiki, lug’aviy gradual munosabatlarni hosil qiluvchi shakllar leksik va frazeologik birliklar bilan bog’liq bo’lgan semantik hodisalarning turlaridan biri sanaladi.

Lug’aviy gradul munosabatlarning eslatilgan belgilari yig’indisidan kelib chiqib, uning o’ziga bog’liq yoki yondosh bo’lgan semantik hodisalarga munosabatini aniqlash mumkin.

Darhaqiqat, hozirgi davr tilshunosligi tadqiqotlari sifatining yangicha kasb etishi va uning tarkibiga ko’plab metodologik (barcha fanlarga xos) tushunchalarning kirib kelayotganligi, boshqacha aytganda, tilshunoslik va boshqa fanlar orasida o’zaro bog’lanish (integratsiya) yuz berayotganligi bilan bog’liqdir. Chunonchi, *izomorfizm*, *ierarxiya*, *maydon* (pole), *valentlik*, *lisoniy atomar tahlil* kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Gradual munosabatlar zanjiri, boshqacha aytganda, graduonimiya hodisasi va sinonimiya hodisalari o’zlarining subyektiv xususiyatlariga ko’ra farqlanadilar. Chunonchi, sinonimiya, ikki va undan ortiq leksema va frazemalar sememalarining aynanlik munosabatiga asoslansa, graduonimiya sememalar asosiy semalaridagi darajali farqlilik munosabatiga asoslanadi. Bundan anglashiladiki, sinonimlarda asosiy ma’nolarning tengligi, gradunimiyada esa teng emasligi ma’lum bo’ladi. Shuning uchun ham sinonimlarning biri ikkinchisni qo’llash, umuman, mumkin bo’lsa, graduonimik qatorlardagi yirik farqlilik bunga yo’l qo’ymaydi. Chunonchi: *yelvizak* ~ *shabada* ~ *shamol* ~ *bo’ron* singari.

Biroq ba’zi hollarda gradual munosabatlarni shakllantiruvchi leksemalar orasida gradual zidlanuv kichik yoki kuchsiz bo’lishi, sememalardagi o’xshashlik ortishi mumkin va mazkur holat ularda ma’noviy yaqinlikni (sinonimik jarayonlarga o’xshash) keltirib chiqaradi. Natijada ular ayrim matniy omillar hisobiga biri o’rnida ikkinchisini qo’llash



imkoniyatiga ega bo'lib qoladi. Demak, sinonimiya va graduonimiya doiralaridagi o'zaro almashinuvchanlik farqlarini to'g'ri anglash talab etiladi.

Umuman olganda, sinonimiya (ma'nodoshlik) va graduonimiya (farqlilik) munosabatiga doimo ular shakllanishining bosh omillari bo'lgan aynanlik (sinonimiya) va farqlilik (graduonimiya) nuqtai nazaridan tahlil etmoq lozim.

Gradual munosabatlarning antonimiya hodisasiga munosabati masalasiga e'tiborni qaratsak, bular aslida bir asosga tayanuvchi semantik hodisalar bo'lib chiqadi. Zeroki, graduonimiya va antonimiya leksik-semantik hodisalari differensiya xususiyatlar (farqlanuvlar) zaminida shakllanadi. Antonimiyaning an'anaviy va hozir keng tarqalgan belgilanishida bir gradonimik qatorning ikki chegara tomoni (aniq mavjud chekkalari) olinib, ushbu qatorning oraliq yoki yondosh farqlanuv munosabatlari baholashdan chetda qolgan. Bu holatni quyidagi gradual zanjirli jarayonlarda kuzatish mumkin: *yomon ~ qoniqarli ~ yaxshi ~ a'lo* gradual zanjirida yaqqol ko'rish mumkin. Bunda haqli ravishda shunday savol tug'iladi: Agar *yomon~yaxshi* (*yaxshi ~ yomon*) o'zaro antonim bo'lsa, shu qatorning qolgan munosabatlari (*yomon ~ qoniqarli, qoniqarli ~ yaxshi*) qanday bahonalishi lozim?. Bundan anglashiladiki, bu qatordagi har uch munosabat bir xil ko'rinishdadir. Shuning uchun ushbu qator noto'liq emas, balki to'liq tarzda semantik tahlil etiladigan bo'lsa, u holda eslatilgan qatorda, umuman, uch xil gradatsiyaga asoslangan munosabatni yoki keng ma'noda uch antonimik juftlik mavjud ekanligini, bulardan *yaxshi~yomon* katta farqlarga ega bo'lib, kuchli ziddiyatni tashkil etayotganligining, qolgan ikki juftlik esa u qadar katta bo'lmagan gradual farqlarga ega bo'lgan holda kuchsiz ziddiyatni shakllantirayotgan-liklarini shohidi bo'lamiz. Shunday qilib, graduonimik munosabatlarni aks ettiruvchi qatorlarga izchil va to'liq yondashish antonimlarning kichik, o'rta va katta farqliliklariga asoslangan turlarini qayd etishimizga olib keladi.

Umuman olganda, ko'p hollarda antonimiya graduonimiya asosida shakllanadi. Shuning uchun ham graduonimiya va antonimiyani sifat jihatdan boshqa-boshqa hodisalar, lisoniy-nutqiy jarayonlar sifatida bir-biriga qarshi qo'yib bo'lmaydi. Aslida graduonimiya semantik gradual munosabatlarga asoslangan bir umumiy yo'nalishli qator, boshqacha aytganda, umumiy yo'nalishli zanjir bo'lsa, antonimiya shu zanjirning turli qismlari (komponentlari) orasidagi semantik farqlanuvchanlik-zidlanuvchanlik munosabatlaridir. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, "antonimiya" tushunchasi doim juftlikka nisbatan, "graduonimiya" esa juftliklar tizimi, sistemasi bo'lgan zanjirlarga – *qatorlarga* nisbatan ishlatiladi. To'g'ri, ba'zi antonimik juftlikka nisbatan ham graduonimik zanjirli munosabatni hosil qiluvchi birlik atamasini qo'llash mumkin. Bunda ma'lum munosabatga ikki nuqtai nazardan yondashgan bo'lamiz: "antonim" tushunchasida farqlanuvchanlikka, "graduonim" atamasi orqali esa shu farqlanuvchanliklarning ma'lum belgi miqdorining oshishi yoki kamayishi orqali shakllanganligiga e'tibor qaratgan bo'lamiz. Demak, graduonimiya yoki graduonimik zanjirli munosabatlar antonimiyaga mohiyatan zid bo'lmay, uning umumiy yoki intgeratsion asosi – "umurtqa"sini, aniqroq aytganda, antonimik juftlik shakllangan butunlikni tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, leksik-gradual munosabatlarninig nutqiy voqealanishi leksema va frazemalar semantik-funksional tizmining shakllanish asosidir. Leksemalar tilda lug'aviy gradual munosabatlarni shakllantiruvchi barqaror (faol)



vositalar sanalsa, frazemalarning semantik qurilishlarida gradual munosabatlar ba'zan yorqin, ba'zan yashirin yuzaga chiqadi. Lug'aviy gradual zanjirli munosabatlarning ifoda ko'lami bo'lgan graduonimik qator bir umumiy (integral) atash yoki ifoda semalarining miqdoriy o'sishlari asosida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1992. -310 b.
2. Umidjon Yigitaliyev. The role of the linguistic atom "personality" in the philosophical reintegration of the language system// Web of Scientist: International Scientific Research Journal / 2021/11/29. -№11. -P. 384-390.
3. Umidjon Yigitaliyev, Shohruhbek Umidjonov. GRADUAL CONNECTIONS IN THE SYSTEM OF SENTENCE FRAGMENTS IN THE UZBEK LANGUAGE (under the influence of the linguistic atom "person") // International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) / ID: IJTSRD53953/ -P. 215-216.
4. Orifjonova Sh. O'zbek tilida lug'aviy graduonimiya. NDA. -T., 1996. -B. 10.
5. Bozorov O. O'zbek tilida darajalanish. DDA. -T., 1997.
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/graduonimicheskie-ryady-v-slovare-uzbeksikh-russkikh-i-angliyskikh-sinonimov/viewer>
7. <https://cyberleninka.ru/article/n/sinonimiya-i-leksiko-semanticheskie-varianty-polisemii-v-obuchenii-leksike-russkogo-yazyka>

Xoshimov Lutfullo Xabibullo og'li
1st -year master's student of foreign language and literature,
Kokand state pedagogical institute

THE CONCEPT OF COGNITIVE LINGUISTICS.

Аннотация. В статье объясняется, как когнитивная лингвистика имеет дело с пониманием, которое обрабатывается нашими когнитивными способностями и выражается в лингвистической форме. Основное внимание уделяется возникновению, приобретению и использованию языкового понимания. Таким образом, понимание языка может быть определено как предмет исследования в области когнитивной лингвистики..

Ключевые слова. Смысл, Понятие, Концептуальное значение, Коннотация.

Annotatsiya. Maqolada kognitiv tilshunoslik bizning kognitiv qobiliyatlarimiz tomonidan boshqariladigan va lingvistik shaklda ifodalangan tushunish bilan qanday shug'ullanishi tushuntiriladi. Uning asosiy maqsadi tilni tushunishning paydo bo'lishi, o'zlashtirilishi va ishlatilishiga qaratilgan. Shuning uchun tilni tushunish kognitiv tilshunoslikning tadqiqot predmeti sifatida belgilanishi mumkin.

Kalit so'zlar. ma'no, tushuncha, tushuncha ma'nosi, konnotatsiya.

Annotation. The article explains how cognitive Linguistics deals with the understanding that is handled by our cognitive abilities and is expressed in linguistic form. Its focus is on the emergence, acquisition, and utilization of language understanding.



Therefore, Language Understanding can be identified as the subject matter of research in cognitive linguistics.

Key words. meaning, notion, concept, connotation

Cognitive Linguistics must have its object and subject correspond to those of the two mentioned sciences as long as it is based primarily on the union of the two (Cognitive Psychology and Linguistics). However, they must not be confused with its subject and object.

Stipulation of the object and the subject of Cognitive Linguistics defining

Science	Object	Subject
Linguistics	Language as a system of language signs fixed in speech	Linguistic processes of language organization and its function in speech
Cognitive Psychology	Man's psychic cognitive activity as a form of getting, organizing, processing and remembering knowledge	Mental processes of organizing knowledge in human memory; peculiarities of the correlation of verbal and image components in the processes of remembering and thinking
Cognitive Linguistics	Language and cognition (mind) as a fundamental unity of language knowledge	Processing knowledge by thinking, operating it in cognition and its language form of realization

Humans in their activity interact with the surrounding reality, internal (the psychological reality of a personality) and external (a reality that surrounds a person or a society). In this interactivity we get some experience, process it (categorize and conceptualize), work out knowledge, and materialize it in a language form. The most valuable things become conceptual and serve as the ground for the World Picture foundations, which stipulates our behavior.

Displays of reality, objects/things/phenomena of the world around us, and inside us reflected by human cognition are called references. When getting in contact with references our cognition reacts to them – reflects them; we learn/cognize references: distinguish, value, analyze, categorize, conceptualize, and keep in memory as certain new cognitive constructs – ‘bricks of knowledge’.

To present certain knowledge to other people, and to communicate we denote corresponding references, and give them linguistic names. Thus, Language Signs appear – as certain substitutes for references; they substitute references in our cognition, and also, materially, in the process of communication, they mean some things/references for men.

Meaning is the idea that a Language Sign represents. We employ some meanings whilst using words in the process of communication.

It is summarizing and integrating knowledge about vital signs of a reference that results in appearing a notion.

The notion is the total sum of cognized essential signs of a connection; it includes necessary, essential signs.



Getting in contact with reality a man feels different emotions; thus, the meanings of references get also different connotative meanings.

The Connotation is a certain additional emotional meaning – an idea, or emotional coloring suggested by a Language Sign in addition to its meaning (-s). It varies in accordance with the World Picture of a person, group, society, or culture.

Integration of different meanings (lexical, connotative, grammatical, notional) of a reference or integration of different knowledge about it (a reference) results in appearing a conceptual idea about the reference – a concept. The concept implies an idea appeared as a result of the collision of a man's personal mental experience and a word's different meanings fixed in a particular language of a particular culture.

References:

1. Generative Grammar (linguist, psycholinguist Noam Chomsky), 1995.
2. Theory of embodied Cognition (cognitive scientists and linguists George Lakoff and Mark Johnson), 2012.
3. Theory of Knowledge Conceptualization (linguist, psycholinguist V. Levelt, 2001.

*Nigora Safarova,
Navoiy davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti
1-kurs magistranti,
Ilmiy rahbar: f.f.f.d. N.J.Yarashova*

“ONA” KONSEPTINING MUMTOZ MATNLARDA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. Har qanday xalq adabiyotida qadimdan hurmatga sazovor va diqqatni o‘ziga jalb qiluvchi obrazlar mavjud bo‘ladi. O‘zbek mumtoz adabiyotida ham ana shunday obrazlar mavjud va ushbu materiallar tilshunoslikning turli sohalari orqali o‘rganilishi mumkin. Ushbu maqolada “Ona” konseptining o‘zbek mumtoz adabiyotda, xususan, Imom al-Buxoriyning asarlarida keltirilgan hadislarida “konsept” darajasiga ko‘tarilganligini ko‘rib o‘tamiz.

Аннотация. В любой народной литературе есть образы, которые почитаются и привлекают к себе внимание испокон веков. Подобные образы есть и в узбекской классической литературе, и эти материалы можно изучать через различные области языкознания. В данной статье мы рассмотрим, как понятие «Мать» возводилось на уровень «концепт» в узбекской классической литературе, в частности, в хадисах, цитируемых в трудах Имама ал-Бухари.

Annotation. In any folk literature, there are images that are respected and attract attention from time immemorial. There are similar images in Uzbek classical literature, and these materials can be studied through various fields of linguistics. In this article, we will consider how the concept of “Mother” has been raised to the level of a “concept” in Uzbek classic literature, in particular, in the hadiths cited in the works of Imam al-Bukhari.

Kalit so‘zlar: konsept, hadis, “ona” konsepti, duo, tavba, hilm, silai rahm, toqat, toat-ibodat.



Ключевые слова: концепт, хадис, концепт «мать», дуа, покаяние, хильм, силаи рахм, терпимость, послушание.

Key words: concept, hadith, "mother" concept, dua, repentance, hilm, silai rahm, tolerance, obedience.

Mumtoz adabiyot o'zbek adabiyotining "gultoji" hisoblanib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishida ulkan hissa qo'shgan desak yanglishmagan bo'lamiz. Mumtoz adabiyot nafaqat til rivojiga, balki xalqning ongi, tafakkuri hamda uning "meni" shakllanishiga ham hissa qo'sha oladi. Jumladan, mumtoz adabiyotimizning durdonasi bo'lmish hadislarni fikrimizning dalili sifatida aytishimiz mumkin. "Ona" konsepti mumtoz adabiyotda, xususan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy kabi mashhur muhaddislar yaratgan hadis to'plamlarida kuzatiladi. Fikrimizni Imom al-Buxoriyning "Al-adab al-mufrad" hadislar to'plamidan keltirilgan hadislar orqali dalillaymiz.

Asar tili grammatik jihatdan soddaligi va omma uchun tushunarli bo'lganligi bilan xarakterli. Ushbu asarda "Ona" obraziga alohida e'tibor berilgan. Asarning 2-bobi aynan ona rizoligiga bag'ishlangan bo'lib, bir nechta hadislar keltirilgan. Ushbu hadisda "Ona" tushunchasi naqadar ulug'ligi, uning o'zgalardan ustun turishi va hattoki, onalarning duo qilishi orqali kechirilmasdek ko'ringan xatolarning ham avf etilishiga guvoh bo'lishimiz mumkin: *"Ato ibn Yasor raziollohu anhu aytdilar: "Abdulloh ibn Abbos raziollohu anhu oldilariga bir kishi kelib: "Men bir xotinga sovchi yubordim. U meni qabul qilmay, boshqa bir kishiga tegib ketdi. Jahlim chiqib, u xotinini o'ldirgan edim. Endi nima qilsam Alloh taolo tavbamni qabul qiladi?" – deb so'radi. Shunda Abdulloh: "Onang barhayotmi?" – deb so'radilar. U: "Yo'q, vafot etganlar", degan edi. Abdulloh: "Unday bo'lsa, Alloh taologa tavba qil va toqating boricha toat-ibodat qilib, unga yaqin bo'lishga harakat qil", – dedilar. Ato ibn Yasor aytdilar: "Men Abdulloh ibn Abbosga borib, siz nima uchun u kishiga: "Onang tirikmi?" – deb so'ratingiz?" – deb so'raganimda, u kishi Allohga onani rozi qilishdek maqbulroq hech bir amal borligini bilmayman. Shuning uchun onang tirikmi, deb so'ragan edim – dedilar". (2-b. 4-h)*

Shuningdek, hadislarda agar ota-onangiz boshqa din vakili bo'lgan taqdirda ham unga yaxshilik qilish kerak ekanligi ta'kidlanadi va yuqorida aytib o'tilgan asarda ham aynan ushbu masalaga e'tibor qaratilgan va bir qancha hadislar keltirilgan. Abu Bakrning qizi Asmoning islomni qabul qilmagan onasi Qaylabin Abdulizzoga nisbatan keltirilgan hadis fikrimizning dalilidir: *Abu Bakr Siddiq raziollohu anhunging qizi Asmo aytdilar: "Onam biror narsa umidida huzurimga keldi, unga silai rahm qilib biror narsa bersam bo'ladimi?" – deya payg'ambarimiz Muhammad sollohu alayhi vassallamdan so'radi. "Ha silai rahm qilsang bo'ladi" – dedilar.*

Yuqorida keltirilgan hadislar orqali ona konsepti naqadar qadrli ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki ona qaysi din vakili bo'lishidan qat'iy nazar, u o'z farzandlariga faqat yaxshiliknigina tilaydi va ulardan yaxshiliklar kutadi. Onasi tirikligida o'z amallari bilan ularni quvontirish, dunyodan o'tganlarida esa ular haqida duoda bo'lish farzandlarning burchidir. Navbatdagi hadisda ushbu xususida so'z boradi: *"Abu Nuhayla (r.a)dan rivoyat qilindi: "U kishidan: "Bir duo qiling!" – deb so'radilar. U kishi: "Ey, Alloh! Betoblikni kamaytir, ammo ajr-u savobingni kamaytirma", – deb duo qildilar. Yana: "Duo qiling!" deyilganda, u zot: "Ey, Parvardigorim! Meni O'zingga yaqin kishilardan qilgin, o'z onamni esa, jannatdagi huri aynlardan qilgin!" – deb duo qildilar".*



Xullas, o'zbek mumtoz adabiyoti juda boy manbalardan sanaladi. Biz ona konseptini mumtoz adabiyot namunalari orqali tadqiq etarkanmiz, bu tushunchaning nafaqat hadislarda, balki boshqa durdona asarlarda uchratishimiz ham mumkin va ular orqali yana kengroq ma'nolarni kashf etamiz.

Adabiyotlar:

1. Abdirasulov B.A. Konseptning lisoniy voqelanish jarayoni. // Science and Education Scientific Journal, 2020.
2. Imom Buxoriy. Al-jome As-sahih" (ishonchli to'plam). 4 jildlik, 1-jild. Zokirjon Ismoil tarjimasini. // www.Iymon.Uz
3. Imom Buxoriy. Al-adab Al-mufrad. // www.Forum.ziyouz.com
4. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.

Erkinova Sabohat Azamat qizi
TDO'TAU Lingvistika fakulteti magistranti

FONEMALARNING O'ZIGA XOSLIGI, REKLAMA MATNLARIDA ULARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. ushbu maqola reklama matnlarining tuzilishida fonosemantikaning o'zni, yutuq va kamchiliklari, taklif va mulohazalar o'rin olgan. Maqola O'zbekiston telereklamalariga asoslangan holda tayyorlandi.

Kalit so'zlar. reklama, reklama matni, fonosemantika, fonema, tv, konseptual tizim, taklif qiluvchi funktsiya.

Annotation. this article covers the role of phonosemantics in the structure of advertising texts, achievements and disadvantages, suggestions and considerations. The article was prepared based on Uzbek TV advertisings.

Key words. advertising, advertising text, phonosemantics, phoneme, tv, concept system, inviting function.

Аннотация. в данной статье рассматривается роль фоносемантики в структуре рекламных текстов, ее достоинства и недостатки, предложения и соображения. Статья подготовлена на основе телерекламы Узбекистана.

Ключевые слова. реклама, рекламный текст, фоносемантика, фонема, телевидение, концептуальная система, предлагающая функция.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda reklamalar XXI asr texnologiyalaridan ko'ra ko'proq yaratilmoqda va keng ommaga uzatilmoqda. Bu sohadagi rivojlanish shu darajaga borib yetdiki, butun bir boshli asar, kinolarning ma'nosini ham bir daqiqalik reklamaga to'g'ri tanlangan so'zlar, dilga xush yoquvchi, latif iboralar orqali joylash mumkin. Bilamizki, reklamalardan ko'zlangan maqsad xaridorni o'ziga jalb qilish va mahsulotni sotib olishga undash hisoblanadi. Bunda esa, reklama matnlaridagi ovoz, tembr, fonosemantik tuzilishning ahamiyati katta.

Hozirgi vaqtda olimlar uchun tilning mavjud bo'lish shakllaridan biri sifatida ovozli nutqni o'rganish alohida qiziqish uyg'otmoqda. Fonemaning vazifa va xususiyatlari qatoriga esa, uning tarkibiy elementlari ya'ni fizik xususiyatlarini aks ettiruvchi,



tarkibidagi insonga ta'sir qilish, undash, jalb qilish orqali nutqni faollashtirish masalalari tobora aktual mavzuga aylanmoqda.

Umuman olganda fonemalar inson tomonidan qabul qilinayotganda ya'ni dekodlash jarayonida *ikki xil* ko'rinishda qabul qilinadi:

1. Butun bir yaxlit so'z shaklidagi ma'nosi (masalan: maktab - ilk ta'lim, tarbiya maskani...) va undan so'ng yondosh holatlar, narsalar (o'qituvchi, sinfdoshlar, doska, so'nggi qo'ng'iroq...) ko'z oldimizda tiklanadi. Ayni shu holatdan so'ng gap nima haqida borayotganini payqaymiz va keyingi axbotrotni qabul qilishga tayyor turamiz. Bu holat aslida, so'z borayotgan tilda fikr almashish qobiliyatiga ega bo'lgan, balog'at yoshiga yetgan insonlarda kuzatiladi.

2. Fonemalarning bir eshitishda insonga, uning ruhiyatiga, qalbiga ta'siri hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ko'pchiligimizga ayrim ismlar ma'qul kelmaydi, yoki bo'lmasam farzandimizga ism tanlashda juda ko'p bosh qotiramiz. Chunki uning jarangdor, yoqimli talaffuz qilinishini, eshitganda quloqqa manzur kelishini istaymiz. Bunda biz ismlarni ma'nosini emas, aslida fonetik talaffuzini tahlil qilamiz. Yoki bizga yot tillardagi so'zlardagi tovushlar ketma-ketligi bizga yoqib qolib, o'z lug'at boyligimizga qo'shib qo'yishimiz mumkin. Nega aynan bunday bo'ladi? Sababi, biz ismlarni, so'zlarni fonetik jihatdan qabul qilyapmiz. Masalan: til oldi **s, z** tovushlarining nutqda ko'p qo'llanilishi insonni seskatirishi, yomon taassurot uyg'otishi mumkin. Yoki onalarning farzandiga **-tishsh** deya tinchlantirishi bunda **til oldi, portlovchi -t** tovushi e'tiborni jalb qilmoqda. **Jarangsiz sh** ning cho'zib talaffuz qilinishi tabiiy tovushni (suvning shivirlashiga o'xshab) hosil qilmoqda va tinchlantirish vazifasini o'tamoqda.

Bundan ko'rinadiki, har bir tovushning talaffuz o'rni maqsadiga ko'ra farqlanadi va o'z ma'nosiga ega. **Remboning "Unlilar" sonetini** eslang, unda har bir unli tovush ranglar bilan xarakteri bilan ajratilgan. Xuddi shunday undoshlar ham **A.P.Juravlev ning "Tovush va ma'no"** asarida o'rganilgan.

Olingan xulosalar shuni ko'rsatadiki, har bitta unli tovush jaranglilik xususiyati bilan ijobiy taassurot uyg'otadi. Nutqda unli tovushlardan ko'proq foydalanish tilni yanada go'zal, yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. *Unlilardan ko'p foydalanuvchi sifatida Xorazm shevasini* olaylik, ko'pchilik bu tilni yaxshi tushunmasada, uni tinglashni xush ko'radi. Bu shevaning boshqa shevalardan farqi **"a va i" unli tovushlari** ishtirok etgan so'zlarning ko'pligidir.

Quyida o'zbek alifbosiga masub bo'lgan tovushlarning inson ongida qanday hissiy taassurot uyg'otishi ko'rsatilgan:

A	kuch, quvvat, qulaylik
B	buyuklikni his qilish qobiliyati, barqarorlik
D	sodda, do'stona, injiq, ekstrasensor idrok etish qobiliyati
E	hayotiylik, aql-idrok, nutqiylik, ehtiros, o'zini namoyon qilish kuchi
F	noaniqlik, mazmunli, ammo yashirin ichki dunyo.
G	sir, tafsilotlarga e'tibor, vijdonlilik
H	sadoqat
I	noziklik, moslashish qobiliyati, g'oyalarning o'ziga xosligi, yolg'on gapirish qobiliyati
J	yetakchilikka, takabburlikka da'volar
K	chidamlilik, asabiylashish, tushuncha.



L	badiiylik, mayda-chuyda, mantiqiy, ajoyib ixtirochilik.
M	g'amxo'rlik, uyatchanlik, mehnatsevarlik, lazzatlanish.
N	ijodiy ambitsiya, sog'liqqa qiziqish, o'tkir aql.
O	ajoyib hissiyot, sirli hayajon.
P	kamtarlik, yolg'izlik, g'oyalar boyligi, tashqi ko'rinishga g'amxo'rlik qilish.
Q	jaranglilik, yumshoqlik, so'nish
R	o'ziga ishonch, doimiy taranglik
S	sog'lom fikr, depressiya, hukmronlik, injiqlik
T	ideal, sezgir ijodiy odamni izlash.
U	zaiflik, qo'rquv, saxiy hamdardlik, sezgi
V	nomuvofiqlik, sistematiklikning yo'qligi, tabiat bilan birlik
X	jinsiy muammolar, qonunga bo'ysunish, o'zgaruvchan tuyg'ular.
Y	tegishli bo'lish hissi, amaliylik, tuproq ruhi. Nozik ma'naviyat, ta'sirchanlik, tinchlik.
Z	moddiy norozilik, yuqori sezgi.
O'	buyuklik, tasavvur, hayrat
G'	ikkilanish, unutish, buzilish
SH	rashk, rivojlangan hazil tuyg'usi, murosasiz munosabat.
CH	saxiylik, oldinga intilish, aql.
NG	katta ambitsiyalar, haqiqatga intilish, muntazamlik yo'qligi, fidoyilik, shafqatsizlik.

Qizil katakchalardagi: **f, k, q, v, x, z, g'** tovushlari insonda asosan salbiy tushunchalar uyg'otadigan tovushlar sanaladi. Yashil katakchalarda berilgan tovushlar: **b, d, j, t, ch** ning joy nomlarida, ismlarda aks etishi ishonch, intilish kabi ma'nolar bilan, sonorlar: **l, r, m, n, ng** ikkilanishni, sirg'aluvchi tovushlar: **y, s, x, sh, h esa** beqarorlik, ishonchsizlikni aks ettiradi.

Tovushlarning reklama matnlarida qo'llanilishiga kelsak, matnda, asosan, *portlovchilar, jarangli* tovushlardan foydalanish tomoshabin e'tiborini jalb qilish imkonini beradi. Ularni matn boshiga, sarlavhalarda, sloganlarda foydalangan ma'qul. **Har kuning o'tar zavqli, Melek bilan lazzatli; Kango qani-Kango;**

So'nor tovushlarni hissiyotlarni fodalashda: **M-m-m Danone!; "Artel" – mening tanlovim!**

Bundan tashqari **tovushlarning takroriy kelishi** xotirada tez saqlanib qolishni ta'minlaydi: *T tovushining takror kelishi: Lipton. Tabiatning ta'mi!; Zizi- sendachi zizi bormi?(zizi ning takror kelishi); Qorinda yig'lsa dam- shifodir espumizan! (dam va zan o'xshash takrorlar); Fanta iching quvonchga to'ling! (iching va quvonchga so'zlaridagi ch tovushi takrori)*

Biror mahsulot bilan taqqoslash: Lays bilan birgalikda kino yanada mazaliroq!; Uelson bolaligingizdagi kabi uxlang.

Umumiy xulosa qiladigan bo'sak, har bir fonema alohida ma'no-mazmunga ega. Ularning so'z, so'z birikmalari, gap tarkibida bir biri bilan turlicha kelishi inson psixologiyasiga turlicha ta'sir qiladi. Reklama matnlarida, nimanidir targ'ib qiluvchi, shaxs psixikasiga bevosita ta'sir qilishni ko'zlagan nutqiy matnlarda asosan jarangli, unli tovushlardan foydalanish lozim. Bu uzatilayotgan axborotning ishonchliligini ta'minlaydi, ijobiy taassurot uyg'otadi.



Qofiya va takrorlardan foydalanish reklama orqali beriladigan axborot hajmini kamaytirib, esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi. Esda yaxshi saqlanib qolgan mahsulotni xarid qilinish ehtimoli boshqa tovarlarga nisbatan ancha yuqori. Reklama sarlavhasi, kirish so'zlarda portlovchi tovushlardan ehtiyotkorlik bilan foydangan ma'qul.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Журавлев А.П. Звук и смысл. Москва - 1991
2. Рекламный текст в современных СМИ — А. Назайкин - 2007
3. Тамбовцева О. Б. Лингвистические особенности английских радио- и телерекламных текстов: Учебно-методическое пособие. — М.: Национальный книжный центр, 2011.
4. Звегинцев В. Л. Семасиология. – М.: МПУ. 1957.
5. Phonosemantic means of expressiveness of advertising text (cyberleninka.ru)
6. fonosemanticheskaya-organizatsiya-teksta-reklamy-v-aspekte-lingvosinergetiki.pdf

Abdug'offorova Sarvinoz Maxsudali qizi

Farg'ona davlat universiteti

Lingvistika(o'zbek tili)yo'nalishi

2-kurs magistranti

QOBILJON SHERMATOV ASARLARIDA QO'LLANILGAN ISMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ismlarning badiiy matndagi o'rni, xususan, Qobiljon Shermatov qissalarida poetik aspektning badiiy ahamiyati yoritib berilgan. Lingvopoetik aspektda ismlardan foydalanilishi yozuvchining asardan ko'zlagan maqsadini yoritishga xizmat qilgan. Badiiy matndagi g'oyani yoritishda maqsadli tanlangan ismlar va ularning ma'nosi yozuvchi uchun muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Kalit so'zlar. Badiiylik, lingvopoetika, poetik nutq, emotsional-ekspressivlik, ismlar, real nomlar, antroponimlar, onomastika, poetik maqsad.

Аннотация. В данной статье выделена роль имен в художественном тексте, в частности художественное значение поэтического аспекта в рассказах Кабилжона Шерматова. Использование имен в лингвопоэтическом аспекте послужило освещению цели писателя в произведении. Целенаправленно подобранные имена и их значение служили писателю важным инструментом в раскрытии идеи в художественном тексте.

Ключевые слова. Искусство, лингвопоэтика, поэтическая речь, эмоционально-выразительность, имена, настоящие имена, антропонимы, ономастика, поэтическое назначение.

Annotation. In this article, the role of names in the artistic text, in particular, the artistic significance of the poetic aspect in the stories of Kabiljon Shermatov is highlighted. The use of names in the lingopoetic aspect served to illuminate the writer's purpose from the work. Purposefully chosen names and their meaning served as an important tool for the writer in elucidating the idea in the literary text.



Key words. Art, linguopoetics, poetic speech, emotional-expressiveness, names, real names, anthroponyms, onomastics, poetic purpose.

Badiiy matnda har qanday birlik ahamiyatlidir. Ularning barchasi ham obyektiv mazmun, ham badiiy mazmunning ifodalanishida u yoki bu tarzda ishtirok etadi. Bu o'rinda antroponimlar doirasida o'rganiluvchi ismlarning badiiy matndagi o'rni va yuzaga chiqadigan ma'nosi bilan bog'liq masalaga bir qadar to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq.

Ismning inson hayotidagi o'rni haqida juda ko'p gapirilgan. Bu borada tilshunos N.Mahmudovning ushbu fikrlari ahamiyatli: "Musulmon bolasining qulog'i tashqi dunyoga ilk da'fa muborak azon sasi bilan ochiladikim, oiladagi bu ma'raka murg'ak vujudagi islomiy va insoniy ruh tarbiyasining ibtidosidir. Shu pokiza sas ketidan beg'ubor go'dak ona tilida eshitadigan avvalgi kalom o'zining yarashqli ismi sharifidurkim, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, "tarbiyaning biri bolaga yaxshi ot qo'yish bo'lib, uni oti bilan chaqirganlarida, u uyaladigan bo'lmasligi kerak". [2;9]

Ushbu xazina faqatgina kundalik hayotimizga emas, balki badiiy asarlarga ham joziba bag'ishlaydi.

I.Xudoynazarov o'z tadqiqotida ismlarning nominativlik bilan bir qatorda emosional-ekspressiv vazifa bajarishini ham ta'kidlab, nomlardagi hissiy ta'sirchanlik leksik-fonetik, leksik-morfologik, leksik-semantik usul bilan yuzaga kelishini aytadi. Har bir usulning o'ziga xos qator xususiyatlarga egaligi asarning ta'sirchanligini oshirishda, ijodkorning badiiy niyatini ro'yobga chiqarishda muhim vosita ekanligini yozadi. [3;96]

Badiiy matndagi g'oyani yoritishda maqsadli tanlangan ismlar va ularning ma'nosi yozuvchi uchun muhim vositalardan biridir. O'zbek adabiyotida ismlardan jozibadorlik, milliy harorat, ma'no hosil qilishga mohir ijodkorlar talaygina. Misol sifatida *Yo'lchi*, *Unsin*, *Tantiboyvachcha* (Oybek); *Asror bobo*, *Qobil bobo*, *Sotiboldi*, *Semiz Nazarov*, *Yovqoch Olloberganov* (A.Qahhor); *Farmonbib*, *Sotti*, *Kokilaxon*, *Tijoratxon*, *Oldi Sottiyev* (Said Ahmad); *Mo'mintoy*, *To'ychiboy* (O'tkir Hoshimov); *Shum bola*, *Yodgor* (G'.G'ulom); *Ozod*, *G'arib* (I.Sulton) kabi qahramonlar nomini keltirish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgani kabi Qobiljon Shermatov asarlaridagi ismlar ham asar badiiyligini oshirish uchun qahramonlar xarakteri mos ravishda nomlangan. Masalan, Mahmud buva, Bahodir, Baxtiyor, Oftob Payvasta, Nurali Shamsiyev, Taftboy, Uchqun Gulxaniy, Nursalom buva, Topvoldiyev Sotvoldi, Sharof Shabadaliyev (Buvamning oshqozonidagi mamlakat); Shoqol, Qo'tirbosh, Tandirqorin, So'laktumshuq, Shalpanq, Qitmirvoy (Bir quloqli qo'zichoq) qissalaridagi nomlar bunga misol bo'ladi.

Tatar tilshunosi G.Zinnatullina fikriga ko'ra, badiiy asardagi barcha ismlar ma'lum ahamiyatga ega. Poetik maqsad nazarda tutilmagan holda ham badiiy asardagi antroponimlar muayyan bir xalqning ism qo'yish madaniyatidan xabar beradi va badiiy asarning onomastik ko'lamini belgilaydi. Olima tatar-boshqird yozuvchisi A.Yeniki asarlaridagi antroponimlarni uchga bo'lib o'rganadi: 1. Tavsiflovchi ismlar. Bunga badiiy asarda maxsus qo'llangan, qahramon xarakteriga mos badiiy antroponimlarni kiritgan. 2. Yashirincha tavsiflovchi ismlar. Bunga g'oyaviy (ideologik) vazifa bajaruvchi ismlar kiradi. Bu tur ismlar yashirin ekspressiya ifodalab keladi. 3. Neytral xarakterdagi poetik antroponimlar. Bunga nominativ vazifa bajaruvchi antroponimlar kiradi. [4;31]



Tilshunos olim D Andaniyazova badiiy matnda qo'llanuvchi antroponimlarni mohiyatiga ko'ra besh turga ajratadi:

1. Odatdagi (real antroponimlar).
2. To'qima antroponimlar.
3. Tarixiy antroponimlar.
4. Mifologik antroponimlar.

5. Bir asardan ikkinchi asarga ko'chib o'tuvchi nomlar (an'anaviy nomlar). [1; 77]

Biz yuqorida keltirilganlardan Qobiljon Shermatov asarlarida keltirilgan real nomlarning lingvopoetik ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Odatda, tildagi mavjud ismlar fondiga kiruvchi nomlar real nomlar deb ataladi. Badiiy matnda barcha real nomni ham poetik ahamiyatga ega deb bo'lmaydi. Real nomlarning apellyativ ma'nosiga ishora qilish orqali ijodkor muayyan badiiy niyatini ifodalaydi. Masalan, "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" qissasidagi **Mahmud kosib** ismi orqali mana shu insonning ismiga monand maqtalgan, olqish olganligi, kosiblik kasbi orqali halol mehnat qilganligi, harom luqma xonadoniga kirmaganligi, qishloqdagi yosh-u qari Mahmud tog'ani hurmat qilishi e'tirof etiladi.

*Bobom haqida ikki og'iz gapirib o'tsam. Uni butun mahalla Mahmud kosib deydi. O'zining aytishicha, qo'lga bigiz bilan ip tushganiga roppa-rosa oltmish yil to'lganmish. Bir marta o'zidan: "Shuncha yildan beri yirtiq yamab charchamadingizmi, opoqi?" - deb so'rasam, "**Tirikchilikning aybi yo'q, muhimi - halollik! - degandi.** Kosiblik do'konini yopganiga bir yil bo'lgan bo'lsa ham, hamon qo'ni-qo'shning ishi tushib turadi. Bir qarasangiz, qo'shni xotinlar kovushini, bir qarasangiz, molboqar bolalar yirtiq poyabzallarini ko'tarib chiqishadi. Bobom hech birini ishi bitmay qaytarmaydi. Hammaning ko'nglini olib, poyabzalini moyday yaltillatib jo'natadi. Xizmat haqqini esa hech qachon so'ramaydi, kim ko'nglidan chiqarib bersa, indamay olaveradi. **Hatto tekinga ham tikib berganini ko'p ko'rganman. Shuning uchun qishloq odamlari buvamni birday e'zozlab, xuddi mahalla raisini hurmat qilganday hurmat qilishadi.***

Bahodir ismning apellyativ asosi bo'lgan bahodir so'zining "botir, qo'rqmas, shijoatli, dovyurak" ma'nosi orqali qahramonning xarakteriga, xatti-harakatiga ishora qilingan. Buni quyida Baxtiyor ikkovlari Mahmud bobosining "oshqozoni"ga tushib qolishganda NURLAR o'lkasidagi zaharpurkarlarni yengishdagi jasorati orqali maqtovga sazovor bo'lganligidan bilib olishimiz mumkin:

2. "Birodarlarim, orangizda hamma mening farzandim, do'stim, akam, opam, onam, otam! Biringizni biringizdan kam yaxshi ko'rmayman. Shunday bo'lsa-da, ichingizda bir bola menga boshqacha aziz. Chunki u bizning o'lkadan emas. Boshqa yurt dan. **Qarangki, bu jasur bola begona elda turib ham matonat, jasurlik, odamiylik ko'rsatdi.** Bir yurt fuqarosi boshqa yurt odamiga yordam berishi mukinligini bizlarga bildirib qo'ydi. O'sha jasur bola hozir orangizda, huvv ana, moviy shapkada o'tiribdi. Men hozir qo'limdagi mana shu "Oltin yulduz" nishonini shu bolaning ko'ksiga taqib qo'ymoqchiman. **Chunki u eng katta zaharpurkarni o'ldirdi. Shahrimizga daxl qilib turgan eng katta xavfni daf etdi.** Kelaver, o'g'lim, seni kutib qoldim!"

Baxtiyor ismi orqali esa hayotdan har doim mamnun, quvnoq, hazilkash bola obrazi gavdalandirilgan.

... - Baliqlarning o'z xohishi bilan bizlarga tutilgani ikkimizni hayratga soldi. Baxtiyor hazilga olib:



- Bir yo'la pishib kelinglar demabsiz-da, Nurbek aka ! - deya jilmayib qo'ydi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan nomlar orqali yozuvchining ismlardan ko'zlangan badiiy niyati ochib berilgan. Qobiljon Shermatovning "Buvamning oshqozonidagi mamlakat" asarida keltirilgan ismlar ham qahramonlar xarakteriga, ularning ichki va tashqi dunyosiga mos tarzda tanlangani bilan ahamiyalidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликларнинг лингвопоэтикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 140
2. Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i. – Toshkent: G'G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – B. 9.
3. Худойназаров И. Антропонимларнинг тил луғат тизимидаги ўрни ва уларнинг семантик-услубий хусусиятлари (Эргаш Жуманбулбул дostonлари асосида): Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – Б. 96
4. Зиннатуллина Г.Х. Функции антропонимов в произведениях А.Еники // Филология и культура. Philology and Culture. – М., 2012. – №1(27) – С.31

Shamatova Mohidil
Qo'qon DPI 1-bosqich magistranti

ANTROPOTSENTRIK PARADIGMADA ASSOTSIATIV MUNOSABATLARGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada ayrim grammatik vositalarning va olmoshlarning stilistik imkoniytlari doirasida qo'llanishi inson kognitiv bilimlar doirasida assotsiatsiyalarni vujudga keltirishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. antroposentrik tilshunoslik, assotsiativ munosabatlar, stilistik vositalar, verbal assotsiatsiyalar, konsept.

Tilning serqirra tabiatini tushunish ko'p jihatdan uning ijtimoiy xarakterini ya'ni "insondan va inson uchun" yo'nalganlik vazifasini o'rganish bilan bog'liqdir. XIX asr birinchi yarmida antropologik tilshunoslikka asos solgan V. Gumboldt "til – bu shunday organki, inson u yordamida o'z fikrini ifodalaydi, degan edi.[1, 5-b] Bunga qo'shimcha tarzda, mashhur nemis olimi, til millat ruhini ifodalashi va shakllantirishi, dunyoda xilma-xil tillarda so'zlovchi millatlarning tafakkur tarzi ham turlicha ekanligini ko'p bora ta'kidlagan, shu sabab, olim ushbu tillarni qiyoslashga chaqirib ularning farqi nafaqat tovush va belgilarda, balki dunyoqarashlarida ham ko'zga tashlanadi, bunda hamma lingvistik tadqiqotlarning asosiy mazmuni va maqsadi yotadi, degan edi. Darhaqiqat, o'z zamonasining ushbu qimmatli fikrlari ayniqsa bugungi inson omili bilan birga taraqqiy etayotgan tilshunosligimiz oldida o'z isbotini topmoqda.

Ma'lumki, zamonamizgacha til va nutq o'rtasidagi munosabatlar, til egasi nutqiy faoliyatining xususiy, yondosh jihatlarini tarixiy-qiyosiy, formal-struktur va sistem-struktur yo'nalishlarda atroflicha tadqiq etildi va sohada sezilarli muvaffaqiyatga



erishildi, kerakli nazariy bilim va xulosalar egallandi. Tilshunoslik tarixidagi yuqorida bir nechta olimlar misolida keltirilgan ilmiy falsafiy qarashlar zamonlar osha rivojlanib bordi, keyinchalik, nazariy tilshunoslikdagi inqiroz bosqichi asrimizning boshidan tilga antropotsentrik paradigmada yondashishni zaruriyatga aylantirdi. Chunki, “insonning sun’iy intellekt tizimiga oid vositalar bilan muloqoti til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay yangicha yondashuvni talab qiladi”.[2,7-b] Ya’ni, axborotlashgan asrimizda tilshunoslik sohasi turg’un qarashlar va tahlillar, shuningdek, an’anaviy tahlil metodlarga asoslangan xulosalarini shiddat bilan o’zgarayotgan, raqamlashgan texnologiyalarga asoslangan zamonamizga moslashi va lisoniy tizimning yangicha amaliyotida tug’ilayotgan savollarga javob bera olishiga qodir bo’lishi talab etila boshladi.

Borliqni idrok etish inson, til va borliq uchligida amalga oshar ekan, tilshunoslikda konsept terminiga ko’p urg’u berilmoqda. Konseptga berilgan ta’riflar mazmuni xilma-xil bo’lib, “konsept” terminiga, asosan, dunyo haqida egallangan bilimlarni namoyon qilish shakllari sifatida qaralmoqda. Tilshunos olim Sh.Safarov ham konseptni mental tuzilma sifatida ta’riflaydi “Konseptlar inson ongida shakllanadigan turli kategoriyalarning asosini tashkil qiladi, ular uchun tayanch nuqta bo’lib xizmat qiladi”.[2,17-b] Shuningdek olim, predmetlarning ongda assotsiativ-kognitiv obraz va bilimlar hosil qilish yo’llari turlicha vositalar bilan amalga oshishi, bu bevosita turli guruhdagi va tuzilishdagi konseptlar shakllanishiga sabab bo’lishini qayd etib, dunyo tadqiqotchilari leksik va frazeologik konseptlar bilan bir qatorda, grammatik (aniqrog’i sintaktik) konseptlar guruhini ham ajratishni taklif qilishmoqda.[2,17-18-b] Mazkur ishimizga aloqador bo’lgan ikkinchi jihat, grammatik vositalar bilan aloqador konseptlarni o’rganish yuzasidan bildirilgan fikr ham asosli, sababi, nutq jarayonida qo’llanuvchi turli grammatik vositalar morfologik, sintaktik shakllar nutq jarayonida o’zi bilan ma’lum ma’noda so’z shakliga qo’shimcha tarzda adresatga axborot tashiydi. Bunday axborot tashish o’z-o’zidan bo’lmay assotsiativ tarzda amalga oshadi va ular orasidagi assotsiativ-kognitiv munosabatlar stilistik maydonda o’rganilganda yaqqolroq namoyon bo’ladi.

Ma’lumki, harakatning bajaruvchi shaxsiga va bu shaxsning son miqdoriga munosabatini ifodalovchi shakllar shaxs-son shakllari deyiladi. Shaxs bildiruvchi qo’shimchlar ayni vaqtda son miqdorini ham ko’rsatadi. Masalan, keldim – I shaxs birlik, keldik – II shaxs ko’plik. Shaxs-son shakllarini qo’llashda asosan ikki xil hodisani farqlash lozim:

1. Adabiy til me’yorlariga muvofiq ishlatiladigan normativ shaxs-son shakllari;
2. Uslubiy maqsad talabi bilan qo’llaniladigan shaxs-son shakllari. [3, 64-b]

Bunga, asosan, I va II shaxs birlik o’rnida I va II shaxs-son qo’shimchasini qo’llash misol bo’la oladi va qo’llanish jihatidan ilmiy va badiiy uslublarga xosdir: “1 dan 25 gacha bo’lgan natural sonlar qatoridagi 6 ga bo’linmaydigan natural sonlar to’plamini tuzing” [4, 37-b], “Juma kuni muharram oyining boshlanishida sahar vaqti urush nog’orsini chalib, har kim belgilangan yeridan yurib, qo’rg’onga yopishsinlar deb, farmon berdik” [5,234-b] Ushbu misollarda birlik o’rnida ko’plik tarzida ifodalangan shaxs-son shakllari, o’z uslubiyaatidan tashqari adresat ongida so’zlayotgan yakka shaxsni va aynan o’quvchining o’ziga qilinayotgan murojaatni assotsiativ tarzda ifodalaydi. Bulardan tashqari badiiy va jonli so’zlashuv nutqida xalqimiz tilida tez-tez



uchrovchi *kamina*, *kaminayi kamtarin*, *faqir*(*arxaik so'z*) kabi so'zlari bilan ham shaxs-son shakllari normadan og'gan holda qo'llanadi, bunday jumlar bilan boshlanuvchi gaplardan esa kommunikantlar tasavvurida jins jihatdan, asosan, assotsiativ tarzda erkak kishi gavdalanadi. Chunki, ushbu jumlar bilan boshlanuvchi gaplar, asosan, erkak kishilar nutqida qo'llanadi

Shaxs-son shakllariga mos tarzda qo'llanuvchi olmoshlar, shuningdek qatratqich-qaralmish munosabatida ham shunday deyish mumkin. Qayd etish lozimki, har ikki usuldagi qo'llanishda ham so'zlovchi va tinglovchida shaxs bilan bog'liq assotsiatsiyalar yuzaga keladi. Masalan, *Bizning eng aziz so'zimiz "o'z"dir, - dedi, Mahmud. – Har narsa shu so'zdan boshlanmoqdadir. Sizda bir kalimaning sakkiz turlanishi bor esa, bizda bir o'zni bilgan odam kamida ellikta so'zni bilgan bo'ladi..."O'zim" deyilsa, "men" ma'nosini bildiradi, "o'zg'ir" odam o'zgan ma'nosida bo'lsa-da, marraga yetib kelganda uning bir o'zi qolganini ko'rmoqdamiz. O'z elim desa ham o'zligiga ishora qiladi. Oxir-oqibat "O'zi" deganda yakkayu-yagona Tangri taoloni anglaydi.*[6, 131-b] Yoki ushbu misolga e'tibor bering: *She'rni biz boshqacha aytamiz, - dedi Mahmud.- Sizning she'r buloqday yoyilib, gul hosil qiladi. Bizning she'rda otlar tuyog'ining dupuri, yaylovda qo'y-qo'zilar ba'rashi... ozod-ozod ot chopqon kishilarning qiyqirishlari bor.*[6, 132-b]

Yuqoridagi misollarda qo'llangan o'zlik olmoshi bilan bog'liq so'zlarda yakka shaxs (*o'zim, men*) va uning sifatlari (*o'z va o'zg'ir so'zlari semantikasida ma'noviy yaqinlik asosida*), I va II shaxs ko'plik shaklidagi kishilik olmoshlari (*bizning, sizning*) so'zlovchi va tinglovchi xotirasida bir nechta kishilar ma'nosidan o'tib xalq, bir butun millat kabi kognitiv bilimlarni assotsiativ tarzda yuzaga keltiradi. Shuningdek, ko'plik shaklida qo'llangan kishilik olmoshlar va shaxs-son shakllari tinglovchida "*Vatan*" konseptini jonlanishiga xizmat qilgan. Buning isboti sifatida, keyingi misolda qo'llangan *bizning she'rda* jumlasidan so'ng esa vatan va unda yashovchi xalqqa xos bo'lgan xususiyatlar, urf-odatlar sanab o'tilgan, demakki, so'zlar bilan bir qatorda ayrim grammatik shakllar ham til egalari tafakkur tarziga xos bilimlarni yuzaga keltirishga xizmat qilar ekan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, leksemalarning leksik-grammatik belgisiga asoslangan assotsiatsiyalar leksik assotsiatsiyalarga qaraganda past chastotali va stimullar so'z bilan aloqasi nisbatan kuchsiz bo'lishi mumkin, lekin ularning kognitiv bilimlarni jonlantirishi bilan bog'liq tadqiqotlar bugungi kun zamonaviy o'zbek tilshunosligini yangi bilim va xulosalar bilan boyishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamatov A.E. Zamonaviy lingvistika. Toshkent. "Tafakkur avlodi" nashriyoti", 2020. 5-bet.
2. Shahriyor Safarov. Kognitiv tilshunoslik. "Sangzor" nashriyot. Jizzax-2006. B-7.
3. Ergash Qilichev. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent. O'qituvchi.1992. B-64.
4. Algebra va matematik analiz asoslari.I-qism. "O'qituvchi". Toshkent-2011.37-b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Yangi kitob. Toshkent-2019. 234-b.
6. Isajon Sulton. Hazrati Hizr izidan."G'afur G'ulom" nashriyot.Toshkent-2018. 131-B
7. Umidjon Yigitaliyev. Cognitive Analysis of Morphological Phenomena in the



Uzbek Language (in Associative-Verbal Aspect) // International Journal of Human Computing Studies. –2021. –№2. – P. 249-252.

8. Umidjon Yigitaliyev. “Shaxs” lingvistik zarrasining leksik sathda assotsiativ voqelanishi // Jurnal: FILOLOGIYA UFQLARI . 2022, 11-son.

9. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7215024>

10. https://fayllar.org/pars_docs/refs/321/320776/320776.pdf

11. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/F854T>

Davron Xolboyev

TerDU o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2- kurs magistranti

MEDIAMATNLARDA IDIOMALARNING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada OAV va ulardagi mediamatnlarda idiomatik va frazeologik birliklarning ahamiyati haqida muallif fikri yoritilgan. OAV tilida idiomatik birliklarning tahlili masalasi berilgan.

Kalit so'zlar. mediamatn, davr, matbuot, idioma, muloqor, sarlavha.

Аннотация. В данной статье изложено мнение автора о значении идиоматических и фразеологических единиц в средствах массовой информации и их медиатекстах. Ставится проблема анализа идиоматических единиц языка СМИ.

Ключевые слова. медиатекст, эпоха, пресса, идиома, коммуникация, заглавие.

Annotation. This article describes the author's opinion about the importance of idiomatic and phraseological units in mass media and their media texts.

Key words. media text, period, press, idiom, communication, title.

OAV bugungi tezkor va axborot davrida nafaqat aloqa va axborot manbai, balki tarbiya, dunyoqarash, e'tiqod, davr ko'zgusi va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichi hamdir. Zamonaviy media sohasining jadal rivojlanishi tufayli OAV misli ko'rilmagan darajada ommalashdiki, bugungi kunda unga nafaqat muloqot va axborot almashinuvi vositasi, balki ijtimoiy ongni manipulyatsiya qilish vositasi sifatida ham qaralmoqda. O'rta Osiyo hududida matbuot va OAVlarining kirib kelishi o'lkadagi bir qator tarixiy va ijtimoiy voqealar bilan birgalikda rivojlandi. Xususan, XX asrda Turkistonga ommaviy axborot vositalari kirib kelishi bu o'z navbatida jadid namoyondalariga borib taqaladi, chunki xalq ommasini ziyoli qilishdek mashaqqatli jarayonga kirisha boshlaydi. Biz bularga misol qilib, “Sadoi Turkiston”, “Sadoi Fargona” gazetalarini, “Oyina” jurnallarini aytib o'tish joiz deb topdik. Chunki jadid namoyondalari xalq ommasini ziyoli bo'lmas ekan, mustaqil davlat tuzib bo'lmasligini aniq tushunib yetishdi va “Sadoi Turkiston” jadid ma'rifatparvarligining nufuzli nashri hisoblanib, gazetaning tashkil topishida o'z davrining yetuk ziyolilaridan biri, birinchi o'zbek advokati Ubaydulla Asadullaxo'jayevning xizmatlari beqiyos bo'lib, gazetaning nashrdan chiqishida o'zi bosh qosh bo'lganlar. Bu haqda millat va matbuot fidoyisi Munavvar qori Abdirashidxonov “Sadoi Turkiston” gazetasining ilk soni chiqqanda sevinchi ichiga sig'may, “Oyina”



jurnalida fikrlarini bayon qilgan edi “Bor bo’lsin millat - yashasin, taraqqiyparvar yoshlar, fidokor tujjoru muharriru yoshlar, Obod bo’lsin Vatan” deya xitob qilgan edi. U Ubaydulla Asadullaxo’jayevni olqishlab, “Sadoi Turkiston” gazetasining ijodiy jamoasiga o’zining samimiy tilaklarini izhor etgan edi.

Kishilikjamiyatidagi o’zgarishlardan turli qatlam va tabaqadagi insonlarni xabardor qilishning tezkor vositasi sifatida OAV maydonga keldi. Ilk marta jurnalistikaning kurtaklari sifatida berilgan matnlar eramizdan oldingi I asrda Rim imperatori Yuliy Sezar tomonidan chiqarilgan ganchdan yasalgan maxsus taxtachalarga yozilgan axborotlar edi. Keyinchalik VIII asrda Xitoyda “Poytaxt yangiliklari” paydo bo’ldi. Yaponiyada ham xuddi shu usulda taxtaga o’yib yozilgan gazetalar chiqarildi. O’sha mamlakatlar hukumatlarining ijtimoiy- siyosiy, ma’naviy qarashlari, yanada aniqroq qilib aytganda manfaatlarini aks etgan o’sha davr jumalistikasini jahon jurnalistik taraqqiyotining birinchi ilk bosqichi deb ta’riflash to’g’ri bo’ladi.

Mediamatnlarda idiomalarning ishlatilishi nafaqat matn jozibadorligi, balki xalqchilligini ham ta’minlaydi. Xususan, sarlavha, rukn, matn ichida keluvchi idiomatik va frazeologik birliklar pragmatik vazifa ham bajaradi. Pragmatiklik nutqning amaliy ahamiyatini, harakatga undashini boshqaradi. “Mushtum” jurnalining 1960-yil 6-soni “E’lonlar” ruknida quyidagi matn keltirilgan: “Bolalar qo’shiqlari plastinkalarini ishlab chiqish tuyaning dumi yerga tekkanda boshlanadi, xaridorlar tishini- tishiga qo’yib yuraversin”. Ushbu mediamatnda “Tuyaning dumi yerga tekkanda” idiomatik birligi keltirilgan bo’lib, amalga oshmaydigan ish mazmunida pragmatik vazifa bajarmoqda. Matndagi bu birlikni shu semantik ma’noga ega boshqa birlik bilan almashtirib qo’llaganimizda bu kabi nutqiy ta’sirchanlik kuzatilmagan bo’lardi. Shu jurnalning boshqa sonida “...qaniydi o’zimizning tuya go’shti yegan hammom ishga tushsa-yu, biz bu tashvishlardan qutilsak” matni keltirilgan. Bu idioma tadqiqotchi G.Begmatovanning “O’zbek tili idiomalarining kichik izohli lug’ati”da quyidagicha izohlangan: “Tuya go’shtini yemoq- biron ish-harakatning juda sekin bajarilishi, jarayonning haddan ortiq cho’zilishi” kabi mazmunda qo’llanilishi yozilgan. OAV mediamatnlarida idiomalarni qo’llash nutqiy ta’sir ko’rsatish, qiziqtirish, ta’kidlash kabi vazifalarni bajaradi.

OAV matnida qo’llaniladigan idiomatik birliklarining pragmatik tahlili va jamiyat a’zolari hayotidagi o’rnini OAV matni orqali tahlil qilish shu davrda insonlar ijtimoiy hayoti haqida ma’lumot berib, davr tili va ruhini yoritadi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Бегматова Г. Ўзбек тили идиомаларининг кичик изоҳли луғати. ТерДУ нашр-матбаа маркази нашриёти. Термиз, 2021. 54 б.
2. Qozoqboev T.M, Xudoyqulov M. Jurnalistikaga kirish: Darslik; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018. - 352 b.
3. Usmonova Shahodat Abdurahimovna. Mediadiskursda gazeta tili tendensiyalari (o’zbek va ingliz tillari misolida) filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2021.



STILISTIK VOSITALAR TADQIQIGA KOGNITIV YONDASHUV

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek tilining stilistik vositalari misolida "shaxs" konseptining ifodalanishi va uning kognitiv tadqiqi masalasi yoritiladi.

Kalit so'zlar. O'zbek tili, stilistika, stilistik vosita, konsept, shaxs, kognitiv tadqiq.

Аннотация. В данной статье описывается выражение концепт «личность» и его когнитивное исследование на примере стилистических средств узбекского языка.

Ключевые слова. Узбекский язык, стилистика, стилистический инструмент, концепт, личность, когнитивное исследование.

Annotation. This article describes the expression concept "personality" and its cognitive study on the example of the stylistic means of the Uzbek language.

Key words. Uzbek language, stylistics, stylistic tool, concept, personality, cognitive research.

Jahon tilshunosligida stilistik vositalar tadqiqiga kognitiv yondashuv asosida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida hali bu boradagi ishlar sanoqlidir.

Stilistik konsept tadqiq etilayotgan ishlarda, asosan, quyidagi masalalar tahliliga e'tibor qaratilmoqda:

- 1.XVII- XVIII asrlar Tabol'sk yozuvlarini tarixiy stilistik aspektda o'rganish.
2. Badiiy matnda *giper konsept* tushunchasi.
3. Matnlarning emotsional-baho qiymatlari leksikasi.
4. Fe'llarning konnotativ aspekti.
5. Matn uslubini o'rganishda lingvokognitiv aspektning vazifalari.
- 6.So'z ma'nosini kuchaytirishda lingvokognitiv aspektning o'rni.

Ko'rinadiki, *stilistik konsept* tadqiqida aniq bir konseptning lingvostilistik tahlili, shu jumladan, «odam» konsepti ham mazkur aspektda o'rganilmagan. Ushbu holat bizga stilistik aspektda konsept muammosini tadqiq qilish zaruratini keltirib chiqardi. Stilistik tizimda «odam» konseptining voqelanish ko'lamlarini tahlilga tortish uchun stilistika va uning til sathlari semantikasida tutgan o'rni haqida to'xtalish lozim.

Nutqiy-uslubiy vositalarda «shaxs» lisoniy konseptining voqelanish ko'lamlarini tahlil manbaiga tortish uchun uslubshunoslik, boshqacha aytganda, stilistika va uning til sathlari semantikasida tutgan o'rni haqida to'xtalish lozim. Uslubshunoslik, bu – nutq uslublari va uning o'ziga xos xususiyatlari, kishilar o'rtasidagi o'zaro fikr almashish jarayonlari va bu jarayonda til vositalaridan turlicha foydalanish malakalari, har bir kishining voqelikka munosabati jarayonida nutqining xilma-xilligi kabi masalarni qamrab oluvchi tilshunoslik bo'limidir.

Demak, uslubshunoslik o'z mohiyatiga ko'ra til sathlarining barchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, fikrimizni quyidagi matnlarga qarataylik: "... botayotgan quyosh nurlari qo'sh o'rkach o'rtasida o'tirib olgan ona qiyofasini baralla ko'rsatardi. U jiddiy tusda yuzlarining qoni qochgan holda xushyor tortib, xavotirlanib



o'tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g'am-g'ussali ko'zlariga esa Sario'zak xuftoni-g'am-tashvish cho'kkan edi" yoki "...hazillashmayapsizmi, ovsinjon, o'-o'-o'lmang-e, odamni yuragini yorvordingiz-ku. Biram xovliqasiz-ey... O'ziyam bozordan qaytib ketgunimcha ona sutim ogzimga keldi-yov" (Xalq so'zlashuv nutqidan).

Bu ikki matn bir-biridan so'z tanlash, ishlatish hamda grammatik, fonetik, leksik xususiyatlariga ko'ra keskin farq qiladi. Birinchi matnda fikr *"quyosh shu'lalari", "ona qiyofasi", "manglay", "g'am-g'ussali ko'zlar"* kabi bo'yoqdor so'zlar yordamida ifodalanib, o'quvchining ruhiyatiga kuchli ta'sir ko'rsatilyapti. Ikkinchi matn esa, avvalo, so'zlovchining intonatsiyasi (*so'z ohangi*) bilan ajralib turibdi (*o'-o'-o'lmang-e, hovliqasiz-ey, yuragimni yorvordingiz-ku* so'zlari o'ziga xos cho'ziq ohang bilan aytilyapti), shevaga xos so'zlar, ibora hamda takror qo'llangan.

Nutqdagi ana shu o'ziga xoslik, ya'ni til vositalarini o'z o'rnida qo'llash va ishlatish usullari nutq uslublari hisoblanadi. Nutq uslubi degan birikmaning uslubiy-funksional tomonida *odam*, boshqacha qilib aytganda "shaxs" lisoniy konseptining voqelanish ko'lamlari yotadi. Shuningdek, inson nutqigina faqat uslubiy tavsifga ega bo'la oladi. Shu o'rinda [kuz] leksemasining uchta uslubda berilishini va unda "shaxs" lisoniy konsepti (qisq. LK)ning voqelanish holatlarini kuzataylik. Ya'ni:

Kuz.1.Yoz bilan qish o'rtasidagi fasl. 2.Ko'chma. Davrning, mas. Kishi hayotining, umrining oxirgi damlari...("O'zbek tilining izohli lug'ati") – **ilmiy uslub**.

– *Bolam, - dedi chol, kuz yozdan keyin keladi. Mevalar pishib, daraxtlar barg to'kadi. To'kin-sochin davr-bu kuz degani. Qisqa bo'ladi kunlar ham. Havo sovub boradi, oftob ham qizitmaydi.* – **so'zlashuv ulubi**.

Kuz kunlarining oyog'i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to'kilib tugagan, yer yuzi o'zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To'rt tomonining o'ralganligi soyasida yaproqlarini to'kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog'ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidolmay yelning ozgina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo'lib, quyosh tuzukkina ko'tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta'siri yo'q.(Abdulla Qodiriy, "O'tgan kunlar") – **badiiy uslub**.

Yuqorida keltirilgan uslubiy matnlarda "shaxs" lisoniy konsepti uch xil ko'rinishda voqelangan. Bu holat "shaxs" LKining kimyodagi bir kimyoviy elementning turli moddalar tarkibida takrorlanib, yangi-yangi sifatlarni hosil qilishiga o'xshaydi. Bu holat bizga "shaxs" LKining umumiylik darajasidagi hodisa ekanligi va uning turli nutqiy-xususiy va nutqiy xilma-xilliklarga voqelana olish imkoniyatiga ega bo'lgan bir murakkablik mavqeidagi lisoniy imkoniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqarishga zamin yaratadi. Shu o'rinda ayrim uslublarning lisoniy-nutqiy tavsifi va unda "shaxs" LKining voqelanishini yana bir tahlil qilib ko'rsak, biz ko'tarib chiqqan ilmiy faraz yana o'z isbotini topadi. Chunonchi:

1. *Ilmiy uslubdagi nutqning mazmuni va maqsadi biror ilmiy axborotning haqqoniyligini isbotlashga qaratilgan bo'ladi. Bu uslubdagi nutqda mantiqiy izchillikni ta'minlash uchun ma'lum bir abzasdagi fikr isbot va dalillar vositasida keyingi gaplar bilan to'ldirilib boriladi. Mana shu kichik matndagi ilmiy axborotning haqqoniyligini isbotlash jumlasining o'ziyoq "shaxs" konseptini til egalari xotirasida assotsiativ tarzda tiklamoqda. Chunki bunday funktsiyani faqat inson bajara oladi.*

2. *Publitsistik uslubdagi nutqda ijtimoiy hayot voqea-hodisalari aniq va tushunarli tarzda ifodalanadi. Mantiqiy puxtaligi bilan bu uslub nutqi ilmiy uslub nutqiga yaqin*



tursa ham, ayrim dalillarni sharhlashdagi badiiy chekinishlari hamda obrazli tasvirlari bilan badiiy uslubga o'xshab ketadi. Mazkur matndagi *ijtimoiy hayot voqealari aniq va tushunarli tarzda ifodalanadi*, degan jumlagi diqqat qilinsa, *ijtimoiy hayot* – bu jamiyat, insonlar, odamlar hayoti nazarda tutilmoqda, shuningdek, tushunarli tarzda ifodalash ham faqat «shaxs» ga xos hodisadir.

3. So'zlashuv uslubidagi nutq o'zining hissiy ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Bu uslubda ishlatiladigan lisoniy birliklar so'zlovchining hech qanday tayyorgarligisiz vujudga keltiriladi. So'zlashuv uslubidagi nutq, asosan, dialogik tarzda bo'ladi. Ushbu matndagi so'zlashuv uslubi, hissiy ta'sirchanligi bilan kabi jumlar zamirida "shaxs" lisoniy konsepti voqelanganligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki faqat inson so'zlashish qobiliyati va hissiy ta'sirchanlik xususiyatlariga ega, xolos. Umuman olganda, stilistik tizimda «shaxs» konsepti voqelanishining yorqin ifodalanish sohasi yuqorida qayd etib o'tilgan badiiy san'at turi – personifikatsiya (jonlantirish) bilan uzviy bog'liqdir. *Jonlantirish*, ayniqsa, uning semantik strukturasida "shaxs" LKi yorqin ifodalangan fe'llarning gapda kesim va ega vazifalarida, "shaxs" LKga ega bo'lmagan so'zlarning kelish hollarida uchraydi. Chunonchi: *Ahmadjon keldi* va *Xush xabar keldi* kabilarni olib ko'raylik Ikkinchi gapda jonlantirish badiiy san'ati voqelangan va bu jonlantirish "kelmoq" fe'lida yorqin ifodalangan "shaxs" LKining mavjudligi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, stilistika nutq uslublari va uning o'ziga xos xususiyatlari, kishilar o'rtasidagi o'zaro fikr almashish jarayonlari va bu jarayonda til vositalaridan turlicha foydalanish malakalari, har bir kishining voqelikka munosabati jarayonida nutqining xilma-xilligi kabi masalalarni qamrab oluvchi tilshunoslik bo'limidir.

Stilistik belgi til sathlarining barchasida u yoki bu darajada kuzatiladi. Masalan, undovlarning stilistik xususiyati bilan bog'liq holatlar tadqiqi "shaxs" konseptining ifodalanishida bevosita assotsiatsiyaga ishora qiladi.

Fanimizda, undovlar grammatik nuqtai nazardan ham, uslub jihatdan ham alohida so'zlar turkumini tashkil etadi. Ular insonning tashqi olam bilan munosabati natijasida yuzaga keluvchi his-hayajoni, xohish va istagi, quvonch va qayg'usi, talab va buyrug'i kabi ruhiy holatlarini ifoda etadi. Shuning uchun ham ular o'ta his-hayajon va ta'sirchanlik talab qiluvchi so'zlashuv, publitsistik va badiiy uslublarda keng ishlatiladi.

Undovlarda ohang muhim o'rin tutadi. Chunki undov ma'lum ohang bilan aytilmasa, u his-tuyg'uni, hayajonni anglatmaydi. Undov talaffuzidagi turlicha ohang uning qaysi ma'no va maqsadda qo'llanayotganini belgilab beradi: – *Aha! Soz! Azamatlar! (O.) Aha! Sultonbek! Ilonbachcha! (YA.) A-ha! Unda qirq birga qadam qo'yibsan. – Maxsumning xayoli qochdi. (S.An.) Ah-ha-a! Meni tashlab, o'zlaring ketmoqchimisizlar. (S.Ayn.)*

Undovlar ma'nosiga qarab, ikkiga bo'linadi: 1) his-hayajon ifodalovchi undovlar; 2) buyruq-xitob undovlari.

His-hayajon undovlari polisemantik bo'lib, ularning ma'nolari matnda bilinadi. Bu undovlarga xos asosiy ma'nolar, «odam» konseptining verballashuvi *taajjub, sevinch, qayg'u, qo'rqinch, achinish, g'azab, mensimaslik* va boshqalardir. Fikrimizni quyidagi matnlarga qarataylik: *Iya, Naziraxon shofyor bo'lganmi? (S.Ahm.) – Mullaro'zi: Voy joningga jonim tasadduq, seni yaratgan sohib qudratni qara-ya... Bir malak ah-ah ... Qudratingdan aylanay. –Maysara: Voy o'lay, sho'rim qursin! –Xonzoda: Voy! Voy! Hali andishani ham bilasizmi? (H.H.)*



Buyruq-xitob undovlari chaqirish, buyruq, do‘q qilish, urf-odat kabi ma‘nolarni bildiradi: – *G‘ofir: Hoy bo‘rilar! So‘zlaringdan qayt!.. – Qozi: Assalomu alaykum, mingboshi dodxoh! – Qodirqul: Vaalaykum assalom, keling, Qozi. Qani marhamat, domla.* (H.H.) – Mullaro‘zi (turib): *Borakallo, janobi haq dunyoda hamma murodingizga oxiratda ahli jannat mansabiga nasib qilgay!* (H.H.)

Yuqoridagi matnlarda «odam»ga xos psixologik holatlar har ikki jins vakillarining nutqiga xos tarzda konseptual holatda verballashgan. Shunga o‘xshash quyidagi stilistik matnlarga ham nazar tashlaylik:

“...Botayotgan quyosh nurlari qo‘sh o‘rkach o‘rtasida o‘tirib olgan ona qiyofasini baralla ko‘rsatardi. U jiddiy tusda yuzlarining qoni qochgan holda xushyor tortib, xavotirlanib o‘tirardi. Sochlari oqarib ketgan, manglayini ajin bosgan, g‘am-g‘ussali ko‘zlariga esa Sario‘zak xuftoni – g‘am-tashvish cho‘kkan edi” (T.Murod. “Yulduzlar mangu yonadi”). Yoki:

... Hazillashmayapsizmi, ovsinjon, o‘-o‘-o‘lmang-e, yuragimni yorvordingiz-ku. Biram hovliqasiz-ey... O‘ziyam bozordan qaytib ketgunimcha ona sutim og‘zimga keldi-yov. (So‘zl.)

Bu ikki matnda «ayol» konsepti voqelangan. Har ikki matn bir konseptni voqelantirsa-da, ular bir-biridan qanday ayol obrazini voqelantirishi jihatidan farqlanadi. Shuningdek, har ikki matn fonetik, leksik, grammatik xususiyatlariga ko‘ra ham bir-biridan keskin farq qiladi.

Birinchi matnda *yuzlarining qoni qochgan, g‘am-g‘ussali ko‘zlari, Sario‘zak xuftoni – g‘am-tashvish* kabi obrazli ifodalar qo‘llangan bo‘lib, matnning badiiyligini ta‘minlashga xizmat qilgan. Ikkinchi matn esa, avvalo, so‘zlovchining intonatsiyasi bilan ajralib turadi. *O‘-o‘-o‘lmang-e, hovliqasiz-ey, yuragimni yorvordingiz-ku* qo‘llanishlari o‘ziga xos cho‘ziq ohang bilan aytilgan. Matnda shevaga xos so‘zlar, ibora ham qo‘llangan bo‘lib, konnotativ ifoda uchun xizmat qilgan.

Nutqdagi ana shu o‘ziga xoslik, ya‘ni til vositalarini o‘z o‘rnida qo‘llash stilistikaning o‘rganish obyektidir. *Nutq uslubi* tushunchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson omili bilan bog‘lanadi. Negaki inson nutqigina stilistik tavsifga ega bo‘la oladi. Shu o‘rinda kuz leksemasining turli uslublarda berilishi va unda “shaxs” konseptining voqelanish holatlarini kuzataylik:

So‘zlashuv ulubi: *Bolam, – dedi chol, kuz yozdan keyin keladi. Mevalar pishib, daraxtlar barg to‘kadi. To‘kin-sochin davr – bu kuz degani. Qisqa bo‘ladi kunlar ham. Havo sovib boradi, oftob ham qizitmaydi.*

Badiiy uslub: *“Kuz kunlarining oyog‘i va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to‘kilib tugagan, yer yuzi o‘zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To‘rt tomonining o‘ralganligi soyasida yaproqlarini to‘kilishdan saqlab qolgan bu gilos yog‘ochlari ham bu kun tungi qora sovuqqa chidolmay yelning ozgina harakati bilan-da barglarini shirt-shirt uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo‘lib, quyosh tuzukkina ko‘tarilgan, ammo uning ham bu kun uncha ta‘siri yo‘q”* (A.Qodiriy. «O‘tgan kunlar»).

E‘tibor berilsa, so‘zlashuv va badiiy matnlarda kuz bilan aloqador turli tafsilotlar aks etgan. So‘zlashuv nutqida “shaxs” konseptiga ishora kuzatilmaydi. Ammo badiiy matnda personifikatsiya, ya‘ni jonlantirish usulining yerga nisbatan qo‘llanishi natijasida (*yer yuzi o‘zining qishki sariq kiyimini kiygan edi*) bilvosita “shaxs” konsepti voqelangan.



Anglashiladiki, turli uslubdagi matnlarda “shaxs” konseptining voqelanishida matnda aks etgan inson bilan bog‘liq tafsilotlar muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, tajriba va kuzatuv materiallari asosida “shaxs” konseptining til vositalari orqali ifodalanishini statistik tahlil qiladigan bo‘lsak, unda leksik vositalar katta hajmni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Андреева К.А. Когнитивная стилистика как новая парадигма исследования литературного текста // Вестник ТюмГУ, 2005. –№2. – С.179-184.

2. Джусупов Н.М. Когнитивная стилистика: современное состояние и актуальные вопросы исследования // Вопросы когнитивной стилистики. – Москва, 2011. –№3. – С.65-76.

3. Umidjon Yigitaliyev. O‘zbek tilida “odam” va “jins” konseptlari bilan bog‘liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. ...(PhD) diss. avtoreferati. –T., 2020. –B. 54.

4. Xudayberganova D. Lingvostitstika: yangicha yondashuv va talqinlar // O‘zbek tili va adabiyoti. –T., 2018. –№ 2. –B. 3-8.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:g5m5HwL7SMYC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:rO6llkc54NcC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:TQgYirikUclC

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:hMod-77fHWUC

Umidjonov Shohruhbek, Qo‘qon DPI talabasi
Qaxramonova Nigora, Qo‘qon DPI talabasi

“GENDER” TUSHUNCHASI VA UNING LINGVOKOGNITIV TABIATI

Annotatsiya. Mazkur maqolada “hurmat” konsepti misolida *gender* va *biologik jins* tushunchalarining sotsio-psixologik va kognitiv tahlili o‘zbek tili manbalari misolida tadqiq etiladi.

Аннотация. В данной статье исследуется социально-психологический и когнитивный анализ концептов гендера и биологического пола на примере концепта «уважение» на примере узбекскоязычных источников.

Annotation. This article explores the socio-psychological and cognitive analysis of the concepts of gender and biological sex on the example of the concept of “respect” on the example of Uzbek-language sources.

Kalit so‘zlar: gender, biologik jins, hurmat, konsept, kognitiv tahlil.

Ключевые слова: гендер, биологический пол, уважение, концепт, когнитивный анализ.



Key words: gender, biological sex, respect, concept, cognitive analysis.

O'zbek lingvomadaniyatida *jins* atamasi milliy-madaniy mohiyatga ega birlik hisoblanadi. Bu o'rinda *jins* va *gender* terminlarini bir-biridan farqlash lozim. *Gender* tushunchasi *jins* tushunchasi kabi shaxsni erkak va ayol jinsiga ko'ra farqlaydi, ammo *gender* lingvistikasida shaxs tabiat taqdim etgan biologik *jins* sifatida baholanmaydi, balki jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy, madaniy xususiyatlarga ega *jins* sifatida o'rganiladi. N.Usachevaning fikricha, *gender* tushunchasida jinsga jamiyat nuqtai nazaridan yondashiladi, asosiy tahlil ob'ekti sifatida *jins* emas, balki *erkaklik* va *ayollik* sifatlariga ega *sotsium* olinadi.

Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslik paradigmasiga boshqa gumanitar fanlardan ko'ra ancha keyin kirib kelib, o'tgan asrning 60-yillarida atama sifatida shakllana boshladi. 1980-yillarga kelib, uning ilmiy tadqiqotlarda ishlatilishi keskin oshdi. *Gender* konseptini birinchi bo'lib amerikalik psixoanalitik Stoller qo'llagan. U *gender* konseptini ikkiga, ya'ni biologik (*jins*) va sotsiologik (*gender*) turlarga bo'lishni ma'qul ko'rgan¹. Biologiya va fiziologiya sohalari *jins* xususiyatlarini, psixologiya va sotsiologiya fanlari esa *gender* xususiyatlarini o'rganadi. Stollerning taklifi zamonaviy gumanitar bilimlar orasida *gender* tilshunosligi deb nomlangan alohida yo'nalishning yuksalishiga olib keldi. O'zbek va chet el tilshunosligida hozirgi kunda *gender* mavzusi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ammo hurmat kategoriyasining *genderlik* xususiyatlari ingliz va o'zbek tillarida hanuzgacha qiyoslab o'rganilmagan. G.A.Brandt *gender* – madaniyat ta'siri ostida bo'ladigan, ma'naviy jihatdan ayol va erkaklarning nutqiy, hulq-atvoriy tomonlarini baholay oladigan xususiyatlar majmuidir, deb qaraydi.

Demak, *gender* munosabatlari jamiyat ijtimoiy uyushmasining muhim elementi hisoblanadi. U kishilar orasidagi munosabatlarni aniqlaydi. Dunyo madaniyatlarida shaxsning hulq-atvori, odatda, jinsga nisbatan ajratiladi. Bu esa o'z o'rnida jamiyat talab etgan ma'lum ijtimoiy qonuniyatlarga ayollar va erkaklarning rioya qilishlarini bildiradi. Masalan, xorij tilshunosi J.Lakoffning ta'kidlashicha, muomala jarayonida ayollar yuqori darajadagi empatiya va o'z suhbatdoshiga nisbatan moslashib ketish kabi xislatlar bilan farqlanadi, o'z suhbatdoshining mulohazalarini diqqat bilan tinglab, muloqot jarayonida ustun bo'lishga harakat qilmaydi. Erkaklar esa suhbat chog'ida yana ham jizzakiroq, sharoitni nazorat qilishga intiladilar, o'zaro kelishishga harakat qilishadi, deb biladi. U shuni ham ta'kidlaydiki, ingliz tilida qayd etilgan xususiyatlarga qo'shimcha qilgan holda, ayollar tasdiq so'roq gapga tushuvchi intonasiya qo'llash o'rniga ko'tariluvchi intonasiyadan, semantik jihatdan chuqur ma'noga ega bo'lmagan leksika, odatiy ayollar faoliyatini tasvirleydigan maxsus o'zlashtirma so'zlardan, so'zlayotgan nutqni kuchli his-hayajon ma'nolarni ifodalovchi til vositalari va modal yuklamalardan keng foydalanishadi. Erkaklar esa undov so'zlar qo'llamasliklari, stilistik bo'yoq darajasi kam va haqorat ma'nosi kelib chiqadigan jargonli leksikani juda ko'p ishlatishlarini ham qo'shib qo'yadi. Muloqot uslubidagi farqlar ayollar va erkaklar orasidagi munosabatlarda paydo bo'ladigan muammolarni aniqlashtirmaydi. Ya'ni, munosabatlarda ruhiy muammolar, ya'ni sevgidagi yoki e'tibordagi omadsizlik, chin dillik, xudbinliklar ba'zan aks etadi. Va ular siyosiy va iqtisodiy tengsizliklarning natijasidir. Ammo aytib o'tilgan xususiyatlar asossiz ifodalanishi ham tez-tez uchrab turadi. Demak, ayol va erkak borliqni turlicha qabul qiladi va baholaydi. Nutqiy muomalaning *gender* o'zgaruvchanligi tilning turli sathlarida, ya'ni fonetik, leksik, grammatik, semantik sathlarda namoyon bo'ladi. *Gender*



munosabatlar faqatgina kodlangan ko'rinishda ishlatilmay, balki nutq hodisasining mavzular majmui va xususiyatini yuzaga keltiradi.

Endi bevosita "hurmat" konsepti misolida milliy madaniyatimizning lingvokognitiv tabiatini o'rganishda genderlik xususiyatlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etishini ko'rib o'tamiz. Chunonchi, "hurmat" konseptining qiyosiy chog'ishtirish yondashuvi orqali nafaqat konsept nazariyasi o'rganiladi, balki qiyoslanayotgan tillarning madaniyati, dunyoqarashi va urf-odatlar ham talqin etiladi. *Hurmat* kategoriyasiga tegishli genderlik xususiyatlarning leksik sathda aks etadigan misollar bilan aytib o'tilgan fikrlarni izohlashga e'tiborimizni qaratsak:

– *Er: Chanqab ketdim. Ichgani sovuqroq biror narsa (suv yoki choy nazarda tutilmoqda – Sh.U.) yo'qmi?*

– *Ayol: "Voy tavba", kichkina bolaga o'xshaysiz-a, ko'chadan suv-suv bo'lib keldingiz-ku. Ana ayvonga chiqing, sovigan choy bor.*

Mazkur so'zlashuv uslubidagi matnga lingvokognitiv aspektda nazar tashlasak, unda *hurmat* konsepti yashiringan ko'rinishda assotsiatsiya qilmoqda. Bunda *er* hukmini o'tkazadigan sharoitda emas, u imperativ konstruksiya ishlatmayapti, aksincha, umumiy so'roq gapga bo'lishsiz ma'no beruvchi "yo'qmi?" so'zi ayoliga nisbatan hurmatini ko'rsatib turibdi. Ammo *Ayol* turmush o'rtog'ining hurmatiga yetarlicha javob bermayapti, "Voy tavba" so'z birikmasi turmush o'rtog'iga nisbatan bo'lgan hurmatsizlik ko'rsatkichidir. Yoki boshqa misolni kuzataylik:

– *Ayol: – Dadasi, kecha yana otam rahmatlini tushimda ko'rdim...*

– *Er: – Ha, qaynotam yaxshi odam edilar. Oxiratlari obod bo'lsinlar!*

Mazkur misolda esa *er* kayfiyati yo'qligini bilintirmay "ha" so'zi va "Oxiratlari obod bo'lsinlar!" jumlasidagi "-lar" grammatik ko'rsatkichi orqali ayolining ko'nglini ko'tarish maqsadida qo'llab, *ayol* esa, *dadasi* murojaati bilan erkakka nisbatan o'zaro hurmatini ko'rish mumkin. Murojaatning *dadasi* so'zi bilan ifodalanishi o'zbek turmush tarzining milliy madaniy xususiyatiga kiradi.

Umuman olganda, bu kabi misollarni o'zbek so'zlashuv nutqida ham, badiiy uslubdagi matnlarda ham kuzatish mumkin. Demak, gender tushunchasi, nafaqat sotsial hodisa, shuningdek, lingvomadaniy va lingvokognitiv tabiatga ega bo'lgan mental jarayon sifatida ham tadqiq etilishni talab qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Усачева Н. Теория и методология современных гендерных исследований // <http://gender.cawater-info.net/publications/pdf/usacheva.pdf>

2.Iskandarova Sh. O'zbek nutq odatining muloqot shakllari: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Samarqand, 1993. – 25 b.

3.Musaeva F.T. O'zbek tilida jins tushunchasining ifodalanishi: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2019. – 52 b.

4..Umiddjon Yigitaliyev. O'zbek tilida "odam" va "jins" konseptlari bilan bog'liq assotsiativ-verbal birliklar: Filol. fan. bo'y. fals. dokt. ...(PhD) diss. avtoreferati. –T., 2020. –B. 54.

5.https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&cstart=20&pagesize=80&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:g5m5HwL7SMYC



6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:rO6llkc54NcC
7. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:TQgYirikUclC
8. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=z8mdlW8AAAAJ&citation_for_view=z8mdlW8AAAAJ:hMod-77fHWUC

Tursunova Navro'zaxon Ergashboy qizi
QDPI o'zbek tili va adabiyoti fakulteti
2-bosqich talabasi

BOBUR SHE'RIYATIDA "RANG" KONSEPTINING VERBALLASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvokulturologiya tarkibida o'rganiluvchi lingvomadaniy konseptga doir fikr-mulohazalar keltirilgan. Turli rang konseptlari haqida so'z yuritilgan. Bobur qalamiga mansub ijod namularda ishtirok etgan ranglarning anglatayotgan ma'nosi misollar orqali izohlangan.

Kalitso'zlar: konsept, tushuncha, lingvokulturologiya, leksema, assotsiatsiyalashuv, chastota.

Аннотация. В данной статье представлены комментарии к лингвокультурологическому концепту, изучаемому в рамках лингвокультурологии. Обсуждаются различные цветовые концепции. Значение красок, использованных в произведениях пера Бабура, поясняется на примерах.

Ключевые слова. концепт, понимание, языковая культура, лексема, ассоциация, частотность.

Annotation. This article presents comments on the linguistic and cultural concept that is studied as part of linguocultural studies. Various color concepts are discussed. The meaning of the colors used in the works of Babur's pen is explained through examples.

Key words. concept, understanding, linguistic culture, lexeme, association, frequency.

Ma'lumki, tilshunoslikda "konsept" termini ilk marta S.N.Askoldovning 1928-yilda yozilgan "Konsept va so'z" maqolasida ishlatilgan.[1;62] Konsept lotin tilidagi conceptus - «tushuncha» so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillariga qadar tushuncha so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib uning izohi tushuncha terminiga nisbatan kengayganini ko'rish mumkin. [2;44] Konseptga rus tilshunosligida berilgan ko'pdan-ko'p ta'riflar orasida V.A.Maslova tomonidan ilgari surilgan ta'rif, professor N. Mahmudov tomonidan, haqiqatni aniqroq aks ettiradi deb baholangan. Uningcha, konsept "Bu lingvomadaniy o'ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat egalarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir". Professor N.



Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi to'g'risida shunday yozadi: «Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiya tilshunosligi bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul». [3;9] Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo'llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. [2;45] Mana shunday jihatlarini ifodalovchi "rang" konseptiga to'xtalib o'tamiz.

Rang leksemasi (f. – tus, rang, bo'yoq) bo'yash uchun ishlatiladigan modda; bo'yoq ma'nolarini ifodalaydi. Tabiatdan turli xil ranglar mavjud bo'lib, ularning har biri mumtoz adabiyot vakillari ijodida ma'lum vazifani o'tash uchun xizmat qilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub ijod namunalari tarkibida ham ranglar konseptining turfa ko'rinishlari aks etgan. Masalan:

Tani zorimni de, gulshanda shoxi notavon ko'rsang,

Sariq' yuzumni sog'in, bog' aro bargi xazon ko'rsang. [5;116]

Berilgan baytda ishtirok etgan *sariq* leksemasi somon, zarchuva, tilla kabi narsalar tusidagi rang ma'nolarini bildiradi. [4;482] Mumtoz adabiyotda ushbu rang qadimdan oshiq holatini ifodalash uchun qo'llangan. Ma'lumki, biror kasallik bilan xastalangan insonning holati uning tashqi ko'rinishi, yuzi orqali seziladi. Yuzdagi sarg'ayish insonning ahvoli yaxshi emasligini va kasallik alomatini bildiradi. Shuningdek, sariq rang vositasida xazonga ishora qilinishi ham ma'no kuchini oshirgan. Sariq konsepti mumtoz adabiyot vakillari ijodida shu tarzda assotsiatsiyalanadi. Aynan ushbu leksema qo'llangan g'azallar Bobur ijodida ko'plab uchrab turadi.

Xazondek qon yoshim sariq' yuzumdin el tanaffurda,

Bahar range, bihamdilloh, ulusdin o'zni qutqordim. [5;118]

Quyidagi baytda ham aynan oshiq holatining yomon ekanligi va xastalikka uchragani haqida ma'no anglatish uchun sariq leksemasiga murojaat qilgan. Bu orqali ijodkor oshiq iztiroblarini yanada yaqqol aks ettira olgan. Bu galgi keltirilgan misolda ham "xazondek sariq yuz" ma'nosi bayt mazmuniga singdirilgan. Sariq rangining shunday assotsiatsiyalashuvi o'zbek xalqi ongiga singib ketganini "Ona yurtning omon bo'lsa, Rangu ro'ying somon bo'lmas" maqoli orqali ham sezish mumkin. Chunki xalq maqollari shu xalq madaniy hayoti va turmush tarzini o'zida jamlovchi vositalardir.

Qosh yosi bila ul qora ko'z g'amza o'qini

Ushshoqdin o'zga sorig'a otsa xatodur. [5;13]

Qora leksemasi eski o'zbek tilida boshqa rang bildiruvchi sifatlarga nisbatan ko'p ma'noliligi hamda qo'llanish chastotasiga ko'ra ajralib turadi. Tarixan bu so'zning ma'nosi kengayib borgan. Turkiy tillarda qora so'zi "katta", "yirik", "muhtasham", "ulug'", "qudratli", "kuchli", "pokiza", "musaffo", "quruqlik", "yer", "zulmat ko'ki", "shimol" kabi ma'nolarni ifodalagan. Navoiy asarlarida qora konseptida qaro balo (yopirilib kelgan ofat), qaro jon (qiynalgan jon), qaro og'riq (qorayish kasali), qaro pul, qaro qayg'u, axtar qaro (baxtsizlik), bag'riqaro(qush) tushunchalari ham bor. [6;91] Boburning g'azalida *qora* leksemasi *ko'z* leksemasiga bog'lanib, *qora ko'z* birikmasini hosil qilgan va bu orqali ma'shuqa ma'nosini akslantirgan. Qora rang o'zida ma'shuqa ma'nosini assotsiatsiyalashtirgan.



*Boshimg'a chiqti tutun rashkdin qora sochdin,
Ayoqqa tushgali, ey sarvinoz, to soching. [5;18]*

Ushbu baytdagi *qora* konsepti o'z ichiga turfa xil ma'nolarni mujassamlashtirgan. Soch leksemasi bilan birikib, *qora soch* ya'ni yor ma'nosini tutun leksemasi bilan birikib, rashkidan chiqqan tutunning qoraligi ma'nosini, shu bilan bir qatorda, *qora* rangli soch ma'nosini ham anglatgan. Bir o'rinda uch xil ma'noni assotsiatsiyalashtirgan.

*Yo qahru g'azab birla meni tufroq qil!
Yo bahri inoyatingdan mustag'raq qil!
Yo Rab, sengadur yuzum – qaro, gar oq qil,
Har nav' sening rizong erur, andoq qil! [5;59]*

Bobur qalamiga mansub ruboiyda *qora* hamda *oq* ranglari o'zaro zid ma'noda qo'llangan. Bu ikki rang konseptlaridagi qarama-qarshilik o'z zamiriga yaxshi fazilatlariga ega bo'lgan shaxs hamda yomon illatlar sohibi bo'lgan inson mazmunlari singdirilgan. *Qora* rang konsepti gunohkor banda, *oq* rang konsepti ayb hamda xatoliklardan yiroq, solih banda ma'nolarini assotsiatsiyalashtirgan.

*To oq yuzing yiroq tushti,
Ikki ko'zim ichra oq tushti.
Og'zing g'amidinki, tangdilmen,
O'lmay yururam, ne sangdilmen.[5;90]*

Berilgan misoldan o'rin olgan *oq* lekemasi ikki o'rinda qo'llanib, omonimlikni hosil qilgan. Ijodkor birinchi misrada qo'llangan *oq* rang konsepti ostiga yor yuzidagi go'zallik ma'nosini assotsiatsiyalashtirgan bo'lsa ikkinchi misradagi *oq* rang konsepti orqali ko'zga tushadigan kasallik ma'nosini akslantirgan. Ko'zga *oq* tushishi, leykoma -ko'z muguz (shox) pardasining xiralashuvi; odatda, parda shikastlanganda yoki unda yallig'lanish, yaralanish jarayoni paydo bo'lganda kuzatiladi. Bu kasallik ko'rish qobiliyatini cheklab qo'yadi.

Xulosa qilib aytganda, konsept tushunchasi o'z ichiga bir qancha ma'nolarni umumlashtira oladigan birlik hisoblanadi. Tabiatdagi turfa ranglar konsepti qo'llanish holatiga hamda ijodkor mahoratiga qarab yangidan-yangi ma'nolarni assotsiatsiyalashtiradi. Konsept linvokulturologiyaning faol birligi bo'lish bilan bir qatorda, xalqlar madaniyati hamda mentalitetini o'zida aks ettirish xususiyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Baxronova D. Olamning lisoniy manzarasi tasvirida konsept va konseptosfera "Xorijiy filologiya" 2019.
2. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019
3. N. Mahmudov Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... O'zbek tili va adabiyoti "Fan" T.: 2012
4. O'zbek tilining izohli lug'ati T.: "O'zbek milliy entiklopediyasi" 2006
5. Zahiriddin Muhammad Bobur www.ziyouz.com kutubxonasi
6. N. Umarova Alisher Navoiy asarlarining lisoniy-konseptual tadqiqi (DSc) Farg'ona 2021



RITORIK SOʻROQ GAPLAR PRESUPPOZITSIYASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ritorik soʻroq gaplarning maʼno jihatdan qoʻllanilib, presuppozitsiya hodisasiga ishora qilishi va yashirin maʼno ifodalashi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ular ifodalagan yashirin maʼno (presuppozitsiya) fikrni mazmunan murakkablashtirishi va ayni vaqtda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltirishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit soʻzlar. presuppozitsiya, propozitsiya, ritorik soʻroq gaplar presuppozitsiyasi, yashirin maʼno, kontekst, ritorik soʻroq gaplarning maʼno turlari.

Til birliklarining aynan kontekst, kommunikativ muhit, til egalarining lisoniy qobiliyati, til bilimi va koʻnikmalari, nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari kabi muloqot tamoyillari bilan bogʻliq holda tadqiq etish maqsadi pragmalizingvistikaning mustaqil yoʻnalish sifatida ajralib chiqishiga turtki berdi. Oʻzbek tilida bir soʻz orqali murakkab mazmunni ifodalovchi presuppozitsion signallar xilma-xildir. Shu signallar orqali bir soʻzning oʻzi ifodalagan maʼnosidan tashqari qoʻshimcha ravishda yashirin maʼnolarni ham his etish lozim. Bu yashirin maʼnolarni tadqiq etish bilan bevosita presuppozitsiya hodisasi shugʻullanadi.

Presuppozitsiya – (lot. prae - oldinda, oldinga va supposition – joylashtirish, qoʻyish) til birligining nutqiy vaziyat, matn, til egalarining nutq obyekti haqidagi umumiy bilimlari bilan bogʻliq xususiyatlarini yashirin yoʻl bilan namoyish etuvchi lingvistik hodisa boʻlib, muayyan tashqi va ichki omillar taʼsirida yuzaga chiqadi va gapda nutqiy tejamlilikni yuzaga keltiradi, til belgisining nutq bilan bogʻliq jihatlarini namoyish qiladi.

Presuppozitsiya hodisasiga, asosan, til hodisasi sifatida qaralib, unga quyidagi belgilarni asos qilib olishimiz mumkin: bevosita ifodalanmaslik va gap qurilishidan anglashilish. Bundan kelib chiqadiki, leksik sathdagi soʻz va boshqa birliklardan ifodalanmoqchi boʻlgan maʼnolar ham yaqqol koʻrinmaydi. Balki bu maʼno soʻzni sinchkovlik bilan qaralgandagina yuzaga chiqadi. Nazariy adabiyotlarda taʼkidlanishicha, presuppozitsiya matnni “semantik jihatdan murakkablashtiradi. Bunday vaqtda ayrim soʻz yoki grammatik shakl orqali ifodalangan propozitsiya oʻzining eng ixcham shakliga ega boʻladi. Soʻzlovchi va tinglovchi uchun uning tushunarli boʻlishida presuppozitsiya yordamga keladi [1:113]. Presuppozitsiya maʼlum matn ifodalayotgan propozitsiyani toʻgʻri tushunilishiga imkon beradigan soʻzlovchilar oʻrtasidagi “bilishning umumiy fondi”, “oldindan bilishning jami – bilishlarning” sifatida belgilanadi [4:28].

Ritorik soʻroq gaplar – tasdiq va inkor maʼnosiga ega boʻlgan, javobi mazmunidan kelib chiqib ifodalanadigan gaplar. Bunda soʻzlovchi yangi maʼlumot olishni koʻzda tutmaydi, shuning uchun soʻroqqa javob talab qilinmaydi. Ular koʻtarinki, kuchli hissiyot bilan aytiladi, badiiy matnning emotsional ekspressivligini taʼminlovchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi [2:153].



Ritorik soʻroq gaplarning yozuvchi tomonidan mohirona qoʻllanilishi asarning badiiyligini, taʼsirchanligini yanada oshiradi va kontekst tarkibida maʼlum bir yashirin maʼno ifodalaydi. Ritorik soʻroq gaplarning maʼlum bir maʼno ifodalashi orqali gapda muayyan presuppozitsiyaga yoʻl ochiladi va kontekstning murakkablashuvini yuzaga keltiradi. Ritorik soʻroq gaplarning maʼno turlaridan yuzaga chiqadigan presuppozitsiyani misollar orqali koʻrib oʻtamiz:

1. Ritorik - tasdiq;

-Endi shuni butun dunyoga yoyish kerakmidi? - dedi Boʻri polvon kalovlanib (Togʻay Murod “Yulduzlar mangu yonadi”). Ushbu gapda -mi yuklamasi orqali “Endi butun dunyoga yoyish shart emas edi”,- degan yashirin maʼno mavjud.

2. Ritorik – inkor;

Yo, alhazar! Qabristonga qoʻl tekkizib boʻladimi? Qabrni buzib boʻladimi (Oʻtkir Hoshimov)? Ushbu gapda yashirin inkor orqali ifodalangan soʻroq gap orqali “Qabristonga qoʻl tekkizib boʻlmaydi, qabrni buzib boʻlmaydi, bu katta gunoh”,- degan hukm anglashiladi. Uning sintaktik qurilishi gapning logik mazmuniga mos kelmaydi, ritorik soʻroq gaplar ekspressiv funksiya vazifasini bajaradi [3:31].

3. Ritorik – taajjub;

Oy qaysi oshiqqa bir oʻpich berdi? Oy qaysi oshiqqa vafo qildi? Dunyoda nima moʻl, toʻrt oyoqli jonivor moʻl! Duch kelmish toʻrt oyoqli jonivorni qanday boʻlsa, shundayligicha el orasiga olib kirib boʻladimi (Togʻay Murod “Ot kishnagan oqshom”)? Yuqoridagi gaplarda ham ritorik soʻroq gaplar yashirin tasdiq, gʻazab, kinoya, taajjub kabi maʼnolar ifodalanib, presuppozitiya (yashirin maʼno) ga ishora qilgan va qahramon nutqining jonli chiqishiga, taʼsirchan boʻlishiga xizmat qilgan.

4. Ritorik – tashvish;

-Uning kelganini koʻpchilik bilmaydi-ya? Ayt tom ustiga chiqib oʻzini yashirib oʻtirsin (Oybek). Bu parchada qoʻllangan ritorik soʻroq gap orqali “Uning kelganini hech kim bilmaydi”,- degan tashvish maʼnosidagi presuppozitsiya (yashirin maʼno) ifodalangan va fikrning mazmuniy murakkablashuviga olib kelgan.

5. Ritorik – gʻazab;

-Bola degan ham shunday boʻlmagʻur boʻladimi (Gʻafur Gʻulom “Shum bola”)? Berilgan gapda “Bola degan bunday boʻlmagʻur boʻlmaydi”,-degan gʻazab maʼnosidagi ritorik soʻroq gap qoʻllangan va gapda presuppozitsiya (yashirin maʼno) ifodalanishiga yoʻl ochgan.

6. Ritorik – gumon;

-Mehrning yosh-qarisi boʻlarmikan a (Oʻtkir Hoshimov “Dunyoning ishlari”)? Ushbu gapda “Mehrning yosh-qarisi boʻlmaydi”,- degan ritorik soʻroq gap orqali gumon maʼnosidagi presuppozitsiyani anglab olishimiz mumkin.

7. Ritorik – kuchli hayajon;

Bizning boʻston qayda bor,

Shohimardon qayda bor,

Soʻlim Surxon qayda bor,

Samarqand non qayda bor-a?

Oʻzbekiston qayda bor!? Ritorik soʻroq gaplar sheʼriy matnlarga ham oʻzgacha ohang bagʻishlaydi va nutqiy tejamlilikni yuzaga chiqaradi. “Oʻzbekistonday yurt hech qayerda yoʻq”,- degan presuppozitsiya (yashirin maʼno)ga ishora qiladi.



Ma'lum bo'ladiki, ritorik so'roq gaplar presuppozitsiyasi kontekstda nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisadir. Uning to'g'ri tushunilishida nolisoniy omillar – nutqiy vaziyat, kontekst, so'zlovchi va tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan umumiy bilimlar hamda nutq egalarining til ko'nikmalari yordamga keladi. Shunday ekan, ritorik so'roq gaplarning presuppozitsiyaga ishora qilishi va fikrning ixchamligini yuzaga keltirishi kabi masalalarni tadqiq etishni lozim deb topdik. Mazkur izlanishimiz ritorik so'roq gaplarning kontekst tarkibida presuppozitsiyaga ishora qilishi orqali tinglovchiga ta'sir kuchini yanada oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A. Nurmonov, N. Mahmudov. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. –T.: 1992. B-113.
2. A. Shomaqsudov va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi.-T.: O'qituvchi.1983. B-153.
3. X. Ismatullayev. Ritorik so'roq gaplar. - ToshDU.: Ilmiy ishlar to'plami. 268-son. B-31.
4. N. Mahmudov. Presuppozitsiya va gap. –T.: 1986. B-28.
5. U.Rahimov. Tagma'no va presuppozitsiya.-T.: O'TA.5-son, 2005, B.12-306. – P. 335.





III.GLOBALASHUV DAVRIDA TIL VA ADABIYOT TA'LIMI TARAQQIYOTI

*Erkaboyeva N.Sh.
Qo'qon DPI professori*

YANGILANAYOTGAN TA'LIM SHAROITIDA TA'LIM OLUVCHILAR JAMOASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim islohotlari sharoitida ta'lim oluvchilar jamoasining kompetentli shakllanganligi, ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligining asosiy omillaridan biri ekanligi, shuningdek, ushbu jamoaning bajaradigan funksiyalarini ta'lim islohotlari talablari bilan bog'lash o'ziga xos pedagogik shart-sharoitlarni, maxsus texnologiya va uslubiyotga ega bo'lish mahoratini talab etishi haqida fikrlar bayoni keltirilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim islohoti, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, insonparvar yondashuv, yangicha pedagogik tafakkur, pedagogik qadriyat, ta'limiy, tarbiyaviy, yo'naltiruvchi funksiya, jamoaparvarlik texnologiyalari, kommunikativ kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchining ta'lim oluvchilar jamoasiga bo'lgan munosabatini demokratlashtirish, insonparvarlashtirishga asos yaratish bilan birga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasiga tayangan holda ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlash modelini takomillashtirishni talab etmoqda. Ta'lim jarayonida shaxslararo munosabatlarni yangi sifat bosqichiga ko'tarish talab qilinayotgan bugungi kunda o'qituvchilarning maxsus kompetentligini ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlashga yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmonlari ta'lim islohotlarini chuqurlashtirish, ta'lim oluvchilar jamoasida sog'lom psixologik muhitni vujudga keltirishning me'yoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi.

Ta'lim islohotlari jarayonida ta'lim-tarbiyaning yangicha shaxsiy sifatlarga ega bo'lgan ta'lim oluvchilar jamoasini shakllantirish vazifasini hal etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan zamonaviy **tendensiyalar** (gumanistik, gumanitar, ijtimoiy va kommunikativ faoliyat) **shaxsni takomillashtirish** (ta'lim-tarbiyaning birligi, nazariya va amaliyot o'rtasidagi bog'liqlik), **muloqot madaniyatiga kiruvchi omillar** (hissiy, rag'batlantiruvchi, ta'lim oluvchi shaxsi uchun ahamiyatli, ijtimoiy ehtiyojga asoslangan, jamoani mustahkamlashga, undagi sog'lom muhitni barqarorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi) metod, usul, texnologiyalarni takomillashtirish ayni muddao hisoblanadi.



O'tmishda buyuk ajdodlarimiz Arastu, Suqrot, Platon, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Yusuf Hos Hojib, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabilar jamoa bilan ishlashning imkoniyatlarini namoyish etish bilan birga uning nazariy asoslarini ham ko'rsatib berganlar.

Abu Nasr Farobiy o'z asarlarida jamoa bo'lib yashashga tabiiy moyillik inson turmush tarzining mazmunini tashkil etishini ta'kidlab o'tadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lishi uchun odamlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sabab yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishuvi mumkin. Bunday jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashashi va yetuklikka erishishi uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi..."

Respublikamiz olimlaridan N.Ortiqov [5], M.Quronov [6], O.Musurmonova [7] M.Mirqosimova [8], N.Tosheva [102] kabilarining ilmiy ishlarida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar jamoasiga nisbatan insonparvar munosabatda bo'lish o'z ifodasini topgan.

Bugungi kunda ta'lim oluvchilarning ham jismoniy, ham intellektual, ham ruhiy, ham ma'naviy-axloqiy jihatdan rivojlanishidagi jadallik o'qituvchining ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlash maromini o'zgartirishni taqozo etmoqda. Bu esa o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini, kasbiy ongi, kasbiy kompetentligini takomillashtirib borishi muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatmoqda. Ushbu jarayonda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etib borilishi pedagogning ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlash mazmuni va texnologiyalarini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Bu esa pedagogdan ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar jamoasining har bir a'zosiga **subyekt** sifatida yondashib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni talab etadi. I.Kolesnikovaning fikriga ko'ra ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogning ta'lim oluvchilar jamoasi bilan birgalikda amalga oshiradigan faoliyati ongli, erkin, maqsadga yo'naltirilgan, jamoa a'zolarining tanloviga asoslangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon o'z-o'zidan ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarni jamoa sifatida birgalikda, o'zaro hamkorlik asosida faoliyat ko'rsatishga o'rgatish dolzarb **pedagogik qadriyat** darajasidagi zaruriyat hisoblanishini ko'rsatadi. Buning uchun esa pedagoglarda kreativlik, o'z faoliyatiga tanqidiy yondashish, ma'suliyatlilik, tolerantlik, qiziquvchanlik, empatiya kabi sifatlar barqaror bo'lishi zarur. Ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlash jarayonini tashkil etishda pedagoglarda **yangicha pedagog tafakkurning** shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- pedagogning ta'lim oluvchilar faoliyatini ta'lim islohotlari talablaridan kelib chiqib maqsadli tashkil etishi;
- ta'lim oluvchilar jamosining har bir a'zosiga nisbatan obyektiv, tolerant munosabatda bo'lishi;
- jamoadagi pedagogik-psixologik muhitni va undagi ustuvor jihatlarni chuqur tahlil qila olish;
- ta'lim oluvchilar jamoasida mavjud bo'lgan kamchilik va bo'shliqlarni chuqur tahlil qilib, muammolarni bartaraf etish yo'llarini ko'rsata olishi;
- pedagogik jamoani jipslashtirishga oid ilg'or ish tajribalarini o'rganishi, umumlashtira olishi va faoliyatda qo'llay olishi kabilar hisoblanadi.



Ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlashda pedagogning kasbiy ijodkorligi uning ta'lim oluvchilar bilan ruhiy jihatdan yaqinlashuvini ta'minlaydi va ularni ma'naviy axloqiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim oluvchilar jamoasi bilan ishlash ta'lim-tarbiyaning asosiy shaklini ifodalab, pedagog faoliyatining pedagogik-psixologik hamda metodik asosi sifatida namoyon bo'ladi. Ta'lim oluvchi shaxsning shakllanishi va rivojlanishi ularning ta'lim-tarbiyasi pedagogik jamoada amalga oshishi va u ta'lim-tarbiyaning muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni yoshlar ta'lim-tarbiyasi aynan ta'lim oluvchilar jamoasida samarali, kutilgan natijalarni berishi muhim pedagogik talab hisoblanadi. Ta'lim oluvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish sharti sifatida ta'lim oluvchilar jamosi quyidagi o'ziga xos belgilarga ega:

- 1) ta'lim oluvchilar jamoasi uzluksiz rivojlanib, taraqqiy qilib boruvchi dinamik xarakterdagi mexanizmga egaligi.
- 2) ta'lim oluvchilarni turli tuman ijtimoiy faoliyatga tizimli tarzda jalb etilishi.
- 3) ta'lim oluvchilar jamoasi izchil tarzda jamiyat talablari asosida rivojlanishi.
- 4) jamoada o'zaro hurmat, ishonch va talabchanlikka asoslangan muhitning ustuvorligini.
- 5) ta'lim oluvchilar jamosida ongli intizom, tanqid va o'z-o'zini tanqidning rivojlanganligi.

Ta'lim oluvchilar jamoasiga xos bo'lgan yuqoridagi xususiyatlar o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Bunday xususiyatga ega ta'lim oluvchilar jamoasini shakllantirish uchun jamoa quyidagi funksiyalarni bajarishga qodir bo'lishi zarur:

1. Tashkiliy funksiya - ta'lim oluvchilar jamoasi o'zining ijtimoiy-foydali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi. Ushbu imkoniyat ta'lim oluvchilar jamosida qulay pedagogik-psixologik muhitni qo'llab quvvatlash, har bir jamoa a'zosining individual va gender xususiyatlarini hisobga olish orqali ijobiy sifatlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

2. Tarbiyaviy funksiya - ta'lim oluvchilar jamoasi muayyan axloqiy ideallarning tashuvchisi va targ'ib qiluvchisi sifatida namoyon bo'lishi. Ushbu funksiya ta'lim oluvchilar jamoasi bilan pedagoglarni hamkorligini qo'llab-quvvatlanishi, jamoa a'zolari xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarni korreksiya qilish, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini barqarorlashuviga imkon beradi. O'quvchilar jamoasidagi muhitni sog'lomlashtirish, jamoaning jipslashuvi, jamoa a'zolarining faolligini oshirishga qaratiladi.

3. Yo'naltiruvchi funksiya - ta'lim oluvchilar jamoasi ijtimoiy foydali ishlarni amalga oshirishga yo'naltiruvchi kuch sifatida shakllanishi hamda jamoa a'zolarining xulq-atvori, o'zaro munosabatlarini boshqarishi. Jamoaning barcha a'zolariga pedagog tomonidan ko'rsatiladigan pedagogik ta'sir ta'lim oluvchilarning rivojlanish yo'lini belgilaydi, ular orasida psixologik yaxlitlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Pedagog ta'lim oluvchilar jamoasining yuqoridagi bajaradigan funksiyalarini o'zining kasbiy faoliyatida kompleks tarzda qo'llay olishi ta'lim-tarbiya sifati va samaradorligini oshirish bilan birga zamonaviy o'quvchi, talaba shaxsini davr talablari darajasida tarbiyalash uchun imkoniyat ekanligini anglab yetadi. O'zining pedagogik kasbiga qadriyatli-ijobiy munosabatda bo'ladigan pedagoglar ta'lim oluvchilar jamoasidagi **liderlar** bilan samarali hamkorlik o'rnatishi, ularning qabul qilgan qarorlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi orqali ularni qo'llab-quvvatlash va faolliklarini oshirishga



intiladilar. Shuningdek, ta'lim oluvchilar jamoasini samarali boshqarishda pedagog quyida texnologiyalardan maqsadli foydalanishi muhim hisoblanadi:

- ta'lim oluvchilar jamoasini jipslashtiruvchi texnologiyalar (ishchan o'yinlar, o'zaro dialog, klaster).
- ta'lim oluvchilar jamoasi hamkorlikka va muloqotga undovchi texnologiyalar.
- ta'lim oluvchilarda namunali xulq-atvorni shakllantiruvchi texnologiyalar.
- ta'lim oluvchilar jamoasini mustaqil bilim olish, bahs-munozaraga kirishish, muhim qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan texnologiyalar va x.k.

Quyida ta'lim oluvchilarda jamoaparvarlik sifatini shakllantirishga imkon beruvchi metodikalardan namunalari keltirildi.

Ta'lim oluvchilarda jamoaparvarlikka zid xususiyatlarni korreksiyalash.

Metodikalar	Ularning mohiyati
Xayr, xudbinlikka oid odatlarim.	Mashqlar yordamida ta'lim oluvchilardagi xudbinlik illatlari bartaraf etiladi.
Tengdoshlar, kelinglar do'stlashamiz.	Ta'lim oluvchilarga jamoaning ijobiy imkoniyatlarini ko'rsatish orqali ularda sinf jamoasiga, akademik guruh jamoasiga, ijobiy muhit va uning qudratiga ishonch mustahkamlanadi.
Odamiylik formulasidan-jamoaviylik qadriyatiga.	Hayotiy misollar va muammoli vaziyatlar yordamida, maqsadli tashkil etilgan jamoaviy tadbirlar, ta'lim texnologiyalar vositasida ta'lim oluvchilar jamoasi qadriyat sifatida shakllanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, ta'lim oluvchilar jamoasini maqsadli tashkil etish ta'lim-tarbiya muassasasidagi samadorlikning asosiy sharti hisoblanib, ta'lim oluvchilar jamoasini shakllantirish va rivojlantirishda jamoaning xususiyatlari, uni shakllantirish bosqichlari, texnologiyalari haqida maxsus tayyorgarlikka ega bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ta'lim muassasasida o'qituvchilarda o'quvchilar jamoasiga qadriyat sifatida munosabatda bo'lish, uning talablariga rioya qilish orqali jamoani mustahkamlashga ongli munosabatni tarbiyalash pedagoglarning maxsus kompetensiyalarga ega bo'lishlarini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 2020-yil, 23-sentyabr O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Qarori. 2022 yil 28-yanvar.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni. 2019-yil 29-aprel.
4. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri.-T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi



- nashriyoti.- 1993.223 b.
5. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish.: Ped. fan. dokt... diss.- T.: 2000.-305 b.
 6. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt... diss. -Toshkent. 1998.-316 b.
 7. Musurmonova O. Sog'lom avlod- millat kelajagi: (monografiya).- T. Fan va texnologiya 2013.- 188 b.
 8. Mirqosimov M. Maktabni boshqarishning nazariy va pedagogik asoslari. - toshkent: O'qituvchi, 1995.- 159 b.
 9. Колесникова И.А. Педагогическая реальность в зеркале межпарадигмальной рефлексии. –СПб: СПбУМП, 1999-442 с.
 10. <http://pedagogic.ru./books.item/too/soo/z0000033/st019.Shtml>

Asaludin Bawer
Balx davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi mudiri, dotsent, filologiya fanlari doktori

AFG'ONISTON OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TURK TILINI CHET TILI SIFATIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'oniston oliy ta'lim tizimining ayrim davlat universitetlarida turk tilini chet tili sifatida o'rganishning qo'llanilishi haqida va o'quv faoliyatini hozirgi kunda ham davom ettirib borayadigon o'zbek va turkcha ta'lim-tarbiya fakultetlari hamda kafedralar soni qoshida amalga oshiriladigan ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. Ta'lim, fakultet, bo'lim, chet tili sifatida turk tili.

Annotation. This article provides information about the use of Turkish as a foreign language in some state universities of the Afghan higher education system and the number of Uzbek and Turkish educational faculties and departments which are currently continuing their activities.

Keywords. Education, faculty, department, turkish as a foreign language.

Turk tilini chet tili sifatida o'rgatishdan asosiy maqsad turk tilini o'rgatish jarayonida talabalarga kerakli kompetensiyalarni berishdir. Boshqa chet tilini o'qitish jarayonlarida bo'lgani kabi turk tilini chet tili sifatida o'rgatishda ham turli qiyinchiliklarga duch kelgan sohalaridan biri yozishdir. Til o'rganish jarayonida eng muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lgan yozish, tilni o'rganish jarayonida maqsadli muloqot qilish qobiliyatining muhim elementlaridan biridir. Til odamlar o'rtasida muloqot va kelishuvni yaratuvchi va jamiyatni o'z ichiga olgan shakllanishdir. Til - bu odamlar o'zlarining fikrlari va his-tuyg'ularini yetkazish uchun so'zlar yoki belgilar bilan ishlatadigan kelishuvdir (Türk Dil Kurumu, 2009, 526-bet).

Afg'onistondagi Turk Etnik Guruhi Afg'onistonning shimoliy qismida turk millatiga mansub odamlar yashaydigan mintaqa Afg'oniston Turkistoni yoki Janubiy Turkiston deb ataladi. Afg'onistonda umumiy mintaqadagi o'zbek, qirg'iz, qarluq, qoraqalpoq,



turkman, qozoq va qipchoq etnik guruhlar 22 ta guruhni tashkil etadi. Bu guruhlardagi o'zbeklar va turkmanlar turk etnik guruhining ko'p qismini tashkil qiladi.

Globallashib borayotgan dunyoda turk tilini o'rganish bugungi kunda ahamiyat kasb etmoqda. Turk tili keng geografik hududda so'zlashadi (Guzel va Barin, 2013). Turk tili dunyoda so'zlashuvchilar soni jihatidan muhim tildir. Turk tili hozirgacha topilgan tarixiy yozma manbalari, so'zlashuv mintaqalari bo'yicha geografik tarqalishi va til tuzilishi jihatidan dunyoda o'rganilishi eng ko'p talab qilinadigan tillar qatoriga kiradi. Mamlakatning geografik joylashuvi hisobga olinsa, turk tilini ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'rganish ham muhim; chunki Turkiya har tomondan immigratsiya qabul qiladigan davlat. Buning sababi turli mamlakatlardagi iqtisodiy muammolar, urushlar, siyosiy vaziyatlar, ta'lim va shunga o'xshash omillardir.

Turkiya Bolqon, Afrika, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlaridan universitet ta'limi uchun katta miya oqimiga mezbonlik qilmoqda va aksincha, bu mamlakatlarda oliy ta'lim imkoniyatlari yetarli emasligi sababli. Turkiyadagi bakalavriat ta'lim muassasalarining aksariyatida ta'lim tili turkcha bo'lgani uchun chet eldan kelgan har bir talaba uchun turk tilini bilish sertifikatini talab qilinadi. Shu sababli, kiruvchi talabalar turk tilini bilishlari va kerakli sertifikatni olishlari shart. Ushbu zaruriy vaziyatni qondirish uchun turli ta'lim muassasalari o'z tuzilmalarida Turk tilini o'qitish markazlarini tashkil etdilar. Ushbu muassasalar talabalar uchun tilni yetarli darajada o'qitish va jarayon oxirida sertifikatlar berish uchun javobgardir. Ushbu markazlardan tashqari, ehtiyojlar uchun o'qitiladigan xususiy muassasalar ham mavjud. Biroq, bu muassasalar sertifikat berish uchun rasmiy vakolatlarga ega emas. Masalan, Yunus Emre instituti bu borada mamlakatimizda xizmat qilayotgan muhim muassasalardan biridir. Ammo boshqa muassasalardan farqli o'laroq, Yunus Emre instituti talabalarga xorijda ta'lim olish imkoniyatini ham beradi. Bu turk tilining butun dunyoda tan olinishi va tanilishi nuqtai nazaridan muhim nuqtadir.

Ta'limdan tashqari turli sabablarga ko'ra mamlakatimizga ko'chib kelgan yoki hatto o'rnashib qolganlar uchun til o'rganish Turk tili o'qitish markazlari, xususiy muassasa va tashkilotlar va xalq ta'lim markazlari tomonidan ochilgan turk kurslari tomonidan amalga oshiriladi. Mamlakatning modernizatsiyasi va turk tilining dunyoda qo'llaniladigan ilmiy tillar qatoriga kirishi uchun muhim o'rin tutgan ikkinchi uchinchi til sifatida turk tilini o'rganish; Bu boshqa mamlakatlardagi odamlarga mamlakatimizdagi o'zgarishlar haqida ma'lumotga ega bo'lish va bir vaqtning o'zida sodir bo'layotgan ilmiy ishlanmalarni kuzatish imkonini beradi. Turk tilini ikkinchi yoki uchinchi til sifatida o'rganish turli ehtiyojlarga ahamiyat berilishi, bundan tashqari o'rganilishi kerak bo'lgan sohadir.

Voyaga yetganlar uchun til - bu odamlar o'rtasidagi tabiiy muloqot vositasi, o'z qonunlariga ega bo'lgan va faqat shu qonunlar doirasida rivojlanadigan tirik mavjudot, noma'lum vaqtlarda poydevor qo'yilgan yashirin kelishuvlar tizimi, ijtimoiy institut tovushlar (1986). Ercilasun nazarida til milliy hodisa bo'lib, u quyidagi fikrlarni qo'shimcha qiladi: «Tilning milliy ekanligining yana bir o'lchovi shundaki, u avlodlar o'rtasida rishtalar o'rnatadi. Avlodlari til, din va urf-odatlar kabi qadriyatlar bilan bog'lanmagan jamiyat vaqt o'tishi bilan millat bo'lishni to'xtatadi (Ergin, 1986).

Kun sayin ahamiyat kasb etayotgan chet tilini o'qitishda til o'rgatish uchun faqat grammatika yoki lug'atni o'rgatishning o'zi yetarli emas. Chet tilini o'qitish bo'yicha



tadqiqotlar vaqt o'tishi bilan umumiy maqsadlarni aniqladi. Bu maqsadlar o'qitishni samaraliroq qilish, o'quvchilarga o'rganganlarini amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan sohalarni taklif qilish, ularning o'qishni tushunishlarini yaxshilash va maqsadli tilda muloqot qilish ko'nikmalarini oshirishdan iborat. Til o'rgatish yaxlit ko'rib chiqilsa, uni gapirish, yozish, o'qish va tinglash kabi to'rtta asosiy ko'nikmalarga ajratish odatiy holdir.

Chet tilini o'rganish jarayonida qo'llaniladigan usullardan biri bo'lgan so'zlashuv amaliyotidan so'ng so'zlash qobiliyati va yozish amaliyoti tilning ifodalanishida mavjud bo'lgan belgi va alomatlarni umumiy nuqtai nazardan tushunish imkonini beradi. Yozish usuli va qobiliyati tadqiqotchilar tomonidan turli yo'llar bilan aniqlangan, ammo bir xil markazlarda umumiydir. Masalan, Rivers (1981) fikriga ko'ra, yozish qobiliyatini ko'p qirrali tizimlar nuqtai nazaridan shaxsning ushbu mavzu bo'yicha bilimlarini va boshqa ko'nikmalarni yozma shaklda o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan meta-kognitiv hodisa sifatida tavsiflash mumkin. Güneş (2014, 338-bet)ning fikricha, u tildan foydalanish qoidalarini aniqlash va bu qoidalarni ifodaga uyg'unlik bilan kiritish kabi kognitiv qobiliyatlarni o'z ichiga olgan jarayon sifatida ta'riflanadi. Boshqa bir tadqiqotida Tiryaki (2013, 39) yozish qobiliyatini tilning sintaksisi va so'z qismlarini shakllantira oladigan va mavzu haqida ma'lumot berishni maqsad qilgan kognitiv faoliyat sifatida ta'riflaydi. Xotira bilan yozish qobiliyatining umumiy nuqtalarini tilga olgan Çakir (2010, 11-bet) bu qobiliyatni qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga ma'lumotlarning o'tish davrida faol bo'lgan kognitiv ishlash deb hisobladi. Akademik malaka va muvaffaqiyatda yozish qobiliyatining ahamiyatini ta'kidlaydigan tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da (masalan, Ungan, 2007, p. 3 467; Akdemir & Eyerci, 2016), shuningdek, o'z fikrini yetkazish qobiliyatining muhimligini ta'kidlaydigan tadqiqotlar mavjud. Agar umumlashtirsak, yozish qobiliyati Göçer (2010, 181-bet) ta'kidlaganidek, fikrlarni o'z ichiga olgan iboralarni yozish uchun muhim kompetensiya ekanligini ta'kidlash mumkin. Ijodiy mahorat hisoblangan yozuvning nutq qobiliyati kabi bir nechta ma'no va jihatlari borligini aytish to'g'ri bo'ladi. Natijada grammatik (semantika, leksikologiya, sintaksis, morfologiya) va tinish belgilari qoidalari doirasida yozish qobiliyati namoyon bo'ladi (Barchasi, 2020, 138-bet).

Maqolani ushbu qismida tadqiqot modeli, tadqiqotga kiritilgan ishtirokchilar, ma'lumotlarni yig'ish jarayoni va ma'lumotlarni tahlil qilish usuli haqida ma'lumotlar keltirilgan. Afg'onistonda xorijiy til sifatida turk tili Kamgar (2003) tomonidan yozilgan "Afg'oniston ta'lim tarixi" kitobida Afg'onistonda oliy ta'lim tizimida chet tili sifati va turk tilini o'rganishning qo'llanilishi haqida quyidagi ma'lumotlar berilgan

Kobul universiteti

Kobul universitetida turk tili darslari C1 darajasiga qadar to'rtta sinf va to'qqiz nafar o'qituvchi bilan olib boriladi (Bashar, 2018, p.14). Yuqorida ta'kidlanganidek, Turk tili va adabiyoti kafedrası dastlab Adabiyot fakulteti tarkibida ta'lim jarayonini boshlagan, so'ngra TIKa hissalari bilan qurilgan fakultet binosida o'quv faoliyatini davom ettirgan. Bino 2012-yilda qurilgan va o'shandan beri turk ta'limi davom etmoqda. TIKa tomonidan qurilgan bu binoda turk tili va adabiyoti bo'limi talabalari ham, Yunus Emre instituti talabalari ham ta'lim oladi.

Shahid Professor Rabboniy ta'lim universiteti



Shahid Professor Rabboniy ta'lim universiteti poytaxtdagi Turk tili va adabiyoti bo'limi sifatida turk tilini chet tili sifatida o'qitishni ta'minlovchi ikkinchi universitetdir. Kafedra 2014-yilda o'quv faoliyatini boshlagan va 2017-yilda o'zining ilk bitiruvchilarini tayyorlagan. U turk tilidan C1 darajasida dars beradi. Beshta o'quv a'zosi foydalanishi uchun to'rtta sinf xonasi mavjud. (Bashar, 2018, 16-bet).

Jevizcan universiteti

Bu universitetda Ijtimoiy fanlar fakulteti qoshida o'zbek tili va adabiyoti bo'limi va turk tili va adabiyoti bo'limlari o'z vazifalarini davom ettirmoqda. O'zbek tili va adabiyoti bo'limi 1994-yilda tashkil etilgan bo'lib, 1997-yilda o'zining ilk bitiruvchilarini qabul qilgan. Turk tili va adabiyoti bo'limi esa 2013-yilda o'z faoliyatini boshlagan va 2017-yilda ilk bitiruvchilarini yetishtirgan. Ushbu bo'limlarning mazmuni va o'quv dasturlari o'zbek va turk turkchalarida tayyorlangan. Chet tili sifatida turk tili C1 darajasigacha o'qitilmoqda. Kafedrada 170 nafar talaba tahsil oladi. Kafedraga qarashli kutubxona ham mavjud (Bashar, 2018). Kafedrada ishlaydigan professor-o'qituvchilar soni kam bo'lgani uchun Yunus Emre instituti va Cevizcan universiteti o'rtasidagi keli-shuv asosida yiliga ikki nafar o'qituvchi vaqtinchalik Cevizcan universitetida tahsil olmoqda.

Balx universiteti

Balx universiteti o'zbek tili-turk tili bo'limi Afg'onistonning shimoliy hududlarida joylashgan shaharlardan biri Balx shahridir. Balx shahridagi Balx universiteti Kobul va Ningarhor universitetlaridan keyin uchinchi yirik universitet hisoblanadi. Adabiyot fakulteti tarkibida o'zbek tili-turk tili kafedrasini ochildi. 1992 yilda siyosiy sabablarga ko'ra Kobul shahrida turmush darajasi yomonlashdi, Kobul universitetining o'zbek va turk tili bo'limlari yopildi. U yerda ishlagan o'qituvchilar Balx shahriga joylashib, 1993 yilda o'zbek va turk tillari bo'limini qayta ochdilar va yana Kobul universiteti o'qituvchilaridan ta'lim olishni boshladilar (Hayri, 2007, 27-bet). Kafedrada sakkiz nafar o'qituvchi dars beradi va oltita o'quv xonasi ushbu o'qituvchilardan foydalanish uchun xizmat qiladi. B2 darajasiga qadar turkcha ta'lim bu universitet tomonidan taqdim etiladigan ta'limdir (Bashar, 2018, p.11).

Tahar universiteti

Adabiyot fakulteti qoshidagi o'zbek va turk tillari va adabiyoti to'rtta o'quv xonasida yetti nafar o'qituvchi xizmatida ta'lim beradi. Turkcha ta'lim B2 darajasidagi ta'limni taklif qiladi. Kafedra tarkibida kutubxona ham mavjud (Bashar, 2018)

Faryap universiteti o'zbek turk tili bo'limi

Universitet 1977-yilda Faryap-Maimana nomi bilan tashkil etilgan bo'lib, 2012-yilda hozirgi shaklini oldi. Universitetda jami oltita fakultet mavjud, ya'ni adabiyot, ta'lim, iqtisod, huquq, qishloq xo'jaligi va o'rta ta'lim (Nazariy, 2018). Adabiyot fakulteti qoshida 1985 yilda o'zbek va turk tillari kafedrasini tashkil etilgan. Kafedradagi beshta o'quv xonalari besh nafar pedagoglar xizmatida. Turkcha ta'lim A2 darajasigacha beriladi. Bo'limga tegishli kutubxona yo'q (Bashar, 2018). Faryap universitetida turkcha ta'lim juda uzoq vaqt davomida berilgan bo'lsa-da, universitetda kutubxonaning yo'qligi talabalar ta'limining etarli darajada bo'lmasligiga sabab bo'ldi.

Baglan universiteti o'zbek va turk tillari bo'limi

Universitet 1992 yilda tashkil etilgan. O'zbek turk tili bo'limi esa 2009 yilda Adabiyot fakulteti tarkibida o'z ta'lim faoliyatini boshlagan (Nazariy, 2018). To'rtta o'quv



xonasi beshta o'qituvchi xizmatida. B1 darajasiga qadar turkcha ta'lim bera oladigan muassasaning o'z kutubxonasi yo'q (Bashar, 2018). Ushbu kamchilik tufayli talabalar manba topa olmaydilar va ularning turkcha ta'lim darajasi B1 darajasida qolmoqda.

Badaxshon universiteti o'zbek va turk tili bo'limi

Universitet 1998 yilda tashkil etilgan Badaxshon universiteti birinchi bosqichda tibbiyot fakulteti bilan ta'limni boshlagan. 2003 yildan 2012 yilgacha universitet "Ta'lim va kadrlar tayyorlash" fakultetida to'rtta kafedra bilan, 2015 yildan keyin esa sakkizta kafedra sifatida o'quv faoliyatini davom ettirdi. O'zbek va turkcha ta'lim va tarbiya fakulteti qoshida amalga oshiriladi (Nazariy, 2018, 43-bet). Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, Afg'onistondagi turkiy ta'lim misollarida o'zbek tili hamisha birga qo'llangani kuzatilmoqda.

TAKLIFLAR

Afg'onistonlik o'zbek talabalari lotin alifbosidan foydalangan holda turkiy matn yozishda qiyinchiliklarga duch kelgani, chunki ular qo'llagan alifbo arab alifbosi bo'lganligi kuzatildi. Shu sababdan ham alifboni o'rgatishni eng boshlang'ich bosqichdan boshlab, 4-sinfacha davom ettirishni tavsiya qilish mumkin.

Afg'onistonda turk tilini o'rganayotgan talabalarining eng katta cheklovlaridan biri o'rgangan tilni amaliyotga tatbiq etish uchun joyning cheklanganligidir. Shu sababli, talabalar yozish qobiliyatlarini amalda qo'llashlari mumkin bo'lgan sohalarini rivojlantirishni tavsiya etish mumkin. Madaniy farqlarni hisobga olgan holda, turk tilini o'rganayotgan talabalarga Turkiyadagi madaniyat haqida ma'lumot berishni taklif qilish mumkin.

Xulosa

Bugungi kunda chet tillarini o'rganish professional martaba oshirish, mamlakatlar o'rtasida sayohat qilish imkoniyati, boshqa millat vakillari bilan muloqot qilish va madaniy xilma-xillikni qabul qilish nuqtai nazaridan akademik hamkorlik kabi sohalarda katta ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan shuni aytish mumkinki, chet tilini bilish odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi muloqotning asosiy elementi hisoblanadi. Ishbilarmonlik hayotida, qaysi sohada bo'lishidan qat'i nazar, shaxslar bir, ikki, uch yoki undan ko'p chet tiliga muhtoj bo'lgan holatlar bo'lishi mumkin. Darhaqiqat, ingliz tili jahon bozorida asosiy til bo'lganligi sababli, ingliz tilini bilish endi imtiyoz emasligini, yangi tillarni o'rganish orqali taraqqiyotga erishish zarurligini ta'kidlash mumkin. Bu yo'nalishda chet tili ta'limining ahamiyati ortdi (Göçer, 2008, 111-bet). Maqolada turk tilini o'rganish Afg'oniston oliy ta'lim muassasalarida xorijiy til sifatida kiritilgan.

Adabiyotlar:

1. Kullanımı. Mustafa Kemal Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 5(10), 101-119.
2. Güzel, A., & Barın, E. (2013). Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretimi. Ankara: Akçağ Yayınları.
3. Ergin, M. (1986). Üniversiteler İçin Türk Dili. İstanbul: Boğaziçi yayınları.
4. Rivers, W. M. (1981). Teaching Foreign-Language Skills. The University of Chicago.
5. Güneş, F. (2014). Yabancı Dil Olarak Türkçe Yazma Öğretimi: Yaklaşım ve Modeller.



1. 6, Tiryaki, E. N. (2013). Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretiminde Yazma Eğitimi. Ana Dili Eğitimi Dergisi, 1(1), 38-44.
6. Çakır, İ. (2010). Yazma Becerisinin Kazanılması Yabancı Dil Öğretiminde Neden Zordur? Erciyes Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, 1(28), 1-12. 93
7. Akdemir, A. S., & Eyerci, A. (2016). Using Writing Templates as Materials to Improve Writing Skills in efl Classes: An Experimental Study. Mersin Üniversitesi Eğitim Fakültesi Dergisi, 12(2).
8. Sever, S. (2004). Türkçe Öğretimi ve Tam Öğrenme (4. baskı). Ankara: Anı Yayıncılık.
9. Göçer, A. (2010). Türkçe Öğretiminde Yazma Eğitimi. Uluslararası Sosyal Araştırmalar Dergisi, 12(3), 178-196.
10. Kamgar, C. (2003). Afganistan'ın Maarifi, Tarih-i Maarif-i Afganistan. Kabil: Mayvand Yayınevi.
11. Başar, U. (2018). Afganistan'da Yabancı Dil Olarak Türkçe Öğretimi Üzerine Güncel Bir Değerlendirme. Aydın TÖMER Dil Dergisi, 3(1), 1-20.
12. Tüm, G. (2020). Mediation in Writing Skills and Teaching Turkish as a Foreign Language. African Educational Research Journal, 8, 134-144.
13. Nadim, Muhammad Humayun. «ETHNOCULTURAL SITUATION OF UZBEK PEOPLE IN NORTHERN AFGHANISTAN.» Theoretical & Applied Science 6 (2021): 490-492.
14. Odilovna, Rakhimova Maftuna. «The Role and Status of Linguistic Markers in the System of Symbols.» ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies 7.7 (2018): 29-34.

*Алимсаидова Сайёра Амидъеевна, КГПИ,
доктор педагогических наук, доцент*

СОПОСТАВЛЕНИЕ ВРЕМЕННЫХ КОНСТРУКЦИЙ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ ПРИ КОМПЕТЕНТНОСТНОМ ПОДХОДЕ

Аннотация: В данной статье раскрываются вопросы сопоставления темпоральных отношений в русском и узбекском языках. Проанализированы характерные особенности грамматического способа толкования временных отношений в сопоставляемых языках и их использование школьниками в своей речи.

Ключевые слова: темпоральные отношения, сопоставительный анализ, компетенция, творческие упражнения.

Русский и узбекский языки генетически и типологически различные. Отличительные особенности этих языков объясняются спецификой их строя, и именно сопоставительно-типологический метод исследования позволяет выявить общее и специфическое, типологические схождения и расхождения на разных уровнях языка, особенно в синтаксисе, так как в категориях синтаксиса закреплены более общие категории мышления.



Данная речевая конструкция широко употребительна, и распространена в разных сферах общения, а также универсальна в употреблении, что, безусловно, положительно влияет на формирование компетентного подхода у учащихся школ. Но вместе с тем данная конструкция вызывает значительные затруднения у учащихся средней школы в связи с интерферирующим влиянием родного языка.

Наш опыт работы показывает, что, основой новой концепции обучения неродному (русскому) языку является **научение** общению на неродном (русском) языке, т.е. формирование умений и навыков решать языковыми средствами различные коммуникативные задачи. Отдельные вопросы темпоральных отношений современного русского языка в лингводидактическом плане рассматривались в работах учёных Узбекистана (М.Аскарлова, И.А.Азляров, М.М.Муждабаев, Д.И.Рузиева, М.М.Шамсиева, и др.). Анализ современной литературы по сопоставительному изучению языков показывает, что исследования грамматической категории времени с точки зрения компетентного подхода ещё недостаточно раскрыты.

Категория времени в современном русском языке имеет обширный лексико-фразеологический состав и сложную структуру. К языковым выражениям категории времени относятся

Таблица № 1

Имена существительные	<i>время, день, ночь, год, век, полугодие, столетие, пятница, будни, секунда, час и т.п.;</i>
Имена прилагательные	<i>вчерашний, завтрашний, ежедневный, прошлогодний, воскресный, июньский, и т.п.;</i>
Наречия	<i>беспрерывно, долго, досрочно, вчера, вдруг, впредь, допоздна, сегодня, рано, поздно, и т.п.;</i>
Союзы и союзные слова	<i>до тех пор как, в то время как, едва, когда, с тех пор как и т.п.;</i>
Свободные сочетания	<i>в свободное время, на следующий день, поздно вечером, сегодня вечером и т.п.;</i>
Фразеологические обороты	<i>в кои веки, когда рак на горе свистнет, после дождика в четверг, при царе Горохе и т.п.</i>

В целом универсальные свойства времени в русском языке имеют разнообразное языковое выражение – лексическое, морфолого-синтаксическое, стилистическое.

Наиболее характерными являются слова и грамматические конструкции, частично совпадающие в русском и узбекском языках по способу выражения:



Таблица № 2

№	В русском языке	В узбекском языке
	I. Обозначение времени продолжительности действия выражается:	
	именами существительными в форме родительного падежа с наречием – <i>раньше</i> и с предлогом – <i>после</i> например: <i>раньше срока, после обеда,</i>	в узбекском языке именами существительными (и другими именами) в форме исходного падежа с послелогами <i>ilgari, burun, avval</i> (раньше, прежде), <i>keyin, so'ng</i> (после): <i>muddatidan oldin, hammadan burun, tushdan keyin (so'ng);</i>
	именами существительными в винительном падеже с предлогами -в и -на: <i>в пятницу, на следующий день, на среду</i> (запланировать),	именами существительными без падежных аффиксов или существительными в форме дательного падежа: <i>juma kuni, ertasi kuni, shorshanba kuniga</i> (rejalashtirmok);
	наречиями: <i>всегда, раньше, теперь, сейчас, рано, поздно, ночью, недавно, зимой, завтра,</i>	наречиями того же значения: <i>hamisa, hozir, kech</i> и другими, а также именами существительными и прилагательными в форме местного, дательного или исходного падежей <i>ertaga</i> (эрта+га), <i>tunda</i> (тун+да), <i>yaqinda</i> (якин+да).
	II. Обозначение времени, к которому приближается действие и обозначение времени и количества выражается:	
	именами существительными в форме дательного падежа с предлогом -к: <i>к шести часам, ко дню рождения,</i> именами существительными в форме творительного падежа: <i>собирают осенью, возвратились поздней весной, готовился целыми днями</i>	именами существительными в форме дательного падежа с послелогами <i>qadar, dovur</i> со словом <i>yaqin</i> : <i>Mustaqillik kuniga qadar, jumaga yaqin</i> , а также именами существительными с суффиксом – <i>gacha</i> : <i>soat oltigacha</i> . в ф-ме местного падежа, а иногда в ф-ме именительного падежа: <i>kuzda teradilar, kech bahorda qaytdilar,</i>
	III. Обозначение времени, срока, в течении которого что-либо произошло или произойдёт и обозначение периода времени, по истечении которого совершается что-либо выражается:	
	именами существительными в форме винительного падежа с предлогом -за: <i>за год, за шесть месяцев, за три часа, -через: через неделю</i>	в узбекском языке именами существительными в форме винительного падежа с послелогом <i>ichida</i> или <i>mobainida</i> : <i>yil ichida, olti oy mobaynida</i> , а также именами существительными в форме местного падежа: <i>uch soatda</i> ; в ф-ме исх. падежа с послелогом <i>keyin</i> : <i>bir haftadan keyin</i>

Принцип национальной ориентированности образования, ещё более чётко определяет эту установку. А именно, национальная направленность образования заключается в его органическом единстве с национальной историей, народными традициями и обычаями, сохранении и обогащении культуры народов Узбекистана, признании образования важнейшим инструментом национального



развития, уважения к истории и культуре других народов. Поэтому работа со связными текстами, на базе которых выполняются как языковые, так и речевые упражнения, по нашему мнению, являются наиболее продуктивными. Например:

Задание. Прочитайте статью. Перескажите её своими словами используя темпоральные конструкции.

Маргилан

Полководец Александр Македонский первый раз побывал в Маргилане, когда его войска шли от Ходжента к Узгену. Местные старейшины решили во время торжественной встречи угостить его жареной курицей с хлебом. Отведав угощение, полководец спросил, как называется это блюдо. Ему сказали: «Мургинон», то есть курица и хлеб. Возвращаясь обратно, Александр остановился здесь и снова поел курицу с хлебом. Данное Македонским городу название «Мургинон» прижилось и дошло до наших дней с некоторыми изменениями.

Здесь жили и творили величайшие ученые и писатели Востока, в частности, Бурхониддин Маргиноний, поэтесса Увайси и многие другие.

(Р. Отажонов, Б. Носиров из газеты «Знамя труда»)

Задание. Составьте 5-6 связанных по смыслу предложений, используя темпоральные конструкции, на тему:

1. *Посмотрите на фотографию и расскажите о достопримечательностях вашего города. Когда они были построены?*

Целью этих упражнений была выработка у учащихся навыка самостоятельного составления предложений с использованием временных конструкций. Как показала практика, данная работа вызывает у учащихся большие трудности в связи с различиями в структуре предложений и их компонентов в русском и узбекском языках.

Мы пришли к выводу, чтобы учащиеся освоили эти средства для продуцирования активной русской речи, необходимо учитывать влияние родного языка.

Список использованной литературы:

1. Андриянова В.И. Теория и практика обучения узбекских школьников устноречевому общению на русском языке: Дис. на. д-ра пед. наук. - Т., 1997. – 350 с.
2. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Морфология. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – 240 с.





*Siddiqov Mo'minjon,
QDPI dotsenti,
Siddiqova Farangiz,
JTU talabasi*

TIL – MUQADDAS NE'MAT

Til, so'z Alloh faqat insongagina bergan buyuk ne'matlardan avvalgisi hisoblanadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, Sharq va G'arbning barcha ulug'lari tilni (so'zni) bandasiga bergan barcha ne'matlardan ulug'i sanab, Yaratganga maqtovlar yog'dirganlar, asarlarida so'zga alohida boblar bag'ishlaganlar. Shu jihatdan Yusuf Xos Hojib, Rabg'o'ziy, Sayfi Saroyi, Navoiy, Xoja, Muhammad Solih singari adiblarimizning bu boradagi donish fikrlari alohida e'tiborga molikdir.

Modomiki, til (so'z) ilohiy hisoblanar ekan, uni qadrlash, har bir so'z, gapni talab darajada istifoda etish, uni buzmasdan, har bir so'zni o'z holaticha, o'z o'rniga qarab ishlatish, qisqasi, tilga nutq madaniyati talablari darajasida muomalada bo'lish insonning hayot faoliyatida asosiy mezon hisoblanadi. Tilshunos olimlarimiz bejiz har bir millat tilini umumxalq va adabiy tillarga tasnif etmaganlar. Adabiy til, modomiki, ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorlarga solingan til hisoblanar ekan, bu mezonlarni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Shu o'rinda bir zamonlar Abdulla Qahhor kuyunib "Nima uchun yo'l qoidasini buzgan kishiga jarima solinadi-yu, til qoidasini buzgan odam jazoga tortilmaydi", deganlarini ayni bugun tez-tez eslash vaqti kelganga o'xshaydi. Negaki OAV, xususan, tele, radio, gazeta va jurnallar, internet sahifalarida berilayotgan og'zaki va yozma matnlarda xatolar – so'zni o'z o'rnida qo'llamaslik, so'z ma'nosiga e'tibor bermaslik, so'zni buzib ishlatish va hokazo - shu qadar ko'payib ketganki, bular bugunda tuzatilmas, o'nglanmas ekan, yangi tahrirdagi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunning taqdiri ham oldingilari qatorida e'tiborsiz bo'lib qolishidan qo'rqamiz. Xo'sh, bu nuqsonlar boshqa global nuqsonlar, masalan, tilimizda g'ayri lisoniy so'zlarning ko'payib ketishi, bu borada me'yorning buzilishi, o'zbek tilida muqobillari bo'lishiga qaramasdan, o'zlashma atamalarni zo'rma-zo'raki tiqishtirish (masalan, tolereant, blogger, valantiyor, global va x.) ayrim bir idoralarda (ko'proq markazda) rahbarlarning Davlat tilida muomala qila olmasligi, mahalliy xalqqa boshqa tillarda bitilgan hujjatlarni taqdim qilish kabi ko'plab nuqsonlar oldida arziyas bo'lib tuyular. Biroq biz tomonimizdan bildiriladigan takliflar ham ayni "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunda aks etmasa-da, kishilarimiz e'tiborida tursa, nur alan-nur bo'lar edi. Bularning ayrimlarini ko'rsatib o'taylik.

1. Davlat tilining sobit yashab qolishi va taraqqiysida badiiy kitoblarning o'rni beqiyos bo'lishi hammaga ayon. O'zbek tilining bugungi kundagi sayqali - serma'noligi, ohorliligi, ta'sirchanligi, adabiy til mezonlariga muvofiqligi, birinchi galda, Navoiy, Bobur, Nodira, Muqimiy, Qodiriy, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov singari adiblarning asarlari ta'sirida qaror topganligini aytmasa ham bo'ladi. To'ra Sulaymon, Anvar Obidjon, Erkin A'zam, Muhammad Yusuf, Qo'chqor Norqobil singari shoiru yozuvchilarimizning xizmatlari ham bu borada beqiyos. Biroq keyingi paytlarda nashr bo'layotgan bir qator kitoblar borki, ularning so'z arsenalini nochor bo'lib, g'aliz so'zlar, o'rinsiz qaytariqlar, ayrim so'zlarning ma'nosiga yetmaslik, muqobillik qoidalarining buzilishi, jumlar tuzilishida notabiiylik singari nuqsonlar har qadamda uchrab turibdiki, bunga na mualliflar,



na noshirlar e'tibor qaratyapti. Natijada tilimiz kundan-kunga kambag'allashib borayotganday tuyulyapti bizga.

2. Matnshunoslikda ham jiddiy o'ylab ko'riladigan masalalar bor. Xususan, -ki yuklamasining ishlatilishi bilan bog'liq xatolar mumtoz she'riy matnlarni nashrga tayorlagan muxtaram olimlarimiz ishlarida tez-tez uchrab turishi kishini ranjitadi. Mumtoz she'riy matnlar – baytlarning ko'pincha ikkinchi misrasi Ki... tarzda boshlanadi. Shunda vergulni qayerga qo'yish kerak? Bu o'rinda -ki ergashgan qo'shma gapning bosh gapi kesimida turganligi e'tiborga olinsa, shundan keyin vergul qo'yiladi. Noshirlar birinchi misra tugallanmasiga vergul qo'yishlari natijasida baytning mazmuni ham siyqalashadi. Matnshunos bunga juda xushyor turishi kerak. Shuningdek, arabiy yozuvdagi so'zni noto'g'ri o'qish (masalan, "Mabdayi nur"da "aso" so'zini "Iso" deb tabdil qilinganligi ko'rib hayron bo'ldik. – M.S., F.S.)

3. Kezi kelganda shuni aytish kerakki, nutq sohibining kamtarligini ifodalashga xizmat etadigan *kamina*, *faqir*, *banda*, *qulingiz* kabi so'zlarning ishlatilishida ham til ilmi talablaridan chekinish hollari tez-tez uchrab qolyapti. Bunda jumla "*Kamina sizning xizimatingizga kyeldim*" tarzida emas, "*Kamina sizning xizimatingizga keldi*" shaklida bo'lmog'i kerak. Aks holda, jumladagi kamtarlik nokamtarlikka aylanadi. Istisno holatdagina I shaxs shaklida qo'llashga izn berilgan.

4. Ayrim nutq egalari so'zlarni ishlatilishida ortiqcha tovushlarni ishlatadilarki, bu ham til taraqqiysiga bir nuqson bo'lib kiradi. Birinchisi, bir qator fe'llarni hozirgi zamon shaklida talaffuz qilishda "a" tovushini orttirib ishlatish bo'lsa (*aytayapti*, *borayapmiz*, *ko'rayapsan va h.*), ikkinchisi, "Hibat ul-haqoyiq", "Sab'ai sayyor" kabi asar nomlarini "*Hibbat ul-haqoyiq*", "*Sabbai sayyor*" tarzida talaffuz qilish va yozish masalasidir. Eng achinarli tomoni, ayni shu holat ko'proq filolog talabalar, muallimlar orasida uchrab turishidir.

5. Shunga o'xshash yana bir holat i va u harfli so'zlarning og'zaki va yozma nutqda ishlatilishi. Bunga ko'pdan-ko'p misollarni keltirish mumkin: *tushunmoq – tushinmoq*, *sovun – sovin*, *junjikmoq – junjukmoq*, *shovullamoq – shovillamoq*, *gurkiramoq – gurkuramoq* kabi. Bularning birinchi shakli to'g'ri bo'ladi.

6. Ovropa tillarida ko'plik shaklining ishlatilishi ko'ppredmet nazarda tutilganda saqlanib qoladi: *dvadsat knigi*, *twent books* kabi. Ammo turkiy tillarda sanoq birdan ortiq ifodalanganda -lar qo'shimchasi deyarli ishlatilmaydi: *yigirmata odam*, *o'nta negr bolasi* kabi. Biroq tele, radio jurnalistlar bu masalada hech ikkilanmasdan ovropalashgan andozalarda ko'plik shaklini ishlatavermoqdalar: *Bugun covid-19 pandemiyasidan 15 nafar bemorlar butkul sog'ayib, reabilitasiyaga olindi* kabi. Bu ham tilimizning nazokatini buzishdan boshqa narsa emas. Ayni chog'da, ko'plikni ta'kidlash zaruriyati tug'ilsa, -lar qo'shimchasini ishlatish ham mumkin bo'lgan o'rinlar ham yo'q emas. Faqat me'yorni saqlasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

7. -ning qo'shimchasi (qaratqich kelishigi qo'shimchasi) o'zbek shevalarida ishlatilmaydi. Shundanmi, ayrim bir matnlarda ushbu qo'shimchani tushum kelishigi qo'shimchasi bilan almashtirib yuborish hollari tez-tez uchrab turmoqda. Bu qo'shimchalarni ishlatishning o'z qonuniyatlari bor: agar shu qo'shimchali so'z ot yoki ot vazifasidagi so'zlarga bog'langan bo'lsa, -ning, fe'lga tobelansa -ni shaklini olishi maktab partasidayoq o'rgatiladi. Afsuski, katta-katta olimlarimizning kitoblarida ham bu nuqson uchrab qoladiki, buni bartaraf etmaslik yana savodsizlikka olib keladi.



8. Tilda zamon shakllarini o'rinli ishlatish ham nutq madaniyatini belgilovchi omillardan hisoblanadi. Maktab darsliklari, ayrim tarixiy voqealarni ifodalagan matnlarga nazar tashlansa, *"Alisher Navoiy 1441-yilda Xirotda tavallud topadi"*, *"Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzo 39 yoshida jarga qulab halok bo'ladi"* singari jumalarga duch kelinadi. Baraka topkurlar, -a qo'shimchasi kelasi zamon ifodalovchi unsur hisoblanmaydimi?! Uning o'rniga *-di* yoki *-gan* qo'shimchasi ishlatilsagina, jumla to'g'ri bo'ladi-da! Bunda ham ma'lum talablar bor. Buni ham ilm deyilar.

9. Tilimizda yangi so'zlarning paydo bo'lishi tabiiy jarayon. Biroq zo'rma-zo'raki yangi so'zlarni "kashf etish" ham yaxshi emas. Yaqinda ayrim kanallarda "motivasiya", "ochiqlandi" degan so'z paydo bo'ldi. Bu nima degani. Nahotki shu so'zni boshqa muqobili bo'lmasa?! Axir ayni shu ma'nolarda *"turtki"*, *"aniqlik kiritildi"* deyish ham mumkin-dir!

10. Nutqda sheva elementlarini bo'lar-bo'lmasga istifoda qilish ko'p hollarda manzar adresining yo'qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat ko'proq nasriy asarlar (hikoya, qissa, roman, milliy filmlar)da sezilib qolmoqda. Deylik, bir asardagi voqealar yurtimizning muayyan hududida bo'lib o'tgan bo'lsin. Bu hudud aholisi o'z onasiga nisbatan "aya" deb murojaat qilsin. Bo'lar bo'lmasga "ona", "anna", "oyi" deb murojaat qilinsa, qandaydir erish tuyulmaydimi? Axir har bir hududning o'z koloriti bo'ladi-ku!

11. Arab tilidan o'zlashgan ayrim so'zlarning talaffuzi va yozilishi bir xillik saqlangan holda, ayrimlari talaffuz qilinganicha emas, qabul qilingan imlo qoidalariga binoan yoziladi. Parvo, obro', mavqe singari so'zlar egalik shakllari bilan ishlatilganida bir "y" tovushi orttirilib aytiladi va yoziladi: *obro'yim, parvoyi, mavqeying*. Lekin bu holat *ma-vzu, orzu, imzo* so'zlariga daxldor emas. Maktablarda ba'zan *"Bugungi mavzuyimiz..."*, *"Inshomiz mavzuyi..."*, *"Mening orzuyim..."* kabilarni ko'rib yo eshitib qolamiz. Aslida *"Inshomiz mavzusi..."*, *"Mening orzum..."* bo'lishi kerak.

12. Tilda gap qismlarining ishlatilishining ham tanlangan va sinalgan qoidalari bor. Masalan, fe'l kesim oldida muqim o'rin olgan holatni bildiruvchi ravishdosh, ravish yoki sifatning o'rni almashsa ham, g'alizlik yuzaga keladi. Masalan, reportyor qizlarimiz aytayotganday *"Toshkent citida jadal qurilish ishlari olib borilmoqda"* emas *"Toshkent citida qurilish ishlari jadal olib borilmoqda..."* bo'lishi lozim.

Bu kabi misollarning yana anchasini keltirish mumkin. Gapni muxtasar qilib aytganda, yangi tahrirdagi "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunga bularni alohida-alohida kiritish imkoni yo'qligi ayon. Lekin keltirilganlarni umumlashtirib, bir modda, masalan, tilning ilmiy qoidalariga xilof ish tutilganida ma'naviy yoki moddiy jazo moddasi kiritib qo'yilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edimi, yana bilmadik?..



К ВОПРОСУ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ УЧЕБНОГО ПЕРЕВОДА НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Аннотация. В статье рассматривается вопрос использования учебного перевода при обучении русскому языку, даются некоторые методические рекомендации.

Ключевые слова. учебный перевод, сложноподчиненное предложение, бессоюзное сложное предложение, союз, частица, эквивалент

Одним из актуальных вопросов обучения русскому языку является использование перевода в процессе обучения. Несмотря на то, что за последние десятилетия появилось немало работ по учебному переводу, сам статус науки о переводе не определен с достаточной точностью.

Чтобы учебный перевод не снижал эффективности занятия, В.И.Андриянова предлагает соблюдать следующие правила: 1) перевод не должен быть единственным способом работы по изучению текста. Изучаемый материал необходимо активизировать путем ответов учащихся на вопросы, путем пересказа. От учеников нужно требовать твердого усвоения, быстрого и уверенного применения знаний лексического и грамматического материала текста; 2) надо следить за тем, чтобы учащиеся переводили, сознательно вникая в смысл предложений в целом и каждого слова в отдельности.

Для учащихся девятого класса школ с узбекским языком обучения особую трудность создает тот факт, что синтаксис простого предложения ранее не изучается. Поэтому учащиеся должны будут перенести на изучение русского языка весь тот теоретический багаж, который сформировался у них на уроках родного языка. И в этом им должен помочь уместно использованный учебный перевод.

Так, например, трудность состоит в выборе правильного союза **что** или **чтобы** (-ki, -sa). Учитель должен объяснить, что при передаче простого сообщения нужен союз **что**. Если сообщают о приказе, требуется союз **чтобы**. При этом глагол в придаточной части всегда будет стоять в прошедшем времени. Яркий признак того, что нужно использовать союз **чтобы** - глаголы *просил, приказал, требовал* в главной части. Можно предложить учащимся упражнение с заданием «Составьте из двух простых предложений сложное»:

• *Дети увидели. Возле дома стояла машина. (Дети увидели, что возле дома стояла машина)*

• *Мама просила. Дочка приготовила обед. (Мама просила, чтобы дочка приготовила обед)*

• *Учитель сказал. Завтра будет диктант. (Учитель сказал, что завтра будет диктант)*

• *Тренер требовал. Ребята не пропускали занятия. (Тренер требовал, чтобы ребята не пропускали занятия)*



Русской частице **ли** в СПП с придаточными изъяснительными соответствует узбекское – *mi*. Частица **ли**, в отличие от других союзов и союзных слов, стоит не в самом начале придаточной части, а после первого её слова, с которым она содержательно связана. Это вызывает трудность для ребят. Они ошибаются в определении содержания вопроса, его типа и, следовательно, ставят на первое место не то слово. Кроме того, нередко вместо **ли** используется союз **если**. (U keladimi, bilmayman (Я не знаю, придёт ли он) - Я не знаю, если он придёт.)

Учебник не предлагает упражнений с этой частицей. Можно предложить ребятам провести игру в «Испорченный телефон», когда сам учитель дает вопросы без вопросительных слов и выделяет логическим ударением слово, после которого нужно поставить частицу **ли**.

Будет завтра дождь? **Нужно** открыть окно? **Все** написали диктант? **Есть** у вас учебники? **Пришел** Махмуд? (Учитель спросил, будет ли дождь.)

Можно дать несколько примеров для письменной работы.

• Даврон спросил. Получил брат письмо? (Даврон спросил, получил ли брат письмо)

• Туристы интересуются. Будет автобус? (Туристы интересуются, будет ли автобус)

• Мама посмотрела на небо. Будет дождь? (Мама посмотрела на небо, будет ли дождь)

Для выражения определительных отношений в сложном предложении используется придаточное определительное предложение (*aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap*). Учебник предлагает повторить сведения об определении перед изложением новой темы. Учащиеся могут просто вспомнить об определении (*aniqlovchi*), изученном в 8 классе на уроках родного языка. В узбекском языке в конструкциях данного типа употребляется подчинительный союз *-ki*, используют условную форму глагола *-sa*. Нужно обратить внимание на то, что в русском языке средство связи - союз или союзное слово - находится в придаточном предложении, и запятая, как обычно, разделяет части сложного предложения, но стоит перед союзом или союзным словом: *Xonadan kelayotgan tovushlar diqqatimizni tortdi* - Звуки, **которые** доносились из комнаты, привлекли наше внимание.

Основным средством, участвующим в формировании определительных отношений и представляющим наибольшую сложность для учащихся узбекских классов, является союзное слово **который**. Именно таким предложениям нужно уделить основное время урока. Определительное придаточное предложение располагается после существительного, которое оно определяет, обычно непосредственно следуя за ним. Обычно союзное слово **который** стоит в начале придаточного предложения, союзное слово **который** согласуется в роде и числе с тем существительным, к которому относится (которое оно заменяет), а его падежная форма зависит от сказуемого придаточного предложения.

Прежде всего учащиеся должны усвоить согласование союзного слова **который** в роде. Можно дать им задание вставить пропущенное слово **который** (которая, которое, которые). При этом нужно определить род существительного.

• Это ученик, ... живет в пятом доме. (Ученик - мужской род, нужно вставить слово **который**)



• *Это моя одноклассница, ... любит читать стихи. (Одноклассница - женский род, нужно вставить слово которая)*

• *На уроке отвечал мальчик, ... хорошо знает русский язык. Выполните упражнение, ... находится на странице 34. Надо выписать слова, ... мы выучили на уроке. Вот та книга, ... мне очень нравится.*

Успех урока во многом зависит от уместного применения учебного перевода. Учебный перевод обеспечивает более высокую грамотность учащихся, обогащают словарный запас учащихся, повышают качество создаваемых школьниками самостоятельных высказываний, как на русском, так и на родном языке. И при этом, использование переводов повышает интерес к изучению русского языка, активизирует познавательную деятельность школьников, способствует овладению нормами русского и родного языков.

Использованные источники:

1. Абдрахманова И.Э. Перевод как средство обучения на уроках родного русского языка в 7-9 классах общеобразовательной школы. - М., 1996. - 188 с.
2. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Т. Укитувчи, 1983. - 239 с.
3. Андриянова В.И. Совершенствование обучения русской устной речи узбекских школьников. Ташкент: Фан, 1988. - 93 с
4. Виноградов В.С. Введение в переводоведение. - М.: ИОСО РАО 2001. - 117 с

*To'raxojayeva A.
BT kafedrası dotsenti
filologiya fanlari nomzodi,
Karimova M.
BT fakulteti 4-bosqich talabasi*

4-SINFDA EGALIK QO'SHIMCHALARINING IMLOVIY XUSUSIYATLARINI O'RGATISH

Annotatsiya. Maqolada 4-sinf ona tili darslarida egalik qo'shimchalarining imloviy xususiyatlarini o'rgatish bo'yicha nazariy fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: imlo qoidalari, savodxonlik, egalik qo'shimchasi, tovush almashishi, tovush tushishi, darslik. axborot-texnologiya, o'z ma'no, ko'chma ma'no, metafora, o'zlashma so'z.

Annotation. the article presents theoretical ideas on teaching the spelling features of possessive adjectives in 4th grade mother tongue classes.

Key words: spelling rules, literacy, possessive suffix, sound exchange, sound fall, textbook. information technology, proper meaning, figurative meaning, metaphor, borrowed word.

Аннотация: в статье представлены теоретические идеи по обучению орфографическим особенностям притяжательных прилагательных в 4 классе на уроках родного языка.



Ключевые слова: орфографические правила, грамотность, притяжательный суффикс, обмен звуками, падение звука, учебник. информационные технологии, собственное значение, переносное значение, метафора, заимствованное слово.

„O‘zbek tili asosiy imlo qoidalari“ning [1,12] 2-bo‘limi „Asos va qo‘shimchalar imlosi“ bo‘lib, undan so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslarga oid beshta qoida o‘rin olgan. O‘zbek tilida eng ko‘p qo‘llanuvchi qo‘shimchalarga tegishli mazkur qoidalar yozma nutqning to‘g‘ri shakllanishida, imloviy savodxonlikni ta‘minlashda juda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun bu imloviy qoidalar boshlang‘ich sinfdanoq o‘rgatib boriladi. Faqat ular tovush tushishi, tovush ortishi va tovush almashishi kabilar bilan bog‘liq nisbatan murakkab hodisa bo‘lganligi uchun boshlang‘ich ta‘limning 4-sinfida o‘rgatish ko‘zda tutilgan [2,253].

O‘zbek tilida egalik qo‘shimchlari har doim talaffuz asosida fonetik tamoyilga ko‘ra yoziladi va bu jarayonda tovush tushishi, almashishi va ortishi hodisalari kuzatiladi. Ularning yozilishi bilan bog‘liq to‘rtta imloviy qoida mavjud bo‘lib [3,23], ular quyidagilar: 1) asosning qanday tovush bilan tugashiga ko‘ra qo‘shilishi;

2) asosga qo‘shilganda tovush almashishi; 3) asosga qo‘shilganda tovush tushishi; 4) asosga qo‘shilganda tovush ortishi. Ushbu qoidalarning dastlabki uchasi bilan o‘quvchilar egalik qo‘shimchalari mavzusini o‘rganish jarayonida tanishadilar. Darslikning 75-sahifasida quyidagicha qoida berilgan [4,75]:

Egalik qo‘shimchalari otlarga quyidagicha qo‘shiladi: Unli tovushdan so‘ng –m, -ng, -si, -miz, -ngiz, -lari; undosh tovushdan so‘ng –im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari.

169-mashq. Ko‘chiring. Otlarni aniqlang. Egalik qo‘shimchasi qo‘shilgan otlarning o‘zak va qo‘shimchalarini belgilang. Egalik qo‘shimchasi qaysi tovush bilan tugagan otlarga qo‘shilganini ayting. 1. *Alisherning otasi G‘iyosiddin Kichkina adabiyotni sevardi. Ularning uyida she‘rxonlik kechalari o‘tkazilardi. Shular sababli Alisher kitob bilan qattiq do‘stlashdi.* 2. *Hidi, pichoq tegar-tegmas yorilib ketishi va tilni yorar shirinligidan ona yurtim qovuni ekanligini angladim, otam bog‘idagi polizda shunaqa shakarpalak ko‘p bitardi.* Egalik qo‘shimchalarining ikkinchi va uchinchi imloviy xususiyatlari yuzasidan darslikning 78-sahifasida navbatdagi qoida berilgan [5,78].

Ba‘zi otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zakda quyidagicha o‘zgarish yuz beradi: unli tovush tushib qoladi; undosh tovush almashadi.

Lekin „Asos va qo‘shimchalar imlosi“ bo‘limida bu qoida aniq (aynan qaysi undoshlar o‘zgarishi ifodalangan) tarzda berilgan.

Qiyoslang: 34. *k, q undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, bek, yo‘q kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda k undoshi g undoshiga, q undoshi g undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: tilak - tilaging, yurak-yuragim [6,12].*

Yuqoridagi imloviy qoidalarni o‘rgatish ushuni 175-dan 183-gacha mashqlar berilgan [7,82].

175-mashq. So‘zlarni o‘qing. So‘zlar o‘zagidagi o‘zgarishni kuzating. Chap tomondagi so‘zlar o‘zagidagi tovushlar sonini aniqlang. So‘ng o‘ng tomondagi so‘zlar o‘zagidagi tovushlar sonini aniqlang. Qanday farqni sezdingiz? *burun +imburnimog‘iz+im og‘zimshahar +im shahrimsingil +im singlim* 176-mashq.



O'qing. Egalik qo'shimchasi olgan otlarni toping. O'zakdagi tushib qolgan tovushlarni aniqlang.

1. Yig'itlikda yig' ilmning mag'zini, Qarilik chog'ingda xarj qilg'il oni.
2. Shamol yuzni silar, issiqni shilar, Qo'yningda titragan yozga qo'l tiqar.

177-mashq. So'zlarni o'qing. So'z o'zagidagi o'zgarishni kuzating. So'z o'zagida qaysi tovush boshqa tovushga aylandi. *Bilak+imbilagim*

kurak+im kuragim

chelak+im chelagim

bayroq+im bayrog'im

quloq+im qulog'im

178-mashq. So'zlarga egalik

qo'shimchalaridan qo'shib o'qing. So'z asosida o'zgarish bo'ldimi?

Xalq, xulq, erk, ishtiyok, ishtirok, nok.

Mashqda keltirilgan so'zlardan ko'rinib turibdiki, ular k va q undoshi bilan tugagan bo'lsa ham, egalik qo'shimchasi qo'shilganda hech qanday o'zgarishga uchramaydi. Bu mashqda „Asos va qo'shimchalar imlosi“ ning 34-qoidasidagi istisno holat, ya'ni „*Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zlarga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilganda k, q tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: ishtirok - ishtiroki, ocherk - ocherki, erk - erki, huquq - huquqim, ravnaq - ravnaqi, yuq - yuqi kabi*“ [8,13] degan qismini o'rgatish ko'zda tutilgan.

Demak, ona tili fanining bir qator vazifalari sirasida bolaning yozma nutq saviyasini o'stirish masalasi ham muhim o'rin tutadi. Zero, kishining o'z fikrini og'zaki va yozma nutq vositasida erkin va to'g'ri ifodalay olishi, imlo savodxonligiga ega bo'lishi yuksak madaniyat belgisi sanaladi. Yoki yoza olish qobiliyatining rivojlangan bo'lishi og'zaki nutqning to'g'ri shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ayni paytda yozuvni mukammal egallash orqali o'quvchida olam sirlariga qiziqish kuchayadi, mustaqil tarzda kitob o'qishga rag'bat oshib boradi, bolaning „men“ i namoyon bo'la boshlaydi. Qolaversa, yosh avlod yozuvni va imlo qoidalarini oddiy bir hodisa sifatida emas, balki hayotiy ehtiyoj, xalqimizning ma'naviy boyligi tarzida qadrlashi ham farz, ham qarz. Demak, imloviy savodxonlik yosh avlodni faqatgina ezgulik sari yo'llaydi, ularning ma'naviy barkamol bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madvaliyev A. va boshq. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Akadem nashr, 2013, 528 b.
2. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009, 352 b.
3. To'raxo'jayeva A. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalarini boshlang'ich sinflarda o'rgatish. Toshkent, 58 b.
4. Ikromova R. va boshq. Ona tili (4-sinf uchun darslik) –T.: O'qituvchi, 2019.



Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna
UrDU, Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, f.f.n.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARDA KITOBXONLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasi haqida fikr yuritilgan. Unda boshlang'ich sinf o'quvchilarda kitob va kitob mutolaasiga mehr uyg'otish yo'llari aks ettirilgan.

Аннотация. В статье рассматривается вопрос формирования читательской культуры учащихся начальных классов. В статье показаны способы формирования культуры чтения у младших школьников.

Annotation. This article discusses the issue of shaping students' reading culture in primary education. The article shows ways to form a culture of reading in primary school students

Kalit so'zlar. boshlang'ich ta'lim, o'qish darsi, kitob, kitob mutolaasi, kitobxonlik, insoniy fazilatlar, mustaqil fikrlash, og'zaki nutq, nutq o'stirish

Ключевые слова. начальное образование, урок чтения, книга, чтение книг, чтение, человеческие качества, самостоятельное мышление, устная речь, развитие речи.

Milly yuksalish yo'lidan borayotgan Vatanimizda ta'lim-tarbiya ishlariga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ham Oliy Majlisga Murojaatnomasida: "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", -deb ta'kidlaydi. [1]

Barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda muhim ijtimoiy talablardan biri bo'lib kelgan, bugungi globalshuv davrida bu masalaning dolzarbligi yanada ortib bormoqda. Binobarin, yosh avlodni boshlang'ich sinflardayoq ma'naviy barkamol inson qilib tarbiyalash muhimdir.

Boshlang'ich sinflardagi ona tili ta'limi sohasining asosiy maqsadi bolalarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olgan holda og'zaki va yozma nutqini hamda tafakkurini o'stirish, ularni shaxs sifatida shakllantira borishni amalga oshirish, ularda bilim olishga bo'lgan qiziqishni o'stirish, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiyinchiliklarni yenga olish qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi.[2] Bolalarni aqliy va nutqiy qobiliyatlarini muvaffaqiyatli o'stirish kelgusida fanlarni puxta o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi.

Ma'naviy barkamollikni shakllantirishda kitobning, kitobxonlikning juda katta o'rni bor. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi". Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kitobxonlik, kitob mutolaasini ommalashtirishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlaridabunga alohida e'tibor qaratilgan. Xusasan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvarda qabul qilingan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-sentabrda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish



hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida komissiya tuzish to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori shular jumlasidandir.

Mamlakatimizda bola tarbiyasida quyidagi ijtimoiy institutlar: oila, davlat tizimidagi ta'lim va tarbiya beruvchi muassasalar, madaniy – ma'rifiy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie, kino), ularni o'rab turgan tashqi muhit birday qatnashadi. Ayniqsa, bolalarga atalgan vaqtli matbuot, bolalar va o'smirlar kitobi ularga ta'lim va tarbiya berishda juda katta o'rinni egallaydi, busiz haqiqiy insonni tarbiyalash mumkin emas.

Boshlang'ich ta'limda ham bilim va tarbiya beruvchi asosiy manbalardan biri kitob hisoblanadi. Kitobga mehr, kitobxonlik madaniyati boshlang'ich sinf o'qish darslarida hamda sinfdan tashqari o'qish darslarida shakllantirib boriladi. Bunda o'zbek bolalar adabiyoti vakillarining jajji bolajonlarga atab yozgan asarlaridan unumli foydalaniladi.

Kitobxonlik madaniyati o'z-o'zidan shakllantirilmaydi. Uni shakllantirishda o'qituvchi ota-ona bilan hamkorlikda uzluksiz va muntazam ish olib borishi, o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi lozim. Buni faqat dars jarayonida amalga oshirib qolmasdan, sinfdan tashqari ishlarda shu masalaga katta e'tibor qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Badiiy adabiyot bolalarni aqlan, axloqan va estetik tarbiyalashning qudratli, ta'sirchan quroli sifatida xizmat qiladi, u bola nutqini rivojlantirish va boyitishga ulkan ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'qish darslarida she'r, hikoya, ertaklarni o'qishni juda sevadilar. Zero, she'riy obrazlarda badiiy adabiyot jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va o'zaro munosabatlar olamini ochib beradi hamda tushuntiradi. Bu namunalar o'z tas'ir kuchiga ko'ra turlicha bo'ladi: hikoyalarda bolalar so'zlarning lo'ndaligi va aniqligini bilib oladilar; she'rlarda o'zbekcha nutqning musiqiyligini, ohangdorligini ilg'aydilar; xalq ertaklari ular oldida tilning aniqligi va ifodaliligini namoyon qiladi, ona tilidagi nutqning yumor, jonli va obrazli taqqoslashlar, ifodalarga qanchalik boyligini ko'rsatadi.

Bolalar badiiy asarlar qahramonlariga qayg'urishni o'rganganlaridan so'ng ular yaqinlari va atrofdagi odamlar kayfiyatini payqay boshlaydilar. Ularda insonparvarlik his-tuyg'ulari – birovning dardiga sherik bo'lish, yaxshilik qilish, adolatsizlikka nisbatan qarshilik ko'rsatish qobiliyati uyg'ona boshlaydi. Bu qat'iyatlilik, halollik, haqiqiy fuqarolik hislari tarbiyalanadigan poydevordir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ayniqsa, ertaklarni juda sevib mutolaa qiladilar. Ertaklar olamiga sayohat bolalar tasavvurini, ularning hayvonot olami haqidagi tushunchalarini, fantaziyasini rivojlantiradi.

Badiiy asarlarni o'qishning juda katta tarbiyaviy ahamiyati bor. Chunki eng yaxshi adabiy namunalar asosida insonparvarlik ruhida tarbiyalangan bolalar o'z hikoyalarida va ertaklarida mazlumlar va zaiflarni himoya qilish, yomonlarni jazolash orqali o'zlarining adolatparvarligini namoyon qiladilar. Binobarin, o'quvchilar estetik, ayniqsa, axloqiy tasavvurlarni kattalarning (ota-onalar, pedagoglar) o'qib chiqilgan asarlar bo'yicha nasihatnamo mulohazalaridan, tayyorlangan savollarga javob berishdan emas, balki aynan badiiy asarlardan olishlari lozim. O'qib chiqilgan asar bo'yicha haddan tashqari ko'p nasihat qilish katta, ko'pincha esa tuzatib bo'lmas ziyon yetkazadi: maydachuyda savollar bilan "sochib tashlangan" asar bolalar ko'z o'ngida o'zining barcha jozibadorligini yo'qotadi, oqibatda unga nisbatan bolalarning ham qiziqishi yo'qoladi.



Shuning uchun badiiy matning tarbiya imkoniyatlariga to'liq tayanish zarur. Bu borada o'qilgan asar yuzasidan o'quvchilarning o'z mustaqil fikrlarini bilish, asar qaysi jihatlari bilan ularda chuqur taassurot qoldirganligiga katta e'tibor berish kerak bo'ladi.

O'qituvchi o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish shakl va metodlarini o'zgartirib boradi. 1-sinfda ko'pincha o'qituvchi o'quvchilar mutolaasiga rahbarlik qiladi. O'zi bevosita asarni ifodali o'qib berish bilan birga, undagi ayrim so'zlar va iboralarning lug'aviy ma'nolarini tushunishga o'quvchilarga yordam beradi. Keyingi sinflarda esa o'quvchilarga o'qiladigan kitobni tavsiya qilish barobarida uni nazorat ham etib boriladi.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish uchun o'quvchilar o'rtasida "Mening sevimli kitobim", "Menda qiziqish uyg'otgan asar", "Sevimli qahramonim", "Mening qahramonim" kabi mavzularda munozara-bahs kechalarini uyushtirish, o'qigan asarlari yuzasidan qizg'in savol-javoblar tashkil qilish, badiiy asarlarni sahnalashtirish kabi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Hozirgi kunda barcha umumta'lim muassasalarida "Yosh kitobxon" marafonlari o'tkazilmoqda. Jamoatchilik va homiy tashkilotlar tomonidan minglab kitoblar maktab kutubxonalariga, Axborot-resurs markazlariga taqdim qilinmoqda. Albatta, kelgusida bu kitoblarni o'quvchilar o'qib-o'rganishiga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o'rinda ota-onalar ham o'z farzandlarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda maktab bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishlari, bolalarning bo'sh vaqtlarida internet o'yinlarini o'ynashlarini emas, badiiy asar mutolaa qilishlarini nazorat qilib borishlari zarur hisoblanadi.

Ko'rinadiki, yosh avlodda kitobga mehr uyg'otish boshlang'ich ta'limdanoq izchillik va uzluksizlik bilan amalga oshirilmog'i kerak. O'qituvchi kitob mutolaasini o'quvchi kundalik hayotining bir qismiga aylanmog'iga erishish uchun barcha imkoniyatlardan unumli foydalanishi muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi// <https://uzlidep.uz/uz/news-of-uzbekistan/7998>
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, "Nosir", 2009.



Jumaniyozova Muhabbat Xo'sinovna
Urganch davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti,
f.f.n.

Avezova Gulnoza Komilovna
UrDU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TOPISHMOQLARNI O'RGANISH YO'LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda topishmoqlarni o'rganishning metodik jihatlari va ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. boshlang'ich ta'lim, topishmoq, topqirlik, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish, nutq o'stirish.

Topishmoqlar narsa yoki hodisalarning ataylab yashirilgan belgisi, shakli, xatti-harakati, holati va vazifasini boshqa narsa yoki hodisalarga qiyoslash asosida topishga asoslangan she'riy yoki nasriy tuzilishdagi savol va topshiriqlardir. Topishmoqlar xalq turmushi bilan chambarchas bog'liq holda yaratiladi. Topishmoqda yashirilgan narsalar uning javobi hisoblanadi. Topishmoqning javobini topish uchun topishmoq matnini e'tibor bilan o'qish, nimaga ishora qilinayotganligini fahmlash, topishmoqning asosiy xususiyat va belgilari aynan nimaga qaratilganligini taxmin qilish bilan ham topishga harakat qilish kerak.

Topishmoq o'quvchilarni topqirlik va hozirjavoblikka o'rgatadi. Shu sababli xalq og'zaki ijodining bu janridan "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida ko'plab namunalar keltirilgan va ularni o'rganish uchun o'quv soatlari ajratilgan. Bolalarni nutqini o'rgatishda topishmoqlar alohida o'rin tutadi. Topishmoq bolalarni obrazli va aniq so'zlashga o'rgatishni osonlashtiradi. Topqirlik, aqliy faollik kabi holatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Boshlang'ich sinflar uchun tanlangan topishmoqlar sodda, qisqa va tushunarligi bilan ajralib turadi. Topishmoqlarni tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, tilni o'zlashtirish imkonini hisobga olingan.

Xususan, 1-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining 2-qismidagi "Til va dil" bo'limidagi "Sanamalar" nomli qismda sakkizta topishmoq hamda Orif Tolibning she'riy topishmog'i berilgan. 2-3-sinflar darsligida ham bir qancha topishmoqlar o'rganiladi.

4-sinf "O'qish kitobi"da topishmoqlar matnlardan so'ng uning mazmuni bilan bo'g'liq holda berilgan. Masalan: Mirkarim Osimning "Kitobga ixlos" hikoyasi matni ostida

Hammamizga chin o'rtoq,
Lekin odammas, biroq.
Tarixlardan so'zlaydi,
Yaxshilikni ko'zlaydi.
Donolarning naqlidan,
Ulug'larning aqlidan
So'zlab onging oshirar,
Kuch-g'ayrating toshirar.
U nima top, Mohitob?



Buning nomidir topishmog'i keltirilgan va mavzuga juda mos tanlangan. [2.65] Topishmoqlar bunday shaklda berilganda ularning javobi oson topiladi. 4-sinf o'qish darsligida turli topishmoqlar berilgan bo'lib, ular o'quvchilarning topqirligini yanada oshiradi, tafakkurini o'stiradi.

1-2-sinflarda topishmoqlarning javoblari rasmlar orqali berilgan. Bundan ko'zlangan maqsad topishmoqlarda aks etgan belgilarni aniq predmet shaklida umumlashtirish va shu asosda topishmoq javobini topishdir. Rasmlar aralash holda berilgan, o'quvchi ular orasidan to'g'ri javob aks etganini topishi darkor.

To'r ustida yashaydi,

Pashshisini o'rab tashlaydi. (o'rgimchak)

Bir aybi bor,

Turib semirar. (xamir) [1. 58]

Topishmoqlar ustida quyidagi tarzda ish olib borish maqsadga muvofiq:

- topishmoqda ko'rsatilgan narsa va hodisa belgilarini tushunib olish, ya'ni tahlil qilish;

- bu belgilarni bir-biriga taqqoslash va umumlashtirish;

- aniqlangan belgilar asosida xulosa chiqarish, ya'ni topishmoqning javobini topish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari topishmoq matni ustida ishlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

1. Ko'pincha bolalar javob berishga shoshilib, topishmoqni oxirigacha eshitmaydi, uni har tomonlama batafsil tushunib yetmaydi. Ularning diqqati matndagi birorta belgiga bog'lanib qoladi. Xulosani ular faqat shu yagona belgi asosida, qolganlarini e'tiborga olmagan holda chiqaradilar. Topishmoqni topish uchun muhim bo'lgan belgi esa e'tiborga olinmaydi. Bunday vaqtda topishmoqni topish qiyinlashadi.

2. Topishmoq yechishda uning ma'nosini bolalarning yaxshi tushunib olishiga, izchillik va tartib bilan fikr yuritishiga harakat qilish kerak. Bunda fikr yuritish tartibi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- umumiy ko'rinishda nimani qidirishni aniqlash;

- qolgan hamma belgilarni aniqlash

- taxmin qilinayotgan yechimni keltirish;

- aniqlangan belgilarni birlashtirish;

- xulosa chiqarish.

O'qituvchi topishmoqlarni ifodali tarzda bayon etadi, bolalar aytilayotgan narsa-buyumning hamma belgilarini eslab qolishlari uchun matnni qaytaradi. Savollar yordamida bolalarning e'tiborini belgilarga va ular orasidagi aloqaga qaratish kerak.

Topishmoqlarning javobini to'g'ri topish uchun misralarda yashiringan ma'noni topish kerak bo'ladi. Masalan,

Sandiq to'la oq sadaf

Turishadi tortib saf.

O'ttiz ikkita o'rtoq

Yashaydi ahil-inoq.

Ushbu topishmoqning javobini topish yo'llarini ko'rib chiqamiz.

1. Kalit so'z va birikmalarni ajratib olamiz: oq sadaf, o'ttiz ikki, tortib saf, sandiq.



2. Ushbu kalit soʻz va birikmalarning maʼnolarini aniqlaymiz: oq sadaf-oppoq dur, oʻttiz ikki – ular 32 ta, tortib saf – ular qator boʻlib turadi, sandiq- sandiqqa oʻxshash narsaning ichida turishadi.

3. Bu maʼnolarni nima birlashtirib turganini topamiz: ogʻizdagi tishlar.

Topishmoqning javobi topildi. Bunda ogʻzimiz sandiqqa, 32 ta tishimiz esa saf tortib turgan oq sadafga oʻxshatilmoqda.

Oʻquvchilar boshqa topishmoqlarning javobini ham shunday qilib topishga oʻrgatiladi. Har bir qadamga mos boʻlgan javoblarni aytish soʻraladi:

1. Kalit soʻzlar.

2. Kalit soʻzlarning maʼnolari.

3. Ularni nima birlashtirib turibdi?

Dum-dumaloq.

Yum-yumaloq.

Ichi toʻla havo-yey,

Tepsam, otar shataloq.

Bu topishmoqning javobini oʻquvchilar yuqoridagi taribda topishadi: javob koptok boʻladi.

Biror narsa haqida turli topishmoqlar aytilishi bolalar lugʻatini boyitish imkonini beradi. Topishmoq topishni yengillashtirish uchun oʻqituvchi bolalarga topishmoq yuzasidan quyidagicha savollar berishi ham mumkin:

“Topinglar-chi, bu mevami yoki sabzavotmi? U qayerda oʻsadi? Bu qanday faslda boʻladi? Bu qaysi hayvon ekan?” kabi. Soʻng topishmoqni ifodali oʻqib, rasmga qarab uning javobini topishni taklif qiladi. Masalan, “Stolni bezatish” oʻyinida stol tasvirlangan rasm tanlab olinadi, idishlar hamda oziq-ovqat rasmlari va ular haqida topishmoqlar tayyorlanadi. Oʻquvchilar topishmoqlar javobini topishni juda yaxshi koʻradilar.

Yuqorida aytilganidek, topishmoqlar orqali oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini oʻstirishga erishiladi. Ularning tahlil qilish, taqqoslash va umimlashtirish qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azimova I., Mavlonova K., Quronov S. va b. Ona tili va oʻqish savodxonligi. Umumiy oʻrta taʼlimning 1-sinfi uchun darslik. 2-qism. - Toshkent: Respublika taʼlim markazi, 2021.

2. Matchonov S., Shojalilov A., Gʻulomova X., Sariyev Sh., Dolimov Z. Oʻqish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: Yangiyul poligraph service, 2020.





GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM TARAQQIYOTI

Annotasiya: maqolada globallashuvning salbiy ko'rinishlari va oqibatlari, adabiy ma'naviyatsizlik, milliy qadriyatlarning noto'g'ri namoyon bo'lishi talqini, yoshlarda individualizm, egosentrizm shaklida ko'rinishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: globalizasiya, mafkuraviy immunitet, individualizm, egosentrizm, ma'naviy tahdid.

Аннотация: в статье освещаются негативные проявления и последствия глобализации, литературной одухотворенности, неправильного проявления и трактовки национальных ценностей, индивидуализма и эгоцентризма у молодежи.

Ключевые слова: глобализация, идеологический иммунитет, индивидуализм, эгоцентризм, моральная угроза.

Annotation: the article highlights the negative manifestations and consequences of globalization, literary spirituality, incorrect manifestation and interpretation of national values, individualism and egocentrism in young people.

Key words: globalization, ideological immunity, individualism, egocentrism, moral threat.

Ijtimoiy hayot shiddat bilan o'zgarib borayotgan globallashuv davrida yashayapmiz. O'tgan asrning 70-80 yillarida tor doiradagi geosiyosiy, makroiqtisodiy va siyosiy-mafkuraviy adabiyotlarda paydo bo'lgan bu atama bugun kishilar o'rtasidagi oddiy muloqot mavzuiga aylanishga ulgurdi. Istaymizmi yo'qmi, mamlakatimiz ham globallashuv jarayonidan tashqarida emas. Bugungi kunda hayotimizda ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy sohada keng qo'llanayotgan globallashuv tushunchasi ko'plab siyosatchi, faylasuf olimlarni qiziqtirib kelmoqda. Fransuz faylasufi Rene Dekart "Tushunchalar ma'nosini aniqlashtiring va bu insoniyatning yarmini adashishdan saqlaydi" [4.,s.335] deganida nechog'liq haq ekanini davrning o'zi isbotlab turibdi.

Bugungi kun talabi mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishga qarshi sog'lom fikr bilan zarba berish, yoshlarni bunyodkor g'oyalar bilan immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Globalizasiya uyushgan jinoyatchilikning bir mamlakat hududidan boshqa mamlakat hududiga tarqalishini osonlashishida, milliy davlat poydevorining zaiflashuvida, milliy o'zlik tuyg'usining susayishida, g'arb madaniyatining, aksilmadaniyatning keng tarqalishida, individualizm, egosentrizm kabi salbiy xatarlarning kuchayishida namoyon bo'lmoqda. O'zlarini o'ta madaniyatli hisoblayotgan ma'naviyatsizlik muammolarining ko'rinishlarida sezilmoqda.

Globallashuv jarayonining o'ziga xos jihatlaridan biri "... hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani"dir. [3.,b.112] Odam o'z mutaql fikriga, sog'lom dunyoqarashga, mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har qanday pinhona ma'naviy tahdidlarga ko'r-ko'rona ergashib, ularning ta'siriga bardosh bera olmasligi



amrimahol, albatta. Bu esa tubsiz jar, chegarasiz botqoq tomon yetaklashi tabiiy.

Tabiiyki, oliy, o'rt va maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalari va ommaviy axborot vositalari globallashuv va "ommaviy madaniyat"ning salbiy xurujlariga qarshi turuvchi eng asosiy qalqon bo'lmoqda. Zero, ta'lim muassasalari yosh avlodning mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalovchi, yuksak bilimli, intellektual rivojlangan kadrlarni yetkazib beruvchi markazlar hisoblanadi. Bu jihatdan ta'lim muassasalarini globallashuvning salbiy tahdidlariga qarshi turuvchi ichki himoya tizimi, deb ham ta'riflashimiz mumkin.

"To'rtinchi hokimiyat" vakillari esa, global axborot makonida tashqi mafkuraviy xurujlarga qarshi kurashuvchi eng samarali vosita – mazkur jarayondagi tashqi himoya tizimi vazifasini bajaradi. Chunki, mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan mustaqil ommaviy axborot vositalarigina jahonning turli mintaqalaridagi mafkuraviy poligonlar tomonidan global axborot tarmoqlari orqali amalga oshirilayotgan axborot xurujlariga qarshi doimiy kurash olib borish imkoniyatiga ega.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishi kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'ymoqda". [2.,b.45-46] Yoshlarni tarbiyasiga jiddiy e'tibor berilmaganligi, ularning qiziqishlarini, talab va takliflarini o'rganilmagani, ma'rifatga yo'naltirilmagani Mafkuraviy immunitetini susayishiga, yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishiga olib kelmoqda. Mafkuraviy immuniteti mustahkam yoshlarni hech qanday yot g'oyalar yo'ldan og'dira olmaydi.

Shunday ekan, ushbu masala ma'naviy sog'lom avlodni shakllantirish jarayonida eng muhim masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Unga jiddiy yondashish, masalaning tub ildizlariga yetib borish va uni hal etish esa, bugungi kunimizning eng asosiy va muhim talabidir.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanab xalqimiz bilan quramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.: O'zbekiston, 2017.
3. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch T.: Ma'naviyat, 2008.
4. Декарт Р. Рассуждение о методе, чтобы верно направлять свой разум и отыскивать истину в науках и другие философические работы. М.: Академический проект, 2011, стр.335





*Isakova Shoxida,
QDPI dotsenti
Parmonov Alisher,
QDPI o'qituvchisi*

ADABIY TARAQQIYOTDA GLOBALLASHUV

Annotasiya. maqolada madaniy taraqqiyotda, jumladan, adabiyot va san'atda glovallahuvning salbiy ko'rinishlari va oqibatlari, adabiy ma'naviyatsizlik, tarjimada milliylik, qadriyatlarining noto'g'ri namoyon bo'lishi, ularning o'girmalardagi talqini yoritilgan.

Kalit so'zlar. globalizasiya, mafkuraviy immunitet, individualizm.

Аннотация. в статье освещаются негативные проявления и последствия глобализации в развитии культуры, в том числе литературы и искусства, литературной духовности, национализма в переводе, неправильное проявление ценностей, их интерпретация в мире.

Ключевые слова. глобализация, идеологический иммунитет, индивидуализм.

Abstract. the article highlights the negative manifestations and consequences of globalization in the development of culture, including literature and art, literary spirituality, nationalism in translation, the incorrect manifestation of values, their interpretation in the world.

Key words. globalization, ideological immunity, individualism.

Eng avvalo, globallashuv nima? Globallashuv – jahon miqyosida iqtisodiy, siyosiy, madaniy va badiiy integratsiyalashuv va birlashish jarayonidir. Globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar bahs-munozarali. Tarixchilar bu jarayonni kapitalizmning rivojlanish bosqichlaridan biri, deb hisoblaydilar. Iqtisodchilar moliya bozorlarining transmilliylashuvidan hisoblashmoqda. Siyosatshunoslar demokratik tashkilotlarning keng tarqalishiga urg'u berishadi. Madaniyatshunoslar globallashuvning namoyon bo'lishini madaniyatning g'arbiylashuvida deb bilishadi.

Yurtimizda yoshlarni barkamol shaxs bo'lib yetishishlari uchun barcha imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratilgan. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash borasida boshqa manbalar bilan bir qatorda adabiyotning ham o'rin beqiyosidir. Insonparvarlik g'oyalari, baxt-sodat va adolatga erishish orzu-havasi xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, san'atda, diniy va falsafiy ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda. Adabiyotning xalqimiz ma'naviyatiga, ruhiyatiga o'tkazayotgan ta'siri ma'naviyatga oid boy merosimizning qayta tiklanishida o'z aksini topgan. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Bobur, Dusayn Voiz Koshifiy singari mutafakkirlarimizning axlok haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda har bir inson, ayniqsa, yoshlar uchun qimmatli tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Darhaqiqat, inson yer yuzida mavjud jonzotlar orasida eng mumtoz, eng qadimiysidir. Inson shaxsi esa eng olijanob ijtimoiy qadriyatdir.



Ana shunday asarlardan biri Oybekning “Navoiy” asaridir. Romandagi Navoiy obrazi o‘zbek adabiyotida yaratilgan, katta mahorat bilan tasvirlangan mukammal obrazlardan biridir.

Muallif birinchilardan bo‘lib qahramonning tashqi ko‘rinishi orqali uning psixologiyasi, xarakteri, ichki dunyosini ko‘rsatishga erishdi. Bu yozuvchi oldida turgan eng murakkab vazifalardan biridir:

«Shoirning boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Egnida – ichidan odmi shohi to‘n, ustidan yalang qo‘ng‘ir movut chakman... O‘ttizdan oshmagan bo‘lsa ham, Navoiy yoshi ulug‘roqdek ko‘rinadi. Qomati o‘rtadan baland, ingichka, lekin pishshiq, barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xush bichim miyiqdari tekis va silliq; yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma‘nosi, ma‘naviy qudrat va yengil, go‘zallashtiruvchi bir horg‘inlik jilvalanadi. Qoboriqroq qovoqlari ostidagi qiyg‘och ko‘zlarida go‘yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi».

features of the arrangement. Each learner needs to have equal access to the others to get the essential information while preserving the uniqueness of their own information. This means that when working in pairs the learners should face each other, because that allows good communication while hiding their written or pictorial information. When working in a group, it is best if the learners sit in a circle, so that each learner is an equal distance from any other learner. Equal access to each other is the most important element in the seating arrangement of combining-arrangement groups social relationship amongst the members of a combining group needs to be one of equality. For this reason it is usually unwise for the teacher to become a member of a group unless the learners are prepared to treat the teacher as an equal and the teacher is willing to take a non-dominant role. Some teachers find this difficult to do. In addition, various status relationships among learners may upset the activity. Research by Philips with the Warm Springs Indians found that the way in which the local community group activities were organized had a strong effect on learners participation in classroom activities. Just as social relationships can affect the group activity, participation in the group activity can have effects on the social relationships of learners. Research on the combining arrangement as a means of achieving learning goals has focused on acquiring language through negotiating comprehensible input and mastering content. Long and Porter call combining-arrangement activities «two-way tasks» to distinguish them from superior-inferior activities («one-way tasks»). This research indicates a superiority for combining arrangement activities over teacher-fronted activities and «one-way tasks».

The most suitable tasks for combining-arrangement group work include:

- completion, e. g., completing a picture by exchanging information, completing a story by pooling ideas;
- providing directions, e. g., describing a picture for someone to draw, telling someone how to make something;
- matching, classifying, distinguishing, e. g., deciding if your partners drawing is the same as yours, arranging pictures in the same order as your partners unseen pictures;
- ordering, e. g., putting the sentences or pictures of a story in order arrangement activities do not usually present problems for the teacher.

Group size is not a restricting factor. Strip-story exercises involving the ordering of pictures or sentences can be done with groups of 15 or more as long as learners can sit in a large circle or move about to have easy access to each other. One difficulty that may occur is maintaining the uniqueness of each learners information. This can be done by getting learners to memorize their information at the beginning of the task, or, in pair work, setting up a physical barrier between learners. This physical barrier may be a cardboard screen about 30 centimeters high combining groups be made up of learners with mixed proficiency or with roughly similar proficiency? In assessing the spread of participation in the activity. The cooperating arrangement is the most common kind of group work. Its essential feature is that all learners have equal access to the same information and have equal access to each others view of it.



Literature:

1. Littlewood W. T. Communicative approach to language teaching methodology. - Dublin: Dublin University, Trinity College, Centre for Language and Communication Studies, 2005. - 265 p.
2. Chomsky N. The Logical Structure of Linguistic Theory. - New York: Prentice Hall, 1975. - 285 p.
3. Hymes, D. H. (1971). On communicative competence. Philadelphia: University of Pennsylvania Press.
4. Ecroyd D. H. Speech in the Classroom. - New Jersey: Prentice Hall, 2003. - 180
5. Krashen, S. & Terrell, T. D. (1983), The Natural Approach, Pergamon
6. Brown H. D. Principles of Language learning and teaching. - New York: Prentice Hall, 2009. - 285 p.

*Абдурахимова Мадина Ильхомовна
Кокандский государственный
педагогический институт*

КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ ПОДХОД В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ СТУДЕНТОВ

Аннотция. В данной статье рассматривается компетентностный подход в развитии культуры речи студентов. В статье подчеркивается, что этот подход позволяет создать условия для эффективного развития коммуникативной компетенции студентов, расширения кругозора и повышения уровня требований к себе и другим в сфере общения.

Ключевые слова: компетентностный подход, культура речи, стиль речи, русский язык.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilar nutq madaniyatini rivojlantirishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv haqida so'z boradi. Maqolada ta'kidlanishicha, ushbu yondashuv o'quvchilarning kommunikativ kompetentsiyasini samarali rivojlantirish uchun sharoit yaratish, ularning dunyoqarashini kengaytirish va muloqot sohasida o'ziga va boshqalarga qo'yiladigan talablar darajasini oshirishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, nutq madaniyati, nutq uslubi, rus tili

Annotation. This article discusses the competence-based approach in the development of students' speech culture. The author emphasizes that this approach allows creating conditions for the effective development of students' communicative competence, broadening their horizons and raising the level of requirements for themselves and others in the field of communication.

Keywords: competence-based approach, culture of speech, style of speech, Russian language

Компетентность – это набор знаний, умений и навыков, необходимых для решения задач в конкретной области. В обществе важное значение имеет развитие культуры речи, которое заключается в умении грамотно и ясно выражать свои мысли и идеи.

Развитие культуры речи является одним из ключевых компонентов



образования. Современные методы обучения основаны на компетентностном подходе. Он предполагает, что ученик должен знать, как применять полученные знания в реальной жизни. Соответственно, преподавание не является целью само по себе, а служит средством достижения целей студентов.

Компетентностный подход в развитии культуры речи студентов заключается в развитии следующих навыков:

Умения правильно использовать речевые конструкции – студент должен знать, как правильно составлять предложения, понимать значение слов и использовать синонимы и антонимы.

Умения правильно строить речь – студент должен знать, как правильно расставлять ударения, использовать интонацию и паузы, как правильно использовать языковые средства для формулирования мыслей.

Умения выбирать стиль речи – студент должен знать, какой стиль речи использовать в зависимости от цели общения (официальный, деловой, личный).

Умения правильно использовать нормы русского языка – студент должен знать, как правильно использовать предлоги, союзы, склонять слова и т.д.

Компетентностный подход в развитии культуры речи студентов предполагает, что преподаватель должен не только давать знания, но и помогать студентам применять их на практике. Например, в рамках уроков русского языка студентам можно предложить составлять тексты на определенные темы или проводить дебаты на актуальные темы.

Кроме того, важную роль играют внеурочные мероприятия. Школьники могут участвовать в различных конкурсах, фестивалях и турнирах по культуре речи, где они смогут продемонстрировать свои навыки и получить обратную связь.

Таким образом, компетентностный подход в развитии культуры речи студентов является эффективным методом обучения и позволяет достичь максимальных результатов. Преподаватель должен позволять студентам применять полученные знания на практике, а также организовывать внеурочные мероприятия, чтобы ученики могли продемонстрировать свои навыки. Развитие культуры речи – это необходимый элемент образования, который позволит студентам успешно функционировать в современном обществе.

Помимо того, что компетентностный подход в развитии культуры речи способствует формированию навыков общения и адекватной реакции на социальные вызовы, он также укрепляет социальную ценность языка и культуры. Развивая культуру речи у студентов, мы также учим их уважать собеседника, правильно аргументировать свою позицию, учим грамотности, а также тренируем память и логику.

Компетентностный подход не только корректирует и совершенствует устную речь студентов, но также находит отражение и в письменном проявлении. Правильно организованное письмо – это не только грамотность, но и логическое мышление и четкость мысли. Таким образом, компетентностный подход в развитии культуры речи студентов способствует развитию общих компетенций, которые будут полезными будущим специалистам в любой сфере деятельности. Тем не менее, для успешного развития культуры речи студентов необходима



также конструктивная обратная связь. Преподаватель должен уметь не только предоставлять студенту информацию о том, что правильно или неправильно, но и проявлять понимание и дать возможность ученикам улучшить свои навыки.

Таким образом, компетентностный подход в развитии культуры речи студентов – это не только метод, но и процесс, в котором также важны личностные качества преподавателя и компетентность передачи знаний. Важно также помнить, что компетентный педагог может сделать образование доступным и интересным для студентов, а значит, мотивировать их к развитию не только культуры речи, но и других компетенций.

Список литературы:

1. Алексеева О.А. Развитие коммуникативной компетенции студентов в условиях коллективного общения: компетентностный подход // Вестник Челябинского государственного университета. 2013. Т. 6. С. 12-18.
2. Гаспарян Н.О. Культура речи в современном образовании: проблемы и перспективы // Вопросы образования. 2014. № 3. С. 132-137.
3. Емельянова Е.И., Бабаева Т.Е. Культура речи и социокультурные нормы // Вестник Карельского научного центра РАН. 2016. Т. 10. № 2. С. 31-37.
4. Кокшарова Н.А. Культура речи и профессиональное общение // Профессиональное образование в России и за рубежом. 2015. № 2. С. 56-62.
5. Тигранянц А.И. Культура речи и коммуникативная компетенция: теория и практика // Вестник Южно-Уральского государственного университета. 2018. Т. 21. № 3. С. 7-14.
6. Булыгина, Т.Н. Культура речевого общения. - М.: Аспект Пресс, 2006.
7. Гак, В.Г. Культура речи и культура мышления. - М.: Языки славянской культуры, 2007.
8. Григорьева, Н.А. Культура речи и искусство общения. - М.: Флинта, 2010.

*Zilola Ziyovuddinova,
Buvayda tumani 13-maktab o'qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi*

MULOQOT NUTQIDAGI MUAMMOLAR VA MULOHAZALAR

Men marhum ustozimiz professor Odiljon Bozorov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan xalqaro anjuman o'tkazilayotgani va unga yodnomalar, ilmiy va ilmiy ommabop maqolalar to'planayotganini eshitib, juda mamnun bo'ldim. Zero, domla bizlarni til ilmining murakkab, lekin qiziqarli olamiga olib kirganlar, so'z olamining turfa go'zalliklari bilan tanishtirgan edilar. Qolaversa, uning farzandi arjumandlari o'zbek tilshunosligining umidvor yosh olimalaridan biri Maftunaxon bilan birga saboq olganmiz. Shu sababdanmi, men ham ushbularni qayd etgim keldi. Mening bu kamtarona mulohazalarimni domlaga, Maftunaxonga va, umuman, Qo'qon muzofotining muhtaram til va adabiyot muallimlariga hurmat nishonasi deb qabul qilishlaringizni o'tinardim. "Davlat tili to'g'risida"gi Qonunda nafaqat o'zbek tilining nufuzini saqlab qolish,



balki uni muttasil rivojlantira borish yuzasidan ham ko'rsatmalar bayon etilgan. Ona tilimizning ravnaqi o'z-o'zidan yuzaga chiqadigan jarayon emas. Uning shaffofligini saqlash va shu bilan bir qatorda tilimizning so'z boyligini oshirib borish ham muhim sanaladi. Tilimizning dag'allashib borishiga (darhaqiqat, o'zimiz sezmagani holda tilimiz to'porilashib bormoqda. Buning esa sabablari ko'p. Birinchi galda, tilimizga yot so'zlarning muttasil kirib kelishi, og'zaki nutqda orfoepik talablardan chekinish, yozma nutqda orfografik qoidalarini chuqur tushunmaslik, orfoepik qoidalar bilan orfografik ko'rsatmalarning nomutanosibliigi (masalan, "hashorat" deb aytamizu "hasharot" deb yozamiz) tashqi va ichki reklamalardagi xatoliklar, telegramm va SMSlari yozishmalaridagi chidab bo'lmas darajadagi imloviy va mazmunii nuqsonlar, kino va intervyular tilida muharrir hamda jurnalistlar diqqatidan chetga chiqib qolayotgan nutqii me'yorlar, mezonlar... v.h.) e'tibor birmuncha kamaygandek tuyulyapti, bizningcha. Sho'ro tuzumi davrida yaratilgan videofilmlar, kinolentalar, dublyaj mahsulotlari qayta aylantirilganda, o'sha davr tili bugungi globallashuv davridagi tilimizdan bir pog'ona yuqori turganday taassurot uyg'otmoqda. Oybekning "Navoiy", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi", O'ktam Usmonovning "Girdob" romanlar asosida ishlangan videoseriallar, Abdulla Qodiriyning har ikkala romani asosida yaratilgan kinolentalar yoki rus kinomotograflar ishlagan "Ishdagi ishq", "Qushdek yengil bo'ling", "Ivan Vasilevich kasbini o'zgartiradi", "Ikki kishilik vokzal" filmlari dublyajlarining tilida bu filmlarning originali tiliga qaraganda tarjima va ijrodagi mukammallik negadir bugungi o'zbek seriallarida ham, badiii filmlarda ham, yozilayotgan hikoya, qissa, roman va boshqa badiii yaratilqlarda ham kamroq sezilayotganga o'xshaydi. Bu esa adabii til bilan badiii til (adabiiyot va san'at tili) o'rtasidagi o'ta zarur bo'lgan aloqaning sustlashib borayotganidan darak bermayaptimikan?!

Aslida, adabii tilning shakllanishi va rivojida millii til unsurlari qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, bu jarayonda badiii tilning mavqei ham bundan kam bo'lmaydi. Nima uchun kitobxonlik masalasi bugunga kelib davlat siyosati darajasiga ko'tarildi? Bundan kutilgan murodning bir qanoti tilimizni sayqallash, so'zlashuv tiliga nazokatni yuqtirish, kishilar o'rtasida nutq madaniyatini oshirish hisoblanadi. Nutq madaniyati insoning ma'navii hayotida, uning ma'navii tafakkurini ko'tarishda, ilmiy va ma'navii dunyoqarashni kengaytirishda, shu bilan birga, muomala madaniyatini yuksaltirishda nihoyatda muhim hisoblanadi. Shu bois ertangi kunimiz bo'lgan yoshlarni yuqori ma'navii-madaniy salohiyatga ega, har tomonlama yetuk, bilimdon, o'z mustaqil fikriga ega barkamol shaxs sifatida tarbiyalashda mazkur sohaning ham amaliy, ham nazariy ahamiyati kattadir. Demoqchi bo'lganimiz bitta. Bu ham bo'lsa adabii merosimizning gultojlari bo'lgan she'riy, nasriy, dramatik asarlarni ko'proq mutolaa qilish va undagi sayqal topgan nutqii unsurlarni o'zimizning amaliy faoliyatimizda keng iste'foda etishdan iborat. Bugungi kunda Navoiy asarlari tilida yoki Boborahim Mashrab yoxud Muqimiy she'rlari, Hamza dramalari tilida so'zlash mushkul. Biroq ularga ibrat ko'zi bilan qarash, ayrim so'z va iboralarni tilimizga olib kirish, menimcha, u qadar qiyin ish emas. Buning yagona to'siq bo'ladigan tomoni ham yo'q emas. Ayrim "madaniyatli" kishilar adabii tilda muloqot qilishsa, so'zlashuvchilar ustidan kulishadi. Ammo dag'al, tushuniksiz til, qurama tilda muloqot qilishayotganlarga u qadar e'tibor bermaydi va buni tabiiy jarayon deb bilishadi. Tilimizga chet so'zlar kirib kelayotgan va bu jarayon muttasil sodir bo'layotgan ekan, bugungi tilshunos olimlarimiz masalaning ana



shu tomonlariga ko'proq e'tibor qaratsalar, tilimiz bisotidagi foydalanilmay turgan resurslarni jonlantirishga sa'y qilsalar foydadan xoli bo'lmaydi.

Yana bir muhim og'riqli masala nutq madaniyati sohasining oqsayotganida ko'rinadi. Muloqotning og'zaki va yozma shakllari orasidagi nomutanosiblik kundalik muomala madaniyatida ham, yozilayotgan badiiy asarlardan tortib, qo'yilayotgan kinofilmlar tilida ham sezilib qolayotir. Aytib o'tilganidek, nutq madaniyatining boshlang'ich nuqtasi hisoblangan nutqning to'g'rilik darajasi bo'lgan kommunikativ sifati uning adabiy til me'yorlariga muvofiqligi bilan belgilanadi. N.Mahmudovning uqtirganlariga asoslanilsa, nutq madaniyati tavsifiy tilshunoslikning barcha tarmoqlariga aloqador sifatida hozirgi tilshunoslikning normativ grammatikasi bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. [1,34] Tilshunos B.N.Golovin "Nutq madaniyati fan va o'quv predmeti sifatida til haqida normativ grammatikada bayon qilingan ma'lumotlarga suyansa-da, til materialiga yondashuv nuqtai nazaridan undan farq qiladi: tilning grammatik faktlari nutq madaniyatini, eng avvalo, me'yorlarga tobeligi – amal qilinganligi, ikkilanganligi va buzilganligi bilan qiziqtiradi. Grammatik shakl va kategoriyalarning grammatik tabiati emas, balki aynan me'yorlashish jihati nutq madaniyati uchun ahamiyatlidir". [5,307] Tilimizdagi grammatik shakl va kategoriyalarning adabiy me'yorlashganlarini nutq maqsadiga muvofiq tanlash asosida so'zlash nutq madaniyati uchun asosiy jihatdir. Darhaqiqat, tilshunoslikning barcha jabhalarida adabiy tilning me'yorlashgan talablariga suyanilgan holda ish ko'riladi va nutq madaniyati ham bundan mustasno emas. Nutq madaniyatini biz zikr etib o'tgan jabhalar asosida uning tilshunoslik fanining ayrim sohalari bilan bog'liqligini ko'rib chiqaylik.

Tilshunoslikning fonetika bo'limi bo'yicha bajarilgan tadqiqotlarda o'zbek tili fonetikasida 24 undosh va 6 unli borligi xususida so'z yuritiladi. Biroq bir qator tilshunoslar, xususan, A.Rustamiy o'zbek tilida yuzga yaqin nutq tovushlari borligini qayd etadi.[3,124] Bu tovushlar nutqning turli jabhalarida turlicha talaffuz qilinishi, to'g'rirog'i, bu holat adabiy tilning me'yorlashgan turli so'zlarida ayrim undosh va unililar aynan bir xil talaffuz etilmasligi bilan izohlanadi. Masalan, til oldi, quyi keng, old qator, qisqa unli deb ta'riflanadigan **a** unlisi ayrim bir so'zlar talaffuzida til oldi unlisi tarzida, ayrimlarida esa til orqa unlisi maqomida talaffuz etiladi: *aka, uka, bola, nola, sariq, qo'ra, aytmoq, qaytmoq* singari so'zlar talaffuzi bu ta'rif va tavsifga to'la mos keladi. Biroq, *anqov, unaqa, ma'no* kabi so'zlar talaffuzida til orqa unlisi sifatida talaffuz qilinadi. **o'** unlisi lablanmagan, til oldi, o'rta keng unlisi hisoblanishiga qaramay, ayrim adabiy so'zlar talaffuzida til orqalik xususiyatini kasb etganligini kuzatish mumkin. **i** unlisi so'z o'rtasida (*bilan, sira, birikma*) juda qisqa talaffuz etilsa, so'z boshida va oxirida cho'ziq talaffuz qilish talab etiladi: *imtihon, ijro, in'om, inoyat, ikki, dakki, hayoli, mevali* kabi. Undoshlar yuzasidan ham bunga o'xshash holatlarga muxtasar to'xtab o'tish mumkin bo'lsa, bunga ko'plab misollar keltirish mumkin.

a) o'zbek tilida 8 ta jarangli undoshning 8 ta jarangsiz jufti mavjud: b-p, d-t, z-s, g-k, j-sh, dj-ch, v-f, g'-q. Leksema ana shu undosh tovushlarning jaranglisi bilan tugasa, talaffuzda jarangsizi bilan almashadi va bu adabiy meyorga mos sanalib, nutq madaniyatiga ta'sir qilmaydi: *kabob (kabop), qad (qat), yolg'iz (yolg'is), barg (bark), mavj (mavch), Azimov (Azimof), dudog' (dudoq)*. Biroq bu qat'iy qoida emas. Masalan, *qatnov, ov, suv* kabi so'zlarda bunday emas;



b) n undoshi b, m, p undoshlari oldidan kelganda, ko'pincha m undoshi singari talaffuz qilinadi: *ko'nmadim (ko'mmadim)*, *o'n besh (o'm besh)*, *manman (mamman)*, *manpar (mampar)* singari;

v) g undoshi so'z o'rtasida jarangsiz undoshdan keyin kelganida jarangsizlashib talaffuz qilinadi: *ishga (ishka)*, *bosgan (boskan)*, *o'tgan (o'tkan)*, *ketguncha (ketkuncha)*, *ketgach (ketkach)* v.h.;

g) n undoshi g, k, q, g' undoshlari oldidan kelganida ng undoshi kabi aytiladi va shu holat adabiy me'yor sifatida qabul qilinani: *mangu (manggu)*, *manqurt (mangqurt)*, *qo'ng'iz (qo'ngg'iz)*, *to'nka (to'ngka)* v.h.

Ma'lumki, orfoepiya nutq madaniyati bilan bevosita aloqada bo'ladi. Negaki, nutq madaniyati tushunchasi har bir so'zni aniq va to'g'ri talaffuz etish, yolg'iz holdami, biror jumla ichidami, biror sheva yoki individual holatda talaffuz etishga yo'l qo'ymaydi. Nutqdagi har bir so'z adabiy til me'yoriga muvofiq tarzda talaffuz etilishi darkor. Ayrim bir so'zlar borki, ularda biror tovush orttiriladi, tushiriladi yoxud almashtiriladi. Shu holat adabiy til me'yori hisoblanadi. Oddiy kishilardan tortib, suhandonlargacha ana shunday talaffuz qiladilar. Shulardan ayrimlarini ko'zdan kechiraylik:

a) faol nutqimizda ishlatiladigan arab va fors tilidan o'zlashgan qator undoshli, bir bo'g'inli *muhr, mahr, makr, vasf, sinf, qadr, zarb, sath, nahr, qahr, zikr, jazm, nazm, nasr, bazm, hazm, qatl, uzv, jahl* singari yuzlab so'zlar borki, kishilar ularni yozma nutqda ishlatganlarida, o'ntasidan yetti yoki sakkiztasini talaffuz qilganicha, qator undosh orasida **i** yoki **u** orttirib istifoda qiladilar;

b) yoki buning aksi bo'lgan qisqa unlilar yozilishi shart bo'lgan *biror, ajin, gapir, uzun, huzur* kabi so'zlarni yozishda shu qisqa unlilarni tushirib qoldirishadi;

v) bir qator so'zlarning ikkinchi bo'g'inida **i** yoki **u** yozilishi masalasi ham hammani o'ylantiradi: *tuxum, qovun, sovun, kovush, tovush, tovuq, sovuq, mo'g'ul, junjikmoq, tushunmoq, shovullamoq, gurkuramoq* singari o'nlab so'zlarning barchasida **u** unlisi talaffuz qilinadi, biroq imlo qoidalariga muvofiq tarzda yoziladi;

g) tilda metateza hodisasi mavjud. Bunda bir so'zdagi ikki tovush o'rni almashgan holda talaffuzda o'rinlashib qolgan bo'ladi. Bularni ham to'g'ri yozish malakasini hosil qilish oson ish emas: *turpoq emas tuproq, surpa emas supra, avf emas afv, istima emas isitma, hashorat emas hasharot, nashiryot emas nashriyot* kabi;

d) tutuq belgisining ham o'z o'rni bor. Agar tutuq belgisi unlidan keyin kelsa (*ma'no, ma'naviy, a'lo, da'vo, ta'na, e'lon, iste'dod, me'yor*), shu unli cho'zib talaffuz qilish me'yor hisoblanadi va nutq madaniyati talablariga mos tushadi. Agar tutuq belgisi undoshdan keyin kelsa, shu undosh tovush bilan unli tovush bir-biridan ajratilgan holda talaffuz etiladi (*san'at, tal'at, jur'at*) va bu ham adabiy til me'yoriga mos kelib, nutq madaniyatiga muvofiq keladi;

ye) agar unli tovushlar qator (ketma-ket) kelib qolsa, ularning orasida **y** tovushini orttirib talaffuz etish ham me'yor sanaladi: *oila (oyila), shoir (shoyir), shior (shiyor)* kabi.

Biz maqola hajmidan kelib chiqib, muloqot nutqi madaniyatining ayrim juz'iy masalalariga murojaat etdik, xolos. Mazkur yo'nalishda so'zlashadigan, bahslashadigan masalalar ko'p. So'zlashuv madaniyatida o'zini madaniyatliman, deb hisoblaydigan har bir odam og'zidan chiqayotgan har bir kalomni, avvalo, o'zi eshitib, tahlil qilib turishi kerak. Donishlar bu borada ko'p hikmatlarni bayon qilganlar. Shundagina tilimizning fasohati – go'zalligi, shaffofligi, ta'sirchanligi ortadi. Nutq sohibining madaniyatlilik darajasi yuksaladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov H. O'qituvchi nutqi madaniyati. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
2. Rustamiy A. Adiblar odobidan adablar. T., "Ma'naviyat". 2006.
3. Karnegi D. O'z-o'ziga ishonch hosil qilish va omma oldida so'zlash san'ati. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010.
4. Головин Б.Н. Основы культура речи. М.: Высшая школа, 1988.

*Hilola Tursunova,
Buvayda tumanidagi
4-bolalar bog'chasi mudirasi*

ONA TILI VA ADABIYOT TA'LIMI MUAMMOLARI

Istiqlol yillarida ona tili va adabiyot ta'limida qator yutuqlarga erishildi. Ona tili va adabiyotdan davlat ta'lim standartining yangidan joriy qilinishi, dastur va darsliklarining yangilanishi, bu fanlarni o'qitishga doir uslubiy qo'llanmalarining ko'plab chop etilishi, ta'lim jarayoniga interfaol metodlarning, zamonaviy o'qitish texnologiyalarining olib kirilishi shunday yutuqlardan hisoblanadi. Amalga oshirilgan ishlar tufayli ona tili va adabiyot ta'limida bir qator ijobiy natijalar qo'lga kiritildi. Lekin hali bajarilishi lozim bo'lgan yana bir qator ishlar borki, ularni amalga oshirmay turib, ona tili va adabiyot ta'limini sifat jihatdan yangi bosqichlarga olib chiqib bo'lmaydi. Bulardan ayrimlarini ko'rib o'taylik.

Ona tili ta'limi oldidagi muhim muammolardan biri o'quvchilarga mo'ljallangan o'quv lug'atlarini yaratishdir. Ma'lumki, ona tili dasturida ona tili ta'limi vositalari sifatida darsliklar, lug'atlar va albomlar ko'rsatilgan. Bu vositalardan biri bo'lgan darslik hanuzgacha asosiy o'rinda turibdi, ya'ni qolgan vositalar ta'lim jarayonidan o'rin olgani yo'q. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ona tili o'qitishda lug'atlarning darslik bilan yonma-yon vosita sifatida qo'llanishi ko'pchilikka ma'lum. Masalan, ingliz, nemis va fransuz bolalarining ona tili darslarida foydalanishlari uchun ommaviy nashr etilgan 20 dan ortiq lug'atlar mavjudligi adabiyotlarda qayd etilgan. Shunday ekan, o'quvchilar uchun izohli, faol so'zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlar, iboralar, paronimlar, uyadosh so'zlar sohalariga daxldor lug'atlarni zudlik bilan tuzish va ularni ommaviy nashr etish kerak. Bu lug'atlar, albatta, bolalar bog'chasidan tortib, maktab, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar kutubxonalaridan o'rin olishi hamda ularni kompyuter xotirasiga joylashtirish, internet saytlariga kiritish lozim. Shu lug'atlar yordamida amaliy ishlarga yanada kengroq o'rin berish, o'quvchilarning so'z boyligini oshirish, madaniy nutqini takomillashtirish, ularni so'zlarning sehrli olamiga olib kirish, so'z sehriga oshufta qilish, imloviy bilimlarini mustahkamlash, bolalarga ijodiy tafakkur ko'nikmalarini singdirish imkoniyatlari yuzaga keladi. Bunday lug'atlarni tuzish uchun lug'atshunos va metodist olimlar, ilg'or ona tili va adabiyot o'qituvchilari birlashishi lozim bo'ladi.

Ona tili o'qitishni yaxshilash yo'lida bajariladigan ishlardan yana biri o'quvchilar nutqini rivojlantirishga e'tibor qaratishdir. Ona tili ta'limi oldidagi asosiy masalalardan



biri ham o'quvchilarda ijodiy fikr mahsulini nutq sharotiga mos ravishda mantiqan to'g'ri, ravon ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu maqsadga erishishda o'quvchilarda notiqlikka havas uyg'otish, o'z fikrini chiroyli va aniq ifodalay olishga qiziqtirish, o'zining chiroyli nutqi bilan boshqalarda o'ziga nisbatan hurmat tuyg'usini shakllantirish mumkinligini singdirib borish yaxshi samara beradi, deb o'ylaymiz. Buning uchun o'qituvchining o'zi chiroyli nutqqa ega bo'lishi va bu orqali o'quvchilarga namuna bo'lishi lozim. O'qituvchi bolalarga yozuvchi va shoirlar, aktyorlar, nuroniy otaxonlar va onaxonlar nutqidan namunalar eshittirishi va shu orqali o'quvchilarda notiqlikka havas uyg'otishga harakat qilishi kerak. Shundan so'ng o'quvchilarga kichik-kichik mavzularda matn tuzish va uni ko'pchilik oldida ifodalay olish ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar navbati bilan shunday chiqishlarni amalga oshirib tursalar va bu ishlar o'qituvchi tomonidan rag'batlantirilib turilsa, o'ylaymizki, o'quvchilarning o'z nutqlariga bo'lgan e'tibori borgan sari ortib boraveradi. Har bir sinf bitiruvchilari o'quv yili oxirida shunday notiqlik chiqishlarini o'qituvchilar, ota-onalar va o'rtoqlari oldida amalga oshirishlari kerak. Bunday notiqlik chiqishlari o'quvchilarning ona tili fanidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholovchi mezonlardan biriga aylanishi kerak. Shundagina o'qituvchi ham, o'quvchi ham nutq malakalarini o'stirishga jiddiy e'tibor bilan qaraydi.

Ona tili o'qitishda hanuzgacha nazariy bilimlarni o'rgatishga keng e'tibor berib kelinmoqda. O'quvchi mashg'ulotda biror nazariy materialni o'rganadi va amaliy ish sifatida berilgan gaplar, matnlar tarkibidan nazariy materialga mos misollarni qidirib topishga yoki misollar tuzishga harakat qiladi. Ko'rinadiki, butun e'tibor nazariy bilimni o'rganishga, mustahkamlashga qaratilgan. Bizning fikrimizcha, nazariy ma'lumotlarga kamroq o'rin berib, amaliy ishlarga kengroq o'rin ajratish kerak. Ona tili darslarida qanday amaliy ishlarni bajarish mumkinligi xususidagi ayrim mulohazalarimizni bayon qilamiz. Biz yuqorida o'quvchilar uchun lug'atlar yaratish lozimligi xususida so'z yuritgan edik. Agar shunday lug'atlar yaratilsa, amaliy ishlarni bajarishga imkoniyatlar ortar edi. O'quvchi o'qituvchi bergan topshiriq asosida sinonim so'zlar lug'atidan berilgan so'zlarning muqobillarini topadi, ularning ma'nolarini izohlaydi, sinonimik qatordan o'rin olgan so'zlarning ma'no jihatdan qanday farqlanishini aniqlaydi va shu so'zlar ishtirokida gaplar yoki matnlar tuzadi. Omonim so'zlar, antonim so'zlar, paronimlar, izohli so'zlar hamda iboralar lug'ati bilan bog'liq holda ham shunday ishlarni amalga oshirish mumkin. Bu orqali ularda so'zning ma'nosini anglashga intilish, to'g'ri yozilishini bilishga ishtiyoq kuchayadi, so'zning ma'nolarini anglagani sari ularning so'z boyligi ham ortib, ijodiy tafakkuri ham rivojlana boradi.

Ona tili mashg'ulotlarida bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlardan yana biri o'quvchilarni maktub yozishga, tug'ilgan kunlarga yoki yubileylarga tabrik nutqlari tayyorlashga, maktab devoriy gazetasiga, gazeta va jurnallarga maqolalar yozishga o'rgatib borishdir. Hozirda umumta'lim maktablarini, akademik lisey va kollejlarni bitirib chiqayotgan o'quvchilarning ko'pchiligi maktub yozish etikasini yaxshi bilmaydi. Maktubni qanday boshlash, qanday fikrlarni bayon qilish, qanday yakunlash malakasi, maktubni savodxonlik bilan yozish masalasi adabiyotimiz tarixidagi epistolyar meros yoki badiiy asarlardagi maktublarni o'rganish, ulardan ulgu olish orqali, o'zlarini ham ana shunday maktublarga yozishga odatlantirish va ularni sinfda muhokama qilish orqali shakllanadi. O'quvchilar navbati bilan o'rtoqlariga, qarindosh-urug'lariga,



olisdagi yaqinlariga, aka-ukalariga, notanish, kelajakka, badiiy asar mualliflariga va qahramonlariga maktub yozishni o'rganadilar. Maktabda yoki lisey va kolleжда o'qiyotgan bola ota-onasining, buvilari va bobolarining, ustozlarining tug'ilgan kunlariga yoki yubileylariga tabrik nutqlari yozish va ularni ko'pchilik omma oldida qanday ifodalab berish malakasiga ega bo'lishi kerak. Buning uchun ular ona tili mashg'ulotlarida shunday tabrik nutqlari tayyorlashlari va ularni ifodalash yo'llarini egallab borishlari kerak. O'quvchilar o'z o'rtoqlarining erishgan yutuqlari, o'tkazilgan tadbirlar, bo'lib o'tgan uchrashuvlar, turli musobaqalar, konkurslar haqida maqolalar tayyorlab borishga o'rgatilsa, ularning yozma nutqlarini o'stirishga katta hissa qo'shilgan bo'ladi.

Ona tili ta'limi oldidagi azaliy muammolardan biri savodxonlik bilan bog'liq. O'quvchilarimizning imloviy savodxonligi talab darajasida emasligi hech kimga sir emas. Albatta, buning bir qator obektiv va subektiv sabablari bor. Ona tili darslari jarayonida imlo qoidalarini o'rgatib borishga yetarli e'tibor berilmayotganligi, ayrim fan o'qituvchilarining mahalliy sheva ta'siridan xalos bo'la olmayotganligi, turli reklama va afishalarda savodxonlik darajasining pastligi, savodsizlik bilan yozilayotgan SMSlarning mavjudligi, o'quvchilarning o'zida xatosiz yozishga ishtiyoqning yetarli emasligini savodxonlikning quyi darajaga tushib qolayotganligiga sabab qilib ko'rsatishimiz mumkin. O'quvchilarda orfografik bilimlarni yaxshilash uchun, birinchi galda, ona tili mashg'ulotlarida lug'atlar bilan ishlash ishlarini keng yo'lga qo'yish zarur, chunki o'quvchi lug'at bilan ishlash jarayonida so'zning yozilishiga e'tibor qaratadi. O'qituvchi vaqti-vaqti bilan o'quvchilarni reklama va afishalar bilan tanishtirib, ulardan xato yozilgan so'zlarni, noto'g'ri tuzilgan gaplarni aniqlab kelishni topshiriq qilib berishi va shunday ishni bajarib kelgan o'quvchilarni rag'batlantirib borishi kerak. Maktablarda vaqti-vaqti bilan savodxonlik bayram va musobaqalarini o'tkazib turish ham orfografik bilimlarni yaxshilashga samarali ta'sir ko'rsatadi. Savodxonlik bayramida eng savodxon o'quvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, savodxonlik bilan yozilgan insho va bayonlar, tabrik matnlari, ona tili va boshqa fanlardan yuritilgan daftarlar namoyish qilinishi zarur. Bularning barchasi qolgan o'quvchilarda savodxonlikka ishtiyoq uygotadi. Kezi kelganda aytib o'tishni joiz deb bilamizki, savodxonlik bayramlarini ommaviy miqyosda o'tkazish lozim, ya'ni savodxonlik masalasiga keng jamoatchilik e'tiborini qaratish zarur. Barcha oliy o'quv yurtlarining talabalari, muassasa va korxonalarning xodimlari bu bayramda o'z diktantlari, esselari bilan qatnashishlari kerak. Yozdirilgan diktant va esse natijalari xodimning maoshiga ta'sir o'tkazishi lozim. Shundagina savodxonlikka ehtiyoj tug'iladi.

Adabiyot o'qitishda ham ana shunday innovasiyalarni topa bilish kerak. Mumtoz shoirlar she'riyatini o'rganishda lug'at bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish, she'r tahlilida lisoniy matn tuza bilish ko'nikmasi nihoyatda zarur. Asar poetikasini o'rganishda shu asar mazmuni va shaklini tizimli tahlil usulida, ya'ni asarning yozilish sababi, unda ko'tarilgan muammo, timsollar tizimi, badiiy vositalarning o'rni va hokazolarni o'rgatib borish kerak.

Shu bilan bir qatorda adabiyot va til ilmining integrasiyasini kuchaytirish kerak. Adabiy matn o'qilayotganida har bir so'zning ma'nosiga, shakliga, kerak bo'lsa, etimologiyasiga o'quvchilar diqqatini torta bilish lozim. Ayniqsa, mumtoz adabiyot namunalari mutolaa qilinganida, undagi eskirgan so'zlar, arabiy va forsiy kalomlardan o'quvchilarni ogoh qilib borish darkor. Masalan, hazrat Alisher Navoiyning



Tuxum yerga tushib chechak bo'ldi,
Qurt jondan kechib ipak bo'ldi.
Lola tuxmicha yo'qmi shiddating,
Ipak qurticha yo'qmi g'ayrating
hikmatidagi "tuxum" so'zi parrandalar beradigan mahsulotga tegishli so'z,
o'simliklarning tuxumi bizning hududlarda "urug'" deyilishini ayrimlar tushunmasligi
mumkin. Yoki Omon Matjonning ushbu

Turnalar uchdi,
Bulutlar ko'chdi.
Og'ochlar bargi
Yerlara dushti

satrlaridagi eski turkiy tilimizga xos "og'och" so'zi "o'sib-yashnab turgan daraxt" ma'nosini berishi va bugunda "og'och (yog'och)" "qurigan daraxt tanasi" ma'nosida istifoda etilishi aytilmasa, o'quvchilarda ikkilanish paydo bo'ladi. Shunday ekan, tolibi ilmlarga bunday so'zlarning denotativ va konnotativ ma'nolarini ham, ular orasidagi tafovutlarni ham anglatish zarur. Qolaversa, tilimizda keng iste'molda bo'lgan arabiy, forsiy so'zlarning xususiyatlarini ham tushuntirib borish lozim. Lug'at fondimizdagi "a'lo", "san'at", "matla'", "matbaa", "oila", "xalq", "sinf", "taajjub" singari so'zlardagi tutuq belgilari, unlilar va ayrimlarida undoshlarning qo'shaloq va ketma-ket kelishlari arab tiliga xos belgilar ekanligini, forsiy so'zlar "daraxt", "go'sht", "baland", "do'st", "baxt" tarzida oxirida qator undoshlarning bo'lishi bilan ajrab turishini, turkiy-o'zbekcha so'zlar "g", "v", "f" harflar bilan boshlanmasligi, "f" harfli so'zlar o'zbekcha bo'lmasligini ham o'quvchilarga anglatib borishi va ularning turkiy tillarda tarixan qanday shakllarda bo'lganligini tushuntirish borish ham tilga muhabbatni oshiradi. Muxtasarini aytganda, ona tili va adabiyotga mehr qo'ymay turib, so'zning ma'no va shakllarini chuqur bilmasdan, uning sehrli olamiga oshufta bo'lmasdan unga tegishli muammolarni hal etib bo'lmaydi.

*Неъматова Дурдона Муротали кизи
Магистрант 1 курса КГПИ*

РАЗВИТИЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ САМООБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема развития грамматических компетенций у студентов в процессе самообразования. Анализируется влияние грамотной речи на развитие коммуникативной компетенции и описывает различные методы развития грамматических навыков, включая работу с лингвистическими материалами и использование современных технологий. Подчеркивается важность стимулирования самостоятельности студентов в процессе изучения грамматики.

Ключевые слова: грамматические компетенции, самообразование, грамматические навыки, коммуникативная компетенция, лингвистические материалы, стимулирование, самостоятельность



Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchilarning o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida grammatik kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi ko'rib chiqiladi. Savodli nutqning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga ta'siri tahlil qilinadi va grammatik ko'nikmalarni rivojlantirishning turli usullarini, shu jumladan, lingvistik materiallar bilan ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tavsif qilinadi. Grammatikani o'rganish jarayonida o'quvchilarning mustaqilligini rag'batlantirish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: grammatik kompetensiyalar, o'z-o'zini tarbiyalash, grammatik ko'nikmalar, kommunikativ kompetensiya, lingvistik materiallar, rag'batlantirish, mustaqillik.

Annotation. This article examines the problem of developing grammatical competences in the process of self-education of students. The author analyzes the impact of literate speech on the development of communicative competence and describes various methods of developing grammatical skills, including working with linguistic materials and using modern technologies. The author emphasizes the importance of encouraging students' independence in the process of learning grammar.

Key words: grammatical competences, self-education, grammatical skills, communicative competence, linguistic materials, motivation, independence.

Грамотность и правильная грамматика являются важнейшими элементами коммуникации в нашем обществе. Хорошо развитые грамматические навыки обеспечивают успешное общение и связь между людьми. В современном мире, где все больше и больше людей общаются на английском языке, важность правильного использования грамматических конструкций только усиливается. Поэтому развитие грамматических компетенций студентов является одной из основных задач образования.

Одним из наиболее эффективных способов развития грамматических компетенций студентов является самообучение. Сегодня студенты имеют неограниченный доступ к информации, лингвистическим ресурсам и технологиям. Они могут использовать всевозможные приложения и программы для самостоятельной работы над грамматическими навыками. Таким образом, студенты могут выявлять свои сильные и слабые стороны, выбирать соответствующие методы исследования и делать выводы. Важно отметить, что самостоятельное изучение грамматики не только увеличивает объем знаний, но также обеспечивает глубокое понимание и использование грамматических конструкций в речи.

Второй способ, который можно использовать для развития грамматических компетенций студентов, заключается в использовании современных технологий. В настоящее время доступны многочисленные компьютерные программы и онлайн-курсы, которые помогают студентам улучшать свои грамматические навыки. Эти программы представляют собой не только возможность попрактиковаться в грамматических конструкциях, но и инструмент для обратной связи, что помогает студентам улучшать свои ошибки.

Наконец, работа с лингвистическими материалами может оказаться очень полезной для развития грамматических компетенций студентов. Чтение



книг, статей, современной прессы и других текстов с последующим изучением их грамматики может значительно повысить уровень знаний студентов в этой области. Также целесообразно использовать качественные учебники с упражнениями, которые позволяют ученикам упражняться в грамматических конструкциях.

Заключение:

В заключении можно сказать, что развитие грамматических компетенций студентов является задачей не только преподавателей, но и каждого студента. Самостоятельность и желание учиться - два главных инструмента развития грамматических навыков. Однако студенты часто нуждаются в стимулировании и поддержке со стороны преподавателей, чтобы достичь максимальных результатов в процессе самообразования.

Список литературы:

1. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
2. Canale, M. (1983). From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy. In J. C. Richards & R. W. Schmidt (Eds.), Language and Communication (pp. 2-28). New York: Longman.
3. Hymes, D. H. (1971). On Communicative Competence. In J.B Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269-293). Baltimore, MD: Penguin Books.
4. Lightbown, P. M., & Spada, N. (2013). How Languages Are Learned. Oxford: Oxford University Press.
5. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford: Oxford University Press.
6. McDonough, J., & Shaw, C. (2003). Materials and Methods in ELT: A Teacher's Guide (2nd ed.). Malden, MA: Blackwell Publishing.





*Исмагилова Гөлшат Рөстәм кызы
Казан (Идел буе) федераль университетының
Алабуга институты студенты.
Фәнни җитәкче: Камаева Р.Б., филология фәннәре докторы,
татар филологиясе кафедрасы профессоры
Турсунова Навруза Эргашбой кызы
Коканд дәүләт педагогика институты студенты.
Фәнни җитәкче: Усманова С.А., филология фәннәре
кандидаты (PhD),
узбек теле кафедрасының өлкән укытучысы*

ӘДӘБИЯТЫ ДӘРЕСЛӘРЕНДӘ СӘНГАТЬ ӘСЭРЛӘРЕН ФАЙДАЛАНУ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИСКУССТВА НА УРОКАХ РОДНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассматривается использование на уроках родной литературы произведений искусства. При ознакомлении с биографиями писателей целесообразно использовать портреты, музыкальные произведения, картины, иллюстрации, связанные с жизнью писателя.

Ключевые слова: урок, произведения искусства, родная литература.

Izoh. Ushbu maqolada adabiyot darslarida san'at asarlaridan foydalanish ko'rib chiqiladi. Yozuvchilarning tarjimai hollari bilan tanishishda yozuvchining hayoti bilan bog'liq portretlar, musiqiy asarlar, rasmlar, rasmlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: dars, san'at asarlari, adabiyot.

Annotation. This article discusses the use of works of art in the lessons of native literature. When getting acquainted with the biographies of writers, it is advisable to use portraits, musical works, paintings, illustrations related to the life of the writer.

Key words: lesson, works of art, native literature.

Язучының тормыш юлын һәм ижатын өйрәнү яшъ буынга белем һәм тәрбия бирү системасында әһәмиятле роль уйный. Язучыларның биографиясен өйрәнүхлак тәрбиясе бирүдә, әдәбият фәне буенча белемнәрен тирәнәйтүдә, камилләштерүдә ярдәм итә.

Әдәбият дәресләрендә язучыларның тормыш юлын, ижатын өйрәнүнең төп юнәлеше, моңа бирелгән вакыт программада күрсәтелгән. Укытучы шуннан чыгып, бу дәресләрне үткәрүнең планын, юлын төзи, өйрәнәсе материалны сайлый, вакыт ягыннан бүлә, метод, алым, формаларны билгели. Методикада әдип ижатын өйрәнүнең инде калыплашкан дип әйтерлек түбәндәге этаплары күрсәтелә: 1) язучының биографиясе, ижаты белән танышу; 2) әсәрне өйрәнүгә бәйле кереш дәрес; 3) әдәби текстны анализлау; 4) йомгаклау [Заһидуллина, 2000: 123]. Әлеге бүленеш вакыт ягыннан шартлы, чөнки ул программада күрсәтелгән сәгатьләр санына карап үзгәрә.

Әдипнең тормыш юлын, шәхесен өйрәнүгә бигрәк тә тиешле игътибарны юнәлтергәкирәк, чөнки укучылар өчен язучылар тарафыннан ижат ителгән аерым әсәрләр генә түгел, бәлки аларның тормыш юллары да үрнәк булуы бәхәссез. Күп авторларның тормышын, шәхес буларак формалашуын, әдәби эстетик



карашлары үзгәрүен күзәтү аларның әсәрләрен аңлауга билгеле бер дәрәжәдә “ачкыч” булып хезмәт итә. Г.Тукай, Г.Исхакый, М.Гафури, Г.Ибраһимов, М.Жәлил, А.Алиш, Ф.Кәрим, Х.Туфан, Ә.Еники кебек сүз осталарының биографияләре балалар өчен аеруча гыйбрәтле. Язучыларның биографиясен өйрәнү яшь буынга тәрбия бирүдә, шул исәптән аларның патриотик, интернациональ тойгыларын тирәнәйтүдә, эстетик зәвыкларын үстерүдә, камилләштерүдә ярдәм итә.

Биография өйрәнүгә, гадәттә, бик аз вакыт бирелә. Шуңа күрә һәр төрле даталарны читкә калдырып, игътибар үзәгенә әдип тормышында әһәмиятле роль уйнаган вакыйга-хәл, кеше һәм язучы буларак характерын ачыклау алынса яхшы. Язучыларның биографияләре белән танышканда, шәхси көндәлекләре, хатлары, истәлекләре, алар турындагы язмалар файдаланыла ала. Бу вакытта язучының портреты, тормышы белән бәйлә музыкаль әсәрләр, картиналар, иллюстрацияләрдән файдалану максатка ярашлы. Бүгенге көндә күпчелек әдипләргә бәйлә истәлекләр матбугатта басылды (мәсәлән, соңгы елларда “Мәйдан” журналының һәр саны нинди дә булса күренекле шәхес ижатына багышлап чыгарыла), ә инде Г.Тукай, Г.Ибраһимов, һ.Такташ, Г.Кутуй, М.Жәлил, Х.Туфан, С.Хәким, М.Мәһдиев, А.Расих, Р.Миңнуллин һ. б. турында аерым китаплар дөнья күрдә.

Язучының әдәби иҗатка килүен күзәтү дә кирәкле һәм мөһим эш төре булып тора. Бу мәсьәләгә дә әдипләрнең автобиографияләре, шәхси истәлекләре ярдәм итә. Г.Камал, Г.Исхакый, һ.Такташ, Х.Туфан, С.Хәким, И.Юзеев, Ә.Еники, Г.Ахунов һ.б. бик күпләрнең әдәбиятка килүенә этәргеч ясаган шартлар, вакыйгалар, кешеләр турында кызыклы материаллар бар. Укытучы алардан максатчан файдалана ала.

Язучының тормыш юлы, дөньяга карашы формалашу, әдәби иҗатка килүе турындагы сөйләшүгә аерым әсәрне өйрәнүгә бәйлә кереш дәрәс ялганып китә. Дәрәсрәге, укыту процессында әлегә ике мәсьәлә күп очракта бер үк дәрәс вакытында тормышка ашырыла. Әсәрне өйрәнүгә әзерлек этабының төп максаты исемгә үк чыгарылган: укучыларны әдәби текстны кабул итәргә әзерләү, ягъни сыйныфта билгеле бер иҗадимохит, эмоциональ халәт тудыру, әсәрне өйрәнүгә кызыксыну уяту. Шуңа да бу этапта әсәрнең язылу, басылу, укучыга килеп җитү тарихы, әсәрнең сәхнә язмышы (драма әсәренең), сурәтләнгән чор, аның тарихи-мәдәни үзенчәлекләре, төрле рәсем-иллюстрацияләр белән танышу, аерым сүзләр, төшенчәләренә аңлату һ.б. эш төрләре үтәлә.

Всыйныфта язучыларның тормыш юлын өйрәнү әңгәмә, мәгълүмат бирү, лекция-әңгәмә, портрет белән эшләү, иллюстрацияләр карау, музыка тыңлау, рәсем ясау, схемалар төзү, һәм башка шундый алымнар ярдәмендә башкарыла. Дәрәснең актив формаларына мөрәҗғәгать итү уңай нәтиҗәләр бирә (дәрәс-экскурсия, дәрәс-сәяхәт, дәрәс-уен, дәрәс-викторина, дәрәс-кичә, дәрәс-аукцион һ. б.)

Алда без V сыйныфта өйрәнелә торган кайбер язучыларның биографияләренең үзенчәлекле якларына тукталып үтәрбез, кереш һәм йомгаклау дәрәсләрендә куллану өчен әһәмиятле өлешләрен аерып күрсәтербез, сәнгәт төрләреннән файдалану мөмкинлекләрен күрсәтербез.



